B.I. NURMUXAMEDOVA

# DAVLAT BYUDJETI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

B.I.NURMUXAMEDOVA

# DAVLAT BYUDJETI

*O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2018

UO'K: 336.14(575.1)(075.8)
KBK: 65.261.3

Taqrizchilar: *i.f.d., prof.* **N.X.Xaydarov;**
*i.f.d., dots.* **D.X.Pulatov**

N[illegible] Davlat byudjeti: O'quv qo'llanma / B. Nurmuxamedova; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. – 576 b.

O'quv qo'llanma oliy ta'limning "Moliya", "Davlat byudjetining g'azna ijroisi", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Pensiya ishi" kabi bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining Davlat ta'lim standartlari, namunaviy rejalari va fan dasturlariga to'liq mos keladi.

O'quv qo'llanma davlat moliyasi va davlat byudjeti to'g'risidagi zamonaviy fan asoslarini o'rganish va keng ko'lamli byudjet muammolarini bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Fan 316

UO'K: 336.14(575.1)(075.8)
KBK: 65.261.3

ISBN 978-9943-11-723-3

© B. Nurmuxamedova, 2018
© "IQTISOD-MOLIYA", 2018

## SO'ZBOSHI

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda "olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida" keng jamoatchilik muhokamasi natijasida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlandi. Harakatlar strategiyasining 4-muhim ustuvor yo'nalishi – "Ijtimoiy sohalarni rivojlantirish" deb nomlanadi va boshqa ijtimoiy ustuvorliklar bilan birgalikda, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishdagi asosiy vazifalarni belgilab beradi. Ushbu vazifalar qatorida "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi" talablariga muvofiq darsliklar va o'quv-metodik adabiyotlar yaratish, tarjima qilish va nashr etish ishlari alohida muhim o'rin egallaydi.

Ushbu yo'nalishdagi vazifalarni bajarish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli qarori bilan belgilab berilgan "yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lim muassasalarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash, shu jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlar sotib olish va tarjima qilish, axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish" borasidagi

dasturiy ko'rsatmalarni amalga oshirish maqsadida Toshkent moliya instituti "Pensiya ishi" kafedrasi pedagog xodimlari tomonidan muayyan yo'nalishdagi ilmiy-uslubiy ishlar olib borilgan: kafedra tomonidan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan "Davlat byudjeti" fani bo'yicha xorijiy adabiyotlar va ularning fan dasturiga mosligi o'rganilgan, tanlangan adabiyotlar kafedra pedagog xodimlari va jalb qilingan mutaxassislar tarkibidan iborat ishchi guruh yordamida sifatli tarjima qilingan, ushbu materiallar asosida takomillashgan O'quv-uslubiy majmua yaratilgan. Olib borilgan ilmiy-uslubiy izlanishlarni umumlashtirgan holda xorijiy adabiyotlarning tarjimasiga asoslangan "Davlat byudjeti" nomli o'quv qo'llanma tayyorlangan.

Bugungi globallashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning milliy ustuvorliklari qatorida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish alohida o'rin egallaydi. Iqtisodiyotning talab va ehtiyojlariga javob berishga qodir bo'lgan oliy ta'lim darajasi, xalqaro standartlar talablariga mos bo'lgan oliy ma'lumotli mutaxassislar mamlakatimiz va jamiyatning uzoq istiqbolda raqobatbardoshligini, aholi farovonligi darajasini belgilab beradi. Zamonaviy o'quv adabiyotlari va ta'lim texnologiyalari esa mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlashning eng muhim va zarur omili bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy talablar asosida yaratilayotgan o'quv adabiyotlari ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ishlashini faollashtirish, o'quv materialining mazmunini boyitish va mustahkamlash, yangi kasbiy bilimlarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi, shu bilan birga, mustaqil fikrlaydigan, iqtisodiy voqelik va hodisalarni to'g'ri baholay oladigan, pozitiv qarorlar qabul qila oladigan mutaxassislarni tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

Mamlakatlar milliy daromadlarining davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanish ko'lamlari oshib borishi munosabati bilan jamiyat davlat daromadlarining shakllanishi, xarajatlarining

samarali ishlatilishi va shaffofligi, davlat byudjetining barqarorligi, davlat qarzining me'yoriy darajada bo'lishi, davlat mablag'larining iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashga safarbar etilishi kabi jarayonlarga jiddiy talablarni qo'ymoqda. Bu holatlar davlat moliyasi va uning tarkibiy qismi bo'lgan davlat byudjeti amal qilishining nazariy, ilmiy, amaliy va tashkiliy-huquqiy jihatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

O'quvchilar e'tiboriga taqdim etilayotgan ushbu o'quv qo'llanmada mualliflar davlat moliyasi tizimi bo'yicha nazariy bilimlar va byudjet amaliyotidagi real jarayonlarni umumlashtirish, tizimlashtirish va mantiqiy uzviylikda bayon qilishga muvaffaq bo'lganlar. O'quv qo'llanmada davlat byudjetining iqtisodiy, moddiy va huquqiy kategoriya sifatida amal qilishining nazariy asoslari, byudjet munosabatlarining namoyon bo'lish shakllari, samarali byudjet-soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, byudjet tizimini boshqarish va ta'sirchan byudjet nazoratini tashkil qilish orqali davlat byudjeti mablag'laridan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

O'quv qo'llanmaning asosiy mavzulari byudjet munosabatlarining xorijiy davlatlarda namoyon bo'lish shakllariga bag'ishlangan xorijiy adabiyotlardagi material-larning ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri tarjimasi asosida keltirilgan. O'quv materialini yanada mukammalroq o'zlashtirish maqsadida mavzuga taalluqli savollar, mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berilgan bo'lib, ularning muntazam bajarib borilishi davlat byudjeti haqidagi bilimlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi hamda o'z-o'zini nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

O'quv qo'llanma oliy ta'limning "Moliya", "Davlat byudjetining g'azna ijrosi", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Pensiya ishi" kabi bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining Davlat ta'lim standartlari, namunaviy rejalari va fan dasturlariga to'liq mos keladi.

O'quv qo'llanma davlat moliyasi va davlat byudjeti to'g'risidagi zamonaviy fan asoslarini o'rganish va keng ko'lamli byudjet munosabatlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

**i.f.d., prof. N.X.Xaydarov**

## KIRISH

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi hamda tashqi iqtisodiy munosabatlarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri davlat moliyasini boshqarishning mazmuni va sifatiga butunlay yangicha talablarni qo'ymoqda. O'z navbatida, davlat iqtisodiy tizimining holatini belgilab berishda davlat moliyasi muhim o'rin egallaydi. Dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga qo'ygan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining bir qator mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'siri byudjet-soliq siyosatining imkoniyatlariga kompleks baho berish, barcha turdagi resurslardan samarali foydalanish va o'rta muddatli kelajakda ularning samaradorligiga erishish maqsadida davlat byudjetining imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, uzluksiz iqtisodiyot taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan, oshkoralik, barqarorlik va unumdorlik tamoyillariga asoslangan, xalqaro amaliyotning eng sara andozalariga mos keladigan ishonchli usullarini ishlab chiqish va ulardan maqsadli foydalanish vazifalarini bal qilishni talab etadi.

Davlatning qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida va to'liq bajarish ma'lum moliyaviy asosni talab etadi, ushbu asosning markaziy bo'g'inini davlat byudjeti tashkil etadi. Bu borada byudjet islohotlari doirasida amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar, xususan, byudjet qonunchiligini takomillashtirish doirasida yangi tahrirdagi Soliq Kodeksining va mutiaqo yangi Byudjet Kodeksining qabul qilinishi, davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmlarining bosqichma-bosqich byudjet amaliyotiga tatbiq etilishi, davlat xaridi tizimining tashkil etilishi va byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlaydigan samarali mexanizmlarining ishlab chiqilishi, byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish va byudjet mablag'larini maqsadli sarflashda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish elementlarining joriy qilinayotganligi kabilar

davlat byudjetining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin egallab turganligidan dalolat beradi. Shu sababli davlat moliyasi nazariyasi va amaliyoti to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlar hugungi kunda har qachongidan ham ko'proq dolzarblik kasb etmoqda va ilmiy doiralarda qizg'in munozaralarning mavzusiga aylanib bormoqda.

Shu ma'noda etiboringizga taqdim etilayotgan o'quv qo'llanmada byudjet tizimi va byudjet tuzilishining jahon amaliyotida tarkib topgan modellari, byudjet munosabatlarini tasbkil qilishning huquqiy asoslari, davlat byudjetini boshqarish, tartibga solish, byudjet jarayonini samarali tasbkil etish masalalari, byudjet daromadlari va xarajatlari tizimi, davlat byudjetining boiatlari va byudjet taqchilligi, turli soha va tarmoqlardagi byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va tegishli byudjet pog'onasidan moliyalashtirish asoslari, shuningdek, byudjet nazoratini tashkil qilish masalalari fanning o'quv dasturiga kirgan mavzular doirasida bayon qilingan.

O'quv qo'llanmaning ushbu sohaga taalluqli bo'lgan boshqa o'quv adabiyotlaridan farqi va ustunligi shundaki, unda birinchidan, O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetidan amalga osbiriladigan xarajatlar, ularning gurublanisbi, xizmatlarining xususiyatlari va turlariga ko'ra byudjet tasbkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirisb tartiblari batafsil bayon qilingan, ikkinchidan, qo'llanmada mamlakatimizning byudjet qonunchiligida, moliya-byudjet amaliyotida, byudjet tizimining tarkibiy tuzilishida, uni boshqarish tizimida, davlat byudjeti ijrosini tasbkil qilishda va boshqa sobalarda oxirgi yillarda sodir bo'layotgan o'zgarisblar tegishli qonun hujjatlari, ilmiy isblanmalar va davlatimiz rahbari Muhtaram Prezidentimiz Sb.Mirziyoyevning turli soha va yo'nalishdagi ma'ruzalariga havolalar qilingan holda batafsil bayon qilingan, uchinchidan, har bir mavzu xorijiy

adabiyotlardagi materiallarning, xususan, "Public budgeting systems" nomli qo'llanma[1] tarjimasi bilan boyitilgan.

Oliy ta'limning "Moliya", "Davlat byudjetining g'azna ijrosi", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Pensiya ishi" kabi bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining talabalari uchun mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llanmaning davlat moliyasi va byudjet tizimi bo'yicha nazariy bilimlarni egallashlarida boshqa ta'lim yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalarga ham ishonchli yordamchi bo'ladi hamda oliy ta'lim tizimi professor-o'qituvchilari uchun dasturul amal bo'lib xizmat qiladi, deb umid bildiramiz.

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya instituti rektori professor N.Xaydarovning umumiy rahbarligi ostida "Pensiya ishi" kafedrasi professor-o'qituvchilarining ijodiy hamkorligida tayyorlandi. O'quv qo'llanmaning yaratilishiga hissa qo'shgan barcha professor-o'qituvchilarga hamda taqrizchilar – i.f.d., prof. N.Xaydarov va i.f.d., dots. D.Pulatovga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz, shuningdek, qo'llanmaning shakli va mazmunini yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

[1] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.

# 1-BOB. "DAVLAT BYUDJETI" FANIGA KIRISH

## 1.1. "Davlat byudjeti" fanining predmeti, tarkibiy tuzilishi, maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash, iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish va liberallashtirish sharoitida davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat byudjeti alohida o'rin egallaydi. Davlat byudjeti davlatning qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa funksiyalarini amalga oshirishning moddiy-moliyaviy asosini tashkil etadi va mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlari bilan byudjet-moliya qonunchiligi bilan tartibga solinadigan muayyan munosabatlarga kirishadi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor vazifalarini bajarish, iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish sharoitida davlat byudjetining amal qilish mexanizmlarini puxta o'rganish har qanday [illegible] dolzarldir. Davlat moliyasini boshqarish tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislardan byudjet munosabatlarini to'g'ri va samarali tashkil etish masalalarini puxta bilish va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llay olish talab etiladi. Shu sababli bakalavriatning bir qator ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasiga "Davlat byudjeti" nomli fan kiritilgan bo'lib, ushbu fan dasturida davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati, iqtisodiyotni tartibga solish va davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati, byudjet tizimi va byudjetlararo munosabatlar tamoyillari, byudjet daromadlari va xarajatlari tizimining amal qilish mexanizmlari, byudjet jarayoni va byudjet nazoratni

tashkil qilish, xorijiy davlatlar byudjet tizimi va byudjet jarayonini tashkil etish masalalari qamrab olingan.

Davlat byudjeti davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati bevosita davlatning ijtimoiy-iqtisodiy funksiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarni, ijtimoiy sohalar va tarmoqlar faoliyatini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda davlat byudjeti asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Davlat byudjetini boshqarish va tartibga solishda, mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, har bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy dastaklari qatori davlat byudjeti ham muhim ahamiyat kasb etadi, bu vazifalarning samarali ijrosi davlat byudjeti amal qilishining tegishli mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda qo'llash bilan ta'minlanadi.

"Davlat byudjeti" fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, amaliy topshiriqlar va keyslardan foydalaniladi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'qitishning interaktiv usullari(vizual, muammoli, mualliflik ma'ruzalari, ikki tomonlama tahlil, insert, klaster, "Venn diagrammasi" va boshqalar)dan foydalanish mumkin. Fan o'qituvchisi tomonidan pedagogik va modulli texnologiya tamoyillari asosida "Davlat byudjeti" fani o'quv mashg'ulotlarining loyihalari ishlab chiqiladi. Amaliy mashg'ulotlarda muammoni jamoaviy tarzda hal etishning usullari va vositalari: aqliy hujum, bahs, muzokaralar, pinbord texnikasi, keys-stadi (muammoli vaziyat hosil qilib, uni yechishni o'rganish) kabi usullar qo'llaniladi, amaliy topshiriqlar, mashqlar, masalalar yechiladi, tahliliy ishlar bajariladi.

"Davlat byudjeti" fanining o'rganish predmetini davlatning markazlashgan pul fondi bo'lgan davlat byudjetining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlar tashkil qiladi. Bu munosabatlar kopqirraliligi, davlat boshqaruvining turli darajalarida (mamlakat miqyosida, hududiy va mahalliy darajada) sodir bo'lishi, subyektlarning ko'pligi hamda harcha jamiyat a'zolari va aholining turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlari bilan kesishishi bilan xarakterlanadi.

*Fanni o'qitishdan maqsad* – talabalarda davlat byudjetining shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni shakllantirish va chuqurlashtirishdan iborat.

*Fanning asosiy vazifasi* – talabalarning davlat byudjeti borasida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuvi hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. *Talaba:*

– davlat byudjetining mohiyati, zarurligi va funksiyalari, byudjet tizimi, byudjet tuzilishi, byudjet siyosatining mazmuni, vazifalari, rivojlanish bosqichlari, byudjet tizimini boshqarish va tartibga solish asoslari, xorijiy mamlakatlar byudjet tizimi va byudjet jarayoni, byudjet daromadlari va xarajatlari tarkibi va tuzilishi, byudjet daromadlarining shakllanish manbalari, byudjet xarajatlarining tarkibi va tuzilishi, respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasidagi byudjetlararo munosabatlarning shakllari, byudjet munosabatlarini tashkil etish shakllari haqida *tasavvurga ega bo'lishi;*

– davlat byudjeti rivojlanishining qonuniyatlarini, davlat byudjeti holatini baholash va tahlil qilishni, byudjet istiqholini belgilash asoslarini, byudjet jarayonining tashkil etilishi va o'ziga xos xususiyatlarini, O'zbekiston Respublikasining moliya byudjet qonunchiligi asoslarini, byudjetning g'azna

ijrosini tashkil etish nazariyasi va amaliyotini, byudjet tizimini tashkil etish tamoyillarini *bilishi va ulardan foydalana olishi;*

– byudjet ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitobini tuzish, byudjet ijrosi yakunlarini tahlil etish, byudjet tizimi va byudjet tuzilishi, byudjet nazorati, byudjet mablag'lari oluvchilar va byudjet tashkilotlari majburiyatlarini bajarish, byudjet tizimi byudjetlari faoliyatini tartibga solish, byudjet ijrosi va byudjet tashkilotlari smetalari ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish va tahlil etish bo'yicha *ko'nikmalarga ega bo'lishi;*

– davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish va tahlil etish, ijro natijalarini hisob kitob qilish, byudjet munosabatlarini tashkil qilishda axborot tizimlaridan foydalanish, byudjet amaliyotiga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlardan maqsadga muvofiq foydalanish, davlat byudjetining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha *malakalarga ega bo'lishi kerak.*

## 1.2. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari

Har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun samarali faoliyat qiluvchi davlat zarur. Davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me'yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o'z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Shu vazifalardan kelib chiqqan holda davlatning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat (1.1-rasm):




1.1-rasm. **Davlatning asosiy funksiyalari**

Davlat yuqorida hayon qilingan o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi, shuningdek, mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida dolzarb bo'lgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i obyektiv zaruriyatdir. Aynan shu obyektiv zaruriyatning mavjud bo'lishi *davlat byudjetining* mavjud bo'lishini va amal qilishini taqozo etadi.

Iqtisodiy ilm ahllari orasida o'zining teran ilmiy qarashlari, moliya, soliq, sug'urta, davlat byudjeti kabi iqtisodiy kategoriyalarning mazmun-mohiyati, funksiyalari, kishilik taraqqiyotidagi o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati, amaliyotda namoyon bo'lish shakllari to'g'risidagi fundamental ilmiy tadqiqotlari va o'quv-uslubiy ishlanmalari bilan tanilgan o'zbek iqtisodchi olimlari i.f.d., professor T.Malikov va i.f.d., professor N.Xaydarovlarning "Davlat byudjeti" nomli o'quv qo'llanmalarida "davlat byudjeti" tushunchasi haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: "Davlat byudjeti kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida paydo bo'lgan bo'lib, uning vujudga kelishi, eng avvalo, siyosiy tashkilot sifatida davlatning vujudga kelishi bilan bevosita

bog'liqdir. Har bir davr ijtimoiy tuzumiga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlarining asosiy belgilari davlat faoliyatining va byudjetning taqsimlash mexanizmi sifatidagi mazmunini belgilab beradi"[2].

Turli davrda va turli iqtisodiy maktab vakillari tomonidan yaratilgan darslik va ilmiy adabiyotlarda "davlat byudjeti" tushunchasining turlicha talqini keltiriladi. Ayrim adabiyotlarda davlat byudjetiga "davlat daromadlari va xarajatlari yozilmasi" sifatida ta'rif berilsa, boshqalarida "davlatning asosiy moliyaviy rejasi" deb ta'riflanadi, uchinchilari esa "markazlashgan pul fondini shakllantirish va ishlatish shakli" deb qaraydilar.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarning har biri davlatning muayyan funksiyalarini bajarish maqsadida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularda jamlangan moliyaviy resurslarni sarflash bilan bog'liq munosabatlarning u yoki bu jihatini aks ettiradi.

Davlat byudjetining mazmunini yoritishga yuqorida nomi keltirilgan o'quv qo'llanmada "Davlat byudjeti, deyilganda eng avvalo, ikki tushunchaning qo'shilishini tushunmoq kerak: birinchisi davlat miqyosida yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlash natijasida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar (iqtisodiy kategoriya) va ikkinchisi shu kategoriyaning namoyon bo'lish shakli sifatida davlatning asosiy moliyaviy rejasi"[3], - deb izoblangan.

Xorijiy adabiyotlardagi "davlat byudjeti" tushunchasining talqiniga nazar tashlasak, masalan, "Public budgeting systems"[4] nomli qo'llanmada keltirilishicha, "davlat byudjetining kelib chiqishi, rivojlanishi va isloh qilib borilishi davlat boshqaruvidagi rasmiy shaxslarni o'z xatti-harakatlari uchun

---

[2] Malikov T.S., Xaydarov N.X. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD MOLIYA", 2007. 5 bet

[3] Malikov T.S., Xaydarov N.X. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD MOLIYA", 2007. 5-bet

[4] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.

javobgarlik va mas'uliyatga chaqirishga bo'lgan intilish bilan bog'liq"[5]. "Demokratik jamiyatda byudjet – bu hukumatning kuch va imkoniyatlarni cheklash, bir qolipga solish vositasi sifatida qaralishi mumkin"[6].

Keltirilgan ta'riflar va qarashlarni inkor etmagan holda shuni ta'kidlash o'rinliki, bir qator ilmiy adabiyotlarda davlat byudjetining *ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini* yoritishda uning:




1.2-rasm. **Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati**[7]

- iqtisodiy kategoriya sifatida;
- moddiy tushuncha sifatida;
- huquqiy kategoriya sifatida mavjud ekanligi va amal qilishi nazarda tutilgan (1.2-rasm).

---

[5] White, M. (1978). Budget policy: where does it begin and end? Governmental Finance, 7, 2 9. Credits

W. F. Willoughby's The problem of a national budget (1919) with an early statement of budgeting as a process for holding government accountable.

[6] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 7

[7] Nurmuxamedova B.I., Kabirova N.V. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD MOLIYA. 2017. 102-bet.

*Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti* – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning, uning faol qismi bo'lgan milliy daromadning (qisman milliy boylikning) qiymatini qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimi bo'lib, ular natijasida iqtisodiyotni, ijtimoiy-madaniy sohalarni, mudofaa, davlat boshqaruvi va boshqa davlat ehtiyojlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan pul fondi – *davlat byudjeti* shakllanadi va maqsadga muvofiq tarzda ishlatiladi.

*Moddiy tushuncha sifatida davlat byudjeti* – markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyatlar faoliyatini ta'minlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga mo'ljallangan markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidir.

*Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti* – markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashgan pul mablag'lari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni ko'zda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik hujjatdir. Yuridik hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda har moliya yili[8] uchun tuziladi, ko'rib chiqiladi, tasdiqlanadi va ijro etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 3-moddasida esa "Davlat byudjeti" iborasi "davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasi"[9] deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rif davlat byudjetining yuqorida sharhlangan moddiy tushuncha sifatidagi mazmun-mohiyatiga mos keladi.

---

[8] O'zbekiston Respublikasida moliya yili kalendar yiliga mos keladi, lekin dunyo mamlakatlarida ularning an'analari va mamlakat hayotidagi muhim, hal qiluvchi tarixiy sanalariga muvofiq, byudjet yili kalendar yiliga mos kelmasligi mumkin.

[9] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360 son, 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y. 52-son, 645 modda.



Библиотека ТДЮИ 31,05

"Public budgeting systems" nomli qo'llanmada "davlat byudjeti nima?" deb qo'yilgan savolga "Sodda qilib ta'riflaganda, byudjet – bu tashkilotning (masalan, oila, korporatsiya, hukumat) moliyaviy holati va kelgusi rejalarini, ya'ni daromadlar, xarajatlar rejasi, maqsadlar va natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi hujjat yoki hujjatlar yig'indisi"[10], deb ta'rif berilgan. Retrospektiv xarakterga ega bo'lgan, ya'ni o'tgan davr ma'lumotlarini aks ettirishga asoslangan buxgalteriya hisobotidan farqli o'laroq, (garchi byudjet ishlab chiqilayotganda byudjetning o'tgan davrdagi daromadlari va xarajatlari jrosining buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanilsada) byudjet – kelgusida kutilayotgan daromadlar, xarajatlar va natijalarni ko'rsatuvchi perspektiv hujjat hisoblanadi. Tarixan, *byudjet* so'zi charm karmon, hamyon, sumka ma'nosini anglatgan. Xususan, "Britaniya davlatida Xazma kansleri (Moliya vaziri) hukumatning ehtiyojlari va resurslari hajmi aks etgan bayonotini mamlakat parlamentiga charm sumkada taqdim etgan va bu hujjat keyinshalik "byudjet" nomini olgan"[11].

Davlat byudjetining mohiyati uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi *funksiyalarida* namoyon bo'ladi. Turli davr va turli maktab iqtisodchilari davlat byudjetining funksiyalarini yoritishga turlicha yondoshadilar. Masalan, T.Malikov, N.Xaydarov hammuallifligidagi "Davlat byudjeti" nomli o'quv qo'llanmada davlat byudjetining funksiyalari quyidagi tarzda bayon qilingan: "Davlat byudjeti moliyaning tarkibiy qismi sifatida, uning boshqa bo'linmalari singari, ikki xil funksiyani bajaradi: 1) taqsimlash; 2) nazorat."[12]

Bu va shu kabi boshqa adabiyotlarni o'rganish asosida, davlat byudjetining amalda namoyon bo'lish shakllarini o'rgangan hamda ko'pchilik iqtisodchi olimlarning fikriga

---

[10] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 14

[11] Burkhead, J. (1956). Government budgeting. 2.

[12] Malikov T.S., Xaydarov N.X. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2007. 5-bet

qo'shilgan holda davlat byudjeti quyidagi *asosiy funksiyalarni* bajaradi, deyishimiz mumkin (1.3-rasm):




1.3-rasm. **Davlat byudjetining funksiyalari**[13]

yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funksiyasi;
- iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funksiyasi;
- ijtimoiy funksiyasi;
- nazorat funksiyasi.

*Yalpi ichki mahsulot qiymatini qayta taqsimlash funksiyasi.* Davlat byudjeti mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiga kiruvchi milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda o'zining qayta taqsimlash funksiyasi bilan ishtirok etadi. Bunday qayta taqsimlash jarayonlari natijasida

[13] Nurmuxamedova B.I., Kahirova N.V. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. 104-bet.

yaratilgan YaIMning qiymatidan to'lanadigan soliqlar va soliq xarakteridagi boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi asosida byudjet daromadlari shakllanadi. Byudjet daromadlari davlat markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi sifatida davlatning funksiyalarini bajarish uchun sarflanadi. Ular pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoridagi markaziy va mahalliy byudjetlarga kelib tushadi. O'zbekiston Respublikasida har yili davlat byudjeti orqali mamlakat YaIMining 18-20 foizi qayta taqsimlanadi. Davlat maqsadli jamg'armalari bilan birga hisoblaganda esa bu ko'rsatkich bugungi kunda 34-35 foizni tashkil etmoqda.

*Iqtisodiyotni tartibga solish va boshqarish funksiyasi.* Soliqlar va byudjet xarajatlari orqali byudjet iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi va muhim quroli bo'lib xizmat qiladi. Bunda byudjet mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning ilg'or tarmoqlari – aviasozlik, kosmik dasturlar va loyihalar, atom sanoati, energetika va mashinasozlik sanoatlari kabilar qo'llab-quvvatlanadi. Samaradorligi yuqori bo'lgan va o'zini tez qoplovchi loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ham muhimdir. Lekin davlat byudjetining bu funksiyasidan orqada qolayotgan va qoloq ishlab chiqarishlarga moliyaviy yordam berish kabi o'tmishda mavjud bo'lgan va o'zini oqlamagan maqsadlarda foydalanish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jiddiy putur yetkazishini unutmaslik lozim.

*Davlat byudjetining ijtimoiy funksiyasi.* Davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda davlat byudjeti katta o'rin egallaydi. Davlatning ijtimoiy kafolatlari doirasidagi xizmatlarni ko'rsatadigan ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat sohalarini mablag' bilan ta'minlash, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini (pensionerlar, nogironlar, bolalar,

kam ta'minlangan oilalar) ijtimoiy himoya qilish – ijtimoiy siyosatning ustuvorliklari hisoblanadi. Bundan tashqari fan va madaniyat sohalari ham keng ma'noda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi muhim komponentlaridan biridir, bu horada jamiyat a'zolarining imkoniyatlarini rivojlantirish taraq-qiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shunday ekan, bu yo'nalishdagi davlat tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat byudjetining ijtimoiy funksiyasi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

*Davlat byudjetining nazorat funksiyasi* orqali byudjet daromadlarining shakllanishi, byudjet mablag'larining oqilona va maqsadga muvofiq ishlatilishi, byudjetdan mablag' oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan byudjet qonunchiligiga rioya qilish holati, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanish va qayta taqsimlanish nisbatlari nazorat qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi va ishlatilishi ustidan nazoratning zarurligi va ahamiyati yanada ortib bormoqda.

"Public budgeting systems" nomli qo'llanmada: "byudjet hujjatlari aniq yuridik maqomga ega bo'lmasligi ham mumkin. Federal hukumat darajasida byudjet cheklangan yuridik maqomga ega bo'lib, u prezidentning Kongressga taqdim qiladigan rasmiy bayonoti hisoblanadi, lekin u hukumatning keyingi harakatlarini belgilab beruvchi rasmiy hujjat emas"[14], deb ta'riflangan. AQSHning rasmiy operativ byudjeti esa bir nechta hujjatlar majmuasidan, xususan, ajratmalar to'g'risidagi qonunlardan (Appropriation Acts) iborat bo'ladi. Aksincha, munitsipal tuzilmalarning merlari tomonidan taklif qilingan mahalliy (munitsipal) byudjetlar munitsipal kengashlar tomonidan rasman qabul qilingan operativ ishchi byudjet sifatida amal qiladi.[15]

---

[14] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 15

[15] Bland, R. (2007). A budgeting guide for local governments (2nd ed.). Washington, DC: International City Management Association.

Boshqa hollarda hukumatning bir qator byudjet hujjatlari mavjud bo'lishi mumkin (yagona byudjet o'rniga). Bu hujjatlar tarkibiga (1) asosiy joriy xarajatlarni aks ettiruvchi operatsion byudjet; (2) yirik qurilish loyihalarini o'z ichiga olgan kapital byudjet; (3) aniq daromad manbalari hisobidan moliyalashtiriladigan dasturlar uchun mo'ljallangan maxsus moliyaviy fondlar. Masalan, maxsus fondlar byudjetlari benzin va avtotransport shinalarini sotishdan tushgan maxsus soliqlar hisobidan shakillanishi va avtomagistrallarni rekonstruksiya qilish va ularga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq dasturlarga yo'naltirilishi mumkin. Yoki boshqa bir misol: baliq tutish va ov qilish uchun litsenziyalardan yig'imlar evaziga shakllanadigan maxsus fondlar ov qilishga mo'ljallangan suv havzalari va hududlarini muhofaza qilish va sog'lomlashtirishga yo'naltiriladi.

Byudjet hujjatlarining hajmlari ham xilma-xil bo'lib, odatda, byudjet daromadlariga qaraganda byudjet xarajatlari to'g'risidagi axborotlarni o'zida aks ettiradi. Byudjetlarning xarajatlar qismi ko'pmaqsadliligi bilan ajralib turadi, shu sababli byudjetni aks ettiruvchi biron bir hujjat byudjetning funksiyalari yoki uning ishlatilish shakliari to'g'risida to'liq xulosa chiqarishga asos bo'la olmaydi. Umumiy jihatdan qaraganda, byudjetlar (1) xarajatlar bayoni sifatida, (2) xarajatlarning tavsilotlari sifatida, (3) ustuvorliklar va maqsadli vazifalar bayoni sifatida qaralishi mumkin.[16]

"Public budgeting systems" nomli qo'llanmada ta'kidlanishicha, davlat sektorida byudjetlashtirish maqsadlar va ularga yetishish uchun zarur mablag'lar o'rtasida bog'liqlikka erishishni nazarda tutadi. Davlat sektoridagi byudjet munosabatlarida qo'llaniladigan mezonlar xususiy sektordagi byudjetlashtirish mezonlaridan bir qadar farq qiladiki, buning asosiy sababi – davlat darajasida byudjet masalalarida qabul qilinadigan qarorlar, xususiy sektordan

[16] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 15

farqli o'laroq, diqqat markaziga foyda olish va samara ko'rish maqsadlarini qo'ya olmaydi. Xususiy sektorda esa byudjetlashtirish jarayonining asosiy maqsadi uzoq muddatli daromadlilik va foydalilikni ko'zlaydi va firmaning uzoq istiqboldagi moliyaviy holatini ta'minlashga qaratiladi.

Xorijiy davlatlarda davlat darajasida byudjetlarni tuzish hukumatlarning o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatlarini oshirish vositasi sifatida yuzaga keldi. Byudjet protseduralari (tartib-taomillari) shunday ishlab chiqiladiki, hukumatlar jamoatchilik oldida, ijroiya hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyat oldida hisobdor bo'ladilar. Federal byudjet defitsiti va davlat qarzining o'sib borishi, ayrim munitsipal byudjetlarning nobarqaror holatlari borasidagi xavotirlik hukumatlarni davlatning uzoq muddatli moliyaviy ahvoli uchun javobgarlikka tortish vositasi sifatida byudjetdan foydalanishni taqozo etdi. Mamlakat fuqaroleri tobora ko'proq o'z hukumatlaridan mamlakatdagi moliyaviy holat, to'langan soliqlarning sarflanishi va davlatning boshqa dasturlarining moliyaviy ta'minlanishi to'g'risida hisob berishlarini talab qila boshladilar. Bunday sharoitda byudjetni tuzish, uni keng jamoatchilikka e'lon qilish va byudjetning ijrosi bo'yicha soliq to'lovchilarga hisob berish masalasi byudjet islohotlariga asos bo'lib xizmat qilgan.[17]

Xulosa qilib aytganda, davlat o'z funksiyalarini bajarishi shuningdek, taraqqiyotning u yoki bu bosqichida uning oldida turgan strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i obyektiv zaruriyatdir. Shu bilan birga mablag'larni davlat moliyasi orqali qayta taqsimlash ko'lami ko'p jihatdan mamlakat iqtisodiyotining holati va rivojlanish darajasiga, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashish ko'lamlariga, ijtimoiy sohadagi davlatning majburiyatlari ko'lamiga, aholini davlat tomonidan qo'llab-

[17] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 21.

quvvatlash dasturlarining qamrovliligiga bog'liq. Milliy iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda, har bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy dastak-vositalari qatori, davlat byudjeti ham muhim ahamiyat kasb etadi va muayyan vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning samarali bajarilishi esa tegishli byudjet mexanizmining ishlab chiqilishini va samarali ishlashini taqozo etadi.

### 1.3. Davlat byudjetining mamlakat moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlari

Davlat moliyasi davlatning markazlashgan pul daromadlarini shakllantirish va ulardan o'z funksiyalarini to'laqonli bajarish maqsadida turli yo'nalishlarda foydalanish bilan bog'liq munosabatlar yig'indisidir. Bu munosabatlarning turli-tumanligi asosida davlat moliyasining bir qator aniq tashkiliy shakllari shakllanadi. Bular:

- davlat byudjeti;
- davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari;
- davlat krediti;
- davlat korxonalari moliyasi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra *davlat moliyasi* – davlatning va uning mulkidagi davlat korxonalarining ixtiyorida moliyaviy resurslarning shakllanishi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, jamiyat a'zolarining ortib borayotgan ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish, mamlakat mudofaasi va davlat boshqaruvini ta'minlash bo'yicha xarajatlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash asosida sodir bo'ladigan pul munosabatlari yig'indisidir.




1.4-rasm. **Mamlakat moliya tizimining tarkibiy tuzilishi**[18]

Davlat moliyasi sohasida sodir bo'ladigan pul munosabatlarining subyektlari bo'lib davlat (hukumatning tegishli organlari timsolida), yuridik shaxslar (korxona va tashkilotlar timsolida) va jismoniy shaxslar ishtirok etadilar.

Davlat moliyasining iqtisodiy mazmuni bir xilda emas: uning tarkibida alohida bo'g'inlarni ajratib ko'rsatish mumkin, ularning har biri o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Davlat moliyasining tarkibiga quyidagilar kiradi: davlat byudjeti, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari, davlat krediti, davlat korxonalari moliyasi (1.4-rasmga qarang). Har bir bo'g'inning turlicha funksional tayinlanishga ega ekanligidan ko'rish mumkinki, davlat keng miqyosdagi

[18] Nurmuxamedova B., Kabirova N. "Moliya", O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2017. 28-b.

iqtisodiy-ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadi, tarmoq va hududiy muammolarni hal qiladi.

Davlat moliyasining hosh va markaziy bo'g'ini davlat byudjetidir. Davlat byudjeti – davlatning markazlashgan pul fondi bo'lib, asosan yuridik va jismoniy shaxslarning soliqlari va majburiy to'lovlari evazlga sbaklianadi va davlatning turli vazifalari va funksiyalarini moliyaviy ta'minlashga yo'naltiriladi.

Davlat byudjeti davlatning qonun kuchiga ega bo'lgan asosiy moliyaviy rejasi bisohlanadi. Davlat byudjeti hokimiyatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilinadi.

Davlat moliyasining ahamiyat jihatdan muhim bo'g'inlaridan yana biri - *davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari* bo'lib, ular jamiyatning ayrim ehtiyojlarini mablag' bilan ta'minlash maqsadida davlat tomonidan jalb qilingan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ishlatish shakli hisohlanadi. Bu fondlarning asosiy tayinlanisbi maxsus maqsadli ajratmalar va boshqa qator manbalar hisobidan davlatning aniq maqsadli tadbirlarini moliyalashtirishdan iborat.

Byudjetdan tashqari maqsadli fondlarning turlari, maqsadli tayinlanishi, ularga egalik qilish huquqi, amal qilish davomiyligi turlicha bo'lishi mumkin. U yoki bu fondni tuzish to'g'risida qaror qabul qilishda davlat va jamiyat taraqqiyoti oldida turgan vazifalarning ustuvorligi mubim ahamiyatga ega.

Davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalashgan fondlar davlat maqsadili jamg'armalari deb yuritiladi. Bu fondlarnmg xususiyati shundaki, davlat byudjetida defitsit yuzaga kelganda ularning ijobiy qoldig'i byudjet defitsitini qoplashga safarbar etilishi mumkin. Shuningdek, byudjetdan tashqari fondlarning joriy faoliyatida kassaviy uzilishlar bo'lgan hollarda davlat byudjetidan byudjet dotatsiyalari berilishi yoki bosbqa shakldagi moliyaviy yordam ko'rsatilishi mumkin.

*Davlat krediti* – davlat bilan (uning hokimiyat va ijroiya organlari timsolida) yuridik va jismoniy shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro moliya-kredit tashkilotlari o'rtasidagi muddatlilik, qaytishlilik va to'lovlilik asosida pul mablag'larining harakati bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Bu munosabatlarda davlat qarz oluvchi, qarz beruvchi (kreditor) yoki olingan (berilgan) qarzlar bo'yicha garant (kafil) silatida ishtirok etadi.

*Davlat korxonalari moliyasi* davlat moliyasining o'ziga xos bo'g'ini bo'lib, bunda u YAIMning birlamchi taqsimotida bevosita ishtirok etadi. Davlat korxonasi ustav kapitalining shakllanishida byudjet mablag'lari, davlat mulkifagi boshqa korxonalarning badallari, markazlashgan fondlar hamda vazirliklar, mahkamalar, uyushmalar qoshida tuziladigan zaxira mablag'lari asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatning moliya tizimida davlat byudjeti markaziy o'rin egallaydi. Markazlashtirilgan pul fondini shakliantirish orqali davlatning qo'lida katta hajmdagi moliyaviy resurslar to'planadi va ular umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga sarf etiladi. Davlat byudjeti umumdavlat manfaatlarini inobatga olgan holda iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari uchun moliyaviy resurslarni jamlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ustuvor yo'nalishlar uchun davlat byudjeti yordamida moliyaviy resurslarni jamlash bir necha usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ayrim hollarda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash maqsadida byudjet ajratmalarining hajmi oshiriladi. Boshqa hollarda esa, o'sha sektorlardan mablag'larni davlat byudjetiga olishda qulay sharoit yaratiladi.

Davlat byudjeti iqtisodiyotning alohida tarmoqlarining rivojlanishida asosiy manba rolini ham o'ynashi mumkin. Masalan, ilmiy-texnika taraqqiyoti asosida milliy iqtisodiyotda yangi tarmoq vujudga kelayotgan bo'lsa, uning paydo bo'lishini

hozirgi sharoitda byudjetdan moliyalashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Faoliyat ko'rsatayotgan subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda byudjet katta ahamiyat kasb etadi. Turli obyektiv va subyektiv omillarning ta'siri ostida ayrim subyektlarning o'z moliyaviy resurslari ularning sog'lom faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli bo'lmay qolganda chetdan mablag' jalb qilishga ehtiyoj tug'iladi. Bunday sharoitda davlat byudjeti tartibga soluvchi manba sifatida maydonga chiqishi mumkin. Albatta, bunday hollarning barchasida davlat byudjeti mablag'laridan iqtisodiy subyektlarning o'z manbalari, tarmoq ichidagi resurslar, bank kreditlaridan so'ng oxirgi tartibga soluvchi manba sifatida foydalaniladi.

Iqtisodiy subyektlar faoliyatini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda davlat byudjetining tartibga soluvchi roli quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

– moliyaviy resurslarga bo'lgan yangi talabni kelgusi byudjet yilida byudjetning xarajatlari tarkibiga kiritish;

– moliyaviy resurslarga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojni mavjud byudjet resurslarini bir obyektdan ikkinchisiga o'tkazish yo'li bilan qondirish. Bunday imkoniyatning mavjudligi amaliyotda ayrim subyektlarning o'zlariga taqdim etilgan moliyaviy resurslarni to'liq o'zlashtirishning uddasidan chiqa olmasligi bilan izohlanadi;

– qo'shimcha ehtiyojni hukumatning zaxira fondlari hisobidan qoplash va boshqalar.

Davlat byudjeti milliy iqtisodiyot korxonalarini texnika vositalari bilan qayta qurollantirishda alohida ahamiyatga ega. Byudjetdan iqtisodiyotga qilinayotgan xarajatlar va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish, eng avvalo, ana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot) xarajatlarini moliyalashtirish, oilalarga ijtimoiy

nafaqa berish, davlat hokimiyati organlari, boshqaruv va sud organlarini saqlash, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini moliyalashtirish, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash kabi vazifalarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashda davlat byudjetining ahamiyati beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining barcha soha va bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– davlat byudjeti mablag'lari hisobidan davlat maqsadli jamg'armalaridagi vaqtinchalik kassaviy uzilishlar mablag' bilan qoplanishi mumkin, o'z navbatida, davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari davlat byudjetida yuzaga kelgan taqchillikni qoplashning noinflyatsion manbasi bo'lib xizmat qiladi;

– davlat krediti orqali davlat o'z majburiyatlarini bajarish uchun ichki va tashqi manbalardan qarz oladi, shuningdek mamlakat ichkarisidagi subyektlarga hamda xalqaro moliyaviy munosabatlarning ishtirokchilari bo'lgan subyektlarga qarz beradi, byudjetning taqchilligini qoplash manbai sifatida ham davlat qarzi maydonga chiqadi, shu munosabatlarda davlat byudjeti bilan davlat moliyasining alohida bo'g'ini bo'lgan davlat krediti o'rtasida muayyan moliyaviy munosabatlar sodir bo'ladi;

– mamlakat moliya tizimining alohida sohasi bo'lgan tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar moliyasi orqali davlat byudjetining daromad manbai bo'lgan qo'shilgan qiymat, foyda, daromad yaratiladi va ularning qayta taqsimlanishi asosida davlat byudjetiga daromad va tushumlar kelib tushadi, o'z navbatida, davlat byudjeti mablag'laridan bu korxonalar resurslarining shakllanishida ma'lum ko'lamlarda foydalaniladi, buni davlat byudjetining iqtisodiyotga va

markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar harakatida ko'rish mumkin;

– ma'lumki, moliya tizimining alohida bo'g'im notijorat faoliyatini amalga oshiruvchi muassasa va tashkilotlarda sodir bo'ladigan moliyaviy munosabatlar tashkil qiladi, ularning aksariyati esa turli tarmoq va sohalardagi byudjet tashkilotlari maqomida faoliyat yuritadi, ularning joriy faoliyatini, ayrim hollarda kapital mablag'larga bo'lgan ehtiyojim qondirish yuzasidan ular bilan davlat byudjeti o'rtasida byudjet mablag'larning taqsimlanishi bilan bog'liq munosabatlar sodir bo'ladi;

– shuningdek, davlat byudjeti bilan uy xo'jaliklari o'rtasida ijtimoiy transfertlarning ajratilishi, davlat mablag'lari bilan mustahkamlangan imtiyozli kreditlarning berilishi yuzasidan muayyan moliyaviy munosabatlar shakllanadi, shu bilan birga uy xo'jaliklari ham soliqlar, majburiy to'lovlar, zaym obligatsiyalar sotib olish kabilar bilan davlat byudjet resurslarining shakllanishida ishtirok etadilar.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Davlat byudjetining ijtimoiy iqtisodiy mohiyati nimada?*

*2. Davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatida, moddiy tushuncha sifatida, huquqiy kategoriya sifatida amal qilishini tushuntirib bering.*

*3. Davlat byudjeti funksiyalarining amal qilishini misollar asosida ta'riflab bering.*

*4. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimida qanday o'rin egallaydi, uning boshqa bo'g'inlari bilan qanday munosabatlarga kirishadi?*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Turli iqtisodiy maktab vakillari tomonidan "Davlat byudjeti" tushunchasiga berilgan ta'riflarni aniqlang, ularning byudjetning kelib chiqishi bilan bog'liq ma'lumotlarni solishtiring.*

*2. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash nisbatlarini xarakterlovchi ma'lumotlarni to'plang, solishtiring va taqsimlash nisbatlarining turlicha bo'lish sabablarini tushuntirib bering.*

*3. Lee, Robert D.ning "Public budgeting systems" nomli qo'llanmasi asosida byudjet va byudjetlashtirish tushunchalariga ta'rif bering. Ushbu qo'llanmada keltirilgan izohlar bilan an'anaviy darslik va o'quv qo'llanmalardagi izohlarni solishtiring, xulosalaringiz asosida tezis tayyorlang.*

# 2-BOB. DAVLAT, IQTISODIY TARAQQIYOT VA DAVLAT BYUDJETI

## 2.1. Jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyot holatiga ta'siri. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi

Har qanday mamlakatning davlat byudjeti, uning daromadlari manbalari va xarajatlari yo'nalishlari, davlat byudjetining barqarorligi, byudjetlararo munosabatlarini tashkil qilish mexanizmlari shu mamlakat milliy iqtisodiyotining holati, uning raqobatbardoshligi, iqtisodiy o'sish sur'atlari, yalpi ichki mahsulotning va milliy daromadning hajmlari va iqtisodiy subyektlar o'rtasida taqsimlash nisbatlariga, mamlakat hududlarining rivojlanganlik darajasiga, shuningdek, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashish ko'lamlari, mamlakatlar hukumatlari tanlagan iqtisodiy siyosat yo'nalishlari hamda jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotlarning holatiga ta'siri darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bu bog'liqlikni o'rganishga bag'ishlangan ushbu bob mazkur o'quv qo'llanmaning kirish qismida nomi keltirilgan "Public Budgeting Systems"[19] nomli xorijiy adabiyotning ushbu masalalar yoritilgan boblarining tarjimasi asosida keltirilmoqda.

Ishlab chiqarish va daromad iqtisodiyotni baholovchi asosiy tushuncha (konsepsiya)lardir. Ular iqtisodiyotni ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning yalpi qiymati va ularni yaratishdan olingan daromad sifatida tavsiflaydi. Bu ikki tushuncha (konsepsiya) mazkur bobda so'z yuritiladigan barcha masalalarda asosiy o'rni tutadi. Amalda bu ikki tushuncha bir ma'noni anglatadi. Sotilgan tovar va xizmatlar bahosi (ishlab chiqarish qiymati) ishlab chiqaruvchilar

[19] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.

tomonidan erishilgan tushumlarga tengdir. Amaliyotda firmalar va uy xo'jaliklari daromadlarini va sotilgan tovar va xizmatlar, mehnat haqiga to'lovlar va bokazolarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish xarajatlarini baholashda kamchiliklar ham yo'q emas.

*Yalpi ichki mahsulot.* Yalpi ichki mahsulot (YAIM) iqtisodiy ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning yalpi qiymatidir. Yalpi ichki mahsulot uy xo'jaliklari iste'moli xarajatlari, yalpi ichki xususiy investitsiyalar, tovar va xizmatlar sof eksporti, shuningdek, davlat tomonidan sotib olingan tovar va xizmatlarning umumiy qiymati hisoblanadi.

*Yalpi milliy mahsulot.* Yalpi milliy mahsulot (YAMM) YAIMga o'xshash ko'rsatkich bo'lib, ko'p yillar davomida jami ishlab chiqarish hajmini baholovchi ko'rsatkich sifatida qabul qilingan edi. 1992-yildan boshlab esa AQSH hukumati va ko'pchillik tahlilchilar, boshqa qator mamlakatlar o'zlarining ishlab chiqarish hisobotlarida YAIM atamasidan foydalanayotganligini inobatga olib va mamlakat iqtisodiy holatini boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash nuqtayi nazaridan YAIM ko'rsatkichidan foydalanishni boshladilar. YAIM va YAMM o'rtasidagi asosiy farq shundaki, YAIMda AQSH tadbirkorlari va rezidentlarining chet eidagi daromadlari hamda xorij fuqarolarining AQSHda ishlab topgan va chet elga o'tkazadigan daromadlari hisobga olinmaydi. Shunday qilib, YAIM AQSH xo'jalik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan jami mahsulotdan farqli o'laroq, faqat AQSH iqtisodiyoti miqyosida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini aks ettiradi.

AQSH uchun YAIM va YAMM qiymatlari odatda katta farq qilmaydi, chunki xorijda ishlab topilgan daromad bilan xorijga chiqib ketgan daromad muvozanatda bo'ladi. Ba'zi mamlakatlar, ayniqsa rivojlanayotgan, chet elda ishlayotgan fuqarolarining pul o'tkazmalari muhim bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun milliy daromad muhim manbadir. 2010-yilda AQSH va boshqa ko'p davlatlardan Markaziy va Janubiy

Amerika davlatlariga pul o'tkazmalari jami 58,5 milliard AQSH dollaridan ko'proqni tashkil etdi, bu esa o'tgan yil bilan solishtirganda iqtisodiy pasayishning ta'siri tufayli (ayniqsa, bu holat sanoati rivojlangan mamlakatlarda ko'proq sezilgan) 10 foizga pastroqdir. Misol uchun, 2010 yilda Salvadorning milliy daromadida sof pul o'tkazmalari 15 foizni tashkil etgan. Misrda bu ko'rsatkich 3,5 foizni, Marokashda 7,4 foizni tashkil etgan.[20]

*Sof milliy mahsulot va milliy daromad.* Sof milliy mahsulot (SMM) va milliy daromad (MD) ikkita o'zaro bog'liq ko'rsatkich bo'lib, YALMning hosilalari hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulot o'zida barcha kapital sarmoyalarni, shu jumladan, ba'zilari yangi ishlab chiqarish quvvatlari hosil qilmaydigan, ammo o'rindosh sifatida foydalanuvchi ishlab chiqarish qobiliyatim yo'qotgan eski kapitallarni ham o'zida aks ettiradi. Sof milliy mahsulot kapital investitsiyalardan sof amortizatsiyaning ayirgandagi qiymatni ifodalaydi. Kapital almashtirish xarajatlari sof milliy mahsulotda hisobga olinmaydi. 2009-yilda AQSH yalpi ichki mahsuloti 14,1 trln. AQSH dollari bo'lgan, sof milliy mahsulot esa 12,4 trln. AQSH dollarini tashkil etgan, bu AQSH yalpi ichki mahsulotining taxminan 1,7 trln. AQSH dollari yangi ishlab chiqarish quvvatlaridan iborat emasligini ifodalaydi.[21]

Sof milliy mahsulotni o'rganib borish istiqbolda ishlab chiqarish to'g'risida ma'lumot beradi, chunki agar iqtisodiyot kapitaldan foydalanishni boshlasa va uning o'rnini boshqa bilan almashtirmasa tovar va xizmatlar ishlab chiqarish asosiy kapitalning kamayishiga yoki uning juda past sur'atlarda o'sishiga bog'liq bo'ladi.

---

[20] International Association of Money Transfer Networks (2010). LAC: money transfers bring order in chaos. Money Transfers,31, 5.Retrieved November 11, 2011, from http:/ / www.iamtn.org/files/ Money_Transfers_Monthly_April_2010.pdf; World Bank (2011). WDI Data Catalogue. Retrieved November 11, 2011, from http://data.worldbank.org/data-catalog#Tables. Note: WDI Data Catalogue searchable online by country or downloading selected databases.

[21] U.S. Council of Economic Advisers (2011). Economic report of the president: 2011, 220.

Milliy daromad sof milliy mahsulotdan bilvosita soliqlar va biznes bo'yicha transfert to'lovlarining ayirmasi bo'lib, yaratilgan sof mahsulot qiymatini ifodalaydi.

Quyidagi jadvalda AQSH iqtisodiyoti bo'yicha 1960-2009-yillardagi yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot va milliy daromad ko'rsatkichlari keltirilgan. Bunda shunga e'tibor berish kerakki, iqtisodiy masalalar bo'yicha Prezident Kengashi tomonidan 2004-yil hoshiga tayyorlangan statistik ma'lumotlarda biznes bo'yicha transfert to'lovlari, biznesdan bilvosita soliqlar, ularning qiyosiy tahlili, o'zaro farqlari keltirilgan.

*2.1-jadval*

**Yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot va milliy daromad ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar[22]**

Iqtisodiy holatni (iqtisodiyotni) baholashning bir qancha masalalari mavjud. Ularning hammasi iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish, qiymatiga yoki ishlab chiqarishdan olingan daromadlarga asoslanadi. Ishlab chiqarish va daromadlar tengsizligi ikki tomonu hisoblanadi. Iqtisodiy holatni aniq baholash murakkab jarayondir. Ushbu jadvalda ko'rsatilganidek, iqtisodiy holatni baholashning har bir metodi o'ziga bir qancha konsepsiyalarni qamrab oladi va shu bois ularning bir-biriga bog'liqligini tushunish juda muhim.

| Yil | Yalpi ichki mahsulot | Boshqa mamlakatlardan olingan daromadlar | Boshqa mamlakatlarga to'langan to'lovlar | Yalpi milliy mahsulot | Asosiy kapital iste'moli | | | Sof milliy mahsulot | Statistik farqlar | Milliy daromad |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | jami | asosiy | davlat | | | |
| 1960 | 526.4 | 4.9 | 1.8 | 529.5 | 55.6 | 40.5 | 15.0 | 473.9 | 0.9 | 474.9 |
| 1965 | 719.1 | 7.9 | 2.6 | 724.4 | 70.7 | 51.9 | 18.9 | 653.2 | 1.5 | 652.2 |
| 1970 | 1038.3 | 12.8 | 6.4 | 1044.7 | 108.3 | 81.7 | 26.6 | 936.4 | 6.9 | 929.5 |
| 1975 | 1637.7 | 28.0 | 15.0 | 1650.7 | 190.4 | 150.4 | 39.0 | 1460.3 | 16.3 | 1444.0 |
| 1980 | 2788.1 | 79.1 | 44.9 | 2822.3 | 344.1 | 282.3 | 61.8 | 2478.2 | 45.3 | 2433.0 |
| 1985 | 4217.5 | 112.4 | 85.9 | 4244.0 | 505.4 | 412.8 | 92.7 | 3786.6 | 42.3 | 3696.3 |
| 1990 | 5800.5 | 188.5 | 154.1 | 5838.0 | 691.2 | 560.4 | 130.8 | 5143.7 | 84.2 | 5059.5 |
| 1995 | 7414.7 | 229.3 | 199.6 | 7444.3 | 869.5 | 704.6 | 164.8 | 6574.9 | 52.5 | 6422.3 |
| 2000 | 9951.5 | 380.5 | 342.8 | 9989.2 | 1184.3 | 996.8 | 197.5 | 8804.9 | 134.0 | 8938.9 |
| 2005 | 12638.4 | 573.0 | 475.9 | 12735.5 | 1541.8 | 1290.8 | 250.6 | 11194.2 | -79.7 | 11273.8 |
| 2009 | 14119.0 | 629.8 | 483.6 | 14265.3 | 1861.1 | 1535.8 | 325.3 | 12404.2 | 179.1 | 12225.0 |

*Manba:* Extracted from U.S. Council of Economic Advisers (2011). Economic report of the president: 2011 (p. 220). Washington, DC: U.S. Government Printing Office.

[22] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 49.

AQSH yalpi ichki mahsulotini tavsiflash AQSH mamlakat[illegible] xususiyatlarining o'zgarib borishi, iqtisodiyot hajmining ko'pgina boshqa me'yorlarini inobatga olishni taqaza qiladi. Jadvalda berilgan dastlabki yillarda, Yalpi ichki mahsulot sof daromadga qaraganda 10%ga ko'proq bo'lgan hamda Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot barcha yillarda o'zaro taxminan Hozgacha tebranishda bo'lgan. AQSH korporatsiyalari tomonidan xorijda topilgan daromad AQSHlik bo'lmaganlar tomonidan AQSH hududida ishlab topilgan va xorijga chiqarib yuborilgan daromadlar o'zaro balans holatida bo'ladi. 1980 yillarning boshlarida yalpi ichki mahsulot va sof daromad o'rtasidagi o'zaro nisbat oshib, 14 foizdan ko'proq va 15 foizdan kamroq nisbatda bo'lgan. Bu xususiy va davlat sektorlari tomonidan asosiy kapital iste'moli narxining oshishi hisobiga yuzaga kelgan. Boshqacha aytganda, bu kelajakda mahsulot ishlab chiqarishga zarur bo'lgan asosiy kapital hajmini dastlabki yillardagi bilan bir xil ekanligi, na xususiy sektor va na hukumat asosiy kapitalga investitsiya qilmayotganligini anglatardi.

*AQSH va jahon iqtisodiyoti. Transchegaraviy iqtisodiy holat.* Ikkinchi jahon urushidan keyin aksariyat AQSH fuqaroleri Qo'shma Shtatlarni nafaqat jahonning eng asosiy ta'minotchisi (homiysi) sifatida, balki jahon iqtisodiyotini asosiy tartibga soluvchisi sifatida ko'ra boshladilar. 1973-1974-yillardagi Neft Eksport Qiluvchi Mamlakatlar Tashkiloti (OPEK) neft eksportini qisqartirguncha qadar iqtisodiyoti neft importiga bog'liq bo'lgan AQSH uchun ta'sirli bo'ldi. 2005-yildan buyon dunyo bo'ylab asosan, yangi yuzaga kelgan yirik iqtisodiy mamlakatlar Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoy (manbalarda BRIKS deb nomlanadi) neft iste'molining oshishi hisobiga neft narxining yuqori bo'lishi va neft qazib oluvchi mamlakatlardagi ko'pgina ziddiyatli jarayonlar jahon iqtisodiyotidagi o'zaro munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga sabab bo'ldi.

Shuningdek, AQSH hanuzgacha jahon iqtisodiyotining asosiy (bosh) tarkibiy qismi hisoblanishiga qaramasdan, iqtisodiy jihatdan AQSHdan kichikroq bo'lgan Yaponiya va Germaniya hamda oxirgi yillarda jahon iqtisodiyotining asosiy ishtirokchilari sifatida yuzaga kelgan Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoydagi iqtisodiy taraqqiyot AQSHni dunyoning muhim milliy iqtisodiyotlaridan biriga aylantirib qo'ydi.[23]

Birinchi neft inqirozi va boshqa mamlakatlar iqtisodiyotlarining kuchayishi Amerikaga bog'liqligini his qilgan Amerika fuqaroleri AQSHning iqtisodiy holati dunyodagi

[23] Friedman, T. (2006). The world is flat: a brief history of the twenty first century (Expandeded.). New York, NY: Farrar, Straus&Giroux; Friedman, T., & Mandelbaum, M. (2011). Thatused to be us. how America fell behind in the world it invented and how we can come back. New York, NY: Farrar,Straus & Giroux.

milliardlab iqtisodiy munosabatlarga, boshqa mamlakatlar hukumatlari tomonidan chiqariladigan iqtisodiy-siyosiy qarorlarga bog'liqligini tushuna olishadi. Dunyodagi iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan va rivojlanayotgan sanoatlashmagan mamlakatlar iqtisodiyotlari AQSH va boshqa sanoati rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy munosabatlarni belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

1997-yilda Osiyoda boshlangan moliyaviy inqiroz dastlab Osiyo mamlakatlariga, so'ngra boshqa rivojlanayotgan bozorlarga zarba berdi va ularning iqtisodiyotini qulatdi. Bu inqirozning ta'siri o'zlarining moliyaviy portfellarini tez tebranuvchi fond birjalarida oldi-sotdi qiluvchi va sarmoyalarini AQSH va boshqa G'arb sanoat bozorlariga reinvestitsiya qilgan investorlarni qamrab oldi, ammo rivojlanayotgan bozorlardagi bunday o'zgarishlarning oqibati ijobiy bo'lmasligini his etgan aksariyat sarmoyadorlar o'sha iqtisodiyotlarga sarmoya kiritishdan voz kechdilar. 2007 yilda G'arb sanoat bozorlarida yuz bergan moliyaviy inqiroz Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy kabi bir qancha iqtisodiyoti qudratli mamlakatlarning yuzaga kelishiga olib keldi, ular investorlarni sanoatlashgan mamlakatlar sarmoyalariga muqobil sifatida o'ziga ko'proq jalb eta boshladilar. Bu ikki holat shuni ko'rsatadiki, agar iqtisodiy vaziyat yomonlashib borayotgan sharoitda bozorda turli nayranglar hamda mamlakatlar tomonidan turli mug'ombirlik yo'llari orqali bozordagi vaziyatlarga ta'sir o'tkazilayotgan holatlar mavjud bo'lsa, investorlar o'zlarining ulushlarini tezda sotib, bozorni tark etishga harakat qilishadi.

Investitsiyalar portfeli fond bozorlari orqali rivojlanayotgan iqtisodiyotlarni sanoat tarmoqlariga, zavod-fabrikalarga asosiy kapital shaklida kiritiladigan uzoq muddatli investitsiyalarga qaraganda kengroq, tezroq mablag' bilan ta'minlaydi.

Kelgusida jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishga yordam beruvchi omil – ishlab chiqarish obyektlari, chakana

savdo muassasalari va transchegaraviy hududlar bo'ylab samarali investitsiyalarni amalga oshirishdir. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar rivojlanayotgan davlatlarga kapital oqimining eng yirik manbayi hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotning 30 foizi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardan iborat, 1980-yilda bu ko'rsatkich 10 foizdan sal ortiq bo'lgan edi. Bundan buyon rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining ko'pligi eng asosiy omil hisoblanmaydi. Rivojlangan mamlakatlar Yalpi ichki mahsulotida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 1990 yilda 10 foizdan kamroqni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda foizdan ko'proq bo'ldi. Bu davrda ushbu ko'rsatkich Qo'shma Shtatlarda 9 foizdan deyarli 24 foizgacha, Buyuk Britaniyada 20 foizdan 48 foizgacha oshdi.[24] To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar aksiya va obligatsiyalarga qo'yilgan investitsiya portfellaridan farqli o'laroq, bevosita ishlab chiqarish aktivlarini yaratadi va iqtisodiyotdagi maqsadli pasayishlar davrida o'z qiymatini osonlik bilan yo'qotmaydi. Shuning uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi maqsadli iqtisodiyotdagi uzoq muddatli tendensiyalarga investorlarning qanday munosabat bildirishiga bog'liq bo'ladi.

Jahondagi mamlakatlar iqtisodiyotini o'zaro bog'lovchi omillar tovar va xizmatlarning oddiy oldi-g'sotdisi hisoblanadi. Agar siz xorijda ishlab chiqarilgan transport vositasini xarid qilsangiz, yoki sizning kompaniyangiz boshqa mamlakatlarda neft kompaniyalari uchun nasoslar sotish bilan shug'ullansa, bularning natijasida mamlakatga pul oqimi kirib keladi yoki mamlakatdan chiqib ketadi. AQSH xalqaro savdo hajmining, ya'ni mamlakatdagi eksport va importning umumiy hajmining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1975-yildagi 16 foizdan 2005 yilda 26 foizdan ko'proqqa o'sdi va so'ngra

[24] United Nations Conference on Trade and Development (2011). Annex table 7. In World Investment Report. Retrieved November 13, 2011, from http://www.unctad.org/sections/dite_dir/docs/WIR11_web%20tab%207.pdf.

iqtisodiyotning yomonlashishi ta'sirida 2009-yilda 16 foizga tushib qoldi.[25]

Boshqa transchegaraviy salbiy o'zgarishlar jiddiy iqtisodiy buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin, bu aymqsa iqtisodiy sharoitlar zaiflashib bo'lgan vaziyatda yuzaga chiqadi. 2011-yilda Yaponiyada yuz bergan zilzila va sunami Yaponiyaga qaraganda boshqa mamlakatlar bozorlariga ko'proq ta'sir o'tkazdi. Qo'shma Shtatlar uchun deyarli tanazzulga uchragandan keyin qayta oyoqqa turayotgan avtomobil sanoati 2011-yildagi halokat asoratlari ta'sirini yapon mashina ishlab chiqaruvchilari bilan raqobat hisobiga normal faoliyat yuritmayotgan ishlab chiqaruvchilarning bir qismi sifatida o'zida his qildi.[26]

Aksariyat odamlar uchun buni qabul qilish juda og'ir bo'lsa-da, AQSH hozirgi global iqtisodiyotning asosiy tartibga soluvchisi emas, faqatgina tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Albatta, AQSH, shuningdek, o'zining iqtisodiyoti hajmi va boshqa mamlakatlarga ta'sir o'tkazishi sababli qattiq tanqid qilinadi.

## 2.2. Davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri

Ko'pchilik iqtisodchilar davlatning iqtisodiy samaradorlik-ka va uzoq muddatli o'sishga ta'siri fanga va ishlab chiqarish quvvatlariga investitsiyalar qilishda namoyon bo'lishini e'tirof etadilar. AQSH Prezidentlari Uilyam Klinton, Jorj Bush va Barak Obama fanning taraqqiyoti uchun davlatning qo'llab-quvvatlashi muhim ekanligini ta'kidlaganlar. Prezident Obama Korporativ boshqaruv Kengashiga bergan tavsiyasida AQSHda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun ilmiy tadqiqotlar va

---

[25] U.S. Council of Economic Advisers (2006). Economic report of the president: 2006, (pp. 310, 312).Washington, DC: U.S. Government Printing Office; U.S. Council of Economic Advisers (2011). Economic report of the president: 2011, 218.

[26] Chen, V. (2011). Fed economists: 2012 recession odds top 50%. Bloomberg News November 14. Retrieved November 15, 2011, from http://www.bloomberg.com/news/2011-11-14/fed-economists-say-odds-of-2012-u-s-recession-exceed-50-on-europe-crisis.html.

ilmiy ishlanmalarga (R&D), texnologiyalarga va ta'limga investitsiya qilish dasturini taklif qildi.[27] Ushbu taklif uning avvalgi hamkashlari tomonidan ilgari surilgan raqobatdoshlikni oshirish chora-tadbirlari bilan hamohangdir.

1981-yilda AQSH Kongressi R&Dga xususiy investitsiyalarni oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan vaqtinchalik chora-tadbirlar qabul qildi va 2005-yilgacha muntazam ravishda ularni yangilab bordi. 2001-yilda Kongress R&D uchun berilgan soliq kreditini doimiy ravishda o'rnatish taklifini ko'rib chiqdi, lekin bu chora samara bermadi. Shunga qaramay bu chora 2004- 2006- va 2010-yillarda Kongress soliq kreditini vaqtinchalik uzaytirishi natijasida so'nggi vaqtinchalik uzaytirish muddati tugagunga qadar ma'lum darajada samara berib turdi. Vaqtinchalik choralar Kongress uchun raqobatdoshlikni rag'batlantirishga qaratilgan yagona maqbul siyosiy yo'l sifatida qabul qilindi.

Iqtisodiyotning samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning bevosita va bilvosita xatti-harakatlari ta'sirini faqatgina uzoq muddatli istiqbolda baholash mumkin. Masalan, hatto korxonalar davlat tomonidan taqdim etilgan imtiyozlardan foydalangan holda R&Dga bo'lgan xarajatlarini sezilarli darajada oshirgan taqdirlarida ham samaradorlik nuqtayi nazaridan bu samara kelgusi yillarda o'zini namoyon qiladi. AQSHning ko'pchilik shtatlarida korxonalar uchun umumiy soliq bo'yicha turli kredit dasturlari taklif qilingan. Ayrim shtatlar davlatning aniq geografik hududlari yoki aniq tarmoq va texnologiyalar, masalan, biotexnologik sanoatning rivojlanishi uchun R&Dga investitsiyalarga soliq bo'yicha chuqur o'ylangan kredit dasturlariga ega[28].

---

[27] Superville,D. (2011). Obama calls for investments in education, R&D: West Coast [illegible] highlights vision of making U.S. more competitive globally. MSNBC.com. Retrieved November 13, 2011, from http:// www.msnbc.msn.com/id/ 41669273 /ns/business-personal_finance/ t/ obama-calls-investments-education-rd/.

[28] Federal Reserve Bank of San Francisco (2005). The rise and spread of state R&D tax credits. Retrieved August 24, 2006, from http:/ / www.frbsf.org/publications/economics/letter/2005/el2005-26.html.

Butun dunyoda iqtisodiyot uchun jozibador bo'lgan xorijiy to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hamda ichki investitsiyalarni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi bir necha omillare'tiborga sazovor. 2.1-ko'rgazmada dunyo bo'yicha mamlakatlarda biznesni yuritish uchun yaratilgan imkoniyatlarni davlat tomonidan aralashuv va tartibga solish natijalari sifatida baholash yoki, ayrim masalalar bo'yicha, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash mumkin bo'lgan omillarning ta'sirini aniqlash natijalari aks ettirilgan.

*2.1 ko'rgazma*

Dunyoda biznes yuritish bo'yicha yengilliklar

*Oxirgi o'n yillikda iqtisodiyotga yo'naltirilgan xususiy investitsiyalarga to'siqlarni kamaytirish masalasiga davlatning ma'muriy aralashuviga qaraganda ko'proq ahamiyat berildi. Har yili Jahon Banki biznes yuritish uchun qulaylik darajasi bo'yicha 181 mamlakatning xususiyatlari to'g'risida ma'ruza e'lon qiladi. Uni baholash uchun quyidagi 10 ta mezon asos qilib olinadi:*

1. Biznesni boshlash (qancha vaqt ketadi, ovoraparchiliklar bormi, bu jarayonga qancha odam jalb qilinadi).

2. Ruxsatnomalar bilan ishlash (litsenziyalash, muddatni aniqlash, nazoratdan o'tkazish).

3. Bandlik (ishga yollash shartlari, ishdan bo'shatish va soliqqa tortish shartlari, ish vaqti).

4. Tijorat maqsadlaridagi ko'chmas mulkni ro'yxatdan o'tkazish (talab qilinadigan vaqt, qiymat, mulkchilik huquqi munosabatlaridagi oydinlik).

5. Kredit olish imkoniyati (yuridik/amaliy tartibga solish, kredit bo'yicha ma'lumot olish imkoniyati).

6. Investorlarning huquqlari (aksiya egalari, aksiyadorlik kompaniyalari bilan bitimlarning sir saqlanishi).

7. Soliqlar (murakkablik/vaqt, soliqlarning umumiy daromadga nisbatan foizi).

8. Eksport/importni tartibga solish (tushuntirish, majburiyatlar, tovarlar va kapitallarning chegarani kesib o'tishdagi qulayliklar).

9. Shartnomalar shartlarini bajarish (qonunchilikka rioya qilish, shartnomalarning qiymati, shartnomani bajarishning majburiyligi).

10. Biznesni tugatish (xarajatlar, bankrotlik qoidalari)[1].

Singapur, Gonkong (Xitoy), Yangi Zelandiya, Qo'shma Shtatlar va Daniya iqtisodiyoti kuchli beshtalikka kiradi. Eng quyi beshtalikdan Chad, Markaziy Afrika Respublikasi, Kongo Respublikasi, Eritreya va Gvineya mamlakatlari iqtisodiyoti joy oldi[2]. Jahon bankining dasturlari ularning iqtisodiyotini iqtisodiy faoliyat kechadigan qoidalar va sharoitlar ta'sirida transformatsiyalashuviga qaratilgan. Reyting mezonlariga qaraganda bu oson

ish emas, lekin hukumatning xatti harakatlari va qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish uchun ko'riladigan choralar iqtisodiyotning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

1- World Bank (2011). Ease of doing business 2012. Retrieved November 14, 2011, from http:/ /www.doingbusiness.org/ reports/ global reports/ doing-business 2012.
2- World Bank (2011). Doing business: economy rankings. Retrieved November 14, 2011, from http://www.doingbusiness.org/rankings.

*Davlatning texnologiyalar bo'yicha siyosati.* Sanoatning yuqori texnologiyali tarmoqlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlashda davlatning faolligi to'g'risidagi masala birinchi bor 80-yillarning oxirida, AQSH iqtisodiyoti ko'pgina sohalarda (nafaqat arzon ish kuchi bozorlari bilan) peshqadamlikni boy berayotgan davrda yuzaga keldi. Ushbu konsepsiya siyosatning bosh masalasiga aylandi. Sanoatning eng muhim, masalan, mikroelektronika kabi tarmoqlarini qo'llab-quvatlamagani uchun Jorj Bush ma'muriyati tanqid ostiga olingan edi, Prezident Bill Klinton yuqori texnologiyalarni rivojlantirishni iqtisodiy siyosatning ustuvorligiga aylantirdi. Kichik Jorj Bush ma'muriyati esa, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi muhim dastaklar sifatida korporativ soliqni kamaytirish, dividendlarga soliqni bekor qilish, R&Dga soliq kreditlarini joriy qilishga muvaffaq bo'ldi. Prezident Obamaning byudjet bo'yicha dastlabki takliflari va rag'batlantirish dasturlarining diqqat markaziga esa rivojlanib borayotgan ekologik sof energiya va atrof-muhitni yaxshilash bo'yicha boshqa ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish masalalari qo'yildi.[29] Kongress tomonidan R&Dga qaratilgan "vaqtinchalik" soliq krediti dasturlari vaqti-vaqti bilan uzaytirib turilgan bo'lsa da, ushbu tashabbuslarning ko'pchilligi xohlamaygina qabul qilindi.

Davlat tomonidan iqtisodiyotning bir tarmog'ini boshqalariga nisbatan ustunroq darajada qo'llab-quvvatlash

[29] White House. (2011). Blueprint for a secure energy future. Washington, DC: U.S. Government Printing Office.

muammosi "yutuvchilar va yutqazuvchilarni" davlat emas, bozor aniqlashidadir, bu holat davlatning mazkur rolni yaxshi bajarishining isboti bo'la olmaydi. "Solyndra Corporation" nomli quyosh panellarining ishlash texnologiyalarini yaratuvchi va ishlab chiqaruvchi korporatsiyani federal darajada qo'llab-quvvatlash bunga yaqqol misol bo'ladi. Yirik federal yordam doirasida "Solyndra" korporatsiyasi ekologik sof energiya texnologiyalarini tijoratlashtirish maqsadlariga federal qarz dasturi bo'yicha qarz oldi. Quyosh batareyalaridan foydalanish bo'yicha texnologiyalarni tijoratlashtirish, energiya tashuvchilarga bo'lgan narxlarning, ayniqsa, 2000 yilning boshida oshib ketishi natijasida tijorat nuqtayi-nazaridan nomaqbul bo'lib qolgach, kompaniya o'zini bankrot deb e'lon qildi.[30]

Yana bir misol: Yaponiyadagi ikki karra jadallik bilan o'sish ko'pchilik kuzatuvchilarga davlatning aralashuvi rivojlanishning eng to'g'ri yo'li bo'lib ko'rinsa-da, keyingi o'n yilliklar bu qarashlarni sezilarli darajada o'zgartirdi. Ayrim manbalarda Singapur davlati iqtisodiyotim hukumat tomonidan aralashuvning samarali va ahamiyatli bo'lganligini misol qilib ko'rsatadilar, lekin 2.1-ko'rgazmada ko'rsatilganidek, aynan biznes yuritish yengilligi bo'yicha davlat tomonidan yaratilgan qulay sharoitlar natijasida Singapur dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Federal hukumat uchun 5 yoki 10 yildan keyin elektronika va muqobil energiya ishlab chiqarish texnologiyalari kabi sanoatdagi qanday omillar AQSHning global raqobatdoshligi va yuqori texnologiyalar bozoridagi ustunligini belgilab berishini aniqlash bir qadar qiyinchilik tug'diradi.[31] Davlatning xatti-harakatlari sanoatning alohida tarmoqlarini to'g'ridan to'g'ri qo'llab-quvvatlashga emas, balki inson kapitali va asosiy kapitalni yaxshilash,

---

[30] Solyndra and the White House: letting sunlight in. (2011). The Economist, 401, September 24, 36.

[31] Grossman, G., & Helpman, E. (2001). Innovation and growth: technowgi, cal competition in the global economy. Cambridge, MA : MIT Press.

jamg'armalar va investitsiyalarni rag'batlantirish, shuningdek, g'oyalar, tovarlar va xizmatlarning xalqaro ayirboshlanishiga ko'maklashishga qaratilishi lozimligi to'g'risidagi fikrlar keng jamoatchilik tomonidan tobora kengroq qabul qilinmoqda.

Hukumat o'zining texnologik siyosatini ishlab chiqishi lozimligi borasida turli davrlarda turlicha oqimlar mavjud bo'lgan.[32] Dastlabki, fan va matematikaga jiddiy e'tibor qaratilgan oliy ta'limni rivojlantirishning yirik federal dasturlari 1958-yilda, Sovet Ittifoqi tomonidan Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi koinotga chiqarilganidan keyin amalga oshirila boshlandi. 1970-yillardagi Yaponiyaning ildamlik bilan rivojlanib ketishi AQSHning jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash borasida aytarli harakat qilmayotgan hukumatni tashvishga solib qo'ydi. Yaqin orada Braziliya, Hindiston va Xitoydagi tez sur'atli rivojlanish jiddiy baxslarga sabab bo'ldi. Obama hukumati tomonidan 2011-yilda taklif etilgan Mehnat to'g'risidagi qonun (American Jobs Act) yangi ish o'rinlarini tashkil qilish va AQSH biznesining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratildi.[33] Prezident ta'limga, ilmiy tadqiqotlarga, shuningdek, tovarlarga qaraganda ko'proq ilmiy g'oyalarning harakatiga xizmat qiluvchi infratuzilmalarga investitsiyalarni ko'paytirishga chaqirdi[34].

---

[32] Samuelson, R. (2006). Cooling off about keeping up. Washington Post. Retrieved August 12, 2006, from http:// www.realclearpolitics.com/articles/2006 /08/ experiencing another competiti .html.

[33] The White House (2011). We can't wait: Obama administration announces two steps to help businesses create jobs, strengthen competitiveness [press release]. Retrieved November 13, 2011, from http:/ / www.whitehouse.gov/ the-press-offi ce/2011110 /28 /we-cant-wait o bama administratio n-announces-
two steps help businesses-cr.

[34] National Economic Council (2011). A strategy for American innovation: securing our economic growth and prosperity. Retrieved November 6, 2011, from http:/ /www.whitehouse.gov/innovation/strategy.

## 2.3. Bandlik, ishsizlik, inflyatsiya va ularning davlat byudjetiga ta'siri

*To'liq bandlikning mazmun-mohiyati.* To'liq bandlik iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lib, 16 yoshdan katta bo'lgan fuqarolarning rasman korxonalarning daromad keltiruvchi ish o'rinlarida bandligi hisoblanadi. Amerika Qo'shma Shtatlarida mamlakat statistika xizmatlari har oyda 110 000 kishidan iborat bo'lgan 60 000 ga yaqin oilaning katta yoshdagi a'zolaridan so'rovnoma o'tkazadilar. So'rovnomada respondentning o'tgan hafta mobaynidagi faoliyati to'g'risida so'raladi. Agar shaxs baq to'lanadigan ishda ishlagan bo'lsa, yoki haq olmasdan bo'lsa ham oilaviy korxonada ishlasa, ta'tilda yoki boshqa biron shunga o'xshash holatda bo'lsa, bu fuqaro band hisoblanadi. So'rovda qatnashgan shaxs hech qanday bunday holatlarda bo'lmasa, yoki ish qidirayotgan bo'lsa, u ishsiz, deb tan olinadi. Qolgan barcha aholi mehnatga layoqatsiz sifatida ko'riladi. Ishsiz deb tan olinishi uchun inson hozirgi paytda ish joyi bo'lmagan, oxirgi to'rt oy ichida faol ish qidirayotgan, bugungi kunda mehnatga layoqatli bo'lishi kerak. Shuningdek, ishdan bo'shatilgan va hozirda ishga qaytishni kutayotgan shaxslar ham isbsiz maqomiga ega bo'ladi.[35]

Bandlik holatini ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida tez tez qo'llanadigan ko'rsatkich bo'lib ishsizlik darajasi hisoblanadi. *Ishsizlik darajasi* muayyan davrda ishsizlar sonining mehnat resurslari soniga nisbati orqali aniqlanadi. Ishsiz, deb hisoblangan shaxs isb qidirishning rezyume tarqatish, isb bilan ta'minlash tashkilotlariga borish, ish masalasida telefon qilish, reklama joylashtirish, onlayn-qidiruv va boshqa usullaridan foydalanayotgan bo'lishi lozim. Ish qidirayotganlarning maqomi 1994-yilda aniqlashtirilgan bo'lib, oxirgi 12 oy mobaynida ish qidirmagan yoki isb topolmay hafsalasi pir

[35] U.S. Department of Labor, Bureau of Labor Statistics (2011). How the government measures unemployment. Retrieved November 10, 2011, from http://www.bls.gov/cps/cps_htgm.htm #where.

bo'lgan kishilar bu ro'yxatga kiritilmadi. Ish taklif qilinayotgan e'lonlarga qarab yurish yoki onlayn tarzda ish qidirib yurish hisobga olinmaydi. Oxirgi to'rt hafta ichida yuqorida ta'kidlangan ish qidirish yo'llaridan faol foydalanmagan shaxslar mehnat resurslari tarkibiga kiritilmaydi.

Garchi 1946-yildan keyin qabul qilingan Bandlik to'g'risidagi qonunda (Employment Act) 3 foizdan 4 foizgacha ishsizlik darajasi to'liq bandlikning mezoni sifatida tez-tez tilga olinib kelingan bo'lsada, to'liq bandlikning aniq ta'rifi qonunchilikda mavjud emas. 80-yillarga qadar "ishsizlikning 3-4 foizgacha bo'lgan darajasi doimo saqlanib turadi, bu chegaradan past bo'lgan ko'rsatkichga hech qachon erishib bo'lmaydi", degan fikrlar mavjud edi. Mehnat resurslarining ayrim a'zolari mehnatning xarakteri va malaka talablaridagi o'zgarishlar tufayli vaqtincha ishsiz bo'ladilar. Ayrim iqtisodchilar bu toifadagi "tarkibiy" ishsizlarni to'liq bandlikni hisoblashda inobatga olmaslik kerak, deb hisoblaydilar. Ishga qaytayotgan uy bekalari, o'z ixtiyori bilan bir ish o'rnidan boshqasiga o'tib yuruvchi yoshlar, shuningdek, jahon iqtisodiyotidagi talabning tebranishi bandlikning 3-4 foizgacha bo'lgan darajasini ta'minlashni qiyinlashtiradi.

1948-yildan 2011-yilgacha bo'lgan davrdagi ishsizlik darajasi 64 yil ichida 12 martagina 4 foizdan past bo'lgan. Bunday holat 1970 yildan 1998 yilgacha bo'lgan davrdagi 4,9 foizlik ko'rsatkichga qaraganda birmuncha yaxshiroqdir. Ketma-ket kelgan to'rt yil davomida ishsizlik darajasi 4-4,7 foizgacha, so'ngra 2006-2007 yillarda 4,6 foiz bo'lgan.[36] Qo'shma Shtatlarda ko'pchilik ishsizlikning 4 foizdan yuqori bo'lgan darajasida ham to'liq bandlik terminini qo'llash fikrini yoqlaydilar.

To'liq bandlikning mezoni sifatida ishsizlik ko'rsatkichining yuqoriroq darajasining qabul qilinishi AQSH iqtisodiyotining avvalgiga qaraganda tashqi dunyodagi

[36] U.S. Council of Economic Advisers (2011). Economic report of the president: 2011, 240.

hodisalarga tobora ko'proq ta'sirchanligi bilan bog'liq. AQSH korxonalari tashqi iqtisodiy larzalarga hamda iste'molchilar talablarining avvalgiga qaraganda tezroq o'zgarishiga javob berolmay qolmoqdalar, bu esa ayrim hollarda iqtisodiy pasayish va ishsizlikka olib kelmoqda. 1997 yilda ishsizlik darajasining 5 foizdan kam bo'lgan vaqtda AQSHda inflyatsiyaning past darajasi va YAIMning kutilmagan yuqori o'sish sur'atlari natijasida AQSH iqtisodiyoti taraqqiyoti o'zining eng yuqori nuqtasiga erishdi va bu holat deyarli besh yil davom etdi. Bu davr mobaynida, AQSHning past darajadagi ishsizlik va past darajadagi inflyatsiya erasiga kirishi bilan bog'liq bahslar ishlab chiqarish nazariyasining hamda ishlab chiqarishning umumiy hajmida inson kapitalining kamayishi nazariyasining o'zgarishiga olib keldi.

Shu bilan birga bunday gurkirashga ma'lum darajada fond bozorlardagi o'ymlar natijasida, ayniqsa, Internet, telekommunikat-siyalar orqali savdolar natijasida erishildi. Bundan tashqari 90-yillarning oxirida axborot texnologiyalariga xorijiy investitsiyalar keskin ortib bordi va yillar davomida nobarqaror bo'ldi. 2011-yildagi voqealar, Afg'oniston va Iroqdagi urushlar natijasida yirik byudjet defitsitlari kelib chiqdi, ishsizlik darajasi, 2006-2007-yillarni hisobga olmaganda 5foizdan 6 foizga ko'tarildi. xatto 2009-yildan boshlab ishsizlik darajasi 9 foizdan oshib ketgach, 90-yillardagi 3-4 foizlik ko'rsatkich ham barqarordir, degan tushunchalar qabul qilindi.

*Ishsizlikning siyosiy ahamiyati.* Siyosiy tizim ishsizlik masalasini turlicha qabul qiladi. 80-yillarning boshidagi hamda 2007-yildan keyingi ishsizlikning umummilliy darajadagi 9-10 foizlik ko'rsatkichi zamonaviy standartlarga to'g'ri kelmaydi, albatta, ammo uning 30-yillardagi Buyuk Depressiya davridagi 24 foizlik eng yuqori ko'rsatkichidan ancha past. Ishsizlik ko'rsatkichi 5 foizga qarab pasayib bordi. Jamiyat kimlar ishsiz ekanligiga ko'ra ishsizlikka bosiqlik bilan munosabatda bo'ladi. Ishsizlik asosan past malakalilar va qisman yoshlar orasida yuqori bo'lish tendensiyasiga ega bo'lishiga qaramasdan,

o'rtacha daromadli "oq yoqali" ishchilarning ishsizligiga hosiqlik bilan qarash tezda yo'qoladi. 2011-yildagi retsessiyadan aholining 99 foizi zarar ko'rgan bo'lsa, ularning ko'pchiligini o'ziga munosib ish topolmayotgan yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan yoshlar tashkil qiladi.

Siyosiy jihatdan ishsizlik darajasi yagona muhim muammo emas. 80-yillarning oxiridan boshlab ishsizlikning 5 foiz yoki undan past darajada bo'lgani bilan odamlarni yangi ish o'rinlarining turlari ko'proq qiziqtirardi. Gap shundaki, aksariyat yangi ish o'rinlari eng kam mehnat haqi to'lanadigan yoki juda past darajada haq to'lanadigan to'liqsiz ish vaqtiga ega bo'lgan, tibbiy va pensiya imtiyozlari bo'lmagan xizmatlar sohasida yaratildi. Bu, albatta, 90-yillarga tegishli tanqid bo'lib, 2000 yillarning birinchi o'n yili o'rtalaridagi 9 foizlik ishsizlik darajasi ish o'rinlarining xarakteri to'g'risida qayg'urib o'tirishga o'rin qoldirmadi. Ish o'rinlarining sifatidan ham ko'ra Qo'shma Shtatlarda boyliklarning eng boy bo'lgan alohida shaxslarning 5 foizi, 2 foizi va 1foizi qo'lida to'planganligi, ayniqsa tashvishga soladi. Bu masalani biz quyida mazkur bobda yana ko'rib chiqamiz.

Boshqa bir masala to'liqsiz ish kuni to'g'risidagi bahslarga tegishli. Ko'pchilik odamlar o'zlari to'liqsiz ish kunini tanlaydilar, lekin kompaniyalar ham ish haqiga xarajatlarni qo'shimcha imtiyozlarni to'lamaslik evaziga kamaytirish maqsadida to'liqsiz ish kuniga yoki vaqtinchalik xarakterga ega bo'lgan ish o'rinlariga ishchilarni yollashni ko'paytiradilar. Kompaniyalar iqtisodiy pasayish davrida ish o'rinlarini qisqartirishi natijasida to'liqsiz yoki vaqtinchalik ishlaydiganlar soni ko'payadi. Garchi ularning bandligi haftasiga 40 soatni tashkil qilsada, bu ishchilar doimiy band bo'lgan ishchilar kabi tibbiy va pensiya sug'urtasiga ega bo'la olmaydilar.

*Ishsizlik va inflyatsiyaning o'zaro bog'liqligi.* Ishsizlik darajasi qanchalik tushib ketsa, ishchilarni topish va ishga jalb qilish shunchalik qiymlashadi. Natijada ish haqi stavkalari keskin oshib ketib, inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkin.

Albatta, 60-yillarning o'rtalariga qadar bandlikning oshishi narxlarning oshishiga, pasayishi esa narxlarning tushishiga olib kelishi haqidagi an'anaviy qarashlar so'ndi. Ammo 70-yillar o'rtalaridan boshlangan pasayish davrida ishsizlikning oshishi bilan birga narxlar ham oshib bordi. Avjga chiqqan 1974-yilda narxlar o'tgan yilga qaraganda 11 foiz oshgan bo'lsa, 1975 yilga kelib yana 9 foizga oshib ketdi. Bu davr ichida ishsizlik darajasi o'zining eng yuqori ko'rsatkichiga – 8 foizga chiqdi. 2010 yilda esa iste'mol narxlarining 1,5 foizga tushishi va ishsizlikning 9,6 foizga ko'tarilishi kuzatildi.



2.1-rasm. **Iste'mol narxlarining va ishsizlik darajasining o'zgarishi (1960-2010 yillar)**[37]

2.1-rasmda bunday noan'anaviy bog'liqlik ko'rsatilgan. 80-yillar davomida bir qadar an'anaviy modellarni kuzatish mumkin, 90-yillargacha bo'lgan uzoq davr mobaynida inflyatsiya va ishsizlik ko'rsatkichlari qarama-qarshi yo'nalishlarda harakat qilgan.

Manba: Data from U.S. Council of Economic Advisers (2006). Economic report of the president: 2006 (pp.332, 356).

[37] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 59.

Washington, DC: U.S. Government Printing Office; Economicreport of the president: 2011, 264.

Rasmda ko'rsatilganidek, 2000-yilga kelib oxirgi 40 yil ichida iqtisodiyotda eng past darajadagi inflyatsiya va eng kam ishsizlik ko'rsatkichiga erishildi. 2000-yildan 2005-yilgacha bo'lgan davrda inflyatsiya va ishsizlikning noan'anaviy ravishda birgalikda oshib borishi kuzatildi. O'n yillikning oxirgi qismida inflyatsiyaning past darajasiga erishilgani holda, teskari bog'liqlik bilan ishsizlik yuqori darajaga ko'tarildi.

1990-yillarda pul-kredit siyosatining fiskal siyosatdagi o'rnini o'rganganlar iqtisodchilar ishsizlikning tabiiy o'sishini qayta baholash va inflyatsiyaning ishsizlikka nisbatan o'sish sur'atlarini (*nonaccekrating inflation rate of unempwyment - NAIRU*) tadqiq qildilar. NAIRU ishsizlikning shunday darajasiki, ishsizlik undan past bo'lganda ish kuchiga bo'lgan ortiqcha talab ish haqinmg va narxlarning oshishiga olib keladi. Ilgari ushbu ko'rsatkich 5 foizdan 6 foizgacha bo'ladi, deb hisoblanar edi. Bu diapazondan pasaygan ishsizlik inflyatsiyaning o'sib borishi bilan birga ish baqining o'sishiga xizmat qiladi, deb taxmin qilinardi. 1968-yilda Milton Fridman Amerika Iqtisodiy Uyushmasiga (American Economic Association) ishsizlikning har qanday darajasida barqaror iqtisodiyotga erishish mumkin bo'lgan inflyatsiyaning tabiiy darajasini taklif qildi. Bunda handlikning oshishi inflyatsiyaga yoki uning kamayishi narxlarning tushishiga olib kelmaydi[1]. NAIRU konsepsiyasi 1990-yillarda ayniqsa, keng tarqaldi.

2.1-rasm shuni ko'rsatadiki, 1960-2010-yillar mobaynida ishsizlik o'sishining past sur'atlari (5 foiz yoki undan past darajadagi), faqat ishsizlik darajasi 6 foizdan 8 foizga oshishi hamda narxlarning ko'tarilishi kuzatilgan 1990-yilni istisno qilganda, inflyatsiyaning natijasi emas. Agar inflyatsiyaning tabiiy yoki uncha jadal bo'lmagan (ular turli, lekin bir-biriga bog'liq tushunchalar) darajasini aniq hisoblab chiqish mumkin bo'lsa, inflyatsiyani nazorat qilishga qaratilgan pul-kredit siyosati vositalarini ishsizlik darajasi NAIRUdan past

bo'lgandagina qo'llash mumkin bo'ladi. NAIRUning aniq hisobi bo'lmaganidek, turli boshqa usullar 1dan 2 foizgacha farq beradi.

Tabiiy va inflyatsion ko'rsatkichlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Masalan, qattiq qurg'oqchilik yoki sovuq qishning ta'sirida yirik sitrus mintaqalarni sovuq urib ketishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi ish haqiga og'irlik qiladi. Mehnat unumdorligining oshishi natijasida deflyatsion bosim chegarasi bo'lmagan narxlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmlari ko'payishi mumkin va mehnat unumdorligi darajasi o'zgarmas yoki ish haqining o'sishiga ta'sir ko'rsatmagan holda oshib borar ekan, yollangan ishchilar soni ham ko'payadi. Mana shu mutanosiblik AQSH iqtisodiyotining inqirozgacha bo'lgan davrdagi inflyatsiya va ishsizlik ko'rsatkichlarining nima uchun past darajada bo'lganligini izohlab beradi. Bundan tashqari ish o'rinlari uchun bo'lgan katta xorijiy raqobat milliy iqtisodiyot holatidan qat'iy nazar ish haqi darajasining past bo'lishiga sabab bo'ladi. Agar ish haqlarini jiddiy va tez-tez oshirish talab etiladigan bo'lsa, kompaniyalar ishlab chiqarishning xorijiy manbalarini qidira boshlaydilar.

2007 yilda boshlangan inqiroz tuzilmaviy ishsizlik muammosini keskinlashtirdi. 2012-yil boshiga kelib ishsiz yurgan 6 million amerikaliklar 6 oydan ko'p davrda ishsiz edilar. 2011-yilning o'rtalariga kelib moliya bozorlarining sog'lomlashishi va korporativ daromadlarning ortishiga qaramasdan ishsizlik darajasi 9 foizga yetdi va uzoq muddatli ishsizlik xavfini keltirib chiqardi.[24] Kongressning Byudjet boshqarmasi 2015-yilgacha ishsizlik darajasining 5,5 foiz atrofida saqlanib qolishini bashorat qilgan edi.[25] 2011-yilda taklif etilgan rag'batlantirish dasturlari, shu jumladan, Amerika mehnat to'g'risidagi Qonun (American Jobs Act), shuningdek, AQSH Federal Rezerv Tizimi raisi Ben Bernanke

tomonidan aytib o'tilgan fikrlar ishsizlik va bandlik masalalarida hali tuzilmaviy muammolar bo'lishi mumkinligini bildiradi.[26]

Kelgusida Qo'shma Shtatlarda yoki har qanday boshqa mamlakatda tuzilmaviy ishsizlikning oshib borishi jahondagi iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishi hamda kompaniyalarning o'z tovar va xizmatlarini chegaralar osha sotishining ko'payishi natijasi bo'ladi. Bunday sharoitda ishchi kuchi unumdorligini texnologik va infratuzilmaviy investitsiyalar hisobiga oshirish imkoniga ega bo'lgan davlatlarda ishlab chiqarish hajmlarining oshishiga va barqaroy, ishsizlikning kamayishiga erishiladi.[27]

Ishsizlik sog'lom iqtisodiyotning yagona, balki eng yaxshi ko'rsatkichi emas. Hatto ishsizlik va inflyatsiya eng maqbul darajada bo'lganda ham, iqtisodiyotda samaradorlik jiddiy pasayib borishi mumkin. YAIMning o'zgarishi ayrim hollarda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM ko'rsatkichi aholining yashash holatini yanada to'liqroq ko'rsatadi. Qo'shma Shtatlarda mehnat unumdorligining o'rtacha yillik o'sishi yoki aholi jon boshiga YAIMning o'sishi 1970-2009 yillar ichida 1,6 foizni tashkil qildi. Yaponiyada bu ko'rsatkich 1,8 foizni tashkil qilgan.

2.2-rasmda 1979-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda Amerika Qo'shma Shtatlari, Frantsiya, Kanada, Germaniya, Yaponiya va Birlashgan Qirollikning ko'rsatkichlari solishtirilgan. Ko'rsatkichlar mamlakatlarning inflyatsiyani hisobga olgan holda, aholi jon boshiga YAIMning o'zgarishini aks ettiradi. 1990-yilga kelib Yaponiya iqtisodiyoti AQSH va boshqa ilg'or davlatlar darajasidagi o'sish sur'atlariga erishdi. Yaponiya 1960-yildan 1980-yillargacha bo'lgan iqtisodiy hazaning nisbatan pastligi davrida eng yuqori o'sish sur'atlariga chiqdi.




2.2-rasm. **Ayrim davlatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YAIMning foizdagi o'zgarishi, 1979-2010-yillar**

Manba: Data from Office of Productivity and Technology, Bureau of Labor Statistics, U.S. Department of Labor (2011). International comparisons of GDP per capita and per hour: 1960-2010. Retrieved November 13, 2011, from http://www.bls.gov/fls/intl_gdp_capita_gdp_hour.pdf

1979-yildan boshlab Qo'shma Shtatlar, Kanada, Birlashgan Qirollik, umuman olganda, ko'pchilik Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan oshib ketdi. Mehnat unumdorligining oshishi va texnologik innovatsiyalar AQSH va Buyuk Britaniyaning ustunligini ta'minladi.[38] Xalqaro bozorning tobora ochiq bo'lib borishi AQSH va Birlashgan Qirollikning ishlab chiqarish samaradorligi bo'yicha ustunligining yana bir omili hisoblanadi. Kengroq qaraganda ish kuchining past mehnat unumdorligidan yuqori mehnat unumdorlik bilan ishlashga o'tishi umumiy iqtisodiy ko'tarilishni asoslaydigan ishonarli omil bo'lib hisoblanadi, shuningdek, bu omil

[38] McGuckin, R., & van Ark, B. (2006). Performance 2005: productivity, employment and income in the world's economies. New York, NY : Conference Board.

Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoy kabi yangi iqtisodiy kuchlarning paydo bo'lishini ifodalaydi.[39]

Inflyatsiya 2.2-rasmda aks etgan mamlakatlarda va rasmda qamrab olingan davrda ma'lum darajada o'zgarib turgan, lekin bu o'zgarish YAIM o'zgarish natijalariga ta'sir etmagan, chunki bu raqamlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YAIM ko'rsatilgan. Yaponiyada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIMning o'sishi, ko'rsatilgan davr ichida inflyatsiyaning ta'siriga bog'liq emas, lekin shu davrda Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanada yuqori darajadagi inflyatsiyani boshdan kechirgan edi. Agar nominal (inflyatsiyani hisobga olgan holda) YAIM ko'rsatkichi olinsa, bu ko'rsatkich Qo'shma Shtatlar va Kanadada rasmda ko'rsatilgan ayrim davrlarda yuqori bo'lar edi va boshqa mamlakatlarga nisbatan jiddiy farqlanar edi. Bu holat mamlakatlardagi mavjud holatga to'g'ri baho berish uchun real YAIMni o'rganishning muhimligini namoyish etmoqda.

## 2.4. Mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni prognozlash va oldindan baholash. Iqtisodiyotning holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va vositalar

*Iqtisodiy vaziyatni oldindan baholash.* Davlat sektoriga ham, xususiy sektorga ham iqtisodiy o'zgarishlarni baholash va iqtisodiy tendensiyalarni oldindan ko'ra bilish vositalari zarur bo'ladi. Agar biznes vakillari to'g'ri investitsion qarorlar qabul qilmoqchi bo'lsa (bular yangi ishchilarni yollash yoki yangi ishlab chiqarish obyektlarini qurish kabilarni o'z ichiga oladi), ular kelajakdagi iqtisodiy o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishlari kerak. Agar foiz stavkalari tushishi kutilayotgan bo'lsa, yangi ishlab chiqarish jihozlari sotib olish uchun qarz olishning mavridi emas. Agar mablag' yangi ishlab chiqarish

[39] MacMillan, M., & Rodrik, D. ( 2011). Globalization, structural change and productivity growth. NBER working paper 17143, June. Retrieved November 14, 2011, from http:/ / www.nber.org/papers/w17143.

quvvatlari uchun investitsiya qilinganda, umumiy soliq majburiyatlarini kamaytiruvchi soliq imtiyozlari mavjud bo'lsa va bu imtiyozlarning muddati tugab borayotgan bo'lsa, muddat tugamasdan oldingi vaqt yangi investitsiya qilish uchun juda qulay fursatdir. Bunday hodisalarning ba'zilarini ishonch bilan oldindan bashorat qilish mumkin. Xuddi R&D soliq kreditida bo'lganidek, investitsion soliq kreditining maxsus belgilangan tugash sanasi bo'lishi mumkin, ammo tajribadan ma'lumki, Kongress bunday kreditlardan voz kechishni xohlamaydi, ularni doimiy yangilab boradi. Aksincha, bashorat qilish oson bo'lmasligi uchun foiz stavkalarida bir qancha o'zgarishlar yuz beradi. Prognozlash vositalari biznesni iqtisodiy rejalashtirishda muhim komponent hisoblanadi.

Agar federal hukumat o'zining iqtisodiy siyosatdagi maqsadlariga erishmoqchi bo'lsa, o'zining iqtisodiy yo'nalishlarini oldindan belgilab olish uchun sezgir va mos o'lchov mezonlariga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, korporativ daromad solig'i maksimal stavkasining o'zgarishi yoki ijtimoiy ta'minot tizimidagi o'zgarishlarning kuchga kirishi kabi o'ziga xos siyosiy o'zgarishlarning sodir bo'lishini oldindan prognoz qiluvchi o'zgarishlar modelini ishlab chiqish zarur bo'ladi. Prognoz qilish texnikalari ancha keng bo'lsada, biznes vakillari va hukumat tomonidan yaqindan kuzatiluvchi o'lchov mezonlariga va prognozchilar tomonidan qo'llaniluvchi tahliliy modellarga yaqinligi sababli hukumatning iqtisodiy siyosatini tushunish uchun muhim hisoblanadi.

Biznesmenlar va hukumat prognozchilari bir qancha individual iqtisodiy indikatorlarni diqqat bilan kuzatib boradilar. Ba'zi indikatorlar mehnat ko'rsatkichlariga, jumladan, ishsizlik, bir haftada ishlangan o'rtacha ish soatlari va bir soatga to'g'ri keluvchi o'rtacha mehnat haqi kabilarga bog'liq bo'ladi. Boshqa indikatorlar foiz stavkasi va uy-joy qurilishidagi yengilliklarining boshlanishi kabi moliyaviy vaziyatlarni aks ettiradi. Kompaniyalar, prognozchilar va siyosatchilar joriy iqtisodiy holatni tushunish va hurilish

nuqtalarini, ya'ni iqtisodiy vaziyatning hozirgi holatidan qachon ko'tarilishi yoki tushishining boshlashini oldindan bilish uchun o'rganadilar.

Iqtisodiy burilish nuqtalari iqtisodiyotni oldindan babolashda alohida ahamiyatga ega bo'lib, u davriy indikator hisoblanadi. U shuningdek, *yetakchi*, *statik* va *ortda qoluvchi* nomlari bilan ham mashhurdir.[40] *Yetakchi* indikator burilish nuqtalarini o'rganish orqali kelajakda qanday o'zgarish sodir bo'lishini oldindan prognoz qiladi, *ortda qoluvchi* indikator esa ilgari qanday o'zgarish bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Avvalgi davrlarda AQSH Tijorat Departamentining Iqtisodiy tahlil byurosi davriy indikatorlarning har oyligini chop etib borgan. 1995-yil oktabrda Tijorat Departamenti biznes davrlari indikatorlari ma'lumotlari bazasini davom ettirish uchun xususiy, notijorat iqtisodiy tadqiqotlar va biznes a'zoligi tashkiloti bo'lgan Konferensiya Kengashi bilan shartnoma tuzdi. 1996-yildan boshlab Konferensiya Kengashi indekslarining rasmiy manbayi sifatida xizmat ko'rsatib keldi.

*Statik indikatorlar.* Statik indikatorlar ayni lahzada (ma'lum bir sanada) iqtisodiyot (trend) qay holda ekanligi haqida ma'lumot beruvchi indikatorlar bo'lib, har doim jamoatchilik e'tiborida bo'ladi. Ular sanoat mahsuloti ishlab chiqarish, shaxsiy daromad, ishlab chiqarish va chakana savdo bajmlari o'lchovlarini o'z ichiga oladi.

*Narxlar.* Biz yuqorida ishlab chiqarish va daromadlar darajasining qanday ekanligini ko'rsatuvchi, milliy mahsulot va milliy daromadning asosiy o'lchov mezonlariga tavsif berib o'tgandik. Narxlar iqtisodiy holatni ko'rsatuvchi yana bir o'lchov mezonidir. Ulgurji narxlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar haqida milliy daromad o'lchovlariga qaraganda vaqtliroq ma'lumot berishi mumkin, chunki ular ehtimoliy o'zgarishlarni xaridorlar tomonidan to'lanuvchi

[40] The Conference Board (2001). Business cycles indicator handbook. New York, NY: Conference Board.

narxlarda ifodalaydi. Ulgurji yoki ishlab chiqaruvchilar narx indeksi 2800 dan ortiq tovarlarni o'z ichiga oladi.

*Iste'mol narxlari indeksi (INI)* ishchi va xizmatchilar tomonidan sotib olingan tovar va xizmatlarning qiymatiga asoslanadi. U aksariyat tovarlarning narxi haqida ma'lumot to'plash uchun chakana savdo muassasalariga va boshqa savdo muassasalariga qo'ng'iroqlar va tashriflar, xaridlar xususiyatlarini aniqlash, uchun mamlakatning 87 ta aholi yashovchi hududlari bo'ylab 50000 dan ortiq uy-joy birlashmalari va 23000 dan ortiq chakana savdo muassasalarida davriy tanlanma kuzatishlar orqali uchta manbadan hisoblab chiqarilgan. Tanlab olingan uy xo'jaliklariga aholining ikki guruhi – shaharlarning barcha aholisi hamda maosh olib ishlovchi ishchi va xizmatchilar kiritilgan. Iste'mol narxlari indeksining o'zgarishi keng miqyosda inflyatsiya ko'rsatkichi hisoblanadi. Uning eng muhim amaliy ahamiyati shundaki, hukumat o'zining turli ijtimoiy dasturlarini, ayniqsa ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq qarorlarini inflyatsiyani hisobga olgan holda INI ko'rsatkichi bilan moslashtiradi. Ijtimoiy ta'minot to'lovlari iste'mol narxlari indeksining o'sishiga asoslangan holda avtomatik oshiriladi.

Iste'mol narxlari indeksining tuzilishi hukumat byudjeti va uning defitsitiga ta'sir etadi, shu sababli ko'pgina ziddiyatli munozaralarga sabab bo'ladi. Uy xo'jaliklarining sotib olish qobiliyatini o'rganish ishlari INI ko'rsatkichi darajasining e'lon qilishidan 4-5 oy oldin amalga oshiriladi. Xarid odatlari bo'yicha dolzarb maishiy tadqiqotlar indeksning nashr etilishidan to'rt yoki besh oylar oldin sodir bo'ladi. Milliy Fanlar Akademiyasining komissiyasi 2002-yilda Iste'mol narxlari indeksini aniqlash metodlarini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar tizimini ishlab chiqdi, ulardan ba'zilari qabul qilindi.[41] Shunki INIdagi o'zgarishlar byudjet prognozlariga ta'sir etuvchi asosiy parametr emas.

[41] Schultze, C. (2003). The consumer price index: conceptual issues and practical suggestions. Journal of Economic Perspectives, 17, Winter, 3-22.

Kongressning Byudjet boshqarmasi uzoq muddatli (10 yil) byudjet loyihalarida asosiy e'tiborni YAIMning real o'sishi, foiz stavkalari va inflyatsiya darajasi, YAIMda mehnat haqining ulushi kabilarga qaratadi.[42]

*Ishsizlik.* Ishsizlik va sanoat ishlab chiqarilishi hajmi iqtisodiyot joriy holatini ko'rsatuvchi ikki muhim ko'rsatkichdir. Ishsizlik, ish kuchining ish bilan band bo'lmagan qismining foizdagi ifodasi – davlat siyosatining maqsadli ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu mezon siyosiy jihatdan juda ahamiyatlidir. Ishsizlik darajasining 0,5 foizga o'sishi yoki pasayishi prezidentni mamlakat ommaviy axborot vositalarida iqtisodiy taraqqiyot haqida bayonot berishiga yoki oppozitsiya liderlarining iqtisodiyotning pasayib borayotganligi uchun prezidentni ayblash uchun asos bo'la oladi. Biroq ishsizlikka keng ko'lamli mavsumiy tebranishlar ta'sir etadi va uni o'lchash ko'pgina murakkab omillarga bog'liq. Ayollar va irqiy ozchilik guruhi vakillari, qidirgani bilan o'ziga mos keluvchi ish o'rinlari yo'qligiga yoki qidirishga arziydigan ishning yo'qligiga ishonchi komil bo'lganligi uchun ish qidiruvchilar qatorida qayd etilmasligi ham mumkin. Shuning uchun ishsizlik ma'lumotlari har doim ehtiyotkorlik bilan talqin etilishi lozim. Ishsizlik ko'rsatkichlari mamlakatning turli hududlari, shtatlar va subshtat hududlar bo'ylab turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, qishloq hududlari qattiq iqtisodiy zarbaga uchragan paytda, shahar hududlari kamroq aziyat chekishi mumkin. Iqtisodiyoti avtomobilda sayohat qiluvchi turistlar tashrifiga bog'liq bo'lgan shtat yoqilg'ining yuqori narxlariga nisbatan ta'sirchan bo'lishi va natijada o'sha shtatlarda ishsizlikning oshishi kuzatilishi mumkin.

*Sanoat ishlab chiqarishi.* Sanoat ishlab chiqarishi indeksi Federal Rezerv Tizimi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uzoq vaqt ishlatiladigan mustahkam tovarlar ishlab chiqarilishining o'lchovi hisoblanadi. Chidamli mahsulot ishlab chiqarish,

---

[42] U.S. Congressional Budget Office (2011). Budget and economic outlook: fiscal years 2011-2021.

aynıqsa, po'lat ishlab chiqarish sanoati boshqa sanoat tarmoqları uchun katta ahamıyatga ega. Chunki boshqa sanoat tarmoqlarının rivojlanıshi po'lat va shu kabı qattiq metallarnıng ishlab chiqarish hajmlarıga bog'liq bo'ladi. Po'lat ishlab chiqarish va sotish hajmlarının o'sıshı kelgusida kapital obyektlarga investitsıyalarnıng oshırılishiga turtkı bo'ladi, pasayıshi esa iqtısodiyotga bo'lgan ishonchnıng kamayishiga olib keladi va korxonalar o'z zaxıralarını kamaytırish harakatiga tushib qoladilar. Bu indeksnıng ahamıyati iqtısodiyotnıng ishlab chiqarish segmenti xızmatlar segmentiga qaraganda kamayganligi hois birmuncha pasaydi.

*Yetakchi indikatorlar.* Statik indikatorlar iqtisodiyotnıng joriy yokı so'nggı holatını o'lchashda foydali bo'lıshiga qaramasdan, ular ko'pincha murakkab strategiyalarni belgilab olish uchun yetarlicha vaqt bera olmaydi. Prognozchilar natija sifatida yetakchi indikatorlarga murojaat qiladilar. Yetakchi indıkatorlar ishsızlıknıng o'rtacha davomiyligı, shunıngdek, tijorat va sanoat kreditlarının, tovar va xızmatlar iste'mol narxları indekslarınıng, ishlab chiqarish va savdoda tovar-moddiy zaxıraları indekslarınıng o'zgarıshı kabi ma'lumotlarnı o'z ichiga oladi

*Bandlik bilan bog'liq indikatorlar.* Asosıy yetakchi indikatorlardan bırı ishlab chiqarıshdagi *o'rtacha haftalik ish soatlandir.* Aksarıyat ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish uchun talab qısqara boshlasa, ishchilarnı ishdan bo'shatısh o'rniga, ish haftası uzunligını qısqartırish amaliyotını qo'llaydilar. Yana bir indikator ishsızlikdan sug'urta qilish bo'yıcha haftalik birlamchi murojaat ko'rsatkichi bo'lib, u ishdan bo'shatısh darajasnıng ortıshi yoki kamayıshını ko'rsatadi. Har ıkkala indikator ish beruvchilarnıng iqtısodiyotdagı kutilayotgan o'zgarıshlarga bo'lgan munosabatını ifodalaydi.

*Uy-joy qurilishining boshlanishi.* Xususıy, noqıshloq xo'ja-lik uy-joylar qurilishınıng boshlanıshı iqtısodiyotnıng sog'lom-lashayotganligı va quruvchilar va moliyaviy investorlarnıng

ishonchi oshayotganligidan dalolat beradi va yangi xususiy uy-joy qurilishi uchun ruxsatnomalar soni bilan baholanadi. Yangi qurilishlar sonining kamayib borishi kelajakda iqtisodiy qisqarishlar haqida dalolat beradi. Uy-joy qurilishi boshlangan vaqtda bunday qimmatbaho tovar uchun bir necha oylar ichida yoki yillab xaridor topilmasligi mumkinligi uy-joy qurilishiga investitsiya kiritishni qiyinlashtiradi. Misol uchun, Michigan (Flint) shtatining bir hududida 2000-yillarning o'rtalarida uy-joy qurilishidagi uddiy inqiroz natijasida avtomobil sanoatidagi band ishchilarning qisqarishi yuz bergan va ularning jiddiy jahr ko'rishlariga olib kelgan. Vaziyat shu darajada yomon edki, nafaqat uy-joy qurish shirkatlari, balki davlat uy-joy inspektorlari ham nazorat qilish uchun hech qanday obyekt qolmaganligi tufayli ishsiz qoldilar. 2007-yilda ipoteka bozoridagi yirik moliyaviy pufaklarning yorilishi bamma shtatlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi, Florida va Nevada shtatlari boshqalardan ko'proq zarar ko'rdi.

Yangi uy-joy qurilishining boshlanishi, shuningdek, ipoteka stavkalariga ham favqulotda sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Juda yuqori stavkalar davrida, xususan 1980-yillarning boshlarida ko'plab potensial xaridorlar bozorni tark etishdi. 1990-yillarda va 2000-yillarning birinchi o'n yilligida ipoteka stavkalari yaqin ellik yillikdagi eng past darajasiga tushdi, hattoki 2001-yil 11-sentabrdan keyin ham uy-joylar qurishga kirishish o'sib bordi. 2001-2002-yillardagi moliyaviy faoliyat-ning muhim jihati shundaki, yangi qurilgan uylarni moliyalashtirishdan ko'ra, mavjud ipoteka kreditlarining qayta moliyalashtirilishi yuqori bo'ldi.

So'nggi yillarda uy-joy qurilishi biroz isbonchsiz bo'lgan yetakchi indikator bo'lib qoldi. Ipoteka kreditlarining tartibga solib turuvchi stavkalarning qo'llanilishi hisobiga o'sishi uy sotib oluvchilarni foiz stavkasidagi davriy tebranishlardan moliyaviy himoya qilish imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, foiz stavkasi yuqori bo'lgan davrlarda uy-joylar uchun yuqori talabni ushlab turadi. Biroq tobora murakkab bo'lgan

moliyaviy vositalar va qarz oluvchilar ustidan zaif nazorat oxirgi o'n yillikda uy-joy qurilishida "iqtisodiy portlash"ga sabab bo'ldi. Pufak yorilgach, qaytarib olish huquqi bo'lmagan rekord darajadagi yo'qotishlar inqirozga yetakladi. AQSH da uy-joy sanoatida turg'unlikdan jonlanishga o'ta boshlagani uchun har qanday holda ham uy-joy qurilishiga mukkasidan ketish 2007-yildagi pufakning yorilishiga ta'sir etdi.[43]

*Fond bozorlari.* Fond bozorlari ishbilarmon doiralar va hukumat tahlilchilari tomonidan diqqat bilan kuzatib boriladi, ammo ularning tez o'zgaruvchanligi yetakchi indikator sifatida foydalanishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Nyu-York fond birjasi (NYSE) tarixan eng ko'p kuzatilgan bozordir. NASDAQ (Xavfsizlik dilerlarining avtomatik tijorat takliflari milliy assotsiasiyasi) texnologik aksiyalar katta hajmda sotiladigan, iqtisodiyotda axborot va kommunikatsion texnologiyalar ulushining ortishi hisobiga yanada muhimroq bo'lib qolgan uyushmadir. Shuningdek, London va Tokio bozorlari ham kuzatib boriladi. Rivojlanayotgan fond bozorlarida investitsiyalardagi jiddiy o'sish va ulardagi tebranishlar boshqa bozorlarni ayniqsa, 1990-yillarning so'nggidagi tebranishlardan keyin yanada mas'uliyatliroq bo'lishni talab etadi. Misol uchun, Gonkong fond bozori indeksi haqida kunlik ma'lumot berib boriladi.

Birja bitimlarining bir qancha jamlanma indekslaridan foydalaniladi, ularning ichida eng ahamiyatlilari *Dow Jones Industrial* va *Standard & Poor's* indekslari hisoblanadi. 1990-yillarning oxirlarida bu indekslarga kiritilgan ba'zi kompaniyalar aksiyalarining qiymatlari deyarli nolga tushib ketgan va ba'zilari biznesni tark etganligi sababli yanada o'zgaruvchan bo'lib qolganligiga qaramasdan qimmatli qog'ozlar listingida o'sha indekslarda kamdan kam o'zgarishlar kuzatiladi. Misol uchun, yirik firmalarni, xususan Walt Disney kompaniyasi va Exxon Mobil Corporation korporatsiyasini o'z

[43] Housing and the economy: rising from the ruins. (2011). The Economist, 401, November 5, 37.

ichiga olgan Dou-Jons Indastrialning o'rtachaning (DJIA) 30 talik birja kotirovkalarida ro'yxatdan to'rt kompaniya aksiyalarini chiqarib tasblab, boshqa to'rttasmi qo'shish kabi katta o'zgarishlarda ham 1980-yildan 1997-yilgacha katta o'zgarishlar yuz bermasdan qoldi.

1997-yildan boshlab, Dou-Jons moliyaviy chayqovchiligi va qalbaki daromad topishi oshkor bo'lgan Enron kompaniyasini o'z tarkibidan chiqardi va Amerika Banki, Chevron va Kraft Foodslarni o'z ro'yxatiga qo'shdi. Kraft Foods 2007-yildagi bozor qulashlarida xonavayron bo'lgan Amerikaliklar Xalqaro Guruhi o'rnini egaliagan edi. AQSH iqtisodiyoti xizmatlar va texnologiyalar sanoatiga tayanib faoliyat ko'rsatishi sababli ko'plab qo'shimcba va o'zgartirishlar uchun zarurat yuzaga keladi. Misol uchun, iqtisodiyotning xizmatlar tarkibiy qismining ko'proq qismim ifodalash uchun indeks tarkibiga Vol-Mart qo'shib olindi, shuningdek, Microsoft va Hewlett-Packard kabi informatsion texnologiyalar vakillari ham qo'shib olindi. Facebook kabi xususly kompaniyaning bozorga kirishi DJIAning 30 talik birja kotirovkalarida o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Birja operatsiyalari yetakchi indikatorlar uchun foydalidir, sababi ular ochiq bozorda aksiyalar kotirovkalariga investorlarning ishonchini va shu orqali aksiyalari birjada sotiladigan kompahiyalarga nisbatan ishonchni aks ettiradi. Birja operatsiyalari investorlarning ishonchini belgilovchi barometr silatida foydali bo'lishi mumkin. Aksiyaning qiymati firmalarning iqtisodiy holatini aks ettiradi. Amalda, korporativ yutib chiqishlarga urinishlar va yutib chiqishni ta'minlash uchun kurasblar yoki birjadagi bema'ni investorlarning ishtiroki sababli aksiyalar narxlarining cheklanmagan darajada o'sishiga ishonchning yuzaga keltirilishi natijasida birjaga katta hajmda oqib kirishi yoki kamayishi mumkin.

2007-yildagi bozor halokatlaridan keyin fond bozori tahlilchilarining tavsiyalarini tanqid qilisb kuchayib ketdi. DJIA indeksi 2007-yil sentabr va oktabr oylaridagi 15000 dan

balandroq bo'lgan darajadan, 2009-yilning fevralida o'zining eng past darajasi 7500 dan kamroq darajaga tushib ketdi. 2011-yil noyabr oyigacha bozor o'z yo'qotishlarini 60 foizgacha tiklab olib 12000 atrofidagi darajaga yetdi.[44] Bu jihatdan aksiyalar narxlari korporatsiyalar iqtisodiy holatini boshqacha talqin qiladi va bunday narxlar iqtisodiy indikator sifatida qo'llanilishi xato hisoblanadi.

*Jamlanma indikatorlar.* Birlashgan indikatorlarning bir qanchasi iqtisodiy o'zgarishlar va tendensiyalarni baholash uchun foydalaniladi. Ilgari aytib o'tilganidek, xususiy Konferensiya Kengashi yetakchi, ortda qoluvchi va statik indikatorlar ma'lumotlar bazasi va ularning hisoblab chiqarilishi ustidan egalik qilishni boshladi. Konferensiya Kengashining indikatorlari va jamlanma ma'lumotlari umumiy iqtisodiyotni aks ettiradi. Jamlanma indikatorlar bir nechta yakka indekslarni birlashtirish orqali hisoblanib, Kengash tomonidan oyma-oy chop etib boriladi.

Jamlanma indikatorning bir turi *tarqalish indeksidir.* U indeksning bir yo'nalish bo'yicha harakatlanayotgan individual komponentlari ulushini ifodalaydi. Tarqalish indeksining sondagi ifodasi indeksning bir yo'nalish bo'yicha harakatlanayotgan tarkibiy qismlarining foizdagi ifodasidir. Misol uchun, yetakchi jamlanma indeksning tarqalish indeksi har bir komponent uchun mos ravishda 5 foiz atrofidagi tebranishlarga asoslanib, 1, 0,5 yoki 0 qiymatlarda belgilanadi.[45] Qolaversa, birja tahlilchilari va savdo nashrlari asosiy bozorlar indekslarini hisoblab borishadi va chop etishadi.

*Iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar. Avtomatik stabilizatorlar (rag'batlantirish).* Davlatning iqtisodiy siyosat

---

[44] Dow Jones Industrial and Transportation averages. (2011). Retrieved November 17, 2011, from http:// www.thumbcharts.com/ 1343 1 dowjones industrial-and-transportati on-averages.

[45] The Conference Board (2011). How to compute diff usion indexes. Retrieved November 13, 2011, from http://www.conference-board.org/ data/bci/ index. cfm?id=2180.

maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan xatti-harakatlari diskretsion yoki avtomatik tarzda bo'lishi mumkin. Diskretsion aralashuvda siyosatchilar yuzaga kelgan har bir holatda iqtisodiyotga aralashuvning muqobil variantlarini ishlab chiqadilar va tegishli boshqaruv qarorlarni qabul qiladilar. Bundan farqli ravishda, avtomatik yoki bevosita stabilizatorlar siyosatchilardan biror bir maxsus choralar ko'rishni talab qilmaydi. Ba'zi davlat daromadlari va xarajatlari, iqtisodiyotdagi o'zgarishlar ta'sirida avtomatik ravishda ortadi yoki kamayadi. Daromadlar ayniqsa, iqtisodiyot holatining ko'rsatkichlariga ta'sirchan bo'lib, daromadlarning kamayib borishi bilan soliq tushumlari ham kamayadi. Shtatlar va munitsipal daromadlar davlatning aralashuvisiz iqtisodiy holatning o'zgarishi ta'sirida ortib yoki kamayib boradi. Ayrim hollarda shtatlar hukumati, byudjet muvozanatini ta'minlash uchun sotish va foyda solig'idan tushumlarning kamayishi sharoitida xarajatlarni kamaytirishga majbur bo'ladi. Federal hukumat bundan farqli ravishda, tarixan o'z xarajatlarini tushumlariga mos ravishda pasaytirishga shoshilmaydilar.

Manba: Data from U.S. Council of Economic Advisers (2011). Economic report of the president: 2011 (pp. 188, 283). Washington, DC: U.S. Government Printing Office.

2.3-rasm 1963-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda YAIMning o'zgarishi bilan federal byudjet daromadlarining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Ayrim hollarni istisno qilganda, birday tezlikda kechmasa-da, YAIMning kamayishi daromadlarning kamayishiga olib keldi va aksincha.



2.3 rasm. **Yalpi ichki mahsulot va federal daromadlarning o'zgarishi (1963-2010 yillar)**[46]

Masalan, 1987-1988-yillarda federal daromadlarning o'sish sur'atlari YAIMning o'sishiga qaraganda ildamlab ketdi. Xuddi shuningdek, 2008-2009-yillarda YAIMning pasayishiga hamohang tarzda federal daromadlar ham kamaydi. Rasmda aks ettirilgan davrning ko'pchilik yillarida o'zgarishlar shu yildayoq kuzatilgan. YAIMning qisqarish sur'atlari bilan federal daromadlarning kamayish sur'atlari o'rtasidagi farq juda kichik, chunki federal daromadlarning katta qismini YAIMning tarkibiga kiruvchi soliqlar (korporativ va shaxsiy soliqlar) tashkil qiladi. Federal darajadagi davlat daromadlari barqaror iqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi bilan avtomatik ravishda pasaymaydi. Aslini olganda, ular o'sib borish tendensiyasiga ega. Soliq tushumlarining kamaytirilishi va xarajatlarning oshirilishi avtomatik tarzda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Soliqlarning progressiv tuzilishi bevosita yoki avtomatik stabilizatorlarga yana bir misol bo'ladi. Iqtisodiyotning pasayishi bilan korporativ daromadlar va ishchi-xizmatchilarning ish haqlari kamayib boradi. Ham korporativ,

[46] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. PUBLIC BUDGETING SYSTEMS. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 81.

ham shaxsiy soliqlarning pasayib borishi natijasida xususiy sektorda investitsiyalar uchun mablag'lar proporsional ravishda ko'payadi va bu talabni rag'batlantiradi. Shuningdek, iqtisodiyotning kengayishi bilan soliq tushumlarining oshishi rivojlanishga, shu bilan birga inflyatsion bosimning ortishiga bir qadar to'siq bo'ladi. Ishsizlik sug'urtasi ham avtomatik stabilizatorlarga misol bo'ladi.

Nodavlat stabilizatorlar ham iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlarnig ajralmas qismi hisoblanadi. Retsessiyalar jamg'armalardan o'z faoliyatining ma'lum darajasini ta'minlash uchun foydalanadigan yuridik va jismoniy shaxslarga to'sqinlik qiladi. Daromadlarning o'sishi bilan ularning katta qismi iste'molga yo'naltirilmay, jamg'armalarga joylashtiriladi.

*Diskretsion siyosat.* Diskretsion aralashuv ham xilma-xildir. U mikro- va makroiqtisodiyotning iqtisodiy nazariyasiga asoslangan bo'lib, hukumatning soliqqa tortish va xarajatlar orqali, pul massasini hamda pul-kredit tizimida pul mablag'larining harakatini o'zgartirish orqali ta'siriga iqtisodiyot qanday javob berishini oldindan ko'ra oladi. Aytib o'tilgan birinchi harakatlar fiskal siyosat deb ataladi. Keyingilari esa monetar siyosat, deb nomlanadi.

*Fiskal siyosat dastakleri.* Fiskal siyosatning qurollari bo'lib daromadlar, xarajatlar, kutilayotgan profitsit yoki defitsit hisoblanadi. Ulardan foydalanish XX asr davomida rivojlanib keldi va XXI asrda davom etdi, shuningdek, davlatning iqtisodiyotdagi roli to'g'risidagi qarashlarning ustuvorligiga qarab o'zgarib turdi. Aksariyat qarashlarga ko'ra, iqtisodiyotga davlat tomonidan qisman aralashish maqsadga muvofiq. 30-yillardagi Buyuk depressiya davrida, talab shu darajada tushib ketdiki, hukumatning kichik xarti-harakatlari deyarli hech qanday samara bermadi. Faqatgina Ikkinchi Jahon urushining federal byudjet defitsiti hisobidan moliyalashtirilgan hamda majburiy o'sishni ta'minlagan favqulodda ishlab chiqarish talablari iqtisodiyotni "erkin tushish"dan saqlab qoldi. Bevosita urushdan keyingi davrda urush paytida taqchil bo'lgan iste'mol

tovarlariga bo'lgan talab keskin oshib ketdi, va davlatning iqtisodiyot uchun biron narsa qilishga ehtiyoj qolmagandek edi.

### 2.5. Fiskal va monetar siyosatning uyg'unligi, ularning davlat byudjetining holatiga ta'siri

*Fiskal va monetar siyosat uyg'unligi.* Garchi iqtisodchilar fiskal va monetar siyosat instrumentlariga e'tibor qaratish masalasida turli nuqtayi nazarga ega bo'lsalar-da, har ikkala siyosat vositalari, bevosita yoki bilvosita bir vaqtda amal qiladi. Ayrim hollarda ular bir-birini to'ldiradi. Boshqa holatlarda fiskal siyosat asoratlari monetar siyosat choralari bilan tekislanadi. Ko'pchilik tahlilchilar fiskal yoki monetar siyosatning tez-tez o'zgarib turishi iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi sababli ekanligidan tashvish bildiradilar. Iqtisodiy o'zgarishlarning uzoq muddatdagi istiqbolini to'g'ri bashorat qila bilmaslik va hukumatlarning sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga tez munosabat bildira olmasligi iqtisodchilarni shu fikrga olib kelaki, byudjet siyosati uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlarga qaratilishi va monetar siyosat esa esa muddatda tuzatishlar kiritishga qaratilgan bo'lishi kerak. Fiskal va monetar siyosat tarafdorlari o'zaro kelishib olmagan bo'lsalar ham ko'pchilik iqtisodchilar 1980-yillardagi, 1990-yillarning boshidagi va 2002 yildan keyingi byudjet defitsitlari iqtisodiyot uchun juda salbiy ta'sir ko'rsatganini e'tirof etdilar.

Fiskal va monetar siyosat to'g'risida gap borganda, bu bilan shug'ullanuvchi turli tashkiliy tuzilmalar "Umumiy iqtisodiy siyosat uchun kim javob beradi" degan savolni ko'tarishing qo'yadilar. Monetar siyosat buning uchun Federal Rezerv Tizimi mas'ul ekanligini asosli ravishda ta'kidlaydi.

Fiskal siyosat birmuncha murakkabroq. Siyosatning asosiy yo'nalishlari uchun – prezidentga va amalga oshirish uchun Kongressga mas'uliyat yuklatilgan. Iqtisodiy maslahatchilar kengashi, shuningdek, boshqa masalalar bo'yicha maslahatchilar prezident tomonidan Kongressga

qanday tavsiyalar berish borasidagi qarorlarini qabul qilishga o'z hissalarini qo'shadilar. Tarixan shunday shakllanganki, Kongress byudjetning umumiy holatiga va iqtisodiy siyosatga byudjet bo'yicha rezolyutsiyani qabul qilish chog'ida e'tibor qaratadi. Daromadlar va xarajatlar darajasi defitsit bilan (yoki ayrim hollarda profitsit bilan) o'rnatiladi. Soliq stavkalari ularning yuqori yoki past bo'lishi kerakligi to'g'risidagi munozaralar asosida davriy ravishda qonunchilik bilan o'rnatiladi. So'ng G'aznachilik Departamenti soliq ma'murchiligi uchun javobgarlikni amalga oshiradi. Xarajatlar bir qator qonun loyihalari bilan o'rnatiladi, ularning har bir moddasi alohida podkomitetlar tomonidan ishlab chiqilib, ularning ijrosi uchun alohida ijrochi organlar mas'ul bo'ladi. Boshqarish va byudjet Byurosi (The Office of Management and Budget - OMB) xarajatlar tuzilmasiga proporsional taqsimlash orqali bir qadar ta'sir ko'rsata oladi.

Iqtisodiy masalalarda federal hukumatning muhim rolini hilgan holda, prezident Klinton 1993-yilda Milliy iqtisodiy kengashning (National Economic Council - NEC) tuzilishiga asos soldi. NEC iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish masalalari uchun javob beradi hamda unga parallel bo'lgan tashkilot – Milliy xavfsizlik kengashi (National Security Council - NSC) milliy xavfsizlik masalalari uchun mas'uldir. NEC prezident maslahatchisi bo'lgan ko'p sonli kabinetlar va prezidentning ijrochi apparati agentliklari, shu jumladan, iqtisodiy maslahatchilar Kengashi (Council of Economic Advisers - CEA), OMB va G'aznachilik Departamenti o'rtasida koordinator bo'lib xizmat qiladi.[47] NECning funksiyalari ijroiya hokimiyatining iqtisodiyot bo'yicha xatti-harakatlari prezidentning iqtisodiy siyosatiga mos kelishini ta'minlashga qaratilgan.

Oxirgi davrlarda barcha ajratmalar bo'yicha hisoblarni siyosiy jihatdan boshqara olmaslik, federal byudjetning

[47] Exec. Order No. 12835, 3 C.F.R. 6189; National Economic Council (2011). Overview. Retrieved November 14, 2011, from http://www.whitehouse.gov/administration/eop/nec.

defitsitligi, shuningdek, xarajatlarning kamaytirilishi bilan daromadlarning oshirilishi o'rtasidagi uzilishning chuqurlashib ketishi umumiy byudjetning va iqtisodiyotning holatini ko'rsatmoqda. Kelishuvga erishish yoki hech bo'lmaganda kelishish uchun muzokaralar o'tkazish natijasida prezident, Palata spikeri, Senatdagi ko'pchilik va Kongressning hal qiluvchi ba'zi a'zolari, shuningdek, Federal Rezerv Tizimi raisi doirasida chegaralandi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyot holatiga ta'sir nimalarda namoyon bo'ladi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi qanday omillarga bog'liq?*

*2. Davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etish dastak va vositalari nimalardan iborat?*

*3. Bandlik, ishsizlik, inflyatsiyaning mohiyati nimadan iborat, ular davlat byudjetining holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

*4. Mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni prognozlash va oldindan baholashning zarurligi nimada? Iqtisodiyotning holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va vositalar nimalardan iborat?*

*5. Fiskal va monetar siyosatning uyg'unligi nima uchun zarur va ularning davlat byudjetining holatiga ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Statistik ma'lumotlardan foydalangan holda bir nechta xorijiy davlatlarning yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, milliy daromad ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlilini tayyorlang, ma'lumotlarni jadval va grafik shaklida ifodalab umumlashtiring.*

*2. Xorijiy davlatlarda iqtisodiy taraqqiyotning shu mamlakat davlat byudjeti holatiga ta'siri to'g'risida taqdimot tayyorlang va himoya qiling.*

## 3-BOB. BYUDJET TUZILISHI VA BYUDJET TIZIMI

### 3.1. Davlat tuzilishi shakllari va ularning mamlakatdagi byudjet tuzilishiga ta'siri. Byudjet tuzilishi modellari

Byudjet tuzilishining qanday bo'lishi mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga va markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlar taqsimotiga bog'liq. Markaziy hukumat bilan mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari (xorijiy mamlakatlardagi shtatlar, provinsiyalar, oblastlar, o'lkalar, yerlar kabi) o'rtasida hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishiga ko'ra barcha davlatlar *unitar va federativ* (federativ davlatlarda davlat tuzilishining ikki shakli – federativ va konfederativ davlat tuzilishi mavjud) davlatlarga bo'linadi. Unitar va federativ davlat tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagi chizmada aks ettirilgan (3.1-rasm).

*Unitar (yagona) davlat* – bu tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklar (tuzilmalar) o'z davlatchiligiga yoki muxtoriyatiga (avtonomiyaga) ega bo'lmaydigan davlat tuzilishidir. Mamlakatda yagona konstitutsiya, hamma uchun umumiy bo'lgan huquq tizimi va yagona hokimiyat organlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning markazlashtirilgan boshqarish tizimi amal qiladi.

Unitar davlatlarga Angliya, Fransiya, Italiya, Vengriya, Qozog'iston, Yaponiya, Shvetsiya, Polsha, O'zbekiston kabi davlatlar kiradi.[48]

*Federatsiya* davlat tuzilishining ancha murakkab shakli hisoblanadi. Federativ davlat bir qancha boshqa davlatlardan yoki federatsiya a'zosi (subyektlari) bo'lgan davlat

---

[48] Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir va mualliflar jamoasining rahbari B. Mustafoyev – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2006-yil. – 584 bet. Manba: http://www.lex.uz/dictionary

tuzilmalardan (shtatlar, kantonlar, ittifoqdosh yoki avtonom respublikalar va b.) tarkib topadi.




3.1-rasm. **Turli davlatlarning davlat tuzilishi shakllari xususiyatlari**[49]

Ularning bar biri o'z ma'muriy-hududiy bo'linishiga ega. Butun federatsiya uchun umumiy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan bir qatorda, bar bir federatsiya subyektining hududida o'z davlat hokimiyati va boshqaruvining oliy va maballiy organlari faoliyat ko'rsatadi. Federatsiya a'zolari (subyektlari) o'zining sud organlari va boshqa adliya organlariga ham ega bo'ladi, o'z konstitutsiyasi va qonunlarini qabul qiladi.[50] Federativ davlatlarga Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi, AQSH, Kanada, Meksika, Avstriya, Belgiya, Shveytsariya kabi davlatlar kiradi.

**Konfederatsiya** – davlatlarning ittifoqi bo'lib, xalqaro-huquqiy xarakterga ega. Konfederatsiya yangi davlatning vujudga kelishiga olib kelmaydi. Jahon tarixida konfederatsiyalar vujudga kelib, ulardan federativ davlatlar ajralib chiqqanligi hamda bog'liq voqealar uchrab turadi. Ayrim davlatlar amalda federativ davlatlar bo'lsada (Shveytsariya, Kanada), o'z nomlarida konfederatsiya qo'shimchasini saqlab qolganlar. Yaqin o'tmishga qaraydigan bo'lsak, ayrim konfederatsiyalar tashkil etilib, uzoqqa cho'zilmaganligiga guvoh bo'lamiz (masalan, Senegambiya - Senegal va Gambiyaning 1981-1989-yildagi ittifoqi).

---

[49] Nurmuxamedova B. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. 117-bet.

[50] Konstitutsiyaviy huquq. Ensiklopedik lug'at. Mas'ul muharrir va mualliflar jamoasining rahbari B. Mustafoyev – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2006-yil. – 584-bet. Manba: http://www.lex.uz/dictionary

*Konfederatsiya* nishatan kam tarqalgan davlat tuzilishi shaklidir. Konfederatsiya davlatlar birlash-masi yoki ittifoqi bo'lib, uni tashkil etuvchi davlatlar o'z mustaqilligini to'la saqlab qoladi, o'zining hokimiyat, boshqaruv va adliya organlariga ega bo'ladi. Konfederatsiyaga a'zo davlatlar o'z faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qo'shma organlar tuzadi. Mazkur organlar qat'iy belgilangan sohalarda faoliyat ko'rsatadi va qat'iy belgilangan (iqtisodiy, siyosiy, harbiy va h.) maqsadlarni ko'zlaydi. Konfederatsiyaga ba'zan davlatlarning federatsiyaga birlashish sari tutgan yo'lidagi oraliq bo'g'in, deb ham qaraladi.

**Federatsiya va konfederatsiyaning asosiy farqlari:**

- Federatsiyaning huquqiy asosi dastlab shartnoma, keyinchalik esa konstitutsiya bo'ladi. Konfederatsiyaning huquqiy asosi bo'lib faqat shartnoma maydonga chiqadi.
- Federatsiya - davlat-huquqiy maqomdagi tashkilot, buning natijasida esa yangi davlat vujudga keladi; Konfederatsiya esa xalqaro-huquqiy ittifoq bo'lib, davlat sifatida qabul qilinishiga hali erta.
- Federatsiya hududi yagona maqomga ega; Konfederatsiya esa yagona hududga ega bo'lmaydi, uning hududi mazkur ittifoq tarkibiga kiruvchi davlatlarning hududidan tashkil topadi.
- Federatsiya yagona fuqarolik o'rnatilgan, Konfederatsiyada esa yagona fuqarolik mavjud emas, lekin konfederatsiya hududida shaxs maqomining bir-biriga yaqinligini ta'minlab beruvchi normalar o'rnatilishi mumkin.
- Federatsiyada davlat hokimiyati(qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati)ning yagona organlari mavjud; Konfederatsiya bunday organlarga ega emas, u yerda faqat yagona maqsadlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi muvofiqlashtiruvchi organlar shakllantirilishi mumkin.
- Federatsiyada umumiy huquqiy aktlarning federatsiya subyektlari aktlaridan ustunligi prinsipi amal qiladi; Federatsiyada federal organlar tomonidan federatsiya subyektining aktini chekuv yo'l yoki nizomi ko'rib chiquvchi konstitutsiyaviy nazorat organlari tomonidan bekor qilinishi mumkin bo'lgan tartib mavjud. Konfederatsiyada esa uning muvofiqlashtiruvchi organi chiqargan qaror konfederatsiya a'zolarining organlari qarorlari orqali qabul qilinadi. Bu qarorlar yo ratifikatsiya qilinadi yoki boshqa yo'l bilan tan olinadi. Bunda konfederatsiya a'zolari umumiy qarorlarni o'zlari uchun majburiy, deb tan olmaslikleri mumkin.
- Federatsiyalarda yagona qurolli kuchlar mavjud. Faqat ayrim holatlardagina federatsiya a'zolariga ayrim qurolli kuchlarga ega bo'lishga ruxsat berilar edi. Lekin ular barbir yagona qurolli kuchlar tarkibiga kirar edi (masalan, sobiq Sovet Ittifoqining siyosiy tarixidagi ayrim davrlarni olsak, ittifoqdosh respublikalarga harbiy qo'shinga ega bo'lishga ruxsat berilar edi). Konfederatsiyada esa unga kiruvchi davlatlarning mustaqil armiyalari mavjud, ular umumiy qo'mondonlik asosida birlashtirilishi mumkin. Davlatlarning kelishuviga binoan turli davlatlarning harbiy kontingentlaridan tashkil topgan yagona armiya tuzilishi mumkin, lekin davlatlar o'zlarining qurolli kuchlarini ham saqlab qolish huquqiga ega.
- Federatsiyada yagona soliqlar mavjud bo'lib, ularni federatsiya to'liq ravishda o'rnatishi mumkin, bundan tashqari federatsiya soliq va moliya siyosati borasida ustuvor va andozaviy normalarni o'rnatishi mumkin. Konfederatsiyaga kiruvchi har bir davlat o'z soliqlari va moliya tizimiga ega bo'lib, Konfederatsiya mablag'larining manbasi sifatida unga kiruvchi a'zolarining badallari hisobiga olinadi.
- Federatsiyada yagona pul tizimi mavjud bo'lib, barcha hududda amal qiladi. Konfederatsiyaga kiruvchi har bir davlatda o'z valyutasi mavjud, to'g'ri, pul tizimlari bu holatda bir-biriga yaqinlashtirilishi mumkin.
- Federatsiya yagona iqtisodiy siyosat yoki uni yagona markazdan boshqarish qoidalariga ega. Konfederatsiyada esa muvofiqlashtirish mavjud bo'lishi mumkin, lekin yana Konfederatsiya a'zolarining istiyoriy tan olishi orqali.

Konfederatsiya alomatlari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)da ham mavjud.

**Byudjet tuzilishi** mamlakatning davlat byudjetini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimiga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjet tizimi byudjetlari tarkibi va tuzilmasini, byudjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi (3.2-rasm).




3.2-rasm. **Byudjet tuzilishining tarkibi**[51]

Byudjet tuzilishining asosini mamlakatdagi davlat tuzilishi shakli, amaldagi qonun hujjatlari, davlat byudjetining iqtisodiyot va ijtimoiy bayotdagi o'rni belgilab beradi.

Unitar davlatlarda odatda, ikki pog'onali byudjet tizimi shakllangan bo'ladi:

– davlat byudjeti (bu bo'g'in turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan, davlat byudjeti, markaziy byudjet, respublika byudjeti, hukumat byudjeti kabi);

– mahalliy (munitsipal) byudjetlar.

[51] Nurmuxamedova B. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. 116-bet

*Federativ asosda* tarkib topgan davlatlarda uch pog'onali byudjet tizimi shakliangan bo'lib, quyidagi bo'g'inlardan iborat:

– federal byudjet (turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, masalan: davlat byudjeti, markaziy byudjet, federal byudjet);

– federatsiya subyekt(a'zo)larining byudjetlari;

– mahalliy (munitsipal) byudjetlar.

Jahon amaliyotida davlat tuzilishining shakllariga mos ravishda *byudjet tuzilishi modellari* shakliangan:

– markazlashmagan (nomarkazlashgan) model;

– markazlashgan model;

– aralash model.

Byudjet qurilishining *markazlashmagan (nomarkazlashgan) modelida* markaziy va mahalliy byudjetlar avtonom (mustaqil) bo'lib, ularning har biri o'z xarajatlarini to'liq qoplay oladigan daromad manbalariga ega bo'ladi.

*Markazlashgan model* barcha darajadagi byudjetlarni yagona davlat byudjetida birlashtirishni nazarda tutadi, bunda markaziy byudjet barcha mahalliy byudjetlar uchun (daromadlilik darajasini) tartibga soluvchilik vazifasini bajaradi.

*Byudjet tuzilishining aralash modeli* barcha darajadagi byudjetlarni yagona davlat byudjetida birlashtirishni nazarda tutadi, lekin bunda har bir mahalliy byudjetning o'z xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan o'z daromad manbalari mavjud bo'lgani holda, har bir yuqori turuvchi byudjet o'zidan quyi turuvchi byudjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solish vazifasini bajaradi.

Byudjet tuzilishining har qanday modeli byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish shakli sifatida quyidagi uchta holatning mavjudligiga asoslanadi: birinchidan, hokimiyatning barcha darajalarida xarajat vakolatlarining aniq chegaralanishi; ikkinchidan, bu vakolatlarni to'liq bajarish uchun har bir darajadagi hokimiyatning yetarli fiskal resurslar bilan ta'minlangan bo'lishi; uchinchidan, byudjet tizimidagi vertikal va gorizontal noiru-tanosiblikni byudjet transfertlari

yordamida tekislash va shu asosda mamlakatning barcha hududlarida davlat xizmatlarining bir xildagi standartini ta'minlash. Lekin jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hech bir mamlakatda fiskal federalizmning eng mukammal modelini yaratishga muvaffaq bo'linmagan. Mamlakatlardagi siyosiy, tarixiy va milliy omillar ta'sirida dunyoda turlicha byudjet tizimlari shakllangan bo'lib, ular bir biridan jiddiy farq qilish bilan birga, ko'p hollarda nazariy jihatdan eng oqilona hisoblangan modellarga ham zid keladi.

**Fiskal federalizm – federal hukumat va hududiy hokimiyatlarning moliya sohasidagi vakolatlarining o'zaro taqsimlanishi.**

*Manko. Экономика и право: словарь-справочник. – М.: Вуз и школа. Л. П.Кураков и др. 2004*

## 3.2. O'zbekiston Respublikasi byudjet tuzilishi asoslari. Byudjet tizimi. Byudjet tizimi byudjetlari to'g'risida tushuncha

Byudjet qurilishining asosiy tarkibiy qismi *byudjet tizimidir*. Bir qator adabiyotlarda byudjet tizimi tushunchasiga keng ma'noda va tor ma'nodagi yondashuvlardan kelib chiqib, quyidagicha ta'riflar berilgan:

*Keng ma'noda byudjet tizimi* – iqtisodiy munosabatlarga asoslangan, davlat tuzilishining shakliga mos ravishda tuzilgan, huquq normalari bilan tartibga solinadigan markaziy va mahalliy byudjetlar yig'indisidan, shuningdek, har bir byudjet bo'g'iniga tegishli bo'lgan soliq va yig'imlar yig'indisidan, markaziy va mahalliy hokimiyatlarning xarajat vakolatlari taqsimoti hamda byudjetlararo transfertlar yig'indisidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining "Asosiy tushunchalar" deb nomlangan 6-moddasida: "*Byudjet tizimi* barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o'rtasida byudjet jarayoni mohaynida

yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisini o'zida ifodalaydi"[52], - deb ta'rif berilgan.

*Tor ma'noda byudjet tizimi* mamlakat ma'muriy-hududiy tuzilishiga mos ravishda shakllangan va yagona tizimni tashkil qiluvchi barcha darajadagi byudjetlar yig'indisidan iborat.

O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimini shakllantirish, shuningdek, byudjet tizimi byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har moliyaviy yil uchun tasdiqlanadigan "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi tuzilishining *asosiy tamoyillari* quyidagilardan iborat[53]:

1. *Byudjet tizimining yagonaligi prinsipi* – byudjet hujjatlari va byudjet hisobotlarning shakllari, byudjet tasnifi yagona bo'lishi hamda byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakillantirish hamda ijro etish, byudjet hisobini yuritish va byudjet hisobotini tuzishning yagona tartibini nazarda tutadi.

2. *Byudjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi prinsipi* – byudjet tizimi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo'lishini belgilab beradi. Ushbu prinsipga muvofiq O'zbekiston Respublikasining har bir ma'muriy-hududiy birligi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar, tuman) o'z byudjetiga ega bo'lib, u mamlakatdagi yagona byudjet tizimining tegishli darajadagi bo'g'inini tashkil qiladi.

3. *Byudjet tizimi byudjetlarining balansliligi va o'zaro bog'liqligi prinsipi* – byudjet tizimi byudjetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni

---

[52] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 2-bob, 6-modda.

[53] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, I-bo'lim, 2-bob, 7-17-moddalar.

qoplash manbalari yig'indisining hajmiga muvofiq bo'lishi kerak. Bu prinsip byudjet tizimi tuzilmasidagi har bir byudjet(respublika byudjeti, mahalliy byudjetlar)ning moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishini, shu bilan birga byudjet ijrosida daromad va xarajatlarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomutanosibligi byudjetlararo transfertlar mexanizmlari yordamida tekislanishi lozimligini nazarda tutadi, ya'ni byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda ularning mablag'lari mazkur byudjetlarning balansliligini ta'minlash uchun turli darajadagi byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlanishi mumkin.

4. *Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish prinsipiga* ko'ra byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq daromadlar ularning aniq manbalari bo'yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi.

5. *Byudjet tizimi byudjetlari mablag'lardan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati prinsipi* byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari muayyan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'larini oluvchilarga ushbu mablag'lardan aniq belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchun ajratiladi. Tasdiqlangan byudjetda nazarda tutilmagan yoki byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalariga kiritilmagan yoxud byudjet tasnifida ko'zda tutilmagan maqsadlarga xarajat qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

6. *Byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi prinsipi* har bir byudjet o'z daromad manbalariga ega ekanligi, xarajat yo'nalishlarini belgilashda mahalliy hukumat organlari ma'lum xarajat vakolatlariga ega ekanliklari, mahalliy byudjetlarni tasdiqlash, shuningdek, ijrosi yuzasidan hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash vakolatlari mahalliy boshqaruv organlariga berib qo'yilganligi bilan izohlanadi.

7. *Byudjet tizimi byudjetlari mablag'lardan foydalanishning natijadorligi prinsipi* byudjet jarayoni ishtirokchilari byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishda o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida o'z byudjetlarining belgilangan

bajmdagı mablag'lardan foydalangan holda muayyan natıjaga erishisb zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu prinsip "natıjaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish" talablaridan kelib chiqqan holda Byudjet Kodeksıga kiritilgan bo'lib, byudjet xarajatlarını amalga oshirishda bevosita rejaning bajarilishiga emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida xarajatlarning natıjaviylikka yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

8. *Kassaning yagonaligi prinsipi* byudjet tizimi byudjetlarining barcha daromadları Moliya vazirligi G'aznachiligining Yagona g'azna hisobvarag'iga kiritilishini va ularning barcha xarajatlarını to'lasb ushbu hisobvaraqdan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Ushbu prinsipning amal qilishi davlat byudjeti mablag'larning hajmi va harakati to'g'risida tezkor axborotlarga ega bo'lish, byudjet mablag'larını samarali boshqarish, vaqtincbalik kassaviy uzilishlarning oldini olish, byudjet ijrosinmg operativ joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

9. *Byudjet jarayoni ishtirokchilarning javobgarligi prinsipi* byudjet jarayonining har bir ishtirokchisi byudjet jarayonimng har bir bosqichida o'z harakatları uchun javobgar bo'lishini nazarda tutadi, chunki davlat byudjetining shakllanishida jamiyatning ko'pchilik a'zoları – yuridik va jismoniy shaxslar bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi, keng jamoatchilikning mablag'ları evaziga shakllangan moliyaviy resurslarning maqsadga muvofiq isblatilishi uchun javobgarlik iqtisodiy, ma'muriy (ayrim hollarda jinoiy) huquq normalari bilan tartibga solinadi.

10. *Ochiqlik prinsipi* davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ko'rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarning jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini, tasdiqlangan davlat byudjeti to'g'risidagi axborotning ommaviy axborot vositalarida va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini, byudjet ijrosining borishi to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida davriy ravishda chop etib

borilishini, shuningdek Moliya vazirligining rasmiy veb saytida joylashtirilishi va yangilab borilishini anglatadi.

Barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining yuqorida ta'riflangan davlat byudjeti tuzilmasi *O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan* tashkil topgan. Bu byudjetlar mamlakatimizdagi davlat byudjeti amal qilishining tashkiliy shakli bo'lib xizmat qiladi.

Respublika byudjeti byudjet tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Respublika byudjeti Byudjet Kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shakllantiriladi va ishlatiladi. *Respublika byudjeti* davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining barcha daromadlari tarkibida Respublika byudjeti daromadlari o'rtacha 52-58 foizni tashkil qiladi, davlat byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlarning esa 44-46 foizi respublika byudjeti hisobiga to'g'ri keladi.

Mahalliy byudjetlar darajasida Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari va Toshkent shahar byudjeti e'tirof etiladi. Ularning tarkibiga o'z navbatida, mamlakatning ma'muriy hududiy tuzilishiga muvofiq ravishda quyi (shahar, tuman) byudjetlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 5-bob, 35-moddasiga muvofiq mahalliy byudjetlar tarkibiga kiruvchi byudjetlar tuzilmasiga quyidagi byudjetlar kiradi:

– *Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti* tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasiga qarashli bo'lgan tumanlar va shaharlarning byudjetlari kiradi;

– *viloyatlar mahalliy byudjetlari* tuzilmasiga viloyat byudjeti, viloyatlar tarkibidagi tumanlar va shaharlar byudjetlari kiradi;

– *Toshkent shahar mahalliy byudjeti* tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Huquqiy jihatdan mahalliy byudjetlar byudjet yili davomida daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, aniq maqsadlar uchun mo'ljallangan xarajat yo'nalishlari aks ettiriladigan moliyaviy buijat hisoblanadi.

### 3.3. Byudjet tizimi byudjetlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar pirovardida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita bog'liq dir. Dunyoning rivojlangan davlatlarida hududlar taraqqiyoti orqali yuqori ko'rsatkichlarga erishilganligini xorijiy tajribalarni o'rganish jarayonida ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari hajmi, mahalliy byudjetlarning barqarorlik ko'rsatkichlari ko'p jihatdan shu hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi byudjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib, ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat organlarining o'z vakolatlari doirasida byudjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi. Har bir darajadagi byudjet

daromadlarining o'z manbalari, shuningdek, hududlardagi vakolatli hokimiyat organlarining soliq qonunchiligida belgilangan mahalliy soliqlar va yig'imlar stavkalarini o'zgartirish huquqi qonun asosida mustahkamlab qo'yilgan. Daromadlar manbalarining belgilanishi va ular qonun asosida mahalliy byudjetlarga biriktirib qo'yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va byudjetlarning daromad manbalarini mustahkamlashdan manfaatdorligini oshiradi. Bunda mahalliy byudjetlarga kelib tushadigan mablag'larning tartibga soluvchi manbalari belgilangan bo'lib, ularning jumlasiga belgilangan me'yorlar bo'yicha umumdavlat soliqlaridan ajratiladigan mablag'lar kiradi. Barcha darajalardagi byudjetlar xarajatlarining yo'nalishlari aniq belgilab qo'yilganligi, shuningdek qo'shimcha daromadlarni taqsimlashda mustaqillikka ega ekanliklari mahalliy hokimiyat organlarining byudjet mablag'larini mintaqaviy rivojlanish dasturlariga muvofiq samarali sarflab borish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga muvofiq mahalliy byudjetlar daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlaridan ajratmalar;

– mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

– yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

– bozorlardan tushadigan daromadlar;

– boshqa daromadlar.

Xorijiy mamlakatlar byudjet amaliyoti tajribalaridan ma'lumki, mamlakatlarda ularning geografik joylashuvi, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanish darajadasining turlicha ekanligi va boshqa omillar sababli mintaqalar ishlab chiqarish, daromad va ijtimoiy salohiyatining boshlang'ich imkoniyatlari bir xilda emas. Biroq davlatning eng muhim vazifalaridan biri o'z fuqarolari farovonligining barqaror o'sishini ta'minlash va

barcha mintaqalarning rivojlanishi uchun bir xil sharoitlar yaratishdan iborat. Bunga esa davlatning moliyaviy resurslarini byudjetlararo munosabatlar orqali qayta taqsimlash bilan erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining "Byudjetlararo munosabatlar" deb nomlangan alohida bobida byudjetlararo munosabatlarning huquqiy asoslari o'z aksini topgan.

***Byudjetlararo munosabatlar*** **turli darajadagi byudjetlar (masalan, respublika byudjeti bilan viloyat byudjeti) o'rtasidagi, shuningdek, davlat byudjeti bilan davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir.**

Davlat byudjetining mablag'lari turli darajadagi byudjetlar o'rtasida *byudjet transfertlari shakllari* asosida qayta taqsimlanadi. Byudjet transfertlarining Byudjet Kodeksi bilan belgilab berilgan quyidagi shakllari amalda qo'llaniladi:

*subvensiyalar* - muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

*o'tkazib beriladigan daromadlar* – tegishli ma'muriy-hududiy birlikda (masalan, biror tuman, shahar yoki viloyat hududida) shakllanadigan va yuqori turuvchi byudjetga o'tkaziladigan, keyinchalik ular qayerda shakllangan bo'lsa, o'sha ma'muriy hududiy birlik byudjetiga o'tkazib beriladigan daromadlar;

*dotatsiyalar* – byudjet tizimi byudjetlariga ularning o'z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

*byudjet ssudalari* – qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek, davlat

maqsadli jamg'armalari byudjetlariga ajratiladigan pul mablag'lari;

*o'zaro hisob kitoblar bo'yicha mablag'lar* – moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlari;

*maqsadli ijtimoiy transfertlar* – yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga ta'lim va tibbiyot muassasalarining ish haqi va yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun ajratiladigan pul mablag'lari.

Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari Byudjet Kodeksida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday ajratmalarning miqdori quyidagilarga bog'liq:

- hududlarning moliyaviy holatiga, jumladan, ularning o'z daromad bazalarining mustahkamligiga;
- hududda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlari ko'lamiga;
- hududlar bo'yicha tovar(ish, xizmat)lar qiymatidagi farqlarga;
- hududlardagi aholi soniga;
- ushbu hududda joylashgan va tegishli byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlarning byudjet ajratmalariga bo'lgan ehtiyojga;
- hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblikni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarish tizimida mahalliy byudjetlar rioya qilishi lozim bo'lgan cheklanishlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, mahalliy byudjetlar byudjet qonunchiligiga ko'ra balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo'lishlari zarur. Mahalliy byudjetlarning haqiqatdagi taqchilligiga yo'l qo'yilmasligi lozim.

Bundan tashqari Byudjet Kodeksi bilan mahalliy byudjetlar uchun quyidagi cheklovlar o'rnatilgan, ya'ni

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini qabul qilish va ijro etishda quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

– mablag'lar jalb qilishni amalga oshirish (yuqori turuvchi byudjetlardan byudjet ssudalari olish bundan mustasno);

– tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lardan ortiq xarajatlarni amalga oshirish;

– tegishli byudjetlar mablag'lari hisobidan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berish;

– yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari berish va kredit liniyalari taqdim etish.

Shunday qilib, "Byudjetlararo munosabatlar – byudjet mexanizmning muhim ajralmas elementi bo'lib, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o'rtasida markaziy boshqaruv tomonidan barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta'minlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o'zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining bir qismini ushbu subyektlar o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlarni anglatadi"[54].

### 3.4. Konsolidatsiyalashgan byudjet tushunchasi, uni tuzishning zarurligi va maqsadi

Bugungi kunda davlat byudjetida Byudjet Kodeksi bilan belgilab berilgan davlat maqsadli jamg'armalari ham konsolidatsiyalashadi va davlat byudjeti bilan birgalikda jamlanma byudjetni (konsolidatsiyalashgan byudjet) tashkil qiladi.

---

[54] А.Вахобов, Х.Жамолов. Согласование межбюджетных отношений. Т.: "Молия", 2002

Konsolidatsiyalashgan byudjet O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini, ular o'rtasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining Konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga quyidagilar kiradi (3.3-rasm):




3.3-rasm. **O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjetining tarkibi**[55]

- Davlat byudjeti;
- davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari;
- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjeti bilan bir qatorda davlatning byudjetdan tashqari maqsadli

[55] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 7-bob, 46-modda asosida.

jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish-dagi ahamiyati yanada ortib bormoqda.

3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami markazlashgan jamg'armalar tarkibida davlat byudjeti daromadlarining salmog'i o'rtacha 60,5 – 61,0 foizni tashkil etgan. Bu o'z navbatida davlat fiskal siyosatida davlat byudjeti markaziy o'ringa ega ekanini tasdiqlaydi.

*3.1-jadval*

**Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlarining asosiy parametrlari**[56]

*foizda*

| № | Ko'rsatkichlar | 2014-yil | 2015-yil | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Davlat byudjeti daromadlari | 60,9 | 60,5 | 60,5 | 61,0 | 62,8 |
| 2 | Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari | 33,7 | 35,7 | 35,1 | 35,2 | 31,7 |
| 3 | O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari | 4,7 | 3,8 | 4,4 | 3,8 | 5,5 |
| | Konsolidatsiyalashgan byudjetning jami daromadlari | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning ham ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Bu hol ular daromadlarining shakllanish ko'lamlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, maqsadli jamg'armalar daromadlari Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlarining o'rtacha 31-32 foizini tashkil qilgan.

[56] Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099-sonli (25.12.2013), PQ-2270-sonli (04.12.2014), PQ-2455-sonli (22.12.2015), PQ-2699-sonli (27.12.2016), PQ-3454-sonli (29.12.2017) qarorlari asosida umumlashtirilgan.

Dastlab ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni aniq manbalar bilan ta'minlash maqsadida davlat byudjeti tarkibidan ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan byudjetdan tashqari maqsadli fondlar shakllangan. Masalan, davlat byudjeti tarkibiga kiruvchi Ijtimoiy sug'urta fondi negizida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuzilgan. Bu va shu kabi boshqa fondlar davlat byudjetidan ajralib chiqqani bois adabiyotlarda "byudjetdan tashqari fondlar" yoki "byudjetdan tashqari fondlar" deb yuritilgan. Shuningdek, Byudjet Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishigacha bo'lgan oxirgi o'n yilliklar davomida O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunining 20-moddasi bilan bir qator jamg'armalarning davlat byudjetida konsolidatsiyalanishi (jamlanishi) belgilab berildi va ular byudjet nazariyasi va amaliyotida "davlat maqsadli jamg'armalari", degan umumiy nom oldi. Lekin jamlanma byudjet tarkibiga kirmagan, shakllanish manbalari va ishlatilish yo'nalishlari hukumatning tegishli qarorlari bilan belgilab qo'yilgan, vazirliklar va boshqa davlat idoralari tizimidagi fondlar ham bugungi kunda davlatning ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini qo'shimcha mablag' bilan ta'minlash uchun xizmat qilib kelmoqda va ularga nisbatan adabiyotlarda "maqsadli fondlar" iborasi qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda Konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibidagi davlat maqsadli jamg'armalari qatoriga Byudjet Kodeksining 40-moddasida nazarda tutilgan quyidagi jamg'armalar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi;
- O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi;
- O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;




3.4-rasm. **O'zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjeti tuzilmasi**[57]

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi.

2007-yildan boshlab davlat byudjeti parametrlarida alohida satr bilan *Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining* daromadlari va xarajatlari ko'zda tutila boshlandi. Mazkur jamg'arma iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo, hazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirish loyihalarining amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsion siyosatni amalga oshirish maqsadida tuzilgan.

[57] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 36- va 46-moddalari asosida.

Byudjet nazariyasi va amaliyoti bir joyda qotib turmaydi, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar, har bir davrning rivojlanish ustuvorliklari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning oldidagi vazifalardan kelib chiqqan holda o'zgarib turadi, takomillashib boradi. Xususan, "iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish"[58] maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18-martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-sonli qarori bilan byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi hamda Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi negizida byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi tashkil qilindi. Bugungi kunda ushbu qayta tashkil etilgan jamg'armaning mablag'lari 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan fan va ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi keng ko'lamli tadbirlar va dasturlarni moliyalashtirishga safarbar etilmoqda.

### 3.5. Xorijiy davlatlarda byudjet tuzilishi va byudjet tizimi

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi moliyaviy munosabatlarning quyidagi bo'g'inlaridan iborat:

– davlat byudjeti tizimi;

– davlat krediti va mahalliy hokimiyat organlari kreditlari, federativ davlatlarda esa – federatsiya a'zolarining krediti;

– maxsus nobyudjet fondlar;

– davlat korporatsiyalari moliyasi.

---

[58] "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2847-sonli (18.03.2017) qaridan.

Bu davlatlarda byudjet tizimining tarkibiy tuzilishi, eng avvalo, davlat tuzilishiga bog'liq. Unitar davlatlarda byudjet tizimi quyidagi ikki bo'g'indan iborat:

– davlat byudjeti;

– ko'p sonli mahalliy byudjetlar (shaharlar, okruglar, qishloq okruglari byudjetlari).

Unitar davlatlarda mahalliy byudjetlar o'zlarining daromadlari va xarajatlari bilan yagona davlat byudjetining tarkibiga kirmaydi.

Federativ davlatlarda byudjet tizimi ucb bo'g'indan tarkib topgan:

– davlat byudjeti (yoki federal byudjet, markaziy hukumat byudjeti);

– federatsiya a'zolari byudjetlari (AQSHda – shtatlar byudjetlari, Kanadada – provinsiyalar byudjetlari, GFRda – yerlar byudjetlari, Shveytsariyada – kantonlar byudjetlari va h.k.);

– mahalliy byudjetlar.

Mahalliy byudjetlar o'zlarining daromadlari va xarajatlari bilan federatsiya a'zolarining byudjetlariga va ular ham o'z navbatida, davlat federal byudjetining tarkibiga kirmaydi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar moliya tizimining yetakchi bo'g'inlaridan biri davlat byudjetidir. U davlat va o'z-o'zini boshqarish hududiy organlarining funksiyalari va vazifalarini moliyaviy ta'minlashga mo'ljallangan markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish va undan foydalanish shaklidir.

Davlat byudjeti mamlakatning joriy yildagi asosiy moliyaviy rejasi hisoblanib, qonun kuchiga ega. U har yili mamlakatning qonuncbilik bokimiyat organi – parlament tomonidan tasdiqlanadi. Favqulodda vaziyatlarda (urushlar, iqtisodiy tanazzullar va h.k.) hukumat davlat byudjetining mablag'larga tayanadi va ular yordamida o'sib boruvchi davlat xarajatlarini qoplaydi.

Xorijiy mamlakatlarning davlat byudjeti milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Moliya tizimining bu bo'g'ini orqali mamlakat milliy daromadining 40 foizgacha bo'lgan qismi qayta taqsimlanadi.

Davlat byudjetining asosiy daromadlari soliqlardan iborat bo'lib, ular yordamida byudjet daromadlarining 70 foizidan 90 foizigacha, ayrim davrlarda undan ham ko'proq qismi shakllantiriladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlarda asosiy soliqlar hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq, aksizlar, qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona bojlari davlat byudjetiga biriktirilgan.

Davlat byudjetidan harbiy maqsadlarga mo'ljallangan xarajatlar, iqtisodiyotga aralashuv xarajatlari, davlat apparatini saqlash xarajatlari, ijtimoiy xarajatlar, subsidiyalar amalga oshiriladi, rivojlanayotgan mamlakatlarga kreditlar beriladi. Bir vaqtning o'zida davlat byudjeti mahalliy hokimiyat organlariga, hukumat maxsus fondlariga va davlat korxonalariga subsidiyalar va kreditlar berish orqali mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar aksariyatida davlat byudjeti uchun doimiy ravishdagi byudjet defitsiti xos bo'lib, u davlat zayomlari hisobidan qoplanadi. Davlat zayomlarining muomalaga chiqarilishi davlat qarzining o'sishiga olib keladi. Davlat qarzi oldin chiqarilgan va hozirgi paytga qadar qaytarilmagan (uzilmagan) barcha davlat zayomlarining foizlari bilan qo'shib hisoblagandagi umumiy summasidan iborat.

*Hududiy moliya* xorijiy mamlakatlar moliya tizimining ikkinchi bo'g'inidir. Bu federativ davlatlarda federatsiya a'zolarining moliyasi va federatsiya a'zolari hamda munitsipalitetlarga tegishli bo'lgan mahalliy byudjetlar hamda korxonalar moliyasidan iborat.

Federatsiya a'zolarining daromadlari to'g'risidagi masala har bir mamlakatda o'ziga xos tarzda yechiladi. Masalan, AQSHda shtatlar byudjetlariga egri (bilvosita) soliqlar, eng avvalo, sotuvdan olinadigan soliqlar biriktirilgan bo'lsa, GFRda asosiy to'g'ri (bevosita) soliqlar bo'yicha tushumlar – aholidan olinadigan daromad solig'i va korporatsiyalardan olinadigan foyda solig'i 50/50 nisbatda federal byudjet va yerlarning byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi.

Yetakchi xorijiy mamlakatlar moliya tizimining uchinchi bo'g'ini *davlat krediti* hisoblanadi. Bu bir tomondan davlat hamda ikkinchi tomondan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi kredit munosabatlaridan iborat bo'lib, unga ko'ra davlat va mahalliy boshqaruv organlari, asosan, qarzga mablag' oluvchilar sifatida maydonga chiqadi. Davlat zayomlari va mahalliy zayomlar odatda, byudjet defitsiti mavjud bo'lsa, ya'ni odatdagi daromadlar davlatning xarajatlarini qoplamagan holatlarda muomalaga chiqariladi.

Mahalliy byudjetlarga ikkinchi darajali ahamiyat kasb etuvchi soliqlar (asosan, mulkiy soliqlar) biriktirilgan. Ijtimoiy maqsadlarga yo'naltiriladigan mablag'larning salmog'i mahalliy byudjetlarda davlat byudjetiga nisbatan ancha yuqori. Bu byudjetlar ham doimiy ravishda defitsitli bo'lib, ular davlat byudjetidan hukumat kafolati ostida subsidiya va kreditlar yo'li bilan kerakli mablag'larni oladi.

Xorijiy mamlakatlar davlat moliyasining muhim bo'g'inlaridan yana biri *maxsus nobyudjet fondlardir*. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda eng yirik maxsus nobyudjet fondlarning orasida milliy sug'urta fondlari alohida o'rin egallaydi. Bu fondlar korxona ishchilari va tadbirkorlarning sug'urta badallari hamda davlat byudjetidan beriladigan dotatsiyalar hisobidan tashkil topadi. Milliy sug'urta fondlarining mablag'lari yoshi bo'yicha, nogironlik va boquvchisini yo'qotgan bollar bo'yicha pensiyalarni to'lashga,

vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotgani, homiladorligi, ishsizligi va b.k. bo'yicha nafaqalar berishga sarflanadi. Bunda mablag'larning asosiy qismi yosh bo'yicha pensiyalarni to'lashga yo'naltiriladi. Barcha rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pensiyaning miqdori ish haqi va to'langan sug'urta badallarining miqdoriga nisbatan belgilanadi.

*Davlat korxonalari moliyasi* xorijiy davlatlar moliya tizimining alohida bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Bu korxonalar G'arbiy Yevropa mamlakatlarida II Jahon urushidan so'ng va 1945-1950-yillarda temir yo'l va havo transporti, energetika tarmog'i va boshqa tarmoqlar korxonalarining milliylashtirilishi munosabati bilan ancha rivojlandi. O'sha paytlarda bu tarmoqlar texnik jihatdan o'ta qoloq va raqobatbardosh emas edi. Ularni qayta qurollantirish juda katta miqdordagi mablag'larni talab etdi, bu mablag'lar davlat byudjeti, ya'ni soliq to'lovchilar hisobidan ajratildi. Bu tarmoqlar modernizatsiya qilinganligi va texnik jihatdan ilg'or bo'lishiga qaramay, ular moliyaviy jihatdan hamon past rentabelli yoki zararga ishlaydigan bo'lib qolaverdi. Davlat korxonalari moliyaviy holati og'irligining asosiy sababchisi ularning mahsulotlariga nisbatan past baholar siyosatining yuritilganligi edi.

O'tgan asrning 80-yillarida yetakchi xorijiy mamlakatlar hukmron doiralarining yangi iqtisodiy va moliyaviy siyosatiga ko'ra ko'plab davlat tarmoqlari va korxonalari xususiylashtirildi va bu holat davlat mulkining miqdorini keskin kamaytirdi.

Nima uchun davlatning ta'sir doirasi kengayishi uzoq bahslarga sabab bo'ldi?[59] Asosiy sabablardan bittasi shuki, davlat jamiyat ehtiyojlariga "sezgirdir". 1880-yilda taklif etilgan Vagner qonuniga ko'ra iqtisodiy taraqqiyot faqatgina davlat

---

[59] Musgrave, R.A.,& Musgrave, P.B. (1989). Public finance in theary and practice (5th ed.). New York, NY: McGraw-Hill; Hyman, D.N. (2010). Public finance: a contemporary application of theory to policy (10th ed. online). Florence, KY: Cengage Books; Rosen, H.S. (2005). Public finance (7th ed.). New York, NY: McGraw-Hill Irwin.

hajara oladigan yangi faoliyatlarnmg yuzaga kelishi uchun imkoniyatlar yaratadi.[60] Ikkinchi sabab shuki, davlat rivojlanib borish tendensiyasiga egaligi bilan xarakterlanadi. Bu holatda davlat siyosiy rahbarlarning bevosita qo'llab-quvvatlashi natijasida o'sib boradi.[61] Davlatning va uning boshqaruvchilik faoliyatining zarurligini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:[62]

– *Umumiy mahsulotlar iste'moliga bo'lgan ehtiyoj.* Mudofaa, milliy xavfsizlik, tabiiy ofatlar va fuqarolar uchun zarur bo'lgan boshqa ne'matlarni xususiy sektor ta'minlab bera olmaydi, bu xizmatlarni shuning uchun davlat o'z zimmasiga oladi.

– *Demografik o'zgarishlar.* Aholi umumiy sonining o'zgarishi, yangi tug'ilganlar bilan katta yoshdagi aholi o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi dasturlarining yaratilishini va kengaytirilishini talab etadi.

– *Hayot tarzining o'zgarishi.* Odamlarning qishloq joylardan shaharlarga, keyinchalik shaharlardan shahar tashqarisiga ko'chib o'tishlari natijasida davlat xizmatlariga bo'lgan talab ham shunga mos tarzda o'zgaradi. Davlat yanada ko'proq maktablar, yo'llar, kommunal xizmat obyektlari qurishi, jamoat xavfsizligini ta'minlashi zarur bo'ladi.

– *Tashqi ta'sirlar.* Asosiy foyda keltiruvchi sanoat korxonalari havo va suvni ifloslantirishi mumkin. Hukumatlar ushbu holatlar natijasida yuzaga keluvchi zararlarni nazoratda tutishiga to'g'ri keladi.

– *Iqtisodiy qiyinchiliklar.* Depressiya va boshqa salbiy iqtisodiy vaziyatlar davlatning o'sishini rag'batlantiradi.

---

[60] Lamartini, S., & Zaghini, A. (2008). Increasing public expenditures: Wagner's law in OECD countries. Frankfurt: Center for Financial Studies. Retrieved September 15, 2011, from http:// www .ifk ds.de/ fileadmin/downloads/publications/wp/ 08_13.pdf.

[61] Berry, W. D., & Lowery, D. (1987). Explaining the size of the public sector. Journal of Politics, 49, 401-440; Larkey, P. D., et al. (1981). Theorizing about the growth of government. Journal of Public Policy , 1, 157-220.

[62] Beck, M. (1981). Government spending: trends and issues. New York, NY: Praeger; Lewis Beck, M. S., & Rice, T. W. (1985). Government growth in the United States.Journal of Politics , 47, 2-30.

– *Yuqori riskli vaziyatlar.* Risk yuqori bo'lganda xususiy sektor ko'p miqdorda resurslarni investitsiya qilishdan o'zini tiyadi, shuning uchun ko'pchilik dasturlarni moliyalashtirishga davlat bosh-qosh bo'ladi. Masalan, elektr quvvati manbayi sifatida yadro energiyasini rivojlantirish yoki kosmik tadqiqotlarni olib borishni davlatning o'zi qo'llab-quvvatlaydi.

– *Texnologiyadagi o'zgarishlar.* Yangi texnologiyalarning yaratilishi bilan davlatning qo'lida yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Yuqori texnologiyalarga asoslangan temir yo'llar va aeroportlarning paydo bo'lishi, radio, televideniye, Internetning rivojlanishi yangi sanoat tarmoqlarining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi, bu esa davlatning boshqaruvchilik mavqeyini yanada mustahkamladi[63].

Bugungi kunda jahonda kechayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz aksariyat davlatlar iqtisodiyotiga va moliya tizimlariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda, xalqaro miqyosda mamlakatlarni va hukumat rahbarlarini kelishilgan va muvofiqlashgan xatti-harakatlar qilishga undamoqda.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

1. *Byudjet tuzilishi, deganda nima tushuniladi?*
2. *Unitar va federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tuzilishi modellarini tavsiflab bering.*
3. *Byudjet tizimiga ta'rif bering.*
4. *O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi qanday tamoyillarga asoslanadi?*
5. *O'zbekiston Respublikasida qaysi qonun byudjet tizimi faoliyatini belgilaydi?*
6. *Byudjetlararo munosabatlar nima va O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida byudjetlararo munosabatlarning qaysi shakllardan foydalaniladi?*

---

[63] Robert D Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 27.

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Unitar va federativ davlatlarda byudjet tuzilishini tavsiflovchi chizma tayyorlang va xulosa yozing.*

*2. Xorijiy davlatlar byudjet tizimlari va O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi bo'yicha taqdimot tayyorlang.*

*3. "Public budgeting systems" (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning, 9 edition. USA, 2012.) o'quv qo'llanmasi asosida xorijiy mamlakatlarda byudjet tuzilishi va byudjet tizimining xususiyatlari to'g'risida ma'lumot tayyorlang.*

## 4-BOB. DAVLAT BYUDJETINING HUQUQIY ASOSLARI

### 4.1. Byudjet munosabatlarining qonuniy-huquqiy asoslari, byudjet qonunchiligi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xo'jalik yuritishning bozor tizimiga o'tilishi, iqtisodiyot bozor infratuzulmasining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo'jalik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni yaratishni talab etdi. Bundan tashqari jahondagi glaballashuv jarayonlarida faol qatnashayotgan O'zbekiston uchun davlat boshqaruv institutlarini shakllantirish va tubdan isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi islohotlar davlat moliyasi, davlat byudjeti va byudjet jarayonini boshqarish va tartibga solish organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. Shu sababli ular faoliyatini amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar talablariga moslashtirish, so'nggi ijobiy natijalarni ko'zlagan holda muvofiqlashtirish, shakllar va mazmunlar yangi sifat pog'onasiga ko'tarish talab etilmoqda.

Bizga ma'lumki, mamlakatda sodir bo'layotgan har qanday jarayonlar tegishli qonuniy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solib turiladi. Bosh hujjat esa – bu O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Byudjet munosabatlarini tartibga solib turuvchi asosiy qonuniy hujjat ham Konstitutsiya hisoblanadi. Davlat byudjeti bilan bog'liq bo'lgan barcha huquqiy-me'yoriy hujjatlar ham Konstitutsiya bilan belgilab qo'yilgan normalar asosida ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Davlat byudjeti va uning tuzilishi bilan bog'liq normalar Konstitutsiyaning XXV bobida "O'zbekistonning Davlat byudjeti respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi

byudjetidan va maballiy byudjetlardan iborat" [64] ekanligi belgilab qo'yilgan.

Yangi qonunlar turkumini ishlab chiqish zaruriyati tufayli O'zbekistonda iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qator qonunlar qabul qilindi. Bunday qonunlar avvalgi "markazlashtirilgan rejali tizim ruhi bilan sug'orilgan", haddan tashqari mafkuralashtirilgan, xalqaro me'yorlar va qoidalarning talablarini inkor etuvchi sovet davri qonunlarining o'rniga keldi va yosh mustaqil davlatimizning huquqiy demokratik yo'ldan og'ishmay ravnaq topishi uchun xizmat qila boshladi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet qurilishi, byudjet tizimining amal qilishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining barcha darajalardagi (markaziy, hududiy va mahalliy) byudjet borasidagi vakolatlari byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Byudjet qonunchiligi – byudjet munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solib turishga xizmat qiluvchi barcha qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar yig'indisi. Huquqiy me'yorlarning mazmunidan kelib chiqqan holda byudjet qonunchiligini bir necha darajaga ajratish mumkin:

1-daraja – O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi - byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

2-daraja – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet masalalaridagi qarorlari.

---

[64] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 122-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 14-son, 213-modda

3-darajа – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyruqlari, farmoyishlari va byudjet sohalariga taalluqli bo'lgan boshqa me'yoriy hujjatlari (nizomlar, yo'riqnomalar, qoidalar).

4-darajа – mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlari (masalan, tegisbli viloyat, tuman (shahar) mahalliy byudjeti parametrlarini tasdiqlash to'g'risidagi Xalq deputatlari Kengashlarining va hokimlarining qarorlari).

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi byudjet qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjet huquqlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli moliyaviy yil uchun qabul qilinadigan "Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni va byudjet masalalari bo'yicha boshqa qonuniy va normativ hujjatlardan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha muhim qadamlardan biri 2004-yil 26-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi 654-II-sonli Qonunning qabul qilinishi bo'ldi. Ushbu qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalarining) va byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'ldi. Mazkur qonunda davlat byudjeti g'aznasi ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq holatlar o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi.

Keyingi yillarda ham davlat byudjeti g'azna ijrosining me'yoriy huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 69-sonli (04.08.2009) buyrug'i

bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomomdan 2007-raqam (16.09.2009) bilan ro'yxatga olingan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalari"ning qabul qilinishi muhim qadam bo'lib xizmat qildi. Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan respublika va hududiy g'azna hisobvaraqlarini qo'llasb sharoitida respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibmi belgilab berdi. Xususan, ushbu Qoidalar muqaddam amal qilib kelgan bir qator me'yoriy hujjatlarni o'zida mujassamlashtirdi va G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari tomonidan respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartiblarini belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 22-noyabr 88-sonli buyrug'i bilan esa yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalari" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda 2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) qabul qilindi. Mazkur Qoidalar Yagona g'azna hisobvarag'ini qo'llash orqali O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlari, shuningdek, boshqa maqsadli jamg'armalar byudjetlarining maxfiy xususiyatga ega bo'lmagan daromad va xarajatlarining g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilab berdi.

### 4.2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining, mazmuni va ahamiyati

Ma'lumki, byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2000-yil 14-dekabrda O'zbekiston Respublikasi-

[illegible] "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunning qabul qilinganidan beri o'tgan davr mohaynida byudjet tizimi amaliyotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi, ular:

- davlat byudjeti g'azna ijrosi tizimining joriy etilishi;
- bir qator davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa [illegible]byudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;
- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;
- byudjet tasnifi, byudjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;
- yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi va boshqa holatlar bilan bog'liq bo'lib, byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada mamlakat O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi (11.12.2000) hamda "Davlat byudjetining yagona ijrosi to'g'risida"gi (26.08.2004) Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Byudjet Kodeksida o'z aksini topdi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doiraslda 2014-yildan boshlab amalga kiritilgan yangi Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 9 ta bo'lim, 28 ta bob, 192 moddadan iborat. Ushbu Kodeks:

- O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini;
- O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini tuzish prinsipleri va uning tuzilmasini;
- davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini;
- davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarini shakllantirish va ularning xarajatlarini amalga oshirish prinsiplarini;
- davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni;
- davlat byudjeti mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartiblarini belgilab beradi.

Kodeksda byudjet tizimi va byudjet tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar tarkibi, davlat byudjetining daromad va xarajatlari tarkibi, respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi va ularning byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash tartiblari, byudjet jarayonini tashkil qilish tartiblari; byudjet taqchilligini qoplash manbalari, davlat maqsadli jamg'armalari, ularni tashkil qilish va ular mablag'laridan foydalanish tartibi kabilar belgilab berilgan.

Yangi Byudjet Kodeksi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi.



4.1-rasm. **O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining tasnifi**

Byudjet Kodeksining alohida bobларida byudjet tizimi, uning tamoyillari, byudjet tizimini boshqarish organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari, byudjet tizimi tarkibiga kiruvchi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari kabilar belgilab berilgan.

Umuman olganda, Byudjet Kodeksi 50 ga yaqin qonun hujjatlari va qonun osti hujjatlarini o'z ichiga oladi. Moliya-byudjet tizimida mazkur huquqiy hujjatning qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida o'z Byudjet kodeksiga ega bo'lgan davlatlar safiga qo'shildi (4.1-jadval).

*4.1-jadval*

**MDH davlatlarida Byudjet kodeksining mavjudligi to'g'risida ma'lumot**

| № | MDH davlatlari | Byudjet kodeksining mavjudlik holati |
|---|---|---|
| 1 | Armaniston | mavjud emas |
| 2 | Belorussiya | mavjud, 16.07.2008-yilda qabul qilingan |
| 3 | Moldaviya | mavjud emas |
| 4 | Ozarbayjon | mavjud emas, loyihasi ustida ishlanmoqda |
| 5 | Rossiya | mavjud, 31.07.1998-yilda qabul qilingan |
| 6 | Tojikiston | mavjud emas |
| 7 | Turkmaniston | mavjud emas, loyihasi ustida ishlanmoqda |
| 8 | Ukraina | mavjud, 21.06.2001-yilda qabul qilingan |
| 9 | Qozog'iston | mavjud, 04.12.2008-yilda qabul qilingan |
| 10 | Qirg'iziston | mavjud emas, loyihasi ustida ishlanmoqda |
| 11 | O'zbekiston | mavjud, 26.12.2013-yilda qabul qilingan |

Xalqaro tajribada Byudjet kodeksi – ma'lum bir mamlakat byudjet tizimining asoslarini, uning tuzilishi, umumiy prinsiplarini, turli darajadagi byudjetlar va ularning vakolatlarini, byudjet jarayoni asoslari va byudjetlararo munosabatlarni, byudjet qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilovchi qonun hujjati hisoblanadi. O'zbekistonda mazkur Kodeks mamlakatimizning mustaqillik davridagi qonunchilik faoliyatida qabul qilingan o'n oltinchi kodeks bo'lib, u ko'pqirrali moliyaviy munosabatlarni tartibga

solishga xizmat qiluvchi Bojxona va Soliq kodekslaridan keyin qabul qilingan byudjet-moliya sohasiga taaluqli bo'lgan uchinchi kodeksdir.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha o'zgartirishlar va yangiliklar ilg'or xalqaro tajribani o'rganish asosida joriy etilgan bo'lib, ularda mamlakatimiz byudjet tizimining samaradorligi hamda ochiq-oydinligini yanada oshirish ko'zda tutilgan.

### 4.3. Soliq kodeksi, uning davlat byudjetini shakllantirishdagi ahamiyati

Mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy jarayonlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarga biznesni yuritish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish borasidagi yengilliklar, kichik biznes subyektlariga berilayotgan preferensiyalar soliq mexanizmlarini ham yanada takomillashtirishni hamda yangi tahrirdagi Soliq kodeksini ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

2007-yilgacha amalda bo'lgan Soliq kodeksi 135 moddadan iborat bo'lib, soliq munosabatlarini tartibga solishda u bilan birga ko'pgina yo'riqnoma, nizom va tartiblar ham qo'llanilar edi. Soliq qonunchiligiga tez tez o'zgartirishlar kiritilishi va soliq normalarining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi muayyan noaniqlik, tushunmovchilik va soliq normalarining har xil talqin qilinishiga olib kelardi, bu aksariyat hollarda soliq to'lovchilarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lardi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining XII yalpi majlisida soliq siyosati va tizimini yanada isloh qilish hamda erkinlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi ma'qullanib, Prezident tomonidan imzolanganidan so'ng 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirdi. Kodeksda ko'zda tutilgan me'yor va qoidalar, avvalo, soliq tizimi va soliq munosabatlarini unifikatsiya qilish, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirishda

soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonunining 2-moddasiga binoan ikki yil davomida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining amal qilishi va samaradorligini muntazam monitoring va tahlil qilib borish, zarur bo'lgan hollarda esa uni yanada takomillashtirish uchun takliflar kiritish belgilandi. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi huzurida idoralararo maxsus guruh va uning doimiy ishchi organi tuzildi. Ikki yil mobaynida ushbu ishchi organga Soliq kodeksini takomillashtirish bo'yicha mingdan ortiq takliflar kelib tushdi. Ular asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi hamda Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan seminarlarda, davra suhbatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlar, tadbirkorlar, tijorat banklari, xalqaro moliya tashkilotlari va ekspertlar tomonidan berilgan takliflar bo'lib, 2008-yildayoq ana shu takliflar asosida Soliq kodeksining 79 ta moddasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining amal qilishi va samaradorligini muntazam ravishda monitoring va tahlil qilib borish bo'yicha belgilangan muddatning ikkinchi yilida, ya'ni 2009-yil mobaynida kelib tushgan takliflar asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi hamda "Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlar loyihalari Oliy Majlisning qonunchilik palatasiga kiritilgan. Quyi palata tomomdan qabul qilingan mazkur qonunlar Senatning yigirmanchi yalpi majlisida ma'qullandi hamda Prezident

tomonidan imzolanib, 2010-yil 1-yanvardan hayotga tatbiq etila boshlandi[65].

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi[66] soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Kodeks 64 ta bob, 392 moddadan iborat bo'lib, u soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me'yor va qoidalarni mujassamlashtirgan va to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylandi. Jumladan, yangi Kodeksda iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlarida bayon etilgan normalar to'liq ifodasini topgan.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining tadbirkorlar imkoniyatlarini kengaytirish va manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyatga katta. Unga muvofiq soliqqa tortish masalalarida bahsli holatlar yuzaga kelganda, masala soliq to'lovchi foydasiga hal etiladi. Soliq kodeksiga (avvalgi tahrirdagi kodeksda mavjud bo'lmagan) soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi kiritildi, ya'ni soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchi foydasiga talqin etiladi va bu Soliq kodeksining tamoyillarida alohida belgilab qo'yildi.

Soliq kodeksining 6-11-moddalariga muvofiq soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va, yuqorida ta'kidlanganidek, soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalari Kodeksda belgilangan ushbu prinsiplarga zid bo'lishi mumkin emas.

---

[65] "Xalq so'zi" gazetasi 2010-yil 15-yanvar, №10 (4925)

[66] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 1-modda

Bundan tashqari Soliq kodeksining soliq ma'murchiligi masalalariga bag'ishlangan umumiy qismi avvalgisiga nisbatan tubdan o'zgartirildi va kengaytirildi. Mazkur qismda fuqarolarga sodda va tushunarli bo'lishi uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushunchalariga, shuningdek, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor kabi tushunchalarga alohida ta'riflar berildi. Endilikda barcha soliq to'lovchilar soliqlarni qaysi maqsadda to'layotganliklari to'g'risida to'liq va kengroq tasavvurga ega bo'ladilar, bu esa, o'z navbatida, soliq madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Soliq kodeksida soliq nazoratining shakllari ham belgilanib, ularning mazmun-mohiyati alohida moddalarda aniq-ravshan tarzda yoritildi. Chunonchi, unda soliq tekshiruvlari tushunchasi va ularning shakllari, soliq tekshiruvlarining turlari, ishtirokchilari, tekshiruvni o'tkazish uchun asos bo'ladigan holatlar, muddatlar, uning davriyligi hamda soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi to'g'risida tushunchalar ochib berildi.

"Soliq nazorati" bobida jumladan, kameral nazorat, xronometraj masalalari yoritilgan. Ularni o'tkazish tartibi, muddatlari, davriyligi hamda ularni o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ko'rsatib o'tilgan.

Soliq kodeksi soliq masalalarini tartibga soluvchi barcha me'yor va qoidalarni mujassamlashtirgan, to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjatga aylantirilganligi bois, uning amalga kiritilishi munosabati bilan o'z ahamiyatini yo'qotgan bir qator qonun bujjatlari butunlay bekor qilindi. "Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirib olish to'g'risida"gi, "Davlat boji to'g'risida"gi, "Patta to'lovi to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Lekin keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

talablarini amalga oshirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash, soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, xorij mamlakatlarining soliq qonunchiligi va ma'muriyatchiligi sohasidagi smalgan ilg'or yutuqlarini implementatsiya qilish ishlari qoniqarsizligicha qolmoqda. Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2018-yil 13 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq qonunchiligini tubdan takomiliashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilindi. Farmoyishda Soliq ma'muriyatchiligi va soliqqa tortishning zamonaviy usullarini, soliqlarning to'liq yig'iluvchanligi va byudjetga o'z vaqtida tushishi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq-byudjet siyosatini yanada takomillashtirish, byudjet jarayoni shaffofligi darajasini oshirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, birinchi bosqichda – 2018-yil 1-aprel kunigа qadar O'zbekiston Respublikasi soliq-byudjet siyosatini takomiliashtirish konsepsiya loyihasini ishlab chiqish; ikkinchi bosqichda – 2018 yil 1-iyul kuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi yangi tahrini loyihasini ishlab chiqishni ta'minlash belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahririni ishlab chiqishga xalqaro ekspert va maslahatchilarni jalb qilish nazarda tutildi.

Xulosa qilib aytganda, Soliq kodeksi mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan o'sishiga, uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirishga, xususan, tadbirkorlik, kichik biznes va fermerlik harakatining izchil rivojlanishiga kafolat va imtiyozlar beradigan siyosatni davom ettirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. U soliq tizimi va soliq munosabatlarini unifikatsiya qilish, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini yanada kuchaytirish, yurtimizda islohotlarni amalga oshirish

uchun ilg'or zamonaviy soliq solish tizimiga mos keladigan va byudjetning daromad qismining shakllanishini barqaror ravishda ta'minlaydigan hamda iqtisodiy o'sishga ta'sirchan omil bo'ladigan samarali soliq tizimi barpo etilishini ta'minlaydi.

### 4.4. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishdagi huquq va majburiyatlari

Hududlardagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati organlari alohida o'rin egallaydi. 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi № 913-XII sonli qonuniga muvofiq "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlari"[67] hisoblanadi. Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashish asosida o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar.

---

[67] O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi (02.09.93.) 913 XII sonli qonuni, 1 modda.

Mahalliy byudjetlarni shakllantirish hamda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda mahalliy byudjetlardan foydalanish jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarorlari va boshqa qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga "mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish"[68] vakolati berilgan. Shu bilan mahalliy hokimiyat organlarining byudjet sohasidagi faoliyatining konstitutsiyaviy asosi o'rnatilgan. Joylardagi mahalliy vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati organlarining bu sohadagi vazifalari, vakolatlari turlicha bo'lib, ular avvalo "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunda belgilangan.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning chuqurlashuvi mahalliy hokimiyat organlarining ularga tegishli hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini yanada oshirib, moliya-byudjet sohasidagi huquqlarini kengaytirish va ularning moliyaviy bazasini mustahkamlashni talab qiladi. Mahalliy byudjetlarning salmog'i oshishi ustun ravishda xarajatlarning oshib borishi bilan bog'liq, ya'ni markaziy hokimiyat hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani saqlash, ishchi kuchini qayta tayyorlash bilan bog'liq vakolatlarni joylarga berib bormoqda. Mahalliy byudjetlardan davlat takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etishda keng foydalanmoqda, mahalliy boshqaruv organlari hududiy darajada davlatning maqsadga muvofiq vazifalarini tobora ko'proq bajarmoqda.

---

[68] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'R QHT, 2014 y., 16 son, 176-modda.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 7-moddasiga muvofiq "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutlaq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi, viloyat, tuman, shahar hokimi o'zlari idora qilayotgan hududdagi mulkchilikning turli shakliga asoslangan korxonalar uchun O'zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilmagan, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyatini erkin yuritishga to'siqinlik qiladigan cheklovlarni joriy etishga haqli emaslar".

Yuqoridagi qonunning 8-moddasiga muvofiq esa "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o'ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq o'zi sotib olgan obyektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to'liq amalga oshiradi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, mahalliy byudjetlarning mablag'lari va byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muhandislik infratuzilmasi obyektlari va boshqa obyektlar, korxonalar va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'lari hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul

berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin"[69].

Mahalliy byudjetlar orqali xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport muassasalari, mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari, kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar berish xarajatlari moliyalashtirib boriladi.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 8[1]-moddasida[70] Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi byudjetdan tashqari jamg'armalar tashkil etishi mumkinligi belgilab qo'yilgan, ularga quyidagilar kiritiladi:

- fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning (hundan byudjet tashkilotlari mustasno) ixtiyoriy badallari va xayriyalari;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar.

Mahalliy hokimiyat organlari viloyat, tuman, shahar byudjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'lari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turadi, olib qo'yilmaydi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga ko'ra sarflanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni 1993 yil 2-sentabrda qabul qilingan bo'lib, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida yuzaga keladigan dolzarb muammolarni hal qilishda ijobiy rol o'ynadi. Shu bilan birga ushbu qonun qabul qilingan davrdan beri markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining ham normativ-huquqiy, ham tashkiliy-amaliy jihatlari tubdan o'zgartirildi va qayta tashkil etildi. Shu sababli ushbu qonunga bir qator o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish va uni takomillashtirish zarurati yuzaga keldi. Yangi qonun

---

[69] "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 8 moddasi (O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 avgustdagi O'RQ-439-sonli qonuni tahririda O'R QHT, 2017-y., 35-son, 914-modda)

[70] 8[1] modda O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrdagi O'RQ 361 sonli qonuniga asosan kiritilgan (O'R QHT, 2013 y., 52 son, 686-modda).

loyihasining asosiy maqsadi mahalliy davlat hokimyati organlari vakolatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga mos ravishda muvofiqlashtirishdan iborat. Umuman olganda qonun loyihasida quyidagi yo'nalishlarda o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi ko'zda tutilgan:

– Mahalliy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifalari va vakolatlari;

– Toshkent shahri va viloyat hokimlarining aholi tomonidan saylanishi tizimi;

– Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;

– Hokimlarning aholi oldida hisobdorligi va hokimlarning faoliyatini baholash;

– Xalq deputatlari tomonidan hokim, prokuror, sud raislari, ichki ishlar organlari rahbarlarining hisobotlarining eshitilishi;

– Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining iqtisodiy asoslari, jumladan, hududning rivojlanish strategiyasi, mahalliy byudjet, fiskal nomarkazlashtirish mexanizmlarini joriy etish;

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Vazirlar Mahkamasi, davlat boshqaruvi organlari, o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari) bilan o'zaro munosabatlari.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 4-bob, 27 moddasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining, 28 moddasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining, 30-moddasi bilan esa hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan.

Kodeksning tegisbli moddasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari[71]:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning ayrim turlari qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilanadi.

Byudjet Kodeksining tegishli bob va moddalarida hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari (30-modda), mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tarkibi va ularning byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash tartiblari belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda byudjet amaliyotidagi o'zgarishlar, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining qabul qilinishi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII sonli qonunga qator o'zgartirishlar kiritilishi, har moliyaviy yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarorlarida davlat byudjetining shakllanishi va ijro etilishi bo'yicha norma va tartib

[71] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 27 modda. O'RQHT, 2014-y., 36 son, 452 modda

taomillarning o'zgarishi bilan davlat byudjeti va byudjet munosabatlarini tashkil etishning huquqiy asoslari takomillashib bormoqda. Bu holatlar davlat byudjeti amal qilishini yangi sifat pog'onasiga ko'tardi va byudjet resurslarining chegaralanganligi sharoitida butun mamlakatni va uning alohida hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat byudjetidan samarali foydalanish, barcha darajadagi byudjetlar daromadlarining barqarorligini va xarajatlarning oqilona ijrosini ta'minlash masalalariga yangicha talablarni qo'ymoqda.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Byudjet Kodeksining mazmuni va uning byudjet munsabatlarini tashkil qilishdagi ahamiyatini sharhlab bering.*

*2. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining zarurligi va ahamiyati nimada? Misollarda tushuntiring.*

*3. "Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarining mazmunini tushuntiring.*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Byudjet qonunchiligini aks ettiruvchi klaster tuzing va izohlab bering.*

*2. Byudjet qonunchiligini tashkil qiluvchi hujjatlar ro'yxatini tuzing va har biriga qisqacha izoh yozing.*

*3. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksini tayyorlash zarurligini keltirib chiqargan omillar haqida ma'lumot tayyorlang.*

*4. Xorijiy davlatlarda byudjet qonunchiligi to'g'risida taqdimot tayyorlang.*

## 5-BOB. DAVLATNING BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI

### 5.1. Byudjet siyosati, uning turlari, maqsad va vazifalari. Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi

Siyosat inson faoliyatining muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Siyosat juda murakkab ijtimoiy voqelik bo'lib, insonlarning turli (ijtimoiy, etnik, diniy) guruhlari o'rtasidagi ularning manfaatlari va ehtiyojlarini davlat hamda davlat hokimiyatining turli institutlari orqali amalga oshirish borasida yuzaga keladigan o'ziga xos munosabatlar yig'indisidir. Siyosat – bu jamiyat ustqurmasiga taalluqli tushuncha bo'lib, davlatning o'z funksiyalari va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan rivojlanish yo'nalishlari va chora-tadbirlarida namoyon bo'ladi. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topadi:

*birinchidan*, rivojlanishning u yoki bu bosqichida jamiyat hayotini yaxshilash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy vazifalar va maqsadlar aniqlanadi va belgilab olinadi;

*ikkinchidan*, istiqboldagi va yaqin kelajakdagi vazifalar va maqsadlarga erishish uchun eng qulay, eng yaxshi natija beradigan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;

*uchinchidan*, belgilangan vazifalarni amalga oshiruvchi shaxslar, ijrochi organlar, alohida vakolatli tashkilotlar aniqlanadi, kadrlar tanlanadi va joy-joyiga qo'yiladi.

*Byudjet siyosati* – byudjet munosabatlarini tashkil etish tamoyillarining bajarilishini ta'minlash, davlat va jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni davlat byudjeti orqali amalga oshirish usullari, chora-tadbirlari va maqsadli faoliyatlari yig'indisidir.

Byudjet siyosati davlat va jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Byudjet siyosati:

– byudjet daromadlari bo'yicha siyosat;
– byudjet xarajatlari bo'yicha siyosat;
– davlat krediti siyosati;
– byudjet taqchillıgini boshqarish siyosati;
– byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish siyosati kabilarning uyg'unligi asosida amalga oshiriladi.

Demak, *byudjet siyosati* – davlat moliya siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, umumdavlat moliyaviy resurslarini shakliantirish va jalb etish, taqsimlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga qaratilgan davlatning chora-tadbirlari va asosiy yo'nalishlari yig'indisidir.

> ***Byudjet siyosatining asosiy maqsadi*** – jamiyatda yaratilgan boylik va ne'matlarning davlat byudjeti mexanizmlari orqali jamiyat a'zolari o'rtasida maksimal darajada adolatli taqsimlanishini ta'minlashdan iborat.

Byudjet siyosatining asosiy vazifalari qatorida quyidagilarni ta'kidlash muhim:
– davlat byudjetining barqaror daromad bazalarini mustahkamlash;
– iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari rivojlanishini byudjet mexanizmlari orqali rag'batlantirish;
– fan-texnika taraqqiyotining jadallashuviga ta'sir ko'rsatish;
– mamlakatda kambag'allik va ijtimoiy tengsizlikka barham berish;
– rivojlanish istiqboli yuqori bo'lmagan hududlarning rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish;
– mamlakatning barcha hududlarida aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va shu yo'llar bilan siyosiy va ijtimoiy beqarorlikning oldini olish;
– davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarning sifatli va aholi ijtimoiy muhofazasining manzilli bo'lishini ta'minlash;
– byudjet siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlovchi maqbul byudjet mexanizmini ishlab chiqish va uning samarali ishlashini ta'minlash va sh.k.

Byudjet siyosati o'z-o'zidan yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin emas. Byudjet siyosatining ahamiyatini baholash uchun jamiyatning ehtiyoji qanchalik qondirilayotganligini, qo'yilgan maqsadlar va vazifalar qanchalik darajada muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini to'g'ri belgilash, xolis baholash lozim.

Byudjet siyosatining mazmuni ko'pqirrali bo'lib, quyidagilarni amalga oshirish orqali hayotga tatbiq etiladi:

1. *Byudjet munosabatlarini rivojlantirishning ilmiy asoslangan konsepsiyalarini ishlab chiqish.* Bu konsepsiyalar quyidagilarni o'rganish asosida ishlab chiqiladi:

– iqtisodiy qonunlar talablarini o'rganish;

– milliy xo'jalik holatini har tomonlama tahlil qilish;

– ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining bundan keyingi rivojlanish istiqbollarini o'rganish;

– aholining talab va ehtiyojlarini o'rganish.

2. *Istiqbolda va joriy davr mobaynida byudjetdan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish.* Bunda iqtisodiy va moliyaviy siyosatda belgilangan maqsadlarga erishish yo'llaridan kelib chiqiladi, xalqaro omillar inobatga olinadi va moliyaviy resurslarni yanada ko'paytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

3. *Qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy xatti-harakatlar qilish, chora-tadbirlar belgilash, maqbul byudjet mexanizmining dastak va vositalarini ishlab chiqish.*

Faqat joriy davrga mo'ljallangan, kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan siyosat samarasizdir, shuningdek, uzoq davrni mo'ljallab, istiqbolni ko'zlab ishlab chiqilgan konsepsiyalar va yo'nalishlar, ular qanchalik olijanob, jozibali bo'lmasin, davlatning tegishli amaliy xatti-harakatlari, ta'sirchan dastak va vositalari bilan ta'minlanmasa, tanazzulga yuz tutadi, ko'zlangan maqsadlar amalga oshirilmay qoladi.

Davlat oldida turgan va muayyan davrda hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarning xarakteri, murakkabligi va ko'zlangan davrning uzoqligiga ko'ra byudjet siyosati byudjet strategiyasi va byudjet taktikasidan iborat.



***Byudjet strategiyasi*** – ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan uzoq istiqbolga mo'ljallangan va yirik ko'lamdagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lib, u rivojlanishning asosiy konsepsiyalarini ishlab chiqish, byudjet munosabatlarini tashkil etishning umumiy tamoyillarini ishlab chiqish, uzoq muddatga mo'ljallangan rivojlanish istiqbollarini belgilashni ko'zda tutadi

Byudjet strategiyasi uzoq muddatli maqsadlarni tanlash va maqsadli dasturlarni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga safarbar qilishni nazarda tutadi.



***Byudjet taktikasi*** – strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining aniq bosqichida va aniq sharoitlarida moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi

*Masalan,* mustaqillikning dastlabki yillarida byudjet strategiyasining asosiy vazifalaridan biri – byudjetning barqarorligini ta'minlash, ortib borayotgan byudjet defitsitini jilovlash bo'lgan bo'lsa, bu vazifani bajarish uchun: ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri uchun xos bo'lgan yangi byudjet qonunchiligini ishlab chiqish; mustaqil davlatning yangi soliq tizimini shakllantirish; byudjetning xarajatlar qismini qayta tuzish; byudjet daromadlari va xarajatlarini balanslashtirish kabi

chora-tadbirlar belgilandi va ma'lum muvaffaqiyat bilan amalga oshirildi.

Byudjet siyosatining strategiyasi va taktikasi o'zaro bog'liqdir. Strategik vazifalarni hal qilish uchun taktika qulay sbart-sbaroit yaratadi. Taktika iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi sohalarmi, rivojlanisbning muhim muammolarini aniqlab, moliya byudjet munosahatlarini tasbkil etish shakllari va usullarini o'z vaqtida o'zgartirish yo'li bilan strategiya balgilab hergan vazifalarni qisqa muddat icbida, eng kam xarajatlar bilan amalda bajaradi.

## 5.2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanisb bosqicblari

O'zbekiston o'zining davlat suverenitetini e'lon qilib, mamlakatni inqiroz holatidan olib chiqisb, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqil, qudratli, rivojlanib boruvchi, ko'p qirrali demokratik davlat yaratish dasturini belgilab oldi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston davlat byudjetinmg tarixiy jihatdan juda qisqa, lekin yosh mustaqil davlat uchun sermazmun, serqirra davrdagi rivojlanish bosqichlari boshlandi. Respublika hukumati tomonidan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlari va bozor mexanizmlarini ishga tushirish choralari ko'rildi, natijada qator moliyaviy institutlarning samarali faoliyati ta'minlandi.

Respublikaning davlat byudjetiga uning ichki daromadlari jalb qilindi va ular 1991-yilgacha bo'lgan sobiq Ittifoq davlat byudjetidan ajratilgan transfertlar summasidan oshib ketdi. Qat'iy moliyaviy cheklashlarning qo'llanilishi natijasida davlat byudjetining daromadlari, xarajatlari va taqchilligi hajm YalM dinamikasiga muvofiq ravishda tartibga solib turildi. Ijtimoiy sohaga xarajatlarning o'sish sur'atlari umumiy xarajatlarning o'sish sur'atlariga bog'liq bo'ldi, ya'ni O'zbekistondagi bozor

islohotlari mamlakat byudjetiga, uning xarajatlar qismi tarkibi va tuzilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti o'z rivojlanish jarayonida quyidagi bosqichlarni bosib o'tdi:

– Fiskal bosqich (1991-1995-yillar);

– Noinflyatsion bosqich (1996-2002-yillar);

– Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bosqichi (2003-2017-yillar).

*Fiskal bosqich (1991-1995-yillar)ning vazifalari:*

– yangi byudjet qonunchiligini yaratish;

– soliq islohotlarini o'tkazish;

– byudjetning xarajatlar qismini qayta tarkiblash;

– byudjet daromadlari va xarajatlarini balansalashtirishga erishish.

Davlat byudjeti rivojlanishining birinchi bosqichi juda og'ir kechdi. Bunga sabab ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatning byudjetini shakllantirish mamlakatda kechayotgan iqtisodiy inqiroz sharoitida (YAIM ishlab chiqarishning keskin pasayishi, bu esa o'z navbatida, davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga olib keldi) amalga oshirildi. Daromadlar va xarajatlarning samarasiz tarkibi byudjet inqirozining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Bu bosqichda davlat byudjeti yaqqol namoyon bo'luvchi fiskal xususiyatga ega edi. Turli-tuman soliqlarning mavjudligi va yuqori soliq stavkalarining amal qilishi davlat byudjetini muayyan darajada daromadlar bilan ta'minlashga xizmat qildi. Byudjetning asosiy vazifalari davlatni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirish uchun zarur mablag'lar bilan ta'minlash, milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish va yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan iborat edi.

Fiskal bosqich davri yuqori soliq stavkalari va soliq solish bazasining kengligi bilan tavsiflanadi, bu hol mamlakatda

ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilar, iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun sharoit yaratish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish talablariga javob bermas edi. Ko'p sonli imtiyozlarning kiritilishi esa ishlab chiqarishni kengaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishda kutilgan natijani bermadi, balki aksincha, soliq to'lashdan bo'yin tovlashga imkoniyat yaratdi.

***Noinflyatsion bosqich (1996-2002-yillar)ning vazifalari:***

– balanslashgan byudjetni shakllantirish;
– soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish va unifikatsiyalash;
– byudjet xarajatlarini optimallashtirish, xususan, xalq xo'jaligi tarmoqlarini mablag'lar qaytimini ta'minlay olmaydigan moliyalashtirish amaliyotidan ularni investitsiyalashga o'tish;
– byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish vazifalarini hal qilish.

Iqtisodiy islohotlarning zamonaviy xalqaro amaliyoti davlat byudjetining makroiqtisodiy tartibga solish va boshqarish vositasi ekanligini ko'rsatadi. Hukumat byudjet qonunchiligi yordamida xarajatlarning umumiy darajasini, byudjet taqchilligi va davlat qarzi hajmini nazorat qiladi. Natijada qonunchilik makroiqtisodiy siyosatning quyidagi jihatlarini namoyon etadi:

– Qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyatlari o'rtasida byudjet vakolatlarining taqsimlanishi;

– hukumatning byudjet tartib-taomillari nazoratni cheklovchi va shaffofligini pasaytiruvchi yashirin yoki kvazibyudjet faoliyatining taqiqlanishi;

– makroiqtisodiy nazoratni ta'minlash maqsadida byudjet taqchilligi, davlat qarzi va chetdan mablag' jalb qilishning cheklanishi.

Byudjet islohotlarining ikkinchi bosqichi 1995-yilda davlat byudjeti va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini yagona konsolidatsiyalashgan byudjetga jamlash

bilan boshlanib, bunung natijasida davlat byudjetining shakllanishi va taqsimlanishi jarayoni ustidan ta'sirchan moliyaviy nazoratni kuchaytirish imkoniyati vujudga keldi.

Milliy valyuta – so'mning joriy etilishi, pul muomalasini tartibga solish va qat'iy pul-kredit siyosatini olib borish yordamida pul islohotlarining o'tkazilishi keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va o'sishga sharoit yaratdi. O'tish davrida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va ijtimoiy sohaning moliyaviy ehtiyojlari mamlakatda yaratilayotgan milliy daromadni ishlatish bo'yicha davlatning real imkoniyatlaridan yuqori bo'ladi. Shu sababli bu davrda moliya organlarining muhim vazifasi moliyaviy resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlarida mujassamlashuvini byudjet taqchilligining oshib ketishiga olib keladigan xarajatlarni oshirish evaziga emas, balki oqilona soliq tizimini yaratish evaziga amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Iqtisodiy o'sishning muhim sharti, shuningdek, byudjet taqchilligini, ichki va tashqi davlat qarzini cheklash hisoblanadi.

Davlat byudjeti borasida amalga oshirilgan islohotlar ikkinchi bosqichining muhim jihatlari quyidagilardir:

***Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish bosqichi (2003–2017-yillar)ning asosiy yo'nalishlari:***

– zamonaviy markazlashgan g'aznachillik tizimini shakllantirish;
– yangi byudjet tasnifi va buxgalteriya hisobining yangi hisoblar rejasiga asoslangan yagona byudjet va hisob tizimini yo'lga qo'yish;
– o'rta muddatli byudjet strategiyasini va dasturiy byudjetlashtirishni joriy qilish.
· byudjet qonunchilligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish;
– davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash asosi sifatida soliq siyosatini yanada takomillashtirish va sh.k.

– balanslashgan davlat byudjetini shakllantirish
– byudjet qonunchiligining shakllanishini davom ettirish;

– soliq tizimining takomillashuvi va unifikatsiyalashuvi;

– byudjet xarajatlarini optimallashtirish, shu jumladan, milliy iqtisodiyot tarmoqlarini beg'araz moliyalashtirish amaliyotidan investitsiyalashga o'tish;

Ushbu davrda davlatning byudjet siyosati quyidagilarga yo'naltirildi:

– byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini yanada kuchaytirish;

– davlat xarajatlari samaradorligi va oqilonaligini oshirish, buning uchun byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini va manzilliligini oshirish maqsadida byudjetni rejalashtirish usullarini takomillashtirish;

– davlat byudjetini ijro etishning g'aznachilik tizimini joriy etish asosida davlat moliyasini boshqarish va nazorat qilishning samarali tizimini yaratish;

– iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni davlat xarajatlarni qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish; sug'oriladigan dehqonchilik yerlarini suv bilan ta'minlash; fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha yo'nalishlarda kengaytirish;

– qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish; bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarish tashkiliy tuzilmasini joriy etish; qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning mustaqilligini kengaytirish;

– markazlashgan investitsiyalarga xarajatlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, YAIMning barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlaydigan, bandlik va aholi daromadlarini oshirish muammolarini hal qiladigan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirishga xizmat qiladigan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga qaratilgan kapital mablag'lar hajmini oshirish;

– byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish.

## 5.3. O'zbekiston Respublikasining yaqin va o'rta istiqboldagi byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi kunda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasini amalga oshirish yo'lida aholining keng qatlamlari, jamoatchillik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek, amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma'ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o'rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi. Shularning asosida 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi[72] ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasining asosiy maqsadi - olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir[73]. Ushbu maqsadga erishish uchun Harakatlar strategiyasida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilab olindi, ular quyidagilardan iborat:

---

[72] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, O'R QHT, 2017 y., 6-son, 70-modda

[73] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga sharh.

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish.

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberaliashtirish.

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish.

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mazkur yo'nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat. Xususan, "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan yo'nalish yaqin va o'rta istiqbolda quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

– makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish;

– milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish;

– qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;

– iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish;

– xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish;

– hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish;

– investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish.

Yuqorida sanab o'tilgan ustuvorliklarni bajarish byudjet-soliq siyosatida ham muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligini nazarda tutadi. Bugungi kunda mamlakatimizda byudjet sohasida olib borilayotgan islohotlar zamirida aholi turmush farovonligini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni

ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojiga keng imkoniyat yaratish maqsadlari mujassamlashgan. Xususan, iqtisodiyotda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish mexanizmini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ana shu maqsad ro'yobiga qaratilgan.

Ma'lumki, mamlakatimizda ishlab chiqarishni rag'batlantirish, davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash maqsadida har yili Byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari qabul qilinadi. Yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan soliq va byudjet siyosati pirovardida aholining turmush farovonligini oshirishga yo'naltirilgan. Xususan, 2018-yilga mo'ljallangan soliq-byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarida soliq yukini yanada qisqartirish, soliq va majburiy to'lovlar miqdorini kamaytirish, mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash va ularning mustaqilligini oshirish, mablag'lardan oqilona foydalanish hamda byudjetga tushumlarning to'liqligini ta'minlash belgilangan. Soliq siyosatida amalga kiritilgan o'zgarishlar soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashishga, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktika-sining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqishga va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishga, soliq nazoratiga oid zamonaviy usluhlarni joriy etishga, soliqqa tortish borasida muammoli masalalarning kamayishiga, byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida va to'liq hajmda tushishi ta'minlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida byudjet tizimini qayta ko'rib chiqish, byudjet daromadlari va xarajatlarining xalqimiz uchun ochiq-oshkora bo'lishini ta'minlash zarurligini ta'kidlagan edi. Zero, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ochiqlik, mamlakat byudjetining taqsimlanishi va sarflanishidagi shaffoflik

chimakam xalq hokimiyatini qaror toptirish va fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishning muhim shartidir. Ushbu holatlar mamlakatimizda yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda mobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, byudjet-soliq sohasida bo'layotgan yangiliklar, byudjet-soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar mamlakatimizda ishlab chiqarish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, aholiga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

## 5.4. Xorijiy davlatlarda byudjet-soliq siyosati va uning yaxlitligini ta'minlash masalalari

Xorijiy davlatlarda byudjet-soliq siyosatining mazmuni, uning yo'nalishlari, amalga oshirish mexanizmlari va dastak-vositalari hamda uning yaxlitligini ta'minlash masalalari "Public budgeting systems"[74] nomli qo'llanmada yoritilgan bo'lib, mazkur paragrafda byudjet-soliq siyosatiga taalluqli fikr-mulohazalar ushbu qo'llanma asosida keltirilgan.

Xorijiy davlatlarda, jumladan, AQSHda federal hukumatning iqtisodiyotdagi o'rni bir nechta o'zaro bog'liq funksiyalardan iborat. Birinchidan, davlat sodir bo'layotgan iqtisodiy munosabatlarni tartibga solib turadi. Ikkinchidan, u bevosita ayrim tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaradi, shuningdek, xususiy ishlab chiqarishni tartibga soladi. Bundan tashqari davlat tovar va xizmatlarning kattagina qismini xarid qiladi, shuningdek, daromadlarni alohida shaxslar va fuqaro guruhlari o'rtasida qayta taqsimlaydi. Ayrim fikrlarga ko'ra hukumatlar o'z mamlakatining jahon bozoridagi iqtisodiy jihatdan raqobatdoshligini ta'minlashlari lozim. Iqtisodiy o'sishni davlat tomonidan to'g'ridan to'g'ri

[74] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.

investitsiyalash lozim, deb hisoblaydigan fikrlar bilan davlat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan qulay iqtisodiy muhitni yaratib berishi maqsadga muvofiq, deb e'tirof etuvchi fikrlar o'rtasida katta farq bor.[75]

Davlat tomonidan xo'jalik munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish ayrim hollarda "o'yin maydoni"da qoidalarni o'rnatish sifatida ko'riladi, bunda iqtisodiy subyektlar yagona o'yin qoidalariga bo'ysungan holda harakat qiladilar, ularning yutuqlari ham, omadsizliklari ham ularning o'z kuchli va zaif tomonlari natijasida yuz beradi. Fond bozorlaridagi Enron va WorldCom kabi kompaniyalar tomonidan buxgalteriya hisobining nomaqbul usullarini qo'llash orqali yuqori darajada daromad olimsbi bilan bog'liq janjallar yirik fuqarolik va jinoiy ishlarning ochilishiga va federal qonunchilikdagi o'zgarishlarga, xususan, Sarbanes-Oxleyga olib keldi. Shu bilan birga 2007-yilda AQSH ipoteka bozoridagi hech narsa bilan ta'minlanmagan derevativ qimmatli qog'ozlarning haddan tashqari ortib ketishi natijasida hosilangan inqiroz qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishni qiyinlashtirdi. Tartibga solish, biznes va konstitutsion huquq masalalarida huquqiy asosni yaratish bosh mavzu bo'lib qoldi.

1932-yilda Franklin D.Ruzvelt Buyuk depressiya bilan bog'liq iqtisodiy muammolarni yechishga federal hukumatni jalb qilishni va'da qilgan edi. Lekin bu ish II Jahon urushi tugagunga qadar amalga oshirilmadi va davlatning iqtisodiyotni rag'batlantirishdagi o'rni qonunchilik bilan cheklandi. 1946-yildagi Bandlik to'g'risidagi (Employment Act) qonun va 1978-yildagi To'liq bandlik va balanslangan o'sish to'g'risidagi (Full Employment and Balanced Growth Act)[76] qonun federal hukumat uchun makroiqtisodiy siyosatning bir nechta

[75] The World Bank (2004). World development report 2005: abetter investment climate for everyone. Klapper, L., & Love,I. (2010). New firm creation: what has been the effect of the financial crisis? Viewpoint, no 324, September 30. Retrieved November 13, 2011, from http:/ /rru.worldbank.org/ PublicPolicy Journal/.

[76] Employment Act of 1946 (P.L. 79-304); Full Employment and Balanced Growth Act of 1978 (P.L.95 253).

maqsadlarni belgilab berdi. Ularning asosiylari bo'lib to'liq bandlik, narxlarning barqarorligi va barqaror iqtisodiy o'sish hisoblanadi. Qonunchilikda alohida belgilanib qo'yilmagan bo'lsa da, ikkita qo'shimcha maqsadlar "now equilibrium" siyosatida AQSH va boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarni muvozanatlashtirish va qarzni boshqarishni barqarorlashtirishga qaratilgan.[77]

Xususiy bozorga asoslangan yoki markaziy rejalashtirishga asoslangan yoxud markaziy boshqaruv bilan bozor iqtisodiyotiga aralash tarzda asoslangan bo'lishidan qat'iy nazar, ko'pchilik sanoati rivojlangan davlatlar bozor faoiligini oshirishda mazkur maqsadlarni qabul qiladilar. Sanoati kamroq rivojlangan, rivojlanayotgan va bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlar ham ushbu maqsadlarni qabul qilgan bo'lib, ammo ushbu mamlakatlar uchun iqtisodiy siyosatning sezilarli maqsadlari iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashishga qaratilgan. Ko'pchilik sanoati rivojlangan mamlakatlar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini pasaytirish kayfiyatida bo'lsalar, 80-yillarda yapon iqtisodiyotidagi yutuqlarda Yaponiya hukumatining ishlab chiqarishda faol ishtirok etish va savdoning rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan siyosatining yaqqol natijalarini ko'rib, ishlab chiqarishning rivojlanishida davlatning o'rni to'g'risidagi bahslar avj olib ketdi. Lekin raqobatdoshlikni rag'batlantirishda davlatning aralashuvini yoqlashga qaratilgan bu bahslar bir necha o'n yillar davomida davlatning aralashuvisiz iqtisodiyotning taraqqiy etayotganligini (har holda, AQSHda) e'tirof etgan holda birmuncha so'ndi.

Federal hukumatning birinchi uchta maqsadi avvalo, ichki ahamiyatga ega. Ko'p hollarda ular yagona maqsadga qaratilgan: inflyatsiyasiz to'liq bandlikni ta'minlovchi iqtisodiy o'sish darajasiga erishish. Iqtisodiy o'sish ishchi-xizmatchilarga

[77] Musgrave, R. A., & Musgrave,P.B. (1989). Public finance in theary and practice (5th ed.). New York, NY: McGraw-Hill; Hyman, D.N. (2010). Puhlic finance: a contemporary application of theary topolicy (10th ed.online). Florence, KY: Cengage Books; Rosen, H. S. (2005). Public finance (7th ed.). New York, NY: McGraw Hill Irwin.

bo'lgan talabni keltirib chiqaradigan harakatlantiruvchi kuchdir. Shunga qaramasdan juda tez harakatlanuvchi yoki juda qimmat yonilg'ida ishlovchi bu harakatlantiruvchi kuch narxlarning nomaqbul oshib ketishiga olib keladi. Bu maqsadlarni umumlashtirsak, iqtisodiy o'sish bilan bandlik o'rtasida sabab oqibatga asoslangan o'zaro bog'liqlik kelib chiqadi. Shuningdek, to'liq bandlik va nomaqbul inflyatsiya tayanch iboralarning mazmunini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Rasman qaraganda, Qo'shma Shtatlarda davlat iqtisodiy siyosatining qonun bilan belgilab qo'yilgan vazifalari to'liq bandlikni, narxlarning barqarorligini va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat. Bandlik borasidagi siyosatning bilvosita natijalarini istisno qilganda, iqtisodiy foydani taqsimlash Amerika Qo'shma Shtatlari uchun iqtisodiy siyosatning rasmiy o'rnatilgan vazifalari qatoriga kirmaydi. Lekin ko'pgina boshqa mamlakatlarda aynan iqtisodiy o'sish va adolat davlatning to'g'ridan-to'g'ri vazifalari qatorida turadi[78]. Boylikni taqsimlashni yaxshilashga qaratilgan aniq va maqsadli harakatlar qilish davlat rasmiy siyosati masalasi hisoblanadi. Davlatning iqtisodiy siyosati resurslarning qayta taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi, ammo bu taqsimot siyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilishi ham, unday bo'lmasligi ham mumkin. Jahon bankining 2006-yilgi Inson taraqqiyoti to'g'risidagi "Adolat va taraqqiyot" (Equity and Development) nomli ma'ruzasida adolat atamasiga "teng imkoniyatlar ... va ... natijalarga egalik qilishdan mahrum bo'lmaslik " deb ta'rif berilgan[79]. Inson hayotiy maqsadlarga erishish borasida teng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak va davlat va jamiyat tomonidan yaratilgan ne'matlardan foydalanishda u yoki bu guruh jamiyat a'zolariga ustunlik berilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

---

[78] The World Bank (2005). World development report 2006: equity and development. New York, NY: Oxford.

[79] World Bank (2005). World development report 2006 (p.vii). New York, NY: Oxford.

Daromadlarni barqarorlashtirish siyosati. Daromadlarni barqarorlashtirish siyosati iqtisodiy tengsizlik muammosini, milliy daromad solig'iga har tomonlama o'ylab yondashgan holda bartaraf qilish yo'llaridan biri hisoblanadi. Bu daromadni kafolatlash, stavkalarni pasaytirish va zarar ko'rmaydigan daromad darajasini belgilashni nazarda tutadi. Kafolatlangan daromadda oilaga keladigan transfer summasi nolga teng bo'ladi, stavkalarni pasaytirish – oilaning daromadlari oshib borishi bilan stavkaning pasayib borishi, zarar ko'rmaydigan daromadlilik darajasi esa oila daromadining boshqa hech qanday transfer olish huquqi bo'lmagan nuqtasidir. AQShda manfiy daromad solig'i mavjud emas, lekin uning tamoyillari u yoki bu darajada daromadlar transferi bilan bog'liq bo'lgan bir necha dasturlarga kiritilgan.

Transfer dasturlari. Bir qancha transfer dasturlari (oziq-ovqat talonlari; ayollar, chaqaloqlar va bolalar uchun qo'shimcha oziqa dasturlari; Medicaid dasturi) kafolatlangan daromadga tenglashtirilgan eng kam nafaqa miqdorini ta'minlaydi. Ammo ijtimoiy ta'minot tizimidagi asosiy islohotlar doirasida insonlarning yashash davomiyligi ortib borishi bilan ularga beriladigan imtiyozlarga jiddiy cheklovlar o'rnatildi va mehnat sharoitlariga qat'iy talablar qo'yildi.

Soliq siyosati. Xarajatlar dasturi daromadlarni qayta taqsimlashning yagona shakli hisoblanmaydi. Turli soliqlar turli guruhlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, butun soliq tizimining umumiy tuzilmasi daromadlarning turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida qayta taqsimotiga xizmat qilishi mumkin. 1986-yildagi Soliq islohotlari to'g'risidagi qonunning (the Tax Reform Act) kuchga kirishi bilan kam daromad oluvchi guruhlar uchun soliqlar keskin kamaydi, o'rtacha daromadli guruhlar to'laydigan soliqlar o'rtacha darajada qisqardi, yuqori darajadagi daromad oluvchi shaxslar va korporatsiyalar uchun yuqori soliq stavkalari qo'llanilishi belgilandi. 1993-yilda soliq stavkasining yuqori darajasi keskin ko'tarildi. 1997-yilda soliq stavkasining pasaytirilishi kam daromadli shaxslar uchun

ham, yuqori daromadli shaxslar uchun ham taalluqli bo'ldi. 2001- va 2003-yillardagi o'zgarishlardan esa yuqori daromadli guruhlar foyda ko'rdilar.

Soliq bilan bog'liq xarajatlar odatda qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Munitsipal obligatsiyalar bo'yicha foizlarning soliqqa tortilmasligi natijasida daromadlar ularni sotib oluvchilar o'rtasida yoki pensiya oluvchilar orqali yoki pensiya fondlarining investitsiyalari orqali qayta taqsimlanadi. Ipoteka krediti bo'yicha daromadlar, shuningdek, uyni qayta sotish bo'yicha daromadlar soliqqa tortiladigan daromadlar tarkibidan chiqarildi va shuning uchun ham bunday soliq xarajatlari o'rtacha va yuqori daromadli jismoniy shaxslar o'rtasida qayta taqsimlash vazifasini bajaradi. Soliq xarajatlarining qayta taqsimlash xususiyati shundaki, u soliq siyosatining yaqqol aniq bo'lgan alohida dastagi sifatida namoyon bo'lmaydi. Soliq xarajatlari bevosita xarajat sifatida yaqqol ko'zga tashlanmaydi, shuningdek soliqlarnig tushishini ham oydin shaklda ko'rsata olmaydi.

Iqtisodiy siyosatning daromadlarning taqsimlanishiga ta'siri natijasida mehnat bozorida tuzilmaviy o'zgarishlar sodir bo'lishini kutish yaramaydi. Masalan, yetarlicha bilim va malakaga ega bo'lmagan yoki eskirgan mehnat ko'nikmalariga ega bo'lgan ishchi-xodimlarga, hatto tez o'sish davrlarida ham ish topish qiyin bo'ladi. Shuningdek, iqtisodiy siyosat, AQShda va xorijda milliy xavfsizlik va mudofaa talablaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlarga nisbatan ojiz bo'lib qoladi. Boshqa yo'nalishdagi siyosat, albatta, muhimroq tuzilmaviy muammolarga qaratiladi. Akademik va kasbiy ta'limga xarajatlar iqtisodiyot uchun mutaxassislarni tayyorlash darajasini ko'taradi. Tartibga solish siyosati esa atrof-muhitni zararlantirishga qarshi xizmat qiladigan dastaklarni ishlab chiqishni nazarda tutadiki, bu choralar ekologiyaning buzilishi oqibatida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararning iqtisodiy qiymatini aniqlash zarurligini keltirib chiqaradi.

Hech qanday qayta taqsimlovchi siyosat iqtisodiyotga ta'siri nuqtai nazaridan neytral bo'la olmaydi. Haqiqatan ham har qanday iqtisodiy xatti-harakat, qanday samara berishidan qat'iy nazar daromadlar taqsimotiga nisbatan avtomatik ravishda daxlsiz bo'ladi. Daromadlarning qayta taqsimlanishi natijasida byudjet defitsiti tartibga solinadi, lekin soliqlarning oshirilishi bir tomondan, byudjet daromadlarini ko'paytirsa, boshqa tomondan, iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va bu borada ekspertlar yagona xulosaga kela olmagan.[80]

Qayta taqsimlash siyosatini loyihalashda iqtisodiy samaradorlikning pasayishi mumkinligini inobatga olish va har qanday yo'qotishlarning oldini olishga harakat qilish lozim. Ishchi kuchi va ishlab chiqarish quvvatlarining to'liqsiz ishlashi kuzatiladigan iqtisodiy pasayishlar davrida davlatning ta'sirchan qayta taqsimlash choralari iqtisodiyotning o'sishini rag'batlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Lekin siyosiy nobarqarorlik davrlarida bunday davlat siyosati adolatli emasdek ko'rinadi. Norozilik harakatlari (Occupy Movement) 2011-yilda Uoll-stritda (Occupy Wall Street) boshlanib, AQShning boshqa shaharlariga va dunyo bo'ylab tarqaldi. Norozilik namoyishchilari qaror topgan iqtisodiy tizimda 1 foiz aholi qolgan 99 foiz aholiga qarshi ishlayotgani va davlat bu holatni yaxshilashga juda kam harakat qilayotganini ta'kidladilar.

Xulosa qilib aytganda, AQSh iqtisodiyotida jami iqtisodiy faollikning 36 foizini federal, davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining birgalikdagi katta ta'siri tashkil qiladi. Federal hukumat ko'pgina iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun ongli ravishda iqtisodiyotga aralashadi. Bir qator markaziy hukumatlarning iqtisodiy siyosat borasidagi asosiy vazifalari – iqtisodiyotdagi iqtisodiy o'sish, umumiy bandlik, barqaror narx-navo va pul mablag'lari oqimidagi muvozanat hisoblanadi. Borgan sari milliy iqtisodiyotlarning

[80] Hunting the rich. [2011]. The Economist, 13.

bir bln bilan o'zaro bog'liqligi hukumat tomonidan yoki AQSh federal hukumati tomonidan milliy iqtisodiy siyosat doirasida raqobatbardoshlikni ta'miniash bo'yicha aniq maqsadlarni ko'zda tutilishini taqozo etadi. Qo'shma Shtatlarda federal byudjet defitsiti ayrim holiarda juda katta miqdorni tashkil qiladi va ushhu defitsitni hamda umumiy davlat qarzini boshqarish iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Ayrim mamlakatlar uchun daromad va ijtimoiy maqomini tenglashtirishning ba'zi darajasiga erishish rasmiy siyosat maqsadi hisobianadi. Adolat va xolislik qonuniy kuchga ega bo'lmasa-da, Qo'shma Shtatlar siyosatining maqsadida daromadiarning tengsizligi siyosiy jihatdan bosh muammo hisoblanadi va federal byudjet defitsiti muammosini hai etishning muqobil vositalarini izlashni taiab qiladi.

Fiskal siyosat va pul-kredit siyosati makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etishda foydalanuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. Fiskai siyosat iqtisodiy faollikni rag'batlantirish yoki rag'batlantirmaslik uchun soliqqa tortish tizimini qo'llash va davlat xarajatlarini ham qamrab oladi. Sarflarning tushumlardan ortiq bo'lishi (defitsit) talabni va bandlikni rag'batlantiradi. Biroq oxir oqibat inflyatsiyani keltirib chiqarisbi ham mumkin. Daromadlarning xarajatlardan ortiq bo'lishi (profitsit) iqtisodiyotga teskari ta'sir qiladi. Monetar siyosat pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish orqali iqtisodiy faollikka ta'sir etadi. Foiz stavkasi va zaxira me'yorlarining foiz stavkalarini o'zgartirish hamda obligatsiyalarni sotish yoki sotib olish orqali Federal Rezerv iqtisodiy faollikni sekinlashtirishi yoki tezlashtirishi mumkin.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Byudjet siyosati, uning turlari, maqsad va vazifalari to'g'risida nimalarni bilasiz?*

*2. Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasini misollarda tushuntirib bering.*

*3. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosatining rivojlanish bosqichlari va har bir bosqichning ustuvor vazifalari nimalardan iborat bo'ldi?*

*4. Xorijiy davlatlarda byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish yo'llari va mexanizmlari haqida nimalarni bilasiz?*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Byudjet-soliq siyosatining bosqichlari va har bir bosqichning asosiy vazifalarini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlang.*

*2. O'zbekiston Respublikasining yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumot tayyorlang.*

*3. "Public budgeting systems" (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) o'quv qo'llanmasi asosida xorijiy mamlakatlarda byudjet-soliq siyosatini amalga oshirish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot tayyorlang.*

## 6-BOB. DAVLAT BYUDJETINI BOSHQARISH

### 6.1. Davlat byudjetini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish obyektlari, subyektlari, ularning guruhlanishi va asosiy vazifalari

Davlat moliyasini boshqarish masalalari iqtisodiyot va moliya nazariyasida markaziy o'rinni egallaydi. Iqtisodiyotni va davlat moliyasini boshqarishdagi muammolar shundan iboratki, bozor xo'jaligi o'zini-o'zi tartiblovchi va rivojlantiruvchi tizim (bozorning "ko'rinmas qo'li") bo'lishiga qaramasdan, hech qachon davlat aralashuvisiz samarali ishlamagan. Tarixiy taraqqiyotdan ma'lumki, umuman olganda, kapitalistik bozor xo'jaligining yuzaga kelishi faol davlat aralashuvi bilan birga sodir bo'lgan. Masalan, 1563-yilda ingliz qirolichasi Yelizaveta I milliy baliqchilikni qo'llab-quvvatlash va unga bo'lgan talabni oshirish maqsadida o'z xizmatkorlariga haftasiga 2 marta go'sht mahsulotlarini iste'mol qilishni taqiqlagan[81]. 1666 yilda esa Angliyada jun mahsulotlarini sotish bilan bog'liq qiyinchiliklarni tugatish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, dafn etilayotgan marhumlarni jun matodan bo'lgan libosларda dafn etish majburiy qilib qo'yildi. Bu qonunni buzganlarga 5 funt-sterling miqdorida jarima belgilandi.

Aksariyat hozirgi zamon iqtisodchi-olimlarining fikricha, bozorning "ko'rinmas qo'li" davlatning "ko'rinadigan qo'li" bilan to'ldirilib turilishi kerak. Bu borada kelishmovchiliklar, qarama-qarshi fikrlar yuzaga kelishining sababi – bu aralashuvning qay darajada bo'lishi bilan bog'liq, lekin davlatning tartiblovchi prinsipi asosan ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Bunday yakdillikning asosiy

[81] Экономическая история зарубежных стран: учебное пособие / Т.М.Тимошина; под ред. проф. М.Н.Чепурина. – 9-ое изд., стер. – М.: Юстицинформ, 2013. -504 стр.

sababi shundaki, olimlarning fikriga ko'ra bozor o'z o'zidan mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning barchasini hal qila olmaydi. Misol uchun, monopoliya sharoitida o'z-o'zini tartiblash raqobatni rivojlantira olmaydi, bu esa tovarlar ma'lum turlari narxining oshishiga olib keladi va natijada aholi daromadlari iqtisodiyotning alohida bir sektorida ushlanib qoladi. Bunday hollarda bozor mexanizmi samarasiz ishlay boshlaydi va iqtisodiy tanglik davrida iqtisodiyotni barqarorlashtirishda bozor mexanizmi sust qatnashadi. Shuning uchun iqtisodiyotni tartiblovchi qo'shimcha mexanizmlarni ishlab chiqish ehtiyoji tug'iladi. Ana shunday mexanizmlardan biri - bu davlatning iqtisodiyotni tartiblovchi unsurlari – dastak va vositalaridir. Bu dastak va vositalar ichida davlat byudjeti asosiy o'rinni egallaydi. Davlat byudjeti davlatning qo'lidagi iqtisodiyot va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va tartibga solish quroli bo'lish bilan birga iqtisodiy kategoriya sifatida muayyan iqtisodiy munosabatlar yig'indisini tashkil etadi, bu munosabatlarni boshqarish davlat byudjetini va umuman, mamlakat byudjet tizimini boshqarishda namoyon bo'ladi.

Byudjet tizimini boshqarish quyidagilarni nazarda tutadi:

Byudjet tizimini boshqarish ham boshqarish kategoriyasining barcha funksiyalarini bajaradi, ular orqali byudjet tizimini boshqarish oldidagi maqsad va vazifalar amalga oshiriladi. Bu funksiyalar: rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat va rag'batlantirish.




– byudjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda byudjet munosabatlarini boshqarish;

– barcha darajadagi byudjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijro etish jarayonlarini boshqarish;

– byudjet jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar, alohida vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari va byudjet mablag'larini oluvchilar faoliyatini boshqarish.

Byudjet tizimini boshqarish tushunchasi subyektiv tushuncha bo'lib, u alohida vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi, ularning vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, tegishli boshqaruv organlari nizomlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilab berilgan.

6.1 rasm. **Byudjet tizimini boshqarish subyektlarining guruhlanishi**

Byudjet tizimini boshqarish *obyektlari* bo'lib byudjet munosabatlari, davlat byudjetining daromadlar bo'yicha shakllanishi va xarajatlar bo'yicha bajarilishi, byudjetlararo munosabatlar va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy pul munosabatlari, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan ajratilgan mablag'laridan foydalanish asosidagi xo'jalik-moliyaviy faoliyati hisoblanadi. Byudjet tizimini *boshqarish subyektlari* esa bevosita shu munosabatlarni boshqarish, tashkil etish,

muvofiqlashtirish va nazorat qilishda ishtirok etuvchi muayyan vakolatlarga ega bo'lgan davlatning qonunchilik-ijroiya institutlari – *boshqaruv organlaridir*. Byudjet tizimini boshqarish subyektlarini byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlariga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

Byudjet tizimini boshqarish organlarining vakolatlari, funksiya va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, tegishli organlarning nizomlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilab beriladi.

## 6.2. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida quyidagi davlat hokimiyati organlari va joylardagi davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari tegishli moddalarda belgilab berilgan:



– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning byudjet sohasidagi vakolatlari;

– O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining byudjet sohasidagi vakolatlari;



– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Hududiy moliya organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet sohasidagi vakolatlari;

– Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarning byudjet sohasidagi vakolatlari.

***O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari:***

– davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek, soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

– Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

– byudjetnoma loyihasini ko'rib chiqadi va [illegible]

– byudjetnomani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;

– davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;

– Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har choraklda ko'rib chiqadi;

– o'tgan moliya yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi audit o'tkazish hamda baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

– Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;

– moliya yili mobaynida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

– O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo'shimcha manbalardan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi mablag'lardan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi (O'RQ-360-son. 26.12.2013). 25-modda.*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va*

*Shaharlar Kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:*

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarini, tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

– mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining byudjet sohasidagi vakolatlari quyidagilardan iborat:*

– tegishli byudjet loyihasini ishlab chiqish va uni ijro etish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

– byudjet so'rovi olinishiga qarab tegishli byudjetlarning loyihalarini tuzish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilaydi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti loyihasini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga ko'rib chiqish va qabul qilish uchun taqdim etadi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlarining qarorlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlarini tasdiqlaydi;

– moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqadi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga tasdiqlash uchun taqdim etadi;

– Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

– byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahri shahar byudjetining zaxira jamg'armalari mablag'laridan foydalanish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

***O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish borasidagi vakolatlari:***

– Davlat byudjeti hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini tayyorlaydi;

– davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalarini ko'rib chiqadi;

– O'zR Vazirlar Mahkamasiga byudjetnoma loyihasini ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

– O'zR Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasiga O'zR Davlat byudjeti daromadlari prognozini har chorakda yetkazadi;

– byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga va DMJlarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi;

– byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

– O'zR respublika byudjetining xarajatlari yoyilmasiga moliya yili mohaynida o'zgartirishlar kiritadi;

– O'zR Vazirlar Mahkamasiga O'zR Davlat byudjeti, respublika byudjeti va DMJlari byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar taqdim etadi;

– moliya yili mohaynida QR Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining QR byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqadi;

– soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

– byudjet tizimi byudjetlarining mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek, byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;

– o'z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi va b.

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi (O'RQ-360-son. 26.12.2013). 29-modda*

## 6.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari

Moliya vazirligi O'zbekiston Res-publikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi res-publikaning markaziy moliya-iqtisodiy

organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navom tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.



Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi.

Moliya vazirligi respublika byudjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi.

Moliya vazirligi o'z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to'g'ridan to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvoliqlashtiradi va yo'naltiradi.

Moliya vazirligi tizimiga kiruvchi organlarni boshqarish jarayonida Vazirlik O'zbekiston Respublikasining moliyaviy va narx-navo siyosatini amalga oshirishning birligini ta'minlaydi.

2017-yilga qadar Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarish bo'yicha vakolatlari, asosiy vazifalari va funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23 noyabridagi 553-sonli qarori bilan tasdiqlangan

"O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom"[82] bilan tartibga solinib kelingan.

2017-yilga kelib, respublikadagi barcha moliya organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining soliq byudjet siyosatiga qat'iy rioya qilishini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan vazifalari, funksiyalari, ish shakllari va uslublarini qayta ko'rib chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martda "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847 sonli qarori[83] qabul qilindi. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalari faoliyatining quyidagi ustuvor vazifalari hamda yo'nalishlari belgilab berildi:

– iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning moliyaviy mutanosibligini ta'minlashda, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarishda, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda moliya organlarining rolini oshirishga yo'naltirilgan yagona davlat soliq byudjet siyosatini amalga oshirish;

– iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, mineral-xomi ashyo, yer-suv hamda boshqa resurslar va uskunalardan oqilona foydalanishda soliq hamda boshqa majburiy to'lovlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish yo'li bilan soliq tizimini izchil takomillashtirib borish, soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lash tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq

[82] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 27 son, 355 modda
[83] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 201-modda

yig'ilishni ta'minlash maqsadida ularning stavkalarini optimallashtirish;

– byudjetlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar maballiy byudjetlarining daromad bazasini barcha choralar bilan kengaytirish, viloyatlar va tumanlarni subvensiyadan chiqarib, ularning mutanosibligi va o'zini o'zi qoplay olishini ta'minlash, hududlar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrini kompleks va intensiv rivojlantirish asosida davlat byudjetiga qo'shimcha manbalar jalb etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada to'liq va samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;

– moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor yo'nalishlariga, ijtimoiy sohani, ayniqsa qishloq joylarida, jadal rivojlantirishga, maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalash tirishga, belgilangan me'yorlarga muvofiq ularni real moliyalashtirish manbalari bilan mustahkamlashga, ushbu asosda kreditorlik va debitorlik qarzlarini kamaytirishga jamlash;

– iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish, tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga narx va tariflar belgilash tartibini takomillashtirish hamda to'lov intizomini mustahkamlash;

– byudjet tizimidagi byudjet mablag'laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, qattiq iqtisod qilish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, nobudgarchilik va talon-tarojlikni, maqsadga nomuvofiq chiqimlarni tugatish yuzasidan vazirliklar, idoralar, xo'jalik subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda keng qamrovli profilaktika ishlarini olib borish;

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa valyuta nazorati organlari bilan birgalikda valyuta-moliya siyosatining asosiy tamoyillari va usullarini shakllantirish, davlatning valyuta resurslarini ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar, xususan pensiyalar hamda boshqa tegisbli to'lovlarni tayinlash va o'z vaqtida to'lash bo'yicha o'rnatilgan qoidalarning qo'llanilishini muvofiqlashtirish hamda ularni nazorat qilish;

– sug'urta tashkilotlarining sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlari bimoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini nazorat qilish, buxgalterlik hisobi va hisobotining yagona metodologiyasini shakllantirish va amalga oshirish, auditorlik faoliyatini tartibga solish, mamlakatning moliya bozorlarini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

– davlat moliya siyosati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, Moliya vazirligi, uning markaziy apparati hamda tarkibiy bo'linmalarining ish shakllarini va usullarini tubdan takomillashtirish, moliya organlari faoliyatida byurokratizm va sansalorlik bollariga yo'l qo'ymaslik, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratish, zimmaga yuklatilgan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun moliya organlari xodimlarining mas'uliyatini oshirish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom, Moliya vazirligi va vazirlik markaziy

apparatining tashkiliy tuzilmasi, Qoraqalpog'iston Respuhlikasi Moliya vazirligining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalarining, shahar hokimliklari moliya bo'limlarining, tuman va shaharlar hokimliklari moliya bo'limlarining namunaviy tuzilmalari ham tasdiqlandi (Ilovalarga qarang).

### 6.4. Davlat byudjetini boshqarish bo'yicha xorij tajribalari

Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tomonidan davlat byudjetini, mamlakat byudjet tizimini, byudjetlararo munosabatlarni boshqarish masalalari ko'pgina xorijiy adabiyotlarda atroflicha yoritilgan. Ushbu masalaning bir qator jihatlari, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida qonun chiqaruvchi organlar va shtatlar ma'muriyatlarining davlat byudjeti va shtatlar byudjetlarini tuzish, qabul qilish, ijro etish va nazorat qilishdagi boshqaruv faoliyatlari tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida qay darajada amalga oshirilganligi "Public budgeting systems"[84] nomli o'quv adabiyotining tegishli boblarida batafsil bayon qilingan.

**Enron Corporation** – o'z faoliyatini 2001-yilda bankrotlik natijasida tugatgan yirik energetika kompaniyasi. Uning shtab-kvartirasi Xyustonda (Texas shtati) joylashgan. Bankrotlikka uchragunga qadar Enron kompaniyasida 40 ta davlatda 22 000 xodim ishlagan. Enron dunyodagi elektr energiyasi, gaz tashish sanoati, gaz ta'minoti, aloqa va sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish kabi tarmoqlarning eng ilg'or kompaniyalaridan biri edi. Noishlab chiqarish sohasida kompaniya tyucherslar va hosilaviy qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan shug'ullangan. 2000-yil bo'yicha deklaratsiya qilingan daromadi 101 mlrd dollarni tashkil qilgan. Fortune jurnali olti yil davomida Enron kompaniyasini "Amerikaning eng innovatsion kompaniyasi" deb tan olgan. 2001-yilning oxirida kompaniyaning moliyaviy holati to'g'risidagi axborotlar buxgalteriyadagi firibgarlik yordamida soxtalashtirilganligi ma'lum bo'ldi, keyinchalik bu holat "Enron ishi" degan nom oldi. 2001 yil 2-dekabrda kompaniya bankrot deb e'lon qilindi. Shu davrdan boshlab Enron korporativ firibgarlik va korrupsiya timsoli sifatida nom chiqardi va tarixda qoldi.

[84] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.

Byudjet munosabatlarida davlat faoliyatining samaradorligini davlat xizmatchilari o'z xatti-harakatlari uchun qay darajada javobgar ekanlikleri bilan baholash mumkin.[85]

Demokratik jamiyatda javobgarlik shuni nazarda tutadiki, xalqning ovoz berish yo'li bilan saylangan deputatlari o'z saylovchilari oldida javobgardirlar. Saylangan rahbarlar va Qonunchilik Palatasi a'zolari hokimyatning barcha pog'onalarida byudjet dasturlari bilan bog'liq qarorlar uchun javob beradilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aksariyat saylovchilar prezidentlik va parlament saylovlarida nomzodlarga ovoz berayotgan chog'ida AQSH byudjetini sinchiklab ko'zdan kechirib chiqmaydilar. Lekin saylovchilar ular tomonidan saylangan hukumatning iqtisodiyot rivojiga ta'sirini ko'rsalargina, haqiqatdan ham davlat byudjeti, byudjet defitsiti hamda iqtisodiyot samaradorligi uchun javobgar bo'lgan shaxslarni saylaganlariga amin bo'ladilar. Bu holatni 1992-yilda prezidentlikka qayta saylanmoqchi bo'lgan katta Jorj Bush mag'lubiyati misolida ko'rish mumkin. Sakkiz yildan keyingi 2000-yilda bo'lib o'tgan saylovlar shuni ko'rsatdiki, hatto gurkirab rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida ham ko'pchilik saylovchilarni iqtisodiyotdagi yutuqlardan ko'ra Oq Uyning yaqqol namoyon bo'layotgan ma'naviy va axloqiy xatolari tashvishga solgan.[86]

Katta mamlakat hamjamiyati hukumatning barcha faoliyati to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'la olmaydi, shu sababli AQSH hukumati muvozanatni saqlash va nazorat qilishda turli darajadagi hokimiyatlar o'rtasida vakolatlar taqsimoti konsepsiyasidan foydalanadi. Bu vakolatlar ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlangan bo'lib, o'z navbatida, har biri boshqalari ustidan

---

[85] White, M. (1978). Budget policy: where does it begin and end? Governmental Finance, 7, 2-9. Credits W. F. Willoughby's The problem of a national budget (1919) with an early statement of budgeting as a process for holding government accountable.

[86] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition USA, 2012. Chapter 1, P-7.

ayrim nazoratlarni amalga oshiradi. Prezident ma'muriy byudjetni tayyorlash va taqdim etish uchun Kongress oldida javobgar bo'lsada, faqat Kongress byudjetni qabul qilishi mumkin. Xususan, AQSH konstitutsiyasining 1-moddasi 9-qismida "Qonunda ko'zda tutilmagan biron bir maqsadga mamlakat G'aznachiligidan mablag' chiqib ketmasligi kerak", deb qayd etib qo'yilgan.[87] Ko'pchilik shtatlar va ma'muriy birliklarda ijro hokimiyati boshliqlarining o'z byudjetlarining daromad va xarajatlarim belgilashdagi vakolatlari tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, qonun chiqaruvchi organlar bu tavsiyalarga ko'ra qaror qabul qiladi, so'ngra ijroiya organlar ushbu qarorlarning hajarilishi uchun mas'ul bo'ladilar. Mahalliy hokimiyat organlarining bu boradagi faoliyati birmuncha farq qiladi, chunki ayrim mahalliy hokimiyat organlari ijroiya hokimiyatining saylangan rahbarlariga ega emaslar.

Zamonaviy ma'muriy byudjetlashtirish. XX asr boshlariga kelib, iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi byudjetlashtirishning ancha markazlashgan va nazorat qilinadigan shakllarini joriy qilishni talab etdi. 1900-yilga kelib, davlat o'z xarajatlarini qoplash uchun yetarli darajadagi daromad manbalariga ega bo'lmay qoldi. Federal darajada soliq stavkalarining ko'tarilishi ham kutilgan natijani bermadi. Hukumat dasturlari ko'lamining kengayishi va, ma'lum darajada, davlat moliyasi tizimida isrofgarchilik va korrupsiyaga yo'l qo'yilishi byudjet defitsitining o'sib borishiga sabab bo'ldi hamda bu borada islohotlarni amalga oshirish zarurligini belgilab beruvchi muhim siyosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Davlat byudjetl munosabatlaridagi yirik islohotlar 1910-1920-yillar oralig'ida amalga oshirildi. Bu islohotlar rahbarlarga ijroiya hokimiyati ustidan nazorat qilish vakolatini berish orqali ularning javobgarligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ma'muriy birliklarning boshliqlarini qisqa muddatga

[87] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. Chapter I, P 8.

sıylab qo'yilishi o'z hududlari bo'yicha nazorat qilish vakolatini gubernatorlar qo'liga topshirish imkonini berdi. Ohayyo (Ohio) shtati, byudjetni tuzish va taqdim etish bo'yicha qonuniy vakolatni shtat gubernatoriga topshirgan AQSHdagi birinchi shtat bo'ldi. 1920-yilda AQSHning 44 ta shtatida byudjet islohotlari olib borildi, natijada 1929-yilga kelib barcha shtatlarda Markaziy byudjet boshqarmalari tashkil qilindi.[88]

Bir vaqtning o'zida federal darajada ham islohotlar amalga oshirildi, aslini olganda, markaziy darajadagi o'zgarishlar mahalliy va shtatlar darajasida o'z aksini topa boshladi. Nyu York Munitsipal tadqiqotlar Byurosi direktori bo'lgan va milliy islohotlarda hal qiluvchi o'rin egallagan Fredirik A.Klivlend (ingl.: Frederick A.Cleveland) "hukumat xarajatlarining nazoratsiz oshib borishi jamoatchilikning hukumatga nisbatan norozilik kayfiyatlarining kuchayishiga olib keldi", - deb ta'kidlaydi.[89] Bu ijtimoiy muammoga javoban prezident Villiam H.Taft Iqtisodiyot va samaradorlik bo'yicha maxsus komissiya uchun 1909-yilda Kongressdan 100 ming AQSH dollari miqdorida mablag' ajratishni talab qildi. "Taft komissiyasi" deb nom olgan ushbu guruhga Klivlend boshchilik qildi va 1912-yilda taqdim etgan yakuniy hisobotida byudjet jarayonini prezidentning bevosita boshchiligida tashkil etishni taklif qildi. Ushbu hisobot davlat va mahalliy darajada faoliyatni rag'batlantirishi lozim edi.

Yangi federal tizimni tashkil etgan Byudjet va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun (ingl.: The Budget and Accounting Act) 1921-yilga qadar tasdiqlanmadi.[90] 1916-yilni hisobga olmaganda, 1912-1919-yillar orasida har yili byudjet defitsiti kuzatildi. 1919-yildagi defitsit davrida byudjet xarajatlari daromadlarga qaraganda 3 barobardan ziyod bo'ldi (18,5 mlrd.

---

[88] Burkhead,J. (1956). Government budgeting, 23; Willbern, Y. (1967). Personnel and money. In J. Fesler
(Ed.), The 50 states and their local governments (p. 391). New York, NY: Knopf.
[89] Cleveland, F. (1915). Evolution of the budget idea in the United States. Annals , 62, November, 22.
[90] Budget and Accounting Act of 1921. Ch. 18, 42 Stat. 20.

AQSH dollari hajmidagi xarajatga nisbatan 5,1 mlrd. AQSH dollaridagi daromad]. Bu davrda byudjet borasidagi islohotlar ijro hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyatga ta'sirini ta'minlay olishi yoki ta'minlay olmasligi to'g'risidagi bahslar aniqsa avj oldi. Prezident Uilson Byudjet va Hisob buxgalteriya boshqarmasini tuzish to'g'risidagi qonunni rad etdi, chunki ushbu boshqarma Kongressning tarkibiy bo'linmasi sifatida prezidentning ijroiya hokimiyatiga nisbatan vakolatlarini buzishga olib kelar edi. Keyingi yildayoq Uorren J.Xarding (ingl.: Warren G. Harding) deyarli xuddi shu mazmundagi qonunga imzo chekdi.

1939-yilda, prezident Franklin D. Ruzveltning Ma'muriy boshqaruv qo'mitasi (ingl.: the Brownlow Committee) tavsiyalariga ko'ra Byudjet Byurosi G'aznachilik Departamenti tarkibidan chiqarilib, yangi tashkil etilgan Prezident ijroiya mahkamasiga o'tkazildi. Bu chora Byudjet Byurosining prezident tomonidan hukumatni boshqarishdagi ahamiyatini yanada yaqqol namoyish qildi. 10 yil o'tgach, ijro etuvchi hokimiyatning birinchi Huver Komissiyasi Byudjet Buyrosining G'aznachilik Departamentida qayta tashkil etishni tavsiya etdi, lekin komissiya bu taklifga butunlay qarshi chiqdi.[91] 1950-yilgi Byudjet va Buxgalteriya protseduralari to'g'risidagi qonun (ingl.: The Budget and Accounting Procedures Act) byudjet hujjati, uning shakli va mazmuni ustidan prezident nazoratini mustahkamladi.[92] 1955-yilda Ikkinchi Huver Komissiyasi byudjet ustidan prezidentlik nazoratim yanada kuchaytirishni yoqlab chiqdi.[93]

Reformistik harakatning maqsadlaridan biri izdan chiqqan davlat sektorining o'rniga biznes yuritishning zamonaviy

---

[91] U.S. Commission on Organization of the Executive Branch of the Government (1949). General management of the executive branch. Washington, DC: U.S. Government Printing Office.

[92] Budget and Accounting Procedures Act of 1950, Ch. 946, Title I, part 1, 64 Stat. 832.

[93] U.S. Commission on Organization of the Executive Branch of the Government (1955). Budget and accounting (p. ix). Washington, DC: U.S. Government Printing Office.

reformatorlar bugungi kunda ham tez-tez yoqlab turadigan sog'lom moliyaviy amaliyotini olib kirishdan iborat bo'ldi. Ammo XIX asrning oxiri va XX asrning boshiga kelib biznes-faoliik yetarlicha yuqori bo'lmaganligi sababli islohotlar aynan davlat sektorida amalga oshirildi.[94] Avvalgidek, hukumatlar xususiy tadbirkorlik asosidagi biznes-faollikni rag'batlantirishlari kerakligi to'g'risidagi da'vatlar dolzarb edi, ammo Enron kabi gigant kompaniyalar korporativ hisobotlarida yolg'on daromadlarni ko'rsatgani bilan bog'liq mojarolar hamda asosiy moliyaviy institutlardagi ipoteka kreditlarining inqirozga uchrashi kabi noxush holatlar xususiy biznes amaliyotining har doim ham namunali bo'lmasligini ko'rsatdi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat boshqaruvining barcha pog'onalari, ayniqsa, shtatlar va munitsipalitetlar dasturiy byudjetlashtirish samaradorligini oshirishning keng imkoniyatlariga egadirlar.[95] "Hukumatni yangidan kashf qilish" harakati hamda Klinton ma'muriyati boshqaruvining Milliy samaradorlik hisoboti byudjetni boshqarishda ko'proq e'tiborni asosan yakuniy natijaga qaratish g'oyasini ilgari surdi.[96] Jorj Bush ma'muriyati nafaqat ushbu g'oyaga asoslanib ish ko'rdi, balki qabul qilingan dasturlarni baholashda samaradorlik ko'rsatkichlari reytingidan foydalandi. 2010 yildagi GPRAni modernizatsiya qilish to'g'risidagi qonuni (ingl.: The GPRA Modernization Act) bilan Kongress hamda ijroiya hokimiyati uchun samaradorlikni boshqarish va samarali boshqarish tartiblari belgilab berildi.

---

[94] Rubin, I. (1993). Who invented budgeting in the United States? Public Administration Review, 53, 438-444.

[95] Holzer, M., et al. (2009). Literature review and analysis related to measuring local government efficiency. Newark, NJ: Rutgers University School of Public Affairs and Administration.

[96] National Performance Review (1993). Mission driven, resultsoriented budgeting. Washington, DC: U.S. Government Printing Office; Thompson, J. (2000). Reinvention as reform: assessing the national performance review. Public Administration Review, 60, 508-521.

Samaradorlikni boshqarish dastavval maqsadlarni aniqlab olishni, so'ngra ushbu maqsadlarga erishish uchun boshqaruvchilarning ustalik bilan harakat qilishini talab etadi. Albatta, haqiqiy samaradorlikka erishish boshqarishdagi ijobiy o'sishni anglatsada, bu vositalar boshqarishning sifati bilan bog'liq bo'lmagan dasturlarni qisqartirishga ham xizmat qilishi mumkin. Boshqa mamlakatlarda ham natijaga yo'naltirilgan va maqsadli-dasturiy byudjetlashtirishdan samaradorlikni oshirishda va davlat sektorining ulushini qisqartirishda asosiy vosita sifatida keng foydalaniladi.[97]

Moliyaviy menejment. Ahamiyat berish lozim bo'lgan yana bir jihat – davlat tashkilotlarining yoki umuman davlatning moliyaviy jihatdan sog'lomligi, mustahkamligidir. Bunda ikki holatni inobatga olish lozim: (1) davlatning moliyaviy holati to'g'risida hukumatning doimiy ravishda hisobot berib turishini yaxshilash va (2) uzoq muddatli aktivlarning, xususan, infratuzilma tizimlarining qiymati va holatiga ta'sir etuvchi omillarni kuchaytirish. Davlat savdo korporatsiyalari korporatsiyaning moliyaviy holati to'g'risida o'z aksiyadorlari huzurida doimo hisob berib turishlari lozim, xususiy kompaniyalar esa o'z kreditorlarining uzoq muddatli ishonchli kreditiariga umid qilib, hech bo'lmaganda kompaniyaning moliyaviy holati barqaror ekanligini namoyish qilishlari kerak. Ammo 1980-yillarning oxirida moliyaviy menejment konsepsiyalarining davlat tashkilotlariga tatbiq etish masalasi o'ziga xos yangilik edi. Bunda asosiy e'tibor xususiy sektorda qo'llaniladigan moliyaviy va boshqaruv hisobi mexanizmlarini davlatning moliyaviy holatini baholash uchun moslashtirish, shu bilan birga, uning moliyaviy holatini yaxshilashga xizmat qiluvchi yangi dastak-vositalarni yaratishga qaratildi.

---

[97] McCormack, L. (2007). Performance budgeting in Canada. OECD Journal on Budgeting, 7(4), 1-18.

1970-yillar o'rtalarıdagı byudjet inqirozi hukumatlarning uzoq muddatli moliyavıy holati to'g'risida qayg'urishiga sabab bo'ldi. Bu bankrotlik oqibatida mahalliy hukumatlarning munitsipal obligatsiyalarini sotib olgan moliyavıy muassasalar hamda aholi o'zlarining jamg'armalari borasida xavotirga tushib qoldılar va hukumatlardan ularning moliyaviy holati to'g'risida hisobot talab qila boshladilar.[98] O'sha davrda umumiy operatsion byudjet va u bilan bog'liq bo'lgan buxgalteriya hisobotlari davlat organlari va davlat tashkilotlarining haqiqiy moliyavıy ahvolini ochib bermas edi. Hozirda esa nafaqat barcha mahalliy hokimiyatlar va shtatlar, balki federal hukumatning o'zi ham o'z moliyavıy holati to'g'risidagi hisobotlarni, ayrim hollarda juda bo'rttirilgan ma'lumotlarni ommaga etkazishga harakat qiladilar.[99]

Xulosa qilib aytganda, xorijiy davlatlarda ham bizning mamlakatimizdagi singari davlat va mahalliy hukumatlarning byudjet tizimi va byudjet munosabatlarini boshqarishdagi asosiy e'tibor davlatning daromad va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlashga, byudjet defitsitini boshqarish va tartibga solishga, davlat byudjeti va ma'muriy-hududiy birliklar byudjetlarining tuzilishi, tasdiqlanishi, ijro etilishi va nazorat qilinishini tartibga solishga, davlat qarzini boshqarish va boshqa shu kabi moliyavıy boshqaruv masalalariga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Bu mamlakatlarda ham byudjet mablag'larining shakllanishi va ishlatilishi byudjet sohasidagi muayyan qonunlarning amal qilishi va qarorlarning qabul qilinishi bilan tartibga solinadi. Boshqarish borasidagi vakolatlarning markaziy va mahalliy hukumatlar o'rtasida

[98] Johnson, R.,&Lewin, A.(1984). Management and accountability models of public sector performance. In T Miller (Ed.), Public sector performance: a conceptual turning point (pp. 224-250). Baltimore, MD: Johns Hopkins University Press.

[99] A good example is Comptroller, State of New York (published annually since 2003; see most recent year). State of New York financial condition report. Albany, NY: Comptroller's Office of Public Information. Retrieved December 5, 2011, from http://www.osc.state.ny.us/finance/index.htm.

taqsimlanganligi federativ asosdagi davlat qurilishiga ega bo'lgan mamlakatlarda ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Shunga qaramasdan bugungi murakkab sharoitda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirida davlat byudjeti va mamlakatlarda shakllangan byudjet tizimlarini boshqarish jarayoni takomillashib, shu bilan birga murakkablashib bormoqda.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Byudjet tizimini boshqarish obyektlari va subyektlari qaysilar? Misollarda tushuntiring.*

*2. Byudjet tizimini boshqarishga mas'ul organlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?*

*3. Markaziy va mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining byudjet borasidagi vakolatlari va mustaqilligi shartlari va mezonlari qanday?*

*4. Byudjet istiqbolini belgilash, byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qanday muammolar mavjud, ularni hal etish yo'llari qanday? Bu borada O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida qanday ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan?*

*5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet tizimini boshqarishdagi ahamiyatini nimalar bilan izohlash mumkin?*

*6. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tarkibiy bo'linmalarining byudjet tizimini boshqarish borasidagi vakolatlari nimalardan iborat?*

*7. Xorijiy davlatlarda markazlashgan va nomarkazlashgan byudjet tizimini boshqarish organlari haqida nimalarni bilasiz?*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Byudjet tizimini boshqarishga mas'ul organlarning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari aks ettirilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar katalogini ishlab chiqing.*

*2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasini o'rgasnish asosida "Byudjet tizimini boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari" mavzusida taqdimot tayyorlang.*

*3. "Public budgeting systems" (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) o'quv qo'llanmasi asosida xorijiy mamlakatlarda davlat byudjetini boshqarish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot tayyorlang.*

# 7-BOB. BYUDJETLARARO MUNOSABATLAR

## 7.1. Byudjetlararo munosabatlarning mohiyati, zarurligi va shakllari

Barcha mamlakatlarda ularning geografik joylashuvi, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanish darajasining turlicha ekanligi, ekologik sharoitlarining farqlanishi va boshqa omillar sababli mamlakat mintaqalarining ishlab chiqarish, daromad va ijtimoiy salohiyatining boshlang'ich imkoniyatlari bir xilda emas. Biroq davlatning muhim vazifalaridan biri o'z fuqarolari farovonligining barqaror o'sishini ta'minlash va barcha mintaqalarning rivojlanishi uchun bir xil sharoitlar yaratishdan iborat. Bunga esa, ma'lum ma'noda davlatning moliyaviy resurslarini mintaqalararo qayta taqsimlash orqali erishiladi. Bunday qayta taqsimlash jarayonlariga *byudjetlararo munosabatlar* mexanizmlari xizmat qiladi.

Byudjetlararo munosabatlar byudjet jarayonida, davlat byudjetini shakllantirish va ijro etishda turli darajadagi byudjetlar, shuningdek, davlat byudjeti bilan davlat maqsadli jamg'armalari o'rtasidagi byudjet mablag'larining harakati bilan bog'liq munosabatlar majmuyidir. Byudjetlararo munosabatlarning mazmunini yoritishda rus iqtisodchi olimlari A.M.Babich va L.N.Pavlovaning "Государственные и муниципальные финансы" nomli darsligida: "Byudjetlararo munosabatlar davlat hokimiyati organlari, markaziy hokimiyat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasida byudjetlarni tuzish va ijro etish hamda byudjet jarayonini tashkil etish bilan bog'liq huquq va majburiyatlar, vakolatlarning biriktirilishi va chegaralanishiga oid munosabatlar majmuyidir"[100] mazmunida ta'rif keltirilgan.

[100] Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебник для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 703 с.

Ammo byudjetlararo munosabatlarga berilgan ushbu ta'rif mazkur masalaning huquqiy asoslarini, byudjet jarayoni ishtirokchilarining turli darajadagi byudjetlarni shakllantirishdagi huquqiy munosabatlarnigina aks ettiradi. Byudjetning ijro etilishi davomida mablag'larning bir byudjet bo'g'inidan boshqasiga yoki bir darajadagi byudjetlar o'rtasidagi haqiqatdagi harakati haqida fikr bildirilmagan.

Z.Sirojiddinovaning "Byudjetlararo munosabatlar" deb nomlangan o'quv qo'llanmasida esa: "Byudjetlararo munosabatlar, deganda byudjet jarayoni davomida davlat va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keluvchi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmuyi tushuniladi. Byudjetlararo munosabatlar davlat boshqaruvi tizimida vertikal yoki gorizontal bo'yicha paydo bo'ladi va amal qiladi hamda hokimiyat har bir darajasining faoliyat maqsadlaridan kelib chiqib, ularning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda tartibga solinadi"[101], degan fikrlar o'rin olgan.

Maxsus adabiyotlar va ilmiy ishlarda, shuningdek, byudjetlararo munosabatlarga quyidagicha ta'riflar berilgan: "Byudjetlararo munosabatlar davlat byudjet mexanizmining muhim va ajralmas elementi bo'lib, markazdan turib mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o'rtasida barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta'minlaydigan va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o'zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining ushbu subyektlar o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlar yig'indisidir"[102] (bu haqida mazkur o'quv qo'llanmaning 3-bobida ham qisqacha to'xtalgan edik).

---

[101] Sirojiddinova Z.X. Byudjetlararo munosabatlar. O'quv qo'llanma. T.: infoCOM.UZ. – 2010. b.5.

[102] А.Вахобов, Х.Жамолов. Согласование межбюджетных отношений. Т.: Молия. – 2002.

Umuman olganda, byudjetlararo munosabatlarning iqtisodiy voqelik sifatidagi tabiatini tahlil qilish asosida quyidagilarni ta'kidlash zarur:

– *birinchidan*, byudjetlararo munosabatlar – keng qamrovli byudjet siyosatini markaziy va hududiy darajada amalga oshirish jarayonimng ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishnimg beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida ham "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish" chora-tadbirlari ichida "Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish"[103] vazifalari belgilangan;

– *ikkinchidan*, byudjetlararo munosabatlar byudjet siyosatining boshqa yo'nalishlariga nisbatan birlamchi ahamiyat kasb etadi, chunki mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta'minlash, ularning daromad bazalarini mustahkamlash, hududlarning iqtisodiy va byudjet potensialini oshirish masalalari byudjet siyosatining asosiy masalalari sifatida qaraladi, ularning ijobiy yechimi byudjetlararo munosabatlarning to'g'ri tashkil etilishiga ko'p jihatdan bog'liq;

– *uchinchidan*, byudjetlararo munosabatlar – nafaqat turli darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'rtasidagi munosabat, balki markaziy davlat hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini hududlar darajasida bajarish, jamiyat taraqqiyoti uchun normal sharoitlarni yaratish maqsadlariga yo'naltirilishi lozim bo'lgan barcha byudjet mablag'larining maqsadga muvofiq taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonidagi munosabatlardir;

---

[103] 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. 3.1-band. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70 modda.

– *to'rtinchidan*, hududlar mablag'larning markaziy hokimiyat (respublika byudjeti) ixtiyoriga tushib turishini ta'minlar ekan, bu bilan hududiy boshqaruv organlari markaziy hokimiyatdan davlat boshqaruvi bo'yicha aniq majburiyatlarning bajarilishini talab qilib olish huquqiga ham ega bo'ladilar, bu holat markaziy hokimiyatning hududlar manfaatlari yo'lida yagona va samarali boshqaruvning olib borilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga mablag' ajratish mexanizmlari bilan markaziy hukumat mahalliy hokimiyatlar zimmasidagi byudjet majburiyatlarining bajarilishiga erishadi, ularda hoqimandalik kayfiyatlarini oldini olish uchun dastak yaratadi hamda ularni hududlarning iqtisodiy-moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlashga undaydi;

– *beshinchidan*, byudjetlararo munosabatlar – teng ahamiyatli tarzda yuqoridan quyiga va quyidan yuqoriga harakatlanuvchi byudjet mablag'lari, moliyaviy oqimlardir. Ushbu munosabatlar turli darajadagi byudjetlar, ayniqsa, byudjet tizimining quyi pog'onasi bo'lgan tuman byudjetlarining daromadlilik darajasini tartibga solish uchun xizmat qiladi, ushbu moliyaviy oqimlar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiruvchi ta'sirchan omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 132-moddasida: "Byudjetlararo munosabatlar O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tumanlar, shaharlar byudjetlari, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi tegishli byudjetlarga biriktirilgan xarajatlarni amalga oshirisb uchun zarur bo'lgan tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir"[104], deb belgilab qo'yilgan.

---

[104] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.07.2018 y., 03/18/488/1579-son.



7.1-rasm. **Byudjetlararo munosabatlarda moliyaviy oqimlarning harakati**

Byudjet kodeksida belgilab qo'yilganidek, byudjet jarayonida:

– O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan;

– davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining bir-biri bilan, shuningdek, boshqa ma'muriy-hududiy birlikning tumanlari va shaharlari byudjetlari bilan;

– tumanlar va shaharlar byudjetlari o'rtasida o'zaro munosabatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek (3-bobga qarang), turli darajadagi byudjetlar o'rtasida sodir bo'ladigan byudjetlararo munosabatlar byudjetlararo transfertlar tizimi orqali amalga oshiriladi.




7.2-rasm. **Davlat byudjeti mablag'larining byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi**

Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlilik darajasini tartibga solishda *tartibga soluvchi daromadlar* muhim o'rin egallaydi (shu sababli ular "tartibga soluvchi daromadlar" deb ataladi). Byudjet kodeksining 3-moddasida: "Tartibga soluvchi daromadlar – byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, soliq bo'lmagan to'lovlar", deb ta'rif berilgan. Tartibga soluvchi daromadlardan tushgan tushumlar byudjet qonunchiligi bilan belgilangan tartibda byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi (7.2 rasmda ularning harakati uzuq chiziqlar bilan ko'rsatilgan). Ulardan mahalliy byudjetlarga ajratmalarning normativlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki u vakolat bergan organ tomonidan har moliya yili uchun belgilanadi va Prezidentning (yoki u

vakolat bergan organning) maxsus qarori bilan tasdiqlanadi. O'z navbatida, tartibga soluvchi daromadlardan mahalliy byudjetlarga tushgan mablag'larning Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti bilan respublika tasarrufidagi tumanlar va shaharlar byudjetlari, viloyat byudjetlari bilan uning tuman va shaharlari byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti bilan uning tumanlari byudjetlari o'rtasida taqsimlanishi tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tasdiqlanadigan ajratma me'yorlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Tartibga soluvchi daromadlarni byudjet tizimining byudjetlari o'rtasida taqsimlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan (byudjet daromadlarining g'azna ijrosi yo'li bilan) amalga oshiriladi. Muayyan moliya yili uchun Byudjet kodeksining 51-moddasida ko'rsatilgan daromadlar bo'yicha ajratma normativlari belgilanmagan bo'lsa, o'sha daromadlar to'liq hajmda respublika byudjetiga kirim qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tegishli moliya organlarining taklifiga ko'ra mahalliy soliqlarning to'liq hajmda kiritiladigan byudjet darajasini (masalan, viloyatning viloyat byudjeti yoki viloyatning tuman/shahar byudjeti) belgilaydi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda "mahalliy byudjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish, uy-joy-kommunal, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiyalash va texnik yangilash bo'yicha strategik muhim investitsiya loyihalarni amalga oshirishni so'zsiz ta'minlash yuzasidan

mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishi va mas'uliyatini oshirish maqsadida:[105]

– tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha belgilangan soliq tushumlari, jismoniy shaxslarning mulklaridan olinadigan soliqlar, jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliqlari, tovarlarning ba'zi turlari bilan savdo qilish va xizmatlarning alohida turlarini ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar – to'liq hajmda tumanlar byudjetlari daromadlari hisobiga o'tkaziladi;

– davlat byudjetiga to'lanadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi va bozorlardan tushayotgan daromadlar – Toshkent shahri byudjeti va tumanlar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadi;

– yuridik shaxslarning yer soliqlaridan tushadigan tushumlar, suv resurslaridan foydalanish solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan mulk solig'i – to'liq hajmda Toshkent shahri byudjetiga yo'naltiriladi;

– yuridik shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq tushumlari, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun olinadigan soliqlar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi, jismoniy shaxslarning daromad soliqlari O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va Toshkent shahrining mahalliy byudjeti o'rtasida normativlarga ko'ra taqsimlanadi;

– respublika byudjeti va Toshkent shahri byudjeti o'rtasida, shahar byudjeti qismida, o'tkazilgan soliqlardan belgilangan prognozlarni ortig'i bilan bajarish summasi – Toshkent shahrining mahalliy byudjeti ixtiyorida qoldiriladi.

---

[105] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi PQ-3042-sonli qarori.




7.3-rasm. **Davlat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida taqsimlanishi**

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarishda *mahalliy byudjetlar uchun o'rnatilgan cheklovlar* muhim ahamiyatga ega. Xususan, mahalliy byudjetlar byudjet qonunchiligiga ko'ra balanslashgan daromadlar va xarajatlar tizimiga ega bo'lishlari hamda mahalliy byudjetlarning haqiqatdagi taqchilligiga yo'l qo'yilmasligi lozim. Shu sababli mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlarini balanslashtirish va ularning taqchil bo'lmasligini ta'minlash maqsadida byudjet amaliyotida byudjetlararo munosabatlar mexanizmlariga murojaat qilinadi.

## 7.2. Byudjet tizimi byudjetlari daromadliligini tartibga solishda byudjetlararo munosabatlarning ahamiyati

Byudjetlararo transfertlar subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi, o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar va maqsadli ijtimoiy transfertlar shaklida amalga oshiriladi.

7.4-rasm. **Byudjetlararo munosabatlarning shakllari**

*Byudjet subvensiyalari.* Subvensiyalar miqdorlari har moliya yili uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

Respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan subvensiyalarning miqdorlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga berilladigan subvensiyalarning miqdorlari esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

7.5 rasm. **Mahalliy byudjetlarga subvensiya va dotatsiyalarni ajratish tartibi**

*O'tkazib beriladigan daromadlar.* Tegisbli ma'muriy-hududiy birliklar hududida shakllantiriladigan va yuqori turuvchi byudjetga o'tkaziladigan daromadlar ular qaysi ma'muriy-hududiy birlikda shakllantirilgan bo'lsa, o'sha ma'muriy-hududiy birlik byudjetiga o'tkazib berilishi mumkin. Ularning hajmlari ham yuqoridagi tartibda tasdiqlanadi.

Respublika byudjetidan quyi turuvchi byudjetlarga tushumlari o'tkazib beriladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning hamda ular tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi

Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shabar mahalliy byudjetlaridan tumarilar va shaharlar byudjetlariga tushumlari o'tkazib heriladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning hamda ular tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari bilan birgalikda tasdiqlanadi.

O'tkazib beriladigan daromadlarning summasi tegishli quyi byudjetga tushishi lozim bo'lgan o'z daromadlarini hisobga olgan holda, ular bo'yicha tasdiqlangan hajmdan ortiq bo'lmagan miqdorda, haqiqatda tushgan tushumlar doirasida o'tkazib beriladi.

*Byudjet dotatsiyalari.* Subvensiyalar va o'tkazib beriladigan daromadlarni hisobga olganda ham quyi turuvchi byudjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajm mazkur byudjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga dotatsiya ajratiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi ular daromadlarining (ularning yil boshidagi qoldiqlarini ham hisobga olganda) prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda, jamg'armalar byudjetlariga respublika byudjetidan dotatsiya ajratilishi mumkin.

Hududiy va mahalliy byudjetlarga dotatsiyalarning miqdorlari ham 7.5-rasmda ko'rsatilganidek, tegishlicha, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjetining asosiy parametrlari to'g'risidagi qarorlar bilan hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining mahalliy byudjetlar parametrlari to'g'risidagi qarorlari bilan tasdiqlanadi.

*Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar.* Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o'zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro pul munosabatlaridir. Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblar byudjet masalalari bo'yicha qonun hujjatlari qabul qilinganligi, mahalliy byudjetlar daromadlari prognozlarining aniqlashtirilishi, byudjet tasbkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning bo'ysunuvi o'zgarishi natijasida ularning xarajatlari bir byudjetdan boshqa byudjetga o'tkazilganligi, kapital qo'yilmalar limitlari byudjetlar darajalari o'rtasida qayta taqsimlanganligi munosabati bilan yuzaga keladi. Byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblarga kiritilishi lozim bo'lgan summa yuqori turuvchi moliya organi tomonidan aniqlanadi.

*Maqsadli ijtimoiy transfertlar.* Mahalliy byudjetlarga moliyaviy yordamning mazkur turi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 29 dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2018-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ 454 sonli qonuni[106] bilan amaliyotga joriy qilingan bo'lib, yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga ta'lim va tibbiyot muassasalarining ish haqi va yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlarini qoplash uchun ajratiladi. Ularning miqdorlari ham tegishincha, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va davlat byudjetining asosiy parametrlari to'g'risidagi qarorlar bilan hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining mahalliy byudjetlar parametrlari to'g'risidagi qarorlari bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, joriy moliya yilida foydalanilmagan maqsadli ijtimoiy transfertlar yil oxirida tegishli yuqori turuvchi

[106] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.01.2018-y., 03/18/454/0493-son.

byudjetga qaytarilishi kerakligi qonun bilan belgilab qo'yilgan[107].

Byudjetlararo transfertlar harakati yuqori turuvchi byudjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan quyi turuvchi byudjetning, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga g'azna memorial orderlari asosida o'tkazib berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

*Byudjet ssudalari.* Byudjet ssudasi shaklidagi byudjetlararo transfert byudjet manbalarining to'liq safarbar qilinishi tegishli byudjetlarda nazarda tutilgan xarajatlarni qoplamagan taqdirda qaytarish sharti bilan va foizsiz beriladi.

Prognoz qilingan daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar o'rtasidagi rejali vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun byudjet ssudasi *to'qqiz oygacha* bo'lgan muddatga, daromadlar tushumlari va xarajatlarni amalga oshirish o'rtasida kutilayotgan vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun esa *olti oygacha* bo'lgan muddatga beriladi.

Rejali byudjet ssudasi quyi byudjetlarga ularning prognoz qilingan o'z va tartibga soluvchi daromadlari, ular uchun nazarda tutilgan subvensiya, o'tkazib beriladigan daromadlar, maqsadli ijtimoiy transfertlar, dotatsiya ham ayrim choraklardagi xarajatlarining qoplanishini ta'minlamagan hollarda beriladi.

Byudjet ssudasi respublika byudjeti mablag'lari hisobidan – Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga, Toshkent shahrining shahar byudjetiga, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga, mazkur byudjetlardan esa (davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari bundan mustasno) tumanlar va shaharlar byudjetlariga ularning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi rejali (9 oygacha) yoki kutilayotgan (6 oygacha) vaqtinchalik kassa uzilishini qoplash uchun beriladi.

---

[107] O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 138[1]-modda.

Byudjet ssudalarini berishning majburiy sharti ulardan belgilangan maqsadda foydalanish, shuningdek joriy moliya yili mobaynida ularni o'z vaqtida qoplashdan iborat.

Byudjet ssudasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamg'armasini taqsimlovchi organ rahbarining byudjet ssudasiga bo'lgan ehtiyojni asoslovchi hisob-kitoblar ilova qilingan yozma so'rovi asosida beriladi. Byudjet ssudasi berish to'g'risidagi yozma so'rovni ko'rib chiqishda moliya organi qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot va hisob-kitoblarni so'rab olish huquqiga ega.




7.6-rasm. **Mahalliy byudjetlarga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga byudjet ssudalarini ajratish tartibi**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklarning, davlat maqsadli jamg'armasini taqsimlovchi organ rahbarining yozma so'rovini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha byudjet ssudasini berish to'g'risidagi qaror tegishincha O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri,

Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vazıri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmaları boshliqları tomonıdan *besh ısh kunı* ıchida qabul qilinadi.

Byudjet ssudasını ajratish byudjet ssudasini berayotgan moliya organı va byudjet ssudasını oluvchi moliya organı (davlat maqsadli jamg'armalarını taqsimlovchi organ) o'rtasida *byudjet ssudası berish to'g'rısıdagi shartnoma* bilan rasmiylashtırıladı.

Xulosa qilib aytganda, byudjetlararo munosabatlarnı takomillashtırıshda asosiy e'tiborni hududlarning iqtisodiy holatini yaxshilash va shu asosda ular byudjet salohiyatını mustahkamlashga qaratish lozım. Shundagina byudjetlararo pul oqımlarını mınımallashtırıshga erıshiladi.

## 7.3. Xorijiy davlatlarda byudjetlararo munosabatlarni tashkil qilish tajribaları

Ma'lumki, byudjetlararo munosabatlarni tashkıl etish mamlakatdagı davlat qurilishı hilan bevosita bog'liq. Unıtar davlatlarga byudjet resursları markazlashısh darajasining yuqorı bo'lishi hamda mahalliy byudjetlar byudjet huquqi va majburıyatları hajmining nısbatan past bo'lishı xosdir. Federatıv asosdagı davlat qurılishıga ega davlatlarda esa byudjetlararo munosabatlar byudjet federalizmming bir qısmi hısoblanadikı, u vakolatlar va javobgarlikni byudjet tızımi bo'g'ınları o'rtasida mutanoslh taqsımlashnı, turli darajadagi byudjetlarning nısbatan mustaqillıgını nazarda tutadi. Hozırgi kunda o'tish ıqtısodiyotıdagı xoh federatıv, xoh unitar davlat qurılishiga ega bo'lgan ko'pchilik mamlakatlarda byudjetlararo munosabatlar ıslohotları byudjetlarning nomarkazlashuvı doırasıda amalga oshırılmoqda. Nomarkazlashuv – ıslohotlarning so'nggi maqsadi emas. U faqat aholining ehtıyojlarıga muvofiq tarzda samarali ıjtımoıy xızmatlarni ularga yetkazıshning ta'sırchan usulidir.

Rivojlangan davlatlarda alohida elementlari o'zgarib turadigan byudjetlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi allaqachon ishlab chiqilgan. O'tish iqtisodiyotiga xos bo'lgan davlatlar uchun islohotlarni o'tkazish va byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarni qurishga yangi tamoyillar va sharoitlarda olib borish xarakterlidir. O'tish iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'pgina davlatlarning byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarni isloh qilishda ilgarilab ketishi ularning tajribasini o'rganish, xatolarini tahlil qilish va O'zbekiston uchun saboq bo'ladigan jihatlarini topish vazifasini oldimizga qo'yadi.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va davlat byudjeti daromadlarini byudjetlararo taqsimlashning xorijiy davlatlarda mavjud amaliyotini o'rganish shundan dalolat beradiki, byudjetlararo munosabatlar modellarini shartli ikkita asosiy tipga ajratish mumkin: Amerika modeli; Germaniya modeli[108].

Amerika Qo'shma Shtatlariga klassik byudjet federalizmi xos bo'lib, Federatsiya, shtatlar va munitsipalitetlar o'zlarining "bir-biri bilan to'qnashmaydigan" soliqlarga va hatto mustaqil soliq xizmatlariga ega. Federal soliqlardan shtatlarning byudjetlariga ajratmalar qilinmaydi. Shtatlarning o'z byudjetlarining daromadlarini shakllantirishdagi mutlaq mustaqilligi shunda namoyon bo'ladiki, ular mavjud soliqlarning stavkalarini oshirishi, yangi soliqlarni joriy qilishi hamda obligatsiyalar chiqarishi mumkin. Yagona shart – markazdan mablag' so'ramaslik. Markaz tomonidan beriladigan moliyaviy yordam asosan umummilliy ustuvorliklardan kelib chiquvchi maqsadlar uchun maqsadli subvensiyalar shaklida beriladi[109].

Federal hukumatning zimmasida milliy mudofaa va davlat ijtimoiy ta'minot tizimini moliyalashtirish bilan bog'liq

---

108 Пепина Э.В. Фискальный и бюджетный федерализм: две системы управления публичными финансами. Финансовая аналитика: проблемы и решения. 11 2016. С. 34 52.

109 Андреев А. Боригова Л. Плучевская Э. Региональная экономика: Учебник для вузов. СП : Издательский дом "Питер". 2012. 456с.

majburiyatlar yotadi. AQSH Konstitutsiyasi bilan faqat markaziy federal hukumat va hududiy hokimiyatlarga soliq vakolatlari berilgan. Munitsipal hukumatlar esa hududiy hukumat organlari tomonidan ularga yuklatilgan vakolatlar doirasida soliqlarni o'rnatishi va yig'ishi mumkin. AQSHda byudjetlararo tartlhlash byudjet grantlarini ajratishning murakkab tizimidan iborat bo'lib, ular turli darajadagi byudjetlarga ajratiladi. Hududiy byudjetlarning federal byudjetga qaramligi mahalliy byudjetlarning shtatlar byudjetlariga qaramligiga qaraganda ancha past. Masalan, 2010 yilda shtatlarning konsolidatsiyalashgan byudjetlari xarajatlarining 18,9 foizi federal transfertlar hisobidan qoplangan bo'lsa, regional (hududiy) byudjetlarning mahalliy byudjetlarga ajratgan moliyaviy yordami ular xarajatlarinig 43,4 foizini qoplashga yo'naltirilgan.

Federal byudjet mahalliy byudjetlarga shartli va shartsiz moliyaviy yordam ajratishi mumkin, lekin bugungi kunda federal yordamning shartli shakllari 2 turdagi grantlar shaklida: blok-grantlar va toifali grantlar shakllarida beriladi.

AQSH byudjet qonunchiligida federal byudjetning defitsitsiz bo'lishi bilan bog'liq norma belgilab qo'yilmagan, federal byudjet taqchilligi odatda federal hukumat tomonidan qarz mablag'larini jalb qilish yo'li bilan qoplanadi. Buning aksicha, shtatlarning qonunchiligi shtatlar va hududiy birliklar byudjetlarining joriy xarajatlar bo'yicha defitsitsiz bo'lishini talab qiladi, shuning uchun shtatlar va munitsipalitetlar hukumatlari kapital xarajatlarni qoplash maqsadida uzoq muddatli asosda qarz mablag'larini jalb qilishlari mumkin. Lekin qarz munosabatlarini tartibga soluvchi qonunchilik normalari turli shtatlarda turlicha bo'lib, u yoki bu shtat davlat va munitsipal obligatsiyalarni chiqarish yo'li bilan qarz mablag'larini jalb qiladi. Bu obligatsiyalarning xususiyati – ular bo'yicha olingan daromadlardan federal daromad solig'i to'lanmaydi.

Byudjetlararo munosabatlarning Germaniya modeli "kooperativ" g'oya asosiga qurilgan. Germaniya federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan davlat bo'lib, federatsiyaning 16 nafar subyekti (yerlar) va ularning tarkibidagi munitsipal tuzilmalar mavjud, davlat byudjeti federal byudjet va yerlar byudjetlaridan tarkib topgan. Umumiy soliqlardan tushumlar Germaniya byudjet tizimining barcha pog'onalari o'rtasida taqsimlanadi. Bunda ularni taqsimlash me'yorlari tabaqalashtirilgan bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad – donor yerlar bilan retsipiyent-yerlar (dotatsiya olivchi) o'rtasidagi farqni qisqartirishga qaratilgan. Yuqori turuvchi byudjetlardan to'g'ridan to'g'ri moliyaviy yordam uncha katta emas, lekin hududiy taraqqiyotga qaratilgan federal va qo'shma dasturlarni amalga oshirish amaliyoti keng tarqalgan. Byudjet darajalari o'rtasidagi xarajat vakolatlari "klassik" byudjet federalizmi tamoyillariga ko'ra taqsimlangan.

Ko'pgina boshqa mamlakatlardan farqli ravishda Germaniyada ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda minimal ijtimoiy standartlardan emas, balki mamlakat barcha aholisining bir tekis hayot darajasini ta'minlash tamoyilidan kelib chiqiladi.

Federal hukumat organlari vakolatlariga mudofaa, xalqaro munosabatlar, fuqarolik va migratsiya masalalari, valyuta siyosati, federal transport, pochta va telekommunikatsiya xizmatlari kiradi. Federal yerlarning vakolatlari doirasida esa madaniyat, ta'lim, adliya va huquq, sog'liqni saqlash, shuningdek, hududiy iqtisodiy siyosat masalalari yotadi. Munitsipal hukumatlar kommunal xizmatlar, mahalliy tibbiyot muassasalari, sport, uy-joy, maktablar va yo'llar qurilishi uchun javob beradilar.

Shu bilan birga turli darajadagi hokimiyat organlarining vakolatlari hajmi ularning xarajat vakolatlari bilan bar doim ham to'g'ri kelmaydi. Bugungi kunda davlat kapital

xarajatlarning 3 dan 2 qismi munitsipal byudjetlardan amalga oshirilmoqda.[110]

Federal soliqlardan tashqari barcha soliqlar bo'yicha soliq ma'murchiligi yuzasidan vakolatlar to'liq'icha yerlarning boshqaruv organlariga biriktirilgan.

Germaniya byudjet tizimi uchun byudjetlararo tekislashning 3 pog'onali tizimi amal qiladi. Birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'ini federatsiya subyektlari byudjetlariga o'tkazish yo'li bilan subyektlar byudjetlari tartibga solinadi. Byudjetlararo tekislashning ikkinchi turi byudjet mablag'larning yerlar byudjetlari o'rtasida qayta taqsimlanishi bo'lib, markaziy federal boshqaruv organlarining ishtirokisiz amalga oshiriladi. Hududiy ma'muriy tuzilmalarga moliyaviy yordam berishning uchinchi shakli – ayrim yerlarga to'g'ridan to'g'ri federal davlat grantlarining ajratilisbidir.

Germaniyada ham Federatsiya subyektlari o'z byudjetlarini tartibga solish maqsadida munitsipal obligatsiyalar chiqarish yo'li bilan qarz mablag'larini jalb qilishi mumkin, lekin bu usul mamlakatda mahalliy obligatsiyalar ssuda kapitali bozorming yetarli darajada rivojlanmaganligi bois, regional byudjetlarga ko'zlangan samarani hermaydi[111].

Xorijiy davlatlar byudjet tizimlari va byudjetlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish asosida shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatlardagi byudjetlararo munosabatlar va turli darajadagi byudjetlarni tekislash usullari mamlakatning davlat tuzilishiga va unga mos ravishdagi byudjet tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Xorijiy davlatlarda ham mahalliy va hududiy byudjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solish muammosi mavjud. Bu mamlakatlarda ham O'zbekistondagi kabi turli darajadagi byudjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solishda asosan

---

[110] Андреев А. Борисова Л. Плучевская Э. Региональная экономика: Учебник для вузов. СП.: Издательский дом "Питер". 2012. 456с.

[111] Пономарева К.А. Межбюджетное выравнивание в Российской Федерации и Федеративной Республике Германии. Вестник Омского университета. Серия "Право". № 2 (23) 2010. С. 56-60.

egri soliqlar, jumladan, qo'shilgan qiymat solig'idan foydalaniladi. Federativ davlat tuzilishiga ega bo'lgan davlatlarning federatsiya subyektlarining boshqaruv organlari byudjet-soliq masalalarida muayyan avtonomiyaga (mustaqillikka) ega, ular o'z hududlaridagi mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlarini tartibga solish bo'yicha markaziy hukumatga qaraganda kengroq vakolatlarga egadirlar. Bu mamlakatlarda hududlarga beriladigan moliyaviy yordam dotatsiya, subvensiya shaklida emas, balki maqsadli davlat grantlari asosida beriladi.

Xorijiy davlatlarda ham byudjetlararo munosabatlar muammosi quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

– turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromadlarni taqsimlash;

– xarajatlarni moliyalashtirish bo'yicha vakolatlarni chegaralash va belgilab berish;

– bir darajadagi byudjetdan ikkinchi darajadagi byudjetga mablag'larni turli shaklda qayta taqsimlashni o'z ichiga oladigan byudjetlararo munosabatlarni amalga oshirish.

Rossiya Federatsiyasida byudjet tizimi darajalari o'rtasida soliq vakolatlarini taqsimlashning uchta asosiy shakllarining hamma si rasmiy ravishda ishlatiladi. Bunda barcha darajalardagi byudjetlar o'rtasida federal soliqlarni taqsimlash ustunlikka ega, ahamiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinda daromad bazasini birgalikda ishlatish shakli hisoblanadi, manbalardan bir-biridan alohida holda foydalanishdan nisbatan kamroq foydalaniladi. Amaliyotda barcha federal soliqlar markaz va federatsiya subyektlari o'rtasida taqsimlanadi. Oqibatda pul oqimlarini qayta taqsimlash, soliqlarni hisobga o'tkazish va ularni me'yorlar asosida taqsimlash borasida doimiy kelishuvlar yuzaga keladi.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarda daromadlarni taqsimlash vakolatining asosan uch shakli keng qo'llaniladi:

– soliq manbalarini byudjetlararo taqsimlash va ulardan alohida foydalanish;

– federal byudjet daromadlarining bir qismini hududiy byudjetlar hisobiga qayta taqsimlash;

– soliq olishda bir manbadan birgaliqda foydalanish.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, byudjet transfertlarini taqsimlash anchagina murakkab masala hisoblanadi. Agar transfertlar markaziy hukumatning faqatgina makroiqtisodiy maqsadlariga ko'ra belgilanganida edi, unga nisbatan diskriminatsion yondashish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Biroq byudjet tiniqligini ta'minlash uchun mahalliy hokimiyat organlariga o'z byudjet operatsiyalarini rejalashtirish va markaziy hukumatning siyosiy maqsadlarini oydinlashtirish imkonini beruvchi me'yorlashtirilgan hisob-kitoblar kerak bo'ladi.

O'tish davri iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'pchilik mamlakatlarda transfertlarning jamlangan hajmi markaziy hukumat tomonidan belgilanadi. Vengriyada u har yili byudjet jarayoni doirasida hisoblanadi va markaziy hukumat tomonidan olib borilayotgan byudjet cheklashlarini nazarda tutuvchi qattiq siyosatiga bog'liq bo'ladi. Xuddi shunday vaziyat Polshada ham kuzatiladi. Bu mamlakatda transfertlarning hajmi nisbatan tinid va oldindan taxmin qilish mumkin bo'lib, u formula yordamida hisoblanadi. O'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan boshqa mamlakatlarda (Bolgariya, Latviya, Litva, Gruziya, Qirg'iziston, Rossiya) axborot tomonidan kengroq ochiqlik va byudjetlar o'rtasidagi transfertlarni taqsimlashning asoslanganligini ta'minlash bo'yicha choralar qabul qilingan.

O'tish iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'pgina mamlakatlarda mablag' jalb qilish amaliyoti submilliy (bir mamlakat doirasidan tashqaridagi) va mahalliy darajalarda o'z rivojini topdi. Mablag' jalb qilishlar bir qancha manbalardan, jumladan, yuqori turuvchi byudjetlardan, submilliy va milliy moliya institutlaridan hamda xususiy kapital bozoridan amalga oshiriladi. Bunda mablag' jalb qilishlar davlat zayomlari yoki obligatsiyalarni chiqarish shaklida amalga oshiriladi. Ushbu

mamlakatlardagi mablag' jalb qilish amaliyoti har bir mamlakat bo'yicha ushbu moliyaviy dastakni qo'llash va undan ko'riladigan natijaning ko'lami sezilarli darajada o'zgaruvchan bo'lib, ushbu mamlakatlardagi byudjetlar o'rtasidagi munosabatlarni isloh qilish elementlariga mos keladi.

Shunday qilib, turli mamlakatlar tajribalarini umumlashtirish byudjetlararo munosabatlarning tashkil qilimshiga turlicha yondashuvlar mavjudligidan dalolat beradi va O'zbekiston byudjetlararo munosabatlarini takomillashtirish borasida qator saboqlar olishga imkon beradi. Umuman olganda, byudjetlararo munosabatlarni yaxshilash, davlat byudjetiga tushumlarning barqarorligini ta'minlash, mahalliy byudjetlar daromadlarini va daromad bazalarini mustahkamlash, byudjetlararo transfertlar tizimini takomillashtirish borasidagi xorijiy tajribani o'rganish va uning ijobiy jihatlarini O'zbekiston byudjet amaliyoti sharoitiga mos holda tatbiq etish masalalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Byudjetlararo munosabatlarning zarurligi va mohiyati nimada?*

*2. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslariga nimalar kiradi?*

*3. O'zbekiston Respublikasida byudjetlararo munosabatlarning yangi modeli qachondan shakllana boshladi?*

*4. Byudjetlararo munosabatlarning qanday shakllarini bilasiz?*

*5. Byudjetlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qanday muammolar mavjud va ularni hal etish yo'llari qanday?*

*6. Byudjetlararo munosabatlar tizimida respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratmalarning ahamiyatini nimalarda izohlash mumkin?*

*7. Quyi byudjet bo'g'inlari (mahalliy byudjetlar) faoliyatiga qo'yilgan cheklovlarning ahamiyati qanday?*

*8. Byudjetlararo transfertlar tarzida respublika byudjetidan hududiy byudjetlarga, shuningdek, hududiy byudjetlardan tuman/shahar byudjetlariga yo'naltiriladigan mablag'larning xususiyatlari va ahamiyatini izohlang.*

*9. Byudjetlararo munosabatlar tizimiga oid xorijiy tajribalardan foydalanishning O'zbekiston Respublikasi uchun zaruriligi nimalarda namoyon bo'ladi?*

*10. Byudjetlararo munosabatlar samarali faoliyatini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati qaysi xorijiy davlat modelini asos qilgani ma'qul, deb hisoblaysiz?*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishning xuquqiy-me'yoriy asoslarini aks ettiruvchi klaster tuzing.*

*2. Xorijiy va milliy adabiyotlarni o'rganish asosida mahalliy byudjetlarni boshqarishning "dotatsion rejimi" va ularni "moliyaviy tenglashtirish siyosati orqali boshqarish"ning xususiyatlari va farqlari to'g'risida axborot ma'lumotlarini to'plang va taqdimot tayyorlang.*

*3. Byudjetlararo munosabatlarni boshqarish va tashkil etish xususiyatlari va bu sohada so'nggi yillarda sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida taqdimot tayyorlang.*

# 8-BOB. BYUDJET TASNIFI

## 8.1. Byudjet tasnifining mohiyati, zarurligi va ahamiyati

Ma'lumki, byudjet qurilishi mamlakatning davlat byudjeti va byudjet tizimini, uning bo'g'inlari o'rtasidagi byudjetlararo munosabatlarni tashkil qilish shakllarini, byudjet tasnifini, byudjet tizimga kiradigan barcha darajadagi byudjetlar faoliyatining huquqiy asoslarini, byudjet mablag'larini shakllantirish va sarflashdagi tartib-qoidalar va boshqalarni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 7-moddasida qayd etilgan "Byudjet tizimining yagonaligi" tamoyiliga muvofiq barcha darajadagi byudjetlarni shakliantirish va ijro etishda yagona byudjet tasnifi qo'llaniladi. Byudjetlarning daromadlari va xarajatlari tasniflash obyektlariga tegishli raqam(kod)lar berish bilan guruhlanadi hamda tasnif ko'rsatkichlari doirasida shakilantiriladi va ijro etiladi.

Byudjet tasnifi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hamda ulardan mablag' oluvchi tashkilotlarga nisbatan qo'llaniladi hamda davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro qilish, shuningdek, ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash jarayonida foydalaniladi.

Byudjet tasnifi byudjet-soliq qonunchiligidan kelib chiqqan holda Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va vazirning buyrug'i bilan tasdiqlanadi, uni amaliyotda qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar esa Adliya vazirligida tegishli tartibda ro'yxatga olinadi. Bugungi kunda byudjet amaliyotida qo'llanilayotgan byudjet tasnifi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 11-oktabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash

bo'yicha yo'riqnoma"ga muvofiq 2011-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan. Byudjet qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritilishi, soliq turlarining o'zgarishi, yangi xarajat turlarining paydo bo'lishi, byudjet tizimi byudjetlari tarkibida yangi jamg'armalarning tuzilishi, ularning birlashtirilishi yoki nomlarining

> *Byudjet tasnifi* –
> byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining, shuningdek, davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarining guruhlanishi

o'zgartirilishi byudjet tasnifiga tegishli o'zgartirish va tuzatishlar kiritishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi kunda byudjet amaliyotida Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 30-martda 2146-8-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"[112] qo'llanilmoqda. Ushbu yo'riqnomaga ko'ra:

Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va ijro etishni tizimlashtirish maqsadida foydalaniladi va davlat byudjetining prognoz va ijro ma'lumotlarini xalqaro tasnif tizimlarining aynan shunday ma'lumotlari bilan qiyoslash imkonini beradi.

Byudjet tasnifini tuzishning *asosiy tamoyillari* quyidagilar hisoblanadi (8.1-rasm):

8.1-rasm. **Byudjet tasnifining asosiy tamoyillari**

– *to'liqlilik* – byudjet tasnifi byudjet jarayonining barcha ishtirokchilarini qamrab olishi shart, tasnif kodlari davlat

[112] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2018 y., 10/18/2146-8/0965-son.

byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha turdagi daromad va xarajatlarini, ulardan mablag' oluvchi tashkilotlarning xarajatlarini aniq belgilariga ko'ra ko'rsatib turishga xizmat qiladi;

– *yagonalik* – byudjet tasnifi byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari uchun yagona bo'lishi shart, barcha darajadagi byudjetlar, ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishdagi davlat maqsadli jamg'armalari, ulardan mablag' oluvchi tashkilotlar uchun barcha daromad va xarajatlarni qamrab oluvchi kodlashtirilgan, tizimlashtirilgan yagona tasnif xizmat qiladi, byudjetdan mablag' oluvchining joylashgan joyi, mablag' bilan ta'minlanadigan byudjet darajasi, idoraviy bo'sinuvidan qat'iy nazar ularga nisbatan yagona tasnif qo'llaniladi;

*o'zaro muvofiqlik* – byudjet tasnifining kodlari bir vaqtning o'zida byudjet jarayonining har xil operatsiyalarini aks ettirish uchun qo'llanilmasligi kerak, ya'ni byudjet tasnifining har bir kodi o'ziga xos bo'lishi shart.

## 8.2. Byudjet tasnifining turlari

Byudjet tasnifida barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari ularning shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlariga ko'ra har biriga tegishli raqam berish yo'li bilan guruhlangan bo'ladi. Byudjet tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi;
- byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifi;
– davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi.

**Davlat byudjeti daromadlarining tasnifi** barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining guruhlanishidan iborat.

21 koddan iborat bo'lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to'rt qismli ko'rinishga ega:

8.2-rasm. **Byudjet tasnifining turlari**

– byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari manbasi va darajalari tasnifi;

– daromadlar turi;

– tashkiliy tasnif;

– hududiy tasnif.

| Byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari manbasi va darajalari tasnifi | | | | Daromadlar turi | | | Tashkiliy tasnif | Hududiy tasnif | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| X | XXX | X | X | X | XXX | XXX | XXX | XX | XXX |

*Byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari manbasi va darajalari tasnifi* (1–6-kodlar) tushayotgan daromadlarni tegishli mablag'lar manbasi va byudjetlar darajalariga (tegishli byudjet darajasiga, davlat maqsadli jamg'armasi turiga va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlari turiga) mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Masalan, tasnifning birinchi raqami daromadning davlat byudjeti yoki davlat maqsadli jamg'armasiga mansubligini, keyingi 3 ta raqam jamg'armaning turini, 5-raqam daromadning respublika

mablag'lari yoki hududiy mablag'larga mansubligini, 6 raqam esa aynan qaysi byudjet bo'g'iniga mansubligini ko'rsatadi.

*8.1-jadval*

**Byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari manbasi va darajalari tasnifi**[113]

(misol tariqasida amaldagi tasnif asosida qisman keltirilmoqda)

| Mablag'lar turi | Mablag'lar nomi | Byudjet | Byudjet darajasi | Ko'rsatkichlar nomi |
|---|---|---|---|---|
| **1** | **000** | **0** | **0** | **Davlat byudjeti** |
| 1 | 000 | 1 | 0 | Respublika mablag'lari |
| 1 | 000 | 2 | 0 | Hududiy mablag'lar |
| 1 | 000 | 2 | 1 | Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika darajasidagi, viloyatlarning viloyat darajasidagi va Toshkent shahrining shahar darajasidagi mablag'lari |
| 1 | 000 | 2 | 2 | Tumanlar va shaharlar darajasidagi mablag'lar |
| **2** | **000** | **0** | **0** | **Davlat maqsadli jamg'armalari** |
| 2 | 001 | 0 | 0 | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi |
| 2 | 002 | 0 | 0 | O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi |
| **3** | **000** | **0** | **0** | **Boshqa byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari** |
| 3 | 001 | 0 | 0 | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi |
| 3 | 004 | 0 | 0 | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg'armasi |
| 3 | 006 | 0 | 0 | Ipoteka krediti hisobini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi |
| 3 | 014 | 0 | 0 | O'zbekistonRespublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi |

[113] O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 1-martdagi 49-sonli buyrug'ining (ro'yxat raqami 2146-8, 30.03.2018. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2018 y., 10/18/2146-8/0965 son) 1 ilovasi asosida qisman keltirilgan.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi |
| 3 | 016 | 0 | 0 | O'zbekiston Yoshlar ittifoqini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi |
| 3 | 017 | 0 | 0 | O'zbekiston Kasaba uyushmalar federatsiyasi jamg'armasi |
| **4** | **000** | **0** | **0** | **Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari** |
| 4 | 001 | 0 | 0 | Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi |
| 4 | 003 | 0 | 0 | Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi |
| 4 | 009 | 0 | 0 | O'quv muassasalarida o'qishdan tushayotgan mablag'lar |
| 4 | 013 | 0 | 0 | Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar |
| **5** | **000** | **0** | **0** | **Grantlar, insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish vositalari** |
| 5 | 001 | 0 | 0 | Xalqaro Valyuta Jamg'armasi |
| 5 | 002 | 0 | 0 | Butunjahon banki (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki) |
| 5 | 003 | 0 | 0 | Osiyo Taraqqiyot Banki |
| 5 | 004 | 0 | 0 | Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki |
| **6** | **000** | **0** | **0** | **Kreditlar** |

Daromadlar tasnifining keyingi 7 ta raqami (7-13-kodlar) *daromadlarni ularning turlari bo'yicha guruhlanishini* bildiradi hamda bo'lim (1-raqam), paragraf (keyingi 3 ta raqam) va daromad turini (keyingi 3 ta raqam) ko'rsatadi.

Bo'lim daromadlarni ularning olish manbalari bo'yicha guruhlanishini bildiradi, masalan:

– 3 100 000 - "Soliqlar";

– 3 200 000 - "Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar";

– 3 300 000 - "Grantlar";

– 3 400 000 - "Boshqa daromadlar";

– 3 500 000 - "Aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar".

Paragraf soliq yoki boshqa turdagi daromadlarni soliqqa tortish bazasi bo'yicha guruhlanishini bildiradi. Masalan:

1)"Soliqlar" (3 100 000) bo'limi quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

– 3 110 000 - "Daromad, foyda va kapital o'sishiga soliqlar";

– 3 130 000 - "Mol-mulkka solinadigan soliq";

– 3 140 000 - "Tovarlar va xizmatlarga soliqlar";

– 3 150 000 - "Xalqaro savdo va operatsiyalarga soliqlar";

– 3 160 000 - "Boshqa soliqlar".

2)"Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar" (3 200 000) 3 210 000 - "Ijtimoiy ta'minotga ajratmalar/badallar" paragrafini o'z ichiga oladi.

3)"Grantlar" (3 300 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

– 3 310 000 - "Xorijiy davlatlar hukumatlaridan";

– 3 320 000 - "Xalqaro tashkilotlardan";

– 3 330 000 - "Davlat boshqaruvi sektorining boshqa birliklaridan".

4)"Boshqa daromadlar" (3 400 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

– 3 410 000 - "Mol-mulkdan daromadlar";

– 3 420 000 - "Tovarlar va xizmatlar sotilishi";

– 3 430 000 - "Jarimalar, penyalar va neustoykalar";

– 3 440 000 - "Ixtiyoriy transfertlar, grantlar bundan mustasno";

– 3 450 000 - "Aniqlab bo'lmaydigan va boshqa daromadlar".

5)"Aktiv va majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar" (3 500 000) quyidagi paragraflarni o'z ichiga oladi:

– 3 510 000 - "Tranzaksiyalardan aktivlarga tushadigan tushumlar";

– 3 520 000 - "Majburiyatlarga tranzaksiyalar bo'yicha tushumlar".

Tegishli bo'lim va paragrafning yanada detallashtirilishi va tavsifi 2146-8-sonli "O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ning 2-ilovasiga muvofiq daromadlar turi bo'yicha amalga oshiriladi.

Tegishli byudjetning daromadlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar daromadlar tasnifining mumkin bo'lgan barcha elementlarini qo'llagan holda shakllantiriladi.

*Tashkiliy tasnif* (14-16-kodlar) byudjetga tushayotgan daromadlarni ularni boshqaruvchi tegishli tashkilotlarga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va sh.k.) tegishli ekanligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Tashkiliy tasnifning guruhlanishi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O'zaro hisob-kitoblar bo'yicha yuqori (quyi) byudjetning quyi (yuqori) byudjet oldidagi majburiyatining qaytarilishi hisobiga quyi byudjetlarga dotatsiya, subvensiya, byudjet ssudalari va maqsadli ijtimoiy transfert mablag'lari kelib tushganda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga biriktirilgan koddan foydalaniladi.

*Hududiy tasnif* (17-21-kodlar) tushayotgan daromadlar mazkur daromadlarni to'layotgan tegishli hududlarga mansub ekanligini aniqlashtirish maqsadida qo'llaniladi. Hududiy tasnif 5 ta raqamli koddan iborat bo'lib, birinchi 2 raqami respublikaning yirik ma'muriy-hududiy birliklarini

(Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlar) bildirsa, keyingi 3 ta raqami tuman va shaharlarni ko'rsatadi.

*8.2-jadval*

**Hududiy tasnif kodlari va nomlari**[114]

(misol tariqasida amaldagi tasnif asosida qisman keltirilmoqda)

| Kod | | Nomi | Kod | | Nomi |
|---|---|---|---|---|---|
| Hudud | Tuman / shahar | | Hudud | Tuman/ shahar | |
| **03** | **000** | **Andijon viloyati** | **26** | **000** | **Toshkent shahri** |
| **03** | **200** | **Tumanlar** | **26** | **200** | **Tumanlar** |
| 03 | 202 | Oltinko'l tumani | 26 | 262 | Uchtepa tumani |
| ... | ... | ... | 26 | 264 | Bektemir tumani |
| **03** | **400** | **Shaharlar** | ... | ... | ... |
| 03 | 401 | Andijon shahri | **35** | **000** | **Qoraqalpog'iston Respublikasi** |
| **06** | **000** | **Buxoro viloyati** | **35** | **200** | **Tumanlar** |
| **06** | **200** | **Tumanlar** | 35 | 204 | Amudaryo tumani |
| 06 | 204 | Olot tumani | 35 | 207 | Beruniy tumani |
| ... | ... | ... | 35 | 222 | Mo'ynoq tumani |
| **06** | **400** | **Shaharlar** | ... | ... | ... |
| 06 | 401 | Buxoro shahri | **35** | **400** | **Shaharlar** |
| ... | ... | ... | 35 | 401 | Nukus shahri |

**Xarajatlar tasnifi.** Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari ning tasnifi davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarnmg xarajatlarini qator belgilariga ko'ra guruhlash asosida kodlashdan iborat bo'lib, byudjet mablag'larini davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sektori birliklari asosiy funksiyalarini bajarishiga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishiga yo'naltirilishini aks ettiradi.

Xarajatlar tasnifi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

[114] O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018 yil 1 martdagi 49-sonli buyrug'ining (ro'yxat raqami 2146-8, 30.03.2018. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2018 y., 10/18/2146-8/0965-son) 3-ilovasi asosida qisman keltirilgan.

– byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi;

– xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi;

– tasbkiliy tasnif;

– xarajatlarning iqtisodiy tasnifi;

– xarajatlarning iqtisodiy tasnifi (xarajatlar guruhi bo'yicha);

– hududiy tasnif.

28 koddan iborat bo'lgan xarajatlar tasnifi tuzilmasi quyidagi 5 qismli ko'rinisbga ega:

| byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi | | | | xarajatlar-ning vazifa jihatdan tasnifi | | | tasb-kiliy tasnif | xarajat-larning iqtisodiy tasnifi | | | hudu-diy tasnif | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| x | xxx | x | x | x | xxx | xxx | xxx | xx | xx | xxx | xx | xxx |

*Byudjet tizimi byudjetlari mablag'lari manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi* (1–6 kodlar) amalga osbirilayotgan xarajatlarning qaysi mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasiga (tegisbli byudjet darajasiga, davlat maqsadli jamg'armasi turiga va sh.k.) mansubligini aniqlasb maqsadida qo'llaniladi. Masalan, tasnifnmg birinchi raqami xarajatning davlat byudjeti yoki davlat maqsadli jamg'armasiga mansubligini, keyingi 3 ta raqam jamg'armanmg turini, 5-raqam xarajatning respublika mablag'lari yoki hududiy mablag'larga mansubligini, 6-raqam esa aynan qaysi byudjet bo'g'iniga mansubligini ko'rsatadi (8.1-jadvalga qarang).

*Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifi* (7–13 kodlar) barcha byudjet darajalari xarajatlarining guruhlanisbini o'zida ifodalaydi hamda davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi bosbqarish sektori birliklarining asosiy funksiyalarini

bajarishga, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishga byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning yo'nalishlarini aks ettiradi.

Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifi ikki darajadan iborat: birinchi darajasi (bo'limlar) davlatning asosiy vazifalarini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yo'nalishini aks ettiradi. Kichik bo'limlar vazifa jihatdan tasnifning ikkinchi darajasi hisoblanib, davlat vazifalarining bajarilishida byudjet mablag'larining bo'limlar doirasidagi yo'nalishini aniqlashtiradi.

Vazifa jihatdan tasnifning kodi 7 ta raqamdan iborat bo'lib, shundan 4 ta raqam – bo'lim, 3 ta raqam esa – kichik bo'limdir.

Umumlashgan holda vazifa jihatdan tasnif quyidagi ko'rinishga ega[115]:

| Kodlar | | | Xarajatlar |
|---|---|---|---|
| **7** | **000** | **000** | **Jami xarajatlar** |
| 7 | 010 | 000 | Umumiy ahamiyatdagi davlat xizmatlari |
| 7 | 020 | 000 | Mudofaa |
| 7 | 030 | 000 | Jamoat tartibi va xavfsizligi |
| 7 | 040 | 000 | Iqtisodiy masalalar |
| 7 | 050 | 000 | Atrof muhitni muhofaza qilish |
| 7 | 060 | 000 | Uy-joy va kommunal xizmatlari |
| 7 | 070 | 000 | Sog'liqni saqlash |
| 7 | 080 | 000 | Dam olish, madaniyat, sport va din |
| 7 | 090 | 000 | Ta'lim |
| 7 | 100 | 000 | Ijtimoiy himoya |

Vazifa jihatdan tasnif kichik bo'limlarining tuzilishi davlatning asosiy vazifalarini aniqlashtirish tamoyiliga asosan qurilgan. Masalan, 7 090 000 – "Ta'lim" bo'limining kichik bo'limlari quyidagi xarajat yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

[115] O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 1-martdagi 49-sonli buyrug'ining (ro'yxat raqami 2146-8, 30.03.2018. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2018-y., 10/18/2146-8/0965-son) 4-ilovasi asosida qisman keltirilgan.

*8.3-jadval*

**Vazifa jihatdan tasnifning 7 090 000 – "Ta'lim" bo'limining kichik bo'limlari kodlari va nomlari[116]**

(misol tariqasida amaldagi tasnif asosida qisman keltirilmoqda)

| Kodlar | | | Xarajatlar |
|---|---|---|---|
| **7** | **090** | **000** | **TA'LIM** |
| **7** | **091** | **000** | **Maktabgacha ta'lim** |
| **7** | **092** | **000** | **Umumiy o'rta ta'lim** |
| 7 | 092 | 100 | Boshlang'ich va o'rta maktablar |
| 7 | 092 | 200 | Maxsus maktablar |
| 7 | 092 | 300 | Maktab-internatlar |
| 7 | 092 | 400 | Alohida rejimdagi maktab-internatlar |
| 7 | 092 | 500 | Akademik litseylar |
| 7 | 092 | 600 | Kasb-hunar kollejlari |
| 7 | 092 | 700 | Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari |
| **7** | **094** | **000** | **Oliy ta'lim** |
| **7** | **095** | **000** | **Bosqichlarga bo'linmagan ta'lim** |
| 7 | 095 | 100 | Mehribonlik uylari |
| 7 | 095 | 200 | Bolalar shaharchalari |
| 7 | 095 | 300 | SOS O'zbekiston bolalar mahallalari |
| **7** | **096** | **000** | **Ta'lim tizimida yordamchi xizmatlar** |
| 7 | 096 | 600 | Musiqa va san'at bolalar maktablari |
| 7 | 096 | 700 | Sport turlari bo'yicha respublika oliy sport mahorati maktablari |
| **7** | **097** | **000** | **Ta'lim sohasidagi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari** |
| **7** | **098** | **000** | **Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'lim masalalari** |
| 7 | 098 | 100 | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligini saqlash xarajatlari |
| 7 | 098 | 900 | Boshqa xarajatlar |

Vazifa jihatdan tasnifning bo'limlari va kichik bo'limlari yagona bo'lib, byudjet jarayonining barcha isbtirokchilari tomonidan davlat byudjetini tuzish, tasdiqlash va ijro qilishda foydalaniladi.

*Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi* barcha darajadagi byudjetlar xarajatlarini xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish

[116] O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 1 martdagi 49-sonli buyrug'ining (ro'yxat raqami 2146-8, 30.03.2018, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2018 y., 10/18/2146/8/0965 son) 3 ilovasi asosida qisman keltirilgan.

elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib byudjet xarajatlari yo'nalishlarini belgilab beradi. Iqtisodiy xarajatlar tasnifi toifalar, moddalar va kichik moddalar kodlarini o'z ichiga olgan 7 raqamdan iborat bo'lib, toifa – 2 ta raqam; modda – 1 ta raqam; kichik modda – 1 ta raqam; element – 3 ta raqam.

| Toifa | Modda va kichik modda | Element |
|---|---|---|
| XX | XX | XXX |

*Misol uchun:* 41 00 000 - "Ishchilar mehnatiga haq to'lash" toifasi mehnat qonunchiligiga muvofiq byudjet tashkilotlari ishchilariga bajargan (bajarilayotgan) ishiga pul yoki natura ko'rinishdagi to'lovlar bilan bog'liq xarajatlarni aks ettiradi.

| Xarajat kodlari | | | Xarajat nomi |
|---|---|---|---|
| **41** | **10** | **000** | **Ish haqi** |
| 41 | 11 | 000 | Pul shaklidagi ish haqi: |
| 41 | 11 | 100 | Asosiy ish haqi |
| 41 | 11 | 200 | Ish haqiga ustamalar va qo'shimchalar |
| 41 | 11 | 210 | Umumta'lim, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jamg'armasi mablag'lari |
| 41 | 11 | 220 | Tibbiyot tashkilotlari xodimlariga ustamalar va qo'shimchalar |

Shuningdek, byudjet tizimi byudjetlarining iqtisodiy belgilar bo'yicha xarajatlari (xarajat guruhlari bo'yicha) quyidagi xarajat guruhlaridan iborat[117]:

[117] Ushbu guruhlarning to'liq yoyilmasi O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 1-martdagi 49-sonli buyrug'ining (ro'yxat raqami 2146-8, 30.03.2018, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2018-y., 10/18/2146-8/0965-son) 5-a-ilovasida to'liq keltirilgan.

*I guruh* — ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to'lovlari va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam;

*II guruh* — ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar;

*III guruh* — kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq yo'naltirilgan ro'yxatlarga muvofiq);

*IV guruh* — boshqa xarajatlar.

*Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi.* Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifi ularni qoplashning *ichki va tashqi manbalari* bo'yicha guruhlanishidan iborat.

*8.4-jadval*

**Taqchillikni qoplash manbalari tasnifi**[118]

| Kodlar | | Nomi |
|---|---|---|
| bo'lim | paragraf | |
| **50** | **x** | **Ichki manbalar** |
| | 1 | Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar |
| | 5 | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining qoldig'i |
| | 6 | O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larining qoldig'i |
| | 7 | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'larining qoldig'i |
| | 8 | Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari |
| | 9 | Boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar |
| **51** | **x** | **Tashqi manbalar** |
| | 1 | Davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar |
| | 2 | Xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari |
| | 3 | Xorijiy davlatlar kreditlari |
| | 4 | Boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar |

[118] O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018 yil 1 martdagi 49-sonli buyrug'ining (ro'yxat raqami 2146-8, 30.03.2018, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2018 y., 10/18/2146-8/0965-son) 6 ilovasi asosida.

Taqchillikni qoplash manbalari tasnifi bo'lim va paragraflardan tashkil topadi: bo'lim – davlat byudjeti taqchilligini uni qoplash manbalari bo'yicha guruhlanishidan; paragraf – davlat byudjeti taqchilligini qoplash turlari bo'yicha guruhlashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, byudjet amaliyotida amalga oshirilayotgan tadbirlar amaldagi byudjet tasnifini ham takomiliashtirish borishni taqozo etadi. Byudjet amaliyotida yangi daromad turining yoki yangi xarajat yo'nalishining paydo bo'lishi, davlat maqsadli jamg'armalarining tuzilishi, mavjudlarining nomi va xarajat yo'nalishlarining o'zgarishi, davlat boshqaruv organlarining (yangi vazirlik, qo'mita yoki boshqa davlat idoralarining) tashkil etilishi byudjet tasnifiga o'zgartirishlar kiritishni talab etadi.

Davlat byudjetining samarali faoliyat qilishi uchun byudjet daromadlari va xarajatlarining mukammal ishlab chiqilgan funksional va iqtisodiy tasnifi bo'lishi lozim. Davlat mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini yuritishda barcha operatsiyalar G'aznachilik tizimining Bosh kitobida aks ettiriladi. Bunda konsolidatsiyalashgan byudjetni ijro etishda, davlat moliyasi bilan amalga oshiriladigan barcha jarayonlarni o'z vaqtida va aniq hisobini yuritishda G'aznachilikning hisob-kitob schyotlari byudjet daromadlari va xarajatlarining tasniflash tizimiga mos kelishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari Moliya vazirligining ma'lumotlar bazasida barcha ma'lumotlar byudjet tasnifiga asosan guruhlanadi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Byudjet tasnifining mazmuni, zarurligi va ahamiyatini tushuntirib bering.*

*2. Byudjet tasnifining qanday turlari?*

*3. Byudjet daromadlarini turli belgilarga ko'ra guruhlash sabablarini tushuntirib bering.*

*4. Byudjet xarajatlarini tasniflash turlarini tushuntirib bering.*

*5. Byudjet taqchilligini qoplash manbalariga ko'ra qanday guruhlarni bilasiz?*

*6. Byudjet islohotlari sharoitida byudjet tasnifining takomillashuvini izohlab bering.*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Byudjet tasnifi turlarini aks ettiruvchi klaster tuzing va tushuntirib bering.*

*2. Byudjet tasnifini takomillashtirish zarurligini ifodalovchi omillar ro'yxatini tuzing va izohlab bering.*

*3. Axborot ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini xorijiy davlatlar byudjet tasniflari bilan qiyoslang va qisqacha xulosa yozing.*

# 9-BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI TIZIMI

## 9.1. Davlat byudjeti daromadlarining iqtisodiy mazmuni va manbalari

Jahonning turli mamlakatlarida har xil sabablar bilan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar yuz berayotgan hozirgi davrda O'zbekistonda puxta o'ylangan soliq-byudjet siyosati mamlakatimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari dadil odimlab borishiga xizmat qilmoqda. Oxirgi yillarda yalpi ichki mahsulot barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanayotganligi, davlat byudjetining profitsit bilan ijro qilinayotganligi ham mamlakatimizda yuritilayotgan fiskal siyosatning oqilona ishlab chiqilganligi va samarali amalga oshirilayotganligining yana bir isbotidir.

Rivojlanishning navbatdagi ustuvor yo'nalishlari va vazifalarini samarali bajarishda davlat byudjeti ham samarali dastak-vosita sifatida faol ishtirok etadi.

Ma'lumki, davlat byudjeti mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda ishtirok etadi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanish jarayoni quyidagi 9.1-rasmda aks ettirilgan.

Iqtisodiy mazmun-mohiyati jihatidan *davlat byudjeti daromadlari* davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasidagi davlat markazlashgan pul fondining shakllanishi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlari hisoblanadi.

Bunday qayta taqsimlash jarayonlari natijasida byudjet daromadlari shakllanadi. Byudjet daromadlari davlat markazlashgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib,

davlatning funksiyalarini bajarish uchun xizmat qiladi. Ular pul mablag'lari fondlarini shakliantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi, bu munosabatlar asosida turli darajadagi hokimiyat organlarning ixtiyorida pul mablag'lari fondlari shakllanadi.




9.1 rasm. **Davlat byudjeti orqali yalpi ichki mahsulot qiymatining taqsimlanishi**[119]

[119] Nurmuxamedova B.I., Kabirova N.V. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2017. 105 b.

Byudjet daromadlarining asosiy moddiy manbayi milliy daromaddir (ayrim adabiyotlarda "davlat byudjeti daromadlarining manbayi – soliqlardir", degan fikrlarni uchratish mumkin. Aslida soliqlar byudjet daromadlarining manbayi emas, shu manbadan daromadni davlatning markazlashgan pul fondiga undirishning bir usuli, milliy daromadni qayta taqsimlashning dastak vositasi bo'lib xizmat qiladi). Ayrim hollarda davlat o'zining ortib borayotgan moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy boylikdan ham daromad manbayi sifatida foydalanishi mumkin. *Milliy boylik*, deganda ma'lum bir davrda jamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan moddiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan tabiiy resurslar majmuyi nazarda tutiladi (maxsus adabiyotlarda "milliy boylik" tushunchasining: kishilar hayotini ta'minlash sharoitlarini belgilovchi resurslar majmuyi; mamlakatning mulkiy holatini tavsiflashda qo'llaniladigan miqdoriy ko'rsatkich; kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, nomoddiy va intellektual hamda tabiiy boyliklar yig'indisi, kabi ta'riflarni ham uchratamiz).




9.2-rasm. **Byudjet daromadlarining asosiy moddiy manbalari**

Milliy daromadni davlat tomonidan davlatlashtirish (davlat ixtiyoriga o'tkazish) turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Soliqlar, davlat krediti va pul emissiyasi davlat hokimiyat organlari tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlash va byudjet daromadlarini shakllantirishdagi asosiy usullardan bo'lib hisoblanadi. Bu usullar o'rtasidagi nisbat mamlakatlar va davrlar bo'yicha turlicha bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy iqtisodiy va boshqa ziddiyatlarnmg o'tkirlik darajasi, davlat tomonidan olib borilayotgan moliyaviy siyosat va uning moliyaviy holati bilan belgilanadi.

## 9.2. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida amalga kiritilgan yangi Byudjet Kodeksining IV bo'limi "Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari" deb nomlanadi.




9.3-rasm. **Davlat byudjeti daromadlari tarkibi**[120]

[120] "O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ-360-son (26.12.2013) O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan qabul qilingan Byudjet kodeksiga asosan.

Ushbu bo'limning 9-bobida davlat byudjeti daromadlari tarkibi tegishli moddalarda belgilab berilgan. Xususan, Kodeksning 50-moddasi "Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish" deb nomlanadi, ushbu modda bilan O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti qanday daromadlar hisobidan shakllantirilishi belgilab qo'yilgan (9.3-rasm).

Byudjet Kodeksining 51 moddasida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti daromadlari tarkibi belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilar hisobidan shakllantiriladi:

1) umumdavlat soliqlari, shu jumladan: yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i; yagona soliq to'lovi; jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; qo'shilgan qiymat solig'i; aksiz solig'i; yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

2) bojxona bojlari;

3) qo'shimcha foyda solig'i;

4) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi;

5) boshqa daromadlar.

Byudjet kodeksining 52-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlarini shakllantirish manbalari ko'rsatilgan bo'lib, ular:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlaridan ajratmalar;

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan: benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq; mol-mulk solig'i; yer solig'i; yagona yer solig'i; ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

5) boshqa daromadlar.

Miqdor jihatdan davlat byudjeti daromadlari mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qiymatida davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki mahsuloti va milliy daromadinmg umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda davlat byudjetida to'planadigan mabiag'larning miqdori va ularni undirishnmg shakl va usullari tanlanadi va joriy etiladi.

Jahon mamlakatlarida siklik ravishda sodir bolib turadigan iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar har bir mamlakat hukumati oldiga makroiqtisodiy barqarorlik va izchil o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatni yuritish vazifasini qo'yadi. Bu vazifalarni bajarishda samarali iqtisodiy o'sishni rag batlantirishga yo'naltirilgan fiskal siyosat yuritish masalasi markaziy o'rinni egallamoqda. Sbu bilan birga umumiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan yaxlit davlat siyosati bilan bog'liq muammolar ham aynan davlatning fiskal siyosati instrumentiariga bog'liq bo'lmoqda. Buni o'z navbatida, keyingi yillarda kuzatilayotgan byudjet profitsiti, rejalashtirilgan davlat byudjeti daromad ko'rsatkichlarining orttirih bajarilayotgani, davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi yanada rivojlantirilishi natijasida byudjet xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanayotgani bilan izohlash mumkin.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqli tushumlar alohida o'rin egaliaydi (9.1 jadval). Davlat byudjeti daromadlari ijrosining so'nggi 3 yillik ma'lumotlarining tarkibiy tahlilidan ko'rinadiki, bilvosita soliqlarning jami byudjet daromadlaridagi salmog'i 55,0-53,7 foizni tashkil etmoqda, ya'ni davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlarning fiskal abamiyati yuqori bo'lmoqda. Byudjet daromadlarining qariyb beshdan bir qismi esa to'g'ri soliqlar evaziga shakllanadi. 2016-2018-yillarda ular bo'yicha

tushumlar jami byudjet daromadlarining 23,1-20,6 foizni tashkil qilgan.

*9.1-jadval*

**Davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishi**[121]

*(mlrd.so'mda)*

| Ko'rsatkichlar | 2016-yil | | 2017-yil | | 2018-yil (prognoz) | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | summa | % | summa | % | summa | % |
| Davlat byudjeti daromadlari, sh.j | 40505,8 | 100,0 | 49684,8 | 100,0 | 62229,5 | 100,0 |
| Bevosita soliqlar | 9338,5 | 23,1 | 11538,9 | 23,2 | 12805,4 | 20,6 |
| Bilvosita soliqlar | 22298,1 | 55,0 | 26133,6 | 52,6 | 33404,3 | 53,7 |
| Resurs to'lovlari va mol mulk solig'i | 5806,5 | 14,3 | 6867,4 | 13,8 | 9714,5 | 15,6 |
| Ustama foyda solig'i | 390,2 | 1,0 | 1415,1 | 2,8 | 1367,7 | 2,2 |
| Boshqa daromadlar | 2672,5 | 6,6 | 3729,6 | 7,5 | 4937,6 | 7,9 |

U yoki bu mamlakatdagi muayyan hududning soliq tushumlari barqarorligi ushbu hududning rivojlanganlik darajasiga, unda ishlab chiqarish hajmlarining oshib borishiga, iqtisodiyotning tarmoq tarkibiga, kichik biznesning rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Davlat byudjeti daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida hududlarning iqtisodiy va unga bog'liq ravishda byudjet salohiyatini yaxshilash, hududlardagi soliq bazasini kengaytirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini va kichik biznesni rivojlantirish, hududlarga xorijiy investitsiyalar oqimini rag'batlantirish, mamlakat byudjet amaliyotida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari g'azna ijrosini samarali va to'g'ri tashkil qilish, byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini ta'minlash,

[121] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari. Manba: https://www.mf.uz/

moliya-byudjet-g'aznachilik organlari xodimlarining malakali bo'lishiga erishish, byudjet jrosining avtomatlashtirilgan tizimidan foydalangan holda byudjet jrosining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini ta'minlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

## 9.3. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning o'rni va ahamiyati

Yuqoridagi paragrafda ta'kidlanganidek, milliy daromadni qayta taqsimlash va shu asosda byudjet daromadlarini shakllantirishning asosiy usuli soliqlar hisoblanadi. Turli mamlakatlar markaziy byudjetlarining daromadlarida soliq tushumlari qariyb 60-95 foizni tashkil etadi.

Byudjet daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida byudjetga undiriladi va bu jarayonda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

– soliqlarning byudjetga undirilishi mamlakat milliy daromadi va milliy boyligi manbalarining tugab borishiga olib kelmasligi;

– soliqlarning ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanishi;

soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi;

– soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

– davlat uchun soliqlarning undirilishi arzonga tushishi;

– soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi, xususiy biznes subyektlarning soliq to'lashdan bosh tortishiga olib kelmasligi va xufya iqtisodiyotning yuzaga kelishiga sharoit yaratmasligi.

Korxonalar, tashkilotlar, firma va kompaniyalar tovar mahsulotlarini ishlab chiqarganida va sotganida, aholiga turli xizmatlarni ko'rsatganida, ishlar bajarganida yoki bozorlarda oldi-sotdi qilganda ham pul to'lovlarini amalga oshiradilar. Lekin bu munosabatlarning hammasi ham soliq munosabati

bo'lmaydi. Soliq munosabatlarida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash asosida davlat byudjetiga mablag'larni majburiy tarzda jalb qilish jarayoni amalga oshiriladi.

*Soliqlar* majburiy pullik to'lovni ifoda etuvchi, soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi subyekt sifatida davlat o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy pul munosabatlarini anglatadi.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida bozor iqtisodiyoti munosabatlari, shu jumladan, moliyaviy munosabatlar tarkibiga kiradi. Bozor iqtisodiyoti - erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyot, ya'ni har bir iqtisodiy subyekt, tadbirkor o'z tovariga erkin baho belgilashi, mahsulot yetkazib beruvchini ixtiyoriy tanlashi va o'zi iste'molchini topib, unga mahsulotini sotish huquqiga ega. Shuning uchun davlat ular daromadlarining bir qismini taqsimlab, oddiy ajratma sifatida davlat byudjetiga olib qo'ya olmaydi. Erkin iqtisodiy subyektlarning daromadlarini davlat hisobiga undirish uchun qonun chiqaruvchi organning qarori, ya'ni qonuniy asos bo'lishi zarur. Erkin iqtisodiyot sharoitida soliqlar ham erkin, ochiq, aniq bo'ladi, demokratik to'lovga aylanadi.

Soliq munosabatlarini tashkil qilishda, soliq to'lovchilar va davlat o'rtasida daromadlarning taqsimlanishida tomonlarning iqtisodiy manfaatlarini albatta e'tiborga olish zarur. Davlat o'zining ehtiyojlarini qondirish manfaatidan kelib chiqib, soliq to'lovchilar daromadlarini istaganicha olib qoya olmaydi, soliqlarni byudjetga undirishning ma'lum chegarasi mavjud. Bu chegaram davlat soliq to'lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib belgilaydi. Taqsimlash jarayonlaridagi oqilona nisbatning buzilishi soliq to'lashdan bosh tortish, soliq bazalarini yashirish, xufyona iqtisodiyotga o'tib ketish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ikkinchi tomondan, soliqlardan makrodarajada

iqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umumjamiyat ehtiyojlari uchun yetarli moliyaviy resurslar to'plash maqsadida foydalaniladi. Bir xil mohiyatga ega bo'lgan, markazlashgan pul fondi bo'lmish davlat byudjeti va davlatning boshqa maqsadli jamg'armalarini shakllantirishga xizmat qiladigan soliqlar va yig'imlar turlarining yig'indisi *soliq tizimi* deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-"Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari" nomli moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi soliqlar tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi (9.4-rasm).



9.4-rasm. **Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning guruhlanishi**[122]

[122] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasi asosida.

Soliq qonunchiligida belgilangan barcha soliqlarni *soliqqa tortish obyektiga, iqtisodiy mohiyatiga, byudjet tizimi darajalari daromadlarini shakllantirishiga va to'lovchilarga ko'ra* quyidagicha guruhlash mumkin (9.5-rasm):



9.5-rasm. **Soliqlarlarning turli mezonlarga ko'ra guruhlanishi**

Soliqqa tortish obyektiga ko'ra soliqlar quyidagi mezonlarga qarab guruhlanadi:

– Tovar aylanmasidan olinadigan soliqlar;
– daromaddan olinadigan soliqlar;
– mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar;
– yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

*Oborotdan (tovar aylanmasidan) olinadigan soliqlarni* undirishda tovar aylanmasi soliq bazasi bo'lib xizmat qiladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, hojxona bojlari va yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar kiradi.

Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to'lovi ham oborotdan olinadigan soliqlar jumlasiga kiradi.

*Daromaddan olinadigan soliqlar* foydadan, daromaddan, dividend ko'rinishidagi daromadlardan undiriladi, bu guruh soliqlarga yuridik shaxslardan foyda solig'I, jismoniy shaxslardan daromad solig'i, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliq kabilar kiradi.

*Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga* yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan mol-mulk solig'i kiradi. Ushbu soliqlarning stavkalari subyektlarga tegishli bo'lgan mol-mulkning qiymatiga nisbatan o'rnatiladi va undiriladi.

*Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlarga* qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliqlar *egri va to'g'ri* soliqlarga yoki *bevosita va bilvosta* soliqlarga guruhlanadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy jihatdan to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalar zimmasiga ortish holati bu yerda kuzatilmaydi. Bu soliqlarga daromaddan va mulkdan to'lanadigan barcha soliqlar kiradi. To'g'ri soliqlar bo'yicha to'g'ridan to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi bois, soliq stavkalarinmg kamaytirilishi korxonalar daromadining muayyan qismini ularning ixtiyoriga qoldirib, ular investitsion faoliyatini kengaytirish imkonini yaratadi. Bu soliqlarning stavkalari ko'paytirilsa, korxonalarning biznes imkoniyatlari cheklanib qoladi, iqtisodiy rivojlanishi susayadi. Davlat bu guruh soliqlar bo'yicha stavkalarni pasaytirish yoki ko'tarish bilan iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlariga fiskal mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

*Egri soliqlarning* yuridik jihatdan to'lovchilari mahsulot ishlab chiqaruvchilar (yuklab yuboruvchilar), xizmat ko'rsatuvchilar va ishlar bajaruvchilar bo'lib, soliqning haqiqiy og'irligi esa keyingi (so'nggi) iste'molchining zimmasiga tushadi. Bu soliqlarning summasi tovar (ish, xizmat) narxi ustiga ustama ravishda qo'yiladi va mahsulotning sotilishi bilan soliq summasi davlat byudjetiga kelib tushadi. Bu soliqlar mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning chetga chiqib ketishini chegaralaydi, milliy bozorning tovarlar bilan ta'minlanishiga yordam beradi. Egri soliqlar orqali tovarlar qiymati oshirilmasa, bozorlarda ularning taqchilligi ortadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etmaydi, ularning investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi chuqur tahlil qilinmasdan turib oshirib yuborilsa, mahsulotning narxi ko'tarilib ketadi, mahsulot ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarini sotish bilan bog'liq qiyinchiliklarga uchraydilar, bu esa foydaning ham, byudjetga to'lovlarning ham kamayishiga olib keladi. Egri soliqlarning yana bir minusi shundaki, ular orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi kamaytirilib, inflyatsiya sur'atlari jilovlab boriladi. Biroq bu soliqlar mehnat bilan band bo'lgan aholining real daromadlarini (iste'mol buyumlari va xizmatlarning egri soliqlar hisobiga qimmatlashishi sababli) pasaytiradi. Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq kabilar kiradi.

Jahon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini yoki iqtisodiy qiyinchiliklarini tahlil qilish mumkin. Masalan, AQSHda to'g'ri soliqlar byudjet daromadlarining qariyb 90 foizini tashkil qiladi. Asosan iste'molga solinadigan

egri soliqlar salmog'ining yuqori bo'lishi past darajadagi rivojlanishdagi va rivojlanayotgan mamlakatlarga xosdir.

*Byudjet tizimi darajalari daromadlarni shakllantirishiga ko'ra* soliqlarning *umumdavlat va mahalliy soliqlarga* bo'linishi hukumat idoralarining markaziy hukumat va mahalliy hokimiyatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi (9.6 rasm).

Har bir darajadagi hokimyat idoralari o'zlarining bajaradigan vazifalaridan kelib chiqib, o'zlariga tegishli bo'lgan byudjetga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishi kerak. Markaziy hukumat umumdavlat va umumjamiyat miqyosidagi vazifalarni – makroiqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni samarali boshqarish va tartibga solish, mudofaa, davlat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash infratuzilmasini yaratish, davlat ahamiyatidagi ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish, atrof muhit muhofazasi va ekologik muvozanatni saqlash va boshqa bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Shu sababli mamlakatning markaziy byudjetida (O'zbekistonda – respublika byudjetida) byudjet tizimi mablag'larining salmoqli qismi markazlashadi.

*Umumdavlat soliqlari* asosan respublika byudjetining daromadlari bo'lib, ularga: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yuridik shaxslarning daromadi(foydasi)ga soliq, jismoniy shaxslardan daromad solig'i, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yagona soliq to'lovi, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq kabilar kiradi.

*Mahalliy soliqlar* mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalarga qarab belgilanib, mahalliy byudjetlarga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Ularga: mol-mulk solig'i yer solig'i, benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq, yagona yer

solig'i kabi soliqlar kiradi. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki, ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi, ular hisobidan boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

9.6-rasm. **O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi tarkibidagi soliqlarning byudjet tizimi darajalari daromadlarini shakliantirishiga ko'ra guruhlanishi**[123]

Mahalliy hukumatlar asosan hududiy darajadagi ijtimoiy masalalarni – ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin ko'p hollarda bu soliqlar va yig'imlar ular byudjetlarining balansliligini ta'minlay olmaydi va natijada byudjetlararo transfertlardan foydalanish mexanizmlari ishga tushadi.

[123] O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 23 moddasi asosida.

## 9.4. Byudjet daromadlarining byudjet tizimi darajalari o'rtasida taqsimlanishi

Mahalliy byudjetlarning daromadlilik darajasini tartibga solishda umumdavlat soliqlari hal qiluvchi o'rin egallaydi. Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda o'rnatiladigan me'yorlar bo'yicha tegishli mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

Umumdavlat soliqlarining bir qismi respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida belgilangan tartibda o'rnatiladigan me'yorlarga asosan taqsimlanadi. Bu me'yorlar har yili qabul qilinadigan "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarorlari bilan o'rnatiladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarining muayyan qismi tartibga soluvchi daromadlar hisobiga shakllanadi. Bu soliqlarning "tartibga soluvchi daromadlar" deb atalishiga sabab, ular umumdavlat soliqlari sifatida respublika byudjetining daromadlari manbayi bo'lsada, mahalliy byudjetlarning daromadlilik darajasini ta'minlash maqsadida ularga me'yorlar asosida ajratiladi. Bu me'yorlar soliqlarning turlari va hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan bo'ladi va har yili qayta ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda bu me'yorlarning 2016-2018-yillardagi miqdorlarini quyidagi jadval asosida kuzatishimiz mumkin (9.2-jadval). Bu me'yorlar moliyaviy yil boshlangunga qadar umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xarajatlarning umumiy hajmi bo'yicha qaror qabul qilinganidan so'ng o'rnatiladi.

*9.2-jadval*

**Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlardan ajratmalar me'yorlari**

| Soliq turi | Yer solig'i | | | Jismoniy shaxslardan daromad solig'i | | | Mol-mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun olinadigan yig'im | | | Jismoniy shaxslardan daromad solig'i | | | Qo'shilgan qiymat solig'i | | | Akciz solig'i | | | | | | | | | | | | Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Hudud nomi | Yerdan shaxsiy xo'jaligini yuritish uchun olinadigan soliq | | | Umumdavlat bojlari bo'yicha hisobotlar yalpi daromadi dan yagona soliq to'lovidan ajratma | | | Mol-mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun | | | | | | | | | Benzin | | | Dizel yoqilg'isi | | | Avtomobil benzini | | | Alkogol mahsuloti (yeng spirtidan tashqari) | | | | | |
| Viloyat | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | | | | | | | | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | |
| Andijon viloyati | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | | | | | | | | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | 100 |
| Buxoro viloyati | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | |
| Jizzax viloyati | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | | | | | | | | | | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] |
| Qashqadaryo viloyati | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | | | | | | | | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | |
| [illegible] viloyati | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | | | | | | | | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | |
| Namangan viloyati | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | | | | | | | | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] |
| Navoiy viloyati | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | | | | | | | | | | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] | [illegible] |
| Samarqand viloyati | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Sirdaryo viloyati | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 99 | | | | | | | | | | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Toshkent viloyati | 50 | 0 | | 100 | 100 | 100 | 100 | 0 | | 80 | 0 | 0 | 50 | 0 | | | | | | | | | | | 50 | 50 | | | 0 | |
| Farg'ona viloyati | 100 | 100 | 80 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 91 | 100 | 100 | | 80 | 100 | | 100 | 100 | | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Xorazm viloyati | 50 | 100 | 80 | 100 | 50 | 100 | 100 | 100 | | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 50 | | | | | | | | | | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Toshkent shahri | 0 | 0 | | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | | | | | | | | | | | 50 | 50 | | | | |

Bu me'yorlarning o'zgarishini mahalliy byudjetlar xarajatlarini shu hududdan tushadigan soliqlar hisobiga qoplash va yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga transfertlar hajmini kamaytirish zaruriyati bilan izohlash mumkin. Me'yorlarni amqlashda umumdavlat va mahalliy soliq tushumlarining kutilayotgan rejasi, mahalliy byudjetlar xarajatlarining kutilayotgan minimumi hisobga olinadi. Ba'zi hududlarda masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida bu me'yorlar 100 foiz gacha belgilangan. Umumdavlat soliqlarining tushumi barqaror bo'lgan viloyatlarda mazkur me'yorlar minimal darajada belgilanadi. Bunday hududlarda sanoat va savdoning rivojlanganligi hududning soliq salohiyatining yuqori darajasini ta'minlab beradi. Bunday hududga Toshkent shahri misol bo'ladi, masalan, tartibga soluvchi daromadlardan: qo'shilgan qiymat solig'i, yuridik shaxslardan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan daromad solig'i, shuningdek, mikrofirmalar va kichik korxonalardan yagona soliq tushumlaridan ajratmalar me'yorlari 2-4 foiz qilib belgilangan.

So'nggi yillarda iqtisodiy salohiyati birmuncha yuqori bo'lgan Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahridan boshqa barcha viloyatlar bo'yicha umumdavlat soliqlarining tegishli mahalliy byudjetlarga to'lig'icha, ya'ni 100 foiz qoldirilishi bilan bog'liq amaliyot qo'llanib kelingan. Umumdavlat daromadlaridan Toshkent shahar byudjetiga ajratmalar me'yorlari yildan yilga o'zgarib turishini, me'yorlarning past darajada belgilanayotganligini kuzatish mumkin. Xususan, 2016-2017 yillar uchun deyarli barcha umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari 2 foiz qilib belgilangan. 2018-yilga kelibgina savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromadidan yagona soliqdan Toshkent shahar byudjetiga ajratma me'yori 10 foiz, jismoniy shaxslardan daromad solig'idan - 4 foiz belgilangan. Bu tadbirlar mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini

ta'minlash, mahalliy byudjetlar manfaatlarini to'laroq qondirish, mahalliy organlarning daromadlarni to'liq undirishdagi qiziqishini oshirish maqsadlarini ko'zlagan holda amalga oshirilgan.

Iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli farmoni hamda 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi PQ-3042-sonli qaroriga muvofiq mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarinmg zamonaviy mexanizmlari joriy etilgan.

## 9.5. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibi va tuzilishi

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga ko'ra davlat byudjetining soliqsiz daromadlariga yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar va davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar kiritilgan.

Soliqqa kirmaydigan, ya'ni soliqsiz daromadlarning ko'pchilligi doimiy, qat'iy belgilangan stavkada undiriladigan xazina (byudjet) daromadlari ko'rinishiga ega bo'lmaydi. Byudjetning soliqsiz daromadlari qat'iy rejalashtirilmasligi kerak, lekin amaliyotda ko'p hollarda ular odatda, ilgarigi yildagi tushumlar darajasida rejalashtiriladi. Soliqsiz daromadlar, soliqli daromadlar kabi O'zbekiston Respub

likasining vakillik organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun joriy qilinadi. Soliqsiz daromadlar ham majburiy, ham ixtiyoriy shakllarda bo'lishi mumkin.

*Soliqsiz daromadlar ro'yxati hamma darajadagi byudjetlar uchun yagona bo'lib, byudjet tasnifi bilan belgilanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:*

1. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, shu jumladan:

– davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligidagi mulkni foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

– davlatga tegishli aksiyalar bo'yicha dividendlar;

– davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni ijaraga berishdan, shu jumladan qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ijara to'lovidan olingan daromadlar;

– vaqtinchalik bo'sh turgan byudjet mablag'larini bank va kredit tashkilotlarida joylashtirishdan olingan daromadlar;

– xizmat ko'rsatish va davlat xarajatlarini qoplashdan olingan daromadlar;

– davlat va mahalliy tashkilotlardan to'lovlar;

– davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olinadigan boshqa tushumlar.

2. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan:

– davlat mulki bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan tushumlar;

– davlat ixtiyoridagi uy-joylarni (kvartiralarni) sotishdan tushumlar;

– davlatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlarini, transport vositalari va boshqa uskuna-jihozlarni sotishdan olingan daromadlar;

– musodara qilinib, davlat va mahalliy hokimiyat egaligiga o'tgan egasiz mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar.

3. Davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar.

4. Yer va nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadlar.

5. Davlatga qarashli bo'lmagan manbalardan kapital transfertlar tizimlari.

6. Jarima-jazolarni qo'llash, yetkazilgan zararni qoplash, shu jumladan:

– standartlar va texnik shartlardan chetlashgan holda tayyorlangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun tushumlar summasi;

– narxlarni qo'llash tartibini buzganlik uchun jazolar;

– jinoyatlar qilish va moddiy boyliklar kamomadida aybdor bo'lgan shaxslardan undiriladigan summalar.

7. Tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar, shu jumladan:

– davlat kreditlari bo'yicha foizlar;

– davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar;

– markazlashtirilgan eksportdan tushumlar summasi;

– tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan boshqa tushumlar.

8. Boshqa turli soliqsiz tushumlar.

Byudjetning soliqsiz daromadlari hududiy belgiga ko'ra (muayyan darajadagi byudjetga kiritish), jalb qilish va shakilantirish usuliga ko'ra (majburiy yoki ixtiyoriy) va soliqsiz tushumlarni shakllantiradigan to'lovlarni undirishning aniq asoslariga ko'ra (davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar) tasniflanadi.

Soliqlar va soliqsiz to'lovlarning ko'pgina o'xshash tomonlari bilan birga, qator farqlariga ham mavjud.

Pul mablag'larining muayyan qismi davlat xazinasiga soliqsiz to'lovlar tarzida kelib tushadi. Ular ham soliqlar va boshqa yig'imlar singari davlat oliy hokimiyat organi tomonidan belgilanadi.

Shu bilan birga soliqlar va soliqsiz to'lovlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Jumladan, bu farqlarni quyidagilardan iborat, deb izohlash mumkin:

– soliqsiz to'lovlar soliqlardan farq qilib, ikki tomonlama huquq va burchlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, faoliyatning muayyan turi bilan shug'ullanish huquqini beradigan litsenziyalarni olish maqsadida belgilangan to'lovlarning amalga oshirilishi boshqa shartlar bajarilgani taqdirda vakolatli ruxsatnomani berishi lozim bo'ladi;

– soliqsiz to'lovlar ko'pchilik hollarda majburiy ravishda to'lanmaydi;

– soliqsiz to'lovlar muayyan maqsadga mo'ljallanadi hamda ana shu maqsadda undan foydalanish lozim.

*Respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar soliqsiz daromadlarining guruhlanishi.* Soliqsiz to'lovlar respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlarida jamlanadi. Ushbu mahalliy soliq va yig'imlarning to'lovchilar doirasi, soliq solish obyektlari, soliq va yig'imlar yuzasidan yengillik va imtiyozlar, soliq va yig'imni hisoblab chiqish va to'lash tartiblari mahalliy hokimiyat idoralarining bevosita o'zlari tomonidan belgilanadi.

Soliqsiz to'lovlar hududiy belgisiga ko'ra: umumdavlat miqyosidagi va mahalliy to'lovlarga; shakllanish usuliga ko'ra: majburiy va ixtiyoriy; jamlanish usuliga ko'ra: davlat byudjetida yoki byudjetdan tashqari jamlanadigan turlarga bo'linadi.

Soliqsiz to'lovlar olinish asoslariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

– tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar, bu to'lovlarning tabiiy resurslardan tejab-tergab, samarali foydalanishda ahamiyati katta;

– davlat idoralari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan turli xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan to'lovlar. Ular jumlasiga:

- tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyat tufayli bojxona idoralariga to'lanadigan to'lovlar;

- sud va boshqa huquq-tartibot idoralariga murojaat qilinganda to'lanadigan davlat boji;

- davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziya (ruxsatnoma) olish va tovarlar uchun sertifikatlar olishdagi to'lovlar;

- bozorlar, yarmarkalar va boshqa savdo shaxobchalaridan olinadigan bir martalik patta to'lovlari;

- qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish, lotereya o'yinlarini o'tkazish uchun to'lovlar;

- davlat mulkini xususiylashtirishdan kelib tushadigan daromadlar;

- jarima tarzidagi to'lovlar (jarimalar, penyalar va boshqalar).

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari daromad manbalari sifatida nobarqaror va doimiy xususiyatga ega bo'lgan daromadlar hisoblanadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni mohiyatiga ko'ra nobarqaror jarayon bo'lib, xususiy-lashtirishdan olinadigan daromadlarning ham nobarqaror bo'lishiga olib keladi; ikkinchidan, davlatga tegishli oltin-valyuta zahiralarini bozor stavkalarida joylashtirish natijasida olinadigan daromadlar joylashtiriladigan moliyaviy aktivlarning miqdoriga va bozor stavkalarining o'zgarishiga bog'liq bo'lgan-ligi sababli ulardan olinadigan daromadlarning summasi doimiy ravishda tebranib turadi; uchinchidan, xorijiy tashkilotlardan va davlatlardan olinadigan moliyaviy yordam-larning miqdori ularni taqdim etuvchilar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bu esa ularning miqdorini oldindan belgilash imkonini bermaydi.

Xulosa qilib aytganda, soliqsiz daromadlar fiskal va iqtisodiy funksiyalarni bajaradi. Ular daromad manbayi sifatida nobarqaror bo'lib, davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida nisbatan kichik salmoqni egallaydi.

## 9.6. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatidagi tizimli muammolarni bartaraf etish 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat[1]:

– iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

– soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xshash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;

– makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;

– soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunidagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2018 y., 06/18/5468/1420-son

– soliq solish masalalarini tartibga soladigan havolaki normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda soliq qonunchiligining barqarorligim hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan, kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

– xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimm saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;

– soliq nazoratining shakl va mexanizmlarmi, shu jumladan, soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomiliashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish.

O'zbekiston Respublikasinmg soliq siyosatini takomil-lashtirish konsepsiyasi doirasida 2019-yil 1-yanvardan boshlab[1]:

*birinchidan*, mehnatga haq to'lash fondiga soliq yuki quyidagilar orqali kamaytirilishi ko'zda tutilgan:

– barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'mmg yagona stavkasini 12 foiz miqdorida joriy etish, shundan 0,1 foizini shaxsiy jamg'arib borriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo'naltirish. Bunda ayrim toifadagi fuqarolarning eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdoridagi daromadlarini soliq solishdan ozod qilishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi;

– fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallarini bekor qilish;

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.06.2018 y., 06/18/5468/1420-son

– pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida byudjet tashkilotlari va davlat korxonalari ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar, ustav jamg'armasi (kapitali)ning 50 foizi va undan ko'proq miqdori davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lovni 25 foiz miqdorida belgilash, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar uchun ushbu to'lov stavkasini 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirish;

*ikkinchidan,* oborot(tushum)dan soliqlarni optimaliashtirgan holda umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqlar to'lovchilarni soliqqa tortish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tish mezonlari quyidagilar orqali takomillashtiriladi:

– davlat maqsadli jamg'armalariga yuridik shaxslarning oboroti(tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalarni bekor qilish;

– yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun – 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko'rsatayotgan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun rentabellik darajasidan kelib chiqib ular uchun qo'shimcha foyda solig'i hisoblash tartibini bekor qilgan holda 14 foizdan 20 foizgacha oshirish;

– dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha to'lov manbayidan ushlab qolinadigan foyda solig'i stavkasini 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirish;

– o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki yil davomida belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalarni umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazish. Bunda yillik oborot (tushum)ning 1 milliard so'm etib belgilangan chegaraviy miqdori 3 yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqiladi;

– barcha tadbirkorlik subyektlari, shu juniladan, oboroti (tushumi) 1 milliard so'mgacha bo'lgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslarning mol mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etish;

– qo'shimcha foyda solig'ini hisoblash va to'lash tartibini, shu jumladan, royalti to'lashni joriy etish orqali takomillashtirish;

*uchinchidan*, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirishning salbiy ta'sirini kamaytirish choralari quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

– yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini, bino va inshootlardan, shu jumladan, ilgari xususiylashtirilgan obyektlardan samarasiz foydalanayotgan yuridik shaxslar uchun oshirilgan stavkada soliq hisoblash tartibini saqlab qolgan holda 5 foizdan 2 foizga pasaytirish;

– yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mgacha bo'lgan soliq to'lovchilar uchun oborotdan (tushumdan) soliqni 4 foiz miqdordagi bazaviy stavkadan kelib chiqib hisoblash va to'lash tartibini hamda qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lash imkoniyatini belgilash;

– yagona yer solig'i to'lovchilar uchun soliq solish tartibini saqlab qolish;

*to'rtinchidan*, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini hisoblash va to'lash tartibi quyidagilar orqali takomillashtiriladi:

– qo'shilgan qiymat solig'ini to'liq hisobga olish tizimini joriy etish, soliq solish bazasini aniqlashtirish va imtiyozlar sonini kamaytirish, shuningdek, 2019 yil yakuni bo'yicha mazkur soliq stavkasi miqdorini pasaytirish orqali qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foiz miqdordagi amaldagi stavkasini saqlab qolish;

– hozirgi vaqtda sotib olinadigan asosiy vositalar, qurilishi tugallanmagan obyektlar va nomoddiy aktivlar narxiga

kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish summalariga kiritish huquqini berish;

– tegishli tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag'larni respublika byudjetiga o'tkazgan holda alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun har bir ishlab chiqariladigan mahsulot birligiga o'rnatilgan aksiz va yig'imlarni birlashtirish.




9.7 rasm. **Soliq islohotlari konsepsiyasidan kutilayotgan natijalar**

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

*1. Byudjet daromadlari qanday mezonlar asosida tasniflanadi?*

*2. Byudjet daromadlari manbalariga ko'ra qanday guruhlanadi?*

*3. Byudjetning soliqli daromadlari tarkibi nimalardan iborat?*

*4. To'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarning tarkibi nimalardan iborat?*

*5. Byudjet kodeksiga muvofiq Davlat byudjeti daromadlari tarkibiga qanday daromadlar kiritilgan?*

*6. Soliqlar, deb nimaga aytiladi. Soliqlar qanday xarakterli belgilarga ega. Soliqlar qanday funksiyalarni bajaradi?*

*7. Soliq tizimi, deb nimaga aytiladi?*

*8. Sizningcha, hozirgi sharoitda soliq tizimida qanday muammolar mavjud?*

*9. Soliq islohotlarini amalga oshirish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Davlat byudjeti daromadlarining guruhlanishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va xulosa yozing.*

*2. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili asosida tahliliy ish tayyorlang va himoya qiling.*

*3. Soliq kodeksining tegishli moddalarini o'rganish asosida soliqlarning turli belgilariga ko'ra guruhlanishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va xulosa yozing.*

*4. Davlat moliyasini sog'lomlashtirish va byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqing va shu asosda taqdimot tayyorlang.*

*5. "Public budgeting systems" (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G.Joyce. Jones&Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) o'quv qo'llanmasi asosida xorijiy mamlakatlarda byudjet daromadlari tizimining xususiyatlari to'g'risida ma'lumot tayyorlang.*

## 10-BOB. DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI TIZIMI

### 10.1.Davlat byudjeti xarajatlarining mohiyati va davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi

Ma'lumki, davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarning samarali faoliyat qilishi uchun qonuniy-huquqiy, me'yoriy va institutsional asoslarini yaratish va shu bilan o'z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Ushbu vazifalarni bajarishning moddiy-moliyaviy asosini yaratish maqsadida mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismi davlat byudjetida markazlashadi va markaziy hukumat hamda mahalliy hokimiyatlarning jamiyat oldidagi vazifa va funktsiyalarini to'laqonli bajarishga yo'naltiriladi.

Iqtisodiy mazmun-mohiyatiga ko'ra *davlat byudjeti xarajatlari* – davlatning markazlashgan pul fondida jamlanadigan pul mablag'larini taqsimlash, qayta taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan, davlat bilan davlat byudjetidan mablag' oluvchilar o'rtasida sodir bo'ladigan iqtisodiy pul munosabatlaridir.

Moddiy ma'noda davlat byudjetining xarajatlari markaziy hukumat va mahalliy hokimiyatlar zimmasidagi vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatini moliyaviy ta'minlashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'lari bo'lib, ularning turlari, amalga oshirish shakllari, tarkibi va tuzilishi qator omillarga bog'liq:

– davlatning tabiati va bajaradigan funksiyalariga;

– mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanganlik darajasiga;

– davlat byudjetining iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar bilan aloqalarining ko'lamiga;

– davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga;

– byudjet mablag'larini taqdim etish shakllariga va h.

Masalan, agar davlatning asosiy e'tibori iqtisodiyot tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, qabul qilinayotgan iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishning moliyaviy manbalarida davlat byudjetining ulushi yuqori bo'ladi, byudjet xarajatlari tarkibida ham yirik markazlashgan investitsiyalarni davlat resurslari hisobidan moliyalashtirish xarajatlari ustun bo'ladi. Davlatning asosiy e'tibori jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga, ijtimoiy dasturlarni davlat mablag'lari hisobidan amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, xarajatlar tarkibida ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlar ustun darajada bo'ladi.

Byudjet xarajatlari tarkibi va tuzilmasi muayyan byudjet yili uchun tasdiqlanadigan davlat byudjeti parametrlarida bevosita ko'rsatiladi va byudjet daromadlari kabi mamlakatda u yoki bu davrda qaror topgan iqtisodiy vaziyatga hamda ijtimoiy ustuvorliklar ko'lamiga bog'liq bo'ladi.

Davlat byudjetining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalarning holatini tavsiflaydigan muhim ko'rsatkichlardan biridir. Milliy iqtisodiyotning ayrim korxonalarini moliyaviy jihatdan qo'llab quvvatlash, davlat investitsiya dasturlarida ko'zda tutilgan investitsiya loyihalarini qo'shma moliyalashtirish, ijtimoiy soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport, fan, ijtimoiy ta'minot) muassasa va tashkilotlarni saqlash, ijtimoiy jihatdan yordamga muhtoj oilalarga ijtimoiy nafaqalar va boshqa turdagi moliyaviy yordam berish, davlat boshqaruvi va hokimiyati, sud organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash, davlat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash kabi vazifalarnmg to'laqonli va o'z

vaqtida bajarilishini ta'minlashda davlat byudjetining muhim moliyaviy manba sifatidagi ahamiyati juda katta.

### 10.2. Byudjet xarajatlarining tarkibi va tuzilishi

*Iqtisodiy mazmun-mohiyatiga ko'ra* byudjet xarajatlari joriy va kapital xarajatlarga bo'linadi.

*Davlat byudjetining joriy xarajatlari* markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchi yuridik shaxslarning joriy faoliyatini ta'minlash uchun, shuningdek, davlat tomonidan byudjet tizimi byudjetlariga va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga dotatsiya, subvensiya va subsidiya shaklidagi moliyaviy yordam ko'rsatish uchun ajratiladigan pul mablag'lardir.

*Davlat byudjetining kapital xarajatlari* – byudjet xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlash maqsadlariga yo'naltirilgan pul mablag'lari bo'lib, ular tarkibiga Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalari bo'yicha yangi qurilish, kapital rekonstruksiya va kapital ta'mirlash maqsadlari uchun ishlab turgan yoki yangidan barpo qilinadigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga, shuningdek, alohida tadbirlarga ajratiladigan moliyaviy mablag'lar kiradi.

*Funksional tayinlanishiga (vazifa jihatidan) ko'ra* davlat byudjeti xarajatlari quyidagi guruhlar bo'yicha rejalashtiriladi va moliyalashtiriladi (ularning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 69 moddasi bilan belgilab qo'yilgan):

1.Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari.

2.Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari.

3.Iqtisodiyot xarajatlari.

4.Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.

5.Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, adliya va prokuratura organlarini saqlab turish xarajatlari.

6.Sudlarni saqlab turish xarajatlari.

7.Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlab turish xarajatlari.

8.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari.

9.Boshqa xarajatlar.

Sanab o'tilgan har bir guruh xarajatlar, o'z navbatida, *mahkamaviy va maqsadli belgisiga ko'ra* guruhlanadi. Mahkamaviy belgisiga ko'ra xarajatlar byudjet mablag'larini oluvchi vazirlik, davlat qo'mitasi yoki boshqa davlat boshqaruv organining xarajatlariga bo'linadi. Xarajatlar tarkibini ushbu belgiga ko'ra tahlil qilishda ularning qaysi tarmoq va sohalarga yo'naltirilayotgani haqida xulosa qilish mumkin bo'ladi. Masalan, davlat byudjetidan funksional tayinlanishiga ko'ra ta'lim sohasiga ajratilgan pul mablag'lari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi kabi mahkamalar tomonidan tasarruf etiladi. O'z navbatida, har bir vazirlik, davlat qo'mitasi, idorasi yoki alohida byudjet tashkilotiga ajratilgan byudjet mablag'lari maqsadli belgisiga ko'ra xarajatlarning aniq turlari bo'yicha aniqlashtiriladi. Masalan, byudjet tashkilotiga ajratilgan byudjet mablag'lari ish haqi, kommunal xizmatlar haqini to'lash, joriy ta'mirlash, asbob uskunalar va jihozlar, oziq-ovqat, dori-darmon sotib olish kabi xarajat turlari (muassasaning xarajatlar smetasiga kiritilgan xarajatlar turlari) bo'yicha rejalashtiriladi va moliyalashtiriladi.

*Hududiy belgisiga ko'ra* byudjet xarajatlari umumdavlat xarajatlariga va mahalliy hokimiyat organlarining xarajatlariga

bo'linadi. Umumdavlat xarajatlari odatda davlat byudjetining respublika byudjetidan amalga oshiriladi va davlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishga safarbar etiladi. Mahalliy hokimiyat organlari esa hududiy va mahalliy ehtiyojlardan kelib chiqib, byudjet xarajatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, Toshkent shahar va viloyatlar byudjetlari, shuningdek, shahar/tuman byudjetlari mablag'laridan amalga oshiradilar.

Umuman olganda, mamlakat miqyosida davlat byudjeti xarajatlari davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom ma'nodagi ifodasini o'zida aks ettiradi. Buni quyidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin.

*10.1-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi**[1] (jamiga nisbatan foizda)

| № | Ko'rsatkichlar | yillar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 prog-noz |
| | Davlat byudjeti xarajatlari | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 1. | Ijtimoiy xarajatlar | | 58,8 | 58,9 | 55,2 | 56,4 |
| 1.1. | Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash | 58,8 | 56,4 | 55,6 | 54,7 | 55,8 |
| 1.2. | Qishloq joylarda uy-joylar qurishni hamkorlikda moliyalashtirish uchun kredit liniyalari | | 2,4 | 3,3 | 0,4 | 0,6 |
| 2. | Nodavlat va notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| 3. | Iqtisodiyotga xarajatlar | 10,7 | 10,5 | 10,6 | 10,7 | 11,2 |
| 4. | Markazlashgan | 5,1 | 5,1 | 5,1 | 6,6 | 4,9 |

[1] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot ma'lumotlari asosida keltirildi. manba: www.mf.uz

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | investitsiyalarni moliyalashtirish | | | | | |
| 5. | Davlat hokimiyati va boshqaruvi, adliya va prokuratura, sud organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash | 4,5 | 4,4 | 4,5 | 4,9 | 4,9 |
| 6. | Zaxira jamg'armasi | | | | 0,6 | 0,8 |
| 7. | Boshqa xarajatlar | 20,8 | 21,1 | 20,9 | 22,0 | 21,8 |

Ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlarning salmog'i yuqori bo'lmoqda. Xususan, bu turkum xarajatlar 2012-2017-yillarda jami byudjet xarajatlarining 58,8-56,4 foizini tashkil etgan. 2018-yilda ushbu xarajatlar 35034 milliard so'm hajmida rejalashtirilgan va davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushinmg 56,4 foiz bo'lishi kutilmoqda. Ushbu xarajatlarning tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlarning qariyb 57-60 foizini ta'lim tizimiga sarflanadigan xarajatlar tashkil qilmoqda. Bu xarajatlar davlat tomonidan kafolatlangan ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimining boshqa muassasalarini saqlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash xarajatlari ham davlatning ijtimoiy sohaning bu tarmog'iga bo'lgan e'tiborining ortib borishiga monand ravishda yildan yilga ko'paymoqda va ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlarning o'rtacha 24-27 foizini tashkil qilmoqda.

Ijtimoiy xarajatlarning tarkibida 9-10 foizni tashkil qilib turgan "Oilalarga ijtimoiy nafaqalar" xarajat guruhi ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan oilalarga nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlarni nazarda tutadi.

*10.2-jadval*

**Davlat byudjetining ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlarining tarkibi**[1] (jamiga nisbatan foizda)

| | Ko'rsatkichlar | 2014-y. | 2015-y. | 2016-y. | 2017-y. | 2018-y. prog-noz |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Ijtimoiy maqsadlardagi xarajatlar | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| 1. | Ta'lim | 57,4 | 57,8 | 57,5 | 60,4 | 56,6 |
| 2. | Sog'liqni saqlash | 23,9 | 23,9 | 23,7 | 25,4 | 27,3 |
| 3. | Madaniyat, sport | 1,8 | 1,8 | 1,8 | 1,8 | 3,3 |
| 4. | Fan | 1,1 | 1,2 | 1,3 | 1,0 | 1,1 |
| 5. | Ijtimoiy ta'minot | 0,8 | 0,7 | 0,8 | 0,9 | - |
| 6. | Oilalarga ijtimoiy nafaqalar | 10,9 | 10,3 | 9,3 | 9,2 | 9,5 |
| 7. | Jamoat ishlarini tashkil qilish | - | - | - | - | 1,1 |
| 8. | Qishloq joylarda uy-joylar qurishni hamkorlikda moliya lashtirish uchun kredit liniyalari | 4,1 | 4,3 | 5,6 | 1,3 | 1,1 |

Lekin hozirgi kun voqeligi faqat ayrim fuqaro guruhlariga nafaqalar berishni nazarda tutuvchi passiv ijtimoiy siyosat mexanizmlarining aholini ijtimoiy muhofaza qilish uchun yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, yangi ish o'rinlarini ochish hisobidan aholi bandligini yanada oshirish, aholining muhtoj qatlamlari bandligini oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan aktiv ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida o'z aksini topgan.

> "Odamga bitta baliq bering va u bir kunlik yemishga ega bo'ladi, uni baliq ovlashga o'rgating va u bir umrlik yemishga ega bo'ladi"
>
> ***Qadimiy xitoy maqoli***

[1] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot ma'lumotlari asosida keltirildi. manba: www.mf.uz

Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishida aholining muhtoj qatlamlari bandligini oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, jumladan, quyidagilardan iborat:

– ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan va mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan 34 ta tumanda 4 300 000,0 mln.so'm miqdoridagi korxonalar mablag'lari va tijorat banklari kreditlarini jalb qilgan holda 46,8 mingta ish o'rni tashkil etish yo'li bilan qishloq joylarda barqaror ish o'rinlari tashkil etish hisobiga aholi bandligini oshirish;

– aholi bandligini ta'minlash maqsadida 10 ming nafar ta'lim muassasalari bitiruvchisiga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun tijorat banklari kreditlari hisobidan 60 000,0 mln.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratish orqali bandlikni va oila daromadlarini oshirish;

– respublika hududlarida aholi bandligini ta'minlash hamda qo'shimcha daromad manbaini yaratish maqsadida tijorat banklari tomonidan 400 000,0 mln.so'm hajmida bank kreditlarini ajratish orqali fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish, qoramol, qo'y, echki, quyon boqish va go'sht etishtirish, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish, ixcham issiqxonalar tashkil etish, shuningdek, urug' va ko'chatlar uchun mikrokreditlar ajratish hajmini yanada oshirish, shu yo'l bilan aholi tomorqasidan foydalanish samaradorligini oshirish, sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish;

– Mehnat vazirligi tizimida Koreya Respublikasi, Yaponiya va boshqa davlatlar hamda xalqaro moliya institutlarining 8,5 mln.doll. (o'rtacha 1 ta markazni tashkil etish uchun – 3 000,0 mln.doll.) grant mablag'lari va imtiyozli kreditlarini, shuningdek, Bandlikka ko'maklashish Davlat jamg'armasi mablag'larini jalb etgan holda viloyat markazlarida ishsiz

fuqarolarni kasbga o'qitish markazlarini bosqichma-bosqich tashkil etish orqali ishsiz fuqarolarni kashga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

Davlat byudjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlariga quyidagi xarajat guruhlari kiradi:

– iqtisodiyotga xarajatlar;

– markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari.

Davlat byudjetining iqtisodiyot sohalariga yo'naltirilgan xarajatlari so'nggi yillarda jami xarajatlarning 10-11 foizi atrofida, markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlar esa o'rta hisobda 5-6 foizni tashkil etgan.

Davlat byudjetining iqtisodiyotga xarajatlari tarkibiga qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi respublika nazorat organlarining xarajatlari, suv, qishloq, o'rmon xo'jaligi xarajatlari, qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalariga qarshi kurashish muassasalarining xizmatlariga haq to'lash va ularni saqlab turish, hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, standartlashtirish va sertifikatlashtirish, topografiya-geodeziya, kartografiya va kadastr, shuningdek geologiya qidiruv ishlari, davlat shaharsozlik kadastrini yuritish xarajatlari, gidrometeorologiya xizmati muassasalarini saqlab turish, atrof-muhit va landshaftning muhofaza qilinishini, biologik xilma-xillikning himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi.

Bu turkum xarajatlarning tarkibi va tuzilishini 2018-yil uchun mo'ljallangan byudjet xarajatlari parametrlari bo'yicha o'rganish shundan dalolat beradiki, byudjetning "iqtisodiyotga xarajatlar" guruhida shu davrning ustuvorliklaridan kelib chiqib, quyidagi xarajatlar ko'zda tutilgan:

– suv xo'jaligining ekspluatatsion xarajatlari;

– Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar;

– hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar;

aholi punktlarini obodonlashtirish ishlari.

*10.3-jadval*

**Davlat byudjetining iqtisodiyotga xarajatlarining tarkibi, 2018-yil byudjet parametrlari bo'yicha**[1]

| Ko'rsatkichlar | mlrd.s. | byudjet jami xarajatlariga nisbatan % | iqtisodiyot xarajatlariga nisbatan % |
|---|---|---|---|
| Davlat byudjeti xarajatlari | 62170,0 | 100 | - |
| Iqtisodiyotga ajratilgan xarajatlar, sh.j. | 6957,8 | 11,2 | 100 |
| Suv xo'jaligining ekspluatatsion xarajatlari | 2741,8 | 4,4 | 39,4 |
| Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar | 528,3 | 0,8 | 7,6 |
| Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar | 330,0 | 0,5 | 4,7 |
| Aholi punktlarini obodonlashtirish ishlari | 1116,4 | 1,8 | 16,0 |
| Boshqa xarajatlar | 2241,3 | 3,6 | 32,2 |

[1]O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot ma'lumotlari asosida keltirildi. manba: www.mf.uz

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari tarkibiga respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari, jumladan: respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha investitsiya loyihalarini, davlat maqsadli dasturlarini va davlatlararo bitimlarni amalga oshirish; sug'oriladigan yerlarni tiklash va yangilarini o'zlashtirish, suv xo'jaligi qurilishi hamda kichik gidroenergetikani rivojlantirish; aholi punktlarining muhandislik infratuzilmasini, birinchi navbatda, yakka tartibdagi qurilish massivlarini rivojlantirish; ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat obyektlarini va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlarini qurish; davlat ilmiy muassasalarini rivojlantirish; davlat boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, davlat ilmiy muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash; umumdavlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish va tabiiy ofatlardan himoya qiluvchi inshootlarni qurish xarajatlari kiradi.

Barcha davlatlarning byudjet xarajatlari tarkibida mamlakatni boshqarish, hukumat idoralarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar ko'zda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida ham ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan byudjet mablag'lari tarkibiga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, adliya, prokuratura va sud organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari kiradi, bu turkum xarajatlar so'nggi yillarda davlat byudjeti xarajatlarining 4,5-4,9 foizini tashkil qilib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan jadvalda (10.1-jadvalga qarang) davlat byudjeti xarajatlari tarkibida "Boshqa xarajatlar" guruhi jami byudjet xarajatlarining qariyb 1/5 qismini tashkil qilayotganligini ko'rish mumkin. Buning sabab asosan respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan yirik xarajatlar, jumladan:

– saylovlar va referendumlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiya xarajatlari, shu jumladan, okrug va uchastka saylov komissiyalarini, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlarda (BMT, YuNESKO va boshqa tashkilotlar) ishtirok etish va a'zolik badallarini to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

– O'zbekiston Respublikasining davlat qarziga xizmat ko'rsatish va davlatning kafolatli majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar;

– davlat buyurtmasi bo'yicha statistika ishlariga baq to'lash xarajatlari;

– jamoat tartibini saqlash, davlat xavfsizligi, bojxona organlarini saqlash, mamlakatning mudofaa qobiliyatini ta'minlash kabi xarajatlar byudjet parametrlarida "boshqa xarajatlar" guruhida aks ettiriladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida davlat byudjeti xarajatlari orqali iqtisodiyotda yalpi talabni rag'batlantirishning ilg'or usullari hamda mexanizmlaridan foydalanish lozim. Bunda davlat byudjet xarajatlarini rejalashtirish va ijro etishning zamonaviy vositalari va ilg'or usullarini qo'llashga alohida e'tibor qaratish orqali kelajakda davlat byudjeti xarajatlarining maqsadliligi va natijadorligiga erishiladi.

### 13.3. Byudjet xarajatlarining respublika byudjeti va mahalliy byudjetlardan amalga oshirilishi

Yuqoridagi paragrafda davlat byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlarning tarkibi va ularning oxirgi yillardagi tuzilishi ko'rib chiqildi. Ushbu xarajatlar respublika byudjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan, Toshkent shahrining shahar byudjetidan hamda tumanlar va shaharlar

byudjetlardan amalga oshiriladi. Davlat byudjeti xarajatlarining byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida taqsimlanishining huquqiy asosini tashkil qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 70-moddasi bilan respublika byudjetining xarajatlari, 71-moddasi bilan viloyatlar byudjetlari hamda Toshkent shahrining shahar byudjeti xarajatlari, 71-moddasi bilan tumanlar va shaharlar byudjetlari xarajatlari tarkibi belgilab qo'yilgan.

Respublika byudjetidan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi (10.1-rasm):

10.1-расм. **Davlat byudjetining respublika byudjeti xarajatlari tarkibi**[1]

**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari*:**

– maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlarning malakasini

[1] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 70 modda. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.01.2018 y., 03/18/454/0493-son; 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son.

oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalari, bolalar uylari, ta'lim muassasalarini axborot-usluhiy jihatdan ta'minlash muassasalari, vazirliklar va idoralar tasarrufidagi ta'lim muassasalari, boshqa yordamchi muassasalarni saqlab turish, shuningdek qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan ta'lim tizimi tadbirlarining xarajatlari;

– respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi, OITSga qarshi kurashish respublika markazi, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati, karantin va o'ta xavfli infektsiyalar profilaktikasi, ilmiy tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlarining klinikalari, qon quyish xizmati va sud-tibbiyot ekspertizasi respublika muassasalari, respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi boshqa davolash-profilaktika muassasalari hamda yordamchi tashkilotlarni saqlab turish, shuningdek, qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan xizmatlar haqini to'lash xarajatlari; qonun hujjatlariga muvofiq ayrim toifadagi fuqarolarga tibbiy xizmatlar ko'rsatilganligi uchun respublika ixtisoslashtirilgan markazlari xarajatlarining o'rnini qoplash (subsidiyalar); qabul qilingan davlat dasturlariga muvofiq fuqarolarning sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshirish xarajatlari;

– respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalarini saqlab turish, tele- va radiodasturlar yaratish hamda ularni tarqatishga doir xizmatlar ta'minoti va ularga haq to'lash, hukumatning alohida qarorlariga ko'ra ommaviy axborot vositalarini saqlab turish, kino- va videomahsulotlar yaratish, madaniy meros obyektlarida restavratsiya ishlarini bajarish, tasdiqlangan kalendar rejalarga muvofiq madaniyat va sportni rivojlantirish bo'yicha qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlarining davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida grantlar bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy-texnik loyihalar, noyob ilmiy obyektlarni va fanga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarni saqlab turish, ilmiy loyihalar ekspertizasini o'tkazish hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hisobidan amalga oshiriladigan fanga doir alohida tadbirlar xarajatlari;

– davlat arxivlarini saqlab turish xarajatlari;

– respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarini saqlab turish, shuningdek, qonun hujjatlarida O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtirilishi nazarda tutilgan, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

– davlat mukofotlari, davlat pul mukofotlari bilan taqdirlanganligi munosabati bilan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofotlari va mukofotlarini to'lash xarajatlari;

– bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni, qonun hujjatlarida ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;

– Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro obyektlarida barbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari jamoat ishlarini moliyalashtirish.

* *O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 70-moddasidan.*

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan hududiy ahamiyatdagi tadbirlarga va hududiy tasarrufdagi byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarga, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan esa mahalliy darajadagi tadbirlarga va byudjetdan mablag' oluvchilarga xarajatlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, davlat byudjeti xarajatlari tarkibida moliya yili mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalardagi qo'shimcha, ko'zda tutilmagan xarajatlarning o'z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida tegishli byudjetlarga tushadigan daromadlar hisobidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, shuningdek, tumanlar va shaharlar byudjetining zaxira jamg'armalari shakllantiriladi. Bu jamg'armalarning miqdori makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjetining asosiy parametrlari bilan birga tasdiqlanadi, mahalliy byudjetlarning zaxira jamg'armalari esa tegishli byudjetlar parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

Zaxira jamg'armalariga tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari egalik qiladilar, mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi moliya organlari bilan dastlab kelishilgan takliflar tashabbuskorlar tomonidan tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga belgilangan tartibda kiritiladi va ularning qarorlarida ko'rsatilgan aniq maqsadlarga va miqdorlarda sarflanadi. Zaxira jamg'armalaridan mablag'lar ajratilgan tadbirlar

muayyan muddatga ega bo'lsa, ushbu muddatda foydalanilmay qolgan mablag'lar tadbirlarni o'tkazish muddati tugaganidan keyin o'n ish kuni ichida tegishli zaxira jamg'armasiga tiklanadi. Zaxira jamg'armasidan mablag' oluvchilar Moliya vazirligi va tegishli hududiy moliya organlariga tegishli zaxira jamg'armasidan ajratilgan mablag'lardan foydalanilishi to'g'risida har chorakda hisobot taqdim etadilar.

Xulosa qilib aytganda, davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi va tuzilishi davlatning xarakteri, uning bajaradigan funksiya va vazifalari, iqtisodiyotni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamlari, ijtimoiy sohalardagi davlatning kafolatlari, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning yo'nalishlariga bog'liq bo'ladi. So'nggi yillarda byudjet sohasida bo'layotgan yangiliklar, byudjet qonunchiligidagi o'zgarishlar esa mamlakatimizda ishlab chiqarish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, aholiga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Davlat byudjeti xarajatlarining davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi nimalarda namoyon bo'ladi?*

*2. Davlat byudjeti xarajatlarining funksional (vazifa jihatdan) tayinlanishiga ko'ra tarkibi va tuzilishi qanday?*

*3. Byudjetning ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari tarkibiga qanday xarajatlar kiradi, ularning tarkibiy tuzilishi va ahamiyati qanday?*

*4. Davlat byudjetining aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tarkibini qaysi turdagi xarajatlar tashkil qiladi, tuzilishi va ahamiyati?*

*5. Davlat byudjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlarning tarkibi va tuzilishini aytib bering.*

## Mavzu yuzasidan topshiriqlar

*1. Davlat byudjetining iqtisodiy maqsadlardagi xarajatlarning so'nggi 3 yillik yrosi ma'lumotlari tahlilini keltiring.*

*2. Davlat byudjetining ijtimoiy sohalarni saglash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tarkibi va tuzilishini tahlil qiling.*

*3. Davlat byudjetining markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlarning byudjet xarajatlari tarkibidagi hamda Davlat investitsiya dasturini moliyalashtirish manbalari tarkibidagi o'rni va ahamiyati yuzasidan ko'rgazmali ma'lumot tayyorlang.*

*4. Byudjetning boshqa xarajatlari tarkibini va tuzilishini aks ettiruvchi infografika tayyorlang.*

## 11-BOB. DAVLAT BYUDJETINING HOLATI

### 11.1. Davlat byudjetining holatlari to'g'risida tushuncha. Davlat byudjeti taqchilligi

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning hugungi bosqichida byudjet daromadlari ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo'jalik subyektlarining va aholi daromadlarining oshib borishi, soliq bazalarining kengayishi, mulk shakllarining ko'payishi bilan ortib bormoqda. Lekin bu davrda jamiyatning ko'ptomonlama ehtiyojlari ham kamaygam yo'q, aksincha, byudjet tomonidan moliyalashtirilishi obyektiv zaruriyat bo'lgan, mohiyat jihatidan yangi-yangi tadbirlar, loyihalar, yo'nalishlar paydo bo'ldi.

***Davlat byudjeti profitsiti –***
muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketisbi.

***Davlat byudjeti taqchilligi –***
muayyan davrda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketisbi.

Ularni to'liq hajmda moliyalashtirish yanada ko'proq mablag'larni jalb qilishni taqozo etadi. Lekin daromadlarni muttasil oshirib borish (xususan, soliqlarni oshirish orqali) imkoniyati amaldagi soliq qonunchiligi bilan chegaralangan. Shu bilan birga soliqlarni asossiz ravishda oshirish iqtisodiy subyektlarning xo'jalik faoliyatiga jiddiy putur yetkazadi, ularning ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Bunday sharoitda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlari bilan balanslangan bo'lishiga har doini ham erishib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida davlat byudjetining holatini belgilab beruvchi tushunchalarga quyidagicha ta'riflar berilgan[1]:

Davlat byudjeti daromadlarining byudjet xarajatlaridan oshish holati yuzaga kelganda *byudjet profitsiti* paydo bo'ladi. Byudjet profitsiti, odatda, davlatning qarz majburiyatlarini to'lashga va likvidli mablag'larini ko'paytirishga jalb etiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat byudjet siyosatining eng muhim vazifasi iqtisodiyotni barqaror-lashtirish doirasida byudjet taqchilligining ortib borayotgan sur'atini jilovlashdan iborat bo'ldi. Bu vazifaning hal etilishi natijasida o'ta muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan joriy xarajatlargagina mablag'larni ajratish yo'lidan borildi va taqchililkning eng maqbul darajasi ta'minlandi. Islohotlarning 2-bosqichi yakunlariga kelib, byudjet taqchilligini yo'l qo'yilgan eng kam darajasi (YalMning 3-3,5 foizi) doirasida cheklashga erishildi. 2000-2004-yillar davomida byudjet taqchilligi darajasi YalMning 1-1,2 foizidan oshmadi. 2005-yildan 2008-yilgacha 0,1-1,5 foiz prolitsit bilan ijro qilingan bo'lsa, 2009-yildan 2016-yillargacha bo'lgan davrda davlat byudjeti taqchilligi YalMga nisbatan 0,1-0,4 foiz darajasida bo'ldi.

Sobiq Ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik yillarida davlat byudjeti taqchilligi uzoq vaqtlargacha mustaqil iqtisodiy kategiriya sifatida tan olinmagan. Davlat byudjetini shakllantirishda moliyaviy resurslarga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda ularni moliyalashtirish uchun mablag'lar qidirib topilar va shu asosda davlatning moliyaviy manfaatlari ta'minlanar edi. Rejali iqtisodiyot ma'lum davrlargacha hech qanaqa larzalarsiz, bir tekisda ma'muriy-buyruqbozlik asosida rivojlanib borishi daromadlar va xarajatlar orasida "kasallik" alomatlarini aniq ko'rsatmadi. Ammo keyingi davrlarda (80-yillarning oxiriga kelib) sobiq Ittifoqda byudjet taqchilligi holati yuzaga chiqa boshladi. Dastlabki yillardagi byudjet taqchilligi

[1] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi (O'RQ-360-son. 26.12.2013). 3-modda.

jamg'arma kassalaridagi aholiga tegishli bo'lgan mablag'lar, uzoq muddatli hayot sug'urtasi badallari hisobidan shakllangan mablag'lar va aholi o'rtasida davlatning ichki yutuqli zayom obligatsiyalarini chiqarish (sotish) hisobiga qoplab borildi. Bu turdagi qarzlar oldindan mavjud bo'lgan resurslarni qayta taqsimlash asosida amalga oshirilganligi uchun moliyaviy-moddiy balansning buzilishiga olib kelmadi, ammo bu jarayon davlat qarzlarining o'sishiga olib keldi. 1986-yilda byudjet taqchilligining juda tez sur'atda o'sib ketishi (45,5 mlrd. rubl) Ittifoq moliya tizimining parokandalik holatini boshlab berdi.




11.1-rasm. **2000-2018-yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining holati**

Ammo byudjet taqchilligini favqulodda mustasno hodisa, deb qarab bo'lmaydi. O'zining tarixiy va iqtisodiy rivojlanishining u yoki bu bosqichida byudjet taqchilligiga duch kelmagan davlat bo'lmasa kerak. Masalan, AQSHda federal byudjet keyingi yarim asr mobaynida faqat 1969-yildagina taqchilliksiz ijro etilgan.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida har yilgi taqchilliklarning va tez o'sib boruvchi davlat qarzining mavjud bo'lishi kuzatiladi. 70-yillar boshlariga kelib, byudjet taqchilligining YAIMga nisbatan foiz hisobida o'sgan davlatlar bu ko'rsatkich pasaygan mamlakatlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. AQSHda Ikkinchi jahon urushi yillarigacha byudjet taqchilligi bo'lmagan, faqat urush yillarida davlat byudjetida taqchillik yuzaga kelgan.

## 11.2. Byudjet taqchilligining shakllari. Taqchillikni keltirib chiqaruvchi omillar. Taqchillikni qoplash manbalari

Amallyotda byudjet daromadlari va xarajatlarining tengligiga hamma vaqt ham erishilavermaydi. Ayrim hollarda byudjetning daromadlari uning xarajatlaridan ko'p bo'lishi va bunday byudjet profitsitli byudjet bo'lishi mumkin. Aksincha, ba'zi hollarda esa byudjetning xarajatlari uning daromadlaridan ortib ketadi, shunga muvofiq ravishda byudjet defitsiti yuzaga keladi.

Byudjet defitsitining hajmi:

– milliy valyutada absolyut summada;

– mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan foizlarda;

– milliy daromad hajmiga nisbatan foizlarda;

– byudjet daromadlari va xarajatlariga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Boshqa hollar teng bo'lgan sharoitda byudjet defitsiti vujudga kelishining eng umumiy sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

– iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yirik davlat kapital qo'yilmalarini amalga oshirishning zarurligi;

– favqulodda hodisalarning mavjudligi;

– iqtisodiyotdagi inqirozli holatlar;

– moliya-kredit aloqalarining yetarli darajada samarali emasligi;

– hukumat tomonidan mamlakatdagi moliyaviy holat ustidan yetarli darajada nazorat qila olmaslik;

– ijtimoiy ishlab chiqarishning nisbatan past darajadagi samaradorligi;

– tashqi iqtisodiy aloqalarning nisbatan kam natijaliligi;

– byudjet xarajatlarining nooqilona tarkibiy tuzilishi;

– yirik davlat investitsiyalarini amalga oshirish amaliyotining mavjudligi;

– harbiy xarajatlar ko'lamining nisbatan kattaligi;

– ichki real imkoniyatlarni yetarli darajada inobatga olmagan holda boshqa mamlakatlarga yordam berish;

– davlatga iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirishni rag'batlantirish imkonini bermaydigan va yetarli darajada samarali bo'lmagan byudjet mexanizmining qo'llanilishi va boshqa sabablar.

Byudjet defitsitiga nisbatan strategik yondashuv quyidagilarga alohida e'tibor berilishini taqozo etadi:

– byudjet defitsiti muammosini matematik yo'l bilan hal qilishga harakat qilmaslik kerak. Chunki bu holda iqtisodiyotni "davolash" o'rniga uning "kasalligi" kuchayadi;

– byudjetning balansliligi yoki byudjet daromadlarining xarajatlardan ko'p bo'lishi hali sog'lom va barqaror iqtisodiyotdan dalolat bermaydi;

– byudjet defitsitining miqdori odatda, mamlakat yalpi milliy mahsulotining 2-3 foizidan oshmasligi lozim, defitsitning bu darajasi iqtisodiyotga barzali tarzda salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, lekin shu chegaradan oshsa, hukumatlar defitsitni qisqartirish (yoki shu darajaga keltirish) choralarini ko'rish uchun tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishi zarur;

– byudjet defitsitini qoplash uchun eng avvalo, davlat kreditining turli shakllaridan foydalanish, shuningdek, davlat qimmatbaho qog'ozlarini moliyaviy bozorda joylashtirish maqsadga muvofiq;

– byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish uchun avvalo, iqtisodiyotning o'zini "davolash"

kerak, aks holda, shu maqsaddagi har qanday tadbir, albatta, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Byudjet defitsitining darajasini kamaytirish yoki unga barham berish borasidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning eng asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

– byudjet xarajatlarining investitsion yo'nalishini o'zgartirish, ularni eng ko'p samara beradigan loyihalarga yo'naltirish;

– xo'jalik yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi moliyaviy imtiyoz va sanksiyalardan keng foydalanish;

– davlat byudjetidan moliyalashtirish ko'lamlarini va davlatga tegishli iqtisodiyot sohalarini qisqartirish;

– xorijiy davlatlarga yordam ko'rsatish ko'lamlarini kamaytirish;

– harbiy xarajatlarni qisqartirish;

– eng muhim ijtimoiy dasturlarnigina moliyalashtirishni saqlab qolish, yirik byudjet xarajatlarini talab etuvchi loyihalarni cheklash;

– Markaziy bank tomonidan hukumat organlariga to'g'ridan-to'g'ri kredit berish amaliyotiga chek qo'yish;

– xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish va boshqalar.

Byudjet defitsitini boshqarish tadbirlari ichida defitsitni qoplash manbalarini aniqlab olish muhim. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida byudjet defitsitini qoplash manbalari ikki guruhga bo'lingan:

– ichki manbalar;

- tashqi manbalar.

Byudjet defitsitini qoplashning ichki manbalari sifatida quyidagilar belgilangan:

– davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining qoldig'i;

– O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larining qoldig'i;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi mablag'larining qoldig'i;

– Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari;

– boshqa ichki manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar.

Byudjet defitsitini qoplashning tashqi manbalari qatoriga quyidagilar kiradi:

– davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar;

– xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar kreditlari;

– xorijiy davlatlar kreditlari;

– boshqa tashqi manbalardan jalb qilinadigan mablag'lar.

## 11.3. Byudjet taqchilligi to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar, ularning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyati

Byudjet defitsitini dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat moliyasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanganligi uning yuzaga kelish sabablarini, mo'tadil darajasini, davlatning makroiqtisodiy tartibga solish tizimidagi o'rnini ilmiy asosda o'rganish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

J.M.Keyns davlat byudjeti defitsitining yuzaga kelish sabablarini chuqur tadqiq qilgan iqtisodchi olimlardan biri hisoblanadi. J.Keyns o'zining ilmiy izlanishlarida jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlarida davlat xarajatlarining davlat daromadlariga nisbatan ortiqcha bo'lishi mumkinligini va bu holat obyektiv iqtisodiy asosga ega ekanligini asoslab berdi. Keynsning byudjet soliq siyosati xususidagi nazariy qarashlarida byudjet defitsiti iqtisodiyotni bir muvozanat holatidan ikkinchi bir muvozanat holatiga o'tkazish imkonini beruvchi instrument silatida e'tirof etiladi. Agar biz J.Keynsni davlat iqtisodiyotni samarali tarzda tartibga solish

imkoniyatiga ega, degan nazariy xulosalariga tayanadigan bo'lsak, u holda Keynsni davlat byudjeti defitsitining darajasini davlat tomonidan to'liq nazorat qilish mumkinligiga ishonganligiga shubha qilmasa bo'ladi.

Nemis moliya fanining klassik namoyondasi A.Vagner o'zining "Moliya to'g'risidagi fan" nomli asarida davlat faolligining o'sib borishi qonunini shakllantirdi. Ushbu qonunga ko'ra davlat faolligini kuchaytirishning zaruriy shartlaridan biri davlat xarajatlarining oshib borishi hisoblanadi. A.Vagner o'zining empirik izlanishlariga tayangan holda shunday xulosaga keldi: "ilmiy-texnika inqilobiga asoslangan sivilizatsiyaning taraqqiy etishi, ishlab chiqarish va muomala hajmlarining, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning oshishi bilan davlatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlariga aralashuvi kuchayadi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy siyosiy va ilmiy-texnikaviy faolligi o'sadi. Bu esa, o'z navbatida, davlat xarajatlarining shunga muvofiq tarzda o'sib borishiga olib keladi".

Zamonamizning rus iqtisodchi-olimi professor V.M.Rodionovaning fikriga ko'ra davlat byudjeti defitsiti yuzaga kelishining uch asosiy sababi mavjud:

1. Byudjet defitsiti davlatning iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida yirik miqdordagi qo'yilmalarni amalga oshirishi natijasida yuzaga keladi.

2. Byudjet defitsiti favqulotda holatlar (urush, tabiiy ofatlar va h.k.) natijasida yuzaga keladi.

3. Byudjet defitsiti iqtisodiyotda inqiroz holatlarining yuzaga kelishi, hukumatning mamlakatdagi moliyaviy holatni nazorat ostida ushlab turish qobiliyatini yo'qotishi natijasida yuzaga keladi.[1]

Demak, davlat byudjeti defitsiti yuzaga kelishining ikki asosiy sababi taniqli iqtisodchi-olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Birinchisi, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi bilan

[1] Родионова В.М и др. Финансы. –М.: Финансы и статистика, 2013.–С. 29-38.

bog'liq xarajatlarining ko'payishi bo'lsa, ikkinchisi, davlatning noishlab chiqarish xarakteridagi xarajatlari hajmining keskin oshib ketishi hisoblanadi.

Byudjet defitsitining yuzaga kelishini mamlakatdagi iqtisodiy inqiroz holatlari bilan bog'lash maqsadga muvofiq. Buning sababi shundaki, iqtisodiy inqiroz paytida soliq tushumlari keskin kamayadi, hukumatning qimmatli qog'ozlarini sotish darajasi pasayadi va h.k. Bu holatlar pirovardida davlat byudjeti daromadlarining rejalashtirilgan miqdorda tushmasligiga sabab bo'ladi. Natijada byudjet defitsitining hajmi yanada oshadi va hukumat uchun bank tizimining kreditlaridan foydalanishdan ko'ra qulayroq va osonroq yo'l qolmaydi. Shuning uchun ham iqtisodiy inqiroz holatlarining yuzaga kelishini alohida sabab sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rivojlangan ilg'or mamlakatlar amaliyotida *tarkibiy defitsit* tushunchasi ham qo'llaniladi. Tarkibiy defitsit, deganda aholining to'liq bandligi sharoitida davlat byudjetining salbiy qoldig'i tushuniladi. Bunda byudjet defitsitining miqdori davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning joriy tadbirlari bilan emas, balki siklik tebranishlar bilan belgilanadi. Iqtisodiy inqirozlar paytida odatda, ishsizlik ko'payadi, bu esa, tarkibiy defitsit miqdoriga bevosita ta'sir qiladi. Demak, iqtisodiy inqirozlarni nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti uchun, balki rivojlangan mamlakatlar amaliyoti uchun ham xos bo'lgan omil sifatida qayd etish mumkin.

Davlat byudjeti defitsiti yuzaga kelishining obyektiv sabablarini tan olmaslik, defitsitsiz byudjet siyosatiga tayanish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga jiddiy ziyon yetkazganlik holatlari xalqaro amaliyotda bir necha bor kuzatilgan.

Davlat byudjeti defitsitining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan asosiy masalalardan biri byudjet defitsiti hajmini aniqlash metodologiyasini tahlil qilish hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda byudjet defitsitining hajmini

aniqlashda ikkita metodologiyadan keng foydalanilmoqda: *sof defitsit va umumiy defitsit.*

Sof defitsit byudjet investitsiyalaridan tashqari bo'lgan davlat byudjeti xarajatlari asosida aniqlanadi. Umumiy defitsitni aniqlashda esa nafaqat to'g'ri byudjet investitsiyalari, balki joriy byudjet yilida qaytariladigan va hukumat tomonidan kafolatlangan kredit hisobidan amalga oshiriladigan investitsiyalarga xarajatlar ham inobatga olinadi.

Umumiy defitsit byudjet defitsitining real hajmini to'laroq ifoda etadi, chunki bunda hukumat kafolatlangan kreditlardan samarali foydalanishni nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi.

Ikkinchi metodologiyaning O'zbekiston hukumati uchun katta ahamiyatga ega ekanligining asosiy sababi shundaki, hozirgi kunga qadar mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilingan kreditlarning aksariyat qismi hukumat kafolati asosida olingan kreditlardan iborat. Demak, ulardan foydalanish nazoratini kuchaytirish byudjet defitsiti darajasining oshib ketishining oldini oladi.

Davlat byudjeti defitsitining iqtisodiyotga ta'siri va uning mo'tadil darajasini baholash masalalari ham murakkab va ko'p qirrali masalalardan hisoblanadi. J.M.Keynsning byudjet-soliq siyosatining iqtisodiyotni barqarorlashtirishda birlamchi ahamiyatga ega ekanligi xususidagi qoidasiga ko'ra defitsitning yoki profitsitning miqdori ijtimoiy talab, daromadlar va baholar darajasini aniqlashda markaziy o'rinni egallaydi. Bunda J.Keyns byudjet defitsitini hukumatning byudjet-soliq siyosatining natijasi sifatida iqtisodiyotni muvozanatlashtiruvchi asosiy omil, deb baholaydi. Ammo hozirgi vaqtda, ayrim rivojlangan davlatlarning amaliyotida shunday holatlar sodir bo'lmoqdaki, uni Keynsning byudjet-soliq siyosati xususidagi ta'limoti doirasida tushuntirib bo'lmaydi. Masalan, Yaponiyada 1999-yilda davlat byudjetining defitsiti yalpi ichki mahsulotning 11,4-foizini tashkil etgani holda, to'lov balansining ijobiy qoldig'i 130 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi. Holbuki, Keynsning qoidasi bo'yicha davlat

xarajatlarning oshishi baholar darajasining o'sishiga olib kelishi lozim edi. Ammo Yaponiyada baholar darajasining o'sish sur'ati boshqa bir qator yetakchi ilg'or mamlakatlardagiga nisbatan sezilarli darajada past bo'ldi. 1990-yilda Yaponiyada byudjet profitsitining yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i 2,9 foizni tashkil qilgani holda, 1990-1999-yillar mobaynida iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlari kuzatildi.

Demak, byudjet defitsitining iqtisodiyotni muvozanatlashtirishdagi roliga baho berishda har bir mamlakatning moliya-byudjet siyosatidan kelib chiqish lozim. Byudjet defitsitining o'sishi natijasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda qanday ijobiy o'zgarishlar yuz berganligini aniqlash lozim. Masalan, byudjet defitsitining yuqori darajada o'sishi davlatning investitsiya xarajatlarining o'sishi oqibati bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda byudjet defitsitining iqtisodiyotga ta'sirini baholash uchun iqtisodiy o'sish sur'atidagi, soliq tushumlaridagi o'zgarishlarni va ishsizlik darajasini baholash kerak. Chunki investitsion xarajatlar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Ayni vaqtda, investitsiya xarajatlarini samarasiz tarzda amalga oshirish byudjet defitsitining iqtisodiyotga nisbatan salbiy ta'sirini yuzaga keltiradi. Xususan, davlatning mablag'lari hisobiga moliyalashtirilgan investitsion loyihalarning o'zini oqlamasligi qilingan xarajatlarning "o'lik" kapitalga aylanishiga, hukumat to'lovlarining oshib ketishiga olib keladi. Buning oqibatida byudjet defitsitini qoplash muammosi yanada chuqurlashadi va ko'pchilik hollarda hukumat defitsitni qoplashning inflyatsion manbalaridan foydalanishga majbur bo'ladi. Bunda byudjet defitsiti o'zining *passiv shakliga* kiradi. Byudjet defitsitining oshishi hisobiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga erishilsa, u holda byudjet defitsiti *aktiv shakliga* ega bo'ladi.

O'zbekistonda byudjet defitsitini boshqarishda quyidagi talablarga e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

milliy valyutaning barqarorligini saqlashning aniq dasturlari ishlab chiqilishi;

byudjet defitsitini qoplashning samarali yo'llarini qidirib topish;

davlat byudjeti hisobidagi tarmoqlarni iqtisodiy moliyalashtirishni qisqartirish, harbiy xarajatlarga mablag'ni oqilona sarflash;

- sekvestr (xarajatlarni proporsional ravishda qisqartirish) mexanizmlaridan foydalanish.

Umuman, byudjet defitsitini boshqarish byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, bunda iloji boricha mablag'larni ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishga yo'naltirish va aholini to'liq ish bilan handligiga erishishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, byudjet defitsitini qoplashning noinflyatsion usullaridan foydalanishga ustuvorlik berish byudjet defitsitining darajasini xalqaro byudjet amaliyotida qabul qilingan me''tadil darajada saqlab turish choralari iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti defitsitining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga nisbatan yuzaga keladigan salbiy ta'sirining oldini oladi.

## 11.4. Xorijiy mamlakatlarda byudjet taqchilligi, taqchillikni boshqarish va tartibga solish tajribalari

Davlat moliyasini sog'lomlashtirish, uning daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan byudjet-soliq tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda davlat byudjeti taqchilligi muammosi nafaqat iqtisodchi olimlarning, balki dunyodagi qashshoq yoki rivojlanayotgan mamlakatlar bilan bir qatorda iqtisodiyoti taraqqiy topgan mamlakatlar hukumatlarining ham asosiy diqqat-e'tiboridagi umumiqtisodiy holat hisoblanadi. Aynisa, ushbu muammo hamon davom etayotgan jahon moliyaviy-

iqtisodiy inqirozining oqibatlarini bartaraf etishda jiddiy tus olmoqda. Har bir alohida olingan mamlakatda davlat byudjetini boshqarishda byudjet taqchilligi va uni boshqarish masalasi muhim ahamiyatga ega. Davlat byudjeti taqchilligi davlat oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjeti taqchilligi har doim ham salbiy holatni bildirmaydi.

J.M.Keynsning eng asosiy g'oyasi shundan iboratki, u davlat xarajatlarini oshirish va ushbu mablag'lar yetmagan taqdirda "qarz yordamida moliyalashtirishni" taklif etdi. Uning g'oyasining davomchilari ushbu nazariyani "taqchillik asosida moliyalashtirish" deb nomladilar. J.Keynsning fikricha, davlatning jorıy xarajatlarini qarz hisobiga moliyalashtirish "iste'molga moyillikni" oshiradi va buning natijasida "investitsiyalarga moyillik" ham ortadi.

Jon Meynard Keyns (ingl.: *John Maynard Keynes, 1-si Baron Keynes*) (05.06.1883 – 21.04.19946) – ingliz iqtisodchisi, iqtisodiy nazariyada keynschilik yo'nalishining asoschisi. J.M.Keyns g'oyalari ta'sirida paydo bo'lgan iqtisodiy oqim keynchalik "Keynschilik" nomini olgan. Keyns makroiqtisodiyotning mustaqil fan sifatidagi asoschilaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, J.M. Keynsgacha davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning mutanosib bo'lishi hamda byudjet taqchilligining faqat salbiy holat sifatida qabul qilinishiga asoslangan yondashuv mavjud edi. J.Keyns ushbu dunyoqarashlarga chek qo'ydi. Uning fikricha, ssuda kapitali bozorida Markaziy bank yordamida "samarali talab"ga erishish mumkin va shu asosda davlat byudjeti taqchilligi milliy iqtisodiyotni tartibga solib turuvchi vositalaridan biriga aylanadi. Yuqoridagi nazariyadan farqli ravishda, monetarist-larning fikricha, pul-kredit siyosati yalpi ichki mahsulot miqdorini o'zgartirishning g'oyatda qudratli

vositasidir. Byudjetdagi taqchillikni o'ziga maqbul darajada saqlab turish uchun davlat o'z xarajatlarini kelib tushayotgan daromadlariga muvofiq holga keltirish maqsadida ularni davlat foydasiga jilovlab turadigan siyosatni muntazam ravishda olib boradi. Monetarizm tarafdorlari byudjet soliq siyosatini amalga oshirish hech qanday ijobiy samara bermaydi, deb hisoblashadi. Monetaristlarning fikricha, iqtisodiyotni rivojlantirishda eng asosiy e'tiborni muomaladagi pul miqdorini o'zgarishiga qaratish lozim, binobarin davlat byudjetidan makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun foydalanmaslik kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, jahon amaliyotida davlat byudjeti taqchilligi mamlakat milliy iqtisodiyotiga jiddiy xavf tug'diradimi yoki buning aksi – taqchillik iqtisodiyotni rivojlantirishda foydalimi, degan savol hozirda ham dunyoning yetakchi iqtisodchi olimlari o'rtasida bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan rivojlangan mamlakatlar o'zlarining rivojlanish bosqichlarida davlat tashqi qarzi va davlat byudjeti taqchilligini boshqarishda o'ziga xos tajribaga egadirlar. Aynan, yevrobudud mamlakatlarida Maastrixt shartnomasida Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarga "yevrohudud"da ishtirok etishlari uchun 1993-yil 2-maydan boshlab qat'iy mezonlar o'rnatilgan[1]:

– davlat byudjeti taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,0 foizdan ortmasligi lozim, agarda belgilangan ushbu normativ buzilsa, um huzgan davlatga nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llaniladi;

– davlat tashqi qarzi miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 60,0 foizdan ortmasligi lozim (yoki ushbu ko'rsatkichga barqaror yaqinlashib borish mumkin).

Mamlakatimizda davlat byudjeti taqchilligi muammosini o'rganish bilan birga iqtisodi taraqqiy topgan va rivojlanayotgan mamlakatlarning davlat byudjeti taqchilligining yuzaga kelish

[1] Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. /Под ред. д.э.н. академика В.К. Сенчагова. –М.: Проспект, 2007.

sabablarni tahlil etish va ularda byudjet taqchilligini qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora tadbirlarni o'rganish bizga ushbu sohada kelajakda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Xalqaro amaliyotda yetakchi iqtisodchi olimlar o'rtasida byudjet taqchilligini moliyalashtirishning usullari to'g'risida turli qarashlar mavjud. I.A. Pogosovning fikricha, "davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning asosan ikki usuli mavjud[1]:

*birinchidan*, davlat qarzi hisobidan moliyalashtirish: davlat qarzi, o'z navbatida, ichki manbalar (bunda davlat byudjeti taqchilligi faqat mamlakat ichidagi manbalar hisobiga moliyalashtiriladi) va tashqi manbalar (bunda taqchillik mamlakat hukumati tomonidan xorijiy mamlakatlar hukumatlaridan, xalqaro moliya institutlaridan hamda yirik xalqaro banklardan olinadigan davlat qarzlari) hisobiga moliyalashtiriladi;

*ikkinchidan*, muomalaga yangi pullarni emissiya qilish hisobiga.

Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning bu ikki guruhi "qarzli moliyalashtirish va emissiyali moliyalashtirish"[2] deb ham ataladi. Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning bu ikki usuli bilan birga davlat aktivlarini sotish orqali taqchillikning ma'lum qismini moliyalashtirish usulidan ham foydalaniladi. Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning har qaysi usulini qo'llashning iqtisodiyotga ta'siri bir xil bo'lmaydi. Turli mamlakatlarda byudjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlarga ajratadigan bo'lsak, ularning bir guruhi emissiyali (pulli) moliyalashtirishga, boshqa bir guruhi qarzli moliyalashtirishga mansuhligini ko'rish mumkin: (1) Markaziy bankdan qarz olish yoki taqchillikni emissiyali moliyalashtirish (pulli moliyalashtirish), (2) tijorat banklaridan

---

[1] Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. /Под ред. д.э.н. академика В.К. Сенчагова. –М.: Проспект, 2007.

[2] Жумаев Н., Бурханов У. Молиянинг долзарб муаммолари. –Т.: Янги аср авлоди, 2003.

qarz olish (qarzli moliyalashtirish), (3) mamlakat ichkarisidagi nobank sohalardan qarz olish (qarzli moliyalashtirish), (4) mamlakatning valyuta zaxiralarini byudjet taqchilligini qoplashga safarbar qilish yoki boshqa xorijiy davlatlardan qarz olish (qarzli moliyalashtirish), (5) davlat mulkini sotish (davlat aktivlarini sotish orqali moliyalashtirish).

Byudjet taqchilligini bosh qarishda mamlakat hukumati yuqorida ta'kidlab o'tilgan usullarning birdan yoki bir nechtasidan foydalanishi mumkin. Bunda foydalaniladigan usullarning har birining iqtisodiy tabiati turlicha, shu sababli ular mamlakatning moliyaviy holatiga turlicha, ayrim holatlarda bir-biriga teskari ta'sir ko'rsatishi mumkin. Byudjet taqchilligini qisqartirish borasida hukumat tomonidan noto'g'ri siyosatning tanlanishi mavjud taqchillikning ortishiga va buning natijasida iqtisodiy holatning mushkullashuviga hamda aholi o'rtasidagi noroziliklarga olib kelishi mumkin.

Davlat byudjeti taqchilligini tartibga solishning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun mamlakat markaziy bankidan kredit olish, ya'ni muomalaga qo'shimcha pul emissiyasini amalga oshirish.

2. Davlat byudjeti xarajatlarning hajmini qisqartirish.

3. Davlat byudjeti daromadlarini ko'paytirish, ya'ni amaliyotga yangi soliq turlarini kiritish yoki amaldagi soliq stavkalarini oshirish.

4. Davlat mulkini mahalliy va xorijiy sarmoyadorlarga sotish.

5. Mamlakat aholisidan, mahalliy xo'jalik yurituvchi subyektlardan, xorijiy mamlakatlar hukumatlaridan, xalqaro moliya tashkilotlaridan va yirik xorijiy tijorat banklaridan qarz olish.

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishning eng oson, lekin juda qaltis usuli bo'lib mamlakat Markaziy bankidan qarz olish hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, Markaziy bankdan kredit olish o'z mohiyatiga ko'ra muomalaga

qo'shimcha pul emissiyasini amalga oshirish hisoblanadi. Ushbu usul orqali mamlakatda davlat byudjeti taqchilligining rasman moliyalashtirilishiga erishiladi, lekin Markaziy bankdan haddan tashqari ko'p kredit olish mamlakatda shiddatli yoki jilovlanmagan inflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Xalqaro amaliyotda ko'plab rivojlanayotgan, shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida 90-yillarning boshlarida davlat byudjet taqchilligini moliyalashtirishda ushbu usuldan keng foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasida ham davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishda 2003-yilgacha Markaziy bank kreditlaridan foydalanilgan[1]. Bugungi kunda mamlakatimizda kuchga kirgan yangi Byudjet kodeksining 151-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning kreditlarini Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbasi sifatida jalb qilishga yo'l qo'yilmaydi[2], deb belgilab qo'yilgan.

Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishda byudjet xarajatlarini kamaytirish usulidan foydalanishda mamlakat hukumati tomonidan juda ehtiyotkorlik bilan qat'iy siyosat olib borish talab etiladi. Iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlarda davlat byudjeti tomonidan ijtimoiy-madaniy sohalarga yo'naltiriladigan xarajatlarni qisqartirish mamlakat aholisi o'rtasida norozilikni yuzaga chiqarishi mumkin. Ushbu xarajatlarni amalga oshirishda asosan, ijtimoiy xarajatlarning maqsadliligini ta'minlash, boshqaruv va mudofaa xarajatlarini qisqartirish hisobiga davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishga erishish mumkin. Ushbu usuldan AQSH Prezidenti R.Reygan (1980-1988 yillar) foydalangan, yani mehnatkashlar va ishsizlarga to'langan nafaqalarni qisqartirgan hamda ish haqini kamaytirgan. Buning natijasida AQSHda kambag'al fuqarolar soni 1979 yildagi 26,1 mln. kishidan 1982 yildagi 55,3 mln. kishiga yetdi. Ushbu holatni

---

[1] Жумаев Н., Бурханов У. Молиянинг долзарб муаммолари. -Т.: Янги аср авлоди, 2003.

[2] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi (O'RQ 360 son, 26.12.2013). 151 modda.

monetarizm g'oyasining asoschisi Milton Fridmen ijobiy baholagan, chunki uning fikricha, ijtimoiy xarajatlarning qisqartirilishi natijasida AQSHda davlat byudjeti taqchilligining qisqarishiga erishilgan. Ishsizlarga beriladigan ijtimoiy nafaqalarni qisqartirish natijasida ishsizlar ishlashga majbur bo'lganlar va AQSHda 1984-yildan boshlab, ishsizlar sonining ma'lum darajada kamayishiga erishilgan[1]. Mazkur holatni Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning byudjet siyosatida ham kuzatish mumkin. Yevrohududning 16 davlati moliya vazirlarining muzokaralaridan so'ng 2010-yilda Gretsiyaga uch yil muddatga 110 mlrd.yevro miqdorida yordam paketi ajratiladigan bo'ldi. Albatta, Yevropa Ittifoqi tomonidan Gretsiyaga ko'rsatiladigan yordam oddiy kreditdan boshqa narsa emas. Ammo ajratiladigan kreditning foiz stavkasi hozordagi mavjud stavkadan pastroq bo'ladi (qariyb 5 foiz atrofida). Bunga javoban Gretsiya hukumatidan mehnat va pensiya qonunchiligini erkinlashtirish talab etildi. Ushbu yo'nalishda byudjet tashkilotlaridagi ishchi xodimlar sonini qisqartirish, ishlayotgan xodimlarning ish haqlarini "muzlatib qo'yish" kabi choratadbirlar amalga oshirildi. Ushbu choralar yaqin ikki yil mobaynida byudjet defitsitini 30 mlrd. yevroga qisqartirish imkonini berishi kutilayotgan edi[2].

Artur Laffer (1940-yil 14-avgustda tug'ilgan) – amerikalik iqtisodchi, iqtisodiyotda taklif nazariyasining asoschilaridan biri. AQSh Prezidenti R.Reygan boshqaruvi davrida mashhur bo'lgan.

Davlat byudjeti taqchilligi darajasini kamaytirish usullaridan yana bir – byudjet daromadlarini ko'paytirish hisoblanadi. Ushbu usuldan foydalanishda asosan quyidagilar amalga oshiriladi: amaliyotga yangi soliq turlarini kiritish; mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning foiz stavkalarini ko'tarish; amal qilayotgan soliqlar bo'yicha soliq to'lovchilarga

[1] Финансы капитализма. Учебное пособие. /Под ред. проф. Б.Г. Болдырева. -М.: Финансы и статистика, 1990.

[2] http://korrespondent.net/business/economics/1072974-greciya-poluchit-110-mlrd-evro-ot-es-i-mfv

berilgan imtiyozlarni cheklash yoki umuman bekor qilish. Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishda faqatgina ushbu usuldan foydalanilganda iqtisodiyotda "Laffer samarasi" yuzaga chiqadi. A.Lafferning fikricha, soliq stavkalarini asossiz ravishda oshirib yuborish natijasida ma'lum muddat davomida davlat byudjetiga daromadlarning ortishi kuzatiladi. Lekin soliq stavkasi chegaradan ortib ketsa, soliq to'lovchilarning "soliqlardan qochishi" yuzaga chiqadi. Ushbu holat esa, davlat byudjetiga to'lovlarning kamayishiga olib keladi.[1]

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish maqsadida ayrim soliq turlari stavkalarini (asosan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i) oshirish hamda boy fuqarolar uchun qo'shimcha daromad solig'ini joriy qilish amaliyoti olib borilmoqda. Fransiyada fuqarolardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi 75 foizga ko'tarildi. Shuningdek, ayrim yevrohududdagi davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi oshirildi. Yana bir misol, Yaponiyada davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish maqsadida 2013-yildan boshlab savdodan olinadigan soliq stavkasi 5 foizdan 8 foizgacha ko'tarilgan.

Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishda o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab, davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan mablag'lardan foydalanish amaliyotga kiritilgan. "AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda keng miqyosda "reprivatizatsiya", ya'ni davlat mulkini sotish va davlat mulkiga asoslangan korxonalarni aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish amalga

[1] Laffer, A., & Seymour,]. (Eds.). (1979). The economics of the tax revolt: a reader. New York, NY: Harcourt Brace Jovanovich.

oshirildi. AQSH Prezidenti R.Reygan va Buyuk Britaniya bosh vaziri M.Tetcher davlat mulkini xususiylashtirish va ular asosida aksiyadorlik jamiyatlari hamda xususiy korxonalarni tashkil etishga juda katta e'tibor qaratganlar. Xalqaro amaliyotda ular olib borgan ushbu iqtisodiy siyosat "reyganomika" va "tetcherizm" deb ataladi. Ushbu siyosat natijasida davlat mulkchiligidagi korxonalarni xususiylashtirish asosida tashkil etilgan xususiy korxonalar raqobatbardosh ekanligi va davlat mulkidagi korxonalar yangi investitsiyalarni moliyalashtirishni amalga oshirishga qodir emasligi isbot qilindi. Eng asosiysi, xususiylashtirishdan kelgan juda katta miqdordagi mablag'lar davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishga sarflandi.

Reyganomika (ingl. *Reaganomics*) — Ronald Reyganning 1981-1989-yillardagi prezidentlik davrida Amerika hukumatining iqtisodiy siyosati yo'nalishi. Reyganomikaning nazariy asosini taklifga asoslangan iqtisodiy nazariya tashkil qiladi. Uning amaliy xulosasi shu bo'ldiki, asosiy e'tiborni tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni rag'batlantirishdan ularni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratish kerak. Investitsion va innovatsion jarayonlarga erkinlik berish, xarajatlarni kamaytirish, xususiy kapitalning jamg'armalarini ko'paytirish uchun yirik soliq islohotlarini amalga oshirish talab etildi.

Davlat byudjeti defitsitini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, byudjet defitsiti jahon amaliyoti uchun nisbatan yangi hisoblangan voqelik sanaladi. Xususan, XIX asrning o'rtalariga qadar rivojlangan ilg'or mamlakatlarning davlat byudjetlari uchun daromadlarning xarajatlardan ortiq bo'lishi xarakterli xususiyat edi. Shuning uchun ham mazkur davlatlarda urushlar davrida yoki katta talofat keltiruvchi tabiiy ofatlar yuz berganda paydo bo'ladigan byudjet defitsiti favqulodda holat hisoblanar edi. XX asrning 50-yillaridan boshlab bu mamlakatlarda byudjetning defitsitlik holati, ularning jahon iqtisodiyotidagi o'rnidan, geografik, geopolitik mavqeyidan qat'iy nazar tabiiy hol bo'lib qoldi. Ushbu holat hozirga qadar davom etib kelmoqda.

Masalan, AQSHda 1974-yil uchun Byudjet to'g'risidagi qonunning qabul qilinishida Kongress federal byudjetning

hajmi yoki byudjet defitsiti borasida xavotirga tushadigan holatlarni basborat qilmadi[1]. Faqat 1980-yillarga kelib Prezident Ronald Reygan ma'muriyati davrida byudjet jarayoniga bo'lgan e'tibor yirik taqchilliklarning yuzaga kelish xavfi ta'sirida jiddiy o'zgardi.[2]

Reygan prezidentligining dastlabki yillarida AQSHning Byudjetni boshqarish Departamenti muhim ahamiyatga ega bola boshladi.[3] Reygan prezident etib saylangach, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari masalasi asosiy siyosiy vazifa darajasiga ko'tarildi va bu ishlarni bajarish AQSHning Byudjetni boshqarish Departamentiga yuklatildi.[4]

Davlat byudjetidagi taqchillik hajmi 1981-yildan boshlab o'sa boshladi.[22] Reygan ma'muriyati 1981-yili iqtisodiyotni rag'batlantirish va byudjet daromadlarini ko'paytirish maqsadida soliq stavkalarini pasaytirdi. Bu choraning nazariy jibatdan to'g'ri bo'lishiga qaramasdan, amaliyotda davlat qarzi qiymatining 1981-yilda 1,1 trillion dollarga, 1985-yilda esa 2,1 trillion dollarga ko'tarilib ketishiga olib keldi.[5] Natijada Reygan ma'muriyati Kongressga ko'plab ijtimoiy dasturlarni qisqartirishni taklif qildi. Lekin bu bilan ham taqchillik oshib boraverdi, bunga sabab – daromad va xarajatlar o'rtasida yirik nomutanosiblikning mavjudligi edi.

Ana shunday siyosiy jihatdan tarang vaziyatda 1985-yilda Kongress Muvozanatlashgan byudjet va Favqulodda yuzaga keladigan kamomadni nazorat qilish to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Ushbu qonun kiyhasining yuzaga kelishiga Senatorlar

---

[1] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 308.

[2] Joyce, P. (1996). Congressional budget reform: the unanticipated implications for federal policy making. PublicAdministrationReview, 56, 317-325.

[3] Johnson, R. (1984). From analyst to negotiator: the OMB's new role. Journal of Policy Analysis and Management, 3, 501-515; Johnson, R. (1989). The OMB budget examiner and the congressional budget process. Public Budgeting & Finance, 9, Spring, 5-14; Tompkin, S. (1998). Inside OMB.

[4] Stockman, D. (1986). The triumph of politics: how the Reagan revolution failed. New York, NY: Harper &Row.

[5] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 309.

V.Filip Gramm, Uoren B.Rudman va Ernest F.Xollings hissa qo'shadilar.

Gramm-Rudman-Xollings "sekvestr" deb nomlangan yangi bir tizimm yaratdilar. Ushbu tizim byudjet kamomadini qisqartirishga erishib bo'lmagan hollarda byudjetning hajmini kamaytirishga mo'ljallangan. Qisqartirilgan byudjetning yarmi ijtimoiy yordamga, qolgan qismi mahalliy dasturlarga ajratilgan. Lekin Gramm-Rudman Xollings tomonidan taklif etilgan sekvestrlash usuli ham taqchillik muammosini bartaraf eta olmadi.[1]

Davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish usullaridan biri mamlakat hukumati tomonidan aholidan, milliy xo'jalik yurituvchi subyektlardan, xorijiy davlatlar hukumatlaridan, xalqaro moliya tashkilotlaridan va yirik tijorat banklaridan qarz olish hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, davlat byudjeti taqchilligini qisqartirishning ushbu usuli eng nozik, shuning bilan bir vaqtda, zamonaviy usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan foydalanadigan mamlakat hukumati o'z nomidan davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish orqali milliy va xorijiy valyutadagi mablag'larni jalb etadi. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlardan Gretsiya, Portugaliya, Ispaniya va Italiyada markaziy hukumat tomonidan davlat byudjeti taqchilligini qisqartirish maqsadida muomalaga davlat obligatsiyalarini chiqarish va ularni xorijiy sarmoyadorlar o'rtasida joylashtirish ishlari faol olib borilmoqda.

Davlat byudjeti taqchilligini boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish davlat byudjetini sog'lomlashtirishda muhim o'rin egallaydi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Byudjet holatlariga xarakteristika bering.*

*2. Byudjet defitsiti, deb nimaga aytiladi? Byudjet defitsitini keltirib chiqaruvchi omillar qaysilar?*

---

[1] Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P. 310.

*3. Iqtisodiy rivojlanishning turli davrlarida O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan byudjet defitsitining sabablarini aniqlang. Hukumatning qanday tadbirlari byudjet defitsiti muammosining hal qilinishiga qaratildi?*

*4. Byudjet defitsitining zamonaviy konsepsiyalarining asosiy mazmuni nimadan iborat?*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Byudjet defitsiti muammolariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar katalogini tuzing va ularga qisqacha annotatsiya yozing.*

*2. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari, xarajatlari va byudjet defitsitining dinamikasini aks ettiruvchi ma'lumotlarni to'plang, ularni jadval (diagramma, grafik) tarzida rasmiylashtiring va qisqacha xulosa yozing.*

*3. Internet resurs manbalaridan foydalanib, xorijiy davlatlar byudjetlarining holati to'g'risida taqdimot tayyorlang.*

# 12-BOB. BYUDJET JARAYONI

## 12.1. O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etish asoslari va byudjet jarayoni bosqichlari

Ma'lumki, 2000-yil 14-dekabrda qabul qilinib, 2013-yilga qadar amalda bo'lgan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni mamlakatimizda byudjet jarayonini tartibga solib turuvchi asosiy qonuniy-huquqiy hujjat sifatida xizmat qilib keldi. Keyingi yillar davomida mamlakat davlat moliya tizimini boshqarish tizimida amalga oshirilgan islohotlar doirasida byudjet amaliyotida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ldi va ular byudjet qonunchiligini yanada takomiliashtirish zarurligini taqozo etdi.

Natijada amaldagi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi hamda 2004-yil 26-avgustda qabul qilinib, 2006-yildan boshlab amal qilib kelgan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda 2013-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasining O'RQ-360-sonli qonuni bilan qabul qilingan Byudjet Kodeksida o'z aksini topdi.

2014-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida amalga kiritilgan yangi Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni va demak, byudjet jarayonini

*Byudjet jarayoni* - byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni.

tashkil qilish borasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Byudjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va byudjet tuzilishi, tegishli vakolatli organlar va yuridik shaxslarning byudjet huquqlari bilan belgilanadi.

Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

– byudjet loyihasini tuzish;
– byudjetni ko'rib chiqish va qabul qilish;
– byudjetni ijro etish va nazorat qilish;
– byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.




12.1-rasm. **Byudjet jarayoni bosqichlari**

Byudjet jarayoninng davomiyligi yuqoridagi ketma-ketlikda amalga oshiriluvchi va byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan bosqichlardan iborat bo'lib, odatda, bir byudjet yilidan ancha avval boshlanib (6-8 oy), byudjet yili tugaganidan keyingi bir necha oyni o'z ichiga oladi.

*Byudjet jarayoni ishtirokchilari* bo'lib davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari hamda byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar byudjet jarayonida qatnashadilar. Ular byudjet qonunchiligi bilan zimmalariga yuklatilgan vakolatlari doirasida byudjetni tuzish, qabul qilish, ijro etish, nazorat qilish va boshqa jarayonlarda ishtirok etadilar.




12.2-rasm. **Byudjet jarayoni ishtirokchilari**

O'zbekiston Respublikasida byudjet yili kalendar yiliga mos keladi va 1-yanvarda boshlanib, 31-dekabrda tugaydi. Lekin dunyoning turli mamlakatlarida byudjet yili kalendar yilining turli davrlariga to'g'ri keladi. Bu odatda, ularning qonun chiqaruvchi organlari sessiyalarini o'tkazish davri, shu mamlakatda qaror topgan tarixiy an'analar, muhim sanalar bilan bog'liq. Masalan, Fransiya, Germaniya, Italiya, Avstriya, Braziliya, Xitoy, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida (dunyoning aksariyat ko'pchilik davlatlarida) byudjet yili 1-yanvardan, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada, Hindiston, Quvayt, Smgapur, Janubiy Afrikada – 1-apreldan, Sbvetsiya, Norvegiya, Pokiston, Avstraliyada – 1-iyuldan boshlanadi.

## 12.2. Davlat byudjeti loyihasini tuzish

Byudjet jarayoni *byudjetni rejalashtirishdan* boshlanadi. Byudjetni rejalashtirish davlat moliyaviy siyosati talablariga muvofiqlashtirilgan moliyaviy rejalashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bunday rejalashtirishning asosiy maqsadi turli darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari davlat maqsadli jamg'armalarini tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umummilliy dasturlari asosida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini moliya tizimi bo'g'inlari o'rtasida markazlashtirilgan tarzda qayta taqsimlash nishatlarini to'g'ri belgilashdan iborat.

Byudjetni rejalashtirishda quyidagi me'yorlarga rioya qilinadi:




12.3-rasm. **Byudjetni rejalashtirishning asosiy tamoyillari**

Byudjetni rejalashtirish turli darajadagi byudjetlarni tuzish va ijro etish tartibi, uning me'yoriy-huquqiy bazasi va tashkiliy asosi tarzida byudjet jarayonini, shuningdek, mamlakat byudjetini tuzishning nazariyasi va metodologiyasi masalalarini ham o'z ichiga oladi. Byudjetni rejalashtirish asosiari mamlakat Konstitutsiyasi va qonunlari bilan belgilanadi.

*Davlat byudjeti loyihasini tuzish.* Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va moliya yili uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari asosida tuziladi.

Davlat byudjeti loyihasini tuzish uchun mas'ul organlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, shuningdek, byudjetlar loyihalarini tuzish, Moliya vazirligi so'ragan axborot va ma'lumotlarni taqdim etishga taalluqli qismi bo'yicha – vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

Byudjet loyihasini tuzish quyidagilarni nazarda tutadi:

– byudjet so'rovini tuzish tartibini yuborishni;

– byudjet so'rovlarini hamda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini tayyorlash va taqdim etishni;

– byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish va jamlashni;

– byudjetnomani ishlab chiqishni.

*Byudjet so'rovi* – kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutuvchi hujjat bo'lib, kelgusi davr uchun byudjet buyurtmasini o'z ichiga oladi. Byudjet so'rovini tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

*Byudjet buyurtmasi* byudjet tashkiloti, byudjetdan mablag' oluvchi yoki byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan tuziladi va tegishli moliya organiga byudjet so'rovini taqdim etish muddatidan kechiktirmasdan taqdim etiladi. Byudjet buyurtmasida o'tgan va joriy yillar uchun hamda kelgusi uch yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar byudjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili 15 *aprelga qadar* kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini:

– O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti loyihasini tayyorlash uchun – respublika byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti hamda viloyatlar va Toshkent shabar mahalliy byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga;

– davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun – davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga yuboradi.

Bu organlar kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng *uch ish kuni ichida* tegishli byudjet so'rovlarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari yuqorida nomi keltirilgan organlar tomonidan tegishli qarorlar qabul qilinganidan so'ng *uch ish kuni ichida* kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini:

– tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish uchun – tuman va shahar hokimlariga;

– byudjet so'rovlarini tuzish uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarga yuboradi.

Tuman va shahar hokimlari kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini olgandan so'ng *uch ish kuni ichida* tegisbli byudjetlar loyihalarini tuzish to'g'risida va ularni tayyorlash muddatlarini belgilash haqida qarorlar qabul qiladi.

Tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari yuqoridagi qarorlar qabul qilinganidan so'ng *uch ish kuni ichida* kelgusi davr uchun byudjet so'rovini tuzish tartibini tumanlar va shaharlar byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet

tashkilotlarga va byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjet so'rovlarini tuzish uchun yuboradi.

Byudjet so'rovlarini ko'rib chiqish tartibi va tegishli vakolatli organlarga taqdim etish muddatlari quyidagi chizmada ko'rgazmali ravishda aks ettirilgan (12.4-rasm).

12.4-rasm. **Byudjet so'rovlarini taqdim qilish va ko'rib chiqish tartibi**

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat

qo'mitalari hamda idoralarning davlat byudjeti loyihasining daromad qismi bo'yicha takliflarini ko'rib chiqadi.

Kelgusi moliya yili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, shuningdek, tumanlar va shaharlar byudjetlarining loyihalarini tayyorlash va taqdim etish muddatlari quyidagi rasmda aks ettirilgan (12.5-rasm).

| Qaysi byudjet | Kim tomonidan taqdim etiladi | Qaysi organga taqdim etiladi | Qaysi muddatda |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlari byudjetlari | tumanlar va shaharlar hokimliklari moliya bo'limlari | Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq joriy yilning 25-iyunidan kechiktirmay |
| Viloyatlar tumanlari va shaharlari byudjetlari | | Viloyatlar hokimliklari moliya boshqarmalariga | |
| Toshkent shahar tumanlari byudjetlari | | Toshkent shahar hokimligi moliya boshqarmasiga | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti | Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga | joriy yilning 1-iyulidan kechiktirmay |
| Viloyatlar byudjetlari | Viloyatlar hokimliklari moliya boshqarmalari | | |
| Toshkent shahar byudjeti | Toshkent shahar hokimligi moliya boshqarmasi | | |

12.5-rasm. **Mahalliy byudjetlar loyihalarini tayyorlash va taqdim etish muddatlari**

Davlat byudjetining loyihasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ishlab chiqadi. Byudjet loyihasini ishlab chiqishga quyidagilar asos qilib olinadi:

– makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari;

– davlat byudjeti daromadlari prognozlari;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari loyihalari.

Davlat byudjeti loyihasi *byudjetnoma* – erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davr uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadigan hujjat asosida shakllantiriladi.

Byudjetnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning joriy yilgi yakunlarining prognoz bahosi;

– davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi;

– davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari joriy yildagi ijrosining prognoz bahosi;

– soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihasi;

– davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasi;

- davlat qarzining holati to'g'risidagi ma'lumotlar;

– soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasiga doir tushuntirish xati.

### 12.3. Byudjet loyihasini ko'rib chiqish va qabul qilish

Byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga – *joriy yilning 15 sentabriga qadar* kiritiladi. Vazirlar Mahkamasi byudjetnomani O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga

xulosa taqdim etishi uchun – *joriy yilning 20 sentabriga qadar* kiritadi. Hisob palatasi Vazirlar Mahkamasiga soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari, davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihasi bo'yicha ikki haftalik muddatda xulosa taqdim etadi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga – O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan *joriy yilning 15 oktabridan* kechiktirmay kiritiladi.

12.6-rasm. **Byudjetnomaning taqdim etilishi va qabul qilinishi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan Byudjetnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi. Oliy Majlis palatalari davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini hamda navbatdagi yil uchun soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining navbatdagi yil uchun davlat byudjeti to'g'risidagi qarorlarini

ijro etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinadi, ushbu qaror bilan:

– asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi;

– davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining asosiy parametrlari;

– davlat byudjeti taqchilligining cheklangan miqdori va uni qoplash manbalari;

– davlat maqsadli jamg'armalarining asosiy parametrlari;

– soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari miqdorlari;

– mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari hajmlari, respublika byudjetidan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlarning cheklangan miqdorlari;

– umumdavlat soliqlari tushumlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga ajratmalarning normativlari va Byudjet Kodeksining 98-moddasida belgilangan boshqa ko'rsatkichlar tasdiqlanadi.

| Qaysi byudjet qabul qilinadi | Kim tomonidan qabul qilinadi | Qaysi muddatda qabul qilinadi |
|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti | Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qaroni qabul qilingandan so'ng ***bir haftalik muddatda*** |
| Viloyatlar mahalliy byudjetlari | Xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari | |
| Toshkent shahar mahalliy byudjeti | Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi | |
| Tumanlar va shaharlar byudjetlari | Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari | Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari qabul qilinganidan keyin ***uch ish kuni ichida*** |

12.7-rasm. **Mahalliy byudjetlarning qabul qilinishi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va Davlat byudjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir qarori qabul qilingandan so'ng byudjet tizimining tegishli byudjetlari qabul qilinadi. Bu byudjetlar qaysi organ tomonidan va qanday muddatlarda qabul qilinishi quyidagi rasmda aks ettirilgan (12.7-rasm):

Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanganidan keyin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlari va xarajatlari hajmlarini, shuningdek, ularga O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan beriladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar va maqsadli ijtimoiy transfertlarning hajmlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari e'tiboriga – *uch ish kuni ichida*, byudjet mablag'larini taqsimlovchilar uchun belgilangan daromadlar va xarajatlarning hajmlarini ularning e'tiboriga – *o'n ish kuni ichida* yetkazadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari qabul qilingandan keyin tegishli moliya organlari *bir haftalik muddatda* Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan hamda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar e'tiboriga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi.

### 12.4. Byudjetni ijro etish va nazorat qilish

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi. Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi byudjet to'g'risidagi qonun buyjatlarida belgilangan byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va

xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek, ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi.

Byudjet ijrosini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona axborot tizimida byudjet tizimi byudjetlari, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi.

Davlat byudjetining ijrosini ta'minlashda quyidagi masalalar hal etiladi:

- davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish
- davlat byudjeti mablag'larini sarflash

- qabul qilingan davlat byudjeti bo'lmagan taqdirda byudjetni ijro etish
- byudjetdan ajratiladigan mablag'larga o'zgartirishlar kiritish

- davlat byudjetini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish
- davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish

- davlat byudjetining g'azna ijrosini ta'minlash
- davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish

12.8-rasm. **Davlat byudjetining ijrosini amalga oshirish tadbirlari**

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar o'z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larni moliya yili tugaguniga qadar sarflaydilar.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet tizimi byudjetlarining qo'shimcha vaqt davridagi ijrosi bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi.

Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari byudjetning daromadlar va xarajatlar yoyilmasida nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida hamda byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar faoliyat

ko'rsatishini ta'minlaydigan muddatlarda, daromadlarning tushishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Byudjet Kodeksining 117-moddasida byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi (12.9-rasm).




12.9-rasm. **Byudjet tizimi byudjetlari daromadlari ijrosini tashkil etish**

Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga daromadlarni yig'isbga vakolatli bo'lgan organlar va tashkilotlar (bundan davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlari mustasno) daromadlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi, shuningdek, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organiga hisobot taqdim etishi shart.

Byudjet ijrosi jarayonida byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarga turli darajadagi byudjetlardan byudjet mablag'larini ajratishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari davlat byudjeti ijrosini nazorat qilishda:

– turli darajadagi byudjetlar ijrosi yakunlarini ko'rib chiqadi;

– turli darajadagi byudjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlardan axborotlar oladi;

– byudjet mablag'lari oluvchilardan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning tushumi va sarfi to'g'risida ma'lumotlarni talab qilib oladi;

– qonun hujjatlariga muvofiq banklardan byudjet mablag'lari harakati to'g'risida ma'lumotlar oladi;

– o'z vakolatlari doirasida byudjet mablag'lari oluvchilarning moliya xo'jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi.

Byudjet Kodeksining 120-moddasiga ko'ra byudjet tizimi byudjetlari xarajatlar qismining ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi (12.10-rasm).




12.10-rasm. **Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari ijrosini tashkil etish**

Joriy moliya yilining byudjet tizimi byudjetlariga tushumlarni kiritish bilan bog'liq bo'lgan barcha operatsiyalar joriy moliya yilining oxirgi ish kunida yakunlanadi.

Davlat byudjetiga kelgusi yilda kiritilgan daromadlar yangi boshlangan yil daromadlari hisoblanadi. Davlat byudjeti

daromadlari bo'yicha 286tranzit hisobvaraqlariga joriy yilning oxirgi ish kuni tugaguniga qadar kiritilgan va yangi boshlangan yilning uch ish kuni mobaynida Yagona g'azna hisobvarag'iga o'tkazilgan daromadlar o'tgan yilning daromadlari hisoblanadi.

Joriy yilning Davlat byudjetidan barcha to'lovlar moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri tugaganidan so'ng yakunlanadi.

Qo'shimcha vaqt davrida joriy moliya yili uchun Davlat byudjetini ijro etish bo'yicha operatsiyalar amalga oshiriladi, jumladan:

– byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish;

– byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning kreditorlik qarzlarini to'lash;

– byudjet tashkilotlari tomonidan iqtisod qilingan mablag'lar summalarini byudjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalariga o'tkazish va b.

## 12.5. Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash

*Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat byudjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

Respublika byudjetidan xarajatlari rejalashtirilgan byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan hamda mahalliy byudjetlardan xarajatlari rejalashtirilgan byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan muddatlarda taqdim

etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga *hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha* taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tashqi audit o'tkazish va baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga *hisobot yilidan keyingi yilning 5-apreligacha* yuboradi. Hisob palatasi yillik hisobotga doir xulosani hisobot yilidan keyingi yilning *10-mayidan kechiktirmay* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuboradi.

Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning *15-mayidan kechiktirmay* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

12.11-rasm. **Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash**

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hisobot davri uchun taqdim etilgan davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlar guruhlari va qo'mitalarida muhokama qilish asosida ko'rib chiqadi. Ko'rib chiqilgan yillik hisobot Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori bilan tasdiqlanadi, shundan keyingina davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy web-saytiga joylashtiriladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Byudjet jarayoni nima, u qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?*

*2. Byudjet so'rovi nima, uni taqdim etish muddatlari qanday?*

*3. Byudjetnoma o'z ichiga qanday hujjatlarni oladi?*

*4. Byudjetni ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayonining tadbirlarini aytib bering.*

*5. Byudjetni daromadlar va xarajatlar bo'yicha ijro etish tartiblari qanday?*

*6. Davlat byudjetining g'azna ijrosini tashkil etish xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?*

*7. Byudjet nazorati, deb nimaga aytiladi? Byudjet nazoratini amalga oshiruvchi organlarning qanday vakolatlari bor?*

*8. Davlat byudjeti ijrosi yuzasidan hisobotlarni to'plash, taqdim etish va tasdiqlash qanday muddatlarda amalga oshiriladi?*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. Byudjet jarayoni bosqichlarini aks ettiruvchi chizma tayyorlang va izohlab bering.*

*2. Byudjetni tuzish va tasdiqlash jarayonini ko'rsatuvchi jadval ishlab chiqing va u asosida tagdimot tayyorlang.*

*3. "Public budgeting systems" (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) o'quv qo'llanmasi asosida xorijiy mamlakatlarda byudjet jarayonini tashkil etish xususiyatlari to'g'risida ma'lumot tayyorlang.*

# 13-BOB. DAVLAT BYUDJETI G'AZNA IJROSINI TASHKIL QILISH

## 13.1. Davlat byudjeti g'azna ijrosining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimida olib borilayotgan islohotlar, qator vazifalar bilan birgalikda davlat byudjetining g'azna ijrosiga bosqichma-bosqich o'tishni va uning faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bunda zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida davlat mablag'larining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash, uzatish usullarini o'zlashtirish asosida davlat moliyasini boshqarishning samarali usul va vositalarini shakllantirish va muvofiq holda ishlashini ta'minlashga erishiladi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining barcha daromadlarini, shuningdek, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha tushumlarini yagona g'azna hisobraqamiga jamlash va ularning barcha xarajatlarini shu hisobraqamdan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, davlat qarzlari va ularga xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkor nazoratini va monitoringini olib borish, davlat mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlash, davlat moliyaviy resurslarining harakati to'g'risida operativ tarzda ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g'azna ijrosi mexanizmlarini samarali tatbiq etishga faqatgina barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga erishganimizdan keyin, ya'ni 2000-yillarning boshlariga kelibgina muvaffaq bo'lindi. Lekin davlat

byudjetining g'azna ijrosini joriy etish keng qamrovli, murakkab masala bo'lib, bir necha o'n yillardan beri amal qilib kelgan, taraqqiyotimizning ma'lum bosqichiga kelib yetarlicha samara bermay qo'ygan byudjetning kassaviy ijrosidan sifat jihatidan mutlaqo yangi bo'lgan g'azna ijrosiga o'tish o'zaro bog'liq bo'lgan qator masalalarni hal qilishni talab etdi. Xususan:

*huquqiy jihatdan* – davlat byudjeti g'azna ijrosiga o'tish va amal qilishining qonuniy-huquqiy asoslarini yaratish va takomillashtirish;

*tashkiliy jihatdan* – Moliya vazirligi tarkibida maxsus ixtisoslashgan g'aznachilik tuzilmasini, shuningdek, uning hududiy va mahalliy bo'linmalarini tashkil etish;

*uslubiy jihatdan* – g'aznachilik faoliyatining uslubiy asoslarini shakillantirish, hisob va hisobot tizimini qayta tuzish, Yagona g'azna hisobvarag'ini ochish va yuritish;

*texnik va texnologik jihatdan* – davlat moliyasining holati bo'yicha katta hajmdagi axborotni to'plash va qayta ishlashga imkon beradigan samarali faoliyat qiluvchi integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan tizimni yaratish va joriy qilish;

*kadrlar ta'minoti jihatidan* – Moliya vazirligi tizimidagi moliya organlarining hamda byudjet tashkilotlarining xodimlarini va buxgalterlarini g'aznachilik sharoitlarida ishlash bo'yicha qayta o'qitish va malakasini oshirish.

Mamlakatimizda davlat byudjetining g'azna ijrosiga o'tishgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning topshirig'iga muvofiq bir qancha tijorat bankleri *davlat byudjetining kassaviy ijrosini* amalga oshirib keldilar. 2000-yil 14-dekabrda qabul qilinib, 2014-yil 1-yanvarda O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi amalga kiritilguncha qadar byudjet amaliyotining huquqiy asosini tashkil qilib kelgan O'zbekiston Respublikasi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunining 37-moddasida "Davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek, uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O'zbekiston

Respublikasi Markaziy banki tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Davlat byudjetining kassa ijrosi operatsiyalarini banklar Markaziy bankning topshirig'iga binoan bajaradi", - deb belgilab qo'yilgan edi. Bunda byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari ularga xizmat ko'rsatuvchi banklarda ular uchun ochilgan bank hisobvaraqlariga tegishli moliya organlarining ruxsati bilan tegishli byudjetdan o'tkazib berilgan byudjet mablag'lari doirasida tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan to'lov topshiriqnomalari bo'yicha amalga oshirib kelindi.

Byudjet ijrosining bunday tartibida byudjetdan mablag' oluvchilarga o'tkazib berilgan byudjet mablag'larining keyingi taqdiri butunlay foydalanuvchilarning ixtiyoriga bog'liq bo'lib qoldi. Ajratilgan mablag'lardan qay darajada samarali va oqilona foydalanilganligini esa faqatgina buxgalteriya hisobotlari orqali so'nggi nazorat usullaridan foydalangan holda tekshirish mumkin edi.

Bu amaliyot bir necha o'n yillar mobaynida byudjet ijrosida ma'lum darajadagi samara bilan qo'llanildi. Lekin keyingi yillarda davlat byudjetining kassaviy ijrosi davlat mablag'larini boshqarish, byudjet ijrosini tashkil qilish va nazoratini olib borish, mablag'larning samarali ishlatilishini ta'minlash masalalarida bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar byudjet daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi axborotlarning yetarli darajada operativ (tezkor) emasligi, soliqli daromadlarning byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish jarayonlarini samarali tartibga solish va daromadlar tushumini jadallashtirishning zarurligi, byudjet ajratmalarining hajmlari bilan so'nggi iste'molchilarga haqiqatda to'langan to'lovlar ko'rsatkichlarining tarqoqligi tufayli mablag'larning tushumi va sarflanishi ustidan yagona nazorat olib borishning murakkabligi, byudjet tashkilotlarining hisobraqamlarida ishlatilmayotgan byudjet mablag'larining turib qolishi, byudjet mablag'larining ajratilishi bilan ularning

bo'nggi iste'molchilarga yetib borishigacha bo'lgan vaqtning uzoqligi, davlat mablag'lari harakatining murakkablashuvi va hajmlarining ortib borishi bilan ulardan oqilona foydalanish ustidan dastlabki nazoratning va joriy monitoringning zaruriligi va boshqa omillar bilan bog'liq edi.

Sanab o'tilgan muammolar kecha yoki bugun yuzaga chiqmadi, ular yillar davomida yig'ilib, tezkor sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan jamiyat taraqqiyotiga halaqit bera boshladi. Byudjet ijrosi ustidan nazoratning sustligi, mablag'larni operativ boshqarish imkoniyatining kamayib borayotganligi, byudjet ijrosi to'g'risidagi tezkor va aniq ma'lumotlarni olish, jamlash, qayta ishlash va byudjet masalalari bo'yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi qiyinchiliklar davlat moliyasini boshqarish tizimida islohotlar qilishni, byudjet mablag'larini boshqarishning samarali usul va vositalarini izlab topib, tatbiq etishni talab etdi va davlat byudjetining kassaviy ijrosidan g'azna ijrosiga o'tishning zarurligini belgilab berdi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy qilishning huquqiy asosini yaratish maqsadida 2004-yil 26 avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi 664-II-sonli qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda ko'rsatilishicha, "Davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga kiritishdan, shuningdek, davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobraqamdan to'lashdan iborat". Keyinchalik ushbu ta'rif gazna ijrosi bilan qamrab olingan jarayonlarning kengayishi bilan aniqlashtirildi va boyitildi.

*Davlat byudjeti g'azna ijrosi* deganda davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari fondlarning mablag'lari to'planadigan va ushbu mablag'lar doirasida aniq belgilangan yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g'azna hisobraqami orqali davlat byudjetining ijro etilishi hamda shu orqali davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish jarayoni tushuniladi

Qonun bilan davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy tamoyillari sifatida kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligi belgilab qo'yildi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi, ya'ni Moliya vazirligi Gaznachiligi hamda uning Qorag'alpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat moliyasini boshqarishning institutsional tarkibida, boshqa vakolatli organlar bilan bir qatorda G'aznachilik ham alohida muhim o'rin egallaydi. G'aznachilik – byudjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatlarini ijroga qabul qiladi, byudjet tashkilotlariga yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun ularning nomidan va ularning topshirig'iga binoan vakolatni o'z zimmasiga oladi, byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini ta'minlash va nazorat qilish asosida byudjet tashkilotlarining mol yetkazib beruvchilarga to'lovlarini amalga oshiradi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish ishlari bir necha bosqichlarda amalga oshirildi, ularni xronologik jihatdan quyidagicha tavsiflash mumkin (13.1-jadval):

➤ *2002-yilda* hukumat qarori bilan "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasi"[1] ma'qullandi hamda uni tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha mas'uliyat Moliya vazirligiga yuklatildi. Mazkur loyihaning maqsadi "davlat moliyasini boshqarishni takomiliashtirish, zamonaviy

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora tadbirlari to'g'risida"gi 144 sonli (26.04.2002) qarori.

kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash, byudjet ijrosining yangi tizimini yaratishdan iborat"[1] bo'ldi.

➤ *2004-yilda* O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonunini qabul qilindi. Bu qonun byudjet xarajatlarini bosbqarisb va nazorat qilish jarayonlariga keskin o'zgartirishlar kiritdi. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalarining) va byudjet tasbkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'ldi. Ushbu qonunning qabul qilinisbi bilan byudjetdan mablag' oluvchilar va ularga mol (tovarlar, ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalarni G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazish hamda ularning xarajatlarini to'lashga yo'naltirilgan byudjet mablag'larining harakatini nazorat qilish uchun huquqiy va tasbkiliy shart-sbaroit yaratildi.

➤ *2005 yilda* Moliya vazirligi tarkibida Davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy qilisb va uslubiyoti boshqarmasi tashkil etildi. Davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy etish: g'aznachilik faoliyatining uslubiy asoslarini shakllantirisb, hisob va hisobot tizimini qayta tuzish, yagona g'azna hisobvarag'im ochish va shu kabi masalalar Uslubiyot boshqarmasi faoliyatining diqqat markazida bo'ldi va byudjetning g'azna ijrosi metodologiyasini yaratisbga qaratildi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-sonli (26.04.2002) qarori, 3-band.

*13.1-jadval*

**O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti g'azna ijrosini tatbiq etish bosqichlari**

| Yillar | Amalga oshirilgan tadbir | Asos |
|---|---|---|
| **2002-yil** | Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirish boshlandi | O'zR VMning "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144 sonli qarori (26.04.2002) |
| **2004-yil** | Davlat byudjeti g'azna ijrosining qonuniy huquqiy asosi yaratildi | O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjeti g'azna ijrosi to'g'risida"gi 664-II sonli qonuni (26.08.2004) |
| **2005-yil** | Samarqand viloyati, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida g'aznachilik tizimini joriy qilish bo'yicha tajriba loyihasi boshlandi | O'zR VMning "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144 sonli qarori (26.04.2002) |
| **2006-yil** | Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida davlat byudjeti g'azna ijrosi bosqichma-bosqich joriy qilindi | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2006-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-244 sonli qarori (27.12.2005) |
| **2007-yil** | Barcha hududlarda davlat byudjeti g'azna ijrosi joriy qilindi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tuzildi | O'zR Prezidentining "Davlat byudjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594 sonli qarori (28.02.2007) |
| **2009-yil** | Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari fondlarning g'azna ijrosi joriy qilindi, byudjet | O'zR Prezidentining "2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va |
| | tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromad va xarajatlari g'azna ijrosi yo'lga qo'yildi | davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2008-yil 29-dekabr PQ-1024 sonli qarori |
| **2010-yil** | Tajriba tarqasida davlat byudjetining bojxona orqali tushuvchi daromadlari ijrosi g'aznachilik orqali amalga oshirila boshladi | O'zR Prezidentining "2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 2009-yil 22-dekabr PQ-1245 sonli qarori |
| **2011-yil** | Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasining ishchi organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi deb belgilandi | O'zR Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini muqobillashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-1475 sonli qarori (17.02.2011) |
| **2012-yil** | Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idan amalga oshirila boshlandi | Tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida |

➤ *2007 yilda* respublikaning barcha hududlarida davlat byudjetining g'azna ijrosi elementlari joriy etildi, davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga ko'ra barcha xarajat guruhlari bo'yicha ijrosi g'aznachilik bilan qamrab olindi. Shuningdek, 2007-yilda Moliya vazirligi Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish va usluhiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining g'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi.

➤ *2009-yilda* davlat byudjeti bilan birgalikda davlat maqsadli jamg'armalarining ham ijrosi G'aznachilik bilan qamrab olindi. Bu maqsadda davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari harakatini ta'minlovchi tegishli banklardagi ularning hisobraqamlari yopilib, G'aznachilikda ular uchun shaxsiy hisobraqamlar ochildi va ularning daromadlari tushumi va xarajatlari to'lovi shu hisobraqamlardan amalga oshirila boshlandi.

➤ *2010-yildan* boshlab tajriba tariqasida davlat byudjetiga bojxona orqali tushuvchi daromadlar ijrosi g'aznachilik bilan qamrab olindi;

➤ *2011-yildan* boshlab yangi byudjet tasnifiga asoslangan, davlat byudjeti g'azna ijrosini amalga oshirishga xizmat qiluvchi "G'aznachilik" dasturiy majmuyi ishga tushirildi.

➤ *2011-yilning* 7-fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari tizimini muqobiliashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb qilishni kengaytirish to'g'risida"gi PQ 1475-sonli qarori qabul qilindi. Ushbbu qarorda ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat xaridlari bo'yicha hukumat komissiyasi tashkil qilindi va uning ishchi organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi belgilandi. G'aznachilik tashkiliy tuzilmasi tarkibida esa "Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni monitoringi axborot-tahlil bo'limi" tarkib topdi.

➢ *2012 yilning 1-yanvaridan* boshlab O'zbekiston Respublikasi "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonuni talablaridan kelib chiqib, Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari G'aznachilikning Yagona g'azna hisobvarag'idan amalga oshirila boshlandi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan davlat byudjetiga o'tkaziladigan soliqlar va majburiy to'lovlar banklar tomonidan qabul qilinadigan va belgilangan tartibda 23402-, 23403-, 23407-, 23409-, 20207-, 20205- va 23411-sonli balans hisobraqamlarda ochilgan shaxsiy hisobraqamlarga (ShHR) kirim qilinadigan va ular hisobidan tegishli byudjetlar va davlat maqsadli jamg'armalari hisobiga belgilangan miqdorlarda ajratmalar amalga oshiriladigan tartib joriy etildi.

## 13.2. Davlat byudjeti g'azna ijrosining huquqiy asoslari va tashkiliy elementlari

Davlat byudjeti g'azna ijrosining huquqiy asoslarini shakliantirish boradida dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 26-aprelda "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur loyihani amalga oshirishga Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 400,0 ming AQSh dollari miqdorida mablag' ajratildi. Shuningdek, "Yaponiya hukumati tomonidan O'zbekiston Respublikasida moliya axborot tizimining funksional va texnikaviy tuzilmasini ishlab chiqishga"[148] 500,0 ming AQSH dollari miqdorida grant ajratilishi ko'zda tutildi.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasing maqsadi davlat moliyasini boshqarishni takomillashtirish, zamonaviy kompyuterlar va axborot texnologiyalaridan

[148] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini amalga oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144 sonli (26.04.2002) qarori, 1 band.

foydalangan holda byudjet mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash, byudjet ijrosining yangi tizimini yaratishdan iborat bo'ldi, uni amalga oshirish yuzasidan mas'uliyat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatildi.

Davlat moliyasini isloh qilish hamda davlat byudjeti g'azna ijrosining huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha muhim qadamlardan biri 2004-yil 26-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetimng g'azna ijrosi to'g'risida"gi 664-II sonli qonunimng qabul qilimshi bo'ldi. Ushbu Qonun davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalarimng hamda byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining g'azna ijrosi sohasidagi munosabatlarini tartibga solishga qaratildi. Unda davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish va g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq holatlar, jumladan, davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy prinsiplari, davlat byudjetimng g'azna ijrosi muddatlari, G'aznachilikning asosiy vazifalari, G'aznachilikning boshqa organlar va tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlari, davlat byudjeti mablag'larini boshqarish, davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini tashkil qilish, byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni yuritish bilan bog'liq masalalar o'zining huquqiy asosiga ega bo'ldi.

"Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarim boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida"[149] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevralda "Davlat byudjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594 sonli qarori qabul qilindi. Ushbu

[149] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi "Davlat byudjeti g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594 sonli qarordan.

qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish va uslubiyot boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining G'aznachilik bo'linmalari negizida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Shuningdek, mazkur qaror bilan G'aznachilikning asosiy vazifalari belgilab berildiki, ular "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi qonunda aks etgan G'aznachilikning vazifalariga yanada aniqlik kiritdi.

2007 yil 20-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 53-sonli qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida Nizom" qabul qilindi. Mazkur Nizom G'aznachilikning asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va javobgarligini belgilab berdi.

Keyingi yillarda ham davlat byudjeti g'azna ijrosining me'yoriy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 69-sonli (04.08.2009) buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2007 son (16.09.2009) bilan ro'yxatga olingan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalari"ning qabul qilinishi muhim qadam bo'lib xizmat qildi. Mazkur Qoidalar Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan respublika va hududiy g'azna hisobvaraqlarini qo'llash sharoitida respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilab berdi. Xususan, ushbu Qoidalar muqaddam amal qilib kelgan bir qator me'yoriy hujjatlarni o'zida mujassamlashtirgan holda quyidagilarni belgilab berdi:

- G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari tomonidan respublika va hududiy g'azna hisobraqamlarini qo'llash sharoitida respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi

byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini amalga oshirish tartibi;

– respublika g'azna hisobraqami va hududiy g'azna hisobraqamlarini yuritish tartiblari,

– Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarining yoyilmasi;

– byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalarini va ularga o'zgartirishlarni g'aznachilik bo'linmalariga taqdim etish tartiblari,

– yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olishning umumiy qoidalari,

– byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga xarajatlarni amalga oshirish tartiblari va boshqalar.

2007-yil 30 avgustda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 119 sonli buyrug'i bilan "Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha funksiyalarni chegaralash to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning g'azna ijrosini tashkil etish borasida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari (G'aznachilikdan tashqari) hamda hududiy moliya organlari zimmalaridagi funksiyalar bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari zimmalariga qo'yilgan funksiyalarini chegaralab berdi. Bu esa byudjet siyosatini amalga oshirishga mutasaddi bo'lgan bir nechta davlat moliyasini boshqarish organlarining faoliyati bir-birini takrorlamasligini ta'minladi.

Ma'lumki, byudjet tizimidagi islohotlar doirasida ishlab chiqilgan va 2014-yildan boshlab amalga kiritilgan Byudjet kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini

belgilab olish, byudjet mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu Kodeksning g'aznachilik faoliyati bilan bog'liq alohida qismi davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil etish, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish, byudjetdan mablag' oluvchilar xarajatlari to'lovini amalga oshirish, davlat xaridlarini tashkil qilish, G'aznachilikning yagona g'azna hisobraqamini yuritish kabi masalalarni tartibga solishga qaratilgan.

Keyingi yillarda davlat byudjetining g'azna ijrosini tashkil qilish va G'aznachilik faoliyatining samaradorligini oshirish borasida ham qator o'zgarishlar amalga oshirildi, keng imkoniyatlar hayotga tatbiq etilmoqda. Bunday o'zgarishlar o'zining mustahkam huquqiy ta'minotiga ega bo'lib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 22-noyabrdagi 88-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda 2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari"[150] Yagona g'azna hisobvarag'ini qo'llash orqali O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlari va boshqa maqsadli jamg'armalar byudjetlarining maxfiy xususiyatga ega bo'lmagan daromad va xarajatlarining g'azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilab berdi. Ushbu Qoidalar 2009-yilda qabul qilingan 2007-sonli "Davlat byudjetining g'azna ijrosi Qoidalari"ning takomillashuvi asosida qabul qilindi. 2850-sonli Qoidalarga ham o'zgartirishlar kiritilishi[151] natijasida byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan hujjatlarni qog'oz shaklida tasdiqlangan holda g'aznachilik bo'linmalariga olib kelish va

---

[150] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2017-y., 10/17/2850-1/0476 son

[151] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2017-yil 20-noyabrdagi 159-sonli "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi buyrug'i. Adliya vazirligida 2017-yil 29-dekabrda 2850-1-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

ushbu hujjatlarning ro'yxatdan o'tkazilishini uch ish kuni kutish amaliyotiga chek qo'yildi. Byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosiga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy qilinishi orqali 2018-yil 1-yanvardan boshlab byudjet tashkilotlarining barcha hujjatlarining elektron shaklda yuborilishiga va bir ish kun davomida ro'yxatdan o'tkazilishiga erishildi. Yangi tizim ishga tushirilishi bilan byudjet tashkilotlari tomonidan ortiqcha qog'oz va vaqt sarfi hamda mavjud turli ovoragarchilik holatlari barham topdi.

G'aznachilik faoliyat ko'rsatishi uchun uning quyidagi tashkiliy elementlari mavjud bo'lishi va o'zaro bog'liqlikda amal qilishi zarur. Ular:

1. G'aznachilikning yagona hisobraqami;
2. G'aznachilikning bosh kitobi;
3. G'aznachilik organlari;
4. G'aznachilikning axborot tizimi;

*G'aznachilikning yagona hisobraqami (YAG'H)* O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochiladigan va Moliya vazirligi tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag'i hisoblanadi. Moliya vazirligi (G'aznachilik bo'linmalari) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va boshqa banklarda o'zga bank hisobvaraqlari ochish huquqiga egadirlar. Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari (DMJ) va boshqa maqsadli jamg'armalar (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi huzuridagi O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi) byudjetlariga to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar YaG'Hga kirim qilinadi va mos ravishda O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, Toshkent shahar va viloyatlar mahalliy byudjetlari, DMJ va boshqa maqsadli jamg'armalar byudjetlari daromadlarida aks ettiriladi.

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari xazinaga kirim qilinadi va mazkur tashkilotlarga tushumlar ajratilib aks ettiriladi.

*G'aznachilikning bosh kitobi.* G'aznachilik Bosh kitobi bilan davlat moliyaviy resurslarining hisob-kitobi yuritiladi va moliya tizimining axborot tizimi faoliyat ko'rsatadi. G'aznachilikning Bosh kitobi byudjet operatsiyalari buxgalteriya hisobini yuritishning kompyuterlashtirilgan tizimidir. G'aznachilikning Bosh kitobida davlat tashkilotlari va muassasalari bilan bo'ladigan barcha moliyaviy operatsiyalar o'z ifodasini topadi. G'aznachilikning Bosh kitobi G'aznachilikning yagona hisobraqami va subschyotlari bilan bo'ladigan operatsiyalardagi barcha buxgalteriya o'tkazmalarini aks ettiradi. G'aznachilikning Bosh kitobi respublika byudjetidan, mahalliy byudjetlardan hamda DMJ byudjetlaridan mablag' bilan ta'minlash bilan bog'liq hisob-kitoblarning o'z vaqtida yuritilishini ta'minlaydi. Shuningdek, Bosh kitobning amal qilishi uning "UzASBO" DM – byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobi va hisobotning yuritilishini kompleks avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy majmua bilan uyg'unlashuvi asosida yanada mukammallashdi.

G'aznachilik organlari. G'aznachilik Moliya vazirligi tarkibidagi davlat organi hisoblanadi. G'aznachilikning Qorag'alpog'iston Respublikasi G'aznachilik boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar boshqarmalari, shahar va tumanlarda G'aznachilik bo'limlari kabi hududiy organlari faoliyat qiladi. G'aznachilikka O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlangan boshliq rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'iga muvofiq G'aznachilikning hududiy organlari tuziladi va tugatiladi. G'aznachilik organlarining xarajatlarini moliyalashtirish respublika byudjetidan amalga oshiriladi.




13-rasm. **G'aznachilikning asosiy tashkiliy elementlari**

*G'aznachilikning axborot tizimi.* G'aznachilikka va byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosini tashkil qilishga yagona axborot tizimi xizmat qiladi. Hozirgi kunda G'aznachilikning yagona axborot tizimi yaratilgan bo'lib, "Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi" (DMBAT), deb ataladi. Byudjet operatsiyalari bo'yicha kodlashtirilgan va tasniflangan ma'lumotlar DMBATga avtomatik ravishda yuklanadi, bu esa daromadlarni tasniflarning turlari, hududiy belgilari, byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar bo'yicha aniqlash imkonini beradi. Daromadlar avtomatik ravishda tegishli byudjetlarga belgilangan normativlar asosida o'tkaziladi. Daromadlarning yillik va oylik prognoz qilish bilan bog'liq tadbirlar o'zgarishsiz qolsa-da, tushumlarni o'tkazish DMBAT tomonidan amalga oshiriladi.

### 13.3. Davlat byudjetining g'azna ijrosini tashkil qilishda Moliya vazirligi G'aznachiligining o'rni va ahamiyati

Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri – byudjet tizimi ijrosining to'liq shaffofligini ta'minlash maqsadida byudjet mablag'larini ularning oluvchilariga yetkazishda kechikishlarga, qarzdorlikka yo'l qo'ymaslik, byudjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanish holatlariga barham berish, byudjetlararo munosabatlar samaradorligini oshirgan holda turli darajadagi byudjetlarning hamda davlat maqsadli jamg'armalarining daromad va xarajatlari hisobraqamlarini G'aznachilikning yagona g'azna hisobraqamiga o'tkazishdan iborat.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi davlat byudjetining g'azna ijrosi mexanizmlarini O'zbekistonda ham joriy etish va rivojlantirish davlat moliyaviy resurslarini boshqarishning axborotlashtirilgan tizimini joriy etish, davlat moliyasining holati to'g'risida tezkor va ishonchli axborotlar olish imkonini beradi, bu esa davlat moliyasini samarali boshqarishni

ta'minlaydi. Byudjetning g'azna ijrosi davlat byudjetini ijro etishning samarali va tezkor mexanizmi hisoblanib, unda davlat daromadlari va xarajatlari bo'yicha barcha operatsiyalar G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladi.

Har qanday davlatning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bajarish uchun kuchli ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, mudofaa hamda boshqaruv organlarini saqlab turish zarur bo'ladi. Buning uchun baquvvat va barqaror byudjet tizimiga ega bo'lish, davlat byudjetining mavjud daromad manbalari va xarajat yo'nalishlari haqida aniq va asoslangan tahliliy ma'lumotlarga ega bo'lish zarur.

Davr talabidan kelib chiqib, davlat byudjetining o'rta va uzoq istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olish uchun ushbu malumotlarni aniq va o'z vaqtida ta'minlab beruvchi mexanizm sifatida G'aznachilik organlari oldiga davlat byudjeti g'azna ijrosini tashkil qilish, davlat byudjeti ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish kabi muhim vazifalar yuklatilgan.

*Moliya vazirligi G'aznachiligi, uning tashkiliy tuzilishi va vazifalari.* G'aznachilik O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tarkibidagi davlat ijroiya organi hisoblanadi. G'aznachilikning Qoraqalpog'iston Respublikasi G'aznachilik Boshqarmasi, Toshkent shahar va viloyatlar boshqarmalari, shahar va tumanlarda G'aznachilik bo'limlari kabi mahalliy organlari faoliyat qiladi (13.2-rasm).

Moliya vazirligi G'aznachiligi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida yagona g'azna hisobraqami va uning subschyotlarini boshqarishni amalga oshiradi. G'aznachilikning vakolat berilgan lavozimdagi shaxslardan boshqa hech bir yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs yagona g'azna hisobraqami mablag'laridan pul o'tkazish

uchun bankka to'lov topshiriqnomasini berish huquqiga ega emas.




13.2-rasm. **O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining tashkiliy tuzilishi** [152]

G'aznachilikning yagona hisobraqami O'zbekiston Respublikasining Markaziy Bankida ochiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining hududiy bosbqarmalarida g'aznachilikning yagona hisobraqam subschyotlari ocbiladi. Respublika mintaqalarida davlat xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash maqsadida G'aznacbilikning topshirig'i bilan Markaziy Bank tomonidan butun ish kuni mobaynida subschyotlarga va subschyotlardan pul mablag'-larini o'tkazish tashkil etiladi. Mablag' o'tkazish va davlatning pul mablag'larini xarajat qilish uchun faqat Moliya Vazirligi ruxsati bilan bank schyotlarini ochish mumkin. Bu huquq G'aznachilik boshligiga Moliya Vazirining buyrug'i bilan yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki va G'aznachilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga taalluqli masalalar ular o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida tartibga

[152] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-martdagi 53-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risidagi Nizom asosida tuzildi.

solinadi. G'aznachilik yilda kamida bir marta ushbu shartnomalarning tahlilini o'tkazishi shart, agar G'aznachilik fikri bo'yicha shartnomalarni ko'rib chiqish talab etilsa, ikkala tomon talablarini qondirish maqsadida shartnomalarni qayta tuzish tadbirlari ko'riladi.

Davlat byudjetining kassaviy ijrosini amalga oshirish jarayonida G'aznachilik tijorat banklari bilan ham shartnoma tuzadi. Bu banklarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tavsiyasidan keyin aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va tijorat banklari G'aznachilik talabi bilan quyidagi ma'lumotlarni berishga majbur:

– byudjet tashkilotlarining bankda ochilgan shaxsiy hisobraqamlari, unda mablag'lar aylanishi va qoldig'i to'g'risida ma'lumot;

– G'aznachilik so'ragan aniq byudjet tashkilotining yoki uning tavsiyasi bilan ochilgan bank hisobraqamidagi mablag'lari to'g'risida ma'lumot.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi. Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek, davlat soliq va bojxona xizmati organlari, byudjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan davlat byudjetining g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona hisoblar rejasi va byudjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi. Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi yagona hisoblar rejasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

G'aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar summalari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yagona g'azna hisobraqamidan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan qaytarilishini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga, shuningdek, turli darajadagi davlat boshqaruvi o'rtasida tushumlar

taqsimotini tartibga soladigan boshqa qonunlarga muvofiq G'aznachilik tushumlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash uchun javobgar hisoblanadi. G'aznachilik belgilangan byudjet tasnifiga muvofiq barcha davlat tushumlarini ularning aniq ro'yxati bo'yicha yagona g'azna hisobraqamida yuritilishini ta'minlaydi, qonun asosida g'aznachilikning yagona hisobraqamidan barcha to'lovlarni amalga oshirishga G'aznachilik javobgar hisoblanadi.

Davlat moliyasini isloh qilish, davlat byudjetining g'azna ijrosini joriy etish, byudjet mablag'larini boshqarish va ularning shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish jarayonlarini samarali tashkil qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-son (28.02.2007) Qarori[153] bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Ushbu qaror bilan Moliya vazirligi G'aznachiligining quyidagi asosiy vazifalari belgilab berildi:

– davlat byudjetining kassa ijrosi, jumladan, tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'larini oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot tuzish;

– tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan yagona g'azna hisobraqamida bo'lgan davlat byudjeti mablag'larini boshqarish;

– byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'larini oluvchilarning davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining mablag'lari hisobidan tovarlish, xizmatlar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari ulaarning xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga muvofiq

[153] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2017-y., 06/17/5228/0210 son

ravishda tuzilishi ustidan nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish;

– byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini moliyalashga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish ustidan monitoringni amalga oshirish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo yechimini nazarda tutish hamda vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

– G'aznachilikning byudjet mablag'lari hisobiga to'lash uchun qabul qilingan, Davlat xaridlari yagona axborot portalida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar bo'yicha axborot bazasini tashkil etish va muntazam yangilab borish;

– byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning shartnomalar tuzishi doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun shakllanayotgan narxlar monitoringi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan hamkorlik qilish;

– xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan summalar doirasida tovar(ish, xizmat)lar yetkazib beruvchilarning bevosita hisobraqamlariga byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga rioya etilishini ta'minlash;

– davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, davlat byudjeti ijrosi haqida axborot yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish;

– O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan barcha turdagi, shu jumladan, nomoddiy shakldagi mintuvvat yordami va texnikaviy ko'maklashish vositalarining to'liq hamda tizimli hisob-kitobini yuritish;

– davlat xaridlari va mahalliy kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilayotgan kvotalarning bajarilishi jarayoni ustidan monitoring olib borish;

– xo'jalik subyektlarini nobalol yetkazib beruvchilar reyestriga kiritishga doir takliflar ishlab chiqish.




13.3-rasm. **G'aznachilik markaziy apparatining tashkiliy tuzilishi**[154]

[154] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-594-sonli (28.02.2007) Qarori

Moliya vazirligi G'aznachiligi markaziy apparatining tashkiliy tuzilishi 13.3-rasmda ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirliga zarur hollarda G'aznachilikning markaziy apparati va uning bo'linmalari tuzilmasiga moliya organlari boshqaruv xodimlarining belgilangan soni doirasida o'zgartishlar kiritish huquqi berilgan.

G'aznachilikning tashkiliy tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining davlat byudjetining g'azna ijrosi bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi Markaziy apparati tuzilmasiga shunday yirik boshqarmalardan biri "Amaliyot boshqarmasi", "Metodologiya, moliyaviy resurslarni tartibga solish va hisoblar boshqarmasi" va "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tahlili va nazorati boshqarmasi" kabi bo'linmalar kiradi.

PQ-594-sonli qarori bilan, shuningdek, G'aznachilikning hududiy bo'linmalari va mahalliy bo'limlarining tashkiliy tuzilishi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari ham belgilab berilgan.

## 13.4. G'aznachilikda yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish

Ma'lumki, davlat moliyaviy nazoratining dastlabki, joriy va so'nggi nazorat shakllari mavjud. Agar byudjet amaliyoti nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, *dastlabki byudjet nazorati* turli darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari loyihalarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash, byudjet tashkilotlarining byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasini hamda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetasini tuzish, tasdiqlash va tegishli moliya organlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olish jarayonida amalga oshiriladigan nazorat shakli hisoblanadi.

---

ilovasidan keltirildi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2017 y., 06/17/5228/0210-son

*Joriy nazorat* shakli moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag'larning ajratilishida, bevosita to'lovlarning amalga oshirilishida olib boriladi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosming joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish Moliya vazirligi tizimidagi hududiy va mahalliy moliya organlari bilan bir qatorda g'aznachilik organlariga ham yuklatildi. (*Yakuniy nazorat* Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari hamda boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish byudjet tasbkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar majburiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

*Majburiyat* - bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan, so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra majburiyat fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqa shu kabilarni amalga oshirilishini anglatadi.

Majburiyatlarni qabul qilishda quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

– imzolangan va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan kontrakt va shartnomalar, tender savdolari asosidagi tovar va xizmatlar xaridlari bo'yicha hujjatlar, ishlab chiqaruvchilarning tovar va xizmatlari sifati va boshqa xususiyatlarini tasdiqlovchi patentlar, litsenziyalar va boshqalar;

– ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar va boshqa to'lovlarni amalga oshirish uchun qonuniy asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjatlar;

– jarimalar va sud qarorlariga asosan penyalar to'lovini amalga oshirish uchun asos bo'luvchi tegishli davlat vakolatli organlari qarorlari;

– byudjet dotatsiyalari, subvensiyalari, ijtimoiy transfertlarini ajratish, davlat grantlari, mukofotlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishga asos bo'luvchi hujjatlar.

*Majburiyat qabul qilish huquqiga ega mas'ul shaxslar* – byudjetdan mablag' oluvchilar va byudjet tashkilotlari rahbarlari yoki ular tomonidan vakolat berilgan boshqa mas'ul shaxslar hisoblanadi. G'aznachilikda o'rnatilgan tartib-qoidalarga muvofiq, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjetdan mablag' oluvchi tashkilot rahbarining buyrug'i asosida G'aznachilik bo'linmalari bilan ishlash uchun amq xodimlar belgilanadi. G'aznachilik organlarida byudjet tashkiloti rahbari va u tomonidan mas'ul etib tayinlangan shaxslarning imzo namunalari va tashkilotning muhr izi namunalari g'aznachilikning maxsus kartochkalarida saqlanadi. Imzo namunalari va muhr izi kartochkalari o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Kartochkalarning bir nusxasi yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga oluvchi mutaxassisda, ikkinchi nusxasi xarajatlar to'lovini nazorat qiluvchi mutaxassisda saqlanadi.

> ***Yuridik majburiyatlar*** *– tuzilgan shartnomalar, shuningdek tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlari asosida byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar, shuningdek, boshqa maqsadli jamg'armalar byudjetidan mablag' oluvchilarda yuzaga keladigan majburiyatlar.*
>
> *2850-son Qoidalardan*

G'aznachilikda ikki turdagi majburiyat amal qiladi: yuridik majburiyat va moliyaviy majburiyat.

*Yuridik majburiyat* byudjetdan mablag' oluvchilar va ularga mol (tovarlar, ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnoma tegishli tartibda G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi. Yuridik majburiyatlarni tegishli G'aznachilik organlarida ro'yxatga olishdan ko'zlangan asosiy maqsad – byudjet nazoratining samaradorligini yanada oshirish, shartnomalarda nazarda tutilgan xarajatlarning tasdiqlangan rejadan (xarajatlar smetasi ko'rsatkichlaridan) ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik.

Byudjet kodeksida: "*yuridik majburiyatlar* – byudjet tashkilotlarida va byudjetdan mablag' oluvchilarda tuzilgan shartnomalar, shuningdek, tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar"[155] deb belgilab qo'yilgan.

Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan yuridik majburiyatlarni qabul qilish, ularni G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazish hamda hisobga olish ishlari O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2850 raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari"[156] (22.12.2016) bilan tartibga solinadi va amalga oshiriladi.

Yuridik majburiyatlar byudjet tasnifining turi bo'lgan iqtisodiy tasnif kodlari bo'yicha byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan qabul qilinadi hamda G'aznachilik bo'linmalari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek, ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, ular G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

Yuridik majburiyatni G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida majburiy tarzda ro'yxatdan o'tkazilishi yoki hisobga olinishidan maqsad – shartnomalarning to'g'ri tuzilganligi, ularning tasdiqlangan smetalar doirasida tuzilganligi, narxlar to'g'ri belgilanganligini nazorat qilishdan iborat. Bu faoliyatning to'g'ri amalga oshirilishi G'aznachilik faoliyatining samaradorligini ko'rsatadi, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlaydi, byudjetdan

---

[155] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 3 modda

[156] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2017-y., 10/17/2850-1/0476-son

mablag' oluvchilar va ularga mol yetkazib beruvchilarning shartnomaviy-huquqiy munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishini talab etadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari o'zlari uchun belgilangan byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari hisobidan ham tovar (ish, xizmat) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadilar. Byudjet kodeksida belgilanishicha, byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan ijro etilishi lozim bo'lgan yuridik majburiyatlar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan vazirlik va idoralarning daromadlar va xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida hisobga olish uchun qabul qilinadi.

"O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari"da byudjet tizimining tegishli bo'g'inidan (respublika byudjeti, viloyat, tuman va shahar byudjetlaridan) mablag' oluvchilarning byudjet hisobidan mahsulot yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek, kapital qurilish buyurtmachilarining shartnomalari G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilishi yoki hisobga olinishi shart, deb belgilab qo'yilgan.

*"UzASBO" DM — byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobi va hisobotining yuritilishini kompleks avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy majmua.*

*2850-son Qoidalardan*

Byudjet tashkilotlari smetalarining I va II guruh xarajatlari bo'yicha yuridik majburiyatlar g'aznachilik bo'linmalari tomonidan shartnomalar asosida hamda I va II guruh xarajatlari bo'yicha yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatdan o'tkazishga (hisobga olishga) buyurtmalar asosida ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi. Bunda "UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar buyurtmani "UzASBO" DMda shakllantiradi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g'aznachilik bo'linmalariga elektron hujjat shaklida yuboradi, ular qog'oz shaklida rasmiylashtirilmaydi, ularning elektron shaklda rasmiylashtirilishi va ulardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun buyurtmachilar javobgar hisoblanadi.

III guruh xarajatlari bo'yicha yuridik majburiyatlar kapital qo'yilma buyurtmachilari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan tuzgan shartnomalari (ularga qo'shimcha va o'zgartirishlarni ham inobatga olgan holda) asosida g'aznachilik bo'linmalarida majburiy tarzda ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi. Bunda shartnomalarda qurilishning dastlabki ikki oyi mobaynida avans to'lovlari qurilishning prognoz qilinayotgan yili uchun tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilangan ishlar qiymatining 30 foizigacha miqdorda teng ulushlarda ajratilishi nazarda tutiladi.

IV guruh xarajatlari bo'yicha yuridik majburiyatlar buyurtmachilar tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar (pudratchilar) bilan tuzgan shartnomalari va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar (yig'imlar, badallar, soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha yuridik majburiyatlar) asosida g'aznachilik bo'linmalarida majburiy tarzda ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi. Bunda buyurtmachilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish to'g'risida tuziladigan shartnomalarida 15 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan qabul qilinadigan yuridik majburiyatlar hajmi ular xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan, ajratilgan byudjet mablag'lari bilan, kapital qo'yilmalar xarajatlari bo'yicha esa – har bir obyekt bo'yicha o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan kapital qo'yilmalar bilan chegaralanadi.

Byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjet mablag'lari hisobidan shartnomalari faqat xarajatlarni qoplashga manbaning mavjudligi to'g'risidagi tasdiqnoma va ushbu maqsadlarga ajratilgan byudjet mablag'lari (limitlari) mavjud bo'lgan xarid hajmigagina tuzilishi mumkin.

Byudjetdan mablag' oluvchilar bilan mol yetkazib beruvchilar o'rtasida tuziladigan shartnomalar tegishli G'aznachilik organlarida majburiy ro'yxatdan o'tkazilib, ularga

tegishli raqamlar berilishi va ro'yxatdan o'tkazish sanasi ko'rsatilishi kerak. Bu chora-tadbirlar byudjetdan ajratilayotgan mablag'larning maqsadli ishlatilishini ta'minlash, shartnomalarda ko'zda tutilgan summalarning rejalarda ko'rsatilgan mablag'larga mosligini nazorat qilish, to'lov intizomi buzilishlarining oldini olish, narxlarning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash maqsadida, pirovardida g'aznachilik faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, yuridik majburiyat byudjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida ma'lum bir muddatdan so'ng ma'lum bir tovarni yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga kelar ekan.

Moliyaviy majburiyat esa ana shu shartnomaga muvofiq tovarlar yetkazib berilganidan (ishlar bajarilganidan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Byudjet kodeksida belgilab qo'yilishicha, "*moliyaviy majburiyatlar* – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag'lari oluvchilarda ularga pul mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan, ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar"[157] hisoblanadi. Moliyaviy majburiyatlar qabul qilingan yuridik majburiyatlar va xarajatlarni to'lash uchun berilgan ruxsatnomalar doirasida hisobvaraq-fakturalar hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan qabul qilinadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi[158].

> *Moliyaviy majburiyatlar – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag'lari oluvchilarda, shuningdek boshqa maqsadli jamg'armalar byudjetidan mablag' oluvchilarda ularga pul mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan, ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar.*
>
> *2850-son Qoidalardan*

---

[157] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 3-modda, O'RQ-360 son.
[158] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 123 modda

Moliyaviy majburiyatlarni G'aznachilikda ro'yxatga olishdan ko'zlangan asosiy maqsad – qabul qilingan yuridik majburiyatlar, tasdiqlangan byudjet va xarajatlar smetasi ko'rsatkichlari doirasida xarajatlarni amalga oshirishni ta'minlash hamda byudjet tashkilotlarining kreditor qarzliklarini nazorat qilish.

Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishini talab etadi. Masalan, tovarlar yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lgan *schyot-fakturalar*, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi *qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari*, *ish haqi qaydnomalari* (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlar. Mazkur hujjatlar tegishli vakolatga ega bo'lgan mas'ul shaxslar tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi shart. Amaldagi qonunchilik talablariga ko'ra byudjet tashkilotlari oldindan kamida 15 foiz to'lovni amalga oshirishlari talab qilinadi. Ayrim hollarda Vazirlar Mahkamasi tomonidan byudjetdan mablag' oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi lozim bo'lgan tovarlar(ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxati belgilanadi. Masalan, elektr energiyasi, mazut, ko'mir, benzin, dizel yoqilg'isi, mineral o'g'itlar, shuningdek, avia va temir yo'l chiptalari, sanatoriylar, dam olish zonalari va bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalar, harcha turdagi shahar yo'lovchi transporti yo'l kartochkalari kabilarni xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda (30 foizdan 100 foizgacha) oldindan to'lov joriy etilgan[159].

2850-sonli "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari"ga muvofiq buyurtmachilarning I va II guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlari yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga

[159] Vazirlar Mahkamasining "Byudjetdan mablag' oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 2011 yil 24 avgustdagi 241 sonli qaroriga ilova.

olish bo'yicha buyurtmalari, shuningdek, ushbu guruhlar xarajatlari bo'yicha to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari asosida ro'yxatdan o'tkaziladi va hisobga olinadi. Buyurtmachilar byudjetga majburiy to'lovlarni to'lash, naqd pul mablag'larini olish yoki xodimlarning plastik kartalariga mablag'larni o'tkazish uchun buyurtmalarda ko'rsatilgan summalar doirasida g'aznachilik bo'linmalariga to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari taqdim etadi. Bunda "UzASBO" DMga ulangan buyurtmachilar to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlarini belgilangan tartibda elektron hujjat shaklida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g'aznachilik bo'linmalariga yuboradi. Ular g'aznachilik bo'linmalari tomonidan bir ish kuni ichida g'aznachilik bo'linmasi mas'ul xodimining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda "O'RMV" ATda to'lovga qabul qilinadi, kamchiliklar aniqlanganida esa tegishli kamchiliklari ko'rsatilgan holda elektron tarzda buyurtmachilarga qaytariladi.

> ***"O'RMV" AT** – tegishli byudjetlarning byudjet jarayonini kompleks avtomatlashtirish, shu jumladan byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlari ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirish uchun mo'ljallangan axborot tizimi.*
>
> *2850 son Qoidalardan*

"UzASBO" DMga ulanmagan buyurtmachilar to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlarini g'aznachilik bo'linmalariga qog'oz shakllida taqdim qiladilar va ular belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi yoki hisobga olinadi.

III va IV guruh xarajatlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlar kapital qo'yilma buyurtmachilari tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilarning (pudratchilarning) ishlar bajarilganligini (tovarlar etkazib berilganligini) tasdiqlovchi hisobvaraq-fakturalari va qonun hujjatlariga muvofiq ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar asosida qabul qilinadi va g'aznachilik bo'linmalari tomonidan hisobvaraq-fakturalar hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida

yirridik majburiyatlar va xarajatlarni to'lash uchun ruxsatnoma doirasida ro'yxatdan o'tkaziladi va hisobga olinadi.

G'aznachilik bo'linmalari g'azna hisobvaraqlaridan to'lov topshiriqnomalari asosida tashkilot va muassasalarni saqlash, markazlashtirilgan tadbirlarni o'tkazish, kapital qo'yilmalar va boshqa maqsadlar uchun to'lovlarning tasdiqlangan xarajatlar smetasi va kapital qo'yilmalar limitlari doirasida amalga oshiradi.

Byudjetdan mablag' oluvchi buyurtmachilarning I va II guruh bo'yicha xarajatlar to'lovi birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda I guruh xarajatlarini II guruh xarajatlari to'lovisiz amalga oshirish taqiqlanadi (ish haqi uchun olingan avanslardan tashqari). Tegishli byudjetda I va II guruh xarajatlari to'lovi uchun zarur mablag'larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo'lganda, I va II guruh xarajatlarini to'liq amalga oshirgan tashkilotlar bo'yicha III va IV guruh xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

IV guruh bo'yicha mablag'larning sarflanishi belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

– oziq-ovqat va dori-darmon;

– kommunal xizmatlar;

– yonilg'i va yoqilg'i-moylash materiallari;

– boshqa xarajatlar.

Bunda IV guruh hisobidan amalga oshiriladigan quyidagi xarajatlar I guruh to'lovlarga tenglashtiriladi va I guruh xarajatlariga belgilangan muddatlarda to'lanishi mumkin:

– pul shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqalari;

– yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nafaqalar;

– natura shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqalari;

– yolg'iz qariyalar uchun oziq-ovqat sotib olish xarajatlari.

Byudjet tashkiloti tasarrufida bo'lgan, byudjetdan ajratilishi ko'zda tutilgan pul mablag'lari miqdori uning tegishli moliya organi tomonidan ro'yxatga olingan xarajatlar smetasi bilan cheklangan. Byudjet tashkilotining yuridik majburiyatlari ham smetada ko'rsatilgan xarajat moddalari doirasidan chetga chiqmasligi belgilab qo'yilgan. Byudjet tashkilotlarining moliyaviy majburiyatlari limiti ularning tasarrufida bo'lgan pul mablag'lari bilan belgilanadi.

Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan to'lovlar quyidagi talablarga asoslangan to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi:

– moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetalari asosida va byudjet mablag'lari bo'yicha byudjetdan mablag' oluvchilarning bank hisobraqamlarida mavjud bo'lgan, xarajatlarning tegishli guruhlari bo'yicha byudjet mablag'lari qoldiqlarining summalari doirasida;

– agar to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan summa moliya organida ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga ko'ra to'lanadigan pul mablag'lari summasidan oshmasa;

– tovar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilishini va byudjetdan mablag' oluvchining yetkazib beruvchidan qarzi mavjudligini tasdiqlaydigan hisobvaraq fakturalar yoki boshqa hujjatlar, shuningdek, byudjetdan mablag' oluvchi zimmasiga yetkazib beruvchiga bo'nak to'lovini o'tkazish majburiyatini yuklaydigan hujjatlar bo'lganida;

– yetkazib beruvchining to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan nomi va rekvizitlari yetkazib beruvchining shartnomada ko'rsatilgan nomi va rekvizitlariga muvofiq bo'lsa;

– to'lov topshiriqnomasida byudjet tasnifining tegishli kodlari to'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa.

G'aznachilik bo'linmalari to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari asosida to'lovlarni amalga oshiradi. Xarajatlarni to'lashga to'lov topshiriqnomalari va g'azna

memorial orderlari g'aznachilik bo'linmalariga to'lov amalga oshiriladigan sanadan kechi bilan bir ish kuni oldin taqdim etiladi. Buyurtmachilar elektron to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlarini g'aznachilik bo'lmmalariga "UzASBO" DM orqali to'lovni amalga oshirish kunida yuborishi mumkin. Bunda g'aznachilik bo'linmalariga taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari o'n kun muddatgacha amal qiladi.

**Takrorlash uchun savollar**

*1. Davlat byudjetini ijro etishning jahon tajribalarida mavjud qanday usullari bor?*

*2. Davlat byudjetining g'azna ijrosi byudjetni ijro qilishdagi qanday muammolarni keltirib chiqardi?*

*3. Davlat byudjetining g'azna ijrosi byudjetni ijro etishning boshqa usullardan qanday afzalliklarga ega?*

*4. Davlat byudjeti g'azna ijrosining mazmun-mohiyati nimadan iborat?*

*5. Davlat byudjeti g'azna ijrosining tamoyillarini izohlab bering.*

*6. G'aznachilikning tashkiliy elementlari nimalardan iborat?*

*7. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining g'azna ijrosiga o'tish qanday bosqichlarda amalga oshirildi?*

*8. Keyingi yillarda davlat byudjetining g'azna ijrosini samarali tashkil qilishda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?*

**Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar**

*1. Maxsus adabiyotlar va Internet resurs manbalaridan foydalanib xorijiy davlatlarda faoliyat qiluvchi g'aznachilik tizimlari haqida axborot tayyorlang.*

*2. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti g'azna ijrosini tatbiq etish bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshirilgan ishlar sharhini aks ettiruvchi taqdimot tayyorlang.*

*3. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida davlat moliyasini boshqarish va soliq ma'murchiligini takomillashtirish sohadagi islohotlar samaradorligiga alohida e'tibor berilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev-ning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida bu sohada yechimini kutayotgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu hujjatlarning mazmunini o'rganib chiqing va ularda belgilangan vazifalarni amalga oshirish borasidagi tadbirlarning me'yoriy-huquqiy asosini tashkil etuvchi hujjatlar ro'yxatini ishlab chiqing hamda ularga izoh bering.*

# 14-BOB. BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH ASOSLARI

## 14.1. Byudjet tashkilotlari haqida tushuncha, ular xo'jalik-moliyaviy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

"Iqtisodiyot nazariyasi" va "Moliya" fanlaridan bizga ma'lumki, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalari ikki yirik sohadan iborat (14.1-rasm).

1. Moddiy ishlab chiqarish sohasi.

2. Nomoddiy ishlab chiqarish (yoki noishlab chiqarish) sohasi.

*Moddiy ishlab chiqarish sohasida* moddiy qiymatliklar yaratiladi, tovarlar ishlab chiqariladi, xizmatlar ko'rsatiladi, ishlar bajariladi.

*Noishlab chiqarish sohasida* turli xizmatlar (maishiy, kommunal, ijtimoiy, davlat boshqaruvi, mamlakat mudofaasi, davlatning milliy xavfsizligi, ichki ishlar xizmatlari) ko'rsatiladi.

Noishlab chiqarish muassasa va tashkilotlarining bir qismi tijorat hisobi asosida ish yuritsalar, bir qismi notijorat faoliyatini olib boradilar. Notijorat faoliyatining pirovard maqsadi tijorat foydasiga ega bo'lish emas, lekin ularning qo'shimcha daromadlarni jalb qilishga bo'lgan intilishlarini ham mkor etmaydi. Bunday muassasalarning aksariyati "byudjet tashkiloti" maqomida faoliyat yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 4-moddasida belgilab qo'yilishicha: "*Byudjet tashkiloti* – davlat funksiyalarni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot"[160]. Bu tashkilotlar asosan yuridik shaxs

[160] O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. 4 modda.

maqomiga ega bo'lib, ularning faoliyati bu maqomning barcha talablariga (moddiy-texnika bazasining hamda faoliyat sohasi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun yetarli sharoitlarning mavjudligi, buxgalter kadrlarning mavjud bo'lishi, banklarda hisobraqamlarining mavjud bo'lishi va sh.k.) javob berishi kerak.




14.1-rasm. **Iqtisodiyot va ijtimoiy hayot sohalari**[161]

Lekin hozirgi kunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan byudjet tashkilotlari ham faoliyat yuritib kelmoqda. Ularga tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari

[161] Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya. O'quv qo'llanma. - T.: IQTISOD MOLIYA. 2017. B.184.

tomonidan xizmat ko'rsatiladi (masalan, tuman madaniyat bo'limiga qarashli markaziy kutubxonalar tizimi, tegishli hokimiyatlar bo'linmalariga qarashli veterinariya uchastkalari va punktlari va sh.k.).

Byudjet tashkilotlarining xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tashkil qilish bilan bog'liq qonunchilik va uning ijrosi borasidagi so'nggi 15-20 yillik amaliyotda quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lganini kuzatishimiz mumkin.

1999 yil 3-sentabrda "davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, byudjet mablag'laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror 2000-yil 1-yanvardan boshlab byudjet tashkilotlari xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibini belgilab berdi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

– byudjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda byudjet intizomini mustahkamlash uchun byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;

– byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini soddalashtirish va byudjet mablag'laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash uchun imkoniyatlar yaratish;

– ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, ish haqiga qo'shimchalar, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlarni guruhlagan holda bir satrda mablag' bilan ta'minlash usulida byudjet tashkilotlarini normativlar bo'yicha (faoliyat turiga ko'ra) mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibini joriy etish;

– byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni byudjet tashkilotlarining faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish faoliyatini kengaytirish bilan birga qo'shib olib borish;

– byudjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag'batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o'rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Mazkur qarorning to'liq ijrosini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan faoliyatdagi byudjet tashkilotlariga qo'shimcha ravishda 2000-yildan boshlab bir qator byudjet tashkilotlari va muassasalariga yuridik shaxs maqomi berildi. Bular:

*maorif sohasida:*

– kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, bolalar uylari;

– umumta'lim maktablari, gimnaziyalar, litseylar, maktablararo o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari – o'quvchilar kontingenti 400 kishidan kam bo'lmasa;

– internatlar – o'quvchilar kontingenti 200 kishidan kam bo'lmasa;

– maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari – bolalar kontingenti 350 kishidan kam bo'lmasa;

– viloyat va tuman (shahar) ahamiyatiga molik maktabdan tashqari muassasalar;

*sog'liqni saqlash sohasida:*

– kasalxonalar (ixtisoslashtirilgan markazlar bilan), tug'ruqxonalar, tibbiy-sanitariya qismlari, dispanserlar, shifoxonalar;

– bolalar uylari, bolalar sanatoriyalari, kattalar uchun sil kasalliklari sanatoriyalari;

– tajriba tariqasida ochilgan qishloq vrachlik punktlari.

2007-yilga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 26-fevral "Xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash doirasida esa barcha turdagi ta'lim muassasalariga ularning kontingentidan (o'quvchilar, bolalar, tarbiyalanuvchilar sonidan) qat'iy nazar yuridik shaxs maqomi berildi.

2017-yilga kelib respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar byudjet tashkilotlarining xo'jalik-

moliyaviy faoliyatini tashkil qilish masalalariga ham o'zgartirishlar kiritishni taqozo etdi. "Byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3231-sonli qarori[162] bilan 2017-yilning 1-sentabridan boshlab eng keng tarqalgan byudjet tashkilotlari bo'lgan ta'lim va tibbiyot muassasalarida buxgalteriya xizmatlari tugatilib, ularning yuqori tarmoq boshqaruv organlari – xalq ta'limi tuman (shahar) bo'limlarida va tibbiyot birlashmalarida *markazlashtirilgan moliya buxgalteriya xizmatlari* tashkil qilindi. Ushbu xizmatlarning *asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat:

– markazlashtirilgan tartibda quyi muassasalarning xarajatlar smetasi tuzilishi va ijro etilishini ta'minlash;

– ish haqining hisoblanishi va to'lanishini, tovar, ish va xizmatlarning xarid qilinishini, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining yuritilishini ta'minlash;

– byudjet tashkilotining faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tushadigan daromadlar monitoringini yuritish.

Bundan kelib chiqadiki, endilikda ta'lim va tibbiyot muassasalarida byudjet mablag'larining buxgalteriyasi bo'yicha buxgalter lavozimi bo'lmaydi, tashkilot buxgalteriyasini markazlashgan moliya buxgalteriya xizmati yuritadi. Lekin yuqorida nomi keltirilgan PQ-3231-sonli qaror bilan byudjet tashkilotlariga byudjetdan tashqari mablag'lar hisobini yurituvchi buxgalter lavozimini joriy etishga ruxsat berilgan bo'lib, uning asosiy faoliyati byudjet tashkilotining Vazirlar Mahkamasining 414-sonli (03.09.1999) qarori bilan belgilab

[162] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 35-son, 920-modda

berilgan faoliyat yo'nalishiga mos ravishda tovar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish bilan bog'liq faoliyatining buxgalteriyasini yuritishdan iborat bo'ladi. Bu lavozimni saqlash bilan bog'liq xarajatlar ham byudjetdan tashqari (faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqarilgan tovarlar (ishlar va xizmatlar) realizatsiyasidan tushgan) mablag'lar hisobiga ta'minlanadi.

Byudjet tashkilotlari xo'jalik-moliyaviy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

byudjet tashkilotlari davlatga tegishli muassasa va tashkilot bo'lib, ularning asosiy faoliyati davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadi;

- byudjet tashkilotlari davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlarni ko'rsatish uchun tegishli moddiy-texnik bazaga ega bo'ladilar, ularga davlat mulki (binolar, inshootlar, qurilmalar, jihozlar) egalik qilish huquqi bilan emas, tasarruf etish, foydalanish huquqi bilan beriladi, ularni joriy va kapital ta'mirlash, eskirganlari o'rniga yangilarini sotib olish byudjet mablag'lari hisobiga amalga osbiriladi;

– byudjet tashkilotlari mustaqil ravishda o'zlarining moliyaviy rejalarini (smetalarini) tuzadilar, buxgalteriya balansiga ega bo'ladilar, mustaqil ravishda xo'jalik-moliyaviy faoliyatni olib boradilar, byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasining ijrosi yuzasidan buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritadilar (davlat ta'lim va tibbiyot muassasalaridan tashqari) va buxgalter lavozimi shtatlariga ega bo'ladilar;

– byudjet tashkilotlari tegishli me'yoriy-buquqiy hujjatlar bilan ruxsat etilgan, faoliyat turiga mos keluvchi pullik xizmatlar ko'rsatishi, tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish orqali byudjetdan tashqari mablag'larni ishlab topishi, shuningdek, homiylik va xayriya asosida mablag' jalb qilishi mumkin.

## 14.2. Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida. Smetaning elementlari. Smetalarning turlari

Byudjet tashkilotlari bo'ysunuviga ko'ra respublika byudjeti va mahalliy (viloyat, tuman, shahar) byudjetlardan mablag' bilan ta'minlanadilar, ularning joriy faoliyati byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlashning o'rnatilgan tartibiga asosan moliyalashtiriladi, hunda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar mustaqil ravishda o'z moliyaviy rejalarini xarajatlar smetasi shaklida qonunchilik bilan belgilangan tartibda ishlab chiqadilar.

*Xarajatlar smetasi* byudjet tashkilotning unga ajratilgan byudjet mablag'larining hajmi, maqsadli yo'nalishi va yil choraklari (har bir choraknmg oylari) bo'yicha taqsimlanishini belgilab beruvchi asosiy moliyaviy hujjati hisoblanadi.




14.2-rasm. **Byudjet tashkilotlari smetalarining guruhlanishi**[163]

[163] "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"[164]ga muvofiq, byudjet tashkilotlarida smetalarning quyidagi *turlari* amalda qo'llaniladi (14.2-rasm).

– xarajatlar smetasi (yakka (individual) smeta);
– jamlanma xarajatlar smetasi;
– daromad va xarajatlar smetasi;
– markazlashtirilgan tadbirlar uchun smeta.

*Xarajatlar smetasi (yakka (individual) smeta)* yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida muassasa bo'yicha tuziladi. Masalan, muayyan hududda yuridik manzilga ega bo'lgan yuridik shaxs maqomida faoliyat qiluvchi byudjet tashkiloti (oliy ta'lim muassasasi, kasb-hunar kolleji, tibbiyot klinikasi, ilmiy-tibbiy markaz, ixtisoslashgan dispanser va sh.k.) mustaqil ravishda byudjetdan to'lanishi ko'zda tutilgan o'z xarajatlarini yakka smeta asosida rejalashtiradi.

> ***Xarajatlar smetasi** — byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat.*
>
> *Byudjet kodeksi, 3 modda*

*Jamlanma xarajatlar smetasi* yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va/yoki tegishli davlat boshqaruv organlari huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida keltirilishicha, "jamlanma xarajatlar smetasi – byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan o'z tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi" hisoblanadi.

[164] "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2014-yil, 51-son, 612-modda, 2017-yil, 3-son, 47-modda.

"Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va/yoki tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari (bosh bo'linma sifatida belgilangan) huzuridagi buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha quyidagi alohida hollarda bo'limlar va kichik bo'limlar (tashkilotlar turi) kesituida xarajatlar smetasi tuzilishi va tasdiqlanishi mumkin:

– bir turdagi kichik tashkilotlar bo'yicha – veterinar uchasrkalar va punktlar hamda boshqa kichik tashkilotlar bo'yicha;

– bu turdagi yirik tashkilotlar bo'yicha, agar ularga xo'jalik xizmatlarini ko'rsatish xo'jalik xizmatlarini ko'rsatuvchi maxsus guruhlar orqali markazlashtirilgan holda amalga oshirilsa;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bo'yicha;

– ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuv markazlari hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari bo'yicha."*

**2634 son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to[illegible] Nizom"dan (II-bob, 1-§, 13-band).*

*Daromad va xarajatlar smetasi* byudjet tashkilotlari tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil bo'lish manbalari va ushbu mablag'larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi.

> ***Daromadlar va xarajatlar smetasi** — byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat*
>
> *Byudjet kodeksi, 3-modda*

"Byudjet tashkilotlari quyidagi byudjetdan tashqari jamg'armalar bo'yicha smetalar tuzadilar:

– Byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi;

Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;

– vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari;

– byudjet tashkilotlariga undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantiriladigan byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, o'quvchilar va tarbiyalanuvchilar davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarining kuni uzaytirilgan guruhlarida, maktab-internatlarda, olimpiya zaxiralari kollejlari va boshqa ta'lim muassasalarida saqlab turilganligi uchun, o'quvchilar bolalar musiqa va san'at maktablari hamda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olganligi uchun, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olganlik uchun, statsionar davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotganlar tarkibi ovqatlanishi uchun hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi to'lovlar *

**2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to[illegible] 'risidagi Nizom"dan (IV-bob, 30-band).*

Masalan, oliy ta'lim, kasb-hunar ta'limi muassasalarida talabalarni o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar va ularni ishlatish yo'nalishlari byudjet qonunchiligi (xususan, 2634-sonli Nizom) bilan belgilangan tartibda byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromad va xarajatlar smetasi asosida rejalashtiriladi.

"O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha ular tomonidan o'zini saqlash uchun xarajatlar smetasidan tashqari, markazlashtirilgan tadbirlarga xarajatlar smetasi hizilishi mumkin. Ular tomonidan markazlashtirilgan holda bir necha tadbirlar (tizimdagi barcha tashkilotlar bo'yicha qo'riqlash xizmatini to'lash, xizmat kiyimini sotib olish, yagona axborot-kompyuter tizimiga xizmat ko'rsatish, seminarlar o'tkazish va boshqalar) bo'yicha xarajatlar amalga oshirilayotganda, xarajatlar smetasiga har bir markazlashtirilgan holda to'lanadigan tadbirlar bo'yicha hisob-kitoblar ilova qilmadi."*

**2634-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"dan (II-bob, 3-6, 17-band).*

*Markazlashtirilgan tadbirlar uchun smetalar* – vazirliklar, idoralar va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha tuziladi va har bir markazlashgan tadbir uchun alohida ishlab chiqiladi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini qishki kiyim-bosh bilan ta'minlash, birinchi sinf o'quvchilariga o'quv qurollari va anjomlari komplekti taqdim qilish bilan bog'liq tadbirlar uchun tegishli vazirlik darajasida markazlashtirilgan tadbirlar uchun smetalar ishlab chiqiladi.

Xarajatlar smetasi va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromad va xarajatlar smetasi bir yillik muddatga – 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan davrga tuziladi (mavsumiy tadbirlar uchun yoki joriy moliya yilida ishga tushiriladigan tashkilotlar bo'yicha esa ularning mazkur yildagi faoliyat ko'rsatish oylariga tuziladi va amal qiladi).

Byudjet qonunchiligida byudjet tashkilotining kelgusi moliya yili uchun kalendar yil boshlangunga qadar smetalarni

tuzish va tasdiqlash borasidagi xatti-harakatlari belgilab berilgan. Xususan, kelgusi yilga mo'ljallangan davlat byudjeti mamlakat qonun chiqaruvchi organi tomonidan qabul qilingunga qadar, shuningdek, byudjet tashkilotlarining asosiy smetasi tasdiqlangunga qadar ularni mablag' bilan ta'minlash ular tomonidan tuzilgan *vaqtinchalik xarajatlar smetasi* asosida amalga oshiriladi.

*Vaqtinchalik xarajatlar smetasi* – byudjet tashkilotning (yoki byudjet mablag'lari oluvchining) asosiy xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat bo'lib, unda qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlar hisobga olingan holda uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar har oy uchun aks ettiriladi. Vaqtinchalik xarajatlar smetasi oylar kesimida birinchi chorakdan oshmagan davr uchun tuziladi, ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Bunda har oylik xarajatlar o'tgan moliya yilining oxirgi choragida byudjet tashkiloti tomonidan sarflangan byudjet mablag'larining uchdan bir qismidan oshib ketmasligi shart.

"Kelgusi moliya yilining birinchi choragi uchun byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning vaqtinchalik xarajatlar smetalari joriy moliya yilining 25-dekabrigacha tuziladi, tasdiqlanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi"[165].

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosiy (doimiy) smeta tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi, bunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasidagi birinchi chorak uchun ko'zda tutilgan xarajatlar summasi tashkilotlarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida rejalashtirilgan xarajatlar summasidan kam bo'lishi mumkin emas.

---

[165] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 104-modda.

## 14.3. Smetalarni tuzish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va moliyalashtirish tartibi

Yuqoridagi paragrafda O'zbekiston Respublikasida byudjetdan mablag' oluvchilarning aksariyat qismini tashkil qiluvchi byudjet tashkilotlarida moliyaviy rejalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tashkil qiluvchi hujjatlar sharhini keltirgan edik. Ushbu hujjatlar qatorida nomi keltirilgan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"[166] bugungi kunda byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirish va moliyalashtirish tartibini belgilab beradi.

**Smetalarni tuzish.** Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlari bo'yicha, xarajatlarning to'liq yoyilmasini va hisob-kitoblarni o'z ichiga olgan holdagi ilova bilan birgalikda tuziladi. Ilova xarajatlar smetasining ajralmas qismi bo'lib, smetaning prognoz hisob-kitoblarini asoslaydi va hisobot tuzish maqsadida foydalaniladi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarga tegishli xalq deputatlari Kengashi sessiyasining byudjetni tuzish tartibi va muddati to'g'risidagi qarorlardan va moliya organining ushbu masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida ko'rsatmalar beradilar.

Buning uchun vazirliklar va idoralar, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga qarashli tashkilotlarning rahbarlari hamda tegishli xodimlari kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va

---

[166] O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatga olingan.

muddatlari to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar, xarajatlar smetasini tuzish masalalari bo'yicha qonunchilik talablarini tushuntiradilar, byudjet mablag'lari bo'yicha smeta hisob-kitoblarini albatta qonunchilikka muvofiq kelishi, xarajat qilishda moliya intizomiga, iqtisod qilish tartibiga rioya qilish haqida ko'rsatmalar beradilar, shuningdek, smetalarni tuzish hamda maxsus blankalarni to'ldirish texnikasi masalalari bo'yicha maslahatlar beradilar.

Vazirliklar va idoralar, bir vaqtning o'zida o'zlariga qarashli tashkilotlarga ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida (sinflar, o'quvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy-kunlar, bola-kunlar soni va boshqalar) kelgusi yil uchun ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yozma ravishda xabar qiladilar.

Smeta bo'yicha xarajatlarni hisoblab chiqish mablag'larga bo'lgan ehtiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat'iy tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Xarajatlarni hisoblab chiqishda quyidagilarga amal qilish talab etiladi:

– belgilangan tartibda tasdiqlangan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan ularga taqdim etilgan byudjet sohasidagi vakolatlari doirasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlarga;

– belgilangan tartibda tasdiqlangan byudjet tashkilotlari xarajatlarining normativlariga;

– tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlari va tariflariga.

Yuqoridagi paragrafda ta'kidlanganidek, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va/yoki tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha jamlanma xarajatlar smetasi tuziladi. Bu tashkilotlarning rahbarlari va tegishli

hudud hokimlari (ular vakolat bergan mansabdor shaxslar) jamlanma xarajatlar smetasi bo'yicha *byudjetdan ajratilgan mablag'larni taqsimlovshilar* bo'lib hisoblanadilar. Jamlanma xarajatlar smetasi, byudjet mablag'larini taqsimlovshilar bo'lgan tashkilot rahbarlaridan olingan buyurtmalar asosida hamda markazlashtirilgan buxgalteriyada mavjud hisob va hisobot, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuziladi.

Jamlanma xarajatlar smetasini tuzish uchun buyurtmalar quyi byudjet tashkilotlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko'rsatkichlar ro'yxati bo'yicha taqdim qilinadi, ularga xarajat guruhlari bo'yicha qilingan hisob-kitoblar ilova qilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

– isitish, yoritish, suv ta'minoti xarajatlarini hisoblash uchun zarur natural ko'rsatkichlar;

– sotib olish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar va jihozlar ro'yxati;

– kapital va joriy ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati;

– o'rmon xo'jaligi tashkilotlarining bajaradigan ishlari hajmi;

– qonunchilikka muvofiq belgilangan kadastr yuritish bo'yicha ishlar hajmi va boshqa ko'rsatkichlar hisobi;

– bino va inshootlarni kapital ta'mirlash bo'yicha manzilli ro'yxatga kiritish uchun hisob-kitoblarning asoslanganligi;

– byudjetdan mablag'lar ajratishni asoslash uchun boshqa kerakli hisob-kitoblar.

Tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalar markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko'rib chiqiladi hamda jamlanma xarajatlar smetasini tuzishda hisobga olinadi.

Markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuzilgan jamlanma xarajatlar smetasining loyihalari tegishli tashkilotlar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Vazirliklar, idoralar va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlarining markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha markazlashtirilgan tadbirlar uchun xarajatlar smetasi ular tomonidan markazlashtirilgan holda bir necha tadbirlar bo'yicha xarajatlar amalga oshiriayotganda xarajatlar smetasiga har bir markazlashtirilgan tadbirlar bo'yicha hisob kitoblar ilova qilinadi.

Kelgusi yilga yangidan ochilishi kerak bo'lgan tashkilotlarni tashkil etish, saqlash bo'yicha xarajatlar smetasi tegishli vazirliklar, idoralar hamda tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari tomonidan har bir tashkilotga alohida, mehnatga haq to'lash shartlari va shunga o'xshash faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlarda mavjud bo'lgan xarajatlarning o'rtacha me'yorlaridan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunda yangi tashkilotlarni saqlash xarajatlari ushbu tashkilotlar faoliyatining boshlanishi mo'ljallanayotgan muddatlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Smeta xarajatlari quyidagi xarajat guruhlari bo'yicha rejalashtiriladi:

I guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (stipendiyalar va boshqalar);

II guruh – Ish beruvchilarning ajratmalari (Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar);

III guruh – Kapital qo'yilmalar;

IV guruh – Boshqa xarajatlar.

*I guruh – Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga* quyidagi xarajat turlari kiradi:

– asosiy va qo'shimcha ish haqi;

– Moddiy rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari (umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda – Ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish Direktor jamg'armasi mablag'lari);

– Stipendiyalar.

Umuman olganda, byudjet tashkilotlari xodimlari ish haqini hisoblashda ular mehnatiga haq to'lashning Yagona Tarif Setkasi (YATS) qo'llaniladi. YATS O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatiladi. U 22 ta razryaddan va har bir razryad uchun o'rnatilgan tegishli tarif koeffitsiyentlaridan iborat. Yagona Tarif Setkasi qonunan o'rnatilgan eng kam ish haqi miqdoriga asoslanadi va byudjet tashkilotlari xodimlari lavozim okladlarini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ayrim tarmoqlar uchun esa mehnatga haq to'lashning tarmoq setkasi qo'llaniladi. Masalan, oliy ta'lim muassasalari, xalq ta'limi muassasalari, sog'liqni saqlash davlat tashkilotlari uchun ular xodimlari mehnatining xususiyatidan kelib chiqqan holda haq to'lashning tarmoq setkalari ishlab chiqilgan.

*II guruh – Ish beruvchilarning ajratmalari (Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar).* Bu guruhda mehnat haqi fondiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan yagona ijtimoiy to'lov summasi, shuningdek, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash xarajatlari aks ettiriladi.

*III guruh – "Kapital qo'yilmalar"* guruhi bo'yicha xarajatlar Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq rejalashtiriladi. Bu xarajatlar alohida byudjet tashkilotning smetasida ko'zda tutilmaydi, ular bo'ysha alohida tarzda "Kapital qurilishlar bo'yicha xarajarlar smetasi" tuziladi.

*IV guruh – "Boshqa xarajatlar"* tarkibiga quyidagi xarajat turlari va ularga mos xarajat kodlari kiradi:

– Xizmat safar xarajatlari;

– Kommunal xizmatlarni to'lash xarajatlari;

–Telefon, telekommunikatsion va axborot xizmatlari xarajatlari;

–Joriy ta'mirlash xarajatlari;

–Saqlash, ekspluatatsion xarajatlar va boshqa xizmatlarni to'lash xarajatlari;

–Texnika, uskunalar, joriy maqsadlardagi boshqa buyumlarni va oziq ovqat mahsulotlarini sotib olish xarajatlari;

–Boshqa joriy xarajatlar.

Smetalarning xarajat moddalari bo'yicha xarajatlarni rejalashtirish va hisob-kitob qilishda quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

–xarajatlar smetasiga ish haqi uchun mablag'lar qonunchilik bilan belgilangan maoshlari va ish haqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me'yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Ishbay usul bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqi xarajatlar smetasiga byudjet yiliga xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;

–pedagog xodimlar ish haqi uchun mablag'larni ajratishda, qonunchilikda belgilangan ish haqi stavkalaridan va o'quv rejasiga muvofiq daftar tekshirish, sinf rahbarligi va boshqalar uchun qo'shimcha haq to'lashni hisobga olgan holda tuzilgan tarifikatsiyalardan kelib chiqilishi lozim;

–tibbiyot xodimlari ish haqi uchun mablag'larni ajratishda ish haqi stavkalari va qonunchilikka muvofiq mehnatga haq to'lash shartlarini hisobga olgan holda tuzilgan tibbiyot xodimlari tarifikatsiyalaridan kelib chiqilishi lozim;

–oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda ta'lim oluvchilarning stipendiya xarajatlari belgilangan stipendiyalar miqdori va stipendiya ta'minoti tartibidan kelib chiqqan holda hisoblanadi;

–mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka muvofiq yagona ijtimoiy to'lov to'lanadigan harcha to'lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

–ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga qonunchilikda belgilangan tartibda ish beruvchining harcha xodimlarining o'tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

–xo'jalik xarajatlari, jumladan, kommunal xizmatlar uchun xarajatlar limitlar doirasida kommunal xizmatlar uchun baho va tariflarni hisobga olgan holda hisoblanadi;

–telefon va boshqa telekommunikatsiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflaridan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda, limitdan oshiq foydalanilgan shaharlararo (davlatlararo) so'zlashuvlar uchun aloqa xizmatlari, Internet bo'yicha xizmatlar va boshqa aloqa xizmatlari xarajatlari byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasida tegishli moliya organlari bilan kelishilgan holda o'zlarning faoliyat xususiyatlaridan va ushbu xizmatlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib ko'zda tutiladi;

–davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha muassasalarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar tashkilotlarning har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining o'rtacha yillik sonidan va natural me'yorlaridan kelib chiqib hisoblanadi;

–dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar qonunchilikda belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab:

–statsionar davolash muassasalarda - har bir o'rin-kunga, ambulatoriya davolash muassasalarida – har bir vrach qabuliga belgilanadi;

–ijtimoiy-madaniy tashkilotlarning ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyabzal, choyshab, yotoq anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan xarajatlar moddiy

ta'mmotning me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi;

–suv, o'rmon xo'jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari ularning bajarayotgan ish me'yori va hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

–inspeksiya va qo'riqlash faoliyati bilan bog'liq xizmatlar to'lovi xarajatlari tashkilotlar va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomaga muvofiq aniqlanadi;

- tashkilotlarning binolar, inshootlar va transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositalari, shuningdek, boshqa davlat mulklari ijarasi bilan bog'liq xarajatlari belgilangan limitlar va natural ko'rsatkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;

–xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar tashkilotlarning oldiga qo'yilgan vazifalaridan, shuningdek, qonunchilikda belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

–epizootik kasailiklarga qarshi tadbirlar va qishloq xo'jaligi zararkunandalari (chigirtkalar, tut parvonasi va boshqalar)ga qarshi kurashish bilan bog'liq xarajatlar prognoz ish hajmlari va kimyoviy preparatlarga bo'lgan ehtiyojlar, shuningdek, bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar, shuningdek, Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda boshqa ko'rsatkichlar va usluhlar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Byudjet tashkilotining smetalarini tuzish bilan bir vaqtda shtatlar jadvali ham ishlab chiqiladi. Shtatlar jadvalida ma'muriy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik, o'quv yordamchi va boshqa xodimlarning bir oylik mehnatga haq to'lash jamg'armasining umumiy summasi, mehnatga haq to'lash shartlarida nazarda tutilgan, bir yilga hisob-kitob qilingan

ustamalar to'lashga, qo'shimcha haq to'lash va xodimlarni moddiy rag'batlantirishga yo'naltiriladigan mehnatga haq to'lash jamg'armasi kabilar ko'rsatiladi, masalan:

– qonun hujjatlariga muvofiq shakllantiriladigan Byudjet tashkilotlari va muassasalarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasi (tibbiyot muassasalari, harcha tipdagi umumta'lim maktablari va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hundan mustasno);

– mukofotlash, moddiy yordam ko'rsatish, ko'p yillik mehnati uchun bir martalik rag'batlantirish uchun mehnatga haq to'lash jamg'armasi;

– ko'p yillik mehnati va maxsus unvonlarga (malaka darajasi, darajali unvon, diplomatik martaba va boshqalar) oylik ustamalar va qo'shimcha haq to'lashni belgilash uchun mehnatga haq to'lash jamg'armasi;

– mehnat ta'tilidagi shaxslarning o'rnini bosuvchi xodimlarning mehnatiga haq to'lash uchun mehnatga haq to'lash jamg'armasi;

– umumta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining direktor jamg'armasi va boshqalar.

**Smetalarni tasdiqlash va ro'yxatga olish.** Byudjet tashkilotlarinmg smetalari va shtatlar jadvallarini tasdiqlash joriy moliya yilinmg 10-martidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Bunda byudjet mablag'larini taqsimlovchi bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari smetalari va shtat jadvallarini byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan belgilangan, biroq joriy moliya yilinmg 10 martidan kechiktirmay tasdiqlaydi.

Tashkilotlarning belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetalari va shtat jadvallari ular moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin amalga kiritiladi. Xarajatlar smetalari va shtat jadvallari boshlangan moliya yilinmg 1-apreligacha ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi mavjud bo'lmagan taqdirda, joriy moliya yilinmg 1-aprelidan byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovini amalga oshirish smetalar ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar to'xtatib turiladi.

14.3 rasm. **Smetalarni tasdiqlash**

Xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallari ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning ro'yxatga olingan (jamlanma) xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini hisobga olish jurnaliga kiritiladi.




14.4 rasm. **Smetalar va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish uchun topshiriladigan hujjatlar**

Xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, vaqtinchalik xarajatlar smetasini, shuningdek, jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi, jamlanma vaqtinchalik xarajatlar smetasi va jamlanma shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

14.5-rasm. **Smetalar va shtatlar jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish**

Xarajatlar smetasi, daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallari ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi shtamp bilan:

birinchi nusxasi — tegishli byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchiga qaytiriladi;

ikkinchi nusxasi — har bir byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchilar uchun alohida papkalarda byudjet mablag'larini taqsimlovchining tegishli moliya-iqtisod bo'lmmalarida saqlanadi;

uchinchi nusxasi — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga byudjet mablag'larini taqsimlovchining jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi va shtat jadvallari bilan birgalikda taqdim qilinadi.

Byudjet va smeta-shtat mtizomiga rioya qilinishning nazorat etilishni ta'minlash maqsadida xarajatlar smetasi va shtat jadvallari ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bir haftalik muddatda byudjet tizimi byudjetlaridan moliyalashtiriladigan idoralarning rahbarlari tomonidan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarda, shuningdek, ular bo'ysunuvidagi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet va smeta-shtat mtizomiga rioya qilinishini ta'minlovchi buyruqlar chiqariladi. Buyruqlar bilan byudjet va smeta shtat intizomiga rioya qilish, xarajatlarni tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshirish, byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya qilinishi nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish,byudjetga keltirilgan zararni qoplash bo'yicha choralarni qabul qilish,byudjet va smeta-shtat intizomini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish kabi holatlar tartibga solinadi.

**Smeta xarajatlarini moliyalashtirish.** Ro'yxatdan o'tgan xarajatlar smetasning ma'lumotlari Moliya vazirligining yagona axborot tizimiga ("O'RMV" ATga) kiritiladi va shu tarqa har bir byudjet tashkilotining smeta xarajatlari miqdori, yil choraklari va oylari bo'yicha hamda xarajat guruhlari va moddalari bo'yicha taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar G'aznachilik organlariga yetkaziladi. Byudjet tashkilotlarining o'z xarajatlar smetalarining ijrosi bo'yicha to'lovlari ularning shaxsiy hisobraqamlaridan tashkilotning mablag'lari doirasida va uning topshirig'iga binoan G'aznachilik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining I va II guruh bo'yicha xarajatlar to'lovi birinchi navbatda amalga oshiriladi. Bunda I guruh xarajatlarini II guruh xarajatlari to'lovisiz amalga oshirish taqiqlanadi (ish haqi uchun olingan avanslardan tashqari). Tegishli byudjetda I va II guruh xarajatlari to'lovi uchun zarur mablag'larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo'lganda I va II

guruh xarajatlarini to'liq amalga osbirgan tashkilotlar bo'yicha III va IV guruh xarajatlarini amalga osbirisbga ruxsat etiladi.

IV guruh bo'yicha mablag'larning sarflanishi belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

– oziq ovqat va dori-darmon;
– kommunal xizmatlar;
– yonilg'i va yoqilg'i-moylasb materiallari;
– boshqa xarajatlar.

Bunda IV gurub hisobidan amalga oshiriladigan quyidagi xarajatlar I guruh to'lovlarga tenglashtiriladi va I guruh xarajatlariga belgilangan muddatlarda to'lanishi mumkin:

pul shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqalari;

– yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga nafaqalar;

natura shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqalari;

– yolg'iz qariyalar uchun oziq-ovqat sotib olish xarajatlari.

G'aznachilik bo'linmalari byudjet tasbkilotlarining to'lov topshiriqnomalari va g'azna memorial orderlari asosida to'lovlarni amalga osbiradi.

## 14.4. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, manbalari va ishlatish yo'nalishlari

Byudjet tasbkilotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3-sentabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlasb tartibini takomillashtirisb to'g'risida"gi 414-sonli qarori[167] bilan belgilab berilgan byudjetdan tashqari mablag'larga ham ega bo'lishi mumkin. Ushbu qarorga asosan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan byudjet tashkilotlari quyidagi byudjetdan tasbqari mablag'larni jalb qilish va o'zining daromadlarini kengaytirish huquqiga ega:

[167] Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2018-y., 09/18/384/1266-son

– faoliyat turi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;

– byudjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkni boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan tushumlar;

– yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotlariga homiylik (beg'araz) yordami berilishidan olinadigan qo'shimcha daromadlar.

Ushbu manbalardan qo'shimcha daromad olayotgan byudjet tashkilotlari 2000-yil 1-yanvardan boshlab 2023-yil 1-yanvargacha[168] davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar, Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod qilingan (bu davr ichida ko'rsatilgan muddat hukumatning tegishli qarorlari bilan bir necha marotaba uzaytirilgan), bo'shab qolgan mablag'lar byudjet tashkilotining moddiy-texnika va ijtimoiy bazasini mustahkamlashga, shuningdek, ularning xodimlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moddiy rag'batlantirishga maqsadli yo'naltiriladi.

Byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasini shakllantiradilar. Ushbu jamg'arma quyidagi daromadlar va tushumlardan shakllantiriladi:

– hisobot choragining so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar (kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);

– faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

---

[168] Vazirlar Mahkamasining 414-sonli qarorining (03.09.1999) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-maydagi 384-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2018-y., 09/18/384/1266-son.

– byudjet tashkiloti balansida turgan mol-mulkni ijaraga berishdan olingan mablag'larning bir qismi;

– belgilangan tartibda byudjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar;

– homiylikdan olingan mablag'lar.

O'z navbatida, Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari quyidagi yo'nalishlarda ishlatilishi mumkin:

– avvalo vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalarni va mavjud kreditorlik qarzlarni to'lashga;

– byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlariga;

– ijtimoiy rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tadbirlariga.

Byudjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan kreditor qarzdorlik mavjud bo'lsa, Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan tejab qolingan byudjet mablag'lari doirasida ushbu qarzlarni to'lashga (ishlar, xizmatlar, tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar o'rni qoplangandan so'ng) sarflanadi. Agar kreditor qarzdorlik byudjet tashkilotining xarajatlari vaqtincha yetarli miqdorda mablag' bilan ta'minlanmaganligi munosabati bilan paydo bo'lgan taqdirda kreditor qarzdorlikning Byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi hisobiga to'langan miqdori joriy moliya yiliga belgilangan xarajatlar limiti doirasida byudjetdan qoplanadi.

Byudjet tashkilotida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bo'yicha to'lanmagan nafaqalar va kreditorlik qarz mavjud bo'lmasa yoxud ushbu qarzlar to'langan taqdirda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlarning o'rni to'ldirilgandan keyin Byudjet tashkilotini

rivojlantirish jamg'armasining qolgan mablag'lari (homiylik yordami, beg'araz yordam miqdori bundan mustasno):

– tushgan barcha mablag'larning kamida 75 foizi moddiy-texnika bazani mustahkamlashga;

– ko'pi bilan 25 foizi byudjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan byudjet tashkilotiga ko'rsatilgan homiylik mablag'larining barcha summasi, agar homiy bilan maxsus o'zgacha hol kelishilmagan bo'lsa, byudjet tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga sarflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi PQ-1275-sonli qarorining 25-bandiga muvofiq 2010-yildan boshlab vazirlik va idoralarning, byudjet tashkilotlarining barcha byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini davlat byudjetining g'azna ijrosi mexanizmi bilan qamrab olish amalga oshiriladi. Bunda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha bank hisobvaraqlari yopilib, G'aznachilikda tegishli shaxsiy hisobvaraqlar ochildi.

Byudjet tashkilotlarining davlat byudjetining g'azna ijrosi bilan qamrab olingan byudjetdan tashqari mablag'lari quyidagilardan iborat:

– Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun mablag'lari;

– Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi;

– o'tgan yillar debitorlik qarzlarining tushgan summasi;

– maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar;

– maktabdan tashqari muassasalarda (musiqa va san'at maktablari) bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar;

– xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob kitoblardan tushadigan tushumlar;

– maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar;

– ta'lim muassasalarida o'qishdan tushadigan mablag'lar;

– vazirlik va idoralarning ajratmalar hisobiga shakllanadigan byudjetdan tashqari jamg'armalari;

– umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag'lar;

– kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar;

– turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar.

*14.1-jadval*

**Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha g'azna ijrosini tashkil qilish**

| № | Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari va jamg'armalari nomi | Hisobi yuritiladigan shaxsiy g'azna hisobvarag | Smetalarning tuzilishi va turi |
|---|---|---|---|
| 1. | Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi | 4001 | daromad va xarajatlar smetasi tuziladi |
| 2. | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijtimoiy nafaqalarni to'lash uchun mablag'lari | 4002 | smeta tuzilmaydi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4 | Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi | 4003 | daromad va xarajatlar smetasi tuziladi |
| 4 | O'tgan yillar debitorlik qarzlarining tushgan summasi | 4004 | smeta tuzilmaydi |
| 5. | Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar | 4005 | smeta tuzilmaydi |
| 6. | Maktabdan tashqari muassasalarda (musiqa va san'at maktablari) bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar | 4006 | daromad va xarajatlar smetasi tuziladi |
| 7. | Xodimlardan, ular ishlayotgan joyida ovqatlanganligi bo'yicha hisob kitoblardan tushadigan tushumlar | 4007 | smeta tuzilmaydi |
| 8. | Maktab-internatlar va litseylarda bolalarning ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar | 4008 | daromad va xarajatlar smetasi tuziladi |
| 9. | Ta'lim muassasalarida o'qishdan tushadigan mablag'lar | 4009 | daromad va xarajatlar smetasi tuziladi |
| 10. | Ajratmalar hisobiga shakllanadigan vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari | 4010 | daromad va xarajatlar smetasi tuziladi |
| 11. | Umumta'lim muassasalarida darsliklar ijarasi to'lovidan tushgan byudjetdan tashqari mablag'lar | 4011 | smeta tuzilmaydi |
| 12. | Kapital qo'yilma mablag'lari bo'yicha depozitlar mablag'lari | 4012 | xarajatlar smetasi tuziladi |
| 13. | Turg'un davolash-profilaktika muassasalarida davolanayotgan bemorlardan ovqatlanish uchun undiriladigan to'lovlar | 4013 | smeta tuzilmaydi |

Xulosa qilib aytganda, byudjet tashkilotlarining qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan rasmiy manbalardan oladigan daromadlari va tushumlari hamda ular bo'yicha

xarajatlarni amalga oshirish davlat byudjeti g'azna yrosi mexanizmlari bilan qamrab olingan bo'lib, byudjet tashkilotiga tegishli mablag'larning (byudjet va nobyudjet) samarali, maqsadga muvofiq va oqilona ishlatilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi, bu mablag'larning shakllanishi va ishlatilishining dastlabki va joriy nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Byudjet tashkilotlari, deganda nimani tushunasiz, ular xo'jalik-moliyaviy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*

*2. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va ega bo'lmagan byudjet tashkilotlari xo'jalik-moliyaviy faoliyatidagi o'xshashlik va farqlar qaysilar?*

*3. Byudjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va to'lovini amalga oshirishning huquqiy asoslarini qanday hujjatlar tashkil qiladi?*

*4. Xarajatlar smetasining byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatidagi ahamiyati nimada? Smeta qanday elementlardan tashkil topgan? Smetalarning qanday turlari amalda qo'llaniladi?*

*5. Smetalarni tuzish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va moliyalashtirish tartiblari qanday?*

*6. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag-lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari nimalardan iborat?*

*7. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'-lari bo'yicha jamg'armalar qanday guruhlanadi?*

*8. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'-lari g'azna yrosini tashkil etishning o'ziga xos jihatlarini aytib bering.*

**Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar**

*1. Byudjet tashkilotlarini smeta asosida rejalashtirish va moliyalashtirishni tartibga soluvchi umumiy va maxsus qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni aks ettiruvchi chizma tayyorlang.*

*2. Byudjet tashkilotlarini smeta asosida rejalashtirish va moliyalashtirish asoslarini yoritib beruvchi assisment tayyorlang. Unda rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi o'z aksini topsin.*

*3. Me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'larining guruhlanishi, ular bo'yicha shaxsiy hisobraqamlarning yuritilishi, yuridik va moliyaviy majburiyatlarni bajarish bo'yicha javobgarlik kabilarni aks ettiruvchi umumlashma jadval tayyorlang.*

# 15-BOB. DAVLAT BYUDJETINING TA'LIM TIZIMI XARAJATLARI

## 15.1. Uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishi, uning asosiy turlari

O'zbekiston Respublikasida jamiyatning ma'naviy yangilanishi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga uyg'unlashish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-Assambleyasida so'zlagan nutqida: "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga qat'iy amal qilib, teran anglagan holda islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilm amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat"[169] ekanligini alohida ta'kidladilar. Haqiqatan ham, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari har taraflama qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Ushbu holat jahon hamjamiyati tomonidan ham alohida e'tirof etilmoqda.

Inson huquqlari va erkinliklari qatorida fuqarolarning ta'lim olish huquqi alohida o'rin egallaydi. Ijtimoiy sohaning muhim, aytish mumkinki, markaziy tarkibiy qismlaridan biri – bu ta'lim tizimidir. Ta'lim tizimining ahamiyatini mazkur soha faoliyatining uzoq muddatli davrda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilab berishi orqali izohlash mumkin.

---

[169] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 20.09.2017.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida ham "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir"[170], degan konstitutsion norma belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining amaliy natijasi bo'ldi. Qonun va Dastur talablarini bayotga tatbiq etish ishlari mantiqiy uyg'unlikda ucb bosqichda amalga oshirildi. Bu borada Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004-yildan boshlangan Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi 2009-yilga kelib amalda niboyasiga yetkazildi: 9 yillik umumta'lim maktab bosqichini va 3 yillik o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzluksiz yaxlit ta'lim tizimi yaratildi; mamlakat yoshlariga umumiy ta'lim bilan birga zamonaviy kasb-hunarlarga ega bo'lish imkonini beradigan 12 yillik ta'lim tizimiga o'tisb yakunlandi.

Lekin so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, iqtisodiyot taraqqiyotining zamonaviy talablari, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish zaruriyati, axborot-kommunikatsion texnologiyalarining hayotimizga jadal kirib kelishi va boshqa shu kabi omillar ta'lim tizimining sifati va samaradorligi darajasiga alohida talablar qo'ymoqda, ta'limning barcha bosqichlari shakli va mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy, ilmiy-uslubiy va iqtisodiy-moliyaviy masalalarini tanqidiy o'rganib chiqish va konstruktiv o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'zining "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" deb

---

[170] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 16 son, 176-modda

nomlangan ma'ruzalarida "ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekanini"[171] alohida ta'kidladilar. 2016-yilning yakunlariga bag'ishlangan bu ma'ruzada belgilab berilgan asosiy yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni bilan qabul qilingan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da o'z ifodasini topdi. Xususan, Harakatlar strategiyasining 4.4-bo'limida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish borasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"[172] vazifalari belgilab berildi.

Shu bilan birga ta'limda uning sifati va samarasini oshirish bilan bir qatorda tizimni moliyaviy ta'minlash muammolari ham islohotlarning markazida turgan masalalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, 1997-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi (15.1-rasm):

---

[171] Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. 23 b.

[172] 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.




15.1-rasm. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari**[173]

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi (15.2-rasm):




15.2-rasm. **Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko'ra O'zbekiston Respublikasida ta'lim bosqichlari**[174]

[173] Nurmuxamedova B.I, Srojiddinova Z.X. "O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish". T.: "Info Capital Group". 2013. B.10.
[174] O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasi asosida. O'RQ-464-1-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

Ta'lim tizimining umumiy boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Shuning dek, Vazirlar Mahkamasi alohida oliy ta'lim muassasalari, Toshket Islom universiteti, shuningdek, xalqaro va xorijiy oliy ta'lim muassasalari (Moskva davlat universiteti, Vestminster Universiteti va hokazo) filiallarini bevosita boshqaradi. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimidagi islohotlar natijasida iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning turli sohalariga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy oliy ta'lim muassasalarinmg soni ortib bormoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimi faoliyati ustidan rahbarlikni bevosita 3 ta vazirlik – Xalq ta'limi vazirligi (XTV), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV) va Maktabgacha ta'lim vazirligi (MTV) amalga oshiradi.




15.3-rasm. **Ta'lim tizimining umumiy boshqaruvi chizmasi**[175]

Xalq ta'limi vazirligi "xalq ta'limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy

[175] http://www.ziyonet.uz axborot-ta'lim tarmog'i ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

o'rta va maktabdan tashqari ta'limni har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilarning bilimi va ma'naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish"[176] vazifasini bajaradi. XTV umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalar faoliyati uchun mas'uldir. Vazirlik joylardagi tegishli ta'lim muassasalari faoliyatini metodik boshqaruvchi viloyat, tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlariga ega.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi respublikada oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga rahbarlik qiluvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi. Vazirlik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Vazirlik tizimiga Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi, idoraviy mansub oliy ta'lim muassasalari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 20-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 341-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzurida Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi tashkil etilgan. Rivojlantirish markazi oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan o'quv-uslubiy, tashkiliy-huquqiy ta'minotni ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Rivojlantirish markazining maqsadi – mamlakatning ustivor ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda ta'limni rivojlantirishning jahon tendensiyalariga muvofiq oliy va o'rta maxsus

[176] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ 3304-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 07/17/3304/0037-son.

kasb-hunar ta'lim tizimini me'yoriy-huquqiy va ilmiy-uslubiy ta'minlashdan iborat.

Ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni mos huquqiy asosga tayanishi lozim, bu borada Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi, boshqa ijtimoiy dasturlar, hukumatning boshqa qarorlariga muvofiq amalga oshirilgan maqsadli chora-tadbirlar majmuyi ta'lim tizimi taraqqiyotidagi ijobiy tendensiyalar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

2016-2017 yillar mobaynida taraqqiyotning navbatdagi bosqichida jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning mazmuniga mos ravishda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, ta'limning barcha bosqichlarini bugungi zamon talablaridan kelib chiqib takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 100 ga yaqin qaror va farmonlari qabul qilinib, izchillik bilan amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilib, tizimni malakali kadrlar bilan ta'minlash, davlat va xususiy sheriklik asosida yaqin istiqbolda mamlakatimizda bog'cha yoshidagi bolalarni to'liq maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Keng jamoatchilik va ota-onalarning fikr va takliflari asosida yurtimizda 11 yillik majburiy maktab ta'limi qayta joriy etilib, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi optimallashtirildi. Oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari ko'paytirildi, xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari diplomlarini nostrifikatsiyalash tizimi soddalashtirildi, talab yuqori bo'lgan qator sohalar bo'yicha sirtqi ta'lim yo'lga qo'yildi hamda oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi ham xalqaro andozalarga asosan takomillashtirildi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va

texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish belgilangan[177]. Bugungi kunda mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyotini belgilab beruvchi eng muhim sohalardan biri bo'lgan ta'lim tizimidagi tub yangilanishlar, rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari milliy ta'lim tizimiga joriy etilayotganligi va bir qator xalqaro konvensiyalarning ratifikatsiya qilinganligi, shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat tomonidan qabul qilingan sohaga doir qaror va farmonlarni qonunchilikka muvofiqlashtirish zaruratidan kelib chiqib, ushbu yo'nalishdagi asosiy hujjat – "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi. Qonun loyihasini tayyorlash jarayonida 20 dan ortiq rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi qonunchiligi o'rganilib, shu asosda yangi tahrirdagi qonun loyihasiga 36 ta yangi modda kiritildi. Amaldagi qonunning 33 ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Shuningdek, qonun loyihasida katta yoshdagilar ta'limi, maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, davlat- xususiy sheriklik, ta'lim sohasidagi davlat nazorati, ta'lim muassasalarining o'zini o'zi baholashi, ta'lim sohasida eksperimental va innovatsion faoliyat kabi yangi normalar nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasini umumxalq muhokamasidan o'tkazish va ularning fikr-mulohaza hamda takliflarini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining interaktiv davlat xizmatlari yagona portaliga joylashtirildi.

Bu boradagi islohotlatning bosh vazifasi mamlakatimiz ta'lim tizimining fuqarolarning komil shaxslar bo'lib shakllanishiga yo'naltirilgan, inson omilini namoyon etadigan,

---

[177] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli farmoni. qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi: 06/18/5308/0610-son. 23.01.2018.

mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni yetishtirib beradigan eng yaxshi an'analarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishdan iborat.

## 15.2. Ta'lim tizimi muassasalarini moliyaviy ta'minlashda davlat byudjeti va boshqa manbalarning ahamiyati. Ta'lim tizimi xarajatlarining respublika byudjeti va mahalliy byudjetlardan amalga oshirilishi

Ta'lim – bu jamiyatning strategik resursi va davlat hamda jamiyat qurilishida muhim ustuvorlik ekanligini hisobga olib, ta'lim tizimini boshqarishda davlat yetakchi rol o'ynaydi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini moliyalashtirishning ko'pkanalli tizimi shakllangan bo'lib, moliyaviy resurslarning quyidagi manbalariga ega (15.4-rasm):

*Davlatdan moliyalashtirish manbalari:*

– davlat (respublika va mahalliy) byudjeti;

– davlat maqsadli jamg'armalari (masalan, Kitob jamg'armasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi (ma'lum davrlarda), Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi).

*Nodavlat moliyalashtirish manbalari:*

– to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushgan mablag'lar;

– ta'lim muassasalarining o'z tadbirkorlik faoliyatidan daromadlari va tushumlari;

– xorijiy kreditlar va grantlar;

– ota-onalarning (o'qitish uchun) to'lovlari, qo'shimcha pullik ta'lim;

– jamoatchilik yordamlari;

– boshqa xususiy manbalar (masalan, tadbirkorlar va homiylarning, xayriya tashkilotlarining moliyaviy yordamlari).




15.4-rasm. **Ta'lim tizimini moliyalashtirish manbalari**[178]

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda ularning huquqlarini muhofaza qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2015-2017-yillar mobaynida davlat byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohalarga yo'naltirilganligi, uchdan bir qismi ta'lim sohasiga safarbar qilinayotganligi ham kelajagimiz vorislariga bo'lgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.

[178] Nurmuxamedova B.I, Sirojiddinova Z.X. "O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish". T.: "Info Capital Group". 2013. 17-b.

Bundan tashqari davlatning maqsadli jamg'armalari (Kitob jamg'armasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi), davlat tomonidan ta'limning taraqqiyotiga jalb qilinadigan qarz mablag'lari (davlat ta'lim tizimini rivojlantirishga mo'ljallangan xorijiy kreditlarning qaytarilishini kafolatlaydi) va grantlar davlat mablag'lari kabi ishlatiladi.

O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga barcha manbalardan yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini, davlat byudjetidan yo'naltirilayotgan mablag'lar esa 6-7 foizini tashkil etadi (15.1-jadval).

*15.1-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ta'lim sohasiga xarajatlari**[179]

(foizda)

| Ko'rsatkichlar | 2016-y. | 2017-y. | 2018-y. (prog-noz) |
|---|---|---|---|
| Davlat byudjetining ta'lim xarajatlari | 33,7 | 34,9 | 31,4 |
| Davlat byudjetidan ta'lim xarajatlarining YAIM dagi ulushi | 7,2 | 6,6 | 6,6 |

Ta'lim muassasalari eng keng tarqalgan davlat muassasalari hisoblanadi. Ularni qurish, mavjudlarini saqlash, moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash, kadrlar masalasini hal qilish kabi tadbirlar tarixan davlat mablag'lari evaziga amalga oshirilib kelingan. Ta'lim tizimining joriy va kapital xarajatlarini moliyalashtirishda davlat byudjetining ahamiyati hali ham katta. Davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni saqlash xarajatlari tarkibida ham asosiy o'rinni ta'lim xarajatlari egallaydi. Ular ijtimoiy-madaniy sohalarga ajratilgan byudjet mablag'larining o'rtacha 57-60 foizini tashkil qiladi.

[179] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi. Manba: www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

Bugungi kunga kelib ta'lim tizimining joriy va kapital ehtiyojlarini to'laqonli ta'minlashda, davlat mablag'lari, shubhasiz, muhim o'rin egallaydi. Lekin moliyaviy muammolarning keskinlashuvi, shuningdek, byudjet mablag'larining chegaralanganligi sharoitida davlat ta'lim muassasasalarining moliyaviy holatini yaxshilash, ularning byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish ko'lamlarini kengaytirish, ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ta'lim xizmatlatining eksportini oshirish, ta'lim muammolariga keng jamoatchilik e'tiborini jalb qilish masalalari o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

*Texnologik yangiliklarni ta'lim tizimiga kiritish – ta'lim tizimini hozirgi davrning eng qiziqarli jarayonlaridan biringa aylantiradi. Demakki, ta'lim sohasidagi islohotlarni o'z taraqqiyot strategiyasi, ichki siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan O'zbekiston yaqin kelajakda ta'lim tizimi bilan ham dunyo e'tirofiga sazovor bo'ladi.*

## 15.3. Ta'lim tizimida jon boshiga (tarbiyalanuvchi, o'quvchi, talaba soniga) qarab moliyalashtirish usullarining joriy etilishi

Jahon amaliyotida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning mablag'lardan samarali foydalanish va ta'lim sifatini oshirishni rag'batlantiruvchi yangi yo'llarini qidirib topish ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidagi harakatlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu harakatlar ta'lim sohasidagi birinchi darajali vazifalarni hisobga olgan holda quyidagi *tamoyillarni* ta'minlashga qaratilgan:

– ta'limning hammabopligi (ham jismoniy, ham moliyaviy jihatdan);

– ta'lim sifati va natijalari;

– tenglik – bir xil ehtiyojli o'quvchilar mablag'lar bilan bir xil darajada ta'minlanadilar; muhtojroq o'quvchilar ko'proq mablag' oladilar;

– samaradorlik: tashqi samaradorlik – ta'lim tizimi jamiyatga ishchi kuchini tayyorlaydi, shundan kelib chiqqan holda, bu sohaga qilinayotgan xarajatlarning samaradorligini hisobga olib mablag'lar safarbar etiladi; ichki samaradorlik – eng kam xarajat qilib ko'proq natijalarga erishish.

Ta'lim tizimini moliyalashtirish usullari haqida gap borar ekan, u yoki bu usulni qo'llashda har bir mamlakat o'z ijtimoiy siyosatining ustivorliklari, shuningdek, byudjet tizimining o'ziga xosligi va ta'lim tizimini boshqarish xususiyatlariga asoslanadi. Shunga qaramay, o'tmishda mashhur bo'lgan va hozirgi kunda ta'limning ko'plab tizimlarida amalda qo'llanilayotgan ta'lim muassasalariga moliyaviy mablag'larni ajratishning bir qancha yo'llari va usullarini ta'kidlash mumkin[180]:

– *o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida moliyalashtirish*, bunda muassasa byudjeti u moliyalashtiriladigan tegishli byudjet imkoniyatlaridan chiqib ketmagan holda, o'tgan moliyaviy yil xarajatlari darajasida (inflyatsiyani hisobga oluvchi ayrim tuzatishlar bilan) aniqlanadi va uning hajmi doirasida mablag' ajratiladi;

– *alohida shartnomalar asosida moliyalashtirish (kelishuv bo'yicha)* – bunda har bir ta'lim muassasasi davlatga o'zining muayyan miqdordagi ajratmalarga ehtiyojini asoslab berishi lozim, agar muassasaning mablag' ajratish bo'yicha so'rovi muayyan talablarga mos kelsa, davlatdan o'ziga kerakli mablag'larni olish imkoniyatiga ega bo'ladi;

– *xarajatlarga asoslangan moliyalashtirish*, bunda mablag'lar ta'lim muassasasiga uning faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xarajatlar, ya'ni bino va inshootlarni saqlash, joriy ta'mirlash, xodimlar mehnatiga haq to'lash

[180] Nurmuxamedova R.I., Sirojiddinova Z.X. "O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish". T.: "Info Capital Group". 2013. 23-b.

kitablarga sarflangan resurslar hajmi doirasida ajratiladi ("xarajatli" deb ataluvchi bu usul bugungi kunga qadar mamlakatdagi davlatga qarashli ijtimoiy soha muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish amaliyotida ustuvor darajada qo'llanib kelinmoqda);

– *formula asosida moliyalashtirish,* bunda moliyaviy resurslar har bir muassasa uchun belgilangan va to'g'ri qo'llaniladigan mezonlar tizimiga muvofiq ajratiladi. Moliyalashtirish formulasi: (1) har bir ta'lim muassasasiga ajratiladigan resurslar miqdorini; (2) ta'lim muassasasiga ajratiladigan resurslar miqdorini aniqlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan omillarni aniqlash imkonini beradi.

*Ta'lim muassasalarini jon boshiga (o'quvchi soniga ko'ra) moliyalashtirish* bir o'quvchiga nisbatan o'rnatilgan xarajat me'yori, o'quvchilar soni hamda ta'lim muassasalarining xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus koeffitsiyentlarga asoslangan ta'lim muassasalari xarajatlarini aniqlash va shunga ko'ra mablag' ajratish tizimidir.

Ta'limda byudjet mablag'larini taqsimlashning "*pul o'quvchining ortidan boradi*"gan tamoyilga ("pul o'quvchining ortidan boradi"gan tamoyilda mablag'lar muassasaga o'quvchi soniga ko'ra ajratiladi, agar o'quvchi boshqa maktabga yoki bog'chaga o'tib ketsa, pul ham uning orqasidan shu muassasaga o'tib ketadi) asoslangan jon boshiga qarab moliyalashtirishdan iborat muqobil mexanizmini tanlash quyidagi natijalarga erishishga qaratilgan:

– ta'limga ajratilgan byudjet mablag'larini taqsimlash jarayonining shaffofligi, obyektivligi va aniqligini oshirish, muassasa byudjetini tuzish va tasdiqlash jarayonlarida turli xil kelishuvlar, muvofiqlashtirishlarga ketadigan vaqtni kamaytirish;

– xarajatlar asosida moliyalashtirish tamoyilidan voz kechish;

– muassasa darajasida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish (ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida), ota-onalar hamda Vasiylik (Kuzatuv) kengashlari oldidagi hisob berish tizimini yaxshilash.

Eng oddiy shaklda o'quvchi soniga ko'ra moliyalashtirish usulida byudjet mablag'larining har bir muassasaga taqsimlanadigan aniq summasi faqatgina shu muassasadagi mavjud o'quvchilar soniga bog'liq: har bir maktab har bir o'quvchisi uchun bir xil summadagi mablag'ni oladi. Amaliyotda bu formula odatda, maktabning joylashgan o'rni, maktabning tipi kabi bir nechta omillarni hisobga oluvchi koeffitsiyentlar asosida korrektirovka qilinadi. Ta'lim tizimlarida moliyalashtirish formulasi qo'llanilayotgan mamlakatlarda formulani ishlatishda qaysi koeffitsiyentlarni qo'llash lozimligi va turli omillarni hisobga olish uchun ular soni nechta bo'lishi kerakligi to'g'risida yagona yondashuv mavjud emas. Masalan, Rossiyada moliyalashtirish formulasini qo'llash amaliyotida quyidagi omillarni hisobga oluvchi koeffitsiyentlar ishlatiladi[181]:

– maktablarning joylashgan o'rnidagi farqlar (shahar va qishloq maktablari);

– maktablarning hajmlaridagi farqlar (maktablarning fizik o'lchamlari: bino va inshootlarining hajmi, isitish tizimi, egallab turgan maydoni va sh.k);

– ta'lim turidagi farqlar (boshlang'ich ta'lim, kasb-hunar ta'limi, umumiy ta'lim va sh.k.);

– aqliy rivojlanishda ortda qolgan bolalarni o'qitishning maxsus dasturlarini amalga oshirish;

– salomatligi tufayli imkoniyati cheklangan bolalarni uyda o'qitish;

---

[181] Финансирование школьного образования в Российской Федерации: опыт и проблемы. Всемирный банк/НФПК. М.: Изд. «Алекс», 2004. 16-стр.

– alohida fanlarni chuqurlashtirib o'qitish dasturlarini amalga oshirish.

Garchi tuzatuvchi koeffitsiyentlarni qo'llash natijasida alohida olingan muassasa oladigan mablag'lar summasi o'quvchilar sonidan tashqari, boshqa bir qator omillarga bog'liq bo'lsada, bar holda, muassasalar, hajmlari obyektivlik va shaffoflik tamoyillari asosida aniqlangan pul mablag'larga ega bo'ladilar. Lekin formulani ishlab chiqishda shunga alohida e'tibor berish kerakki, formulada tuzatuvchi koeffitsiyentlar soni qancha ko'p bo'lsa, formula tushunish va qo'llash uchun shuncha murakkablashadi, bu esa jon boshiga moliyalashtirish tamoyillariga ziddir.

Byudjet mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan aksariyat byudjet tashkilotlari kabi, ta'lim muassasalari ham o'z faoliyatlari bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish uchun zarur mablag'larning yetishmasligi muammosiga duch keladilar. Ushbu muammolar byudjet mablag'larga bo'lgan ehtiyojni an'anaviy tartibda (ya'ni ish natijalaridan qat'i nazar, smetalarni sinf(guruh)lar soni, o'quv soatlari soni, kvadrat metrlarda hisoblanadigan muassasa maydoni, o'tgan yildagi haqiqiy xarajatlar kabi natural va qiymat me'yorlaridan foydalanib isblah chiqish) aniqlash bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Muassasa tomonidan hisoblangan byudjet mablag'larga bo'lgan ehtiyoj mahalliy (hududiy) moliya organlari yoki mahalliy boshqaruv darajasida (masalan, tuman/shahar xalq ta'limi bo'limlarida) ko'rib chiqiladi va tegishli byudjet imkoniyatlaridan kelib chiqib tuzatishlar kiritiladi. Bunda ta'lim muassasasi uchun ajratilayotgan byudjet mablag'larining haqiqiy miqdori aksariyat hollarda muassasa tomonidan hisoblah chiqarilgan va aniqlangan ehtiyojga nisbatan ancha kam bo'ladi. Alohida olingan muassasaning tasdiqlangan byudjeti xarajat moddalari bo'yicha batafsil yoyib chiqilgan xarajatlar ro'yxatidan iborat

bo'ladi. Muassasalar oyma-oy ushbu ro'yxatga muvofiq xarajatlarning har bir moddasi bo'yicha byudjet mablag'larini oladilar.

Amaliyotda muassasalar o'z ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan xarajat miqdorlarini oshirib ko'rsatishdan manfaatdor bo'ladilar, ammo qat'iy xarajat moddalari asosida byudjetdan moliyalashtirish jarayoni ta'lim muassasalari rahbarlarining mablag'larni taqsimlashdagi qarorlar qabul qilish bo'yicha mustaqilligini cheklab qo'yadi. Moliyalashtirishning ushbu tizimini qo'llash oqibatida ta'lim muassasalarini boshqarishdagi mustaqillik ma'lum darajada cheklanib qoladi. Natijada muassasa rahbarlari ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o'z resurslarini samarali boshqarish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar.

Bu sohada islohotlarning zarurligi va muhimligini hisobga olgan holda, respublikaning ayrim hududlarida byudjet mablag'larini rejalashtirish bo'yicha tajriba loyihalarini boshlash, ushbu loyihalar doirasida jon boshiga moliyalashtirishning yangi tizimini sinab ko'rish to'g'risida qaror qabul qilindi. Loyiha dastlab umumta'lim muassasalarini qamrab oldi. Bu kabi loyihalar ta'lim muassasalari uchun ajratiladigan byudjet resurslarini boshqarish va muassasa byudjetini shakllantirishning muqobil mexanizmlarini joriy etish maqsadlarini ko'zlab amalga oshirildi.

*15.3-javdal*

**Xarajatlarning hazaviy normativlaridan kelib chiqib ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirishga asoslangan jon boshiga moliyalashtirishni joriy etish bosqichlari**

| № | Joriy etilgan yil | Mintaqa (viloyat/ shahar) | Muassasa turi | Asos |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2008-yil | Buxoro, Farg'ona, Toshkent sh. | Umumta'lim maktablari | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "2008-yil uchun Buxoro, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahri umumta'lim muassasalarida bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining hazaviy normativlarini tasdiqlash to'g'risida"gi №24/8-son (14.03.2008) Qo'shma qarori |
| 2 | 2009-yil | Buxoro, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Xorazm, Toshkent sh. | Umumta'lim maktablari | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining "2009-yil uchun Buxoro, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri umumta'lim maktablarida bir nafar o'quvchini o'qitish xarajatlarining hazaviy normativlarini tasdiqlash to'g'risida"gi №24/8-son (16.04.2009) qarori |
| 3 | 2010-yil | Barcha mintaqalar | Umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining № 34/№ 16, № 35/№ 15 son (28.04.2010) qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining № 24/№ 8-son (14.04.2011) qarori |
| 4 | 2010-yil | Barcha mintaqalar | Oliy ta'lim muassa-salari | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining № 67/№ 329-son (20.08.2010) qarori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida № 2136-son (26.08.2012) bilan ro'yxatga olingan |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 5 | 2011-yil | Barcha mintaqalar | O'rta maxsus kasb hunar ta'limi muassasa-lari | O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazining № 25/№ 08-son (22.03.2011) Qo'shma qarori |

O'zbekistonda ta'lim sohasida o'quvchi jon boshiga moliyalashtirish usulini bosqichma-bosqich va barcha hududlarda joriy etish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Barcha umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida bir nafar o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga, talabaga) mo'ljallangan xarajatlarning bazaviy normativlarini joriy etish shartlarini qat'iy belgilovchi hukumat qarorlarining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi muhim qadam hisoblanadi.

## 15.4. Maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish

Mustaqillik yillarida respublikamizda milliy ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida mamlakatda noyob uzluksiz ta'lim tizimi barpo etildi.

Maktabgacha ta'lim sohasi mazkur tizimning ilk bo'g'ini hisoblanadi va butun ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo'lgan – barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

*Maktabgacha ta'limning maqsadi* –
bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlash, sog'lom, har tomonlama yetuk, erkin shaxsni tarbiyalash, bolalarning qobiliyatini ochish, ularda o'qishga, muntazam ta'lim olishga havas uyg'otishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim bolalarda o'qishga havas uyg'otish, ularni tizimli ravishda o'qishga tayyorlash, sog'lom va barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni[182] bilan "uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida:

– O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda ularning tuman(shahar)lardagi bo'limlari tashkil etildi;

– respublika hududlarida 50, 70, 100, 120 va 150 o'ringa mo'ljallangan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim

[182] "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2017-yil 9-oktyabr, 40-son, 1054-modda.

muassasalarini qo'shimcha barpo etish orqali bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olish, bolalarga maktabgacha ta'lim-tarbiya berishning muqobil turlarini amaliyotga joriy etishga qaratilgan kompleks dasturlar ishlab chiqildi.

2018-yil boshiga kelib respublikada 4 911 ta davlat maktabgacha ta'lim muassasasi (MTM) faoliyat olib borayotgan bo'lib, 2 mln. 450 mingga yaqin bog'cha yoshidagi (3-7 yosh) bolalarning 739 ming 600 nafari (30,2 foizi) MTM bilan qamrab olingan[183]. Ushbu sohada sog'lom va har tomonlama rivojlangan o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan 57 mingdan ortiq mutaxassislar mehnat qilmoqda[184].

Maktabgacha ta'lim, shakli va usullaridan qat'i nazar, quyidagi vazifalarni bajaradi (15.5-rasm):

– bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;

– bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish;

– bolaning shaxsini va boshqa jihatlarini rivojlantirgan holda uni boshlang'ich ta'limni olishga tayyorlash;

– ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

– bolaning rivojlanishidagi (nutqida, ko'rishida, eshitishida) yengil nuqsonlarni korreksiyalashni amalga oshirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyat xususiyatlariga ko'ra quyidagi tiplarga bo'linadi:

– umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalari;

– ixtisoslashtirilgan (jismoniy va ruhiy rivojlanishida turli nuqsonlari mavjud bo'lgan bolalar uchun) maktabgacha ta'lim muassasalari;

---

[183] Fuqaroler uchun byudjet. O'zbekiston Respublikasi Molia vazirligi, RMTTD. T.: 2018. 37-b.

[184] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3261 son qaroriga sharh (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 984 modda).

– sanatoriy tipidagi (zaif, turli yuqumli kasalliklarni boshdan kechirgan, surunkali asoratlarga ega bo'lgan bolalar uchun) maktabgacha ta'lim muassasalari.

15.5-rasm. **Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari**[185]

Muassasaning qanday tipga mansubligi uning xarajatlarini rejalashtirishda hisobga olinadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatini byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar doirasida amalga oshiradi.

Umumiy tipdagi davlat MTMlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlar MTMlarining bo'ysmuviga ko'ra tumanlar va shaharlarning mahalliy byudjetlaridan mablag' bilan ta'minlanadi. Ixtisoslashtirilgan va sanatoriy tipidagi MTMlari, odatda, viloyatlar byudjetlaridan yoki respublika byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadi.

[185] Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 528-sonli qaroriga 1-ilova) 2-bob, 7-band asosida.




15.6-rasm. **Maktabgacha ta'lim muassasasi mol-mulki va moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalari**[186]

Shuningdek, MTMlarning xarajatlarini rejalashtirishda bog'chalarning ishlash rejimi, ya'ni ularda bolalarning bo'lish vaqti (4 soatlik, 9 soatlik, 10,5 soatlik, 12 soatlik) inobatga olinadi.

Ma'lumki, yuqorida nomi keltirilgan PF-5198-sonli Prezident farmoniga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish belgilangan. Bugungi kunda (2018-yil boshiga) mamlakatimizda 200 ga yaqin nodavlat ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda[187]. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari

[186] Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 528-sonli qaroriga 1-ilova) asosida.
[187] Manba: http://uzedu.uz

to'g'risida"gi Qaroni bilan davlat-xususiy sheriklchilik shartlari asosida tashkil qilinadigan nodavlat MTMlarini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlash choralari ko'zda tutilgan. Xususan, davlat byudjetidan nodavlat MTMlarga davlat maktabgacha ta'lim muassasasining bir nafar tarbiyalanuvchisiga sarflanadigan summaning 50 foizidan yuqori bo'lmagan miqdorda subsidiyalar ajratilishi belgilangan. Subsidiyalar nodavlat ta'lim muassasalarga bar oyda ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan har bir bola uchun (9 va 10,5 soatlik ish rejimidagi) davlat maktabgacha ta'lim muassasasining bir nafar tarbiyalanuvchisiga sarflanadigan xarajatlar summasining Toshkent shahrida – 30 foizi, Nukus shahri hamda viloyat markazlarida – 40 foizi, qolgan hududlarda 50 foizi miqdorida ajratiladi[188].

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish Mazkur bobning oldingi paragrafida ta'kidlanganidek, ta'lim sohasini moliyalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator hukumat qarorlari doirasida "pul o'quvchining ortidan boradi"gan tamoyil bo'yicha byudjet mablag'larini taqsimlashning muqobil va oshkora mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish asosida jon boshiga (o'quvchi, tarbiyalanuvchi soniga) moliyalashtirish tartiblari joriy qilindi.

Eslatib o'tamiz, jon boshiga moliyalashtirishda ta'lim muassasalari xarajatlarining umumiy hajmi bir nafar o'quvchi (tarbiyalanuvchi) uchun o'rnatilgan xarajatlar me'yori, o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) soni va muassasalarning u yoki bu xususiyatlarini (muassasaning katta-kichikligi, isitish tizimi, alohida toifadagi o'quvchilarni o'qitish dasturlari) aks ettiruvchi koeffitsiyentlarga asoslangan maxsus formula asosida aniqlanadi.

Davlat MTMlari byudjetini aniqlash maqsadida Moliya vazirligi va tarmoq vazirliklari bilan birgalikda bar moliyaviy yil uchun "Bir nafar tarbiyalanuvchiga xarajatlarning bazaviy

[188] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 maydagi "Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklchilik munosabatlarini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 378 sonli qaroni, 2-ilova. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.05.2018 y., 09/18/378/1259 son).

normativlaridan kelib chiqqan holda davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlanadi.

MTMlarining byudjetini aniqlash bir nafar tarbiyalanuvchilarga xarajatlarning bazaviy normativlari (XBN) va tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Masalan, 2017-yil uchun davlat MTMlari byudjetini aniqlash tartiblariga ko'ra, xarajatlarning bazaviy normativlariga quyidagilar kiritilgan:

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tarbiyachilar, rahbar va yordamchi xodimlar mehnatiga haq to'lash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish jamg'armasi, yagona ijtimoiy to'lov xarajatlari;

MTMni saqlash bilan bog'liq boshqa xarajatlar (kommunal xizmatlar, joriy ta'mirlash, tovar, xom-ashyolar, oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish va boshqa xizmatlar).

Ayrim xarajatlar XBN tarkibiga kiritilmasligi mumkin, masalan, har bir MTMning ehtiyojlaridan kelib chiqib ajratiladigan ko'mir va suyuq yoqilg'i (mazut) xarid qilish va uni joylarga yetkazish, kommunal xizmat iste'moli hisoblagichlarini xarid qilish va o'rnatish, MTMning kuz-qish mavsumida uzluksiz faoliyatini ta'minlashga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq ta'mirlash ishlari (isitish qozonlarini o'rnatish va almashtirish) kabi xarajatlar tashkilotning yillik smetasiga mahalliy hokimiyatlarning manzilli dasturlariga muvofiq alohida tarzda kiritilgan.

Har bir MTM uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larning umumiy hajmini hisoblash bir nafar tarbiyalanuvchi xarajatlarining bazaviy normativlari va XBNlarini tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llagan holda quyidagi formula asosida amalga oshiriladi[189]:

---

[189] "Bir nafar tarbiyalanuvchiga xarajatlarning bazaviy normativlaridan kelib chiqqan holda davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida soddalashtirilib keltirilgan.

$$MTMB = (T / K) * XBN\ 1 + T * XBN\ 2 * Kis + Bo \quad (15.1.)$$

Bunda:

MTMB – MTM byudjeti;

T – tarbiyalanuvchilar soni;

K – guruhdagi bolalarning to'liqlilik koeffitsiyenti;

XBN 1 – bir nafar tarbiyalanuvchi uchun xarajatlarning bazaviy normativi;

XBN 2 – MTMning boshqa (IV guruh) xarajatlari bo'yicha bir nafar tarbiyalanuvchi uchun xarajatlarning bazaviy normativi;

Kis – markaziy isitish tizimi yoki gaz bilan isitiladigan MTM uchun isitish koeffitsiyenti;

Bo – MTMning oziq-ovqat byudjeti,

Formuladagi bog'cha guruhlardagi bolalarning to'liqlilik koeffitsiyenti guruhlarning to'liqlilik me'yorlari asosida aniqlanadi. Gap shundaki, davlat maktabgacha ta'lim muassasasining har bir guruhidagi bola soni me'yori kamida 20 nafar bo'lishi, biroq 25 nafardan ortiq bo'lmasligi lozim.[190] Shunga ko'ra, guruhdagi bolalarning to'liqlilik koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$K = T / G * 20 \quad (15.2.)$$

Bunda:

G – guruhlar soni;

20 – har bir guruhning to'liqlilik (bola soni) me'yori.

15.1-formuladagi Bo – MTMning oziq-ovqat byudjeti umumiy tarzda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Bo = XBNo * (To + 0,29 * Tb) \quad (15.3.)$$

Bunda:

XBNo – bir nafar tarbiyalanuvchi uchun oziq-ovqat xarajatlarining bazaviy normativi;

[190] Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 528-sonli qaroriga 1-ilova) 5-bob, 32-band asosida.

To – ota onalar to'lovidan ozod qilingan bolalar soni;

Tb - bir oiladan ikki va undan ortiq bola qatnaydigan bolalar soni.

Yuqoridagi formula Toshkent shahrida, viloyatlar markazlarida va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlarda hamda tumanlar markazlari va boshqa joylarda joylashgan MTM uchun alohida-alohida (bolalarning ovqatlanishi uchun ota-onalarning to'lovlari summalaridagi farqlarni inobatga olgan holda) ishlab chiqiladi. Lekin muhimi, formulaning asosini, yuqorida ta'kidlanganidek, tarbiyalanuvchilar soni, oziq-ovqat xarajatlari me'yori va tuzatuvchi koeffitsiyentlar tashkil qiladi.

Xarajatlarning bazaviy me'yorlari va tuzatuvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda aniqlangan MTMning byudjeti rejalashtirilayotgan yilda xarajatlar smetasi bo'yicha unga ajratiladigan mablag'larning umumiy hajmini belgilab beradi. Xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali va pedagog xodimlarning tarifikatsiya ro'yxatini tuzish MTMning rahbari va hosh hisobchisi (hisobchisi) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2014-yil 14-noyabridagi 74-son bo'yrug'i bilan tasdiqlangan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (ro'yxat raqami № 2634, 2014 yil 15 dekabr) qat'iy rioya etgan holda, xarajatlar bazaviy normativlari asosida hisoblangan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mablag'larni taqsimlashda quyidagi ketma ketlikka qat'iy amal qilinadi:

– ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov;

– oziq-ovqat xarajatlari;

– kommunal xarajatlar;

– boshqa joriy xarajatlar;

– muassasaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha tadbirlar.

## 15.5. Umumta'lim maktablari xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq muddati 9 yil bo'lgan umumiy o'rta ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining faoliyatini amalga oshirish Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom"[191] bilan tartibga solinadi.

Umumta'lim muassasasi yuridik shaxs hisoblanadi va o'z ustaviga, mustaqil balansiga, shaxsiy g'azna bisobvaraqlariga (davlat ta'lim muassasalari uchun), bank hisobraqamlariga, o'z nomi ko'rsatilgan muhriga, shtampga va blankalarga ega bo'ladi. Davlat umumta'lim muassasalarida umumiy o'rta ta'lim olish bepul amalga oshiriladi.

*Umumiy o'rta ta'limning maqsadi –*
Davlat ta'lim standartlariga muvofiq har bir shaxsning ta'lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarish

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 9628 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyat yuritadi. Umumta'lim maktablariga ajratilgan byudjet mablag'lari davlat

[191] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 11-son, 167-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2018-y., 09/18/134/0809-son, 05.06.2018-y., 09/18/410/1304-son.

byudjetning ta'lim tizimiga ajratilayotgan jami xarajatlarning qariyb 60 foizini tashkil qiladi[192].

15.7-rasm. **Umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalari**[193]

Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar) hamda umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

*Boshlang'ich ta'lim* o'quvchilarda o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash xislatlari, o'zini o'zi nazorat qilish, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi asoslarini egallashni ta'minlashga yo'naltiriladi.

[192] Fuqarolar uchun byudjet. O'zbekiston Respublikasi Molia vazirligi, BMTTD. T.: 2018. B. 37, 39-betlar.
[193] Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom, 2-bob, 9-band.

*Umumiy o'rta ta'lim* muntazam va tizimli bilimlar olinishini, keng dunyoqarash hamda ijodiy mustaqil fikrlash shakliantirilishini, o'quvchining barkamol shaxs sifatida kamol topishini, uning qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarining rivojlantirilishini ta'minlaydi. Umumiy o'rta ta'lim umumta'lim muassasasi bitiruvchilariga yo'nalishni ixtiyoriy tanlash asosida ta'limni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida davom ettirish huquqini beradi.

Umumta'lim muassasalarining quyidagi turlari tashkil etilishi mumkin:

– boshlang'ich maktab (o'qitish muddati 4 yil: I-IV sinflar);

– umumiy o'rta ta'lim maktabi (o'qitish muddati 9 yil: I-IX sinflar);

– ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati 9 yil: I-IX sinflar);

– ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internat (o'qitish muddati 5 yil: V-IX sinflar);

– olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 7 yil: V-XI sinflar);

– jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab (maktab-internat) (o'qitish muddati 9 (10) yil: I-IX (X) sinflar);

– sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat (o'qitish muddati 9 yil: I-IX sinflar);

– alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati zaruriyatga ko'ra).

Shuningdek, davolash-profilaktika muassasalarida statsionar sharoitda uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalarga bevosita muassasaning o'zida umumiy o'rta ta'lim berish tashkil etiladi.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, alohida sharoitlarda yoxud uzoq muddat davolanishga muhtoj

bo'lgan bolalarning ta'lim olishlari quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

– jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabda (maktab-internatda);

– sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatda;

– inklyuziv (uyg'unlashgan) sharoitda yashash joylaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida;

– uyda yakka tartibda;

– davolash-profilaktika muassasalarida statsionar sharoitda.

O'quvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning ehtiyojidan kelib chiqib, bolalarning ta'lim-tarbiyasiga ko'maklashish maqsadida umumta'lim muassasalarida kuni uzaytirilgan guruhlar tashkil etilishi mumkin. Ularning faoliyat ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Umumta'lim muassasasida sinflarning to'liqlilik me'yori bir sinfda 35 nafar o'quvchi hisobida belgilangan.

Namunaviy loyihalar bo'yicha qurilmagan, moslashtirilgan binolarda joylashgan, o'quvchilar soni yetarli bo'lmagan umumta'lim muassasalarida, olis (tog'li, cho'lli) aholi punktlarida joylashgan umumta'lim muassasalarida, shuningdek o'zbek tilida o'qitilmaydigan umumta'lim muassasalarida, ya'ni kam komplektli umumta'lim muassasalarida (filiallarda) boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi hollarda bitta sinfga birlashtirilishi mumkin:

– o'quvchilar soni 8 nafargacha bo'lgan I-IV sinflar;

– o'quvchilar soni 12 nafargacha bo'lgan uchta boshlang'ich sinf;

– o'quvchilar soni 24 nafargacha bo'lgan ikkita boshlang'ich sinf (I va III, II va IV sinflar).

Malakali o'qituvchilar yetarli bo'lgan hollarda sinfdagi o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib o'qitishga

ruxsat etiladi: o'quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining I-IX sinflarida "Chet tili" fani, ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ixtisoslashgan fanlar, V-IX sinflarda "Informatika" va "Mehnat ta'limi". VIII-IX sinflarda "Jismoniy tarbiya", ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarinmg II-IX sinflarida "O'zbek tili" fani hamda ta'lim tili rus tili bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarinmg II-IX sinflarida "Rus tili" fani.

Bugungi kunga kelib ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu chora-tadbirlar doirasida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2018-2019-o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda amalga oshiriladi[194].

Davlat umumta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

– O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti mablag'lari;

– umumta'lim muassasasining tadbirkorlik faoliyatidan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan shartnoma asosida pullik xizmat ko'rsatish, bino va inshootlarni, jihoz va anjomlarni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

[194] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313 sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618 son.

15.8-rasm. **Majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni amalga oshiruvchi muassasalarning guruhlanishi**[195]

– jismoniy va yuridik shaxslarning qonun bilan taqiqlanmagan homiylik xayriyalari, mahalliy hamda xalqaro tashkilotlarning grantlari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.




15.9-rasm. **Davlat umumta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish manbalari**[196]

---

[195] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-sonli farmonining 1-bandi asosida (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018-y., 06/18/5313/0618-son).

Umumta'lim muassasasida o'quvchilarga davlat ta'lim standartlari doirasida bepul umumiy o'rta ta'lim berilishidan tashqari, qo'shimcha (shu jumladan pulli) ta'lim xizmatlari ko'rsatilishi, jumladan, ota-onalarning istaklariga ko'ra, umumta'lim muassasalarida pulli xizmat asosida 5-6 yoshli bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlov guruhlari ham tashkil etilishi mumkin.

Davlat umumta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish. Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan umumta'lim muassasalari byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartiblari joriy etilgan bo'lib, bu tartib-qoidalarga ko'ra, umumta'lim maktablari byudjetl bazaviy xarajatlar me'yorlari asosida formula bo'yicha hisoblanadi. Formula asosida umumta'lim muassasasi byudjetini aniqlash maqsadida har moliya yili uchun "Bazaviy xarajatlar me'yorlari hamda ularga tuzatuvchi koeffitsiyentlarni qo'llash asosida umumta'lim maktablari byudjetini hisoblash bo'yicha Nizom" ishlab chiqiladi hamda Moliya vazirligi va Xalq ta'limi vazirligining qo'shma buyruqlari bilan tasdiqlanadi. Formulaning asosini umumta'lim muassasasidagi o'quvchilarning o'rtacha yillik soni (sinf pog'onalari bo'yicha), bir o'quvchiga to'g'ri keladigan bazaviy xarajatlar me'yorlari va muassasaning ayrim xususiyatlarini inobatga oluvchi tuzatuvchi koeffitsiyentlar tashkil qiladi.

Masalan, 2017 yil uchun tasdiqlangan umumta'lim maktablari byudjetini hisoblash formulasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$BSH = (BNZ_1*N_1*K_1 + BNZ_2*N_2*K_2)*K_{mah} + BNZ_3 + \\ + BNZ_4*N*K_{in} + BNZ_5*N_3 + BNZ_6*N_4 + BNZ_7*N_5 \quad (15.2.)$$

Bunda:

BSh – maktab byudjeti;

[196] Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizom, 9-bob, 73 band.

$BNZ_1$, $BNZ_2$ – sinf pog'onalari bo'yicha xarajatlarning bazaviy me'yorlari;
$N_1$, $N_2$ – sinf pog'onalari bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;
$K_1$, $K_2$ –xorijiy tillar o'qituvchilari tarif stavkasiga har oylik ustamalarni o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan tuzatuvchi koeffitsiyent;
N - o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;
$K_{mash}$ – maktab masshtabi koeffitsiyenti;
$K_{in}$ – markaziy yoki gazli isitish tizimiga ega maktablar uchun tuzatish koeffitsiyenti;
$BNZ_3$ – boshqaruv va yordamchi xodimlarni saqlash bo'yicha bazaviy me'yor;
$BNZ_4$ – 4 guruh xarajatlari bo'yicha bazaviy me'yor;
$BNZ_5$ – kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar – kuni uzaytirilgan guruhlarga (KUG) qatnovchi o'quvchilar uchun bazaviy me'yor;
$N_3$ – kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar – KUGga qatnovchi o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;
$BNZ_6$ – uyda ta'lim oluvchilar uchun xarajatlarning bazaviy me'yori;
$N_4$ – uyda ta'lim oluvchilarning o'rtacha yillik soni;
$BNZ_7$ – maktab qoshidagi internatda yashovchi bir o'quvchiga xarajatlarning bazaviy me'yori;
$N_5$ – maktab qoshidagi internatda yashovchi o'quvchilarning o'rtacha yillik soni.

Formuladagi umumta'lim muassasasida sinf pog'onalari bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha yillik soni quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{N = (N_1*8 + N_2*4) / 12 \text{ yoki } N = (2N_1 + N_2) / 3} \qquad (15.2.)$$

Bunda:

N - sinf pog'onalari bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha yillik soni;

$N_1$ – rejalashtirilayotgan yilning 1-yanvar holatiga sinf pog'onalari bo'yicha o'quvchilar soni

$N_2$ – rejalashtirilayotgan yilning 1 sentyabr holatiga sinf pog'onalari bo'yicha kutilayotgan o'quvchilar soni

8, 4, 12 – oyiar soni.

Byudjet xarajatlarini rejalashtirishda byudjet yili ta'lim muassasalaridagi o'quv yili bilan mos keimaganligi bois, o'quvchilar kontingentini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlarning o'rtacha yilligi hisoblanadi. O'quvchilarning o'rtacha yillik sonini hisoblashda rejalashtirilayotgan yilning 1-yanvar va 1-sentabr holatiga bo'lgan o'quvchilar soni aniqlanadi: maktablarda 1-yanvardan to yangi o'quv yili boshlanguniga qadar o'quvchilarning o'tgan yildan o'tuvchi soni (8 oy davomida), 1 sentabrdan boshlab esa – o'tgan o'quv yilida o'qishni bitirgan va yangi o'quv yilida qabul qilinganlarni hisobga olgan holda aniqlangan o'quvchilar soni amal qiladi (4 oy davomida).

*Masalan*, agar yil boshiga maktabdagi o'quvchilar soni 500 nafar, 1-sentabrda esa 650 nafar bo'lishi kutilayotgan bo'lsa, u holda o'quvchilarning o'rtacha yillik soni quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{(500 \times 8) + (650 \times 4)}{12} = \frac{6600}{12} = 550$$

Umumta'lim muassasasi byudjetming umumiy hajmini aniqlash formulasidagi bazaviy xarajatlar normativlari va tuzatuvchi koeffitsiyentlar har moliyaviy yil uchun ishlab chiqiladi va "Bazaviy xarajatlar me'yorlari hamda ularga tuzatuvchi koeffitsiyentlarni qo'llash asosida umumta'lim maktablari byudjetini hisoblash bo'yicha Nizom"ning tegishli ilovalarida keltiriladi (bu me'yorlar va koeffitsiyentlar viloyatlar bo'yicha, har bir viloyatda - ta'lim pog'onalari bo'yicha, uyda ta'lim oluvchilar bo'yicha va maktab qoshidagi internatlar

bo'yicha bir-biridan farq qilishi mumkin, bu tegishli hududlardagi tovar va xizmatlar narxidagi farqlarga bog'liq).

Umumta'lim maktablarida bir o'quvchiga bazaviy xarajatlar me'yorlari tarkibiga quyidagi xarajat turlari kiritilgan:

– O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy hujjatlariga muvofiq, pedagogik xodimlar, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar, xodimlarni moddiy rag'batlantirish Direktor jamg'armasi, yagona ijtimoiy to'lov;

– asosiy faoliyatidan ajralgan holda malaka oshirish kurslariga yuborilgan pedagog xodimlarning o'rniga ishlovchi pedagoglarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar;

– umumta'lim muassasalarini saqlash bilan bog'liq boshqa xarajatlar (kommunal xizmatlarni to'lash, joriy ta'mirlash, materiallar sotib olish va h.).

Ayrim turdagi xarajatlar bazaviy xarajatlar me'yorlari tarkibiga kiritilmasdan muassasa byudjetida alohida ko'zda tutilishi mumkin. Masalan, turli yillarda bazaviy xarajatlar me'yorlari tarkibiga quyidagi xarajatlar kiritilmagan:

– ko'mir sotib olish va tashib keltirish;

– "Ziyo-net" ta'lim tarmog'iga ulanish va undan foydalanganlik uchun oylik abonentnik to'lovi;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25 yanvardagi 33-sonli "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashning 2002-2003-yillarga mo'ljallangan Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq markaziy davriy nashrlarga obuna bo'lish xarajatlari;

– o'quv-laboratoriya sinflari uchun materiallar sotib olish;

– barcha turdagi kommunal xizmatlar iste'moli hisoblagichlarini sotib olish va o'rnatish;

– kuzgi-qishki mavsumda uzluksiz ishlashni ta'minlash bilan bog'liq ta'mirlash ishlari, shu jumladan, isitish qozonlarini almashtirish va o'rnatish.

Yuqorida sanab o'tilgan xarajatlar muassasalarga manzilli ro'yxatlar asosida har bir ta'lim muassasasining ehtiyojiga ko'ra, xalq ta'limi hududiy organlari va moliya organlari tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat asosida ajratiladi.

Bundan tashqari, qonun tomonidan alohida iqlim sharoitlari uchun ish haqiga hududiy koeffitsiyentlar o'rnatilgan hududlarda joylashgan umumta'lim maktablari smetalarida bazaviy xarajatlar me'yorlari bo'yicha amqlangan mablag'larga qo'shimcha ravishda bu to'lovlarni o'rnatilgan tartibda to'lash uchun mablag'lar ko'zda tutiladi.

Bir o'quvchiga moliyalashtirish me'yorini hisoblashda viloyatlar bo'yicha, har bir viloyatda – maktablarning masshtabi (ulardagi o'quvchilar soniga ko'ra katta-kichikligi) va maktabni isitish tizimiga ko'ra bir-birdan farq qiladigan quyidagi tuzatuvchi koeffitsiyentlar ishlatiladi:

– maktab masshtabi koeffitsiyenti;

- markaziy yoki gazli isitish tizimiga ega maktablar uchun koeffitsiyent.

Kuni uzaytirilgan guruhlar(KUG)ni saqlash xarajatlari bunday guruhlar (bunda KUGdagi o'quvchilar soni 25 tadan kam bo'lmasligi kerak) mavjud bo'lgandagina hisob kitob qilinadi. KUGdagi bir o'quvchiga bazaviy xarajat me'yoriga KUGga qatnaydigan kam ta'minlangan oilalardan chiqqan o'quvchilarni ovqatlantirish xarajatlari kiritilgan bo'lib, ularnimg soni KUGga qatnovchi o'quvchilar sonning 15 foizidan oshmasligi kerak.

Nogiron bolalarga uyda dars beruvchi o'qituvchilarga ish haqi to'lash (yagona ijtimoiy to'lovni ham hisobga olgan holda) va yo'l haqi qiymatiga oylik kompensatsiya to'lash xarajatlari ushbu maktabda bu toifadagi o'quvchilar bo'lgan taqdirda ularning o'rtacha yillik sonini uyda o'qitish bazaviy xarajat me'yoriga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi.

Maktab qoshidagi internatda yashaydigan bir o'quvchiga bazaviy xarajat me'yori maktabdan ancha uzoqda yashagani uchun umumta'lim maktabi qoshida yashovchi bolalarning yashashi uchun mo'ljallangan internat mavjud bo'lganda qo'llaniladi. Bunda maktab qoshidagi internatda yashovchi bir o'quvchiga bazaviy xarajat me'yori maktab-internatdagi bolalarni saqlash uchun qonun bilan o'rnatilgan to'lov miqdorini va maktab internatda yashovchi o'quvchilar kontingentining 15 foizdan ko'p bo'lmagan qismini ushbu to'lovdan ozod qilishni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Xarajatlar smetasini, shtatlar jadvalini tuzish va pedagogik xodimlarni tarifikatsiyalash umumta'lim maktabining rahbari va bosh buxgalteri (buxgalteri) bilan birga qat'iy o'rnatilgan tartibda va hajmlari bazaviy xarajat me'yorlari asosida aniqlangan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Ish haqi xarajatlarini rejalashtirish. Ta'lim tizimida jon boshiga moliyalashtirish amaliyoti umumta'lim muassasalari faoliyatining so'nggi natijalariga qaratilgan bo'lib, mamlakat miqyosida milliy darajada amalga oshirilayotgan boshqa tashabbuslar (masalan, ta'lim tizimi xodimlari ish haqlarini oshirish, ularni rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish) bilan uyg'unlikda ta'lim xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirishga turtki bo'lmoqda.

Bugungi kunda maktab faoliyatida muhim bo'lgan masalalardan biri – pedagog va pedagog bo'lmagan boshqa xodimlarga haq to'lash masalasi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bular:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 25-noyabrdagi "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-227-sonli qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq talimi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 2005 yil 21 dekabr 275-sonli qarori;

– Xalq ta'limi vazirligi va Mehnat va aholim ijtimoiy himoya qilish vazirligining 2005-yil 26-dekabrdagi №315/№4984 sonli qo'shma buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumta'lim maktablari o'qituvchilari va rahbar xodimlari yuklamasini aniqlash va taqsimlash bo'yicha yo'riqnoma";

– O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2006-yil 5-yanvardagi 03, 01/23 sonli qo'shma buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumta'lim muassasalari o'qituvchilarini tarifikatsiyalash va ish haqini hisoblash tartibi bo'yicha metodik ko'rsatmalar";

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 25-dekabr 275-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning Direktor jamg'armasi to'g'risida nizom".

Byudjet amaliyotida xalq ta'limi muassasalari, shu jumladan, umumta'lim maktablari xodimlari mehnatiga haq to'lash xodimlarni tarifikatsiya qilish asosida amalga oshirilib, uning natijasiga ko'ra tarifikatsiya ro'yxati tuziladi. Tarifikatsiya ro'yxati quyidagi ko'rsatkichlarni aks ettiradi:

– o'qituvchilarning nasl-nomasi;
– malaka toifasi;
– ma'lumoti va u haqidagi hujjat ma'lumotlari;
– dars beradigan fanlari;
– qaysi sinflarda dars berishi (boshlang'ich, yuqori);
– oylik lavozim okladi (bazaviy tarif stavkasi);
– o'quv va pedagogik soatlar soni;
– asosiy ish haqiga qo'shimcha va ustamalar.

O'qituvchilar tarifikatsiya ro'yxati Xalq ta'limi vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2006-yil 5-yanvar 03, 01/23-sonli qo'shma buyrug'i bilan qabul qilingan "Umumta'lim muassasalari o'qituvchilarini tarifikatsiyalash va ish haqini hisoblash tartibi bo'yicha metodik ko'rsatmalar" asosida tuziladi.

O'qituvchining umumiy yuklamasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2005-yil 21-dekabr 275-sonli qaroni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi xodimlariga haq to'lash to'g'risidagi Nizom" asosida aniqlanadi. Umumiy yuklama o'quv va pedagogik yuklamalardan iborat bo'lib, bir yilga 1548 soatni tashkil etadi[197].

O'quv yuklama me'yori boshlang'ich sinflarda 18 soatni, yuqori sinflarda 20 soatni tashkil qiladi. Shuning uchun pedagogik stavkalar soni boshlang'ich va yuqori sinilar bo'yicha alohida hisoblanadi.

Pedagogik yuklama o'rnatilgan o'quv yuklamasiga proporsional ravishda boshlang'ich sinflarda 1,0 va yuqori sinflarda 0,8 koeffitsiyentlarni qo'llash orqali aniqlanadi. (Namunaviy reja bo'yicha o'qituvchining umumiy oylik yuklamasi 154,8 soatni tashkil etadi. Haftalar soni bir oyda 4,3 hafta hisobida belgilangan. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining 1,0 stavkasi uchun haftalik umumiy yuklamasi 36 soatni tashkil etadi, shundan o'quv yuklamasi – 18 soat, pedagogik yuklama – 18 soat, yuqori sinf o'qituvchisining 1,0 stavkasi uchun haftalik umumiy yuklamasi 36 soatni, shundan 20 soat o'quv yuklamasi va pedagogik yuklama - 16 (20x 0,8) soatni tashkil etadi[198].)

Tarifikatsiya ro'yxatida, ta'kidlanganidek, har bir o'qituvchining bir oylik lavozim okladi aks ettiriladi. Umumta'lim maktablari pedagogik xodimlarining oylik lavozim okladlari har bir xodimning lavozimi va malaka toifasi uchun o'rnatilgan bazaviy tarif stavkasi hamda qonun bilan belgilangan qo'shimchalar va ustamalar asosida shakllanadi.

Bazaviy tarif stavka quyidagilarni o'z ichiga oladi:

yagona tarif setkasi asosida aniqlangan tarif stavkasini;

---

[197] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-y. 21 dekabr 275-sonli qaroni bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi xodimlariga haq to'lash to'g'risida"gi Nizomga muvofiq.

[198] "Umumta'lim muassasalari o'qituvchilarini tarifikatsiyalash va ish haqini hisoblash tartibi bo'yicha metodik ko'rsatmalar" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 2006-y. 5-yanvardagi 03, 01/23 sonli qo'shma buyrug'iga ilova.

– qonun bilan belgilangan tarif stavkasiga o'rnatilgan doimiy ustama va qo'shimchalarni;

– pedagog va rahbar xodimlarning alohida toifalari ish haqiga kompensatsion to'lovlarni.

Pedagog xodimlar bazaviy tarif stavkalari:

– xodimning lavozimiga;

– xodimning malaka toifasiga;

– ta'lim muassasasining tipiga bog'liq ravishda tabaqalashtirilgan bo'ladi.

Xalq ta'limi vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Adliya vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan birgalikda tasdiqlangan "Pedagogik va rahbar xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish va malaka toifalarini berish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq xalq ta'limi xodimlariga quyidagi malaka toifalari berilishi mumkin:

– o'rta maxsus, kashiy (pedagogik yoki bajarilayotgan lavozim vazifalariga muvofiq bo'lgan) ma'lumotga ega bo'lgan *toifasiz xodim*;

– bakalavr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan *mutaxassis*;

– bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan *ikkinchi toifali mutaxassis*;

– bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan *birinchi toifali mutaxassis*;

– bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan *oliy toifali mutaxassis*.

Maktab pedagog xodimlari bazaviy tarif stavkalarining aniq miqdori hukumatning maxsus qarorlari bilan

tasdiqlanadigan xalq ta'limi muassasalari pedagog xodimlariga haq to'lashning tarmoq tarif setkasi asosida o'rnatiladi.

Pedagog xodimlar tarif stavkasiga qonun bilan o'rnatilgan *doimiy ustama va qo'shimchalar* quyidagilardan iborat:

– sinfga rahbarlik qilganligi uchun;

– daftar va yozma ishlarni tekshirganlik uchun.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 2005-yil 21-dekabr 275-sonli qaroriga muvofiq mazkur ustamalar miqdori: sinf rahbarligi uchun – eng kam ish haqining 100 foizi hajmida, daftar va yozma ishlarni tekshirganlik uchun – eng kam ish haqining 50 foizi hajmida belgilangan edi. Lekin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-yil uchun O'zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1887-sonli qarori bilan Vazirlar Mahkamasining 275-sonli qaroriga bu borada tegishli o'zgarishlar kiritildi. Ushbu o'zgarishlarga ko'ra umumta'lim muassasalari o'qituvchilariga eng kam ish haqiga nisbatan o'rnatiladigan quyidagi qo'shimchalar belgilanadigan bo'ldi:

a) sinf rahbarligi uchun sinfdagi o'quvchilar soniga ko'ra:

– 15 nafargacha bo'lsa – 50 foiz;

– 16 dan 20 nafargacha bo'lsa – 60 foiz;

– 21 dan 25 nafargacha bo'lsa – 70 foiz;

– 26 dan 30 nafargacha bo'lsa – 80 foiz;

– 31 va undan yuqori bo'lsa – 100 foiz;

b) daftar va yozma ishlarni tekshirganligi uchun – 50 foiz, sinflarda o'quvchilar soni 15 nafargacha bo'lsa – 25 foiz.

Bu to'lovlar shu maqsadlar uchun maxsus ajratiladigan byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari pedagog xodimlar oylik lavozim okladiga (Vazirlar mahkamasining 275-son qarori bilan tuzilgan) umumta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning Direktor jamg'armasidan to'lanadigan ustamalar kiradi. Bu ustamalar xodimlarga:

– o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar va sinfdan tashqari ishlarni olib borishning yuksak darajasi uchun – tegishli malaka toifasidagi o'qituvchining bazaviy tarif stavkasiga nisbatan *15 foizgacha* bo'lgan miqdorda;

– kashiy mahorati va ta'lim jarayoniga qo'shgan aniq hissa, yuqori samaradorlik va o'qitish sifati uchun – tegishli malaka toifasidagi o'qituvchining bazaviy tarif stavkasiga nisbatan 25 *foizgacha* bo'lgan miqdorda belgilanadi.

Direktor jamg'armasi hisobidan to'lanadigan har oylik ustamalar va boshqa rag'batlantirish turlarini tayinlash hamda ustama va mukofotlar hajmini belgilash tartibi, rag'batlantirish va mukofotlash uchun xodimlar faoliyatini baholash mezonlari, o'rnatilgan ustamalarning amal qilish muddatlari, jamg'arma hisobidan amalga oshiriladigan to'lovlarni soliqqa tortish tartibi va Direktor jamg'armasining amal qilish shart-sharoitlarini belgilab beruvchi boshqa tartib-qoidalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabr 275 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumta'lim maktablarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning Direktor jamg'armasi to'g'risidagi Nizom"da batafsil aks ettirilgan.

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirib, o'qituvchining oylik ish haqi tarkibini quyidagi chizmada aks ettirish mumkin (15.10-rasm):




15.10-rasm. **Umumta'lim maktablarida o'qituvchining oylik ish haqi tarkibi**

Umumta'lim muassasasining eng katta xarajat guruhi – ish haqi fondi bo'lib, ish haqi xarajatlari xodimlarning quyidagi guruhlari bo'yicha hisob-kitob qilinadi va rejalashtiriladi:

– pedagog xodimlar ish haqi;

– o'quv yordamchi va ma'muriy-xo'jalik xodimlari ish haqi;

– ish haqiga qonun bilan o'rnatilgan qo'shimcha va ustamalar.

Ish haqi xarajatlarini rejalashtirish jarayonida ishlatiladigan eng muhim ko'rsatkichlardan biri *pedagogik stavkalar sonidir*. Pedagogik stavkalar soni ikki ko'rsatkich asosida hisoblanadi: *o'quv soatlari soni* va *o'qituvchining haftalik o'quv yuklama me'yori*.

*O'quv soatlari soni* Davlat ta'lim standartlariga muvofiq bir haftadagi majburiy o'quv soatlarining maksimal sonini belgilab beruvchi o'quv rejalari asosida aniqlanadi. Haq to'lanadigan dars soatlari sonini aniqlashda ayrim fanlar bo'yicha (masalan, rus tili, chet tillari, informatika, jismoniy tarbiya) mashg'ulotlar o'quvchilarni ikki guruhga ajratib olib borilishini hisobga olish kerak. Shunday qilib, haftalik umumiy o'quv soatlari soni sinf guruhlari bo'yicha (I-IV, V-IX, X-XI) sinflar sonining bir sinfga to'g'ri keladigan o'quv soatlari soniga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

O'quv soatlari sonini aniqlab olgach va o'qituvchining haftalik o'quv yuklamasi me'yorini bilgan holda (boshlang'ich sinflarda – 18 soat, yuqori sinflarda – 20 soat) *pedagogik stavkalar sonini* hisoblash mumkin. Pedagogik stavkalar soni sinf guruhlari bo'yicha haftalik o'quv soatlari sonini shu sinf guruhi bo'yicha o'qituvchining haftalik o'quv yuklama me'yoriga bo'lish orqali hisoblanadi. Pedagogik stavkalar soni ko'rsatkichidan o'qituvchilarning ish haqi xarajatlarini rejalashtirishda foydalaniladi.

Barcha sinf guruhlari (I-IV, V-IX, X-XI) uchun zarur bo'lgan pedagogik stavkalar soni hamda tarifikatsiya ro'yxatlari o'qituvchilarning oylik ish haqi fondining umumiy summasini aniqlash imkonini beradi. O'qituvchilarning tarifikatsiya

ro'yxati natijalariga ko'ra sinf guruhlari bo'yicha *pedagogik stavkalar soni* va *o'qituvchining o'rtacha oylik ish haqi stavkasi* hisoblab topiladi, bu ko'rsatkichlar asosida esa o'qituvchilarning ish haqi fondi rejalashtiriladi.

Tegishli sinf guruhlari bo'yicha pedagogik stavkalar soni quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\boxed{\mathbf{Ps = O's * N * S}} \qquad (15.3.)$$

bu yerda:

Ps – sinf guruhlari bo'yicha pedstavkalar soni;

O's – tarifikatsiya ro'yxati bo'yicha shu sinf guruhi uchun umumiy o'quv soatlari soni;

N – shu sinf guruhi uchun 1 pedstavkaga to'g'ri keladigan rejaviy o'quv yuklama me'yori;

S – shu sinf guruhi bo'yicha sinflar soni.

Sinf guruhlari bo'yicha o'qituvchining bir oylik o'rtacha ish haqi stavkasini topishda quyidagi formula ishlatiladi:

$$\boxed{\mathbf{IHo'r = Fih * Ps}} \qquad (15.4.)$$

bu yerda:

IHo'r – sinf guruhlari bo'yicha o'rtacha ish haqi stavkasi;

Fih – tegishli sinf guruhlari bo'yicha tarifikatsiya ro'yxatiga asosan bir oylik ish haqi fondi;

Ps – sinf guruhlari bo'yicha pedstavkalar soni.

Xarajatlar smetasida alohida tarzda daftar va yozma ishlarni tekshirganlik uchun xarajatlar hisob-kitobi keltiriladi. *Daftar tekshirganlik uchun ish haqi fondi* bir sinfga to'g'ri keladigan daftar tekshirganlik uchun o'rtacha xarajat miqdorini barcha sinf guruhlari bo'yicha sinflar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Bir sinfga to'g'ri keladigan daftar tekshirganlik uchun o'rtacha xarajat miqdori quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\boxed{\mathbf{DTo'r = Fdt * S}} \qquad (15.5.)$$

bu yerda:

DTo'r – bir sinfga to'g'ri keladigan daftar tekshirganlik uchun o'rtacha xarajat miqdori;

Fdt – tarifikatsiya bo'yicha tegishli sinf guruhlari bo'yicha daftar tekshirganlik uchun ish haqi fondi;

S – shu sinf guruhlari bo'yicha sinflar soni.

Aniqlangan ko'rsatkichlar asosida maktab bo'yicha pedagog xodimlarning umumiy ish haqi fondi hisoblab topiladi.

*Ta'lim muassasalari rahbar xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatlari.* Ta'lim muassasalari rahbar xodimlarining ish haqlari o'quvchilar kontingenti bo'yicha aniqlangan muassasa guruhlariga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabr 275 sonli qarorining 2-ilovasiga bmoan) ko'ra tabaqalashtirilgan bazaviy tarif stavkasi asosida aniqlanadi. O'quvchilar soniga ko'ra esa maktablar to'rtta guruhga ajratilgan.

*Ta'lim muassasalarining boshqa xodimlari mehnatiga haq to'lash xususiyatlari.* Maktab o'quv yordamchi va ma'muriy-xo'jalik xodimlari ish haqlari shtatlar jadvali va lavozim okladlari sxemasi asosida aniqlanadi. Umumta'lim maktablari rahbar xodimlari, ma'muriy-xo'jalik, o'quv-yordamchi va boshqa xodimlar shtati umumta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan va amalda bo'lgan namunaviy shtatlar asosida shakllantiriladi. Mazkur namunaviy shtatlarda direktor, direktor o'rinbosarlari, xo'jalik mudiri, ish yurituvchi, katta yetakchi, kutubxona mudiri, kutubxonachi kabi lavozimlar bo'yicha maktablardagi sinflar sonidan kelib chiquvchi shtat me'yorlari keltirilgan. Ayrim lavozimlar soni (masalan, harbiy rahbar, laborant, to'garak rahbari va sh.k.) sinflar soniga ko'ra, ayrimlari – o't yoquvchi, isituvchi, ko'cha supuruvchi, qorovul, farrosh kabilar – maktab binolari, inshootlarning texnik xarakteristikalari, isitish tizimi va tozalanadigan maydonning o'lchamlariga ko'ra bir guruh lavozimlar, masalan, injener-dasturchi – maktabda jihozlangan kompyuter xonalari(sinflari)ning mavjudligiga ko'ra o'rnatiladi.

*Umumta'lim maktablarning o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirishning Direktor jamg'armasi mablag'larni rejalashtirish.* Bu kod bo'yicha umumta'lim maktablarning o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirishning Direktor jamg'armasi mablag'lari rejalashtiriladi va moliyalashtiriladi. Mazkur Jamg'arma to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabr 275-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, unga muvofiq, Direktor jamg'armasi mablag'lari "umumtalim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayoniga katta shaxsiy hissa qo'shayotgan, o'z kashiga sodiqlik va tashabbuskorlik, yuqori kasb darajasini namoyon etayotgan iqtidorli o'qituvchilarni rag'batlantirishga, shuningdek, umumta'lim muassasalari xodimlariga bir martalik mukofotlar to'lashga va moddiy yordam ko'rsatishga (favqulodda hollarda) yo'naltiriladi."

Direktor jamg'armasi mablag'lari har bir umumta'lim muassasasining xarajatlar smetasida nazarda tutiladi, ular byudjet tasnifining 41 10 000 - "Ish haqi" kodining tarkibiga 41 11 210 - "Umumta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning Direktor jamg'armasi mablag'lari" kodi bo'yicha kiritiladi. Mazkur kod bo'yicha xarajatlar maktab bo'yicha hisoblangan mehnat haqi fondining 15 foizi doirasida rejalashtiriladi. Lekin har bir byudjet yili uchun Direktor jamg'armasining foizlarda aniqlangan aniq miqdori Moliya vazirligi tomonidan davlat byudjeti parametrlarini ishlab chiqish chog'ida byudjet tasnifining 7 090 000 - "Ta'lim" 200 tegishli paragrafi bo'yicha mehnatga haq to'lashga mo'ljallangan byudjet xarajatlari hajmidan kelib chiqqan holda o'rnatiladi va respublikaning barcha umumta'lim maktablari uchun yagona bo'lib hisoblanadi.

IV guruh "Boshqa xarajatlar" barcha byudjet tashkilotlari uchun o'rnatilgan tartiblarda amalga oshiriladi.

## 15.7. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida[199] koliejlar vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarga biriktirilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekistondagi kasb-hunar kollejlarining kelajakdagi qiyofasi haqida gapirishdan avval iqtisodiyoti u qadar rivojlanmagan mamlakatdan qisqa vaqt oralig'ida yuqori texnologiyalar mamlakatiga aylangan, ushbu sohada katta sakrashni amalga oshirgan Koreya, Finlyandiya va Singapur tajribasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Mamlakatlar bunday yutuqqa o'z ta'lim tizimiga to'g'ri o'zgartirishlarni kiritgani, ta'lim tizimida to'g'ri siyosatni olib borgani uchun erisha oldi. Ular o'qituvchilikka iste'dodli kadrlarni jalb qilish maqsadida, ularning maoshi va obro'sini keskin oshirgan edi.

Bugungi kunda O'zbekistonda kasb-hunar kollejlarida ta'limning o'zgarishi bu ayni damda faoliyat yuritayotgan kollejlarning "yoppasiga yopiladi", degani emas. Koliejlar vazirlik va idoralar, buyurtmachi ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarga biriktiriladi. Har bitta tayyorlov yo'nalishi bo'yicha rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqiladi, milliy malaka talablari belgilanadi va kasbiy standart ishlab chiqiladi. Kasbiy standart ma'nosi shuki, deylik, bitta ish o'rni ishchidan qanday malaka va ko'nikmalarni talab qiladi, ushbu holat o'rganilib, shu asosda modulli o'quv rejalari paydo bo'ladi. Ta'lim jarayoni esa doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi. Bundan maqsad – kasb-hunar ta'limi tizimi iqtisodiyot rivojlanishining muhim komponentiga aylanadi, ya'ni kollejlarda yuqori

[199] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-sonli qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2018 y., 07/18/3504/0654 son)

malakali ishchilar, zamonaviy kasb egalari, iqtisodiyotning o'rta bo'g'ini mutaxassislari tayyorlanadi.

Yaqin istiqbolda kasbiy standartlar, milliy malaka talablari xalqaro kvalifikatsiya standartlariga mos ravishda ishlab chiqiladi. Bu degani, kollejlarda jahon mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Kasblarning, mutaxassisliklarning murakkabligidan, o'quvchilar egallashi kerak bo'lgan bilimi, malaka, ko'nikma va kompetensiyalar hajmidan kelib chiqib tabaqalashtirilgan 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan ta'lim dasturlari joriy qilinadi.

Ayni damda koliejlar faqat 9-sinf bitiruvchilarini qabul qilgan bo'lsa, endilikda bunday standartlardan voz kechilmoqda. Misol uchun, fuqaro o'z kasbini o'zgartirishni niyat qildi deylik, u o'zi yashaydigan hududda yangi qurilgan to'qimachilik fabrikasiga ishga kirish uchun kasb-hunar o'rganmoqchi. Biroq, bunday niyatda bo'lganlarga keskin "yo'q" javobi berilgan. Sog'lig'i to'g'ri kelmaganligi sababli, boshqa kasbni egallamoqchi bo'lgan fuqarolar ham xuddi shunday muammoga duch kelishgan.

Endilikda esa kollejlarda nafaqat maktab bitiruvchilari, hunga qadar ham o'rta maxsus ma'lumot olgan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan, ishsiz qolish xavfi ostida qolgan ixtiyoriy yoshdagi fuqarolar ham tahsil olishlari mumkin bo'ladi.

Kelgusida O'zbekiston fuqarolari mehnat bozorida talab yuqori darajada bo'lgan kasb-hunar sirlarini qisqa muddat ichida o'qib o'rganishlari yoki mehnat bozorida yaxshi ish o'rnini qo'lga kiritish uchun o'z malakalarini oshirishlari mumkin bo'ladi.

Hozirgacha kollejlar faqat kunduzgi ta'lim shakliga ega edi. Endilikda kollejlarda kunduzgidan tashqari, sirtqi, masofaviy va uyg'unlashtirilgan ta'lim yo'nalishlari yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, hozirda o'qish muddati 3 yil majburiy bo'lgan bo'lsa, endilikda kasblarning murakkabligidan kelib chiqib 6

oydan 2 yilgacha muddatda ixtiyoriy etib belgilandi, ya'ni yangi kashni o'rganishga ehtiyoj bo'ldimi, kelib o'qib ketaverish imkoniyati yaratildi.

Endilikda kollejlarda ta'lim innovatsion texnologik jarayonga o'tkaziladi. Zamonaviy kollejlarda o'quv materiallari kashga o'rganuvchida tasavvur uyg'otishi uchun vizuallashtiriladi, videodarslar yo'lga qo'yiladi (o'quvchi xohlagan vaqtda o'tilgan darsni qaytadan ko'rishi mumkin bo'ladi), videoinstruktorlar ta'lim jarayoniga kiritiladi (darsda biron sabab tufayli qatnasha olmagan talabalar uchun bu katta qulaylik tug'diradi).

Shuningdek, virtual amaliy mashg'ulotlar, multimediya resursları yaratiladi, virtual laboratoriyalar tashkil qilinadi. Endilikda kollejlarda qattiqqo'l "mening aytganim bo'ladi" deydigan pedagoglar o'rnini insonning yoshiga qarab, uning salohiyatini belgilay oladigan, ta'lim olish jarayonida unga hamrohlik qiladigan "o'qituvchi-andragog"lar egallaydi. Ularning mahorati va salohiyatini oshirish maqsadida yangitdan tashkil etilgan Innovatsion rivojlantirish institutida maxsus maqsadli o'quv kursları, semmar treninglar, masofaviy hamda onlayn kurslar tashkil etiladi. Endilikda kollejlarda o'quvchilar vatanparvarlik ruhida va professional kasb egaları qilib tarbiyalanadi.

Ta'lim dasturlari toifalariga bog'liq bo'ladi: 50 dan ortiq kasblarga tayyorlash ta'lim dasturlari 10-11-sinflarda ta'lim olish davomida o'rgatiladi va to'liq davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

Yuqori texnologik tayyorgarlik talab qiladigan 6 oydan 1 yilgacha bo'lgan kasbiy ta'lim dasturlari buyurtmachi isb beruvchi korxonalar, idora va tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi.

Buyurtmachisi bo'lmagan shaxslar o'zlarining shaxsiy jamg'armalari hisobidan to'lovni amalga oshirishi mumkin.

1,5-2 yillik mutaxassislikni egallash bo'yicha o'rta maxsus o'rta bo'g'in ta'lim dasturlari oliy ta'limga muqobillik asosida

bir qismi davlat granti hisobidan, bir qismi kontrakt hisobidan amalga oshiriladi.

Kelgusida kollejlarda stipendiya, oziq-ovqat, kiyim-kechaklar bilan ta'minlanish masalalari kollejni saqlash xarajatlarini qoplaydigan vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat hanklari imkoniyatlari doirasida belgilanadi.

Iqtisodiy jihatdan barqaror vazirlik, idora, korporatsiyalar, yirik ish beruvchilar o'zlarining aksionerlari, ichki imkoniyatlari doirasida o'quvchilar uchun qo'shimcha stipendiya va shu kabi qo'llab quvvatlashlarni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi.

O'rta maxsus, kas-hunar koliejlari maqomining o'zgarishi, ularning ta'lim tizimining majburiy shaklidan ihtiyoriylik asosidagi ta'lim shakliga o'tkazilishi ular moliyaviy xo'jalik faoliyatiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi, ular mablag'larinmg manbalari tarkibida byudjet mablag'lari bilan bir qatorda, korxonalar, tashkilotlar, vazirliklar, davlat idoralarining mablag'lari, to'lov-kontrakt asosidagi mablag'lar ortib boradi.

Zamonaviy sharoitda mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'tgan yillarda kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunim yangilashni ta'minlash maqsadida uning huquqiy bazasini mustabkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, iqtidorli yoshlarning xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlarida ularni manzilli qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator tizimli chora-tadbirlar ko'rildi.

Shu bilan birga umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning bugungi

kun talablarga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi[200].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-sonli qarori bilan *kasb-hunar kollejlarning moliyalashtirish manbalari* sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Vazirliklar va idoralarning iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtiriladigan kasb-hunar kollejlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari:

– to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun tushadigan mablag'lar;

– vazirliklar va idoralarning ushbu maqsadlarga xarajatlar smetasida har yili nazarda tutiladigan byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari.

2. Xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarning iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtiriladigan kasb-hunar kollejlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari:

– to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun tushadigan mablag'lar;

– xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarning mablag'lari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar mablag'lari.

3. Ko'p tarmoqli kasb-hunar kollejlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari – mutaxassislarni to'lov-

---

[200] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-sonli farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018-y., 06/18/5313/0618-son).

kontrakt asosida o'qitish va qayta tayyorlash uchun ota-onalar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlarining mablag'lari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan kam ta'minlangan oilalardan o'quvchilar kasb-hunar (ko'p tarmoqli) kollejlarida, ularning idoraviy mansubligidan qat'iy nazar bepul asosda o'qitiladigan tartib belgilab qo'yildi. Shuningdek, kasb-hunar kollejlarining o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlashni oshirish maqsadida belgilangan tartibda ta'lim xizmatlari ko'rsatilishini, faoliyatining tadbirkorlik, maslahatlar berish, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, innovatsion va boshqa turlarini yo'lga qo'yish belgilandi. Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarning tasarrufidagi kasb-hunar kollejlarini saqlash, kadrlarni o'qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashga maqsadli tarzda yo'naltirilgan mablag'lari barcha turdagi soliqlardan va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod etiladi.

## 15.7. Xorijiy davlatlarda ta'lim tizimini moliyalashtirish tajribalari

Ta'lim tizimiga qilingan xarajatlar – inson omiliga investitsiyadir. Jamiyat va davlat bunday investitsiyalardan manfaatdor, chunki ta'lim darajasini oshirish iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, mehnat unumdorligini oshiradi, ijtimoiy muammolarni yumshatadi. Shuning uchun ham ta'limga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar alohida ustuvorlik kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimiga ajratiladigan xarajatlar mamlakatlar YAIMining o'rtacha 3,5-5,5 foizini tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichning ko'p yoki kam ekanligini bilish uchun quyidagi ma'lumotga murojaat qilamiz: "Mamlakatda ta'lim tizimining barqaror rivojini ta'minlash

uchun mamlakat YAIMining 7-8 foizini safarbar qilish maqsadga muvofiq"[201].

*15.2-jadval*

**Turli davlatlarda umumiy ta'limga davlat ajratmalari[202]**

*foizda*

| Ko'rsatkichlar | Buyuk Britaniya | AQSH | Fransiya | Yaponiya |
|---|---|---|---|---|
| Ta'limga davlat xarajatlari, YaIMga nisbatan | 5,5 | 5,3 | 5,7 | 3,5 |
| Ta'limga xarajatlar, davlat xarajatlariga nisbatan | 12,5 | 13,7 | 10,6 | 9,5 |
| Xarajat moddalari bo'yicha muassasa xarajatlari: | | | | |
| Xodimlarga ish haqi | 73,1 | 71,8 | 74,6 | 79,7 |
| Smeta xarajatlari bo'yicha: | | | | |
| Joriy xarajatlar | 91,5 | 88,8 | 90,2 | 90,3 |
| Kapital xarajatlar | 8,5 | 11,2 | 9,8 | 9,7 |

Mamlakatlar uchun kadrlar tayyorlash sohasi bir nechta sabablarga ko'ra muhimdir. Birinchidan, bu mamlakat rivojlanishining yuqori darajalariga erishish yo'lidagi muhim qadam hisoblansa, ikkinchidan, ta'limning sifati va samaradorligi inson kapitalining yuqori salohiyatini belgilab beradi. Har bir mamlakatda kadrlar tayyorlashni moliyalashtirishning turlicha modellaridan foydalaniladi. Ayrim davlatlarda ta'limni moliyalashtirishga asosan xususiy mablag'lar yo'naltirilsa, ayrimlarida bu sektor asosan davlat mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. Keyingi yillarda

[201] FutaoHuang. Higher education financing: Trends and challenges. International Journal of Educational Development. January 2018, Pages 106-115

[202] http://www.auditfin.com elektron manzili ma'lumotlari asosida tuzildi.

mamlakatimizda ta'lim sohasiga yo'naltiriladigan davlat va xususiy sektor mablag'lari o'rtasidagi nisbat birmuncha o'zgardi va xususiy manbalarning ustunligi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy jibatdan rivojlangan xorijiy mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirishning hajmi va usullari bir qator omillarga ko'ra belgilanadi:

– mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi;

– oliy talim oldiga davlat va jamiyat qo'yadigan vazifalarning ko'lami;

– mamlakatda qaror topgan milliy qadriyatlar va an'analar;

– oliy talim muassasalarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xosligi.

Mana shu holatlar ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning milliy modelining shakllantirishga xizmat qiladi.

*Yaponiya,* masalan AQSb, Kanada va Shvetsiyadagi kabi barcha uchun barobar bo'lmagan, aksincha, oliy maqomdagi oliy ta'lim modeliga ega, davlatning ta'limga xarajatlarining YalMdagi ulushi sezilarli darajada past. AQSh, Kanada va Shvetsiyada oliy ta'lim hamma uchun ochiq, lekin bu – mamlakat rabbar doiralarining olib borayotgan siyosati, milliy an'analarning natijasi hisoblanadi. Agar Yevropa mamlakatlari, xususan Fransiya, Germaniya oliy ta'lim tizimini davlat byudjeti hisobidan ustuvor darajada moliyalashtirib va davlat tomonidan nazorat qilib, bozor iqtisodiyotining salbiy ta'siridan himoya qilsa, AQShda oliy ta'lim an'anaviy tarzda federal hukumatdan mustaqil, bozor tuzilmalari bilan muntazam aloqada faoliyat qiladi, hatto davlat ta'lim muassasalari ham pullik asosda faoliyat qiladi.

Hukumat tomonidan ajratiladigan davlat grantlari, talabalardan ta'lim uchun olinadigan haq, tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlar – oliy ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlaydigan manbalar hisoblanadi. Turli mamlakatlarda bu manbalarning nisbati turlicha bo'lib, bu nisbat har bir mamlakatda ma'lum davrlarda o'zgarib turadi. Ta'lim muassasasi talabalari kundalik sarf-xarajatlarini o'zlari

ko'taradilar. Buning uchun *ota-onalarning mablag'lari; hukumatdan olingan individual grantlar; talabalarga tarqatiladigan maxsus zaymlar; qo'shimcha daromadlar* kabi manbalar va imkoniyatlar mavjud. Shuni ta'kidlash joizki, tizimdan, jamiyatdan yoki qaysi mamlakatlikldan qat'iy nazar xarajatlar u yoki bu tarzda quyidagi to'rt manbadan olinishi mumkin: ota-onalar, talabalar, soliq to'lovchilar va ta'lim muassasasi. Qayd etilgan moliyalashtirish manbalari ikki guruhga ajraladi: davlat va xususiy.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda davlat byudjetini muvozanatlashtirish maqsadida davlat xarajatlari hajmini qisqartirishga harakat qilinadi. Hatto g'arbiy Yevropada moliyalashtirish nisbati hukumat grantiga nisbatan ochiq-oydin oliy o'quv yurtining tijorat faoliyatidan yoki ta'lim uchun to'lovdan keladigan daromad tomon siljimoqda. Germaniya kabi mamlakatlarda ta'lim uchun to'lov amalda nominal tarzda belgilanadi, Buyuk Britaniyada esa ancha sezilarli darajada yuqori, lekin ko'pchilik mamlakatlarda bu xarajatlarning og'irligi talaba yashaydigan tuman yoki shahar hokimiyati zimmasiga tushadi, hukumat ta'lim muassasalariga mustaqil tarzda ta'lim uchun haq belgilashni taqiqlaydi. Hozirgi paytda bu tizim o'zgarishlarga uchramoqda va tez orada ko'pgina g'arb mamlakatlarida ta'lim uchun haq to'lashni ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydi va moliyalashtirish asosan talabalar tomonidan amalga oshiriladi. Prognozlarga qaraganda bu hol ta'lim sifatini ko'tarishga imkon beradi, chunki talabalar o'zlari tanlagan o'quv yurtlariga yuqori talab qo'yadilar, ta'lim muassasalari esa o'z navbatida, ta'lim jarayoniga yuqori e'tibor qaratadilar. Umuman olganda, ancha yuqori mehnat unumdorligini va umuman aholining yuqori daromadini ta'minlovchi yuqori darajadagi ta'lim hisobidan jamiyat faqat yutadi, bu – ta'limga ketadigan xarajatlar bir qismini hukumat moliyalashtirishi ma'qul ekanligining yaqqol dalilidir. Keyingi o'rinda esa hukumatlarning e'tiborini talabalar (ularning ota-onalari) tomonidan to'lanadigan badallarning adolatli nisbatiga

jamlash mumkin. Bugungi kunda ko'pgina G'arb mamlakatlarida bu nisbatda ko'proq talabalar hisobidan moliyalashtirishning hissasi ortib, hukumatning salmog'i kamayib bormoqda.

Ba'zi mamlakatlarda talabalarga kredit berish rivojlangan. Talabalar moliyaviy holatining keskinlashuvi bilan bog'liq ziddiyat oqibat natijada o'qish uchun xarajatlarning bir qismini o'zining ish haqi hisobidan moliyalashtirishga o'tishga olib keldi. Bu o'qish muddatining uzayishiga va ta'limning ancha moslashuvchan modeliga talabning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatdi. Ammo ta'lim uchun talabalardan olinadigan haq hatto AQSh davlat ta'lim muassasalaridagi ta'limga sarflarning faqat 20 foizini qoplaydi, xolos (xususiy ta'limda 33%). Qolgan xarajatlar davlat va xususiy manbalardan moliyalashtiriladi. Ko'pgina mamlakatlarda oliy ta'limni davlatdan moliyalashtirishda byudjet taqchilligi yildan yilga saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ta'lim muassasalariga moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlab topish huquqi beriladi va bunda ularga har tomonlama yordam ko'rsatiladi.

Tijorat faoliyati quyidagi shakllarda olib boriladi:

– universitet maydonlari va jihozlaridan konferensiyalar va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazishda foydalanish;

– ta'lim muassasalari ko'rsatadigan xizmatlardan yoki ularga tegishli yerdan foydalanuvchi firmalarni tuzish;

– ta'lim muassasasi mutaxassislarining tijorat kompaniyalariga maslahatlar berishini ta'minlash;

– aholiga qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish;

– buyurtmalar asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish va boshqalar.

Universitetlarga daromad keltiruvchi samarali tizimni barpo etish yo'lida amaliy qiyinchiliklar, masalan, foydani ta'lim muassasalari va firmalar o'rtasida taqsimlash borasida vujudga keladi. Ma'lumki, agar universitet foydasining hammasiga ega chiqsa, bunday universitetda hech kim firma

ochmaydi. Ta'lim muassasalariga tijorat faoliyatidan keladigan foyda qayta investitsiyaga yo'naltirilsa, hunday hollarda ta'lim muassasalariga beriladigan soliq imtiyozi sezilarli ahamiyat kasb etadi.

Bino, laboratoriya, kutubxona, kompyuter markazlariga qo'shimcha sarflarsiz va professor-o'qituvchilarni qo'shimcha jalb qilmay talabalar qabulini oshirish ta'lim muassasalari samaradorligini oshirishning eng oson yo'li hisoblanadi. Buni faqat ta'lim muassasasiga jalb etilgan xodimlari ma'qullagandagina oqlash mumkin. Biroq ko'pgina universitetlarning professor-o'qituvchilari ilmiy-tadqiqot faoliyatida qatnashadilar yoki tadqiqot institutlari bilan bog'langanlar, bunday yondoshuv cheklangan imkoniyatga ega. Obyektiv sabablarga ko'ra universitetning boshqa funksiyalarini cheklamay turib, o'qituvchilar yuklamasini oshirish mumkin emas: talabalar soni faqat qo'shimcha resurslar hisobigagina oshirilishi mumkin. Mana shuning uchun, masalan, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda 60-yillarda ta'lim tizimi juda qimmatga tushgan usulda kengaytirildi – mutlaqo yangi ta'lim muassasalari (asosan universitetlar) bunyod etildi.

Ancha keyinroq quyidagi tadbirlarga asosan mutaxassislar yetishtirishga e'tibor qaratildi:

– kurslar muddatini qisqartirish;

– akademik yilni yozgi ta'limni ham qo'shib oshirish;

– sirtqi va kechki ta'limni ancha kengaytirishdan foydalanish;

– katta guruhlarda ma'ruza o'qish (bu tegishli moddiy bazasiz mumkin emas) va ko'p sonli o'qituvchilarni talab qilmaydigan ta'limni qo'shib olib borish;

– masofaviy o'qitishdan ancha kam foydalanish.

Shunisi ayonki, yetarlicha resurslar bilan yordam bermay turib, ta'lim muassasalariga samaradorlikni oshirish borasida tazyiq o'tkazish ham ta'lim, ham ilmiy tadqiqotlar sifatining pasayish ehtimolini oshiradi. Mana shuning uchun

samaradorlik ancha tez sur'atlar bilan oshib borayotgan mamlakatlarda vaqt-vaqti bilan ham ta'lim, ham ilmiy jarayonni barobar baholashga harakatlar amalga oshirilmoqda.

Byudjet mablag'lari haddan ziyod tejaladigan Yaponiya tajribasiga murojaat etaylik. Yaponiya ta'lim tizimi mamlakat umumiy byudjeti uchun nisbatan arzon tushmoqda: Yaponiya hukumatining ta'limga qiladigan sarfi yalpi milliy mahsulotning 5,5-6 foizini tashkil etadi, AQShda bu ko'rsatkich 7,1 foizni, Buyuk Britaniyada esa 7,7 foizni tashkil etadi. Shunga qaramay, yapon o'quvchilari va talabalari ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha boshqa mamlakatlardagi tengdoshlaridan o'zib ketgan. Ko'rinadiki, yapon ta'lim tizimining asosiy ustunligi iqtisodga institutsional o'ziga xoslikka, xususan, davlat va xususiy sektor nisbatiga va o'quv yurtlarini moliyalashtirishning o'ziga xosligiga borib taqaladi: nodavlat sektorning ahamiyati boshlang'ich ta'limdan oliy ta'limga tomon oshib boradi.

Yaponiyada oliy ta'lim barcha xohlovchilarga ochiq emas. U ham davlat, ham xususiy ta'lim muassasalariga tayanadi. Yaponiyada davlat universitetlari asosan tabiiy-ilmiy, muhandislik fanlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash bilan shug'ullanadi; nodavlat universitetlar, qoidaga ko'ra gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy ixtisosliklar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashgan. Ko'rinib turibdiki, davlat ko'p sarf talab etadigan ixtisoslik bo'yicha mutaxassis tayyorlashni o'z bo'yniga olmoqda: ma'lumki, zamonaviy muhandisni tayyorlash, aytaylik huquqshunos yoki iqtisodchini tayyorlashdan ko'ra qimmatga tushadi. Shunday qilib, ta'lim tizimi bozorning nobarqarorligidan o'zini muhofaza qiladi. Vaholanki, xususiy ta'lim muassasalari ko'p xarajattalab va nazariy fanlar bilan bog'liq ixtisosliklar olishga qo'yilgan boshlang'ich mablag'larning qaytmaslik xavfi tufayli rivojlanish imkoniyati pasayadi.

Davlat ta'lim standartlarini shunday belgilaydiki, nodavlat sektorida xarajatlar minimal darajaga keladi, bu ta'lim uchun

haqni pasaytiradi, nodavlat oliy ta'limiga talahni oshiradi. Oqibat natijada nodavlat universitetlarining soni ko'payadi. Bunga dotatsiya siyosati ham, qimmat tushmaydigan ixtisoslikka o'qitish uchun litsenziya berish va o'qituvchi malakasiga talab ancha past ekanligi ham ko'maklashadi. Bu ish haqini tejashga, xususiy universitetlarda bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar sonining ko'p bo'lishiga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, yapon ta'lim tizimi o'z muvaffaqiyati uchun ham hukumat boshqaruvi darajasidagi, ham davlatning o'zidagi, ham nodavlat ta'lim tizimidagi *menejment madaniyatining* yuqoriligidan minnatdor bo'lsa arziydi.

Ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning asosiy manbalari(davlat va xususiy manbalar)ga bag'ishlangan munzaralarga qaytib, oliy ta'lim tadqiqotchilari konsorsiumi va YuNESKOning Oliy ta'lim bo'yicha Yevropa markazi (SEPES) ekspertlari fikrini keltirish o'rinlidir. Ular sof davlat yoki mutlaqo xususiy tarzda ta'lim muassasalarini moliyalashtirishdan ko'ra *aralash moliyalashtirish* ancha samarali bisoblanadi, degan xulosaga kelganlar. Bu ham davlat, ham xususiy ta'lim muassasalari uchun birdek samaralidir. Shu ma'noda, AQSh ta'lim muassasalarini moliyalashtirisb tizimi e'tiborga molik.

Tarixan Amerikadagi ilk kollejlar xususiy korporatsiyalar tarzida shakllangan. Ular davlatdan mutlaqo mustaqil tarzda o'z ta'lim siyosati, standartlari va tartiblarini ishlab chiqqanlar. Ammo, II Jahon urushidan keyingi yillarda davlat ta'lim muassasalaridagi talabalar miqdori muttasil oshib bordi. Agar 1950-yilda talabalarning 49 foizi xususiy kollej va universitetlarda ta'lim olgan bo'lsa, keyinchalik davlat mahalliy kollejlari tarmog'ining kengayishi tufayli nisbat o'zgardi: davlat ta'lim muassasalaridagi talabalar ulushi 78 foizdan oshdi.

Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom beruvchi AQShdagi 3500 ta'lim muassasasining yarmidan ko'prog'i – xususiy

korporatsiya hisoblanadi, moliyalash bo'yicha mas'uliyat homiylar zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ular mashhur sobiq bitiruvchilar va boshqa filantropik yordam ko'rsatuvchilardan iborat. AQShdagi mashhur tadqiqot universitetlarining ko'pchiligi – Garvard, Stenford, Stel, Chikago universitetlari va boshqa nom qozongan kollejlar, xususan, Amxerstdagi, Uilyamsdagi, Karetondagi ta'lim muassasalari xayriyalarning sezilarli qismini oladilar va yuqori mavqega egadirlar. Bu ularga ta'lim uchun yuqori darajada haq olish imkonini beradi (90-yillar boshida 20 ming dollardan yuqori bo'lgan).

Keyingi o'n yilliklarda AQShdagi xususiy ta'lim muassasalarining soni davlatga qarashliarnikidan ko'ra tezroq oshib bordi, ammo, ulardagi talabalar soni, birinchi galda, ta'lim uchun haq yuqoriligi, shuningdek, davlat ta'lim muassasalarida ham aynı bir xil diplom olish mumkinligi tufayli qisqarib ketdi. Bundan tashqari AQSh xususiy ta'lim muassasalari o'z hajmiga ko'ra davlatnikidan ancha kichiq.

Amerika ta'lim muassasalarini moliyalashtirish besh asosiy manbadan amalga oshiriladi:

– federal byudjet, shtatlar byudjetlari va mahalliy hokimiyatlardan ajratiladigan mablag'lar;

– ta'lim va xizmatlar uchun talabalarning to'lovlari;

– ta'lim muassasasining o'z faoliyatidan oladigan daromadlari;

– filantropik tashkilotlar va ayrim xususiy shaxslar xayriyalari;

– xususiy tashkilotlar va shaxslar tuzgan maxsus jamg'armalarda to'plangan mablag'lardan foizlar.

Davlatning oliy ta'limga yordami ta'lim muassasasi umumiy daromadining o'rtacha 40-45 foizini tashkil etadi va quyidagicha taqsimlanadi: federal hukumat byudjetidan – 10-15 foiz, shtatlar byudjetidan – 25-30 foiz, mahalliy hokimiyat byudjetidan – 2-5 foiz.

Federal yordam, Amerikalik mutaxassislar xulosasi bo'yicha foyda olish maqsadida emas, balki zarurat tufayli

shakllangan va ta'lim bevosita milliy manfaatlarga xizmat qilishi va milliy qadriyatning ahamiyatli unsuri ekanligiga ko'ra hozirgi darajasiga erishadi.

Shuni aytish joizki, oliy ta'limning davlat yoki xususiy sektor ko'p yoki kam samaraliligi xususida birdek ma'lumot va dalillarni uchratish qiyin. Xususiy ta'lim muassasalari ulushi ustunroq bo'lgan mamlakatlar ham asosan davlat ta'lim tizimi shakllangan davlatlar erishgan natijalarni qo'lga kiritmoqda va aksincha, xususiy ta'limning keng tarqalishi na iqtisodda, na ta'lim sohasida qoniqarli natijalarga olib kelmayotgan mamlakatlar ham mavjud.

Shunday qilib, keyingi o'n yilliklardagi klassik universitetlar taraqqiyoti umumjahon miqyosida oliy ta'lim iqtisodiyotidagi quyidagi umumiy yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi:

1. Yevropadagi ko'pgina mamlakatlarda keyingi bir necha yillar mobaynida nisbatan (ayrim joylarda mutlaqo) oliy ta'limni moliyalashtirishning pasayishi yuz berdi. Bu hol Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi umumiy iqtisodiy pasayish bilan bog'liq. Dunyodagi yirik universitetlarning barchasi o'z sarflarini faqat ijtimoiy sohalardagina emas, balki o'z professorlarini xizmat safariga yuborish va taklif etilganlarni qabul qilishda ham qisqartirmoqdalar. Masalan, Germaniyaning faxri bo'lgan Geydelberg universiteti barcha o'quv-ilmiy laboratoriyalarining, ular universitetga qay darajada foyda keltirishi nuqtayi nazaridan muntazam tahlilini o'tkazadi, tahlil natijalariga ko'ra esa o'zini oqlamagan ayrim laboratoriyalarini yopadi.

2. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning ta'lim muassasalari davlat tomonidan moliyalashtiriladigan o'quv-ilmiy va madaniy markazdan tobora ko'proq, korporativ xususiyatlarga ega bo'lgan bozor iqtisodiyotining iqtisodiy subyektiga aylanmoqda, shu jumladan, ular tarkibiy bo'linmalarining samaraliligi va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini baholash olib borilmoqda. Universitetlarda ta'limning

qo'shimcha, iqtisodiy jihatdan foydali bo'lgan turli shakllarining soni ko'paymoqda, ilmiy tadqiqotlar esa tobora amaliy xususiyat kasb etmoqda va firmalar yoki xususiy jamg'armalar tomonidan moliyalashtirilmoqda; ta'limning turli shakllarida mutaxassislar tayyorlash tannarxi bo'yicha faol tadqiqotlar olib borilmoqda, ta'lim uchun haq to'lashning tabaqalashtirilgan variantlari ko'rib chiqilmoqda.

3. Ta'lim muassasalari taklif etayotgan qushimcha ta'lim xizmatlarining keskin o'sishi, shu jumladan, ta'lim muassasasini tugatgandan keyin ham ta'lim xizmatlarini ko'rsatish. Bu jarayonni davlat ham rag'batlantirmoqda, chunki yuqori malakali mutaxassisga ehtiyoj yuqoridir, bundan nodavlat sektori ham manfaatdor, chunki o'z xodimlari malakasini oshirish ehtiyoji ham sezilarli darajada oshmoqda. Ta'lim muassasalari ham iqtisodiy jihatdan qo'shimcha ta'lim ko'rsatish tizimini rivojlantirishdan manfaatdor. Masalan, AQShda ta'lim muassasalari diplom olgandan keyingi ta'lim va qo'shimcha ta'lim xizmati ko'rsatishdan bakalavriat ta'limidan keladigandan ko'ra ko'proq daromad oladilar.

4. Ta'lim muassasalarining tobora ko'proq avtonom (mustaqil) bo'lishga intilishi, ya'ni ta'lim muassasalari borgan sari davlat tomonidan kamroq darajada, ko'proq esa ta'lim muassasasi o'zi ishlab topgan mablag' hisobiga moliyaviy resurslar bilan ta'minlanmoqda, bu davlat tomonidan nazoratning kuchayib borishi bilan mutanosib ravishda olib borilmoqda. Ta'lim muassasasi faoliyati ustidan muntazam nazorat qilish tartibi yaratilmoqda. AQShda davlat, masalan, akkreditatsiyalangan turli (kashiy yoki hududiy) agentliklar ishini rag'batlantiradi, Fransiyada ta'limni baholash bo'yicha maxsus Milliy qo'mita tuzilgan.

## Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

*1.Ta'lim muassasalarni moliyalashtirish xarajatlari davlat byudjetining qaysi xarajat guruhiga kiradi?*

*2.Xalq ta'limi muassasalari bo'yicha xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali kim tomonidan tuziladi?*

*3.Umumta'lim maktablarda pedagogik stavkalar soni qaysi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi? Bu ko'rsatkich asosida qanday xarajatlar rejalashtiriladi?*

*4.Umumta'lim maktablari pedagog xodimlari ish haqiga qanday qo'shimcha va ustamalar belgilanadi?*

*5.Maktab o'qituvchisining yillik, oylik va haftalik o'quv va pedagogik yuklamasi qancha miqdorda o'rnatilgan?*

*6.Umumta'lim maktablari xodimlarini moddiy rag'batlantirish Direktor jamg'armasining manbayini qanday mablag'lar tashkil qiladi?*

*7.Umumta'lim maktablari rahbar xodimlarning ish haqi miqdorlari qaysi ko'rsatkichga bog'liq?*

*8.Kadrlar tayyorlash tizimida qanday islohotlar olib borilmoqda, ular ta'lim tizimining moliyaviy ta'minlanishidagi qanday o'zgarishlarga olib kelmoqda?*

## Mavzu yuzasidan topshiriqlar

*1. Ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlarini tartibga soluvchi umumiy va maxsus qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni aks ettiruvchi chizma tayyorlang.*

*2. Amaldagi me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida o'zingiz ta'lim olgan umumta'lim maktabining yillik byudjetini hisoblang, uning hajmiga qanday omillar ta'sir ko'rsatishini aks ettiradigan taqdimot materiali tayyorlang.*

# 16-BOB. DAVLAT BYUDJETINING SOO'LIQNI SAQLASH XARAJATLARI

## 16.1. Davlatning sog'liqni saqlash sohasidagi majburiyatlari va sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari

Davlatning sog'liqni saqlash sohasidagi majburiyatlari. Ijtimoiy soha tarmoqlari ichida sog'liqni saqlash tizimi alohida o'rin egallaydi. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakat sog'liqni saqlash tizimining aholi salomatligini ta'minlashdagi ta'siri 8-14 foiz[203] darajasida baholansa-da, bu tizimning faoliyati boshqa barcha ijtimoiy sohalarga qaraganda aholi manfaatlari bilan eng ko'p to'qnash keladi.

Inson hayoti, uning manfaatlarini himoyalash bilan bog'liq bo'lgan va sog'liqni saqlash tizimida qator yo'nalishlarda amalga osbirilayotgan islohotlarning natijasi davlatning bevosita ishtirokiga, uning ushbu sohaga tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy-moliyaviy aralashuviga ko'p jihatdan bog'liq.

Ma'lumki, tibbiy xizmatlar ancha qimmat turadigan ne'mat bo'lib, har bir kishi o'z hayoti davomida iste'mol qilishi mumkin bo'lgan tibbiy xizmatga haq to'lash uchun qancha mablag' yig'ib qo'yish lozimligini avvaldan bilmaydi. Lekin bir guruh fuqarolar birlashib yoki butun bir jamiyat bu maqsadga mo'ljallangan mablag'larni jamg'arishi mumkin.

Sog'liqni saqlash tizimini boshqarish va moliyalashtirishda davlat ishtirokining obyektiv zarurligi haqida gap borar ekan, avvalo, bu tizimning faoliyat mahsuli bo'lgan *tibbiy xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlarini* ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

---

[203] Sog'liqni saqlash sohasi va BTSYOKni moliyalashtirish va boshqaruv tizimini isloh qilish. USAID/ZdravPlus Toshkent, 2005. 16-b.

*Birinchidan*, tibbiy xizmatlarning ko'pchiligi ijtimoiy ne'mat hisoblanadi. Barcha mamlakatlarda "ijtimoiy ne'matlar" sirasiga kiruvchi tibbiy xizmatlar *jamoat sog'liqni saqlash sektori* tomonidan ko'rsatiladi. Bular qatoriga kasallanish riskini pasaytirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlash, atrof-muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan xizmatlar kiradi. Shuningdek, tibbiy xizmatlarning ko'pchiligi *"tashqi samara"* berish xususiyatiga ega, ya'ni ma'lum bir shaxslarning tibbiy xizmatlardan foydalanishi boshqalarning kasallanish riskini kamaytiradi, masalan, yuqumli hamda ijtimoiy xavfli kasalliklarni davolash bilan jamiyat miqyosida avj olishi mumkin bo'lgan salbiy "tashqi samara"ning oldini olishga muvaffaq bo'linadi. Shunga muvofiq ravishda jamoat sog'liqni saqlash sektori an'anaviy tarzda quyidagi funksiyalarni bajaradi: (1) mamlakatda va uning alohida hududlarida epidemiologik vaziyatni nazorat qilish va yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish; (2) atrof-muhitning normal sanitariya holatini ta'minlash; (3) onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish; (4) sanitariya oqartuv ishlarini tashkil qilish; (5) profilaktika va davolash bilan bog'liq tibbiy xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish, qayta ishlash va shu asosda ularga bo'lgan ehtiyojni baholash. Bu tibbiy xizmatlarning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda jamoat sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va nazorat qilish majburiyatini davlat o'z zimmasiga oladi.

Shu bilan birga ko'pchilik tibbiy xizmatlar bozor sharoitidagi boshqa har qanday tovar kabi sotilishi va sotib olinishi, lekin tashqi samara bermagan holda alohida shaxslarning ehtiyojini qondirishi mumkin. Bunday xizmatlarga klinik sharoitlarda ko'rsatiladigan davolash xizmatlari kiradi va jamoat sog'lig'ini saqlash xizmatlaridan farqli ravishda, kasallikning oldini olish va salomatlikni muhofaza qilishga emas, alohida kasalliklarni davolashga qaratiladi. Bunday xizmatlar tibbiy xizmatlar bozorida oldi-sotdi obyekti bo'la oladi, ammo bu munosabatlar ham tibbiy

xizmatlarning quyida sanab o'tiladigan o'ziga xosliklari tufayli davlat aralashuvini taqozo qiladi.

*Ikkinchidan*, tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoj hamda ularning oqibatlari doimo noaniqlik bilan bog'liq. Inson qachon va qanday vaziyatda kasallanishini, kasallikni davolash unga qanchaga tushishini, buning uchun u qancha mablag' jamg'arib qo'yishi lozimligini oldindan bilmaydi, odatda uning sog'lig'ini yo'qotishga olib kelgan kasallik yoki baxtsiz hodisa u kutmagan vaqtda yuz beradi. Shu sababli aksariyat insonlar bunday holatlarda tibbiy yordamning kafolatlangan bo'lishini xohlaydilar. Bu kafolatni faqat davlat bera oladi: davlat majburiy tibbiy sug'urta yoki davlat byudjeti mablag'lari evaziga majburiy (bepul) tibbiy xizmatlarning ko'rsatilishini kafolatlaydi. Bu kafolatlar salomatligini tiklash, ayrim hollarda esa hayotini saqlab qolish bilan bog'liq ko'zda tutilmagan xarajatlar uchun salmoqli mablag'ni oila byudjetidan ajrata olmaydigan darajada daromadlari yuqori bo'lmagan aholi qatlamlari uchun ayniqsa muhimdir. Aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish – davlatning muhim vazifalaridan biri, sog'liqni saqlash sohasida bu vazifa daromadlilik darajasidan qat'iy nazar, har bir fuqaroga bepul ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar tarkibini belgilash shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan fuqarolar: nogironligi bo'lgan shaxslar, chin yetimlar, urush veteranlari va boshqalarga tibbiy xizmatlarni olishdagi imtiyozlarni o'rnatish kabilarga qaratiladi.

*Uchinchidan*, axborot asimmetriyasining mavjudligi: tibbiy xizmatlar iste'molchisi odatda, o'zining sog'lig'i xususidagi muammolar va ularni hal qilish masalasida yetarli ma'lumotga ham, bilimga ham ega bo'lmaydi, uning kasalligi va davolash usullari haqida faqat vrach aniq ma'lumotga ega bo'ladi va natijada vrach (xizmatning ishlab chiqaruvchisi) bilan bemor (xizmatning iste'molchisi)ning axborotga egaligi o'rtasida nomuvofiqlik, ya'ni axborot asimmetriyasi yuzaga keladi. Normal faoliyat qiluvchi bozorda iste'molchi o'ziga zarur bo'lgan

ne'matlarning hajm va sifatini o'zi belgilaydi, tibbiyot xizmatlarida esa bu ishni xizmatni ishlab chiqaruvchi – vrach bajaradi. Buning natijasida vrachlarning tibbiy va iqtisodiy manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi, ya'ni vrach, o'zining iqtisodiy manfaatlarini bemorning sog'lig'i bilan bog'liq manfaatlaridan ustun qo'ygan holda qimmat turuvchi muolajalarni tayinlashi, qimmatbaho dorilarni tavsiya etishi mumkin bo'ladi. Xullas, axborot asimmetriyasi tibbiy xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy jihatdan birmuncha qulay holatlarini va ustunliklarini ta'minlaydi. Shu sababli davlat alohida vrachlar va tibbiyot muassasalari faoliyatini litsenziyalaydi, tartibga soladi, ko'rsatilayotgan xizmatlarning minimal sifat darajasini belgilaydi, tibbiy xizmat ishlab chiqaruvchilarni iste'molchilar manfaatlari yo'lida harakat qilishga rag'batlantiradi.

16.1-rasm. **Davlatning sog'liqni saqlash sohasidagi majburiyatlari**

Shunday qilib, tibbiy xizmatlarning o'ziga xoslikleri bilan bog'liq bo'lgan qator holatlar mavjudki, ular mamlakatda bozor munosabatlarining qay darajada shakllangan va rivojlangan bo'lishidan qat'iy nazar davlatning sog'liqni saqlash tizimini boshqarish, uning faoliyatini tashkil etish va moliyalash-

tirishda ishtirok etishini obyektiv tarzda zarurligini belgilab beradi. Shunmg uchun ko'pchilik mutaxassislarning va xalqaro ekspertlarning fikricha, sog'liqni saqlash sohasida davlat quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi zarur (16.1-rasm):

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari Salomatlik insonning jismoniy, aqliy va ruhiy layoqatining yuqori darajasini ta'minlaydi va uning to'laqonli yashashining garovi hisoblanadi. Aholi salomatligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Faqat sog'lom kishigina to'laqonli mehnat qilib, o'zi, oilasi va pirovardida jamiyat farovonligini ta'minlay oladi. Shu sababli aholi salomatligini muhofaza qilish va tibbiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash masalalari hukumatning doimiy diqqat markazida turadi.

Bu borada "Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida amalga oshirilgan xalqimizning munosib hayot sifatini ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalash, tibbiy xizmat sifatini oshirishga qaratilgan tizimli ishlar izchil davom ettirilmoqda. Mustaqillik yillarida hayotga tatbiq etilgan keng ko'lamli islohotlar samarasida sog'liqni saqlash tizimi tubdan o'zgardi"[204], - deb ta'kidlaydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Mustaqil taraqqiyotning har bir bosqichida aholi o'rtasida turli kasalliklar tarqalishining zarur profilaktikasini ta'minlash, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish samaradorligi va sifatini tubdan yaxshilash, birlamchi va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha zamonaviy tizimni shakllantirish va rivojlantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, tibbiyot tizimining zamon talablarga javob beradigan oqilona tashkiliy tuzilmasini shakilantirish,

[204] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 5-yanvar kuni sog'liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashuvidagi nutqidan. Manba: http://uza.uz

shifokorlik kasbini ulug'lash, tibbiy xodimlarning mashaqqatli mehnatini munosib rag'batlantirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari davlat sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida tizimni boshqarish va moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, uning moddiy-texnik holatini, birinchi navbatda, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan zamonaviy tibbiy texnika va davolash vositalari, diagnostik apparatlar bilan jihozlanish holatini yaxshilash maqsadida hukumat tomonidan bosqichma-bosqich "Salomatlik-1", "Salomatlik-2" va "Salomatlik-3" loyihalari amalga oshirildi va hugungi kunda ham ushbu loyihalar doirasidagi ishlar davom etmoqda.

"Bebaho boylik bo'lgan xalqimizning sog'lig'ini saqlash maqsadida 2015-yilda 141 ta tibbiyot muassasasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash uchun qariyb 500 milliard so'm mablag' sarflandi. Qishloq vrachlik punktlarini optimallashtirish va zamonaviy diagnoztika va davolash uskunalari bilan jihozlash ishlari nihoyasiga yetkazildi. Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida keyingi besh yilda mamlakatda har 100 mingta chaqaloqqa nisbatan onalar o'limi 23,1 dan 19 taga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 14,8 tadan 13,9 taga, chaqaloqlar o'limi 11 tadan 10,7 taga kamaydi. Ushbu

> *"Bugun zamon o'zgarmoqda, odamlarning talabi oshib bormoqda. Xalqimizning tibbiy madaniyati yuksalib, eng so'nggi usul va rusumlarda tibbiy xizmat ko'rsatilishini istaydi. Bizga shu ham bo'laveradi, degan tushuncha endi o'z umrini o'tab bo'ldi. Bu barcha sohalar qatori, tibbiyot sohasiga ham bevosita daxldor. Shu bois soha xodimlari tibbiyotning eng ilg'or, zamonaviy yutuqlarini, davolash usullarini o'zlashtirmog'i zarur. Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir".*
>
> ***Shavkat Mirziyoyev***

ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga to'liq erishganligi alohida ta'kidlanadi"[205].

Shu bilan birga muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 5-yanvar va 7-fevral kunlari mamlakatimiz sog'liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashuvida ta'kidlanganidek, tibbiyot sohasida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar, yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Bugungi kunga kelib aholining munosib turmush darajasini ta'minlovchi muhim ijtimoiy tarmoq sifatida sog'liqni saqlash tizimida jiddiy muammolar yuzaga kelganligini e'tirof etish lozim, xususan:

– tibbiy xizmatlarning yuqori sifatini ta'minlashga qodir bo'lmagan, yaxshi jihozlanmagan davolash muassasalari sonning ko'pligi, natijada tarmoqni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladigan byudjet-moliya resurslarining haqiqiy ehtiyojni qoplay olmasligi, ulardan foydalanish samaradorligining pastligi;

– ilgari yaratilgan va o'z vaqtida yaxshi jihozlangan sog'liqni saqlash muassasalari bugungi kunda zamonaviy talablarga, diagnostika va davolashning sifat standartlariga javob bermay qo'yganligi;

– qishloq vrachlik punktlarini tashkil etish jarayonining tugallanmaganligi sababli uzoq tumanlarda joylashgan qishloqlar aholisi uchun tibbiy yordam olish imkoniyatining cheklanganligi;

– birlamchi tibbiyot muassasalari, ayniqsa, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, patronaj xizmati, tez tibbiy yordam tizimining faoliyati hamon qoniqarsiz ahvolda qolayotganligi;

---

[205] Karimov I. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. T.: O'zbekiston. 2016-yil. 19-b.

– shifoxonalar va aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash, jumladan, ijtimoiy dorixonalar tashkil etish bo'yicha vazifalar ijrosi talab darajasida emasligi;

– tibbiyot muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash ishlarining talabga javob bermasligi;

– respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmayotganligi;

dorixona muassasalari tarmog'ini yanada optimallashtirish, dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish va narx belgilash tizimini takomillashtirish va ular faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirishning zarurligi;

– sog'liqni saqlash tizimining xususiy sektorini rivojlantirish ishlariga yetarlicha e'tibor berilmaganligi.

Sog'liqni saqlash tizimidagi shu va shu kabi boshqa davolash va diagnostika, tashkiliy va huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy masalalardagi muammolarni chuqur tahlil qilish va o'rganish asosida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida aynan sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan quydagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan (16.2-rasm).

Harakatlar strategiyasini 2017-"Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da hamda 2018 "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturlarida sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qator aniq va manzilli chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, Dasturda ularning bir necha yo'nalishlarda olib borilishi ko'zda tutilgan. Bu tadbirlar tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish, mavjudlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, tibbiyot va farmasevtika faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar miqdori va sifatini oshirish, onalar va bolalar salomatligini yaxshilash,

kasalliklarning oldini olish maqsadida sanitariya-profilaktika ishlari samarasini oshirish, chekka hududlarda yashovchi aholiga tibbiy xizmatni yaqinlashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, ularning yashash va ishlash sharoitlarini yaxshilash, tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash choralarini ko'rish kabilarga qaratilgan.




16.2 rasm. **2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar**[206]

[206] O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 4.2-band.

## 16.2. Sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarini moliyalashtirish manbalari. Sog'liqni saqlash tizimi mussasalarini saqlash va rivojlantirishda davlat byudjetining ahamiyati

**Sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarini moliyalashtirish manbalari.** Jahon tajribasidan shuni kuzatish mumkinki, tibbiy xizmatlarni moliyalash xarajatlari bir qancha manbalardan amalga oshiriladi, bular: davlat byudjeti, majburiy ijtimoiy (tibbiy) sug'urta, xususiy tibbiy sug'urta, to'g'ridan to'g'ri to'lovlar (iste'molchilarning tibbiy xizmatlarni sotib olishdagi xarajatlari).

Moliyalashtirishning har bir manbasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, jumladan (16.3-rasm):




16.3-rasm. **Sog'liqni saqlash tizimi moliyaviy manbalari va ularning xususiyatlari**

*1. Davlat byudjeti.* Tarixan sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish (to'liq yoki qisman) davlat tomonidan amalga oshirilgan. Davlat tomonidan moliyalashtirish quyidagi *tamoyillarga* qurilgan:

– sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy manbayi davlat mablag'lari ekanligi;

– sog'liqni saqlashga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslarning turli darajadagi byudjetlarda to'planishi;

– tibbiy yordamni moliyalashtirishda tuzilmaviy tamoyilning ustunligi (tibbiyot muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan alohida tibbiy xizmatlarning haqini to'lash emas, balki uning xarajatlarini qoplash tartibining ustunligi);

– tibbiyot muassasalarining notijorat maqomiga ega ekanligi va davlat tomonidan o'rnatilgan moliyaviy tartiblarga bo'ysungan holda ijtimoiy buyurtmaning ijrochisi ekanligi;

– resurslardan foydalanishda iqtisod rejimiga rioya qilinishi;

tizimning markazlashgan tarzda rejalashtirilishi va boshqarilishi;

– tibbiyot xodimlariga haq to'lashda tarif usulining qo'llanilishi;

– xodimlarni yollash va ular mehnatiga haq to'lash tartibining davlat tomonidan tartibga solinishi;

– tibbiy xizmatlar sifatini nazorat qilishning ma'muriy usuli o'rnatilganligi.

Usbbu tamoyillar ga tayangan holda faoliyat qiluvchi davlat sog'liqni saqlash tizimi bir qator *afzalliklarga* ega:

– davlat tomonidan bepul tibbiy xizmatlarni taqdim etishni kafolatlash yo'li bilan fuqarolarning yuqori darajada ijtimoiy bimoyasi ta'mmlanadi;

– tibbiy xizmat ko'rsatish shart-sbaroitlari ustidan qat'iy davlat nazorati o'rnatiladi;

– o'ta xavfli yuqumli kasalliklar bilan kasallanish darajasiga (ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda) ta'sir ko'rsatishning yuqori samaradorligi ta'minlanadi.

Ammo hir qator afzalliklarga ega bo'lgani holda davlat sog'liqni saqlash tizimi bozor sharoitlarida ayniqsa, keskinlashgan quyidagi *kamchiliklarga* bam ega:

– byudjetlarning nobarqaror holatlarida hamda ajratilayotgan moddiy va moliyaviy resurslarning samarasiz taqsimlanishi sharoitida sog'liqm saqlash tizimiga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslar taqchilligining yuzaga kelganligi;

– tibbiyot xodimlari faoliyatida moddiy rag'batlantirishning cheklanganligi, ular mehnat haqi umumiy darajasming pastligi;

– tibbiyot xodimlariga haq to'lash va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish hajmlarining so'nggi ish natijalarining hajmi va silatiga sust darajada bog'langanligi;

– mijoz tomonidan tibbiyot xodimi(vrach)ni va tibbiyot muassasasini tanlash imkoniyatining kamligi;

– ayrim (taqchil) tibbiy yordamni olish uchun "sekin harakatlanadigan" navbatlarning mavjudligi;

– alohida ijtimoiy, hududiy va kasbiy fuqaro guruhlari uchun tibbiy xizmat darajasi va sifatidagi tengsizlikning yuzaga kelganligi (maxsus tibbiyot muassasalarining, yirik korxona va alohida tashkilotlar bo'ysunuvidagi muassasalarnmg mavjudligi);

– kasalliklarm aniqlash, davolash va profilaktika qllishning yangi usullarini joriy qilishning sustligi, ijodiy erkinlik uchun, tibbiy xizmatlarni tashkil qllishning umumiy modellarini mahalliy sharoitlar va ehtiyojlarga moslashtirish uchun sharoitlarning yetarli emasligi;

– moliyaviy resurslar katta qismining yaxshi jihozlanmagan, yuqori malakali kadrlarga ega bo'lmagan, yetarlicha silatli xizmat ko'rsatmayotgan, ya'ni samarasiz ishlayotgan muassasalarni saqlashga yo'naltirilayotganligi;

– birlamchi tibbiy yordam va kasalliklarning oldini olish milliy tizimi rivojlanish darajasining pastligi, tibbiy xizmatlarni

ko'rsatishning ancha qimmat turuvchi statsionar turlarining ustuvorligi, qishloq va shahar o'rtasida sog'liqni saqlash borasidagi jiddiy tafovutlarning mavjudligi;

– tibbiyot xizmatlarini ko'rsatishdagi monopolizmning hukmronligi, iste'molchilarning sifatsiz tibbiy xizmatlardan himoyalanmaganligi;

– tibbiyot sohasiga kapital qo'yilmalar qilish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi, inqirozlar va moliyalashtirishdagi taqchilliklar davrida tibbiy xizmat ko'rsatish sharoitlarining yomonlashuvi.

2. *Majburiy ijtimoiy (tibbiy) sug'urta* tibbiy xizmatlar uchun kelgusida qilinajak xarajatlarni qoplash maqsadidagi to'lovlarni nazarda tutadi. Ushbu maqsadli soliqlar ish beruvchilar tomonidan mehnat haqi fondidan ijtimoiy sug'urta ajratmalari hamda ishchi-xizmatchilar tomonidan ish haqidan ijtimoiy sug'urta badallari shaklida to'lanadi va ijtimoiy tibbiy sug'urta fondlarida jamlanadi. Tibbiy xizmatlarni moliyalashning bu manbayi ham xizmatlardan foydalanishdagi ijtimoiy adolatning ta'minlanishi, barcha aholi uchun bir xil bajmdagi xizmatlarning kafolatlanishi, tibbiy sug'urta fondida to'plangan mablag'larning qat'iy maqsadli ishlatilishi, ko'proq iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lgan ish beruvchilar va ishlovchilar qamrab olinishi bilan tavsiflanadi. Lekin bu manbadan foydalanishning ham o'ziga xos muammolari mavjud bo'lib, ular mablag'larni to'plash va mijozlarni himoya qilish uchun xarajatlarning ortib borishi, majburiy sug'urta ajratmalarining mahsulot tannarxi va bahosiga ta'sir ko'rsatishi va bu holat mahsulotning raqobatbardoshligiga putur yetkazishi natijasida ish beruvchilar tomonidan norozi-liklar kelib chiqishining mumkinligi kabilar bilan bog'liq.

3. *Xususiy tibbiy sug'urtada* sug'urtalanuvchi shaxs ixtisoslashgan xususiy sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan ma'lum haq (sug'urta mukofoti) evaziga tibbiy xizmatdan foydalanish bo'yicha xarajatlarning yuzaga kelish xavfini yumshatish maqsadida tashkilot bilan kelishilgan miqdordagi

sug'urta badallarini sug'urta tashkilotiga o'tkazib boradi. Sug'urtalanuvchi shaxs salomatligi yomonlashgani sababli xarajat qilishga majbur bo'lganda sug'urta tashkiloti ushbu xarajatlarni sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan pul summasi doirasida qoplab beradi. Moliyalashning bu manbayi bam qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, sug'urta ajratmalarining aksariyat hollarda iste'molchilarning to'lash qobiliyatiga emas, ularning ehtiyojiga bog'liqligi, mijozlarni tanlab olishga (iqtisodiy samara nuqtayi nazaridan boy yoki kambag'al, nisbatan sog'lom yoki kasalmand) asoslangan tabaqalashgan tibbiy yordam dasturlarining amal qilishi, tibbiy xizmatlar baqini to'lash bilan bog'liq xarajatlar hajmining ortib borisbi, xususiy tibbiy sug'urta mablag'larining mamlakatdagi butun sog'liqni saqlash tizimining normal faoliyatini qo'llab-quvvatiash uchun yetarli emasligi kabi ijobiy va salbiy jihatlari mavjud.

*4. To'g'ridan-to'g'ri to'lovlar* iste'molchilarning tibbiy xizmatlarni sotib olishdagi xarajatlari bo'lib, tovar va xizmatlar sotib olishning bozor tamoyillariga asoslangan erkin uslubi hisoblanadi. Usbbu usul sog'liqni saqlash tizimini mablag' bilan ta'minlashdagi mavjud muammolarni ma'lum darajada yumshatishga xizmat qiladi, ammo xizmatlar bahosi shu darajada qimmatiashib ketishi mumkinki, natijada risklarni majburiy tarzda taqsimlash zaruriyati tug'iladi va raqobatdosh xususiy ixtiyoriy sug'urtaga ehtiyoj yuzaga keladi. Pullik to'lovlarga asoslangan moliyalashtirish tizimining ijtimoiy adolatni ta'minlay olmasligi, risklarni umumlashtirmasligi va keng taqsimlash imkoniyatiga ega emasligi, butun tizimni yetarli resurslar bilan ta'minlay olmasligi kabi salbiy jihatlarini ham ta'kidlash o'rinli.

Jahonda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning yuqorida sanab o'tilgan manbalarining faqat bittasidan foydalanadigan hech bir mamlakat yo'q ekanligini e'tirof etgan holda shum ta'kidlash kerakki, barcha davlatlar milliy tibbiyot tizimlarini moliyalashda sanab o'tilgan u yoki bu manbaga

ustuvorlik bergan holda aralash tarzda foydalanadi. Masalan, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Yaponiya, Kanada kabi davlatlarda majburiy tibbiy sug'urta tizimi yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Italiya, Ispaniya, Gretsiyada – byudjetdan moliyalashtirish tizimi, Amerika Qo'shma Shtatlarida esa xususiy tibbiy sug'urta tizimi faoliyati barqaror shakllangan. MDH davlatlarida byudjetdan moliyalashtirish tizimi ustuvor o'rin egallashi bilan birga Rossiya, Gruziya, Qirg'iziston, Litva, Latviya, Estoniya kabi davlatlarda parallel ravishda majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urta joriy etilgan.

Mutaxassislarning fikricha, tibbiyot tizimini moliyalashtirish manbayi sog'liqni saqlash tizimi faoliyat yo'nalishlariga va tarmoqning bajaradigan funksiyalariga mos kelishi, shuningdek, jamoat sog'lig'ini saqlash sektori tomonidan ko'rsatiladigan barcha tibbiy xizmatlar va ma'lum hajmdagi klinik xizmatlar bo'yicha muayyan majburiyatlarni davlat o'z zimmasiga olmog'i zarur.

Sog'liqni saqlash tizimi mussasalarini saqlash va rivojlantirishda davlat byudjetining ahamiyati. Davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar ichida fuqarolarga yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq kafolatlar alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida barcha fuqarolar malakali tibbiy xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq huquqlarga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Ana shu huquqlarni amalga oshirishning zarurligi bu sohani boshqarish va moliyalashtirishda davlatning ustunligini belgilab beradi.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga ko'ra moliyalashning barcha manbalaridan YAIMning 7-8 foizini safarbar etib, mamlakatda sog'liqni saqlash tizimining normal faoliyatini ta'minlash mumkin.

*16.1-jadval*

**Sog'liqni saqlash tizimi faoliyatining asosiy yo'nalishlari va ularni moliyalashtirish manbalari[207]**

| Faoliyat yo'nalishlari | Bajaradigan funksiyalari | Moliyalashtirish manbalari |
|---|---|---|
| Jamoat sog'lig'ini saqlash | 1. Kasallanish riskini kamaytirishga yo'naltirilgan aniq tibbiy xizmatlarni taqdim etish<br>2. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish<br>3. Sog'lom turmush tarzi va sog'lom atrof-muhitni ta'minlashga ko'maklashish (sog'lom ovqatlanish, toza ichimlik suvi ta'minoti, kanalizatsiya va sh.k.) | 1. Davlat byudjeti |
| Klinik xizmat ko'rsatish | Kasalliklarni davolashga qaratilgan keng doiradagi tibbiy xizmatlar ko'rsatish | 1. Davlat byudjeti<br>2. Ijtimoiy sug'urta<br>3. Xususiy sug'urta<br>4. Pullik to'lovlar |

Sog'liqni saqlash tizimini aholiga tibbiy xizmatlarni taqdim etuvchi tibbiyot muassasalari tashkil qiladi. Bu muassasalarni yangidan qurish, mavjudlarini saqlash, moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash, kadrlar masalasini hal qilish kabilar tarixan davlat mablag'lari evaziga amalga oshirilib kelingan. Sog'liqni saqlash tizimining joriy va kapital xarajatlarini moliyalashtirishda davlat byudjetining ahamiyati hali ham katta. Davlat byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlarning qariyb 14-15 foizi sog'liqni saqlash tizimini saqlash va rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Keyingi yillarda bu mablag'larning sog'liqni saqlash muassasalarining turlari bo'yicha tarkibi va tuzilishi quyidagi jadvalda aks etgan (16.2-jadval).

[207] Sog'liqni saqlash sohasi va BTSYO'Kni moliyalashtirish va boshqaruv tizimini isloh qilish. USAID/ZdravPlus Toshkent, 2005. 58-b.

*16.2-jadval*

**Davlat byudjetining sog'liqni saqlash xarajatlarining muassasalar turlari bo'yicha tarkibi va tuzilishi[208]**

| Ko'rsatkichlar | 2017-y. | | 2018-y. (prognoz) | |
|---|---|---|---|---|
| | miqdori, mlrd. so'm | sog'liqni saqlash xarajatlariga nisbatan | miqdori, mlrd. so'm | sog'liqni saqlash xarajatlariga nisbatan |
| Davlat byudjetining sog'liqni saqlash xarajatlari, shundan: | 6882,9 | 100,0 | 9562,0 | 100,0 |
| Ambulatoriya xizmatlari | 2 223,8 | 32,3 | 2565,0 | 26,8 |
| Klinikalar, kasalxonalar, tibbiyot birlashmalari va markazlar | 1 547,2 | 22,5 | 3568,4 | 37,3 |
| Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi xarajatlari | 514,7 | 7,5 | 803,6 | 8,4 |
| Boshqa turdagi tibbiyot muassasalari va xizmatlari | 2597,2 | 37,7 | 2625,0 | 27,5 |

Bugungi kunda davlat sog'liqni saqlash tizimining boshlang'ich, birlamchi bo'g'inini tashkil qiluvchi muassasalar tarkibiga kiruvchi 820ga yaqin qishloq vrachlik punktlari (QVP) va 950dan ortiq oilaviy poliklinikalar (OP) faoliyat yuritayotgan bo'lib, ulardagi xodimlar soni 84402 nafarni, shu jumladan, vrachlar soni 19116 (QVPlarda – 3751, OPlarda - 15365) nafarni tashkil qiladi. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan jami xarajatlarning qariyb 65-70 foizi xodimlarning ish haqiga sarf etilmoqda. Shunga qaramasdan soha xodimlarini moddiy rag'batlantirish, sohaning moddiy-

[208] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi. Manba: www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

texnika bazasini mustahkamlash, yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish uchun asosan byudjet mablag'larining o'zi davlat resurslarining chegaralanganligi bois, yetarli emasligini amaliyot isbotlab turibdi. Shuning uchun ham sog'liqni saqlashni isloh qilishning dolzarb yo'nalishlaridan biri – tarmoqni moliyaviy ta'minlashning ko'p kanalli tizimini joriy etish ekanligi e'tirof etilmoqda.

*16.3-jadval*

**Davlat byudjetining sog'liqni saqlash xarajatlarining xarajat guruhlari bo'yicha tarkibi va tuzilishi[209]**

*(mlrd.so'mda)*

| Ko'rsatkichlar | 2017-y. | jamiga nisbatan foizda | 2018-y. (prognoz) | jamiga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|---|
| Sog'liqni saqlash xarajatlari- jami | 6 882,90 | 100 | 9 562,00 | 100 |
| Sog'liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga ajratmalar | 552,6 | 8,0 | 803,6 | 8,4 |
| Sog'liqni saqlash muassasalari xodimlarining oylik ish haqi va ish haqidan ajratmalar | 4 989,90 | 72,5 | 5 802,60 | 60,7 |
| Dori vositalari, tibbiyot buyumlari, vaksina va bakpreparatlar sotib olish | 376,4 | 5,5 | 914,6 | 9,6 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish | 161,9 | 2,4 | 199,8 | 2,1 |
| Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasiga ajratmalar | 192,8 | 2,8 | 215,9 | 2,3 |
| Asosiy vositalarni sotib olish | 55,2 | 0,8 | 61,8 | 0,6 |
| Kommunal xarajatlar | 82,7 | 1,2 | 88,7 | 0,9 |
| Boshqa xarajatlar | 471,4 | 6,8 | 1475 | 15,4 |

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunida davlat davolash-profilaktika muassasalari tomonidan aholiga kafolatlangan tibbiy va boshqa turdagi yordam bepul ko'rsatilishi belgilangan bo'lib,

[209] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi. Manba: www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.

davlat byudjeti mablag'lari aynan ana shu xizmatlarni va ularni taqdim etuvchi muassasalarni mablag' bilan ta'minlash uchun yo'naltiriladi.

Qonunga ko'ra davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar doirasiga quyidagilar kiradi:

–shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatish;

–sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida va bir qator davlat davolash-profilaktika muassasalarida, birinchi navbatda, qishloq joylardagi tibbiyot muassasalarida tibbiy xizmatlar ko'rsatish;

–aholini yuqumli kasalliklarga qarshi immunizatsiyalash va emlash;

–ijtimoiy ahamiyatga ega va atrofdagilar sog'ligiga xavf tug'diruvchi sil, xavfli o'sma, ruhiy, narkologik, endokrinologik hamda kasb kasalliklariga duchor bo'lgan shaxslarga ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish;

–bolalarni tekshiruvdan o'tkazish va davolash (pullik muassasalardan tashqari);

–15-17 yoshdagi o'smirlarni hamda chaqiruv komissiyalarining yo'llanmalari bilan chaqiruv yoshidagi (18-27 yosh) shaxslarni tekshiruvdan o'tkazish va davolash;

–homiladorlarga tibbiy xizmat ko'rsatish (pullik muassasalardan tashqari);

–bemorlarning imtiyozli toifalariga (nogironlar, urush faxriylari, chin yetimlar va boshqalar) bepul tibbiy xizmat ko'rsatish.

Shuningdek, hukumatning tegishli qarorlari bilan davlat davolash-profilaktika muassasalarida bepul tibbiy xizmat ko'rsatish belgilangan fuqaro toifalari, turg'un davolash muassasalarida ovqatlanish hamda dori-darmon bilan ta'minlanish uchun to'lovdan to'liq yoki qisman ozod qilinadigan fuqaro toifalari va kasallik turlari belgilangan bo'lib, ular haqidagi ma'lumotlar ushbu o'quv qo'llanmaning 2-ilovasida keltirilgan.

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar doirasida davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlarning miqdori va sifatini yaxshilash bilan birga "yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishning prinsipial jihatdan yangi tizimi tashkil etildi. Respublikada ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, shu jumladan, xirurgiya, kardiologiya, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya, endokrinologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, dermatologiya va venerologiya, ftiziatriya va pulmonologiya sohasida zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan va yuqori malakali vrachlar bilan to'ldirilgan ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyat ko'rsatmoqda"[210]. Respublikaning ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamini yanada rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlarini belgilash, uning geografiyasini tuman (shahar) darajasigacha kengaytirish, hududiy ixtisoslashgan tibbiyot tashkilotlariga tashkiliy-metodik rahbarlik qilish uchun respublika ixtisoslashtirilgan markazlarining mas'uliyatini oshirish, ularning amaliyotiga tibbiy yordamning zamonaviy usullari va texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi" qabul qilindi. "Dastur doirasida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yanada rivojlantirish maqsadida davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan 373,5 milliard so'm hamda xalqaro tashkilotlar va moliya institutlarining mablag'lari va grantlari hisobidan 100 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, shundan 60 milliard so'm mablag' Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashga va 97

---

[210] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017 — 2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3071-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 25-son, 532-modda.

million AQSH dollari respublika va hududiy ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarini jihozlashga yo'naltiriladi"[211].

Xulosa qilib aytganda, tibbiy xizmat iste'molchilari uchun sog'liqni saqlash tizimi qanday manbalar hisobidan moliyalashtirilishi birinchi darajali ahamiyat kasb etmaydi, ular uchun muhimi – ushbu tizim: aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirishi; tibbiy yordamning hammabopligi; tibbiy xizmatning yuqori va kafolatlangan sifati; tibbiy yordamning uzluksiz va davomiyligi; sog'liqni saqlash resurslaridan foydalanish samaradorligining yuqori bo'lishi; davlat kafolatlari doirasidagi tibbiy yordamning zamonaviy darajasini ta'minlashi zarur. Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar ham shu maqsadlar yo'lida amalga oshiriladi.

## 16.3. Davlat sog'liqni saqlash muassasalarining tarkibi, ularning xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning xususiyatlari

Ijtimoiy sohalar faoliyatini rejalashtirishning bir necha o'n yilliklar davomida shakllangan tartiblarga muvofiq, davlat sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatini rejalashtirish odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:-

1.Aholi soni va uning tibbiyot muassasasidagi o'rinlarga ehtiyoj me'yorlari asosida tibbiy muassasaning ishlab chiqarish quvvatlari (u yoki bu profil yo'nalishlari bo'yicha o'rinlar - koykalar soni)m aniqlash.

2.Muayyan muassasa uchun o'rnatilgan namunaviy shtat normativlari bo'yicha zarur shtat normativlari sonini hisoblab topish.

3.Koykalar soni va tuzilishi(terapevtik, xirurgik, nevrologik)ga ko'ra ish hajmini rejalashtirish.

---

[211] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga sharh. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 25-son, 532-modda.

4.Shtatlar jadvali, ishlab chiqarish quvvatlari va koykalar ishining ko'rsatkichlari(koyka-kunlar soni)ga asoslanib tibbiyot muassasasini saqlash uchun moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.

Davlat sog'liqni saqlash tizimidagi har bir muassasaning ishi operativ tarmoq ko'rsatkichlari, masalan, kasalxonalardagi o'rinlarning o'rtacha yillik soni (jami va o'rinlar profillari bo'yicha), bir yilda o'rinlarning ishlash kunlari soni, o'rin-kunlar miqdori, harcha toifadagi xodimlar bo'yicha o'rtacha yillik shtatlar birligi soni, ambulatoriya-poliklimkalarda vrach qabulari soni bilan tavsiflanadi.

Davolash-profilaktika muassasalari aholiga tibbiy xizmatlarni asosan ikki shakldа ko'rsatadi: kasalxonaga yotqizib statsionar (turg'un) davolash va ambulatoriya-poliklinikada tibbiy xizmat ko'rsatish. Turg'un davolash muassasalarining asosiy ko'rsatkichlaridan biri – o'rin-kunlar soni bo'lsa, ambulatoriya-poliklinika muassasasining asosiy ko'rsatkichini vrach qabullari soni va uning asosida aniqlanadigan vrach lavozimlari soni tashkil qiladi. Muassasa xarajatlarini rejalashtirishda o'rin-kunlar soni, vrach qabullari soni hamda vrach lavozimlari soni kabi ko'rsatkichlar, shunimgdek, ularga nisbatan o'rnatilgan xarajat me'yorlari asos qilib olinadi.

2001-2010-yillarda sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar yo'nalishlaridan biri birlamchi tibbiyot muassasalarini boshqarish va moliyalashtirishning yangi usullariga o'tish, byudjet mablag'larini taqsimlashning jahon amaliyotida ma'qullangan jon boshiga qarab rejalashtirish usullarini joriy qilishdan iborat bo'ldi. Ana shu dasturiy vazifani bajarish doirasida bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi va amaliyotga tatbiq etildi. Ularga ko'ra qishloq hududlarida joylashgan qishloq vrachlik punktlari (QVP) va qishloq vrachlik ambulatoriyalari (QVA) qayta tashkil qilindi, ularni moliyalashtirish makaziy tuman shifoxonasi tarkibidan chiqarilib, bevosita viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalariga

o'tkazildi, birlamchi tibbiyot-sanitariya yordamini ko'rsatish (BTSYOK) muassasalariga yuridik shaxs maqomi berildi, ular xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishda ularga biriktirilgan aholi soni, har bir aholi birligi uchun o'rnatilgan xarajat me'yorlari va aholining yoshi, jinsi, aholi zichligi va boshqa ko'rsatkichlarga ko'ra o'rnatiladigan tuzatuvchi koeffitsientlarni qo'llash tartiblariga o'tildi. Bu tartiblar tajriba tariqasida avval bir necha viloyatda, so'ngra esa butun mamlakat bo'yicha BTSYOK muassasalari xarajatlarini rejalashtirish jarayoniga tatbiq etildi va bir kishi hisobiga xarajatlar normatividan kelib chiqib moliyalashtirish sharoitlariga bosqichma-bosqich o'tkazildi.

BTSYO qishloq muassasalari byudjetini hisobot davridagi sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati xarajatlari, kapital qo'yilmalar va markazlashtirilgan tadbirlar xarajatlarini istisno etgan holda viloyat sog'liqni saqlash umumiy byudjetiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Bunda alohida olingan BTSYOK muassasasini moliyalashtirishning yillik hajmi tuzatish koeffitsientlaridan (jins yosh tarkibi va aholi zichligi) foydalanilgan holda bir kishi hisobiga xarjatlarning bazaviy normativi va BTSYO muassasasiga biriktirilgan aholi soni hisobidan kelib chiqib belgilanadi. Har bir keyingi rejalashtiriladigan yilga bir kishiga xarajatlarning bazaviy normativi belgilangan tartibda aniqlanadigan indeksatsiya koeffitsiyentlari hisobga olingan holda hisoblab chiqiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyat hokimliklari moliya boshqarmalari va sog'liqni saqlash boshqarmalari BTSYO qishloq muassasalari byudjetlarini hisoblab chiqadi va ularni xarajatlar guruhiga bo'lmasdan bitta summa bilan BTSYO muassasalariga yetkazadi. BTSYO qishloq muassasalari belgilangan tartibda moliya organlarida ro'yxatdan o'tkaziladigan xarajatlar smetasi, shtat jadvalini ajratilgan byudjet doirasida mustaqil ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh kilish davlat dasturi to'g'risida"gi 1998-yil 10-noyabrdagi PF-2107-sonli farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-martdagi "Farg'ona viloyatida sog'liqni saqlashning boshlang'ich bo'g'inini isloh kilish loyihasini amalga oshirish to'g'risida"gi 100-sonli qaroriga muvofiq "Salomatlik-1" loyihasini amalga oshirish doirasida Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida Farg'ona, Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining uchta tumanida qishloq vrachlik punktlarini, qishloq vrachlik ambulatoriyalari va feldsher-akusherlik punktlari komplekslarini bir kishi hisobiga xarajatlar normatividan kelib chiqib moliyalashtirish mexanizmi joriy etilgan.

Sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, barcha BTSYOKning qishloq muassasalarida moliyalashtirishning yangi mexanizmini yoyish va um BTSYO ayrim shahar muassasalarida eksperiment sifatida joriy etish, shuningdek, "Salomatlik-2" va "Ayollar va bolalar sog'ligini mustahkamlash" dasturlari doirasida boshlang'ich tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini boshqarishni takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi "Sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 217-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan BTSYO qishloq muassasalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida – 2005-yil 1-oktyabrdan boshlab, Andijon, Buxoro, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida – 2006-yil 1-yanvardan boshlab, Jizzax, Qashkadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida – 2007 yil 1-yanvardan boshlab bir kishi hisobiga xarajatlar normatividan kelib chiqib moliyalashtirish sharoitlariga bosqichma-bosqich o'tkazish nazarda tutildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda "Ayollar va bolalar sog'lig'ini mustahkamlash" loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bilan OTB o'rtasidagi qarz bitimiga muvofiq, tuman (shahar) sog'liqni saqlash turg'un muassasalarini *bir to'liq davolangan holat* hisobidan kelib chiqib moliyalashtirishga o'tkazishga doir takliflar ishlab chiqildi va bu takliflar doirasida turg'un davolash muassasalarining xarajatlarini rejalashtirishda muassasaning koykalar soni, shtatlar soni kabi ko'rsatkichlari asosida rejalashtirishdek eski usullardan har bir to'liq davolangan holat bo'yicha rejalashtirish va moliyalashtirish tartiblariga o'tildi.

Bugungi kunda davlat byudjetining sog'liqni saqlash xarajatlari amaldagi byudjet tasnifining "Sog'liqni saqlash" bo'limi bo'yicha muassasalar va tadbirlarning quyidagi guruhlariga ko'ra rejalashtiriladi va moliyalashtiriladi[212]:

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7 | 070 | 000 | Sog'liqni saqlash |
| 7 | 071 | 000 | Tibbiyot buyumlari, asbob-uskunalari va apparatlari |
| 7 | 072 | 000 | Ambulatoriya xizmatlari |
| 7 | 073 | 000 | Kasalxonalar xizmatlari |
| 7 | 074 | 000 | Sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar |
| 7 | 075 | 000 | Sog'liqni saqlash sohasidagi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari |
| 7 | 076 | 000 | Boshqa toifalarga kiritilmagan sog'liqni saqlash masalalari |

Har bir guruh bo'yicha xarajatlar muassasalarning turlari va tadbirlarning yo'nalishlari bo'yicha aniqlashtiriladi.

Alohida olingan tibbiyot muassasasining xarajatlari uning "xarajatlar smetasi" deb ataladigan moliyaviy rejasida quyidagi xarajat guruhlari bo'yicha rejalashtiriladi:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan tulovlar.

[212] O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2018-yil 1-martdagi 49-sonli buyrug'ining (ro'yxat raqami 2146-8, 30.03.2018, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2018 y., 10/18/2146-8/0965-son) 4-ilovasi asosida qisman keltirilgan.

II. Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar.

IV. Boshqa xarajatlar.

Smetalarni tuzishda xarajatlarning katta guruhini tashkil qiluvchi ish haqi xarajatlarini rejalashtirish alohida o'rin egallaydi. Ish haqi xarajatlarini rejalashtirishda *Shtatlar jadvali* asos bo'lib xizmat qiladi. Shtatlar jadvalini tuzish sog'liqni saqlash muassasasi xodimlari sonini aniqlashdan boshlanadi. Xodimlar soni muassasaning turi va quvvatiga ko'ra tibbiyot muassasalari namunaviy shtatlari asosida aniqlanadi. Xodimlar soni aniqlangach, har bir ishlovchining mehnatiga haq to'lash yillik miqdoridan tashkil topgan muassasaning mehnat haqi fondi aniqlanadi.

Davlatga qarashli bo'lgan tibbiyot va farmasevtika muassasalarida tibbiy xodimlar ish haqini hisoblash va to'lash tartiblari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrdagi 276-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmasevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizom"[213] bilan belgilab berilgan. Ushbu Nizomga muvofiq, mehnatga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladigan davlat muassasalarining quyidagi 4 guruhi aniqlangan bo'lib, xodimlarning lavozim okladlari (bazaviy tarif stavkalari) ular ishlaydigan muassasaning qaysi guruhga kiritilganligiga qarab tuzatuvchi koeffitsientlarni qollagan holda oshiriladi. Bular (har bir guruh muassasalarining tarkibi mazkur o'quv qo'llanmaning 3-ilovasida keltirilgan):

I. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati va boshqa muassasalar.

II. Umumiy profilli statsionar tibbiyot muassasalari va boshqalar.

III. Ixtisoslashtirilgan statsionar muassasalar.

---

[213] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21-dekabrdagi "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 276-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 01.06.2018 y., 09/18/396/1287 son.

IV. Shoshilinch va tez tibbiy yordam markazlari, tez yordam stansiyalari, OITSga qarshi kurash Respublika va mintaqaviy markazlari.

Yuqoridagi holda byudjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlar ish haqlarining bazaviy tarif stavkalari (lavozim okladlari) 22 ta razryaddan va har bir razyrad uchun o'rnatilgan tegishli tarif koeffitsientlaridan iborat bo'lgan Yagona Tarif Setkasi asosida aniqlanishi, ayrim tarmoqlar uchun esa mehnatga haq to'lashning tarmoq setkasi qo'llanilishi mumkinligi haqida ma'lumot berilgan edi (14-holga qarang). Mehnatga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladigan davlat sog'liqni saqlash muassasalarida hozirgi kunda 11 ta razryad va har bir razryadga to'g'ri keluvchi tarif koeffitsiyentlaridan iborat bo'lgan quyidagi tarmoq tarif setkasi qo'llaniladi:

*16.4-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi davlat tibbiyot va farmasevtika muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning tarif setkasi[214]**

| Mehnatga haq to'lash razryadlari | Tarif koeffitsientlari | Mehnatga haq to'lash razryadlari | Tarif koeffitsiyentlari |
|---|---|---|---|
| 1 | 3,148 | 7 | 5,578 |
| 2 | 3,464 | 8 | 6,191 |
| 3 | 3,809 | 9 | 6,872 |
| 4 | 4,191 | 10 | 7,629 |
| 5 | 4,609 | 11 | 8,390 |
| 6 | 5,070 | | |

Tibbiyot va farmasevtika xodimlarining tarif stavkalari davlat tibbiyot muassasalari uchun o'rnatilgan tarmoq tarif

[214] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmasevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizom ga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 21-iyuldagi 206-sonli qarori tahririda - O'R QHT, 2009 y., 30-31-son, 344-modda

setkasi asosida amaldagi eng kam oylik ish haqi miqdorini Nizom bilan belgilangan tarif setkasining tegishli razryadiga mos keluvchi tarif koeffitsiyentiga va tuzatish koeffitsiyentiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Tarif setkasi buyicha razryadlar *tibbiy xodimlar, farmasevtika xodimlari va rahbar xodimlar* lavozimlari bo'yicha belgilangan.

Tibbiy xodimlar ish haqlari xodimlarning lavozimlari bo'yicha tabaqalashtirilgan bo'lib,

- kichik tibbiy xodimlar bo'yicha;
- o'rta tibbiy xodimlar bo'yicha;
- vrach xodimlar bo'yicha alohida hisoblanadi.

*16.5-jadval*

**Tibbiyot va farmasevtika xodimlari uchun mehnatga haq to'lash bo'yicha razryadlar[215]**

| Lavozimlar nomi | Razryad |
|---|---|
| Kichik tibbiy xodimlar | |
| 1. Barcha nomlardagi sanitarka va boshqa kichik tibbiyot xodimlari | 1 |
| 2.Bemorlarni parvarish qiluvchi kichik hamshira | 1 |
| 3. Xo'jalik bekasi | 2 |
| O'rta tibbiy xodimlar | |
| 1. Tibbiy ro'yxatdan o'tkazuvchi, dezinfektor | 2 |
| 2. Barcha nomlardagi tibbiyot hamshirasi, shafqat hamshirasi, feldsher, akusherka, laborant, rentgen laboranti, tibbiyot statistigi, tish texnigi, tibbiy-ijtimoiy xodim | |
| - toifasiz | 2 |
| - II toifa | 3 |
| - I toifa | 4 |
| - oliy toifa | 5 |
| 3. Operatsiya hamshirasi, anestezist-hamshira, reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlari hamshirasi, tug'ruqxona(bo'lim)ning | |

[215] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi 276 sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmasevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizom". Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 20-iyuldagi 144-sonli qarori tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 28-29-son, 274-modda.

| | |
|---|---|
| akusherkasi, sanitariya vrachining yordamchisi, parazitolog vrachining yordamchisi, entomologning yordamchisi | |
| - toifasiz | 3 |
| - II toifa | 4 |
| - I toifa | 5 |
| - oliy toifa | 6 |
| 4. Bo'lim (filial) feldsheri, akusherkasi; katta tibbiy hamshira, katta feldsher, katta akusherka; tish vrachi, shoshilinch yordam katta feldsheri, hamshiralik ishi mutaxassisi, netakchi tibbiy hamshira | |
| - toifasiz | 4 |
| - II toifa | 5 |
| - I toifa | 6 |
| - oliy toifa | 7 |
| Vrach xodimlar | |
| 1. Mutaxassis vrach | |
| - toifasiz | 6 |
| - II toifa | 7 |
| - I toifa | 8 |
| - oliy toifa | 9 |
| 2. Bemorlarni operatsiya qiladigan barcha nomlardagi vrach xirurg; tezkor faoliyatni ta'minlaydigan va reanimatsiya chora tadbirlarini amalga oshiradigan anesteziolog-reanimatolog vrach; davolash tadbirlarini amalga oshiradigan endoskopist vrach; tez tibbiy yordam ko'chma brigadasi mutaxassis vrachi; umumiy amaliyot vrachi | |
| - toifasiz | 7 |
| - II toifa | 8 |
| - I toifa | 9 |
| - oliy toifa | 10 |

Tibbiyot xodimining yuqoridagi tarmoq tarif setkasi bo'yicha aniqlangan bazaviy tarif stavkasi u ishlaydigan muassasaning mehnatga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladigan davlat muassasalarining qaysi guruhiga mansubligiga ko'ra tuzatish koeffitsientini qo'llagan holda oshiriladi. Sog'liqni saqlash muassasalari guruhlari bo'yicha quyidagi tuzatish koeffitsiyentlari qo'llaniladi:

| Muassasa guruhi | Tuzatish koeffitsienti |
|---|---|
| I-guruh | 1,0 |
| II-guruh | 1,03 |
| III-guruh | 1,05 |
| IV-guruh | 1,15 |

Shunday qilib, tibbiyot xodimining ish haqi miqdori xodimning egallab turgan lavozimiga (kichik va o'rta tibbiy xodimlar, vrachlar), uning malaka toifasiga (toifasiz, 2-malaka toifali, 1-malaka toifali, oliy malaka toifali) va muassasaning guruhiga (I-, II-, III-, IV-guruh) bog'liq bo'ladi.

*Masalan, ixtisoslashtirilgan statsionar muassasada ishlovchi oliy maloka toifasiga ega bo'lgan operatsiya qiladigan vrach-xirurgning bazaviy ish haqi miqdori amaldagi eng kam ish haqi miqdorini 10-razryadga to'g'ri keluvchi tarif koeffitsiyentiga va ixtisoslashtirilgan statsionar muassasa taalluqli bo'lgan III-guruhning ustamuvchi koeffitsiyentiga ko'paytirish orqali aniqlanadi:*

*EKIH × 7,629 × 1,05 = bazaviy ish haqi miqdori*

Sog'liqni saqlash muassasalarining rahbarlari, ularning o'rinbosarlari, shuningdek, hosh tibbiyot hamshiralari uchun mehnatga haq to'lash bo'yicha tarif setkasi bo'yicha razryad sog'liqni saqlash muassasasining tipiga qarab tabaqalashtiriladi. Sog'liqni saqlash muassasalarini tiplarga ajratish tartibi to'g'risidagi nizom, shuningdek tasdiqlangan tarmoq tarif setkasiga muvofiq xodimlarning ushbu toifalari mehnatiga haq to'lash razryadlari va tarif koeffitsientlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tibbiyot muassasasi quvvatini, ambulatoriya-poliklinika tarmog'i uchun – xizmat ko'rsatiladigan aholi sonini hamda kasalxona muassasalari uchun – davolanib chiqqan bemorlar sonini hisobga olib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Moliya vazirligining qo'shma qarori bilan tasdiqlanadi.

Sog'liqni saqlash muassasalarining asosiy ixtisoslikka tegishli bo'lmagan va davolash, diagnostika yoki profilaktika faoliyatini amalga oshirmaydigan yordamchi bo'linmalarning (buxgalteriya, iqtisodiy bo'limlar, kadrlar bo'limi, muhandislik inshootlari, asboh-uskunalarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish, avtomobil parki va boshqalar) rahbarlari mehnatiga

haq to'lash Mehnatga haq to'lash bo'yicha Yagona Tarif Setkasi asosida barcha byudjet tashkilotlaridagi kabi amalga oshiriladi.

Shuningdek, tibbiyot muassasalari xodimlari ish haqini hisoblashda ularning asosiy ish baqlariga qo'shimcha va ustamalar tizimi amal qiladi. Ularning miqdorlari tegisbli me'yoriy-huquqiy bujjatlar (masalan, "O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmasevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizom") bilan o'rnatiladi, odatda bu ustama va qo'shimcha to'lovlar amaldagi eng kam ish baqi miqdoriga nisbatan foizlarda hamda tibbiyot xodiminning bazaviy lavozim okladiga nisbatan foizlarda belgilanadi. Bu ustama baqlar va qo'shimcha to'lovlar:

– mehnatning sog'liq uchun xavfliligi va o'ta og'ir sharoitlari uchun;

– sog'liqni saqlash muassasalarining tarkibiy bo'linmalariga mudirlik qilganlik ucbun;

– ilmiy darajaga ega bo'lganligi yoki "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlasb xodimi" faxriy unvoni uchun;

– turg'un tipdagi muassasalar xodimlariga tungi vaqtda va bayram kunlari ishlaganligi uchun;

– alohida muassasalar, bo'linmalar va lavozimlarda uzluksiz ish staji uchun;

– maslahatlar berganligi uchun va boshqa bolatlarda o'rnatiladi.

*Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi.* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 1-dekabrdagi PQ 229-sonli "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lasb tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabridagi 276-sonli "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirisb va

tibbiyot xodimlari mehnatini moddiy rag'batlantirish maqsadida 2006-yil 1-yanvardan boshlab byudjet tashkilotlari hisoblangan barcha tibbiyot muassasalarida *Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi* tashkil etildi. Jamg'arma mablag'lari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

– tibbiyot muassasasi uchun ajratiladigan byudjet mablag'lari umumiy hajmining 5 foizgacha bo'lgan qismi;

– homiylik va donor tashkilotlaridan hamda pullik davolash va xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar;

– tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashda tejalgan byudjet mablag'lari.

*16.6-jadval*

**Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash yo'nalishlari**

| Tibbiyot muassasalari guruhlari | Moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining mablag'larini sarflash yo'nalishlari | |
|---|---|---|
| | moddiy rag'batlantirishga | moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, muassasani modernizatsiya qilish va ta'mirlash, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini va kreditorlik qarzlarni to'lashga |
| I guruh | 25% | 75% |
| II guruh | 35% | 65% |
| III guruh | 40% | 60% |
| IV guruh | 50% | 50% |

Jamg'arma mablag'lari:

– ishga vijdonan munosabati va ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning yuqori sifati uchun bazaviy tarif stavkasiga oylik ustamalar belgilash, bir yo'la moddiy yordam va mukofotlar to'lash shaklida tibbiyot va farmasevtika xodimlarini rag'batlantirishga;

– tibbiyot muassasasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga, modernizatsiya qilishga va ta'mirlashga yo'naltiriladi.

Tibbiyot xodimlarining ishga vijdonan munosabati va ko'rsatayotgan tibbiy yordamning yuqori sifati uchun tarif stavkalariga oylik ustamalar xodimlarning lavozimiga va tibbiyot muassasalari guruhiga qarab tegishli xodimning tarif stavkasidan 5 dan 20 foizgacha miqdorda quyidagi doiralarda belgilanadi:

*16.7-jadval*

**Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan tibbiyot xodimlarining tarif stavkalariga oylik ustamalar miqdorlari**

| Lavozimlar | I guruh | II guruh | III guruh | IV guruh |
|---|---|---|---|---|
| Kichik tibbiyot xodimlari | 5-15 % | 5-15 % | 5-15 % | 10-20 % |
| O'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari | 10-15 % | 10-15 % | 10-15 % | 10-20 % |
| Vrach xodimlar va provizorlar | 10-15 % | 10-15 % | 10-20 % | 10-20 % |

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirishga, sog'liqni saqlash davlat tizimining kadrlar salohiyatini mustahkamlashga, tibbiyot muassasalarining resurslar salohiyatini yaxshilashga qaratilgan sog'liqni saqlashni isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sog'liqni saqlashning milliy tizimini jadal rivojlantirish ishlarini tizimli va sifatli tashkil etish uchun umumiy amaliyot vrachlarining, patronaj tibbiyot hamshiralarining, qishloq vrachlik punktlari, shoshilinch va tez tibbiy yordam xizmati

xodimlarining lavozim maoshlari oshirildi, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida mehnatni rag'batlantirishning bozor usullari belgilandi.

Tibbiyot xodimlari mehnatini baholashning hamda ular oladigan ish haqi va mukofotning bajariladigan ishning murakkabligi va ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatiga aniq va bevosita bog'liqligini ta'minlashning ilg'or mexanizmlari joriy etildi.

Shu bilan birga, mamlakat sog'liqni saqlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish zarur bo'lgan sharoitda tibbiyot sohasini boshqarishning innovatsion modelini joriy etish, tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirishni davom ettirish, ularning kasbiy darajasini oshirish uchun munosib shart-sharoitlar va rag'batlantiruvchi omillar yaratish masalalari davlatning diqqat markazida turibdi[216].

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha 2025-yilgacha mo'ljallangan rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. Jumladan, sog'liqni saqlashning boshqarish va moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish, tibbiy sug'urtani joriy qilish, davlat-xususiy sheriklchilik va tibbiy turizmni rivojlantirish, tibbiy kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va tibbiyot fanini rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, birlamchi tibbiy yordamni kuchaytirish, aholi sog'ligini mustahkamlash va farovonligini oshirish yo'lida barcha davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

---

[216] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi "Davlat tibbiyot muassasalari va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4007-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-yil 12-noyabr, 45-son, 876-modda.

## 16.4. Xorijiy davlatlarda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tajribalari

Jahon amaliyotida mamlakatdagi sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishning quyidagi modellari shakllangan: Birinchi model – xususiy tibbiy sug'urtaga asoslangan model bo'lib, bu modelda sog'liqni saqlash xizmatlari asosan aholining shaxsiy mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabni qondirishning asosiy vositasi bozor hisoblanadi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, yolg'iz qariyalar, turli kasalliklarning tarqalishiga qarshi profilaktika tadbirlari esa davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Ushbu model AQSHda ustuvor darajada amal qiladi. Ikkinchi model tibbiyot sohasi xarajatlarini davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish modeli bo'lib, bunda sug'urta badallari majburiy soliqlar shaklida yig'iladi, ushbu yig'ilgan mablag'larni taqsimlash davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu tizim Buyuk Britaniya, Kanada, Italiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya kabi davlatlarda amal qiladi. Uchinchi model aholini ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat tomonidan tartibga solish bilan birga, bozor munosabatlariga asoslangan holda ijtimoiy sug'urtani keng joriy qilish hamda sog'liqni saqlash tizimini ko'p kanalli moliyalashtirish modeli bo'lib, bir qator mamlakatlarning milliy tibbiyot tizimlarini moliyalashtirish amaliyotiga keng joriy qilingan. Bunda davlat aholiga, ularning daromadlilik darajasidan qat'i nazar, tibbiy xizmat olishlarini kafolatlaydi. Bu modelning asosini majburiy tibbiy sug'urta tashkil qiladi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish xarajatlari turli manbalardan amalga oshiriladi:

– davlat byudjeti;
– majburiy tibbiy sug'urta;
– xususiy tibbiy sug'urta;

–tibbiy xizmatlarni sotib olishdagi to'g'ridan-to'g'ri pullik to'lovlar.

Jabon mamlakatlarida sog'liqni saqlasb tizimini moliyalashtirishning yuqorida sanab o'tilgan manbalarining sof holda faqat bittasidan foydalanmaydi. Milliy tibbiyot tizimlarini moliyalashtirishda barcba davlatlar sanab o'tilgan manbalardan aralash tarzda foydalanadi. Masalan, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya, Yaponiya, Kanada kabi davlatlarda majburiy tibbiy sug'urta tizimi yuqori darajada rivojlangan. Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Italiya, Ispaniya, Gretsiyada byudjetdan moliyalasbtirish tizimi keng tarqalgan. AQSHda esa xususiy tibbiy sug'urta tizimi faoliyati barqaror shakllangan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida byudjetdan moliyalashtirish tizimi ustuvor o'rin egallashi bilan birga, Qirg'iston, Rossiya, Gruziya, Latviya; Litva, Estoniya kabi mamlakatlarda majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urta joriy etilgan.

Sbuningdek, Jabon sog'liqni saqlasb tashkiloti ekspertlari (S. Hakansson, V. Majnoni, D'Intignano, G.H. Mooney, J.L. Roberts, G.L. Stoddart, K.S. Johansen, H. Zollner) tomonidan turli mamlakatlar sog'liqni saqlash tizimlarini bir-biridan farqlaydigan quyidagi modellari tasnifi ham takllf qilingan:

*"Universallashgan model"* (Buyuk Britaniya, Irlandiya, qisman Daniya) – milliy sog'liqni saqlash tizimining asosiy qismi umumiy soliqlar evaziga moliyalashtiriladi. tibbiyot xizmatlari asosan davlat sog'liqni saqlash muassasalarida amalga oshiriladi. Bunda vrachlar, mutaxassislar chetdan kontrakt asosida yollanadi.

*"Kontinental model"* (Germaniya, Avstriya, Fransiya, Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg) – sog'liqni saqlash muassasalari asosan ish haqi fondidan ajratiladigan ajratmalar, sbuningdek, davlatning maxsus jamg'armalari evaziga moliyalashtiriladi. Ularning ulushi jami sog'liqni saqlash xarajatlarining ¾ qismiga teng.

*"Janubiy model"* (Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, qisman Italiya) – sog'liqni saqlash xarajatlarining aksariyat qismi ish

hangi fondi va bandlikka ko'maklashish fondiga to'g'ri keladi. tibbiyot xizmati aholiga ham davlatga qarashli bo'lgan, ham xususiy klinikalar tomonidan ko'rsatiladi.

*"Skandinaviya modeli"* (Shvetsiya, Finlyandiya va Daniya) – sog'liqni saqlash xarajatlari asosan daromad soliqlari evaziga qoplanadi (markaziy va mahalliy byudjetlar darajasida). Bunda tibbiyot uchun to'lovlar fuqaro oladigan ish haqiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi. Tibbiyot xizmatlari aholiga ham davlatga qarashli, ham xususiy tibbiyot muassasalari tomonidan ko'rsatiladi.

*"Xususiy model"* (AQSH) – sog'liqni saqlash tizimi xarajatlari asosan fuqarolar hisobidan, qisman esa, davlat mablag'lari evaziga moliyalashtiriladi. tibbiyot xizmatlarini taklif etuvchilar asosan xususiy sektor vakillariga to'g'ri keladi.

*"Iqtisodiyoti o'tish sharoitidagi davlatlar modeli"* (Sharqiy Yevropa, MDHning bir qator mamlakatlari, Rossiya) - ushbu davlatlarda sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish tizimi asosan davlat byudjeti mablag'larga asoslanadi, shuningdek qisman tibbiyot sug'urtasi mablag'lari ham qo'llaniladi. Mazkur davlatlarda sog'liqni saqlash sohasi pullik xizmat ko'rsatish institutlariga o'tkazilmoqda.

Tarixan har bir mamlakatda tibbiy yordam ko'rsatish, aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga iqtisodiy resurslarni jalb qilishning o'ziga xos usul va vositalari shakllangan va rivojlangan. Jamiyat tomonidan ajratilgan iqtisodiy resurslarning miqdori va silati hamda sog'liqni saqlash tizimida ulardan foydalanish samaradorligi mamlakatda tarixan shakllangan murakkab iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ahloqiy va boshqa munosabatlar bilan belgilanadi.

Quyida keyingi yillarda sog'liqni saqlash tizimiga eng ko'p mablag' ajratadigan mamlakatlar reytingini keltiramiz:

*1. Amerika Qo'shma Shtatlari.* AQSHda sog'liqni saqlash sohasiga xarajatlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori 9 451 AQSH dollarini tashkil qiladi. AQSH jahon miqyosida ko'pgina sohalarda katta mavqega ega bo'lgan eng

rivojlangan mamlakat bo'lish bilan birga, o'z fuqarolariga universal va keng qamrovli tibbiy sug'urta tizimini kafolatlamaydigan yagona rivojlangan davlat hisoblanadi. Amerika tibbiyot tizimida hayron qolarli darajada yutuqlarga ega bo'lgani bilan, millionlab amerikaliklar bu yutuqlardan, tibbiy xizmatlarning nihoyatda qimmatligi bois, foydalana olmaydilar. Mamlakat fuqarolarining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlari uchun AQSH buku-mati ikkita maxsus tibbiy dasturni – "Medicaid" va "Medicare" dasturlarini taqdim etadi.

> ***"Medicaid"*** – muhtoj aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning davlat dasturi. Shtatlar darajasida federal hukumatning qo'llab-quvvatlashi hisobidan amalga oshiriladi. Dastur rasmiy o'rnatilgan muhtojlik chizig'idan past daromadli aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishga qaratilgan.
>
> ***"Medicare"*** – 65 yosh va undan katta aholi uchun AQSh milliy tibbiy sug'urta dasturi. "Medicare" dasturi korporatsiyalar foydasidan soliq, progressiv daromad solig'i va xodimning ish haqidan soliqlardan ajratmalar hisobidan moliyalashtiriladi. Ko'pchilik kasalxonalar daromadlarining taxminan yarmi ushbu dastur hisobidan shakllanadi.
>
> 1960-yildagi Kerr-Mills qonuniga (Kerr-Mills Act) asosan 1965-yildan buyon amal qiladi.

2. *Shveytsariya*. Mamlakatda sog'liqni saqlash xarajatlarining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori 6935 dollarni tashkil qiladi. Shveytsariya sog'liqni saqlash tizimining asosini majburiy tibbiy sug'urta tashkil qiladi. U butun mamlakat hududi bo'ylab barcha aholi uchun majburiydir. Mamakat sug'urtalangan aholi soni bo'yicha dunyoda 1-o'rinni egallaydi. Bu yerda tibbiyot sug'urtasi xususiy, lekin davlat uchun ham, fuqarolar uchun ham juda qulay tashkil etilgan. U aholi salomatligi bo'yicha yuzaga keladigan har qanday muammo bo'yicha aniq kafolatlar va keng imkoniyatlar beradi. Mamlakatda majburiy tibbiy sug'urta bilan 130ga yaqin sug'urta kompaniyalari shug'ullanadi, ular o'rtasidagi raqobat juda kuchli. Majburiy tibbiy sug'urta tizimida faoliyat yuritish uchun sug'urta kompaniyalari qator zaruriy talablarga javob berishi va Federal ijtimoiy sug'urta ofisida ro'yxatdan o'tishi zarur.

3. *Germaniya*. Jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari 5267 dollarni tashkil qiladi. Germaniya aholisining katta qismi davlat tibbiy sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalangan. Germaniyada pensiya sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urta, ishsizlik sug'urtasi bilan bir qatorda, davlat tibbiy sug'urtasi nemis ijtimoiy sug'urta tizimining asosiy tarkibiy qismi va nemis sog'liqni saqlash tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Germaniyada barcha ishlovchi va boshqa aholi guruhlari uchun majburiy tibbiy sug'urta amal qiladi. Ayrim holatlarni hisobga olib, tibbiy sug'urta sug'urtalovchi tomonidan ihtiyoriy ravishda tanlanishi mumkin. Masalan, bir guruh aholi qatlamlari: xususiy kompaniyalarning rahbarlari, jamoat lavozimlarida, davlat ijtimoiy tuzilmalarida ishlaydigan shaxslar xususiy tibbiy sug'urtalanish huquqiga ega bo'lib, ularning daromadlari davlatning majburiy sug'urtasidan voz kechib, xususiy tibbiy sug'urta tizimiga o'tish imkonini beradi. Xususiy tibbiy sug'urta davlat tibbiy sug'urtasiga qaraganda ancha keng tibbiy xizmatlar turlarini taklif qiladi va sug'urta polisining summasi ham shunga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Sug'urta badallarining miqdori ham sug'urtalanuvchi shaxs umumiy salomatligining holati, jinsi va yoshiga bog'liq bo'ladi.

4. *Shvetsiya*. Jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari 5228 dollarni tashkil qiladi. Sog'liqni saqlash tizimining natijalarini baholaydigan ko'rsatkichlar ichidagi o'rtacha umr ko'rish davomiyligi ko'rsatkichi bo'yicha Shvetsiya Yevropadagi eng yuqori o'rinlarning birini egallaydi. Bugungi kunda ushbu ko'rsatkich ayollar bo'yicha 83,5 yoshni, erkaklar bo'yicha 78,8 yoshni tashkil qilmoqda va yetarlicha yuqori bo'lish bilan birga yildan yilga oshib bormoqda. Shvetsiyada sog'liqni saqlash tizimi soliq to'lovchilar tomonidan moliyalashtiriladi, bunda tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarning asosiy qismi munitsipalitetlar va davlat zimmasida bo'lib, aholi tibbiy xarajatlarning an'anaviy belgilangan juda kam miqdorini to'laydi.

5. *Fransiya*. Jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari 4407 dollarni tashkil qiladi. Frantsiyada tibbiy xizmatlarni taqdim etish va moliyalashtirishning davlat va xususiy sektorini o'z ichiga oluvchi murakkab tizimi amal qiladi. Tizim majburiy tibbiy sug'urta tamoyillariga asoslangan, shuningdek, ihtiyoriy sug'urta ham kattagina ulushni tashkil qiladi. Turli-tuman va cheklanmagan tibbiy xizmatlarning turlari nafaqat turg'un davolash muassasalari tomonidan, balki ambulatoriya sharoitida ham ko'rsatiladi.

6. *Yaponiya*. Jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari 4150 dollarni tashkil qiladi. Yaponiya sog'liqni saqlash tizimida tibbiy xizmatlar, turli kasalliklar bo'yicha tekshiruvlar, shu jumladan, tug'ishgacha bo'lgan tibbiy xizmat va kuzatuv, yuqumli kasalliklarga qarshi kurash xarajatlari, bemorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri to'lovlarsiz, davlat va mahalliy hukumatlar tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi. Shaxsiy tibbiy xizmatlar bo'yicha to'lovlar universal tibbiy sug'urta tizimi bo'yicha taklif qilinadi, ularda ishtirok etish uchun hukumat komitetlari tomonidan barchaga teng imkoniyatlar va yig'imlar o'rnatilgan. Ish beruvchi tomonidan beriladigan tibbiy sug'urtaga ega bo'lmagan shaxslar mahalliy hokimiyat organlari tasarrufidagi milliy tibbiy sug'urta dasturlarida ishtirok etishlari mumkin.

7. *Buyuk Britaniya*. Jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari 4003 dollarni tashkil qiladi. Sog'liqni saqlash xarajatlarining 82 foizi umumiy soliqlar hisobidan moliyalashtiriladi, aholining katta qismi tibbiy xizmatlardan mutlaqo bepul foydalanadi. Tibbiyot muassasalari xarajatlarining qolgan 18 foizi ularning tijorat faoliyatlaridan tushumlar, davlat tibbiy sug'urtasi, bemiylik badallari hisobidan moliyalashtiriladi. Milliy tibbiyot xizmatlaridan 90 foiz aholi foydalanadi. 10 foiz aholi xususiy tibbiyot klinikalariga murojaat qiladi. Buyuk Britaniyada xususiy tibbiyot amaliyoti ham yetarli darajada rivojlangan va davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadi, lekin umumiy tibbiy xizmatlar

tarkibida katta ulushga ega emas, mamlakatning butun hududi bo'yicha 300ga yaqin xususiy tibbiy klinikalar faoliyat ko'rsatadi.

*8. Ispaniya.* Jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari 3153 dollarni tashkil qiladi. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi bo'yicha Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'yicha 1-o'rinni egallaydi. Umr ko'rish davomiyligiga, shubhasiz, O'rta yer dengizining ta'sirdagi iqlim sharoitlari va dengiz mahsulotlariga qurilgan parhez omillari katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Ispaniyaning sog'liqni saqlash tizimi ham nafaqat Yevropada, balki butun dunyoda klinikalarning jihozlanishi, texnologiyalarning qo'llanilishi, mutaxassislarning kashiy salohiyati kabi ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha eng yaxshi tizimlardan biri sanaladi. Bepul tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqiga aholining barcha qatlamlari, ishlovchi xodimlar, bolalar, nogironlar, pensionerlar birdek egadirlar.

*9. Rossiya.* Jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari 1369 dollarni tashkil qiladi. Rossiyada majburiy tibbiy sug'urta tizimi amal qiladi. Majburiy tibbiy sug'urta davlat ijtimoiy sug'urtasining ajralmas qismi hisoblanadi va Rossiya Federatsiyasining barcha fuqarolariga majburiy tibbiy sug'urta hisobiga tibbiy sug'urta dasturlariga mos keladigan miqdor va shartlarda tibbiy yordami va dori-darmon olish uchun teng imkoniyatlarni beradi.

*10. Meksika.* Jon boshiga sog'liqni saqlash xarajatlari 1052 dollarni tashkil qiladi. Meksikada fuqaro salomatligini ta'minlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Xususiy klinikalar va kasalxonalar AQSH standartlari bo'yicha qurilgan va jihozlangan bo'lib, eng zamonaviy talablarga javob beradi. Meksikada ko'plab sug'urta kompaniyalari mavjud bo'lib, ular har oylik to'lovlar evaziga shaxsiy tibbiy sug'urtani taklif qiladilar. Bunda sug'urta summasi va mijozning yoshi qancha katta bo'lsa, har oylik sug'urta badali ham shuncha katta bo'ladi. Badal miqdoriga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ko'plab rivojlangan davlatlarning tibbiyot sohasiga iqtisodiy resurslar va moliyaviy mablag'larni safarbar etish modellari va usullarini chuqur o'rganган holda, bu boradagi ijobiy tajribalarni yurtimizda ham tatbiq etish, pirovardida tibbiyot sohasida ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida muvozanatning ta'minlanishiga erishish zarur.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Sog'liqni saqlash tizimining ahamiyati va uning ijtimoiy sohalar tizimidagi o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?*

*2. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishning asosiy modellari va manbalari qaysilar?*

*3. Sog'liqni saqlash sohasi xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashda davlat byudjetining tutgan o'rnini ma'lumotlar asosida izohlab bering.*

*4. Sog'liqni saqlash sohasining moliyaviy ta'minotida byudjetdan tashqari manbalardan foydalanish amaliyoti qanday?*

*5. O'zbekiston Respublikasida tibbiyot sohasida ijtimoiy adolat va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida muvozanatning ta'minlanishiga erishish uchun nimalar qilish kerak, deb hisoblaysiz, javobingizni atroflicha izohlab bering.*

**Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar**

*3. Sog'liqni saqlash muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalari va ularni ishlatish yo'nalishlari qaysi umumiy va maxsus qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishini aks ettiruvchi chizma tayyorlang.*

*4. Amaldagi me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida sog'liqni saqlash muassasasining yillik byudjetini hisoblang, uning*

*hajmiga qanday omillar ta'sir ko'rsatishini aks ettiradigan taqdimot materiali tayyorlang.*

*5. O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha 2025-yilgacha mo'ljallangan rivojlanish Konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini aks ettiruvchi taqdimot materiali tayyorlang.*

# 17-BOB. DAVLAT BYUDJETINING IJTIMOIY TA'MINOT XARAJATLARI

## 17.1. Ijtimoiy ta'minot tizimining mohiyati, vazifalari va ahamiyati

Ijtimoiy himoya tizimining muhim tarkibiy qismi ijtimoiy ta'minotdir. Kishilik jamiyati ko'p asrlik kurashlar natijasida davlat tomonidan ijtimoiy ta'minlanish buquqlarini qo'lga kiritgan va tarixiy taraqqiyotning hamda davlatchilik rivojining bar bir bosqichida ijtimoiy ta'minotning shakl va usullari takomillashib borgan. Ijtimoiy ta'minot orqali jamiyatda yaratilgan ne'matlarning aholining zaif qatlamlari hisobiga qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Ijtimoiy ta'minot orqali mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki butunlay yo'qotgan fuqarolar zarur mablag'lar bilan ta'minlanadi, keksalar, jamiyatning ko'magiga ehtiyojmandilarga ijtimoiy yordam beriladi, fuqarolarning alohida guruhlariga imtiyozlar, kompensatsiyalar taqdim etiladi. Bundan tashqari ijtimoiy ta'minot tizimining markazida pensiya ta'minoti turadi va u fuqarolarni keksayganda, nogironlikda yoki boquvchisini yo'qotganda ijtimoiy qo'llab quvvatlashga xizmat qiladi. Bu tizimning muvaffaqiyati uning moliyaviy manbalarinmg mustahkamligiga bog'liq bo'lib, ularni mustahkamlash, to'g'ri yo'naltirish, jamiyat tomonidan yaratilgan ne'matlarni jamiyat a'zolari o'rtasida oqilona taqsimlash nisbatlarini ishlab chiqish masalalari doimo dolzarbligini yo'qotmagan.

"Ijtimoiy ta'minot" tushunchasining mazmuni, uning holatini belgilab beruvchi omillar bizning mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot tizimining rivojlanishi bilan shakllanib bordi. Iqtisodiy ta'limotlar va fanda "ijtimoiy ta'minot" tushunchasining turlicha talqin etilganligini ko'rish mumkin. Masalan, XX asrning 80-yillarida yaratilgan rus izohli

lug'atida[217] ijtimoiy ta'minotga "jamiyat tomonidan u yoki bu shaxsga hayot uchun yetarli bo'lgan moddiy mablag'larni taqdim etish" deb ta'rif berilgan, ushbu ta'rifda jamiyat a'zolariga jamiyat tomonidan taqdim etiladigan yordamning turli shakllari ijtimoiy ta'minot hisoblanadi, degan fikr ilgari surilgan. Lekin bunday yordamning shakllari va turlari turli-tuman bo'lishi, turli toifadagi aholi qatlamlarini qamrab olishi, turli manbalardan mablag' bilan ta'minlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning har bir bosqichida o'zgarib turishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda fanda ijtimoiy ta'minot tushunchasi mazmumni yoritish bo'yicha ikkita iqtisodiy va huquqiy konsepsiya shakllanganligini ko'rish mumkin:

*Iqtisodiy konsepsiya* tarafdorlari ijtimoiy ta'minotga jamiyat a'zolari uchun ijtimoiy iste'mol fondlaridan taqdim etiladigan yordamning barcha turlarini (shu jumladan, bepul ta'lim, uy-joy bilan bepul ta'minlash, madaniyat muassasalarini saqlash, pensiya va nafaqalarning barcha turlari, ayrim fuqarolarga ijtimoiy, tibbiy yordam ko'rsatish va turli imtiyozlar berish) kiritadilar. Bu konsepsiyaning asosini moddiy va moliyaviy ne'matlarni ijtimoiy iste'mol fondlari orqali taqsimlash usuli tashkil etgan.

*Huquqiy konsepsiya* vakillari ijtimoiy ta'minot jamiyatning barcha a'zolariga emas, balki uning faqat alohida qatlamlariga – davlat tomonidan muhofaza qilinishi lozim bo'lgan guruhlariga qaratilishi kerakligini e'tirof etganlar. Aholining bunday guruhlariga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida turli toifadagi fuqarolar kiritilgan. Xususan, sobiq sovet hukumati davrida ijtimoiy ta'minot bilan avval yollanib ishlovchi ishchi-xizmatchilar, keyinroq kolxoz a'zolari, bolalar, ko'p bolali oilalar, yolg'iz onalar qamrab olingan.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasini tatqiq qilgan olimlarning izlanishlarini o'rganish shundan dalolat beradiki, bir guruh mutaxassislar ijtimoiy ta'minot faqat ayrim aholi qatlamlariga

---

[217] Ожегов С. И. Словарь русского языка. М: Русский язык, 1984. С. 374, 670.

qaratilishi kerak, deb da'vo qilsalar, boshqalar ijtimoiy ta'minot barcha aholiga qaratilgan bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydilar va bepul ta'lim hamda bepul tibbiy va davolash xizmatlarini ham ijtimoiy ta'minot tizimiga kiritadilar. Shuningdek, bir qator olimlar ijtimoiy ta'minot faqat davlat byudjetidan moliyalashtirilishi zarurligini ta'kidlasalar, boshqalari ijtimoiy ta'minotning ko'pkanalli moliyalash manbalari shakllanganligini va ijtimoiy ta'minot masalalari bilan shug'ullanadigan bir nechta mahkama, davlat idoralari mavjudligini e'tirof etadilar.

Bu borada A.Vahobov va T.Malikovlarning "Moliya" nomli darsliklarida berilgan ta'rifga to'xtaladigan bo'lsak, ularning fikricha, "iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy ta'minotga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ... fuqaroiarni moddiy ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish uchun milliy daromadning bir qismi hisobidan pul mablag'larining ijtimoiy fondlarini shakllantiradigan va ulardan foydalanadigan taqsimiash munosabatlari tizimiga ijtimoiy ta'minot deyiladi. Mana shunday keng ko'lamda, ijtimoiy ta'minot fondlarini shakllantirish manbalari va ta'minotni tashkil etishga bog'liq bo'lmagan holda jamiyatning barcha a'zolarini tegishli tarzda ta'minlanishini o'z ichiga qamrab oladi"[218]. Albatta, ushbu ta'rifda ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy voqelik sifatidagi mazmuni yoritilgan hamda uning moliyaviy asoslariga urg'u berilgan. Mualliflar ijtimoiy ta'minotning mazmuni borasida iqtisodchilar o'rtasida yagona fikr mavjud emasligini haqli ravishda e'tirof etadilar.

Boshqa manbalarda, xususan, Internet resurs manbalaridagi ma'lumotlarda "ijtimoiy ta'minot - keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy

[218] Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. T.: "NOSHIR", 2011. 449 bet

tadbirlar tizimi bo'lib, ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i hisoblanadi"[219], deb ta'riflangan.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasining talqiniga bo'lgan qarashlarni inobatga olgan holda uning u yoki bu yordam turini ijtimoiy ta'minotga tegishli ekanligini belgilab beruvchi asosiy zamonaviy mezonlarini (belgilarini) aniqlab olish lozim, hunday belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) *moliyalashtirish manbalari:* barcha olimlar va tadqiqotchilarning fikriga qo'shilgan holda ijtimoiy ta'minot davlat tomonidan shakllantiriladigan maxsus jamg'armalar hisobidan amalga oshirilishi lozim. Haqiqatan ham bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minotni mablag' bilan ta'minlash quyidagi manbalar hisobidan amalga oshirilmoqda: byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar), kasaba uyushmalarining mablag'lari (Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti).

*2) ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olingan fuqarolar guruhlari:* huquqiy jihatdan "har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega"[220]. Fuqarolarning bu huquqlari davlatimiz Konstitutsiyasi bilan mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyamizning ushbu huquqlarni belgilab bergan 39 moddasining mazmunidan ham ko'rinib turibdiki, ijtimoiy ta'minot fuqarolarning alohida toifalariga: qariyalar, nogironlar, bolalikdan nogironlar, boquvchisini yo'qotgan fuqarolar, vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotgan fuqarolar, homilador ayollar, vaqtincha ishsiz maqomi berilgan fuqarolar, ijtimoiy yordamga muhtoj yolg'iz fuqarolarga qaratiladi.

---

[219] Manba: https://uz.wikipedia.org/

[220] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 39 modda.

**Ijtimoiy ta'minot turlarining** ko'pligini e'tirof etgan holda har bir turining **asosiy maqsadi** — fuqarolarning alohida toifalarining ijtimoiy ahvolini jamiyatning boshqa a'zolarining holatiga yaqinlashtirish, ular orasidagi ijtimoiy farqlarni kamaytirish, yuqori moddiy xarajatlarni yoxud qo'shimcha jismoniy, ruhiy va ma'naviy harakatlarni talab qiluvchi turli hayotiy hodisalar tufayli yordamga muhtoj bo'lib qolgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashdan iborat

Ijtimoiy ta'minotning mazmunini shakllantirishda yana shuni inobatga olish kerakki, ijtimoiy ta'minot rivojlanishning u yoki bu bosqichidagi davlatning ijtimoiy siyosati yo'nalishlarini aks ettiradi. Ijtimoiy siyosatdagi ustuvorliklarning o'zgarishi ijtimoiy ta'minotning ham usullari va shakllarining o'zgarishiga olib keladi. Xususan, taraqqiyotning ma'lum davrlarida (70-80-yillarda) ijtimoiy siyosat aholining son jihatdan ko'payishini rag'batlantirishga qaratilgan edi, shu sababli bu davrda ijtimoiy ta'minot orqali ko'p bolali onalarga nafaqalar joriy etilgan. Mustaqillik davrida esa bu boradagi ijtimoiy siyosat onalik va bolalikni muhofaza qilish, tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish, "sog'lom ona — sog'lom bola" tamoyilini mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash va fuqarolarga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Ijtimoiy ta'minotning shakl va usullari ham shu maqsadga bo'ysundirilgan. Bu maqsadlar yo'lida insonlarning mehnati va sog'lig'i muhofaza qilinadi, oilalar, onalar va bolalar, nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, ijtimoiy xizmatlar tizimi rivojlantiriladi, davlat pensiyalari, nafaqalar va ijtimoiy himoyaning boshqa kafolatlari o'rnatiladi.

**Ijtimoiy ta'minot** - davlat ijtimoiy siyosatining namoyon bo'lish shakli bo'lib, aholining alohida toifalarini moddiy ta'minlashga qaratilgan, rivojlanishning muayyan bosqichida davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatli, deb topilgan holatlarda ularning ijtimoiy holatini jamiyatning boshqa a'zolariga nisbatan tenglashtirishga yo'naltirilgan, davlat byudjeti va boshqa maxsus maqsadli jamg'armalar hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimidir

Yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda hugungi kunda ijtimoiy ta'minot tizimiga quyidagilar kiradi (17.1-rasm).




17.1-rasm. **Ijtimoiy ta'minot xizmatlari**[221]

Bu xizmatlarning ayrimlari byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilsa (masalan: yoshga doir,

[221] Insoni taraqqiyoti. Darslik. i.f.d., prof. Q.X. Abdurahmonov tahriri ostida. – T.: Iqtisodiyot, 2013. 185 b.

boquvchisini yo'qotganlik va nogironlik pensiyalari, bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa, dafn marosimlari uchun nafaqa kabi), ayrimlari (masalan: qariyalar va nogironlar uylarini saqlash, bepul ortopediya-protez vositalari bilan ta'minlash, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi) davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar) hisobidan, boshqa birlari (masalan, aholiga sanatoriya-kurort xizmatlari ko'rsatish) kasaba uyushmalari hisobidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy ta'minot tushunchasini yoritishdagi fikrlarimizni umumlashtirib shuni ta'kidlash lozimki, bepul ta'lim, uy-joy bilan bepul ta'minlash kabi ijtimoiy yordam turlari, garchi aholining ijtimoiy ahvolini yengillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar sirasiga kirsa-da, ijtimoiy ta'minot tarkibiga kirmaydi, balki davlatning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash chora-tadbirlari qatorida davlat byudjeti va boshqa davlat mablag'laridan moliyalashtiriladi.

Ijtimoiy ta'minot tizimining zarurligi va ahamiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda ijtimoiy ta'minotning quyidagi funksiyalarni bajarishi ko'rsatilgan: *iqtisodiy, siyosiy, demografik, ijtimoiy-reabilitatsion funksiyalar.*

*Ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy funksiyasi* fuqarolarning qiyin hayotiy holatlarda moddiy qo'llab-quvvatlanishida, fuqarolarga mehnat qobiliyatini qayta tiklab olish uchun moddiy yordam berilishi natijasida mehnat unumdorligining oshishi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki berishda namoyon bo'ladi.

*Ijtimoiy ta'minotning siyosiy funksiyasi* aholining turli ijtimoiy qatlamlari ijtimoiy holati darajasini bir-biriga yaqinlashtirish, har bir insonga munosib hayot kechirish uchun sharoit yaratish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasida ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashtirishga qaratilgan.

*Demografik funksiyasi* mamlakat aholisining son jihatdan o'sishini rag'batlantirish, sog'lom avlodni yetishtirish,

fuqarolarning umr ko'rish davomiyligini oshirish kabilarga qaratilgan.

*Ijtimoiy ta'minotning ijtimoiy-reabilitatsion funksiyasi* keksa va mehnat qobiliyati cheklangan fuqarolarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lib, ularning huquqiy maqomini saqlash va sog'lig'ini muhofaza qilish uchun qulay sharoitlarni yaratishda namoyon bo'ladi. Amalda bu funksiyaning namoyon bo'lishini fuqarolarning ayrim toifalarini qariyalar uylarida saqlash, boshqa bir toifadagilarni ortopediya-protezlash vositalari bilan ta'minlash, uchinchilariga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatishda ko'rish mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy ta'minot yana bir, aytish mumkinki, juda muhim funksiya – *ijtimoiy himoyalash funksiyasini* bajaradi. Jamiyat o'z fuqarolariga ijtimoiy ta'minotni taqdim etar ekan, birinchi navbatda o'z oldiga ularni ijtimoiy himoya qilishdek o'ta muhim vazifani qo'yadi, zero qiyin hayotiy holatlarda ularni himoyalash, turli (moddiy, jismoniy, ruhiy, yosh bilan, oilaviy vaziyat bilan bog'liq) muammolarni hal qilishda yordam berish ijtimoiy ta'minotning zarurligi va ahamiyatini belgilab beradi.

## 17.2. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minot tizimining moliyaviy manbalari

Yuqorida ta'kidlanganidek, hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy ta'minot o'zining shakllari va turlari xilma-xil bo'lishi bilan birga moliyalashtirish manbalarining ham bir nechta ekanligi bilan xarakterlanadi. Ijtimoiy ta'minot maqsadlaridagi xizmatlar va to'lovlar uchun moliyaviy resurslar turli ijtimoiy yo'nalishdagi jamg'armalarda mujassamlanadi va davlat boshqaruvining turli idoralari orqali tasarruf etiladi. Ijtimoiy ta'minot xizmatlari va to'lovlari quyidagi manbalardan amalga oshiriladi:

17.2-rasm. **Ijtimoiy ta'minot xizmatlari va to'lovlarini moliyalashtirish manbalari**

- davlat byudjeti (respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar);
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
- Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi;
- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti mablag'lari.

Davlat byudjetidan an'anaviy ravishda ijtimoiy ta'minotning quyidagi shakllari va turlari moliyalashtiriladi:

*a) respublika byudjetidan:*

- respublika tasarrufidagi bolalar uylarini saqlab turish xarajatlari;
- respublika vazirliklari va idoralari tasarrufidagi urush hamda mehnat faxriylari uchun pansionatlar va sanatoriylarni, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalarini saqlab turish, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;
- bolalikdan nogironlarga va bola tug'ilganda beriladigan nafaqalarni, qonun hujjatlarida ayrim toifadagi shaxslarga belgilangan kompensatsiyalarni to'lash uchun vakolatli organga mablag'lar ajratish xarajatlari;

- Chernobil AES halokati oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni va radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash, ayrim toifadagi shaxslarga qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va kompensatsiyalarni to'lash xarajatlari va b.

*b) mahalliy byudjetlardan:*

- mahalliy hokimiyatlar tasarrufidagi bolalar uylari, davlat bolalar shaharchalarini saqlab turish xarajatlari;

- mahalliy hokimiyatlar tasarrufidagi qariyalar va nogironlarning internat-uylari, pansionatlari va sanatoriyalari, nogironlarni reabilitatsiya qilish markazlarini, boshqa muassasalarni saqlab turish xarajatlari, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilishga doir maqsadli tadbirlar xarajatlari;

- uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xarajatlari;

- shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'lovchilarni va bagajni cheklangan tariflar bo'yicha tashish, shuningdek, alohida toifadagi fuqarolarni imtiyozli tashish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq zararlarning o'rnini qoplash xarajatlari va b.

Ma'lumki, ijtimoiy ta'minotning markazida pensiya ta'minoti turadi. Ko'pchilik davlatlarda pensiya ta'minotini mablag' bilan ta'minlash maqsadida markazlashgan tartibda maxsus fondlar – Pensiya fondlari tuziladi. Ularning asosiy maqsadi shu mamlakat pensiya qonunchiligi bilan belgilangan pensiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni moliyalashtirishdan iborat.

> O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minot vazifalarini davlat byudjeti bilan birga byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bajaradi.

Bugungi kunda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan quyidagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lanadi, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan boshqa sarfiyotlar amalga oshiriladi:

- ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;

- ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;

- davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar berish;

- dafn marosimlari uchun nafaqalar;

- belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar.

Fuqarolar ijtimoiy ta'minotining ayrim shakllari va turlari *Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi* tomonidan moliyalashtiriladi, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- ishsiz, deb topilgan shaxslarni kasbiy tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari;

- ishsizlik bo'yicha nafaqalar, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish munosabati bilan kompensatsiyalar to'lash hamda ishsizlarga moddiy yordam berish;

- ishsiz, deb topilgan shaxslarga muddatidan ilgari pensiya tayinlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarining o'rnini qoplash;

- nogironlar, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rinlarini va ishlab chiqarishlarni tashkil etishga doir tadbirlarni qisman moliyalashtirish;

- ish bilan band bo'lmagan aholiga yordam ko'rsatish, shu jumladan, ishga joylashtirishga ko'maklashish va maslahat xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar;

- aholi bandligi bilan bog'liq masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni hamda xalqaro loyihalar va shartnomalarni amalga oshirishni moliyalashtirish;

- chet elga ishga yuborilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ishga joylashtirilishini tashkil etish va ularning

ijtimoiy muhofaza qilmishini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar va h.

*O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti* quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun yagona ijtimoiy to'lovdan yo'naltirilgan ajratmalar hisobiga;
- belgilangan tartibda xodimlarga davolanish va dam olish uchun berilgan yo'llanmalar uchun ulardan olingan mablag'lar hisobiga;
- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga.

Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining mablag'lari tegishli kasaba uyushmalari organlarining qarorlari bilan tasdiqlanadigan byudjet va smetalarda belgilangan maqsadlarga muvofiq xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish uchun quyidagilarga sarflanadi:

- sanatoriy-kurortlarda davolanish, pansionat va dam olish uylariga yo'llanmalar olishga;
- korxonalar va o'quv muassasalaridagi sanatoriy-profilaktoriylarda, sanatoriy-profilaktoriylarning ijtimoiy sug'urta uchun tasdiqlangan smetasiga muvofiq, xodimlar yoki talabalarni sog'lomlashtirish xarajatlarini qisman qoplashga (xodimlarning mehnatiga haq to'lashga, davolanuvchilarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);
- bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida bolalarning ta'minotida, bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlarining tasdiqlangan smetalariga muvofiq, xissali ishtirok etishga (xodimlarning mehnatiga haq to'lashga, bolalarning ovqatlanishi, davolanishi, ularga madaniy xizmat ko'rsatishga);
- kasaba uyushmalari huzuridagi bolalar va o'smirlar sport maktablari (BO'SM) xodimlarining mehnatiga haq to'lash

va moliyaviy imkoniyatlari darajasida sport anjomlarini xarid qilish, o'quv-sport tadbirlarini o'tkazish uchun qisman mablag' ajratishga;

- o'z sport bazalari bo'lmagan taqdirda hududiy birlashmalar tomonidan tasdiqlangan BO'SMning smetasiga muvofiq, istisno tariqasida, binolarni ijaraga olishga;

- ijtimoiy sug'urta bo'yicha tashkiliy-ma'muriy xarajatlarni moliyalashtirishga, kadrlarni tayyorlash, o'qitish, sog'lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etuvchi shifokorlar va boshqa kadrlarning ta'minotiga;

- O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining tasdiqlangan smetasi qurilish va rekonstruksiya qilinadigan obyektlarning manzilli ro'yxatiga muvofiq kasaba uyushmalari sog'lomlashtirish muassasalari va BO'SM sport inshootlarini rekonstruksiya qilinishiga;

- ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish bilan bog'liq boshqa tadbirlarga.

## 17.3. Ijtimoiy ta'minot xarajatlarini davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlash

Ijtimoiy ta'minotga ehtiyoj jamiyat paydo bo'lishi bilan tug'ildi. Har qanday jamiyatda – uning iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan qat'iy nazar – o'zlariga bog'liq bo'lmagan vaziyatlar sabablari tirikchilik kechirish uchun mablag' topishga qodir bo'lmagan aholi toifalari bo'ladi. Ularga eng avvalo, bolalar va keksa kishilar, nogironlar, yetimlar, yolg'iz fuqarolar kiradi. Bundan tashqari ijtimoiy yordamga muhtojlar safini vaqtincha yoki bir umr mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan odamlar to'ldirishi mumkin. Jamiyat rivojlanishi va ijtmoiy aloqalar murakkablashishi bilan ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolar qatoriga iqtisodiy sabablar oqibatidagi ishsizlar, kambag'allar, shuningdek inflyatsiyaning yuqori sur'atlaridan moddiy ahvollari og'irlashganlar kiradi. Bunday toifadagi

fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash jamiyat miqyosida muayyan moliyaviy resurslarni jamlash va ijtimoiy ta'minot maqsadlariga safarbar qilishni talab etadi. Bu maqsadlardagi moliyaviy resurslar bir qancha manbalardan moliyalashtirilishi oldingi paragrafda ta'kidlangan edi. Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 11-oktabrda 2146-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ga muvofiq aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy ta'minlash bilan bog'liq xarajatlari tarkibiga qanday xarajatlar kiritilganligi va ularni mablag' bilan ta'minlash manbalari keltirilgan (17.1-jadval).

*17.1-jadval*

**Davlatning ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya xarajatlari tarkibi va moliyalash manbalari**[222]

| Byudjet tasnifi bo'yicha xarajat kodi | | | Xarajat turi | Mablag' bilan ta'minlash manbai |
|---|---|---|---|---|
| 7 | 100 | 000 | IJTIMOIY HIMOYA | |
| 7 | 101 | 000 | Kasallik, mehnatga layoqatsizlik va kam ta'minlanganlik | |
| 7 | 101 | 100 | Kasallik | |
| 7 | 101 | 200 | Mehnatga layoqatsizlik | |
| 7 | 101 | 201 | Bolalikdan nogironlarga nafaqa | Respublika byudjeti mablag'lari |
| 7 | 101 | 202 | Nogironlarni o'qitish va ish bilan ta'minlash | Bandlik jamg'armasi mablag'lari |
| 7 | 101 | 203 | Qariyalar va nogironlar uchun sanatoriyalar | Davlat byudjeti mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning xayr ehsonlari va |
| 7 | 101 | 204 | Qariyalar va nogironlar uchun internat uylari | |
| 7 | 101 | 205 | Kichik yoshdagi nogiron bolalar uchun internat uylari | |

[222] O'zbekiston Respublikasi byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomaning (16.09.2010, 2146 son) 4 ilovasi asosida.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | boshqa manbalar |
| 7 | 102 | 000 | Qarilik | |
| 7 | 102 | 100 | Uyda ijtimoiy yordam xizmati bo'limlari | Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar mablag'lari (ijtimoiy [illegible] ajratilgan mablag'lar doirasida) |
| 7 | 102 | 400 | Pensiya bilan ta'minlanganlik | Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari |
| 7 | 102 | 401 | Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar xarajatlari | |
| 7 | 102 | 402 | Ishlaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar xarajatlari | |
| 7 | 102 | 403 | Pensiya, nafaqa va kompensatsiya to'lovlarini yetkazib berish bo'yicha pochta xizmatlari xarajatlari | |
| 7 | 102 | 404 | Blanka mahsulotlari, pensiya ruxsatnomalarini tayyorlash, pensiya to'lash vedomostlari uchun qog'oz sotib olish, mamlakat tashqarisiga pensiya ishlarini o'tkazish, tashkilotlarda pensiya va nafaqalarni to'g'ri taymlanishi tekshirish uchun safar xarajatlari | |
| 7 | 103 | 000 | Oila va bolalar | Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar mablag'lari (aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashga ajratilgan mablag'lar doirasida) |
| 7 | 103 | 100 | 14 yoshgacha bolasi bo'lgan oilalarga har oylik nafaqalar | |
| 7 | 103 | 200 | 2 yoshgacha bolalarni parvarishlayotgan onalarga har oylik nafaqalar | |
| 7 | 103 | 300 | Kam daromadli oilalarga har oylik moddiy yordamlar | |
| 7 | 103 | 400 | Tabiiy ofatlar natijasida zarar ko'rgan oilalarga moddiy yordamlar | |
| 7 | 104 | 000 | Ishsizlik | O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish |
| 7 | 104 | 100 | Ishsizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash yuzasidan davlat kafolatlarini amalga oshirish | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 7 | 104 | 101 | Ishsizlik bo'yicha nafaqalar, Bandlikka ko'maklashish markazlarining taklifiga binoan ishlash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish uchun kompensatsiyalar to'lash va qonun hujjatlariga muvofiq ishsizlarga moddiy yordam berish | davlat jamg'armasi mablag'lari |
| 7 | 104 | 102 | Haq to'lanadigan jamoat ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlash | |
| 7 | 104 | 103 | Ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarini qoplash | |
| 7 | 106 | 300 | Ijtimoiy sug'urta bo'yicha xarajatlar | |
| 7 | 106 | 310 | Byudjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa | Davlat byudjeti mablag'lari |
| 7 | 106 | 320 | Bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa | Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari |
| 7 | 109 | 300 | Ijtimoiy ta'minotning boshqa tadbirlari | Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlar mablag'lari ijtimoiy ta'minotga ajratilgan mablag'lar doirasida |
| 7 | 109 | 400 | Ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya markazlarini saqlash | |
| 7 | 109 | 401 | Ijtimoiy moslashuv markazlarini saqlash | |
| 7 | 109 | 402 | Muayyan yashash joyiga va mashg'ulot turiga ega bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari | |
| 7 | 109 | 403 | Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam berish markazlari | |
| 7 | 109 | 404 | Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi | |
| 7 | 109 | 405 | Nogironlar uchun mintaqaviy reabilitatsiya markazlari | |

Yuqoridagi jadvalda byudjet tasnifining "Xarajatlarning vazifa jihatdan tasnifi" bo'yicha xarajatlarning guruhlanishini va ularni mablag' bilan ta'minlash manbalarini va ijtimoiy

ta'minot turlariga kiruvchi bir qator xizmatlar: ijtimoiy nafaqalar, ijtimoiy xizmatlar va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni saqlash bo'yicha xarajatlar bir necha manbalardan amalga oshirilishini ko'rish mumkin. Bular: davlat byudjeti (respublika va mahalliy byudjetlar), Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari va boshqa nobyudjet va nodavlat manbalar.

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat tashkilotlariga bir qator ijtimoiy ta'minot muassasalari kiradi, ular quyidagilardan iborat:

- "Saxovat" keksalar va nogironlar uchun internat uylari;
- "Muruvvat" nogironlar uchun internat uylari;
- "Muruvvat" nogiron bolalar uchun internat uylari;
- Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar;
- Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati.

*"Saxovat" keksalar va nogironlar uchun internat uylari* O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo'lgan qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bo'lmagan yolg'iz keksalar hamda 18 yoshidan boshlab I va II guruhlar nogironlari (vasiylikka olinuvchilar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

*"Muruvvat" nogironlar uchun internat uylari* O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 18 yoshidan boshlab I va II guruhlar nogironlari (vasiylikka olinuvchilar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

*"Muruvvat" nogiron bolalar uchun internat uylari* O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, ruhiyatida sezilarli yoki ancha sezilarli nuqsonlar bor bo'lgan, 4 yoshdan 18 yoshgacha nogiron bolalar uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

*Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar* keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylarini (dam oluvchilar) sog'lomilasbtirish va ularning dam olishi uchun mo'ljallangan davlat davolash-profilaktika muassasalari hisoblanadi.

*Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati* O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan I va II guruhlar nogironlari hisoblangan hamda O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan qarindoshlar yoki boshqa shaxslarga ega bo'lmagan yolg'iz urush va mehnat faxriylari (vasiylikka olinganlar) uchun davlat tibbiy-ijtimoiy muassasasi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha turdagi ijtimoiy muassasalar faoliyati davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari va qonun bujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan belgilangan tartibda tegishli moliya organlarida tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni sarflash qonun bujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Muassasalarning shtatlar jadvallari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan namunaviy sbtatlarga muvofiq tasdiqlanadi.

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy ta'minot xarajatlari tarkibiga yuqorida ko'rib o'tilgan xarajatlar va muassasalar bilan birgalikda o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda xizmat ko'rsatish xarajatlari ham kiradi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda xizmat ko'rsatish "Yolg'iz qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati" tomonidan tashkil qilinadi. Ushbu xizmat tuman va shahar Bandlikka ko'maklashish markazlari tarkibiy tuzilmasi

hisoblanadi va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy xodimlardan tashkil topadi.

*Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:*

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari bilan birgalikda uyida o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz fuqarolarni aniqlash va hisobini yuritish;

- yolg'iz fuqarolarga homiylik yordamlarini ko'rsatish maqsadida ularning ilgari ishlagan mehnat jamoalari, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan aloqalarini olib borish;

- yolg'iz fuqarolarni internat uylariga joylashtirish uchun ko'maklashish.

Tuman yoki shahar bo'yicha Uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatida qayd etilgan yolg'iz fuqarolarga ushbu bo'limmaning ijtimoiy xodimlari tomonidan bevosita quyidagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi:

- zarur oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari va dori-darmonlarni uyga yetkazib berish;

- uy-joy ashyolari va kiyim-kechaklarni yuvish, kimyoviy tozalashga topshirish, ta'mirlash va ularni yetkazib berish;

- zarur tibbiy yordam ko'rsatish ishlarida, uy-joyni tozalashda, xonadon ichidagi santexnika jihozlarini ta'mirlashda ko'maklashish;

- qarindosh va do'stlar bilan yozishmalar olib borish bilan bog'liq iltimoslar va boshqa turdagi bir martalik topshiriqlarni bajarish.

Tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish markazlari o'zlarida ro'yxatda turuvchi yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish ishlari bo'yicha har haftalik monitoring olib boradi va ijtimoiy xodimlarning xizmat ko'rsatish faoliyatiga baho beradi. Shuningdek, Markazlar yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha har chorak yakunida tegishliligiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va

aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalariga, ular esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga ma'lumot taqdim etib boradi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz fuqarolarga uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish haqidagi Nizom[223] bilan Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati tomonidan xizmat ko'rsatiladigan yolg'iz fuqarolar toifalari belgilangan bo'lib, unga ko'ra yolg'iz fuqarolarning quyidagi toifalari uyda xizmat ko'rsatish uchun qabul qilinadi:

- sog'lig'iga ko'ra o'zgalar parvarishiga muhtoj, farzandlari (jumladan farzandlikka olingan bolalar) va yaqin qarindoshlari bilan birga yashamaydigan pensiya yoshidagi (erkaklar 60 yosh va undan yuqori, ayollar 55 yosh va undan yuqori) shaxslar, I va II guruh nogironlari, keksa yoki I va II guruh nogironi bo'lgan er-xotinlar;

- o'zgalar parvarishiga muhtoj, voyaga yetmagan yoxud I va II guruh nogiron farzandlari bilan birga yashaydigan pensiya yoshidagi shaxslar, I va II guruh nogironlari, keksa yoki I va II guruh nogironi bo'lgan er-xotinlar;

- o'zgalar parvarishiga muhtoj, farzandlari jazo muddatini o'tayotgan yoki uzoq muddatli davolanishda bo'lgan (ruhiy, sil va boshqa kasalliklar) davri mobaynida pensiya yoshidagi shaxslar, I va II guruh nogironlari, keksa yoki I va II guruh nogironi bo'lgan er-xotinlar;

- farzandlari (jumladan farzandlikka olingan bolalar) va yaqin qarindoshlari hamda homiylari yoki vasiylari bo'lmagan va qonunchilikka asosan bepul eng zarur mahsulotlarni olish imtiyozidan foydalanayotgan o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlar.

---

[223] O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 1-iyuldagi 38-B-son buyrug'iga ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 28-son, 294-modda; 2015-y., 11-son, 129-modda

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar, halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, front ortida xizmat qilgan shaxslar uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatishga birinchi navbatda qabul qilinadi.

Yuqumli hamda ruhiy kasalliklarga chalingan shaxslar uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish uchun qabul qilinmaydi.

Yolg'iz fuqarolarning shaxsiy ro'yxatlari tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirokida aniqlanib ro'yxatga olinadi va tuman (shahar) hokimlari tomonidan tasdiqlanadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati ijtimoiy xodimlari lavozimi ushbu bo'linmaning shtat jadvalida:

- qishloq joylarida - 6-8 nafar yolg'iz fuqaroga 1 ta lavozim;

- shahar joylarida - 8-10 nafar yolg'iz fuqaroga 1 ta lavozim hisobida belgilanadi.

Ijtimoiy xodimlarning shtatdagi soni ushbu me'yorlarga muvofiq tuman(shahar)da ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati tomonidan ro'yxatga olingan va xizmat ko'rsatiladigan yolg'iz fuqarolar sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ijtimoiy xodimlar maxsus xo'jalik sumkalari (bir yilga bitta sumka), xalat (bir yilga bitta xalat) hamda xonalarni tozalash uchun inventar bilan ta'minlanadi.

Ijtimoiy xodimlarning lavozim-maoshlari ijtimoiy ta'minot xodimlari uchun o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan mehnatga haq to'lash tarif setkasiga muvofiq belgilanadi. Ijtimoiy xodimlarga yo'l haqi uchun kompensatsiya to'lovlari qonunchilikda belgilangan miqdorlarda joriy qilinadi.

Ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmatining ta'minot xarajatlari o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ijtimoiy ta'minotga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Smeta xarajatlarida ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati faoliyatini amalga oshirish uchun ish haqi va

unga tenglashtirilgan to'lovlar, kanselyariya jihozlari va boshqa inventarlarga bo'lgan ish beruvchilarning ajratmalari hamda o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda va miqdorlarda eng zarur mollarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar ko'zda tutiladi.

## 17.4. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy va moliyaviy asosari

Mazkur o'quv adabiyotining ushbu paragrafida xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy va moliyaviy asosari bayon qilingan bo'lib, yuqorida ta'kidlaganimizdek undagi ma'lumotlar "Public budgeting systems" (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G.Joyce. Jones&Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012) nomli xorijiy adabiyotning tarjimasiga asoslanib keltirilgan.

Adolat va davlatning iqtisodiy siyosati. Rasman qaraganda Amerika Qo'shma Shtatlarida davlat iqtisodiy siyosatining qonun bilan belgilab qo'yilgan vazifalari to'liq bandlikni, narxlarning barqarorligini va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat[224].

Bandlik borasidagi siyosatning bilvosita natijalarini istisno qilganda iqtisodiy foydani taqsimlash Amerika Qo'shma Shtatlari uchun iqtisodiy siyosatning rasmiy o'rnatilgan vazifalari qatoriga kirmaydi. Lekin ko'pgina boshqa mamlakatlarda aynan iqtisodiy o'sish va adolatni ta'minlash davlatning to'g'ridan to'g'ri vazifalariga kiradi[225]. Boylikni taqsimlashni yaxshilashga qaratilgan aniq va maqsadli harakatlar qilish davlat rasmiy siyosati masalasi hisoblanadi.

---

[224] Lee, Robert D. Public budgeting systems (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce.. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) Chapter 3. P. 105-109.

[225] The World Bank (2005). World development report 2006: equity and development. New York, NY : Oxford.

Davlatning iqtisodiy siyosati resurslarning qayta taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi, ammo bu taqsimot siyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilishi ham, unday bo'lmasligi ham mumkin. Jahon Bankining 2006-yilgi Inson taraqqiyoti to'g'risidagi "Adolat va taraqqiyot" (Equity and Development) nomli ma'ruzasida "adolat" atamasiga "imkoniyatlarning tengligi va natijalarga egalik qilishdan mahrum bo'lmaslik" deb ta'rif berilgan[296]. Inson hayotiy maqsadlarga erishish borasida teng imkoniyatlarga ega bo'lishi va davlat va jamiyat tomonidan yaratilgan ne'matlardan foydalanishda jamiyatning u yoki bu guruhi a'zolariga ustunlik berilishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Qayta taqsimotning ko'zda tutilmagan natijalari. Shu vaqtgacha biz iqtisodiyotning umumiy samaradorligiga bog'liq edik. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi alohida tarmoqlar va alohida sbaxslar uchun ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Umumiy iqtisodiy o'sish va narxlarni barqarorlashtirish masalalarini boshqarish maqsadidagi davlatning fiskal va monetar chora-tadbirlari insonlarga va ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir etmay qolmaydi. Agar hukumat biznesga investitsiya qilishni rag'batlantirish maqsadida korporativ soliq stavkalarini pasaytirsa, lekin byudjetning balansliligiga putur yetkazmaslik uchun boshqa soliqlarni ko'paytirsa, yuqori darajadagi soliqlarni to'lovchilar bundan manfaatdor bo'lmasalar ham iqtisodiy samara uchun pul to'lagan bo'ladilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumatlari shaharlarda kambag'allik muammosini yumshatish maqsadida qishloq xo'jalik mahsulotlari baholarini nazorat qilish tadbirlarini joriy qilishga harakat qiladilar. Bu choralar qisqa muddat ichida shahardagi qishloq xo'jalik mahsulotlari chakana narxlarini pasaytirsa-da, uzoq istiqbolda qishloq

[296] World Bank (2005). World development report 2006 (p.vii). New York, NY: Oxford.

xo'jalik ishlab chiqarishiga putur yetkazadi. Qisqa davr mobaynida bir guruh – shaharlardagi iste'molchilar foyda ko'rsa, jamiyatning boshqa bir guruhi – qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari iqtisodiy zarar ko'radilar. Pirovardida umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar pasayadi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat ham qayta taqsimotning ko'zda tutilmagan natijalariga olib kelishi mumkin. Inflyatsiya sharoitida qat'iy belgilab qo'yilgan yoki nisbatan qat'iy daromadga ega bo'lgan fuqarolarning sotib olish qobiliyati pasayadi. Bunday toifadagi shaxslarga ayniqsa, pensiya to'lovlari hisobidan hayot kechiradigan pensionerlar, shuningdek, o'z ish haqlarini oshirishga ta'sir ko'rsata olmaydigan ishchi-xizmatchilar kiradi. Agar davlat inflyatsiyaning sur'atlarini pasaytirishga qaratilgan hech qanday chora ko'rmasa, uning bunday loqaydligi daromadlarning qat'iy ish haqi oluvchilardan daromadlari inflyatsiya bilan birga o'sib boradigan shaxslar hisobiga "qayta taqsimlanishiga" olib keladi.

Yuqori foiz stavkalari odatda, daromadlilik darajasi yuqori bo'lgan oilalarga ular tomonidan qilingan investitsiyalar bo'yicha daromadlarning oshishiga olib keladi. Federal byudjetning yuqori darajadagi defitsitini qoplash uchun olingan qarz kelgusi avlod zimmasiga yuk bo'lib tushadi va oxir-oqibatda avlodlarning o'rtasidagi tengsizlikka olib keladi.

Tengsizlik muammosini hal qilish. Adolatni "teng imkoniyatlar" ma'nosidagi mazmunini tushuntirib berish oson, lekin uni biron mezon asosida bevosita o'lchash qiyin masala. Absolyut miqdorlardagi adolatsizlikni o'lchash birmuncha osonroq, shu sababli ko'pincha daromadlarning taqsimlanishidagi adolatsizlik masalasi adolat va adolatsizlik to'g'risidagi munozaralarning diqqat markazida bo'ladi.

1960-yillardan beri Amerika Qo'shma Shtatlarida daromadlarning taqsimlanishidagi tengsizlik darajasi ahamiyatli darajada o'sdi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (Organization for Economic Cooperation and Development – OECD) tahlillariga ko'ra 1980-yillarning o'rtalaridan 2000-yillarning so'nggigacha Qo'shma Shtatlarda tengsizlik ko'rsatkichi yillga bir yarim foizga ko'tarildi. Ammo G'arbning sanoati rivojlangan ko'pchilik mamlakatlarida ham bu ko'rsatkich taxminan shunday bo'lgan[227]. 1980 yillardagi daromadlarning qayta taqsimlanishidagi tengsizlikning keskin oshib ketishiga korporativ va shaxsiy federal soliqlarning asosan boy fuqarolar foydasiga kamaytirilishi va kam ta'minlangan shaxslarga qaratilgan ijtimoiy yordam dasturlarining qisqartirilishi sabab bo'ldi[228]. So'nggi o'n yilliklar mobaynida fond bozorlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi, keyingi davrlarda esa keskin pasayish holatlari kuzatilgan bo'lsa-da, abolining yuqori va quyi qatlamlari o'rtasidagi farqni ahamiyatli darajada kattalashtirib yubordi. Shunga qaramasdan, ipoteka krediti bo'yicha haddan tashqari sbishirib yuborilgan "ko'pik"ning 2007-yilda "yorilishi" o'rtacha daromadli soliq to'lovchilarga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, uy-joylarning narxi keskin tushib ketdi, o'rtacha daromadli oilalar uchun esa ularning uy-joylari asosiy kapital aktiv bo'lib hisoblanar edi. Ikkinchidan, xuddi shu guruh o'rtacha daromadli soliq to'lovchilarning farovonligi ularning pensiya jamg'armalariga bog'liq bo'lib, bu jamg'armalarni ular, ko'p hollarda pensiyaga chiqqach, moliya bozorlarida investitsiya qiladilar. Bu bilan o'rtacha daromadli oilalar,

---

[227] Society at a glance 2011: OECD social indicators. (2011). Paris: OECD. Retrieved November 20, 2011, from http://www.oecd.org/document/24/0,3746,en_2649_34637_2671576_1_1_1_1,00.html#data.

[228] Nigle, C. (1989). Monetary policy and changes in income distribution. Journal of Economic Issues, 23, 809-822.

albatta uy-joy narxlarining pasayishiga ta'sir ko'rsatadilar va moliya bozori kasodga uchraydi. Lekin ular odatda, ancha diversifikatsiyalangan daromad manbalariga ega bo'ladilar.

Ayrim iqtisodchilar hukumatlar qayta taqsimotning faqat o'rta va yuqori daromadli qatlamlar uchungina salbiy ta'sirini yumshatishlari zarur, deb hisoblaydilar.[229] Ularning fikricha, davlat bandlikni ta'minlashga va shu yo'l bilan ishsizlik darajasini kamaytirish uchun davlat subsidiyalarini ajratishga qaratilgan siyosatni olib borishi lozim.[230] Demokratlar esa avvalgi soliqlarni kamaytirish chorasi aholining boy qatlamlariga proporsional tarzda qulaylik tug'dirmaganligini e'tirof etadilar. Respublika partiyasidan nomzodlar va prezident Obamaning soliqlarni ko'paytirmasdan turib xarajatlarni kamaytirish to'g'risidagi qarashlari har kim jamiyatga o'zining adolatli ulushini qo'shishi kerakligi to'g'risidagi da'volarga zid keldi[231].

Yuqorida so'z borgan OECDning tabliliga ko'ra tengsizlikni o'lchash me'yorlar bilan solishtirish, tenglikni ta'minlashda bu me'yorlardan og'ish darajasini aniqlashdan iboratdir. Uning mohiyati tengsizlikning darajasini aniqlab olish, so'ngra davlatning tengsizlikni bartaraf etishga yo'naltirilgan maqsadga muvofiq siyosatini ishlab chiqishdan iborat.

Daromadlarni barqarorlashtirish siyosati. Daromadlarni barqarorlashtirish siyosati iqtisodiy tengsizlik muammosini, salbiy daromad solig'iga har tomonlama o'ylab yondashgan holda bartaraf qilish yo'llaridan biri hisoblanadi.

Bu daromadni kafolatlash stavkalarni pasaytirish va zarar ko'rmaydigan daromad darajasini belgilashni nazarda tutadi. Kafolatlangan daromadda oilaga keladigan transfer summasi

---

[229] Classlessness in America: the uses and abuses of an enduring myth. (2011). The Economist, 401, September 24,44.
[230] Up the NAIRU without a paddle. (1997). The Economist, 344, March 8, 92
[231] Hunting the rich. (2011). The Economist, 401, September 24, 13.

nolga teng bo'ladi, stavkalarni pasaytirish – oilaning daromadlari oshib borishi bilan stavkaning pasayib borishi, zarar ko'rmaydigan daromadlilik darajasi esa oila daromadining boshqa hech qanday transfer olish huquqi bo'lmagan nuqtasidir. AQShda manfiy daromad solig'i mavjud emas, lekin uning tamoyillari u yoki bu darajada daromadlar transferi bilan bog'liq bo'lgan bir nechta dasturlarga kiritilgan.

Transfer dasturlari. Bir qancha transfer dasturlari (oziq-ovqat talonlari; ayollar, chaqaloqlar va bolalar uchun qo'shimcha ozuqa dasturlari; Medicaid dasturi) kafolatlangan daromadga tenglashtirilgan eng kam nafaqa miqdorini ta'minlaydi.

Ammo ijtimoiy ta'minot tizimidagi asosiy islohotlar doirasida insonlarning yashash davomiyligi ortib borishi bilan ularga beriladigan imtiyozlarga jiddiy cheklovlar o'rnatildi va mehnat sharoitlariga qat'iy talablar qo'yildi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*1. Ijtimoiy ta'minotning zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?*

*2. Ijtimoiy ta'minot qanday shakllarda amalga oshiriladi?*

*3. Ijtimoiy ta'minotning moliyaviy manbalari nimalardan iborat?*

*4. Ijtimoiy ta'minot xizmatlarining davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanishini asoslab bering.*

*5. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi orqali ijtimoiy ta'minot xizmatlarining moliyalashtirilishi qanday amalga oshiriladi?*

*6. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining ijtimoiy sug'urta byudjeti mablag'larining shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot bering.*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*1. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qanday holatlarda ijtimoiy ta'minlanish huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanganini va ijtimoiy ta'minot shakllarini tavsiflang.*

*2. Ijtimoiy ta'minot to'lovlarini moliyalashtirishda O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasining ahamiyati nimadan iboratligi to'g'risida qisqacha xulosa yozing.*

*3. Davlat byudjeti ijtmoiy ta'minot tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish tartibini takomillashtirish borasida qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligi to'g'risida taqdimot tayyorlang.*

*4. "Public budgeting systems" (Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012.) o'quv qo'llanmasi asosida xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumot tayyorlang.*

# 18-BOB. DAVLAT BYUDJETINING AHOLINI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLASH XARAJATLARI

## 18.1. Aholini ijtimoiy himoya qilishning davlat tomonidan kafolatlanganligi

O'zbekistonda "Islohot – islohot uchun emas, inson manfaatlari uchun" tamoyili e'lon qilingan va sobitqadamlik bilan amaliyotga joriy etilmoqda. Shu maqsadda fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatning himoyaga muhtoj qatlamlari, ko'p bolali oilalar, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, imkoniyati cheklangan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha izchil va manzilli davlat siyosatini amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Fuqarolarni ijtimoiy muhofaza qilishning yangi tizimini shakllantirish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy xizmat ko'rsatish va ularni reabilitatsiya qilish darajasini oshirishga, jamiyatning ehtiyojmand qatlamlarini davlat tomonidan maqsadli qo'llab quvvatlash, ularga ixtisoslashtirilgan, yuqori texnologiyali tibbiy yordam ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilashga yo'naltirilgan kompleks ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat muassasalari bilan birgalikda "Mahalla", "Nuroniy", "Sog'lom avlod uchun" jamg'armalari, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va boshqa ko'plab nodavlat notijorat tashkilotlari hamda hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondlari ijtimoiy sheriklik mexanizmlari asosida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ular jamiyat va davlatning barqaror, izchil rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish hamda hayot sifatini yaxshilash, oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholining himoyaga muhtoj qatlamlarining sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish

imkoniyatlarini kengaytirish, fuqarolar, jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga ko'maklashmoqda.

Bu borada oldimizga qo'yayotgan maqsad – olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat[232]. Ushbu maqsadga erishish uchun O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ijtimoiy soham rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish ko'zda tutilgan. Ushbu yo'nalish "fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash; aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy

2000-yilning sentabr oyida Nyu-Yorkda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining qarorgohida insoniyat tarixida dunyo yetakchilarining eng yirik uchrashuvi - mingyillik Sammiti bo'lib o'tdi. O'sha muhim burilish yasagan yili Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan 189 ta davlatlar vakillari butun sayyoramiz miqyosida eng dolzarb rivojlanish masalalarini muhokama qilish uchun uchrashdilar. Mamlakatlar yanada jadal rivojlanish, aholining yanada yuqori turmush darajasi va yangi imkoniyatlarni va'da qiluvchi rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlari tufayli bir-biri bilan har qachongidan samarali aloqalarni yo'lga qo'ygan edilar.

Biroq turli mamlakatlarda odamlar hayotining sifati tenglashtirib bo'lmaydigan darajada edi. Ayrim mamlakatlar o'z taraqqiyoti va global hamkorligini rejalashtirib, shu yo'lda dadil odimlayotgan bir payida qashshoqlik botqog'iga botgan, tugatib bo'lmas qambag'allik, mojarolar va atrof-muhit yomonlashayotgan sharoitlarida hayot kechirayotgan ko'pgina boshqa mamlakatlarning kelajagi dargumon edi.

Ushbu muammolarni birgalikda hal qilishga kirishish uchun 2000-yilda mamlakatlar yetakchilari Mingyillik Deklaratsiyasini qabul qildilar. Ushbu hujjatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, atrof-muhitni yaxshilash va inson huquqlarini himoya qilish uchun birgalikdagi ustuvorliklar bayon etilgan. Bu sa'y-harakatlar butun insoniyat kelajagini ta'minlash hamda uning omon qolishi uchun zarur bo'lgan muhim qadamlar bo'ldi. Davlatlar yetakchilari inson rivojlanishi barcha mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga va butun jahon xavfsizligiga erishishning eng asosiy omili, degan fikrga yakdillik bilan qo'shildilar. 2000-yil sentabrda BMT Sammitida qabul qilingan Mingyillik Deklaratsiyasi "*Mingyillik rivojlanish Maqsadlari*" nomini olgan.

[232] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga sharh.

yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish"[233] chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati mamlakatimizda kam ta'minlangan toifadagi aholi sonini kamaytirish va jamiyatimiz hayotida insonparvarlik tamoyillarining yanada rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida Mingyillik rivojlanish maqsadlari borasida ma'lum bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan.

Mustaqillik yillarida aholi turmush farovonligini oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib borildi:




18.1-rasm. **Mustaqillik yillarida aholi turmush farovonligini oshirishning asosiy yo'nalishlari**[234]

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash va aholi farovonligi barqarorligini ta'minlash, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ekologik sharoiti noqulay bo'lgan mintaqalarni qo'llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishga asosiy e'tibor qaratildi.

---

[233] 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. 4.2 band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF 4947 sonli farmoniga 1 ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6 son, 70 modda

[234] Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlash: yutuqlar, tendensiya va istiqbollar. Ilmiy-ommabop risola. TMI. T.: 2016. 47-b.

O'zbekistonda keyingi yillarda jamiyatimiz hayotidagi yangilanish jarayonlari va islohotlarni chuqurlashtirishning mantiqiy davomi bo'lib iqtisodiyotning salohiyati, barqarorligi va mutanosibligini mustahkamlash asosida ijtimoiy himoyani kuchaytirishga va fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ishlarimizda yangi va yuksak bosqich bo'ldi. Bu davrda aholining ijtimoiy himoyasi tizimini mustahkamlash, uning manzilliligini oshirish, ijtimoiy himoyaning faol shakllarini yo'lga qo'yish alohida dolzarblik kasb etdi.

Bu davrda respublikamizda aynan aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ijtimoiy siyosat quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi (18.2-rasm):




18.2-rasm. **Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ijtimoiy siyosat yo'nalishlari**[235]

O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning huquqiy asosini barpo etish va bu boradagi qonunlarning ijro etilishini ta'minlash bugungi kundagi muhim vazifalardan biri

[235] Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Inson taraqqiyoti. Darslik. –T.: "Fan va texnologiyalar", 2013. – 48-b.

hisoblanadi. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlanadi. Konstitutsiyaning 45-moddasiga muvofiq voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsiz va yolg'iz qariyalarning huquqlari davlat himoyasidadir[236]. Shuningdek, Konstitutsiyaning ko'plab boshqa moddalaridagi normalar ham aholining ijtimoiy himoyasiga oid mazmun bilan sug'orilgan.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki murakkab, iqtisodiy tanglik yillarida odamlarning turmush darajasini barqarorlashtirish maqsadida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sohalarni saqlash, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash jarayonlarini davlat yo'li bilan boshqarishning ko'pdan-ko'p usullari va vositalaridan foydalanildi. Jumladan, bosqichma-bosqich ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar miqdori oshirildi, kompensatsiya tarzidagi bevosita pul to'lovlari, imtiyozlar, ayrim toifadagi tovar ishlab chiqaruvchilarga turli dotatsiyalar joriy qilindi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjet orqali qoplash, aholining turli muhtoj qatlamlariga nafaqalar tayinlash, ularning manzilli bo'lishini ta'minlash, davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar paketini ishlab chiqish va uni to'liq mablag' bilan ta'minlash kabi usullari keng qo'llanildi. Bu tadbirlarning barchasi tegishli qonuniy-huquqiy asosga tayangan holda amalga oshirildi.

Agar 2000-yilgacha bo'lgan davrda aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining asosiy maqsadi aholining barcha qatlamlarini kafolatlangan ijtimoiy himoya bilan ta'minlash bo'lgan bo'lsa, keyinchalik asosiy e'tibor aholining faqat zaif qatlamlariga qaratiladigan bo'ldi. Shunday toifadagi aholining turmush darajasini oshirish uchun davlat tomonidan yangi ish o'rinlari tashkil etish, bandlik darajasi va aholi daromadlarini, jumladan, kichik biznes sohasida xususiy tadbirkorlikni

---

[236] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

rivojlantirish hisobiga oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqila boshlandi.

Aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 12-dekabrdagi "Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 350-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga aniq tarzda ijtimoiy yordam berishni kuchaytirish maqsadida qabul qilingan bo'lib, unga muvofiq 2013-yil 1-yanvardan boshlab voyaga yetmagan (14 yoshgacha) bolalari bo'lgan oilalarga har oylik nafaqalar bolalar soniga bog'liq ravishda yil boshida belgilangan eng kam oylik ish haqining 50, 80 va 100 foizi miqdorida, 2 yoshgacha bolalari bo'lgan onalarga to'lanadigan nafaqalar eng kam ish haqining 2 barobari miqdorida, kam ta'minlangan oilalar uchun nafaqa eng kam ish haqining 1,5-3 barobari miqdorida tayinlana boshladi.

Aholi turmush farovonligini oshirish masalalariga keyingi yillarda ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qator hukumat qarorlari va ularni amalga oshirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Bugungi kunda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning alohida ustuvor yo'nalishlari ham inson hayoti va uning manfaatlarini himoyalash bilan bog'liq yo'nalish va tarmoqlarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy soha rivojini ta'minlash, uni yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi muammolarni yechish, bu sohalar rivojining qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilganligi bilan ayniqsa ahamiyatlidir. Bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, oddiy odamlarning mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalaridan qoniqishlariga erishish, aholining ta'sirchan ijtimoiy muhofazasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar

strategiyasida qator chora tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lib, ularni quyidagi yo'nalishlarda olib borish belgilangan, jumladan:

– aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sheriklignni rivojlantirish;

– pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish[237].

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi "Aholining kam ta'minlangan qatlamini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3268-sonli qarori[238] ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu qaror bilan bir qator idora va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan aholining kam ta'minlangan qatlamini 2017–2018-yillarda ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hududiy manzilli dasturlari ma'qullandi.

Ushbu hududiy manzilli dasturlar quyidagilarni nazarda tutadi:

a) mehnat bilan bandlikning ma'lum bir turlari bilan shug'ullanish istagida bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga ularning oilasini o'ziga yetarliligini ta'minlovchi mikro-kreditlar tijorat banklarining imtiyozli kreditlash maxsus fondi mablag'lari hisobidan quyidagi maqsadlarga ajratiladi:

– tikuv mashinalari, matolar va boshqa sarf materiallari, kosibchilik faoliyati uchun inventarlar, maishiy, kompyuter

---

[237] 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70 modda.

[238] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 37-son, 988-modda.

va boshqa texnikalar, shuningdek, mehnat bilan bandliknı ta'minlovchi boshqa ashob-uskunalar xarid qilish uchun;

– shaxsiy tomorqa uchastkalarini rivojlantirish (mınıssıqxonalar barpo etish, chorva moliarı, parranda sotib olish, og'ilxona va tovuqxona qurish, bog'dorchilik inventarları va asbobları xarıd qilish) va uy-joy ta'mırı uchun;

b) og'ir uy-joy va maishiy sharoitlarda yashovchi, boquvchısını yo'qotgan, nogironlarnı parvarıshlayotgan oilalarga quyidagı maqsadlarda beg'araz yordam ko'rsatiladi:

– 2017 va 2018 yillarda respublikada uy-joyı bo'lmagan yokı avarıya holatidagı va puturdan ketgan uy-joylarda yashovchi har bir tumandan 2 ta, har bir shahardan esa 5 oilaga 10 yil mobaynıda ıxtiyorıga olish huquqisız arzon uy-joylar xarıd qilishda;

– 2017- va 2018-yillarda respublikadagı tumanlarnmg har birıdan 10 ta, shaharlardan esa 25 ta kam ta'mınlangan oilaga turarjoy ta'mırı (tomni ta'mirlash, yangı pol o'rnatish, derazalarnı almashtırısh va sh.k.) o'tkazıshda;

– respublikaning har hır tumanı va shaharıdan 70 tadan oilaga har yili maishiy texnika (gaz va elektr pechlar, muzlatkıchlar, tikuv mashinaları va sh.k.) yokı bir hosh qoramol xarid qilishda;

– respublikanıng har bir tumani va shaharida og'ir kasali mavjud, davolatish uchun to'lov qilishda mahlag'i yo'qligı anıqlangan o'rtacha 6 tagacha kam ta'minlangan oilaga tibbıy xızmatlarını to'lashda.

PQ-3268-sonli qarorıga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatları vazırligı qoshida Jamoatchilik ıshları fondi tuzildi.

O'zbekiston Respublikası bandlik va mehnat munosabatları vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikası Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahrı hokimlikları bilan hirgalikda mamlakatning harcha hududlarıdagi, aynıqsa qıshloq joylar va chekka hududlardagı mehnat bilan band

bo'lmagan fuqarolarini aholi punktlarini, mahallalarni obodonlashtirish bo'yicha jamoat ishlariga – ariqlarni va irrigatsiya tarmoqlarini tozalashga, turarjoy-kommunal xo'jalik obyektlarini ta'mirlashga, infartuzilmani yaxshilashga, yo'llar va ko'chalar, turarjoy fondi va unga yondosh hududlardagi obyektlarni ta'mirlashga, shuningdek, qishloq xo'jaligi ishlariga keng jalb qilish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Aholining band bo'lmagan qatlamini mehnatga jalb qilish 2017-yilning 1-oktabridan Qorqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bittadan tumanida tajriba tariqasida, 2018-yilning 1-yanvaridan bosqichma-bosqich respublikaning barcha tumanlarida amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

O'rnatilgan tartibga ko'ra:

– jamoat ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslar ularning Jamoatchilik ishlari fondi mablag'laridan olgan daromadi jismoniy shaxslarning daromadidan to'lanadigan soliqdan ozod qilinadi;

– jamoat ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning Jamoatchilik ishlari fondi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan mehnat haqi yagona ijtimoiy to'lovga tortilmaydi.

Qarorga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari va Moliya vazirligiga 2017–2018-yillarda 14 yoshgacha farzandlari bo'lgan oilalarga yordam puli va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam berish ko'rinishida kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun byudjet mablag'larini ko'paytirish, yordam pullari oluvchi kontingentni mos ravishda 1,5 va 2 barobar kengaytirishni ta'minlash belgilandi. Bu maqsadda Moliya vazirligiga 14 yoshgacha farzand tarbiyalayotgan oilalarga yordam puli va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lashni moliyalashtirish uchun qo'shimcha byudjet mablag'lari ajratish vazifasi topshirildi.

2018-yilning 22-yanvar kuni mamlakatimizning kelgusi istiqbolini belgilashga xizmat qiluvchi yana bir muhim huquqiy hujjat qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5308-sonli farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Davlat dasturining "4.1. Aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish" nomli bo'limida ushbu maqsadlar uchun quyidagi chora-tadbirlar belgilangan[239]:

– ilg'or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromadlarni aniqlash bo'yicha "iste'mol savatchasi"ga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish;

– davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul taqdim etiladigan protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalari turlarini ko'paytirish hamda ularning tegishli standartlarini joriy qilish;

– "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish;

– og'ir maishiy sharoitlarda yashayotgan, boquvchisini yo'qotgan, nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish.

2018-yilda mazkur Davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirish maqsadlariga barcha manbalardan 11 239,2 mlrd. so'm va 1284,9 mln. AQSH dollari hajmidagi moliyaviy resurslarni saharbar etish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, uning ehtiyojmand qatlamlari ijtimoiy

---

[239] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-son farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y., 06/18/5308/0610-son.

himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda davlat hal qiluvchi o'rin egallaydi. Boshqa tuzilmalar va fuqarolik institutlari mazkur yo'nalishlardagi davlat tomonidan belgilangan maqsadlarga erishishda davlatga ko'maklashadilar. Davlat aholini ijtimoiy himoya qilishning boshqa institutlari bilan munosabatlarini ijtimoiy sheriklchilik asosida yo'lga qo'yadi.

## 18.2. Davlatning ijtimoiy himoya dasturlarini moliyaviy ta'minlash manbalari. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda davlat byudjetining o'rni va ahamiyati

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatning umumiy moliyaviy iqtisodiy holatiga muvofiq takomillashib boradi.




18.3-rasm. **Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari**[240]

[240] Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. –T.: "Iqtisodiyot", 2013. 125-b.

Ijtimoiy muhofazaga yo'naltirilayotgan mablag'larning miqdori mamlakatda amalga oshirilayotgan davlat dasturlariga va ijtimoiy siyosatning samaradorligiga bog'liq.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini moliyalashtirishning ko'pkanalli tizimi shakllangan (18.3-rasm):

*Davlat byudjeti mablag'lari.* Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

– 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga har oylik nafaqalar;

– 2 yoshgacha bolalari bo'lgan onalarga to'lanadigan nafaqalar;

– kam ta'minlangan oilalarga beriladigan har oylik yordam puli.

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ushbu to'lovlarning huquqiy asosini voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga aniq tarzda ijtimoiy yordam berishni kuchaytirish, respublika aholisining real daromadlari va farovonligi barqaror o'sishi sharoitlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish chora tadbirlarini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 12 dekabrdagi "Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 350-sonli qarori tashkil qiladi.

Bolali oilalarga nafaqalar, bola parvarishi bo'yicha nafaqalar va moddiy yordam to'lovlarini mablag' bilan ta'minlashning manbalarini quyidagilar tashkil qiladi:

– mahalliy byudjetlar mablag'lari;

– byudjetdan tashqari manbalar (jamoat va xayriya jamg'armalari, korxonalarning mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy xayr-ehsonlari va boshqalar).

Mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobidan tegishli nafaqalar va moddiy yordamni to'lash Xalq bankining bo'linmalarida (filiallarida) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining maxsus bank hisobraqamlariga o'tkaziladigan Davlat byudjeti xarajatlarining tegishli iqtisodiy tasnifi bo'yicha aks ettirilgan holda amalga oshiriladi.

Aholining barcha qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 20-avgustdagi 409-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Birinchi sinf o'quvchilarini o'quv qurollari to'plami bilan tekin ta'minlash tartibi"ga ko'ra respublikamizning barcha umumta'lim maktablariga 1-sinfga chiqqan o'quvchilari o'quv qurollari to'plami bilan bepul ta'minlanadilar. Bu o'quv qurollari to'plamiga quyidagilar kiradi: portfel, 12 ta daftar, oddiy va rangli qalamlar, plastilin, qalamdon, ruchkalar, o'chirg'ichlar, yelim, rangli qog'ozlar to'plami, rasm chiziladigan albom, bo'yoqlar.

Bundan tashqari 409-sonli qaror bilan tasdiqlangan "Kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini qishki kiyim-bosh to'plami bilan ta'minlash tartibi" asosida kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinf o'quvchilari (qarorga kiritilgan o'zgarishlarga ko'ra IV-XIX sinf o'quvchilari ham) qishki kiyim-bosh to'plami bilan ta'minlanadilar. Buning uchun maktablarning rahbarlari ota-onalar qo'mitasi bilan birgalikda kam ta'minlangan oilalarning I-IX sinflar o'quvchilarini aniqlaydi. Ushbu ma'lumotlarni kiyim-bosh o'lchami va bolaning jinsini ko'rsatgan holda xalq ta'limi tuman (shahar) bo'limlariga taqdim etadi. Qishki kiyim-bosh to'plamiga palto yoki kurtka; erik; telpak; qo'lqop kiradi. Ushbu maqsadlardagi xarajatlar ham tegishli mahalliy byudjetlardan mablag' bilan ta'minlanadi.

*Davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi maqsadli jamg'armalari mablag'lari.* Katta yoshdagi aholi, nogironlar va boquvchisini yo'qotganlarni ijtimoiy muhofazalash tizimida pensiya ta'minoti eng asosiy bo'g'in hisoblanadi. U bir necha vazifalarni bajaradi, ularning eng muhimi mehnat qobiliyatim yo'qotganlik munosabati bilan yo'qotilayotgan daromadni kompensatsiya qilishdir. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi maqsadli jamg'armasi sifatida fuqarolar pensiya ta'minotining asosiy manbayi bo'lib xizmat qiladi.

*Ijtimoiy sug'urta mablag'lari.* Ijtimoiy sug'urta fuqarolarning qarilik, kasallik, onalik, mehnat qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qotilishi, boquvchisini yo'qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta'minot olishning moliyaviy asosini

yaratish bilan bogliq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta munosabatlari orqali jamiyat miqyosida turli ijtimoiy iste'mol fondlari shakllanadi va belgilangan tartibda ishlatiladi. Ijtimoiy sug'urta ajratmalari hisobidan shakllanadigan pul jamg'armalari fuqarolarning ijtimoiy jihatdan himoyalanish shakllari va usullarining moliyaviy asosini yaratishga xizmat qiladi. Bizning mamlakatimizda ijtimoiy sug'urta ajratmalari sifatida yuridik shaxslardan undiriladigan yagona ijtimoiy soliq (yoki byudjet tashkilotlari tomonidan ular xarajatlarining II-guruhi bo'yicha rejalashtiriladigan va ajratiladigan ish beruvchilarning ijtimoiy sug'urta ajratmalari) o'rnatilgan nisbatlarda taqsimlanib, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi va Kasaba uyushmalari Federatsiyasining ijtimoiy sug'urta byudjetini shakllantirishga yo'naltiriladi. Ijtimoiy sug'urta aholini turli xavf-xatarlardan ijtimoiy himoyalash hisoblanadi, ya'ni ishdan ketish, mehnatga layoqatlilikni, daromadni yo'qotish kabi xavf xatarlar yig'indisi hisoblanadi.

*Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari.* Korxona va tashkilotlar ham o'z xodimlarini hamda turli davrlarda shu korxonada uzoq yillar ishlab ketgan ishchi-xodimlarini o'z mablag'lari hisobidan ijtimoiy jihatdan muhofaza qiladilar. Ularning bu maqsadlarga yo'naltirgan mablag'lari soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 159-moddasiga muvofiq "Yuridik shaxslarning soliq solmadigan foydasi ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga (biroq soliq solinadigan foydaning bir foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda) kamaytiriladi"[241], deb belgilab qo'yilgan.

[241] O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 159 modda.

*Xayriya va homiylik tashkilotlarining mablag'lari.* Aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadlariga xayriya va homiylik tashkilotlarining mablag'lari ham jalb qilinadi. Jumladan, 2017-yil 14-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3135-sonli qarori[242] bilan "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Fondning asosiy mablag'lari jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, xorijiy fuqarolar va tashkilotlarning xayriya yordami hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan shakllantiriladi.

Aholining himoyaga muhtoj qatlamlari salomatligini muhofaza qilish, ularga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirishni ta'minlash, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoki xavfli guruhga kiradigan bolalar, "Mehribonlik", "Muruvvat", "Saxovat" uylari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga yordam berishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash Fondning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Fond O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari, xorijiy fuqarolar va tashkilotlar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, xalqaro tashkilotlarning xayriya mablag'larini jalb etish va jamlash bo'yicha ishlarni amalga oshiradi hamda ulardan Fond xayriya dasturlarini amalga oshirish uchun maqsadli foydalanadi.

Fond soliqlarning barcha turlari va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan (Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar bundan mustasno) va Fond tomonidan chetdan keltiriladigan tovarlar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'imlari bundan mustasno) ozod qilindi.

---

[242] http://press-service.uz/uz/lists/view/794

Respublikadagi qator vazirlik va idora hamda tashkilotlarga Fond xayriya dasturlari amalga oshirilishini ta'minlashda Fond bilan faol hamkorlik qilish tavsiya etildi.

Aholini ijtimoiy homoya qilish to'g'risida so'z borganda shuni ta'kidlash o'rinliki, O'zbekistonda o'ziga xos tajriba, ya'ni har yili jamiyat diqqat-e'tiborini maxsus tanlab olingan yirik ijtimoiy muammoni hal etishga qaratish yo'lga qo'yildi. 1997-yildan boshlab keyingi har bir yil mamlakatda muayyan bir maqsadga bag'ishlangan bo'lib, uni hayotga tatbiq etish uchun tegishli maqsadli dasturlar qabul qilinmoqda.

2007-yil – Ijtimoiy himoya yili
2008-yil – Yoshlar yili
2009-yil – Qishloq farovonligi va taraqqiyoti yili
2010-yil – Barkamol avlod yili
2011-yil – Kichik biznes va tadbirkorlik yili
2012-yil – Mustahkam oila yili
2013-yil – Obod turmush yili
2014-yil – Sog'lom bola yili
2015-yil – Keksalarni e'zozlash yili
2016-yil – Sog'lom ona va bola yili
2017-yil – Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili
2018-yil – Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili

2018-yil Prezidentimiz tashabbuslari bilan "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlandi. Odatda, yil nomlari bilan ataluvchi Davlat dasturlari ishlab chiqiladi, ularning amalga oshirilishi muayyan mablag'larning safarbar etilishini talab etadi. Xususan, "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturini amalga oshirish uchun 11 239,2 mlrd. so'm va 1 284,9 mln. AQSH dollarini safarbar qilish ko'zda tutilgan bo'lib, bu mablag'larning 5 348,9 mlrd. so'mi davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari, 1 560,1 mlrd. so'mi ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablag'laridir[243]. Bunda davlat byudjeti

[243] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22 yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son.

mablag'lari tarkibiga markazlashgan investitsiyalar, vazirlik, idora va tashkilotlarning xarajatlar smetasida nazarda tutilgan byudjet mablag'lari kiradi.

Xulosa qilib aytganda, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda yashash joyidan qat'iy nazar barcha aholi qatlamlari uchun ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda teng shart-sharoitlarni yaratish; ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport muassasalari xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish, ijtimoiy sohalar xodimlari mehnatini har tomonlama rag'batlantirish; aholini ijtimoiy muhofaza qilishning manzilli bo'lishini ta'minlash; ijtimoiy himoyaning qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlash; ijtimoiy siyosat tadbirlarini amalga oshirishda turli nodavlat notijorat tashkilotlarining faolligi, ishtirokini mustahkamlash; aholiga munosib yashash va ishlash sharoitlarini yaratishni ta'minlash uchun iqtisodiyotning barqaror o'sishini rag'batlantirish zarur.

## 18.3. Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tarkibi va tuzilishi

Ma'lumki, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va qo'llab-quvvatlashning moliyaviy manbalari turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Bu manbalarning tarkibida davlat byudjeti alohida o'rin egallaydi. Chunki aholining ijtimoiy muhofazasi bilan bog'liq xizmatlarning ko'pchiligi davlat tomonidan kafolatlanadi hamda davlat tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi. Umuman olganda, mamlakat miqyosida davlat byudjeti xarajatlari davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom ma'nodagi ifodasini o'zida aks ettiradi.

Davlat byudjetining aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari ichida ijtimoiy nafaqalarni moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlar asosiy o'rinni egallaydi. Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga aniq tarzda ijtimoiy yordam berishni kuchaytirish, respublika aholisining real daromadlari va farovonligi barqaror o'sishi

sharoitlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining roli va mas'uliyatini oshirish maqsadida 2012-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 350-sonli qarori[244] qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq ijtimoiy nafaqalarni to'lashning aniq tarzdaligini oshirgan holda onalarga bola ikki yoshga to'lguncha qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa to'lashning va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamning amaldagi miqdorlari va muddatlari saqlab qolindi. Shu bilan birga voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa tayinlashda hisobga olinadigan bolalarning eng katta yoshi 14 yoshgacha pasaytirildi.

2013-yil 1-yanvardan boshlab voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga har oylik nafaqalar bolalar soniga bog'liq ravishda yil boshida belgilangan eng kam oylik ish haqining quyidagi miqdorlarida to'lanadigan bo'ldi:

– bir nafar farzandi bo'lgan oilaga – 50 foizi;

– ikki nafar farzandi bo'lgan oilaga – 80 foizi;

– uch nafar va undan ortiq farzandlari bo'lgan oilaga – 100 foizi miqdorida.

2013 yil 1-yanvardan boshlab nafaqalar va moddiy yordamning barcha turlari uchun oila muhtojligini aniqlashning yagona mezonini joriy etish hamda ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni tayinlashda jami daromadni hisoblab chiqish tartibi soddalashtirildi. Shuningdek, ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash tartibini birxillashtirish, ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risidagi masalalarni hal etish uchun fuqarolar yig'inlari tomonidan vakolat berilgan komissiyalarning hamda ajratiladigan byudjet

[244] O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 50-son, 562-modda; 2013-y., 52-son, 690-modda.

mablag'larıdan aniq tarzda va maqsadli foydalanishni ta'minlash bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga biriktilgan Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining tuman (shahar) organlari xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Ushbu choralar aholini faol ishlab chiqarishga undash maqsadida amalga oshirilmoqda, xususan, bandlikni ta'minlash va ish o'rinlari tashkil etishning hududiy dasturlarini amalga oshirish doirasida, eng avvalo, qishloq joylarning yosh oilalaridagi shaxslarni ishga joylashtirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadigan 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni tayinlash va to'lash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom" bilan tartibga solinadi.

Bolali oilalarga nafaqalar, bola parvarishi bo'yicha nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilishlari kerak[245]:

– ijtimoiy adolatga so'zsiz rioya qilish;

– keng oshkoralik va ochiqlikni ta'minlash;

– davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashsiz daromadlarini oshirishning aniq imkoniyati bo'lmagan haqiqatda ehtiyojmand oilalarga nafaqalar va moddiy yordam berish;

---

[245] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15 fevraldagi 44-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom", 5 band.

– nafaqalar va moddiy yordamni manzilli tarzda tayinlashni ta'minlash yo'li bilan ularni to'lashga ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish;

– aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlariga ayrim oilalar va fuqarolar tomonidan boqimandalik munosabatida bo'lish, o'zining iqtisodiy faolligi hisobiga emas, balki davlat yordami hisobiga yashashga intilishga yo'l qo'ymaslik;

– oila a'zolarining moddiy farovonligi, bolalarni tarbiyalash, ularni har tomonlama jismoniy, aqliy va ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun zarur shart sharoitlar yaratish, ma'lumoti va kasb darajasini oshirish borasida oilaning mas'uliyatini kuchaytirish.

Bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishi bo'yicha nafaqa va moddiy yordam har bir oila a'zosiga o'rtacha oylik jami daromad miqdori jami daromad aniqlanayotgan davr uchun belgilangan eng kam oylik ish haqining 1,5 baravardan ortiq bo'lmagan oilalarga tayinlanadi. Ushbu nafaqa va moddiy yordamni olishda quyidagi toifadagi fuqarolar va oilalar ustun darajadagi huquqlarga ega:

– ota-onasining ikkisi ham yo'qotgan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlar shug'ullanayotgan oilalar;

– ota-onalardan biri yoki har ikkisi ham nogiron bo'lgan oilalar;

– 14 yoshgacha bo'lgan ikki va undan ortiq bolalarni tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlardan alohida yashayotgan beva ayollar (beva erlar);

– nogiron bolasi (bolalari) bo'lgan oilalar;

– bolani (bolalarni) to'liq bo'lmagan oilada tarbiyalayotgan onalar (otalar). Bunda bolaning amalda to'liq bo'lmagan oilada ona (ota) tomonidan tarbiyalanishini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi belgilaydi;

– ota-onalardan biri yoki har ikkisi ishsiz bo'lgan va ish izlovchi sifatida bandlikka ko'maklashish markazlarida hisobda turgan oilalar;

– yolg'iz pensionerlar.

Bolali oilalarga nafaqa va moddiy yordam ariza beruvchining doimiy yashash (ro'yxatdan o'tish) joyi bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan oila boshlig'i yoki boshqa muomalaga layoqatli oila a'zosining yozma arizasi asosida, bola parvarishi bo'yicha nafaqa esa – bolaning onasi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning arizasi asosida tayinlanadi.

Ariza beruvchining ehtiyojmandligi darajasini aniqlash va bolali oilalarga nafaqa tayinlash (yoki rad etish) to'g'risida xulosa chiqarish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organida maxsus komissiya tashkil etiladi, uning tarkibi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi tomonidan 12 oy muddatga, kamida 5 kishidan iborat etib tasdiqlanadi. Maxsus komissiya tarkibiga o'zini o'zi boshqarish organi maslahatchilari, kotibi, ushbu organ hududiga biriktirilgan tuman (shahar) moliya bo'limi xodimi, shuningdek, zarurlyat bo'lganda tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyalari va moliya organlari vakillari kiritiladi.

Oila a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik jami daromad nafaqa olish uchun murojaat qilingan oydan oldingi oxirgi uch oy uchun hisoblab chiqilgan oilaning mehnatga layoqatli har bir a'zosining o'rtacha oylik daromadi summasini oila tarkibiga kiritiladigan oila a'zolari soniga bo'lingan holda aniqlanadi.

O'rtacha oylik jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan oilaning jami daromadiga oila a'zolari tomonidan olingan quyidagi daromadlar kiritiladi:

Agar oilaning mehnatga layoqatli har bir a'zosining o'rtacha oylik daromadlari to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlarda daromad summasi ko'rsatilmagan bo'lsa yoki eng kam oylik ish haqining 2,5 baravaridan kam summa ko'rsatilgan bo'lsa, u holda oilaning o'rtacha oylik jami daromadini hisoblash uchun daromadni normativdan past ko'rsatgan yoki daromadi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etmagan oila a'zolarining har biriga nafaqa yoki moddiy

yordamga murojaat qilingan oyda belgilangan eng kam oylik ish haqining 2,5 baravariga teng bo'lgan normativ daromad miqdori qabul qilinadi.




18.4-rasm. **Oila a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik jami daromad miqdorini hisoblab chiqishda hisobga olinadigan oilaning jami daromadlari tarkibi**[246]

Agar taqdim etilgan ma'lumotlarda shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritishdan olingan o'rtacha oylik daromad miqdori ko'rsatilmagan yoxud shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritishdan olinadigan belgilangan normativ daromaddan past ko'rsatilgan bo'lsa, u holda oilaning jami daromadini aniqlash uchun shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritishdan olinadigan oylik daromadning normativ miqdori qabul qilinadi. Ushbu miqdor shaxsiy yordamchi (dehqon) xo'jaligini yuritish uchun foydalaniladigan sotixlar sonini nafaqa (moddiy yordam) so'rab murojaat qilingan oyda belgilangan eng kam oylik ish haqining 0,2 miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

[246] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi 44 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom", 22-band asosida.

Nafaqalarni tayinlash yoki uni tayinlashni rad etish to'g'risidagi qaror fuqarolar yig'ini (Komissiya) tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Tegishli nafaqalar va moddiy yordamni to'lash Xalq bankining bo'linmalarida (filiallarida) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining maxsus bank hisobraqamlariga o'tkaziladigan davlat byudjeti xarajatlarining tegishli iqtisodiy tasnifi bo'yicha aks ettirilgan holda mahalliy byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Nafaqa va moddiy yordamning har bir turi uchun alohida maxsus bank hisobraqamlari ochiladi. Xalq banki muassasalari har oyda joriy oyning oxirigacha bo'lgan muddatda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini maxsus bank hisob raqamlaridagi qoldiqlar, shu jumladan, joriy oy uchun, shuningdek, hisobot yili boshidan boshlab tushumlar summalari va amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi.

Tuman (shahar) moliya bo'limi mablag'larni vedomostlar bo'yicha tayinlangan summalar doirasida, biroq byudjetda nazarda tutilganidan ortiq bo'lmagan, nafaqalar va moddiy yordam to'lashga tegishli byudjetning g'aznachilik shaxsiy hisobraqamini ko'rsatgan holda to'lov amalga oshiriladigan oyning 5 sanasidan boshlab, biroq oyning 25-sanasidan kechikmay har bir o'zini o'zi boshqarish organining maxsus hisobraqamlariga alohida to'lov topshiriqnomalari orqali Yagona g'aznachilik hisobraqamidan o'tkazadi. Bunda vedomostlar bo'yicha qisman moliyalashtirish taqiqlanadi. Mablag'larni tuman (shahar) moliya bo'limlarining Yagona g'aznachilik hisobraqamidan o'tkazish g'aznachilik bo'linmalari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ko'zda tutilgan byudjet mablag'larini viloyatning tumanlari (shaharlari) o'rtasida taqsimlash Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan har bir tuman (shahar) hududida yashovchi oilalar muhtojligini,

ushbu oilalarning tarkibi va oldingi davrlarda ajratilgan mablag'larning o'zlashtirilishi (foydalanilishi) darajasini inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Byudjet mablag'larini o'zini o'zi boshqarish organlarining maxsus hisobraqamlariga taqsimlash tuman (shahar) moliya bo'limi tomonidan ehtiyojmand oilalar sonini hisobga olingan holda moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan har oyda nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to'lash to'g'risida hisobot tuziladi hamda u hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha bo'lgan muddatda tuman (shahar) moliya bo'limiga taqdim etiladi.

Tuman (shahar) moliya bo'limlari hisobot oyidan keyingi oyning 15-sanasigacha hisobotlarni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kesimida tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga taqdim etadilar, ular oyning 20-sanasigacha hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadilar.

Bir yil mobaynida oluvchilar tomonidan (vafot etganligi, yashash joyi o'zgarganligi va moddiy yordam oluvchining aybi bilan boshqa sabablarga ko'ra) talab qilib olinmagan mablag'lar o'zini o'zi boshqarish organlarining hisobraqamlariga tiklanishi kerak. Bu pul mablag'lari qoldig'i olib qo'yilmaydi va navbatdagi davrda nafaqalar to'lash uchun yo'naltirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun nafaqat ularga turli miqdorlarda va davomiylikda nafaqalar, moliyaviy yordamlar berish, balki ularning olgan daromadlarini imtiyozli tartibda soliqqa tortish: soliq yengilliklarini berish, soliq to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilish, ma'lum davrgacha soliqqa tortmaslik, shuningdek, aholi bandligini oshirish, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishini ta'minlash, hududlarda yangi ish o'rinlarini ta'minlovchi kichik biznes va xususiy

tadbirkorlikni rag'batlantirish, nogironlarga ishlash uchun sharoitlar yaratish" va shu kabi boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish aholining turmush farovonligini yanada mustahkamlash omili bo'lib xizmat qiladi.

### 18.4. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning xorij tajribalari

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning jamiyat a'zolarining mehnat qobiliyatlarini yo'qotgan yoki bu qobiliyatni iqtisodiy sabablarga ko'ra amalga oshira olmagan holatlarda ularning daromadlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining bir qismi sifatidagi zarurligi olimlar tomonidan, keyinchalik esa siyosatchilar tomonidan ham XIX asrning oxirlariga kelib tan olindi. Shundan 100 yil o'tgach, institutsional rivojlanishning bir necha bosqichlaridan o'tgan ijtimoiy himoya inson taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. BMTning ekspertlari Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Siyosiy va fuqarolik huquqlari to'g'risidagi xalqaro pakt va boshqa xalqaro hujjatlar asosida fuqarolarning asosiy huquqlari sifatida ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik, inson bilan bog'liq bo'lmagan boshqa holatlarda yashash uchun zarur bo'lgan mablag'ni yo'qotishdan himoyalanish, shuningdek, onalik va bolalikni himoya qilish bilan bog'liq huquqlarni insonlarning asosiy huquqlari sifatida belgilab berdilar.

Inson huquqlarining amalga oshirilishi, uning asosiy ijtimoiy risklardan muhofazalanganlik darajasi ko'p jihatdan alohida olingan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va ijtimoiy sohalarining holatiga bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanganlik asosiy omillardan bir bo'lib hisoblanadi, chunki ijtimoiy himoya mexanizmlarini shakllantiruvchi munosabatlar iqtisodiy pul munosabatlarining negizida yuzaga keladi va YalMning jamiyatning muhtoj qatlamlari foydasiga

qayta taqsimlanish prinsipleri va yondashuvlarga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, insonning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan bu huquqlarning moliyaviy ta'minlanishi bilan bog'liq.

Xorijiy davlatlarda aholi ijtimoiy himoyasini moliyaviy ta'minlashning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

– ishtirokchi subyektlarning badallari hisobidan maqsadli fondlarni shakllantirishga asoslangan ijtimoiy sug'urta;

– umumdavlat soliqlari hisobidan universal nafaqalarni to'lash yoki bir qator ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirishni nazarda tutuvchi *ijtimoiy ta'minot;*

– muhtojlik darajasini yakka tartibda aniqlash sharti bilan umumdavlat daromadlari (davlat byudjeti) hisobidan nafaqalar yoki moddiy ko'rinishdagi *ijtimoiy yordam;*

– ijtimoiy riskdardan *korporativ va shaxsiy sug'urtalashni* davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Ushbu yo'nalishlar doirasidagi moliyaviy munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinadi va alohida tashkilotlarning faoliyati jarayonida sodir bo'ladi, ularning yig'indisi esa aholini ijtimoiy himoya qilishni moliyaviy ta'minlashning jamoat institutlarini tashkil qiladi.

Yangi mingyillikning boshiga kelib, jahonning ko'pchilik mamlakatlari iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda, shu jumladan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida chuqur islohotlarni amalga oshirmoqdalar, yoki hech bo'lmaganda bunday islohotlarni amalga oshirish ustida jiddiy bosh qotirmoqdalar. Aholining qarib borishi, ijtimoiy xarajatlar va ish haqini tubdan qayta baholashni taqozo qilgan bozorlarning globallashuvi, davlat ijtimoiy himoyasi tizimidan tashqarida bo'lgan norasmiy sektorning kengayib borishi, turmush darajasi va hayot sifatining oshishi hamda texnika taraqqiyoti natijasida ijtimoiy xizmatlarning qimmatlashuvi kabi omillar barcha davlatlarda islohotlar zarurligini belgilab berdi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni moliyaviy ta'minlash borasidagi muammolarning ko'lami va birinchi darajali

vazifalarning xarakteri mamlakatlardagi tarixiy taraqqiyotning xususiyatlari, ijtimoiy himoyaga nisbatan jamiyatda shakllangan qarashlar va fikrlar, shuningdek, u yoki bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy jihatdan past rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy muhofaza tizimini kengaytirish, jamiyatning ko'pchilik a'zolariga minimal darajadagi ijtimoiy kafolatlarni taqdim etish muammolari ayniqsa jiddiy tus olgan. Ijtimoiy jihatdan himoyalanmagan aholi qatlamlari tomonidan hukumatlarga bunday ijtimoiy kafolatlarni zimmasiga olishga majbur qiladigan siyosiy bosimning sustligi, shuningdek, ish beruvchilar, ishlovchilar va davlat o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi bu muammolarning yanada keskinlashuviga olib keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda esa aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi muammolar birmuncha boshqacharoq xarakterga ega bo'lib, mehnatga layoqatli yoshdagi iqtisodiy faol aholi sonining kamayib borishi, ishsizlar sonining oshib borishida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy kafolatlarning yuqori darajasi va ijtimoiy transfert oluvchilar sonining ortib borishi Yevropa mamlakatlarining moliya tizimlariga katta yuk bo'lib bormoqda, shu sababli bu mamlakatlar hukumatlarining oldida turgan vazifa davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy yordam bilan fuqarolarning shaxsiy javobgarligini oqilona uyg'unlashtirish, jamiyat a'zolarini ijtimoiy himoyani moliyalashtirishdagi ishtirokini muvofiqlashtirishdan iborat.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar**

*7. Mustaqillik yillarida aholi turmush farovonligini oshirish qanday yo'nalishlarda olib borildi, taraqqiyotning har bir bosqichida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?*

*8. Davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi ijtimoiy siyosati yo'nalishlari nimalardan iborat?*

*9. Aholining ta'sirchan ijtimoiy muhofazasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida qanday chora-tadbirlar ko'zda tutilgan?*

*10. Aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini moliyalashtirishning qanday manbalari mavjud?*

*11. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda davlat byudjetining o'rni va ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?*

*12. Ijtimoiy himoya xarajatlarining davlat byudjeti hisobidan mablag' bilan ta'minlanishini asoslab bering.*

*13. Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tarkibi va tuzilishi qanday?*

*14. Davlat byudjetidan aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirish qandan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?*

*15. Kam ta'minlangan fuqarolar va oilalarga nafaqa tayinlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi?*

*16. Xorijiy davlatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy muhofazani mablag' bilan ta'minlashning qanday shakllari va usullari mavjud?*

**Mavzu yuzasidan topshiriqlar**

*5. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish shakllari, usullari va moliyalashtirish manbalarini aks ettirgan klaster ishlab chiqing.*

*6. Aholini ijtimoiy homoyalashga qaratilgan byudjet mablag'larining tarkibi va tuzilishini tasvirlovchi infografika tayyorlang.*

*7. Ijtimoiy himoya tadbirlarini moliyalashtirishda davlat byufjetining o'rni va ahamiyati to'g'risida qisqacha xulosa yozing.*

*8. Maxsus adabiyotlarni o'rganish asosida xorijiy mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilishning shakllari va usullari hamda moliyaviy ta'minlash manbalari to'g'risida taqdimot tayyorlang.*

## TAYANCH SO'Z VA IBORALAR BO'YICHA GLOSSARIY

***Aylanma kassa mablag'i*** – moliya yilida O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori;

***Bevosita soliqlar*** – soliq to'lovchilarning o'zi to'g'ridan-to'g'ri to'laydigan, ya'ni soliqning huquqiy jihatdan to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladigan, soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklash holati bo'lmaydigan soliqlar, ularga daromaddan va mulkdan to'lanadigan soliqlar kiradi;

***Bilvosita soliqlar*** – yuridik jihatdan to'lovchilari mahsulot (ishlar, xizmatlarni) yuklab yuboruvchilar (xizmat ko'rsatuvchilar) bo'lib, soliqning haqiqiy og'irligi keyingi (so'nggi) iste'molchining zimmasiga tushadigan, soliq summasi tovar (ish, xizmat) narxi ustiga ustama ravishda qo'yiladigan soliqlar;

***Byudjet daromadlari tasnifi*** – barcha darajadagi byudjetlar daromadlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari daromadlarining mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasiga, daromadlar turiga va hududiga ko'ra guruhlanishi;

***Byudjet defitsiti*** – muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortishi;

***Byudjet defitsitini qoplash manbalari*** – defitsitni qoplashga jalb qilingan mablag'lar va ularning manbalari;

***Byudjet dotatsiyasi*** – o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni

qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

***Byudjet huquqi*** – davlat byudjeti mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy normalar majmui;

***Byudjet huquqi subyektlari*** – davlat pul mablag'larining markazlashtirilgan jamg'armasini shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarda qonunchilik bilan tegishli yuridik majburiyat va huquqlar berilgan davlat va uning ma'muriy-hududiy tuzilmalari, davlat hokimiyati va barcha darajadagi boshqaruv organlari, davlat va munitsipal korxonalar, tashkilotlar va muassasalar;

***Byudjet jarayoni*** – byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash bilan bog'liq bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadigan maqsadli faoliyat;

***Byudjet jarayoni bosqichlari*** – byudjet loyihasini tuzish, uni ko'rib chiqish va tasdiqlash, byudjetni ijro etish va uning nazoratini olib borish, byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlashdan iborat bo'lgan uzluksiz jarayon;

***Byudjet nazorati*** – barcha darajadagi byudjetlarning, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa nobyudjet fondlarining shakllanishi va ishlatilishi, davlat moliyaviy resurslarining qonuniy va maqsadga muvofiq ishlatilishi ustidan nazorat;

***Byudjet nazoratining shakllari*** – dastlabki, joriy va so'nggi byudjet nazorati;

***Byudjet profitsiti*** – muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlardan ortishi;

***Byudjet qonunchiligi*** – byudjet munosabatlari va byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi qonuniy-huquqiy hujjatlar yig'indisi;

***Byudjet siyosati*** – davlat moliya siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, umumdavlat moliyaviy resurslarini (manbalarini) shakllantirish va jalb etish, taqsimlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishga qaratilgan davlatning chora tadbirlari va asosiy yo'nalishlari yig'indisi;

***Byudjet siyosati strategiyasi*** – uzoq muddatli maqsadlarni tanlash va maqsadli dasturlarni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ularni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlariga safarbar qilishni nazarda tutuvchi strategiya;

***Byudjet siyosati taktikasi*** – byudjet strategiyasi belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining aniq bosqichida va sharoitlarida moliya-byudjet munosabatlarini tashkil etish usullari va vositalari yig'indisi;

***Byudjet so'rovi*** – byudjet tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rov;

***Byudjet ssudasi*** – yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag';

***Byudjet subvensiyasi*** – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari;

***Byudjet taqchilligini qoplash manbalari tasnifi*** – taqchillikni qoplashning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlash;

***Byudjet tashkiloti*** – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot;

***Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari*** – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan byudjetdan tashqari manbalar hisobidan byudjet tashkiloti tasarrufiga kelib tushadigan mablag'lar;

***Byudjet tasnifi*** - davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar daromadlari va xarajatlarining, shuningdek davlat byudjetining taqchilligini qoplash manbalarining muayyan belgilariga ko'ra guruhlanishi;

***Byudjet tizimi*** – barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish prinsipiari, ular o'rtasida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar yig'indisi;

***Byudjet tizimi byudjetlari*** – O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari;

***Byudjet tizimini boshqarish*** – byudjet tizimining asosiy tamoyillariga amal qilgan holda byudjet munosabatlarini, byudjet jarayonini, byudjet munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlar, alohida vakolatli organlar va byudjet mablag'larini oluvchilar faoliyatini boshqarishga qaratilgan maqsadli faoliyat;

***Byudjet tizimini boshqarish obyektlari*** – byudjet munosabatlari, byudjetning daromadlar bo'yicha shakllanishi va xarajatlar bo'yicha ijro etilishi, byudjetlararo munosabatlar va shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy pul munosabatlari;

***Byudjet tizimini boshqarish subyektlari*** – byudjet munosabatlarini boshqarish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishda ishtirok etuvchi muayyan vakolatlarga ega bo'lgan davlatning qonunchilik-ijroiya institutlari – boshqaruv organlari;

***Byudjet transferti*** – byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari;

***Byudjet xarajatlari tasnifi*** – davlat byudjeti, davlat maqsadli va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar xarajatlarining mablag'larning manbasi va byudjetlar darajasiga, hududiga, bajaradigan vazifasiga, xarajatlarning

iqtisodiy mazmuniga va tashkiliy tegishliligiga ko'ra guruhlanishi;

***Byudjetdan mablag' ajratish*** – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag'lari oluvchilarga pul mablag'larini ajratish;

***Byudjetlararo munosabatlar*** – davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining mamlakat ma'muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlar yig'indisi;

***Byudjetlararo munosabatlar shakllari*** – davlat byudjeti mablag'larini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlash shakllari;

***Byudjetning daromadlar bo'yicha ijro etilishi*** – daromadlarni davlat byudjetining yagona hisobraqamiga o'tkazish va yozish, tasdiqlangan byudjetga muvofiq ravishda tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlash, byudjetga ortiqcha to'langan daromadlar summasini qaytarish, byudjet daromadlari hisobini yuritish va daromadlar to'g'risida hisobotni tuzish bilan bog'liq bo'lgan jarayon;

***Byudjetning ijtimoiy funksiyasi*** – davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish, davlatning ijtimoiy kafolatlari doirasidagi xizmatlarni mablag' bilan ta'minlash, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridagi davlat tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda namoyon bo'ladi;

***Byudjetning ijtimoiy xarajatlari*** – davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy sohalarni moliyalashtirish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;

***Byudjetning iqtisodiy funksiyasi*** – byudjetning iqtisodiy funksiyasi orqali davlat byudjeti soliqlar va byudjet xarajatlari orqali iqtisodiyotni tartibga solish, investitsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi va muhim quroli bo'lib xizmat qiladi;

***Byudjetning iqtisodiy xarajatlari*** – byudjetdan iqtisodiyot tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga va markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishga ajratiladigan mablag'lar;

***Byudjetning joriy xarajatlari*** – davlat hokimiyati organlarining, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining, byudjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga, davlat tomonidan quyi pog'onadagi byudjetlar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga mablag' ajratish, dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar shaklida yordam ko'rsatish uchun ajratilagan mablag'lar;

***Byudjetning kapital xarajatlari*** – davlat investitsiya dasturiga muvofiq, ishlab turgan yoki yangidan tashkil qilinadigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlashga mo'ljallangan byudjet xarajatlari;

***Byudjetning nazorat funksiyasi*** – byudjetning nazorat funksiyasi orqali byudjet daromadlarining shakllanishi, byudjet mablag'larining oqilona va maqsadga muvofiq ishlatilishi, byudjetdan mablag' oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan byudjet qonunchiligiga rioya qilish holati, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanish va qayta taqsimlanish nisbatlari nazorat qilinadi;

***Byudjetning taqsimlash funksiyasi*** – mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning qiymatini qayta taqsimlashda namoyon bo'ladi;

***Byudjetning xarajatlar bo'yicha ijro etilishi*** – byudjetning yagona hisobraqamida haqiqatda mavjud bo'lgan byudjet mablag'lari doirasida byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlarini to'lab berish bilan bog'liq bo'lgan jarayon;

***Daromadlar va xarajatlar smetasi*** – byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg'armalarining tegishli yil choragi yoki moliya yili uchun kutilayotgan tushumlari va xarajatlari aks ettiriladigan hujjat;

***Dastlabki byudjet nazorati*** – turli darajadagi byudjetlar loyhalarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash; daromad va xarajatlar smetasi, byudjet bilan bog'liq qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida amalga oshiriladigan nazorat shakli;

***Davlat byudjeti daromadlari*** – davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va aholi o'rtasidagi davlat byudjetining shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi;

***Davlat byudjeti xarajatlari*** – yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishi natijasida davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq byudjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig'indisi;

***Davlat byudjetining funksiyalari*** – davlat byudjetining iqtisodiy kategoriya sifatida obyektiv tarzda bajaradigan funksiyalari;

***Davlat byudjetining g'azna ijrosi*** – davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobraqamiga to'plash va uning barcha xarajatlarini shu yagona hisobraqamdan amalga oshirish;

***Davlat byudjetining soligsiz daromadlari*** – davlat byudjetining soliq xarakteriga ega bo'lmagan majburiy va ixtiyoriy shakllarda tushuvchi daromadlari va tushumlari (yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar, davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar va sh.k.);

***Davlat sog'liqni saqlash tizimi*** – davlat mulki bo'lgan va davlat sog'liqni saqlash tizimining boshqaruv organlariga bo'ysunuvchi davolash-profilaktika va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tibbiyot va farmatsevtika xodimlari tayyorlaydigan hamda ularni qayta tayyorgarlikdan o'tkazadigan o'quv

yurtlari, farmatsevtika korxonalari va tashkilotlari, sanitariya-profilaktika muassasalari, sud-tibbiy ekspertiza muassasalari, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ishlab chiqaradigan korxonalar hamda asosiy faoliyati fuqarolar sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq boshqa korxona, muassasa va tashkilotlar;

***Davlat xaridlari*** – byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari;

***Defitsitning hajmi*** – byudjet defitsitining milliy valyutada absolyut summada, YAIM hajmiga nisbatan foizda, byudjet daromadlari va xarajatlariga nisbatan foizlarda aniqlanadigan kattalik;

***Direktor jamg'armasi*** – umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish maqsadida davlat byudjeti hisobidan tuziladigan jamg'arma;

***Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi*** – posyolka, qishloq va ovul, shuningdek shaharlarning mahallalari fuqarolar yig'ini;

***G'aznachilik memorial orderi*** – mablag'larni bir shaxsiy g'azna hisobvarag'idan boshqa shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkazish uchun foydalaniladigan to'lov hujjati;

***G'aznachilik organlari*** – **yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan, Moliya vazirligi tarkibidagi davlat organi;**

***G'aznachilikning axborot tizimi*** – byudjet operatsiyalari bo'yicha kodlashtirilgan va tasniflangan ma'lumotlar avtomatik ravishda yuklanadigan davlat mablag'larini boshqarishning axborot tizimi;

***G'aznachilikning yagona hisobraqami*** – G'aznachilik tomonidan boshqariladigan, davlat byudjeti mablag'lari hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari kiritiladigan, davlat byudjetida mablag'lari nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari, shuningdek, davlat

maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladigan maxsus bank hisobraqami;

***Huquqiy kategoriya sifatida davlat byudjeti*** – markaziy va tegishli mahalliy hokimiyat va ijroiya organlari tomonidan ishlab chiqiladigan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan, markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish, taqsimlash va maqsadli ishlatishni ko'zda tutuvchi asosiy moliyaviy reja, yuridik hujjat;

***Ijtimoiy sug'urta*** – fuqarolarning qarilik, kasallik, onalik, mehnat qobliliyatining to'liq yoki qisman yo'qotilishi, boquvchisini yo'qotish, ishsizlik kabi holatlarda moddiy ta'minot olishning moliyaviy asosini yaratish bilan bogliq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi;

***Ijtimoiy ta'minot*** – davlat ijtimoiy siyosatining namoyon bo'lish shakli bo'lib, aholining alohida toifalarini moddiy ta'minlashga qaratilgan, rivojlanishning muayyan bosqichida davlat tomonidan ijtimoiy ahamiyatli deb topilgan holatlarda ularning ijtimoiy holatini jamiyatning boshqa a'zolariga nisbatan tenglashtirishga yo'naltirilgan, davlat byudjeti va boshqa maxsus maqsadli jamg'armalar hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi;

***Ijtimoiy ta'minotning moliyaviy manbalari*** – ijtimoiy ta'minot maqsadlaridagi xizmatlar va to'lovlar uchun mo'ljallangan moliyaviy resurslarning manbalari;

***Iqtisodiy kategoriya sifatida davlat byudjeti*** – davlat bilan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni, uning faol qismi bo'lgan milliy daromadni (qisman milliy boyliknı) qayta taqsimlash yuzasidan kelib chiqadigan pul munosabatlari tizimi;

***Jamlanma xarajatlar smetasi*** – byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan o'z tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi;

***Jon boshiga qarab moliyalashtirish*** – bir o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga, talabaga, aholi soniga) nisbatan o'rnatilgan

xarajat me'yori, o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar, talabalar, aholi) soni hamda muassasaning xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus koeffitsientlarga asoslangan muassasalar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish tizimi;

***Joriy byudjet nazorati*** – byudjet operatsiyalarini amalga oshirish chog'ida, dotatsiya, subvensiya, ssudalar va byudjet subsidiyalarini ajratish paytida, ajratilayotgan byudjet mablag'larining rejaviy ko'rsatkichlarga muvofiqligini aniqlashda amalga oshiriladigan nazorat shakli;

***Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam*** – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha nafaqa va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamlar;

***Mahalliy byudjetlar*** – Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari, viloyatlar byudjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) byudjetlar yig'indisi;

***Majburiy tibbiy sug'urta*** – tibbiy xizmatlar uchun kelgusida qilinajak xarajatlarni qoplash maqsadidagi to'lovlarni nazarda tutadigan tizim;

***Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari*** – davlat investitsiya dasturiga kirgan manzilli loyihalar bo'yicha byudjetdan ajratiladigan pul mablag'lari;

***Moddiy tushuncha sifatida davlat byudjeti*** – markaziy hukumat va tegishli darajadagi mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vazifalarni bajarishga mo'ljallangan markazlashtirilgan pul mablag'lari fondi;

***Moliya vazirligi G'aznachiligi*** – qonun bujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatlarga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlarda hududiy bo'linmalariga ega bo'lgan davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshiruvchi moliya organi;

***Moliyaviy majburiyatlar*** – byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag'lari oluvchilarda ularga pul mablag'larini o'tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar;

***Nafaqa*** – tegishli davlat mablag'lari hisobidan obyektiv sabablarga ko'ra ish haqining yo'qotilganligi, shuningdek aholining ayrim guruhlarini ijtimoiy himoya qilish hamda ijtimoiy jihatdan ta'minlash maqsadlarida tayinlanadigan moliyaviy yordam turi;

***Nazorat tamoyillari*** – nazoratning ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatda sinovdan o'tgan siyosiy, tashkiliy va huquqiy asoslari bo'lib, ularga og'ishmay amal qilish nazoratning samaradorligini ta'minlaydi;

***Nogiron*** – jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxs;

***Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish*** – nogironlarga turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi, qoplashi (kompensatsiya qilishi) uchun shart-sharoitlarni ta'minlovchi hamda ularga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

***O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi*** – O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromadlar qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydigan davlat boshqaruvi organi;

***Pedagog xodimning oylik lavozim okladi*** – har bir xodimning lavozimi va malaka toifasi uchun o'rnatilgan bazaviy

tarif stavkasi hamda qonun bilan belgilangan qo'shimchalar va ustamalar asosida shakllanadigan ish haqi miqdori;

***Pedagogik stavkalar soni*** – sinf guruhlari bo'yicha haftalik o'quv soatlari sonini shu sinf guruhi bo'yicha o'qituvchining haftalik o'quv yuklama me'yoriga bo'lish orqali hisoblanadigan, o'qituvchilarning ish haqi xarajatlarini rejalashtirishda foydalaniladigan ko'rsatkich;

***Pensiya*** – um olish huquqi qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi;

***Respublika byudjeti*** –daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladigan davlat byudjetining umumdavlat ahamiyatidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi;

***Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi*** – shaxsning o'ziga o'zi xizmat qilish, harakatlanish, yo'lni topa olish, muloqot qilish, o'z xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek o'qish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to'la yoxud qisman yo'qotganligi;

***Shtatlar jadvali*** – doimiy xodimlar lavozimlari va bo'sh o'rinlar nomlarining soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko'rsatilgan ro'yxatni o'z ichiga oladigan, byudjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat;

***So'nggi byudjet nazorati*** – hisobot davri va byudjet yili tugagandan so'ng amalga oshiriladigan, hisobot yilida byudjet mablag'larining ishlatilishi, rejaviy ko'rsatkichlarning va xarajatlar smetasining bajarilishi, byudjet limitlari va normativlariga rioya qilinganligi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy natijalarni tahlil va taftish qilish asosida o'tkaziladigan nazorat shakli;

***Sog'liqni saqlash tizimi*** – sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlari yig'indisidan iborat yagona sog'liqni saqlash tizimi;

***Sog'liqni saqlashning xususiy va boshqa xil tizimlari*** – o'z mablag'lari, jalb etilgan mablag'lar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan davolash profilaktika muassasalari, dorixonalar, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ishlab chiqaradigan korxonalar, shuningdek farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar;

***Soliq tizimi*** – davlat byudjetini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan, tarkibi amaldagi soliq qonunchiligi bilan belgilab qo'yiladigan barcha soliqlar, majburiy to'lovlar va yig'imlar turlarining yig'indisi;

***Soliqlar*** – majburiy pullik to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi, bu munosabatlar soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi subyekt sifatida davlat o'rtasida sodir bo'ladi;

***Ta'lim tizimi*** – davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yig'indisi;

***Ta'limni moliyalashtirish manbalari*** – ta'lim tizimining faoliyatini ta'minlash uchun ajratiladigan mablag'larning manbalari;

***Tartibga soluvchi daromadlar*** – byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlar;

***Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza*** – muayyan shaxs organizmining barcha tizimlarini kompleks tekshirish asosida uning sog'lig'ini yo'qotganlik darajasini, organizmi funksiyalari

turg'un buzilishi oqibatida turmush faoliyatining cheklanganlik darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning yuz berganligi sabablari hamda vaqtini aniqlash, shuningdek shaxs uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra amalga oshirishi mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va mehnat sharoitlari, o'zgalarning parvarishiga, sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyojlari haqida tavsiyalar tayyorlash;

***Vaqtinchalik kassa uzilishi*** – joriy moliya yilining muayyan davrida byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlari daromadlaridan vaqtinchalik oshib ketishi;

***Vaqtinchalik xarajatlar smetasi*** – byudjet tashkilotining yoki byudjet mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan moliyaviy reja, yuridik hujjat;

***Xarajatlar smetasi*** – byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat;

***Xususiy tibbiy sug'urta*** – sug'urtalanuvchi shaxs ixtisoslashgan xususiy sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan ma'lum haq (sug'urta mukofoti) evaziga tibbiy xizmatdan foydalanish bo'yicha xarajatlarning yuzaga kelish xavfini yumshatish maqsadida tashkilot bilan kelishilgan miqdordagi sug'urta badallarini sug'urta tashkilotiga o'tkazib boradigan tizim;

***Yuridik majburiyatlar*** – byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilar bilan ularga mol (tovar, xizmat, ish) yetkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalar, shuningdek tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlari asosida byudjet tashkilotlarida va byudjetdan mablag' oluvchilarda yuzaga keladigan majburiyatlar.

## ILOVALAR

*1-ilova*

## 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi

### I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

#### 1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

- davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;
- qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda tubdan oshirish;
- siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarnmg rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

#### 1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

- davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali isloh qilish;
- mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan

davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

- "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan va aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

**1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:**

- xalq bilan samarali muloqot mexanizmlarini joriy etish;

- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

- mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish;

- ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish.

## II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari

### 2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

- sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;
- sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessi tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;
- "Xabeas korpus" institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;
- sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;
- sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

### 2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

- fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansolarlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish;
- sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

- fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

- fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash;

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

## 2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

- jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberaliashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish;

- odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini yaxshilash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

- jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish;

- elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

## 2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

- jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

- diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni yanada kuchaytirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

- aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

### 2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

- huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularning sabab va omillarini bartaraf etish;

- sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

- huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari orasida huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

- huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

### 2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;

- advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarning o'rni va nufuzini oshirish;

- notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish.

## III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

- makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- harajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolgan holda, Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosibligini muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomiliashtirish;
- ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash;
- soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lim davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish;
- bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiyaviy loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish;
- sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning xajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek fond bozorini kapitalni jalb qilish hamda korxona, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida rivojlantirish;

- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

### 3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;
- sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;

prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

- ishlab chiqarish mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importning o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;
- iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng

joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

- erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan zonalarning samaradorligini oshirish;

- xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

- yo'l transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

### 3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

- tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakatimiz oziq ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

- paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va

uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish;

- fermer xo'jaliklar, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyalar asosida asbob uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta isblash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini tarmoqlarini yanada kengaytirish;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

- yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy yer-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

- global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi halokatining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

### 3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uni ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, harcha turdagi to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan prinsipni amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni kengaytirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomill va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-

xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

### 3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadaliashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;
- hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish;
- yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;
- subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;
- sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

## IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

### 4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish:

- aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;
- byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;
- yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;
- mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yuksaltirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

### 4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish

- aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sheriklligini rivojlantirish;
- sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada keng amalga oshirish;

- xotin qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash;

- pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

- farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.

### 4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:

- aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

- aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini

qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni hosqichma-hosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suviga bo'lgan talab va ehtiyojini ta'minlashni tubdan yaxshilash;

- odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy ohyektlar bilan ta'minlash;

- aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

- yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini jadal davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

- yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash, shuningdek, aholini boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash;

- teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

### 4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

- ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ushbu muassasalardagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

- umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'atga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

- kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

- ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-

eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

**4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:**

- jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;
- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;
- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

## V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar

**5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:**

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o'z vaqtida va munosib harakatlarni tashkil etish;

fuqarolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;

- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga zarar yetkazadigan ekologik muammolarning oldini olish;

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

**5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:**

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborot yetkazish;

- O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- davlat chegarasini demilitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish.

*2 ilova*

**Davlat davolash-profilaktika muassasalarida bepul tibbiy xizmat ko'rsatish belgilangan fuqaro toifalari, turg'un davolash muassasalarida ovqatlanish hamda dori-darmon bilan ta'minlanish uchun to'lovdan to'liq yoki qisman ozod qilinadigan fuqaro toifalari va kasallik turlari to'g'risida ma'lumot**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5-fevraldagi 31-sonli Qarori bilan shaxslarni (bemorlarni) davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qiluvchi kasalliklar ro'yxati va tibbiyot muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qilinadigan shaxslar (bemorlar) toifalari tasdiqlangan.

A. Statsionar sharoitda davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qilingan kasalliklar ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

1. OIV kasalligini yuqtirganlar (OITS).
2. Onkologik kasalliklar.
3. Ruhiy kasalliklar.
4. Yuqumli kasalliklar.
5. Giyohvandlik kasalliklari.
6. Endokrinologik kasalliklar.
7. Nurlanish kasalligiga chalingan bemorlar.
8. Moxov kasalligi.
9. Sifilis.
10. Sil kasalligi.
11. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish chog'ida bemorlarning shifoxonada bo'lishi cheklangan muddatlarning tasdiqlangan standartlari bo'yicha reanimatsiya tadbirlarini va intensiv terapiyani talab etuvchi kasalliklar va holatlar.
12. Darajasidan qati nazar, kamqonlik kasalligiga chalingan homilador ayollar va tuqqan ayollar.

*Izoh: ushbu ro'yxat tibbiy yordam pulli asosda ko'rsatiladigan tibbiyot muassasalarining byudjetdan tashqari*

*mablag'lari (o'z mablag'lari) hisobiga moliyalashtirish shartlarida faoliyat ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalariga, ularning bo'limlariga yoki palatalariga tatbiq etilmaydi.*

B. Tibbiyot muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qilinadigan shaxslar (bemorlar) toifalariga quyidagilar kiradi:

1. I va II guruh nogironlar.

2. Bolalikdan nogironlar.

3. 1941 — 1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar.

4. Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan — nogiron shaxslar.

5. 1941 — 1945 yillardagi urush yillari mehnat fronti qatnashchilari.

6. Baynalmilalchi jangchilar.

7. G'irt etimlar.

8. Vakolatli organlarda hisobda turuvchi yolg'iz pensionerlar.

9. 18 yoshgacha bo'lgan bolalar, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari.

10. Chaqiriq komissiyalari xulosalariga ko'ra mudofaa ishlari bo'limlarining yo'llanmalari bo'yicha 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan chaqiriq yoshidagilar.

11. «O'zbekiston Respublikasi faxriy donori» («Pochetniy donor Respubliki Uzbekistan») ko'krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslar.

12. 1 yoshgacha bolasi bo'lgan emizikli onalar.

*Izoh: ushbu ro'yxat tibbiy yordam pulli asosda ko'rsatiladigan tibbiyot muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari (o'z mablag'lari) hisobiga moliyalashtirish shartlarida faoliyat ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalariga, ularning bo'limlariga yoki palatalariga tatbiq etilmaydi.*

Ushbu Hukumat Qarori bilan davolash-profilaktika muassasalarida ovqatga pul to'lash tartibi qabul qilingan va bemor o'z hohishiga binoan ovqatlanishi uchun (nonushtadan tashqari) pul to'lashi yoki ovqatlanishga pul to'lashdan qisman

yoki butunlay bosh tortishi mumkin. Bemorning ovqatga pul to'lashdan bosh tortishi davolash muassasasiga qabul qilmaslik uchun asos bo'lishi mumkin emas.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 22-iyuldagi 204-sonli Qarori bilan ambulatoriyada davolanishda dori vositalari bilan imtiyozli ta'minlanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar toifalari ro'yxati tasdiqlangan.

1. Onkologik kasalliklarga chalinganlar.

2. Sil kasalligiga chalinganlar.

3. Moxov kasalligiga chalinganlar.

4. Endokrinologik kasalliklarga (qandli va qandsiz diabetga) chalinganlar.

5. Ruhiy kasalliklarga chalinganlar.

6. OIV kasalligini yuqtirganlar.

7. Yurak klapanini protezlash va organlarni ko'chirish yuzasidan operatsiya qilingan shaxslar.

8. O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlar.

9. 1941—1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar.

10. 1941—1945 yillardagi urush mehnat fronti qatnashchilari.

11. Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan — nogiron shaxslar.

12. Baynalminalchi jangchilar.

13. Harbiy xizmatni yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya-yadro ob'ektlarida o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 26-fevraldagi PF-3214 sonli Farmoniga asosan ixtisoslashtirilgan akademik V.Voxidov nomidagi xirurgiya, urologiya, ko'z mikroxirurgiyasi va kardiologiya markazlarida maxsus yo'llanmalarga (orderlarga) asosan davlat byudjeti mablag'lari hisobiga bepul davolanadigan quyidagi imtiyozli toifadagi shaxslar ro'yxati belgilangan:

holalikdan nogironlar;

g'irt etimlar;

I va II guruh nogironlari;

1941-1945 yillar urush nogironlari va qatnashchilari, hamda ularga tenglashtirilganlar;

yoshga oid ishlamaydigan pensionerlar;

1941-1945 yillar mehnat fronti qatnashchilari;

Chernobil AES halokatini bartaraf etishda qatnashgan nogironlar;

baynalminalchi jangchilar;

fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organlarida moddiy yordam oluvchi kam ta'minlangan oila a'zolari.

Ushbu imtiyozlarga ega bo'lgan bemorlarni Markazlarda davolanishlari uchun maxsus yo'llanmalar (orderlar) hududiy sog'liqni saqlash boshqarmalari tomonidan beriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinmg 2009-yil 21-maydagi 145-sonli "Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qaroriga asosan Respublika ftiziatriya va pulmonologiya hamda pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida barcha tibbiy xizmatlar bepul ko'rsatiladi. Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va venerologiya hamda terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida davlat byudjeti mablag'lari hisobiga quyidagi imtiyozli toiladagi shaxslarga bepul tibbiy yordam ko'rsatiladi:

15 yoshgacha bo'lgan bolalar;

g'irt etimlar,

I va II guruh nogironlari;

bolalikdan nogironlar;

1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar;

1941-1945 yillardagi urush davrida mehnat fronti qatnashchilari;

yoshiga ko'ra ishlamayotgan pensionerlar;

Chernobil AESdagi avariyani bartaraf etishda qatnashgan shaxslardan nogironlar;

baynalminalchi jangchilar;

15-17 yoshdagi o'smirlarni va chaqiruv komissiyalari yo'llanmalari bo'yicha chaqiriq yoshidagi (18-27 yashar) shaxslarni tekshirish va davolash;

fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlaridan nafaqa oladigan kam ta'minlangan oilalardagi shaxslar.

Respublika akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha patologiyali bomilador ayollarga, 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga mavjud o'rinlar fondi va markaz poliklinikasi davolash quvvatining 20 foizigacha miqdorida, Respublika endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha endokrin kasalliklardan azob chekadigan bemorlarga mavjud o'rinlar fondi va markaz poliklinikasi davolash quvvatining 30 foizigacha miqdorida maxsus yo'llanma (order) asosida bepul xizmat ko'rsatiladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 18-martdagi «Hududiy sog'liqni saqlash muassasalarining tashkiliy tuzilmasini va faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 48-sonli Qaroriga asosan viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga bepul tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozli shaxslar ro'yxati belgilangan:

g'irt etimlar,

I va II guruh nogironlari;

bolalikdan nogironlar;

1941-1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar;

1941-1945 yillardagi urush davrida mehnat fronti qatnashchilari;

yoshiga ko'ra ishlamayotgan pensionerlar;

Chernobil AESdagi avariyani bartaraf etishda nogiron bo'lgan shaxslar;

baynalminal jangchilar;

fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlaridan nafaqa oluvchi kam ta'minlangan oilalar a'zolari;

ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarga chalingan shaxslar;

chaqiruv komissiyalari yo'llanmalari bo'yicha 15-17 yoshdagi o'smirlar va chaqiriq yoshidagi (18-27 yashar) shaxslar.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26-fevraldagi 55-sonli Qaroriga asosan davolash-profilaktika muassasalarida ko'rsatilayotgan servis xizmatlarini rivojlantirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirining 2016 yil 2 avgustdagi 340-sonli buyrug'i bilan tizimda qo'shimcha pullik servis xizmatlari joriy etildi va ushbu xizmatlar bemorlarga ularning hohishiga asosan ko'rsatiladi.

7. O'zbekiston Respublikasining «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish» Qonuniga asosan aholini tegishli axborot va ma'lumot bilan ta'minlash maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i bilan barcha tibbiyot muassasalarida pullik tibbiy xizmat ko'rsatish tartib va qoidalari, xizmat turlari va narxlari aks ettirilgan axborot burchaklari bo'lishi kerak.

Pullik tibbiy xizmat ko'rsatuvchi barcha muassasalar Sog'liqni saqlash vazirligi yoki hududiy boshqarmalar tomonidan berilgan ruxsatnomalarga ega bo'lishi lozim. Pullik tibbiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalarda fuqarolar bilan shartnoma tuzilishi va ularga pul to'langanligi to'g'risida kvitantsiya berilishi lozim.

*3-ilova*

**Mehnatga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimi joriy etiladigan davlat muassasalari tibbiyot va farmasevtika xodimlarining mehnatga haq to'lash bo'yicha guruhlari**

**I. Ambulatoriya-poliklinika muassasalari, sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati va boshqa muassasalar**

1. Qishloq vrachlik punktlari va ularning filialari (bo'limlari)
2. Shaharlardagi poliklinikalar (bolalar poliklinikasidan tashqari)
3. Statsionar o'rinlari bo'lmagan dispanserlar
4. Skrining-markazlar
5. Respublika bolalar va o'smirlar reproduktiv sog'lomlashtirish markazi
6. Salomatlik instituti va uning filiallari
7. Sanitariya epidemiologiya nazorati xizmati muassasalari (respublika, viloyat, shahar va tuman sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari, karantin va o'ta xavfli infeksiyalar profilaktikasi markazi va uning filiallari, dezinfeksiya stansiyalari)
8. Tibbiyot statistikasi byurosi

**II. Umumiy profilli statsionar tibbiyot muassasalari va boshqalar**

9. Ilmiy-tekshirish institutlari va oliy tibbiyot o'quv yurtlari klinikalari
10. Respublika kasalxonalari, tibbiyot-sanitariya qismlari
11. Respublika (viloyat, shahar) perinatal markazi
12. Viloyat, shahar va tuman kasalxonalari, jumladan tug'ruqxonalar, tug'ruqxona majmualari
13. Shahar va tuman markaziy kasalxonalari, qishloq uchastka kasalxonalari
14. Sud-tibbiy ekspertiza byurosi va uning filiallari
15. Patologoanatomik markazlar va ularning filiallari

16. Qon quyish stansiyalari
17. Sanatoriylar

### III. Ixtisoslashtirilgan statsionar muassasalar

18. Ixtisoslashtirilgan kasalxonalar, klinikalar, dispanserlar va markazlar:
18.1 Sil kasalliklari
18.2 Yuqumli kasalliklar
18.3 Onkologik kasalliklar
18.4 Teri-tanosil kasalliklari
18.5 Endokrinologik kasalliklar
18.6 Ruhiy kasalliklar
18.7 Ruhiy-asab kasalliklari
18.8 Narkologik kasalliklar
19. Respublika neyroxirurgiya, onkologiya (jumladan xospislar), allergologiya, suyak xastaligi va jarohat oqibatlarini davolash, yiringli xirurgiya va qandli diabet asoratlarini davolash, bolalar ortopediyasi tibbiyot markazlari
20. Ftiziatriya va pulmonologiya, epidemiologiya, mikrobiologiya va yuqumli kasalliklar, virusologiya, endokrinologiya va parazitologiya ilmiy tadqiqot institutlari klinikalari
21. Bolalar kasalxonalari va poliklinikalari
22. Bolalar uylari
23. Leprozoriylar

### IV. Shoshilinch va tez tibbiy yordam markazlari, tez yordam stansiyalari, OITSga qarshi kurash Respublika va mintaqaviy markazlari

24. Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi - uning viloyatlardagi filiallari, tumanlar (shaharlar) markaziy kasalxonalaridagi shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari
25. Tez tibbiy yordam stansiyalari
26. OITSga qarshi kurash Respublika va mintaqaviy markazlari.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 1-modda, 16-son, 265-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son, 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y. 52-son, 645-modda.

4. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'RQ 464-I-son. 29.08.1997. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.

5. O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi (02.09.93.) 913 XII-son Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 52-son, 686-modda.

6. O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-376-son. 25.09.2014. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 39-son, 488-modda.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'grisida"gi PF-5308-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi: 06/18/5308/0610-son. 23.01.2018.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25 yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313 son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/18/5468/1420-son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2007-yil 28 fevraldagi PQ-594-son Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametlari to'g'risida"gi PQ-2099-sonli qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametlari to'g'risida"gi PQ-2270-sonli qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabridagi "O'zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametlari to'g'risida"gi PQ-2455-sonli qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabridagi "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabridagi "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017 y., 28 (6722)-son; O'R QHT, 2017 y., 6-son, 70-modda

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-son Qarori. Xalq so'zi, 2017-y., 36 (6730)-son.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-son Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 201-modda.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori. O'zbekiston

Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda.

20. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi PQ-3042-son Qarori.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3304-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017 y., 07/17/3304/0037-son.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 984-modda.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3504-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2018 y., 07/18/3504/0654 son.

25. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat kilisb – eng oliy saodatdir. –T.: O'zbekiston. NMIU. 2015.

26. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

27. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Prezedentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'isblangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. \\ Xalq so'zi. 2016 yil. 8 dekabr.

28. Mirziyoyev Sb.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va sbaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 104 b.

29. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 20.09.2017.

## II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

30. Eshnazarov T.Sb. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi asosiari.. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2012. 304 b.

31. Fuqarolar uchun byudjet. O'zbekiston Respublikasi Molia vazirligi, BMTTD. T.: 2018.

32. FutaoHuang. Higher education financing: Trends and challenges. International Journal of Educational Development. January 2018, Pages 106-115

33. Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Monografiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.

34. Malikov T.S., Xaydarov N.H. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma – T.: "IQTISOD–MOLIYA", 2007.

35. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'mmlash: yutuqlar, tendensiya va istiqbollar. Ilmiy-ommabop risola. TMI. T.: 2016. B. 47.

36. Nurmuxamedova B.I., Kabirova N.V. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: IQTISOD MOLIYA. 2017. 228 b.

37. Po'latov D.X, Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2014. – 272 b.

38. Qosimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. 448b.

39. Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G.Joyce. Public budgeting systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. – P. 667.

40. Srojiddinova Z.X. Davlat byudjeti: umumta'lim maktablari xarajatlar smetasi. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013. – 102 b.

41. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik / TMI – T.: "Noshir", 2012. – 712 b.

42. Азизова И.А., Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш T.:«infoCOM.uz». 2010. 152 b.

43. Андреев А. Борисова Л. Плучевская Э. Региональная экономика: Учебник для вузов. СП.: Издательский дом "Питер". 2012. 456с.

44. Афанасьев М.П. Бюджет и бюджетная система (изд: 2), ЮРАЙТ, 2011. 782 стр.

45. Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебник для вузов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 703 с.

46. Ғайбуллаев О., Ўроков У. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни. Ўқув қўлланма. – Т.: "Baqtriya-press", 2015. – 168 б.

47. Нешитой А.С. Бюджетная система Российской Федерации (изд:10), Дашков и К. 2011. 336 стр.

48. Нурмухамедова Б.И., Срожиддинова Э.Х. Планирование расходов на образование в Республике Узбекистан. Т.: "InfoCapitalGroup", 2013. – 400 с.

49. Нурмухамедова Б.И., Срожиддинова Э.Х., Сугирбаев Б.Б. Ўзбекистон Республикасида таълим харажатларини режалаштириш. Ўқув қўлланма. – Т.: "InfoCapitalGroup", 2013. – 447 б.

50. Пешина Э.В. Фискальный и бюджетный федерализм: две системы управления публичными финансами. Финансовая аналитика: проблемы и решения. 11.2016. С. 34-52.

51. Пономарева К.А. Межбюджетное выравнивание в Российской Федерации и Федеративной Республике Германии. Вестник Омского университета. Серия "Право". № 2 (23) 2010. С. 56 60.

52. Родионова В.М и др. Финансы. –М.: Финансы и статистика, 2013. –С. 29 38.

53. Селезнев А.Э. Бюджетная система Российской Федерации. Магистр. 2011. 383 стр.

54. Сражиддинова З.Х. Бюджетная система Республики Узбекистан. Учебник. – Т.: «infoCOM.UZ», 2010. – 480 с.

55. Сражиддинова З.Х. Межбюджетные отношения. Учебное пособие. – Т.: «infoCOM.UZ», 2010. – 140 с.

56. Сражиддинова З.Х. Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими. Дарслик. – Т.: "infoCOM.UZ", 2010. – 500 б.

57. Тимошина Т.М. Экономическая история зарубежных стран: учебное пособие / под ред. проф. М.Н.Чепурина. – 9-ое изд., стер. – М.: Юстицинформ, 2013. -504 стр.

58. Файзуллаев Ё.Ш., Азизова И.А. Бюджетни ўрта муддатли режалаштириш. Т.:«infoCOM.uz». 2010. 152 б.

59. Финансирование школьного образования в Российской Федерации: опыт и проблемы. Всемирный банк/НФПК. М.: Изд. «Алекс», 2004. 16-стр.

60. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. /Под ред. д.э.н. академика В.К. Сенчагова. –М.: Проспект, 2007.

61. Юлдашева Н. Местные бюджеты: Учебно-методическое пособие. – Т.: ТФИ. 2015. – 362 с.

## III. Internet saytlari

www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)

www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

www.lex.uz (O'R qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi)

www.publicfinance.uz (O'zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi)

www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo'mitasi)

http://pfru.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi)

www.ziyonet.uz (O'zbekiston Respublikasi axborot ta'lim tarmog'i)

www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)

www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)

## MUNDARIJA

SO'ZBOSHI..... 3
KIRISH..... 7

**1-BOB. "DAVLAT BYUDJETI" FANIGA KIRISH**

1.1. "Davlat byudjeti" fanining predmeti, tarkibiy tuzilishi, maqsadi va vazifalari..... 10
1.2. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari..... 13
1.3. Davlat byudjetining mamlakat moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlari..... 24

**2-BOB. DAVLAT, IQTISODIY TARAQQIYOT VA DAVLAT BYUDJETI**

2.1. Jahon iqtisodiyotining milliy iqtisodiyot holatiga ta'siri. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi..... 32
2.2. Davlatning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri..... 39
2.3. Bandlik, ishsizlik, inflyatsiya va ularning davlat byudjetiga ta'siri..... 45
2.4. Mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni prognozlash va oldindan baholash. Iqtisodiyotning holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va vositalar..... 54
2.5. Fiskal va monetar siyosatning uyg'unligi, ularning davlat byudjetining holatiga ta'siri..... 67

**3-BOB. BYUDJET TUZILISHI VA BYUDJET TIZIMI**

3.1. Davlat tuzilishi shakllari va ularning mamlakatdagi byudjet tuzilishiga ta'siri. Byudjet tuzilishi modelleri..... 70
3.2. O'zbekiston Respublikasi byudjet tuzilishi asoslari. Byudjet tizimi. Byudjet tizimi byudjetlari to'g'risida tushuncha..... 75
3.3. Byudjet tizimi byudjetlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari..... 80
3.4. Konsolidatsiyalashgan byudjet tushunchasi, uni tuzishning zarurligi va maqsadi..... 84
3.5. Xorijiy davlatlarda byudjet tuzilishi va byudjet tizimi..... 89

## 4-BOB. DAVLAT BYUDJETINING HUQUQIY ASOSLARI


4.1. Byudjet munosabatlarining qonuniy-huquqiy asoslari, byudjet qonunchiligi ..... 97
4.2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, mazmum va ahamiyati ..... 100
4.3. Soliq kodeksi, uning davlat byudjetim shakllantirishdagi ahamiyati ..... 105
4.4. Mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni boshqarishdagi huquq va majburiyatlari ..... 110


## 5-BOB. DAVLATNING BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI


5.1. Byudjet siyosati, uning turlari, maqsad va vazifalari. Byudjet siyosatining taktikasi va strategiyasi..... 117
5.2. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi byudjet siyosatining rivojlanish bosqichlari ..... 121
5.3. O'zbekiston Respublikasining yaqin va o'rta istiqboldagi byudjet-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari..... 126
5.4. Xorijiy davlatlarda byudjet-soliq siyosati va uning yaxlitligini ta'minlash masalalari..... 129


## 6-BOB. DAVLAT BYUDJETINI BOSHQARISH


6.1. Davlat byudjetini boshqarish to'g'risida tushuncha. Boshqarish obyektlari, subyektlari, ularning guruhlanishi, asosiy vazifalari..... 138
6.2. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari..... 141
6.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning byudjet tizimini boshqarishdagi vakolatlari..... 145
6.4. Davlat byudjetim boshqarish bo'yicha xorij tajribalari..... 150


## 7-BOB. BYUDJETLARARO MUNOSABATLAR


7.1. Byudjetlararo munosabatlarning mohiyati, zarurligi va shakllari ..... 160
7.2. Byudjet tizimi byudjetlari daromadliligini tartibga solishda

byudjetlararo munosabatlarning ahamiyati ..... 169

7.3. Xorijiy davlatlarda byudjetlararo munosabatlarni tashkil qilish tajribalari ..... 175

**8-BOB. BYUDJET TASNIFI**

8.1. Byudjet tasnifining mohiyati, zarurligi va ahamiyati ..... 184
8.2. Byudjet tasnifining turlari ..... 186

**9-BOB. DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARI TIZIMI**

9.1. Davlat byudjeti daromadlarining iqtisodiy mazmuni va manbalari ..... 200
9.2. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi 203
9.3. Byudjet daromadlarining shakllanishida soliqlarning o'rni va ahamiyati ..... 207
9.4. Byudjet daromadlarining byudjet tizimi darajalari o'rtasida taqsimlanishi ..... 215
9.5. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibi va tuzilishi ..... 219
9.6. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari ..... 224

**10-BOB. DAVLAT BYUDJETI XARAJATLARI TIZIMI**

10.1. Davlat byudjeti xarajatlarining mohiyati va davlatning funksiyalari bilan bog'liqligi ..... 230
10.2. Byudjet xarajatlarining tarkibi va tuzilishi ..... 232
10.3. Byudjet xarajatlarining respublika byudjeti va mahalliy byudjetlardan amalga oshirilishi ..... 241

**11-BOB. DAVLAT BYUDJETINING HOLATI**

11.1. Davlat byudjetining holatlari to'g'risida tushuncha. Davlat byudjeti taqchilligi ..... 248
11.2. Byudjet taqchilligining shakllari. Taqchillikni keltirib chiqaruvchi omillar. Taqchillikni qoplash manbalari ..... 251
11.3. Byudjet taqchilligi to'g'risidagi zamonaviy kontsepsiyalar, ularning mazmuni, xususiyatlari va ahamiyati ..... 254
11.4. Xorijiy mamlakatlarda byudjet taqchilligi, taqchillikni

boshqarish va tartibga solish tajribalari..... 259

## 12-BOB. BYUDJET JARAYONI

12.1. O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etish asoslari va byudjet jarayoni bosqichlari..... 271
12.2. Davlat byudjeti loyihasini tuzish..... 274
12.3. Byudjet loyihasini ko'rib chiqish va qabul qilish..... 279
12.4. Byudjetni ijro etish va nazorat qilish..... 282
12.5. Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash..... 286

## 13-BOB. DAVLAT BYUDJETI G'AZNA IJROSINI TASHKIL QILISH

13.1. Davlat byudjeti g'azna ijrosining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari..... 290
13.2. Davlat byudjeti g'azna ijrosining huquqiy asoslari va tashkiliy elementlari..... 299
13.3. Davlat byudjetining g'azna ijrosini tashkil qilishda Moliya vazirligi G'aznachiligining o'rni va ahamiyati..... 307
13.4. G'aznachilikda yuridik va moliyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olish va to'lovlarni amalga oshirish..... 314

## 14-BOB. BYUDJET TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH ASOSLARI

14.1. Byudjet tashkilotlari haqida tushuncha, ular xo'jalik-moliyaviy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari..... 327
14.2. Xarajatlar smetasi – byudjet tashkilotlari moliyaviy rejasi sifatida. Smetaning elementlari. Smetalarning turlari..... 333
14.3. Smetalarni tuzish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va moliyalashtirish tartibi ..... 338
14.4. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, manbalari va ishlatish yo'nalishlari..... 350

## 15-BOB. DAVLAT BYUDJETINING TA'LIM TIZIMI XARAJATLARI

15.1. Uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishi, uning asosiy

turlari..... 358
15.2. Ta'lim tizimi muassasalarini moliyaviy ta'minlashda davlat byudjeti va boshqa manbalarning ahamiyati. Ta'lim tizimi xarajatlarining respublika byudjeti va mahalliy byudjetlardan amalga oshirilishi..... 366
15.3. Ta'lim tizimida jon boshiga (tarbiyalanuvchi, o'quvchi, talaba soniga) qarab moliyalashtirish usullarining joriy etilishi..... 369
15.4. Maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish..... 376
15.5. Umumta'lim maktablari xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari... 385
15.6. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limi muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirishning xususiyatlari..... 406
15.7. Xorijiy davlatlarda ta'lim tizimini moliyalashtirish tajribalari..... 411

## 16-BOB. DAVLAT BYUDJETINING SOG'LIQNI SAQLASH XARAJATLARI

16.1. Sog'liqni saqlash sohasidagi davlatning majburiyatlari va sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari..... 423
16.2. Sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarini moliyalashtirish manbalari. Sog'liqni saqlash tizimi mussasalarini saqlash va rivojlantirishda davlat byudjetining ahamiyati..... 432
16.3. Davlat sog'liqni saqlash muassasalarining tarkibi, ular xarajatlarini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishning xususiyatlari..... 443
16.4. Xorijiy davlatlarda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tajribalari..... 457

## 17-BOB. DAVLAT BYUDJETINING IJTIMOIY TA'MINOT XARAJATLARI

17.1. Ijtimoiy ta'minotning mohiyati, vazifalari va ahamiyati..... 466
17.2. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy ta'minot tizimining moliyaviy manbalari..... 473
17.3. Ijtimoiy ta'minot xarajatlarini davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlash..... 478

17.4. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy va moliyaviy asosiari ..... 487

## 18-BOB. DAVLAT BYUDJETINING AHOLINI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLASH XARAJATLARI

18.1. Aholini ijtimoiy himoya qilishning davlat tomonidan kafolatlanganligi ..... 494
18.2. Davlatning ijtimoiy himoya dasturlarini moliyaviy ta'minlash manbalari. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda davlat byudjetining o'rni va ahamiyati ..... 504
18.3. Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tarkibi va tuzilishi ..... 510
18.4. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning xorij tajribalari ..... 518
Tayanch so'z va iboralar bo'yicha glossariy ..... 522
Ilovalar ..... 536
Foydalanilgan adabiyotlar ..... 561

**NURMUXAMEDOVA BARNO ISMAILOVNA**

# DAVLAT BYUDJETI

*O'quv qo'llanma*

*Muharrir* N. Artikova
*Badiiy muharrir* K. Boyxo'jayev
*Kompyuterda sahifalovchi* Z. Ulug'bekova

Nashr lits. AI¹ 305. Bosishga ruxsat etildi 25.12.2018.
Qog'oz hichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i, 33,1.
Hisob-nashr tabog'i 34,5. Adadi 50.
17-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60ª.

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo'yliq, 4-mavze, 46.

ISBN 978-9943-13-723-3